

HAMID ZIYOYEV

ASARLAR TO‘PLAMI






RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA
MA'RIFAT KENGASHI MILLIY G'OYA VA
MAFKURA ILMIY-AMALIY MARKAZI
O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI

HAMID ZIYOYEV

**BUYUK
AMIR TEMUR
SALTANATI VA
UNING TAQDIRI**



Toshkent «Ma'naviyat» 2008

Ushbu kitob buyuk Amir Temur shaxsi va uning markazlashgan davlat tuzish yo'lidagi faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif bu borada tarixiy manbalarga asoslangan holda fikr yuritib, bu mavzuning yangi qirralarini ochishga harakat qilgan. Kitob o'quvchilarga manzur bo'ladi, — degan umiddamiz.

3-65

Ziyoyev, Hamid

Buyuk Amir Temur saltanati va taqdiri. O'zbekiston FA Tarix Instituti
— Toshkent: ma'naviyat, 2008, -136 b

BB 63-3 (5Y) 4

3 **4702620204**
M25(04)-08

ISBN 978-99-43-04-061-8

«Ma'naviyat» 2008



KIRISH

Mustaqillik yillarida qadimiy tariximizni, shu jumladan, tarixiy shaxslarning faoliyatini o'rganish va targ'ib etishga chinakam imkoniyat yaratildi. Natijada ko'p ilmiy va ommabop ishlar nashr etildi. Ular orasida Amir Temurga bag'ishlangan asarlar alohida o'rinni egallab turibdi. Biroq buyuk ajdodimizning faoliyati shu darajada serqirra va keng qamrovliki, bu mavzuning yoritilmagan qirralari oz emas. Mazkur kitobda avvalambor Amir Temurning sobiq mustabid tuzum davrida nohaq qoralab kelingan nomini oqlash va xotirasini abadiylashtirishga tegishli masalalar tahlil qilindi. Xususan, shaxsan yurtboshimiz Islom Karimovning tashabbusi va bevosita ishtirokida Amir Temurning «oqlangan»ligiga doir masalalarni yoritishga e'tibor berildi.

Ma'lumki, odatda u yoki bu hukmdorning aql-idroki, fe'l-atvori, bilimi va dunyoqarashiga monand ravishda uning faoliyati shakllanadi. Buni Amir Temur misolida ham ko'rish mumkin. U tabiatan o'ta qobiliyatli, o'tkir zehqli, mard, jasoratli, tadbirkor va xalqparvar bo'lganidan uzoq vaqt mo'g'ul mustamlakasi ostida qolgan mamlakatda qudratli saltanat barpo etadi. Lekin ba'zi bir tarixiy asarlarda, haqiqatga mutlaqo zid ravishda, Amir Temur «kallakesar», «vahshiy» hukmdor sifatida ta'riflandi. Bunday fikrlarning soxta, asossiz ekanini ko'rsatish uchun ushbu kitobda Sohibqiron yuksak odob-axloq, adolat, insonparvarlik va rahm-shafqat singari oliy fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan hukmdor bo'lganini isbotlaydigan ma'lumotlar keltirildi. Shuningdek, u tuzgan davlatning mafkurasi va yo'nalishi haqida fikr yuritildi.

Amir Temurning harbiy yurishlari sababi va maqsadi xolisona tahlil qilinmay qattaq qoralash hukm surgan edi. Aslida ahvol boshqacha bo'lib, Amir Temur siyosiy va iqtisodiy sabablardan kelib chiqqan holda adolatli harbiy yurishlarni uyushtirgani ko'rsatildi.

Yaqin vaqtlargacha O'zbekistonga Qur'oni karimning asl nusxasi kim tomonidan, qachon va qayerdan keltirilgani noma'lum edi. Bu masalaga ham aniqlik kiritilib, uni Amir Temur Oltin O'rdadan olib kelgani bayon qilindi.

Amir Temur davrini o'rganishda ispan elchisi Klavixoning kundaligidagi ma'lumotlarning ahamiyati beqiyos kattadir. Shu bois, ular asosida o'sha davrdagi buyuk o'zgarish va rivojlanishlar xususida ham so'z yuritildi.

Temuriylar davlatining zaiflashishi va shayboniylar tomonidan bosib olinishi, xonliklar davrida taraqqiyot barbod qilinishi va o'lkaning inqirozga muhtalo bo'lishiga doir masalalar ham ko'rildi.

Kitob, asosan, yurtimizdagi tarixiy manbalar asosida yozildi. U o'quvchilarning buyuk davlat arbobi, mohir lashkarboshi va taraqqiyot jarchisi Amir Temur haqidagi bilimi va tasavvurini bir oz bo'lsada boyitishga xizmat qilsa, mamnun bo'lur edik.



AMIR TEMURNING NOMI, QADR-QIMMATI VA XOTIRASINING ABADIYLASHTIRILISHI



Alloh taoloning marhamati ila o'zbek xalqiga shunday jannatga qiyos etgulik zamin berilganki, bunaqasi jahonda kam uchraydi. Avvalambor yurtimizda qish, bahor, yoz va kuzdan iborat to'rt faslni bir yilning o'zida ko'rish mumkin. Bu inson salomatligi va farovon hayotini ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, shunday mamlakatlar borki, yil mobaynida issiqlik hukm surishidan qish va bahorni ajratolmaysiz yoki sovuqlik va salqinlik gashtini surolmaysiz. O'zbekiston esa o'zining ajoyib iqlimi, serquyoshligi, musaffo havosi, zilol suvlari, unumdor yerlari, shirinlikda tengi yo'q bog'dorchilik va polizchilik mahsulotlari, oltin, kumush, mis va boshqa boyliklari bilan shuhrat qozongan.

Shu tariqa O'zbekiston ajoyib-g'aroyib mamlakat sifatida nom chiqarib, jahongashta hukmdorlarning diqqatini jalb etgan. Ular qanday bo'lmasin, bu zaminni bosib olishga uringan va boyliklarini qo'lga kiritish uchun hyech narsadan tap tortmagan. Ular minglab odamlarni qirib, shahar va qishloqlarimizni vayron etib, yuz yillar mobaynida yurtimizda hukmronlik qilgan.

Masalan, miloddan oldingi asrlarda eronlik Ahmoniylar 200 yil, so'ngra grek-makedoniyaliklar 180 yil, Arab xalifaligi salkam 200 yil, mo'g'ullar 150 yil, Chor Rossiyasi va Sovet davlati 130 yil bu

o'lkani o'z panjalarida ushlab turgani tarixdan yaxshi ayon. Umumlashtirganda, bu raqamlar 850 yildan oshadi. Ammo qirg'in-barotlar va katta talafotlar o'zbek xalqini yer yuzidan sidirib tashlay olmadi. Chunki bu xalq «olovda yonmaydigan va suvda cho'kmaydigan» qilib yaratilgan ekanki, dahshatli va fojiali hayotning asiriga aylanmay, mustaqillik va ozodlikni tiklashga qaratilgan kurashni davom ettiraverdi.

Xo'sh, shunday ekan, nima uchun ozodlik kurashlari mag'lubiyatga uchrab, bosqinchilar yuz yillab hukmronlik qilgan?

Bunga birinchi navbatda taxtning merosxo'rlik tartibi va uning uchun olib borilgan urushlar sabab bo'lgan. Ma'lumki, hukmronlik qilayotgan sulolada hamma vaqt ham otasi yoki buvasiga o'xshagan aql-idrokli va iste'dodli farzand tug'ilavermagan. Shunga qaramay, merosxo'rlik qonuni bo'yicha noqobil farzand ham taxtni egallayvergan. Bu xildagi hukmdorlar o'zlarining qobiliyatsizligi va ojizligi tufayli shaxsiy manfaat va huzur-halovatini umumdavlat manfaatidan ustun qo'yib ish yuritgan. Natijada inqiroz va qoloqlik yuzaga kelgan. Hukmdorlardagi ko'pxotinlik va serfarzandlik ham doim zarar keltirgan. Otasi bir, onasi boshqa farzandlarning har biri «taxt menga tegishli» degan fikr bilan yashab, uni egallash uchun har xil fitnalar, hatto aka-ukalarni o'ldirish yoki o'zaro birodarkushlik qilishdan ham qaytmagan. Tabiiyki, bunday taxt talashish va janjallar juda katta fojialarga olib kelgan. Mamlakatda parokandalik va tarqoqlik, xavotirli holat va notinchlik hukm surib, hokimiyat boshqaruvi va davlat qudratiga salbiy ta'sir etgan.

Qo'shin orasida tarafkashlik va o'zboshimchalik yuzaga kelib, mamlakat mudofaasi zaiflashgan. Bu esa bosqinchilarga juda qo'l kelgan. Diniy fanatizm ham mustaqillik va ozollikning barbod bo'lishiga olib kelgan asosiy omillardan biri bo'lgan. Yuqorida sharhlangan sabablar bilan bir qatorda yana shuni hisobga olish kerakki, ozodlik kurashlariga akl-idrokli, jasoratli, vatanparvar va mohir tashkilotchi boshchilik qilgandagina g'alabaga erishilgan. Aks holda ular tor-mor etilavergan. Afsuski, oliy fazilatlar sohibi bo'lgan munosib hukmdorlar xalq tarixining ayrim davrlarida maydonga chiqadi, xalos. Bunga ishonch hosil qilish uchun keyingi ming yillik tarixga nazar tashlansa, bas. Bu ko'p asrlik davr mobaynida tom ma'nodagi buyuk davlat arboblari 1370 va 1991 yillarda ko'zga tashlanib, Vatan mustaqilligi tiklandi. Ularning birinchisi mo'g'ullar hukmronligiga

zarba bergan Amir Temur va ikkinchisi vatanni qizil imperiya panjasidan qutqargan Islom Karimovdir.

Shuni aytish lozimki, o'tmish zamonlarda ham Soqibqironning jo'shqin faoliyatini qadrlab, xotirasini abadiylashtirishga hyech qachon ahamiyat berilmagan. Hatto uning farzandlari va keyingi vorislari ulug' ajdodining qilgan vasiyatini inobatga olmay, o'zaro urushlarni qizitib, saltanatni borgan sari zaiflashtirib borgan. Uning kiyim-boshlari, yarog'-aslahalari, nihoyatda boy va nodir rasmiy hujjatlarini saqlashni xayollariga ham keltirmadilar. Birorta dargoh uning nomi bilan yuritilmadi, xotirasini ta'minlaydigan tadbir ko'rilmadi. Xonliklar davrida Sohibqironning nomi deyarlik tilga olinmadi. Sho'ro davrida esa Sohibqiron faoliyati soxtalashtirildi va qattiq qoralandi. Faqat jadidlar Amir Temurga mustaqillik, ozodlik ramzi sifatida qaradilar. Bunga Fitratning «Temur sag'anasi» asari qahramoni nomidan izhor etgan quyidagi so'zlari dalildir: «Xoqonim, ezilib talangan, talanib yiqilgan, yiqilib yaralangan turk elining bir bolasi sendan ko'mak istab keldi. Bog'lari buzilgan, gullari so'lgan, bulbullari uchirilgan Turonning qorovuli senga arz etarga keldi. Bag'rim yoniq, yuzim qaro, ko'nglim siniq, bo'yim bukik, sening ziyoratingga keldim, Sultonim. Egilgan boshim, qisilgan vujudim, kuygan qonim, o'rtangan jonim uchun bo'sag'angdan davo izlab keldim, Xoqonim! Yuz yillardan beri jafo ko'rib g'am chekib kelgan turkning qonli ko'z yoshlarini etaklariga to'karga keldim. Qorong'ular ichra kelgan o'zbek ko'zlari uchun tuprog'ingdan surma olgani keldim. Turkning nomusi, e'tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning oyoqlari ostida qoldi. Turkning yurti, ulog'i, o'chog'i Turoni yot qo'llariga tushdi. Turkning belgusi, ongi, o'ylovi, ziyrakligi jaholat o'lkasiga ketdi. Sening qiliching bilan dunyo egasi bo'lgan turk tinchgina yotoq topa olmay qoldi».

Mazkur satrlarda xalqimiz nihoyata fojiali va ayanchli hayoti shu darajada aks ettirilganki izohlashga o'rin yo'q.

Mustaqillik yillarida shaxsan Yurtboshimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Amir Temurning buyuk davlat arbobi sifatidagi tariximizdagi buyuk o'rni, bu ulug' zotning muborak nomi, qadr-qimmatini birinchi marotaba o'miga qo'yildi. Uning faoliyatiga bag'ishlangan ko'p ilmiy va ommabop kitoblar, risolalar va maqolalar nashr etildi. Ajoyib haykallar o'rnatilib, ko'chalar va boshqa joylarga nomi qo'yildi.



Toshkentda haykalning o'rnatilishi

Dastavval haykal 1993 yil 31 avgustda Toshkent shahrida qo'yildi. Yurtboshimiz Islom Karimov uning ochilishiga bag'ishlangan marosimda nutq so'zlashdi:

Aziz Vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar!

Bugun biz o'zbek xalqi hayotida unutilmas tarixiy bir voqyeaning guvohi va ishtirokchisi bo'lib turibmiz.

Biz yashab turgan shu muqaddas zaminda buyuk bir davlatga asos solgan, olamni tebratgan, nomi yetti iqlimda mashhur bo'lgan ulug' bobokalonimiz Amir Temur haykalini ochish marosimiga yig'ildik.

Bugun Sharqda tengi yo'q sarkarda mustaqillik, istiqlol sharofati bilan o'z vataniga qaytdi.

Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o'z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeyini munosib o'ringa qo'yish imkonidan mahrum edi.

Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo'yoq bilan o'chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g'urur tuyg'usini yo'qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko'ndirish edi. Lekin o'zbek xalqi o'z ajdodlarini, o'z bahodirlarini unumadi, hamisha yuragida, qalb to'rida saqladi.

Muhammad Tarag'ay Bahodir o'g'li Amir Temur yoshlik chog'ida mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Quryoni karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Iymon-etiqodli, halol-pok inson bo'lib yetishdi.

U yoshligidan boshlab o'z oldiga ona yurtini mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo'ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi. Mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko'tarib, dunyoga mashhur qildi.

Amir Temur davlati qurilishi, harbiy sanyati ko'p asrlar davomida Sharqu G'arb davlatlariga o'rnak va andoza bo'ldi. Uning zamonida madaniyat, ilmu fan, memorchilik, tasviriy san'at,

musiqa, she'riyat beqiyos rivoj topdi, xalqimizning ko'p an'analari takomilga yetdi. Amir Temurning madaniyat va din ahllariga ko'rgazgan cheksiz mehr-muruvvati ayniqsa ibratlidir.

Ko'hna tarix sahifalari buyuk bobomizning millat va el-ulus manfaatini bobida chekkan mislsiz zahmat hamda ko'rsatgan shijoatlariga guvohlik beradi.

Insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi. Olamning qariyb yarmiga jahongir ersada, u kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini teran angladi.

Bugun bunyod etilgan ulug' bobokalonimiz haykalida teran ramz bor — go'yoki jahongir tulporining jilovini tortib turibdi, qilichsiz qo'lini oldinga cho'zib jahon xalqlariga omonlik sog'inmoqda. «Kuch - adolatlidir!» demoqda.

Donishmand ajdodimizning mazkur so'zlarini mana shu muhtasham yodgorlik poyiga zarhal harflar bilan bitar ekanmiz, zamonlar tajribasidan o'tgan bu bebaho hikmatning qalbimizda doimo aks sado berib turishini orzu qilamiz.

Aziz yurtdoshlar!

Bugun — o'zbek xalqi tarixida ulug' kun. O'zbekiston mustaqilligiga, muborak istiqlolimizga ikki yil to'ldi.

Hammangizni - keksayu yoshni, butun O'zbekiston ahlini shu buyuk sana bilan chin qalbidan, har biringizni alohida bag'rimga bosib qutlamoqqa ijozat bergaysiz!

Bu kunga yetganlar bor, yetmaganlar bor. Shuning uchun ham ozodlikni sog'inib, ozodlik yo'lida kurashib o'tgan ajdodlarimizni duolar bilan eslashimiz ham qarz, ham farzdir. Ajdodlarimizning pok ruhlari shod bo'lsin, ularning orzulariga munosib va sadoqatli bo'laylik.

Istiqlol muborak, aziz yurtdoshlar! Ozodligimiz abadiy bo'lsin! Muhtaram do'stlar!

Ikki yillik istiqlol davrida jonajon diyorimizda bo'layotgan o'zgarishlar xalqimizga ishonch va umid bag'ishlamoqda.

Buyuk ayyom arafasida Temur bobomiz haykalining ochilishi o'ziga xos ramziy bir ma'noga egadir.

Vatanimiz istiqlolini yanada mustahkamlash, uni himoya qilish,



yurtimiz sha'ni-shavkatini yuksaltirish, adolat, insof va diyonat hukmron bo'lgan erkin jamiyat, mehnatkash xalqimizga munosib farovon hayot qurish bizning insoniy va fuqarolik burchimizdir.

Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, imon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalbimizda kelajakka ishonch bo'lmog'i shartdir.

Mamlakatimizning markazida, qadimiy va go'zal poytaxtimiz — jonajon Toshkentimiz o'rtasida qad ko'targan ulug' bobomiz siymosi xalqimizga faxr va g'urur baxsh etmog'i muqarrar!

Bu siymo mard, tanti, halol va g'ayratli xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, imon-oqibatli bo'lishda, qudratli kelajagimizni qurishda bizga yangi-yangi kuch-quvvat va shijoat bag'ishlaydi.

Barchamizga shu yo'lda Alloh madadkor bo'lg'ay!

Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi

Amir Temur faoliyatini jahon uzra taratishda, qadr-qimmatini va xotirasini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishda Temuriylar tarixi Davlat muzeyining qurilishi katta ahamiyat kasb etdi. Go'zallikda tengi yo'q muzeyning shon-shuhrati olam uzra taraldi.

1996 yil 18 oktabrda Yurtboshimiz Islom Karimov muzeyning ochilishida Sohibqironning faoliyatini quyidagi tarzda juda yuqori baholadi:

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Hurmatli mehmonlar!

Qadrli oqsoqollar, muhtaram ulamolar!

Bugungi muborak juma tongida Alloh taolo barchamizni yana bir xayrli kunga yetkazdi. Sohibqiron bobomiz — hazrati Amir Temur ruhini shod qilib, u zot tavalludining tabarruk 660 yillicini nishonlamoqdamiz.

Biz bugun muqaddas islom dinimiz buyurgan bir farzni — o'tgan ajdodlarimizning ruhlarini xotirlash va shod etishdek ezgu burchimizni ado etmoqdamiz.

Muazzam poytaxtimiz Toshkent markazida ulug' Amir Temur nomi bilan ataluvchi go'zal hiyobonda yana bir tarixiy voqyeaning guvohi bo'lib turibmiz. Sohibqiron bobomiz va uning shavkatli avlodlariga bag'ishlab bunyod etilgan muhtasham koshonaning ochilishi marosimida qatnashmoqdamiz. Bugungi marosim otabobolarimizdan qolgan qadimiy odatlarga binoan xatmi Qur'on bilan boshlandi, yurtga osh tarqatilib duoi takbirlar qilindi.

Ko'pning duosi — ko'l, degan naql bor xalqimizda. Umid qilamizki, shu qutlug' ayyomda pokiza niyat bilan qilgai xayrli amallarimiz, olijanob tilaklarimiz Tangrimiz dargohida qabul bo'lg'usidir.

Chunki ulug' bobolarimizning ruhlarini shod etsak, ularning arvohlarini rozi qilsak, yurtimizga fayz, qut-baraka yog'iladi, xalqimizniig rizqi butun, iymoni mustahkam bo'lg'ay, inshoolloh.

Xalqimiz tarixida insoniy kamoloti va ijtimoiy faoliyati bilan

dovruq qozongan, millatimiz faxri bo‘lmish ulug‘ zotlar benihoya ko‘p. Ammo ular qatorida yulduzlar aro quyoshday charaqlab turgan bir buyuk zot borki, u Vatanimiz kechmishi, buguni va ertasida behad yuksak o‘rin tutadi.

Ul muhtaram inson Sohibqiron Amir Temur hazratlaridir. Mamlakatimiz istiqolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadimida ul buyuk zot ruhi bizga hamrohu hamnafas bo‘lib bormoqda.

Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, deydilar. Bunga qo‘shimcha qilib Sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko‘zгusidan o‘tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg‘usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin.

Umrining mazmunini «Millatning dardlariga darmon bo‘lishdan iborat» deb bilgan Amir Temur xalqimizning ana shunday ardoqli, ulug‘ farzandidir.

Muhtaram jamoat!

Hammamiz yaxshi bilamizki, tarixda mashhur jahongirlar ko‘p o‘tgan. Lekin ayting, dunyoning qaysi yerida, qaysi zamonda Amir Temurdek buyuk sarkarda, Amir Temurdek buyuk davlat arbobi, Amir Temurdek ilm-fan, ma‘naviyat va ruhoniyyat homiysi bo‘lgan?!

Bugun — hayotimizning barcha jabhalarida adolat va haqiqat qaror topayotgan tarixiy bir davrda shu fikrni alohida takidlashni istar edim:

Amir Temur bizning sha‘n-shavkatimiz, g‘urur-iftixorimizdir.

Amir Temur — xalqimiz dahosining timsoli, ma‘naviy qudratimiz ramzidir.

Aziz do‘stlar!

Biz hazrati Temurni buyuk bunyodkor deb boshimizga ko‘taramiz. Ro‘yi zaminning sayqali bo‘lmish Samarqandda, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent va Sohibqiron qurgan bepoyon saltanatning boshqa hududlarida bunyod etilgan nodir me‘moriy obidalar, tengsiz bog‘urog‘lar Temurbek bobomizga xos amaliy shijoat samarasidir.

U benazir zotning o‘smirlik yillari mo‘g‘ul istibdodi avjiga

chiqqan yillarga to'g'ri keldi. Bu paytda Movarounnahrday gullab-yashnagan poydor yurt tarixiy nomini ham yo'qotib, mustamlaka o'lkasiga, chig'atoy ulusiga aylanib qolgan edi. Masjidu madrasalar, kutubxonalar vayron qilingan, sug'orish inshootlari ishdan chiqqan, son-sanoqsiz soliqlar, kelgindi va mahalliy amaldorlarning jabr-zulmi xalqning sillasini quritgan edi.

Bu kabi cheksiz adolatsizlikdan yosh Temurbekning qanchalar iztirob chekkanini bizning avlodimiz — siz bilan biz ayniqsa chuqur his etamiz. Chunki oradan 6 asr o'tib, xuddi shunday ko'rgiliklar bizning ham boshimizga tushdi.

Shavkatli ajdodimizning o'lmas xizmatlari shundaki, u murakkab tarixiy sharoitda xalqning boshini qovushtira bildi. Istilochilarga qaqshatqich zarba berib, Turkiston zaminida ilk bor istiqloq bayrog'ini baland ko'tardi. Parokanda mamlakatlar, ellar, elatlarni birlashtirib, markazlashgan qudratli saltanat tuzdi.

Adolat kuchda emas, kuch adolatdadir, degan shior Amir Temur saltanatining barcha hududlarida birday amal qilib, axloqiy-ma'naviy mezonga aylandi.

Yigirma asrdan ortiq tarixga ega bo'lgan Toshkent Amir Temurning muqaddas qadamjolaridan biridir. Jannatmakon bobomiz qadim Shoshga alohida e'tibor bilan qaragan. Shu zaminda o'tgan Shayx Zayniddin bobo, Zangiota singari ko'plab mo'tabar zotlarning maqbaralarini obod qilib, ularning ruhlarini shod etgan.

Olti yuz yildan so'ng biz - Amir Temurning bugungi vorislari Sohibqironning tabarruk nomlarini tiklash, ruhi poklarini shod etishdek savobli va sharaflil ishga qo'l urib, shahri azim Toshkentning qoq markazida bobo-kalonimizga haykal o'rnatdik.

Bugun zo'r shodiyona bilan ochilayotgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi Sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiy adolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir.


Aytish mumkinki, Amir Temur xiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir.

Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening bu so'zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag'a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi.

Kimki O'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Aziz yurtdoshlarim!

Fursatdan foydalanib, barchamizning nomimizdan, el-yurtimiz nomidan shu oliy imoratni bunyod etishda jonbozlik ko'rsatgan barcha insonlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman.



Qadrli vatandoshlar!

Amir Temurning bashariyat oldidagi o'lmas xizmatlarini ma'rifatli jahon munosib baholab kelmoqda. Sohibqiron yubileyining YUNESKO tomonidan xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani ana shu e'tirofning yorqin dalilidir.

Shunday quvonchli va hayajonli damlarda Amir Temurdek buyuk zot mansub bo'lgan millat farzandlari ekanimizni, tomirimizda Amir Temur shijoati jo'sh urayotganini o'ylasak, anglasak, qalbimizni chinakam iftixor tuyg'ulari qamrab oladi.

Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy manosi — Vatan ozodligi, Vatanga muhabbat degan oliy qadriyatlardan iboratdir.

Sohibqiron bobomizning ruhiyati istiqlol va hurlik, erkinlik g'oyalari bilan tabiiy va go'zal bir ravishda uyg'unlashib ketgan. U hatto umrining so'nggi onlarida ham zurriyotlariga qarata «Istiqlol bilan mulku millat, lashkar va raiyatni boshqaringiz» deb vasiyat qilgan.

Chuqurroq o'ylab qarasak, bu vasiyat aynan bizlar uchun - buyuk Sohobqironing bugungi avlodlari uchun aytilgan.

Hamisha el g'amini, yurt g'amini o'ylab yashagan Sohobqiron yovlar oyog'i ostida toptalgan o'lkani dunyoning eng qudratli saltanatiga aylantirgan edi. Kelinglar, aziz do'stlar, barchamiz yakdil bo'lib, halol mehnatimiz, aqlu zakovatimiz, Vatanga muhabbatimiz bilan O'zbekistonni jahon havas qiladigan buyuk davlatga aylantiraylik! Bu yo'lda bobokalonimizning: «Adolat va ozodlik — dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin» degan dono o'gitlari doimiy shiorimiz bo'lsin!

Muhtaram jamoat!

Bugungi marosim ham hademay tarix mulki bo'lib qoladi. Oradan yillar, asrlar o'tadi, ammo Xudoning marhamati bilan, adolat bilan tiklangan ulug' ajdodlarimizning tabarruk nomlari abadiy yashaydi.

Shu bois mening iymonim komilki: Sohobqiron dahosi yo'lni yulduz kabi charaqlab, bizni doimo olijanoblik va bunyodkorlikka chorlaydi!

Bu dunyoda xalqimiz, millatimiz, O'zbekistonimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayot!

Ilohim, hazrati Amir Temur e'zozlagan g'oyalar - shijoat va mardlik, adolat va qat'iyat har birimizga hamisha hamroh bo'lsin! Jahonga Amir Temurdek buyuk dahoni bergan xalq mangu yashasin, baxtu saodati ziyoda bo'lsin!

Barcha ezgu ishlarimizda Tangrimizning o'zi madadkor bo'lsin!

Samarqandda haykal o'rnatilishi

Amir Temur davlati Samarqandda yuzaga kelib va rivojlanib saltanat darajasiga ko'tarilgan edi. Bu shahar uning bevosita ishtirokida jahondagi eng yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Hashamatli binolar, ajoyib bog', ko'cha va bozorlar qurilib, obodonchilik eng yuqori cho'qqiga ko'tarildi.

Biroq Samarqand xonliklar, chor hukumati va sovet davrida o'zining shon-shuhratini yo'qotib, obodonchilik va tarixiy yodgorliklar achinarli holatga tushib qoldi.

Yurtboshimizning harakati tufayli tarixiy yodgorliklar ta'mirlandi. Hashamatli binolar qurildi, shahar va atrof hududlarda katta obodonchilik ishlari amalga oshirildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining filiali ochilib va oliy o'quv yurtlarining salmog'i oshib, shahar yirik ilmiy markazga aylandi. Amir Temur maqbarasining, Bibixonim masjidi va boshqa ko'pgina yodgorliklarning ta'mirlanishi va Sohobqiron haykali o'rnatilishi nur ustiga nur yog'ilganidek bo'ldi.

1996 yil 18 oktabrda Yurtboshimiz Islom Karimov haykalning ochilishida so'zga chiqib, Sohobqironning Samarqandni yer yuzining sayqaliga aylantirishdagi katta xizmatlarini taqdirlab, shunday dedi:

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Qadrli samarqandlik birodarlar!

Avvalo, bugungi fayzli va tarixiy bir kunda shahri azim Samarqandga, barcha viloyat ahliga beqiyos hurmatimni, farzandlik, mehrimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Ajdodlarni xotirlash ularning ruhini shod etgan xalqimizning azaliy udumidir. Bu muqaddas an'ana avlodlarni ezgulikka, o'tganlar oldidagi vorislik burchini ado etishga chorlaydi.

Bugun siz bilan ana shunday qutlug' daqiqalarda uchrashib turibmiz. Fursatdan foydalanib, imon-e'tiqodli faxriylarimizga, Samarqand ahliga, ulug' bobokalonimiz Amir Temur arvochini

shod etish uchun yig'ilgan barcha insonlarga samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Aziz do'stlar!

Qachonki biz Amir Temur hazratlarini yod etar ekanmiz, Sohibqiron saltanatining poytaxtini ham ehtirom bilan tilga olamiz. Chunki Amir Temur va Samarqand tushunchalarini bir-biridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Samarqand - xalqimiz, millatimiz dovrug'ini butun dunyoga taratgan, ming-ming yillik tarixga ega ilohiy maskanimizdir.

Samarqand — o'tmishi sharaflı, buguni saodatlı, kelajagi abadiy shahardir.

Samarqandning ana shu olamshumul shuhratiga, tengsiz salobatining yuksalishiga, shonli tarixiga beqiyos hissa qo'shgan zot bobomiz Amir Temurdir.

XIII asrning birinchi yarmida Samarqand bosqinchilar zulmi tufayli xarobalikka yuz tutgan, qal'alar, masjidlar, madrasalar qarovsiz qolgan edi. O'sha zamonda yurtimizga kelgan bir arab sayyohining shohidlik berishicha, Samarqand shunday huvillab yotardiki, avvalgi aholisining chorak qismi qolgan, me'moriy obidalar vayronaga aylangan, ariqlar ko'milib ketgan, shahar suvsiz, bog'lar qurib bitgan edi.

Sohibqiron bobomiz ana shunday murakkab bir davrda taxt tepasiga keldi.

U Samarqandning gullab-yashnashi uchun butun umrini sarf etdi. Bobokalonimiz Samarqandni jahondagi eng katta va qudratli davlatning poytaxti sifatida buyuk nufuz kasb etishini, mislsiz go'zal va obod bo'lishini, har tomonlama taraqqiy topishini orzu qilgan edi. Bu ezgu niyat Samarqand qiyofasida o'z ifodasini topdi.

Hazrati Temur butun dunyodan va o'z yurtimizdan mohir me'morlarni, qo'li gul hunarmandlarni o'z poytaxtini barpo etishga jalb qildi, ularni ana shu olijanob maqsad yo'lida birlashtirdi. Ularning salohiyat va aql-zakovatini safarbar etib, ijodlariga ilhom bag'ishlab, olamda tengi va o'xshashi bo'lmagan memoriy mo'jizalarni bunyod qildirdi.

Samarqandning moviy gumbazlari, osmono'par minoralari, ulardagi betakror ranglar, olam-olam mazmunga ega naqshu

nigorlar bizni yerga qarab emas, boshimizni baland ko'tarib, qadri-qimmatimizni bilib yashashga undaydi.

Bugun biz Amir Temur bobomiz buyuk bunyodkorlik rejalarini noyob obidalarda bekamu ko'st mujassam etib, Samarqandni yer yuzining mo'jizasiga aylantirgan Badriddin ibn Shamsiddin, usta Ali Nasafiy, Olim Nasifiy, Mavlono Ubaydulloh, Pirmuhammad Bog'ishamoliy, Mavlono Junays singari yuzlab-minglab memoru muhandis ajdodlarimizni, hunarmand ustalarimizni ham eslab, ularning san'atiga tasannolar aytamiz.

Sohibqiron bobomiz dahosining sharofati bilan shahri azim Samarqand yer yuzining sayqaliga aylandi.

Bu oliy unvon shunchaki aytilgan chiroyli gap emas. Temuriylar saltanatining markazi, temuriylar qudratining timsoli bo'lmish bu tabarruk maskan olamning yetti iqlimida ma'lumu mashhur bo'ldi.

Dunyoning turli mamlakatlaridagi ne-ne odamlar Samarqandni bir bor ko'rishni, uning muqaddas tuprog'ini tavof etib, aziz-avliyolarning xoki poylarini ziyorat qilishni o'zlari uchun ulug' sharaf deb bilganlar. Jahonning barcha hududlaridan ilmtalab, ma'rifattalab insonlar Samarqand sari intilganlar. Chunki dunyoning eng katta va boy kutubxonalari, o'sha zamonning eng ulug' dorilfununlari — madrasalar, eng mashhur allomalar aynan shu yerda, mana shu zaminda faoliyat ko'rsatar edi.

Xalqimiz, shu jumladan, Samarqand ahlining bugungi hayotimiz va ertangi istiqbolimiz yo'lida qilayotgan mehnati, fan va madaniyat namoyandalarining izlanishlari Sohibqiron davridagi o'sha olamshumul ishlarning uzluksiz davomidir. Bularning barchasi Samarqandning shuhratiga shuhrat qo'shyapti, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Samarqand nafaqat muqaddas obidalari va betakror tarixiy mo'jizalari, balki zamonaviy ishlab chiqarish salohiyati bilan, eng qimmatli boyligi — bag'ri keng, qalbi go'zal mehnatkashlari bilan butun dunyoda mashhur.

Aziz birodarlar!

Bugun Amir Temur to'yini nishonlashimizning, unga haykallar tiklashimizning, temuriylar davri me'moriy yodgorliklarini



ta'mirlab obod etishimizning, u zoti sharifga bo'lgan ehtirom va muhabbatimizning sababi bitta:

Amir Temur shaxsini idrok etish — tarixni idrok etish demakdir.

Amir Temurni anglash — o'zligimizni anglash demakdir.

Amir Temurni ulug'lash — tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Muhtaram yurtdoshlar!

Samarqand — azaliy buyuk va daholik qudrati mujassam bo'lgan, Alloh nazari tushgan maskan. Uning jahon ilmu fani, madaniyati va sanyati rivojiga qo'shgan katta hissasi, siz — muhtaram shahar ahlining ko'p asrlik manaviy merosimizni asrab-avaylab kelayotganingiz va mustaqil O'zbekiston shon-shavkatini oshirishdagi g'oyat katta xizmatlaringiz uchun Samarqand shahri «Amir Temur» ordeni bilan taqdirlangan edi.

Bugun men uchun behad sharaflı vazifani ado etish - qadrdon va aziz shahrimiz bayrog'iga ana shu ordenni qadab qo'yish nasib etdi.

Bu quvonchli voqeya Amir Temur bobomizning muborak tavallud kunlarini nishonlash paytida, u zotning muhtasham haykali fayz bag'ishlab turgan shu go'zal maydonda sodir bo'lmoqda. Bu, albatta, teran ma'no va mazmunga ega.

Qadrli Samarqand ahli!

Ana shu oliy mukofot bilan barchangizni chin qalbidan muborakbod etaman!

Sohibqiron bobomizning siymosi Samarqand osmonida yulduz kabi nur sochaversin!

Millatimizning faxru iftixori bo'lmish azim Samarqand ham, hazrati Amir Temurning tabarruk nomlari ham, ona O'zbekistonimiz ham dunyo turguncha tursin!

Buyuk Amir Temur va aziz ajdodlarimizning ruhi poklari bizni qo'llab-quvvatlasin, yurtimizga tinchlik va osoyishtalik, xalqimizga firovonlik va baxtu saodat ato etsin!

Shahrisabzda haykalning qad ko'tarishi

Shahrisabz azal-azaldan o'zining musaffo havosi, zilol suvlari, ajoyib bog'lari va tog'lari bilan nom chiqargan. Bu yerda tug'ilib voyaga yetgan Amir Temur kindik qoni to'kilgan yurgini hyech qachon unutmay, shon-shuhratini oshirish uchun kuch-g'ayratini nyamadi. U hashamatli maqbara va binolar qurdirdi. Shaharda obodonchilik va farovon hayot hukm surdi. Ayniqsa, go'zallikda tengi yo'q Oqsaroyning bunyod qilinishi Shahrisabzning mavqeyi va salmog'ini oshirib, jahonga tanitdi. Bu yerda ham Amir Temur haykali o'rnatildi.

1996 yil 18 oktabrda Yurtboshimiz Islom Karimov Shahrisabzga tashrif buyurib, haykal ochilishida quyidagi so'zlarni izhor etdi:

Assalomu alaykum, aziz vatandoshar!

Muhtaram do'stlar!

Bugun Temurbek bobomizning qadimiy yurtida, mard va tanti, halol va shijoatli, oriyati baland, iymoni butun insonlar yurtida turib, avvalambor go'zal Shahrisabz ahliga, butun qashqadaryoliklarga ezgu tilaklarimni izhor etaman!

Qadimiy va tabarruk Shahrisabz zamini g'oyat qutlug' maskandir. Jahon madaniyati betimsol namoyandalarning zuvalasi mana shu tuproqdan olingan. Xusrav Dehlaviy, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib kabi allomalarning ota-bobolari xuddi shu joyda kamol topganlar. Lekin bu el-yurti butun jahonga mashhur etgan, dong'ini taratgan zot, shubhasiz, Sohibqiron Amir Temur bobomizdir.

Hazrati Amir Temurning butun suronli umri, uning bunyodkorlik bilan yo'g'rilgan faoliyati salkam yetti asrkim, xalqimiz,

millatimiz nomini olamga yoyib kelmoqda. Bu nomni mustabid tuzum qanchalik toptashga urinmasin, dunyoning pok niyatli kishilari ulug' ajdodimizga yuksak hurmat - ehtirom ko'rsatishni o'zlariga sharaf deb bilganlar. Muborak istiqlo'l bobomizning nomini qaytib berdi, uning ruhini shod etdi.

Amir Temurday ulug' zotni kamolga yetkazgan ota makon — tabarruk Kesh yurtining millatimiz tarixida, shu zaminda yashayotgan el-ulusning boshini qovushtirishda o'rni beqiyosdir. Bobokalonimizning Turkiston diyorini bosqinchilardan xalos qilish yo'lidagi jasur harakatlari aynan shu mo'tabar yurtdan boshlangan.

Sohibqiron o'z ota makonini behad qadrlagan. Bu makon Amir Temur hazratlarining nainki ota-bobolari, balki piru ustozlari va farzandlarining ham xoki poklari bilan mukarram bo'lgan. Buyuk bobomizning to'ng'ich o'g'li Jahongir Mirzo xuddi shu yerda mangu uyquda yotibdi.

Hazrati Temur o'z oldiga ulug'vor maqsadlarni qo'yganida, avvalo o'z eliga, o'z ona yurti — Keshga ishongan va unga tayangan. U qaysi bir safaridan qaytmasin, dastavval Keshni ziyorat qilgan, aziz-avliyolarning qadamjolarini tavof etgan, hamyurtlarining duo va maslahatlarini olgan.

Hurmatli birodarlar!

Buyuk bobomiz haqida soatlab so'zlash mumkin. Ulug' zotlarning tarix osmoniga yuksaladigan manzillari bo'ladi. Butun Sharq olamida «Ilmi adab qubbasi» deya e'tirof etilgan Shahrisabz hazrati Amir Temur uchun ana shunday parvoz nuqtasidir. Biz Sohobqiron bobomizning qutlug' to'yini o'tkazayotgan shu kunlarda eng avval bu zoti sharifni dunyoga keltirgan va voyaga yetkazgan el dahosiga va tabarruk zaminga ta'zim qilamiz.

Katta ishonch bilan shuni ta'kidlashim kerakki, bu yurtning farzandlari, Temurbekning nabiralari o'z qalblarida ulug' bobosiga xos go'zal fazilatlarini asrab-avaylab, bugungi hayotimizda ham namoyon qilmoqdalar.

Aziz do'stlar!

Ming afsuskim, ko'p yillar davomida mustabid bosqinchi mafkura davrida bizni Amir Temurdek buyuk bobomizdan, boy o'tmishimizdan ayirib, xalqimizning manaviyatini, g'ururini,

iltixorini yerga urmoqchi bo'ldilar. Yurtimizda, jumladan, Shahrisabzda bevosita Sohibqironning sa'y-harakatlari bilan bunyod etilgan tarixiy obidalar xarobaga aylantirildi. Hatto ul zot va avlodlarining qabr-maqbaralari ham «ilmiy tadqiqotlar» niqobi ostida talan-toroj etildi, toptaldi. Lekin xalqimiz ulug' ajdodini hyech qachon unutmadi. Uning xotirasini hamisha yuragida saqladi.

Qadrli Shaxrisabz ahli!

Mana shu qarshimizda turgan Oqsaroy har birimiz uchun tariximizning aziz va mo'tabar yodgorligidir. Bu ulug' bino ham mustamlakachilar tajovuzining qurboni bo'lganini yaxshi bilasiz. Sohibqironning ulug'vor haykali aynan Oqsaroy oldida qad rostlagani bejiz emas. Buning o'ziga xos, o'ziga mos chuqur ramziy ma'nosi bor.

Jannatmakon Amir Temur bobomiz bu koshona peshtoqiga shunday bir hikmatni naqsh etib ketganlar. Uning mazmuni sizlarga malum: «Kimki bizning shon-shuhratimizni ko'rmoqchi bo'lsa, biz barpo etgan imoratlarga nazar solsin».

Bu ko'hna dunyoda jahongirlar ko'p o'tgan. Ularning aksariyati faqat buzgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. U muborak zot aytganlarki: «Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim».

Yana bir o'rinda esa shunday deganlar: «Dunyoning yarmini oldim, saltanatimning u chetidan-bu chetiga biror bolakay boshida bir lagan tilla ko'tarib o'tadigan bo'lsa, bir donasiga ham zarar yetmaydigan tartib-intizom o'rnatdim».

Hali telefon, telegraf, kommunikatsiya vositalari bo'lmagan bir sharoitda Amir Temur Sharqni G'arb bilan tinchlik, tijorat, elchilik yo'li vositasida birlashtirishga harakat qilgan. Bizning bugungi siyosatimiz Amir Temurning bu borada olib borgan olijanob ishlarining davomidir.

Muhtaram do'stlar!

Karami ulug' Alloh xalqimizga, Vatanimizga shu qadar marhamat qilibdiki, millatimizga Amir Temurdek buyuk Sohibqironni beribdi. Buning uchun Yaratganga har qancha shukrona aytsak arziydi.

Insoniyat yangi asrga qadam qo'yayotgan bugungi kunda ham

Amir Temur ma'naviyati va shijoati, adolatparvar siyosati yuksak ibrat namunasi bo'lib qolg'usidir.

Yana bir bor takidlamoqchimanki, kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Bugungi qutlug' kunda Amir Temur bobomiz baland ko'targan va asrimiz oxiriga kelib bizning qo'limizda qaytadan mag'rur hilpirayotgan mustaqilligimiz bayrog'i ostida turibsizlar, barcha xalqimizni shu ulug' shodiyona bilan muborakbod etaman.

Ma'lumki, Shahrisabz ahlining temuriylar davri ulkan madaniy va ma'naviy merosini, noyob tarixiy yodgorliklarini asrab-avaylash, yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari, ozod mamlakatimiz buyuk istiqbolini yaratishga qodir kishilar qilib tarbiyalash ishiga qo'shgan alohida xizmatlarini e'tiborga olib, Shahrisabz shahri «Amir Temur» ordeni bilan mukofotlangan edi.

Bugun shu yuksak mukofotni sizlarga topshirishdan nihoyatda xursandman.

Aziz do'stlarim, yurtdoshlarim!

Buyuk Sohibqironning mo'tabar nomi bilan ataluvchi orden sizlarga muborak bo'lsin!

Bu oliy nishon ulug' bobomizni voyaga yetkazgan mo'tabar beshikka tumor bo'lsin!

Iloyo, hammamizni Sohibqiran Amir Temurning o'lmas ruhlari hamisha qo'llasin va barcha ishimizda madadkor bo'lsin!

* * *

Amir Temur nomidagi ordenning ta'sis etilishi va xalqaro xayriya jamg'armasining tashkil qilinishi muhim voqyea hisoblandi. O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur faoliyatiga bag'ishlangan xalqaro anjumanlar o'tkazildi. Ularda shaxsan Yurtboshimiz qatnashib, nutq so'zladi. Uning 1996 yil 24 aprelda Parijda YUNESKO Ijroiya kengashi sessiyasida, YUNESKO qarorgohidagi «Temuriylar davrida ilmfan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» ko'rgazmasining ochilish marosimidagi chiqishlari shular jumlasidandir.

1996 yil 24 oktabrda Yurtboshimiz Toshkentda o'tkazilgan Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy anjumanda «Amir Temur fahrimiz, g'ururimiz» mavzusi bo'yicha ma'ruza o'qidi. «Biz, - deyiladi ma'ruzada, - Amir Temur tarixini har tomonlama chuqur o'rganishimiz va tadqiq qilishimiz kerak. Bugungi anjuman mana shu yo'ldagi muhim qadamdir. Sir emaski kommunistik mafkura hukmron bo'lgan sovet jamiyatda tarix fani ham ulug' millatchilik g'oyalarning qurboni bo'lgan edi. Shu sababli bu davrda sobiq ittifoq hududida

yaratilgan tarixiy asarlarda Amir Temur shaxsi va faoliyatiga adolatsizlik bilan bir yoqlama baho berildi, bu g'am yer yuzining oltidan bir qismini egallagan ulkan hududda yashagan ikki yuz ellik million xalqqa zo'rlab singdirildi. Ana shunday noto'g'ri va g'ayri ilmiy qarashlarga tanqidiy baho berib, Amir Temurga nisbatan tarixiy adolatli qaror to'ntarish bu kungi temurshunoslikning muhim vazifalaridan biridir».

Amir Temurning butunlay oqlanishi, uning buyuk davlat arbobi va tarixiy shaxs sifatida yuzaga chiqarilishi, qadr-qimmatining o'miga qo'yilishi hamda xotirasining abadiylashtirilishining — barchasi yurtboshimiz Islom Karimovning nomi bilan chambarchas bog'liqdir.



XIII ASRDA MO'G'ULLARNING TAJOVUZI VA HUKMRONLIGIGA QARSHI KURASHLAR



Xorazmshohlar saltanatining ahvoli

Amir Temur tomonidan vatan mustaqilligi va ozodligining tiklanishi o'zbek xalqining XIII asrlardan boshlab mo'g'ullarga qarshi olib borgan qahramona kurashining mantiqiy davomi sifatida namoyon bo'lgan edi. Shu bois undan oldingi davrlardagi o'sha ozodlik kurashlarni ham ta'riflash ayni muddoadir.

Qadimiy va ajoyib Xorazmning vatanimiz tarixida tutgan o'rni beqiyos kattadir. Ayniqsa bu yerda miloddan avvalgi VII asrda birinchi o'zbek davlatining tashkil topishi muhim tarixiy voqeya hisoblanadi. Mana shu chuqur tarixiy davrdan to XIII asrning boshlarigacha bo'lgan davrlarda Turkiston zaminida o'sha qadimiy Xorazm davlatining mantiqiy davomi sifatida ko'p davlat va imperiyalar yuzaga keldilar. Masalan, qang'a, kushonlar, eftalitlar, turk hoqonligi, somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar va xorazmshohlar davlatlari shular jumlasidandir. Xorazmshohlar davlatining asoschisi shimoliy Xorazmning hokimi Mamnun ibn Muhammad hisoblanib, 996 yilda Xorazmshoh unvonini olgan

edi. Uning vafotidan keyin ukasi Mamnun ibn Mamnun (997—1017) taxtni egallaydi. U nihoyatda aql-idrokli, tadbirkor va bilimdonlik bilan ish yuritib, qudratli davlatni tashkil etishga qattiq harakat qilgan. Poytaxt Urganchda hashamatli binolar qurilib, me'morchilik va umuman san'atning yuksak namunalari namoyish etildi. Ayni paytda Xorazmda Mamnun akademiyasi tashkil etilib, fanning turli sohalari bo'yicha ilmiy ishlar olib borildi. Xususan, Beruniy va Abu Ali Ibn Sino singari mashhur olimlar ham Mamnun akademiyasida ilm bilan shug'ullandilar.

Ammo Xorazmshohlarning gullab-yashnashi uzoqqa cho'zilmadi. U 1017 yilda G'aznaviylar davlati tomonidan bosib olindi. 1043 yilda esa Xorazmni g'aznaviylarga zarba bergan saljuqiylar davlati egallaydi. Shu tariqa Xorazm bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tkazilib mustaqilligini qo'ldan beradi. Biroq mustaqil Xorazmshohlar davlatini tiklash g'oyasi yo'qolmadi. Aksincha u erksevar kishilar qalbida yashab, vaqti kelib u yuzaga chiqa boshladi. XI asrlarning oxirlarida saljuqiy hukmdori tomonidan tayinlangan Xorazm hokimi Anushtegin mustaqil siyosatni yurgizishga dastlabki qadamni tashladi. U 1097 yilda vafot etgandan keyin Qutbiddin Muhammad (1097—1127) ismli o'g'li otasining izidan borib mustaqillikni tiklashga harakatni davom ettirdi. Biroq u saljuqiylar sirtmog'idan qutilolmay dunyodan ko'z yumdi. Uning o'rniga taxtni egallagan o'g'li Jaloliddin Otsiz (1127—1156) g'animlarga qarshi oshkora siyosat yurgizib, 1138 yilda Mang'ishloqni va Sirdaryoning quyi havzasidagi Jand shahrini bosib oldi. Keyingi yil Buxoroni ham egalladi. Shu ravishda Otsiz o'zining davlatining chegarasini saljuqiylarga qarashli yerlar hisobiga kengaytiradi. Shu orada Turkiston zaminida Tungusdan kelgan qoraxitoylar (turkiy tilli manjurlar)ning tajovuzi davom etayotgan edi. Ular Xorazmshoh davlatiga ham, saljuqiylarga ham katta xavf tug'dirgan. Shu bois Otsizni saljuqiylarning sultoni Sanjar bilan murosas qilgan vaqtlari bo'lgan. Ammo 1141 yilda Sanjarning qoraxitoylar tomonidan qaqshatg'ich zarbaga uchratilishi saljuqiylar davlatining taqdirini hal etadi. Otsiz bu qulay vaziyatdan foydalanib, Sulton Sanjarning poytaxti Marvni, so'ngra 1142 yilda Nishopurni egallaydi. Biroq, ko'p o'tmay Sanjar Marvni qayta qo'lga kiritishga erishadi. Shundan



keyin Otsiz noilojlikdan qoraxitoylarga tovon to'lab turishni bo'y-niga olib u bilan ittifoq tuzdi. Sulton Sanjar o'zini o'nglab tayyorgarlikni ko'rgandan keyin Xorazmga hujum qilib Otsizni yana bo'ysindiradi. Ammo Otsiz undan bosh o'girib saljuqiylarning markidagi Jand shahrini egallab, mustaqil siyosatni davom ettiradi. U 1156 yilda Xorazmshohlar davlatining to'la musta-

qilligini ta'minlovchi zaminni hozirlab vafot etadi. Otsiz o'zining vatanparvarligi va taraqqiyparvarligi bilan dong chiqargan edi. U Xorazmni qudratli davlatga aylantirishga kuch-g'ayratini ayamadi. Shuning uchun ham u xalqning hurmati va izzatini qozonadi.

«Aloiddin Otsiz taxtga o'tirganida 29 yoshda edi. U musulmonlar podshohiga xos islom diniga va ilohiyot olimlariga homiylik qilishdan tashqari, turli fanlar va san'at ahlini qadrlar, o'zi ham forscha qasida va ruboiyilar yozar, juda ko'p buyuk shoirlarning baytlarini yoddan bilar edi. U, Xorazm aholisiga g'amho'r, adolatli podshohlik qildi. Bir manbada aytilishicha, fuqarolar xorazmshoh Otsiz yaxshi ko'rar, uning zamonida fuqarolar havf-xatardan mutlaqo holi, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashadi»¹.

Otsiz 29 yil taxtda o'tirib, shundan 16 yil mustaqil hukmronlik qildi. Shu orada unga bir necha marotaba jang qilishga to'g'ri keldi. Otsizning o'g'li II Arslon (1156—1172) ham Xorazm mustaqilligini ta'minlashga harakat qildi. Bu borada uning o'g'li Takish (1172—1200) ancha muvaffaqiyat qozonib, 1187 yilda Nishopurni, 1192 yilda Reyni, 1193 yilda Marvni, Eronning sharqiy tomonini qo'lga kiritdi. Bu bilan u Xorazmshohlar davlatining mustaqilligini saqladi. «O'rta asrlar mualliflarining, — yozishlaricha — Xorazmshoh Takish o'z fuqarolariga nisbatan adolatli bo'lgan, odatdan tashqari qobiliyatgaega, buyukdiplomat valashkarboshi edi. Harbiy kuchdan

¹ Ziyo Buniyodov. Anushtagin xorazmshohlar davlati (1097-1231) Ahmadov Ashraf va Mahkam Mahmud tarjimai. Toshkent, 1998, 10-bet.

o'rinli foydalanib va siyosiy ahvolni to'g'ri baholab, Takish o'z mulki qatoriga Mozandaron va Iroqni qo'shib oldi. Uning musiqani sevishi alohida esga olinadi. Hych kim udni uningchalik qoyil qilib chalolmagan... Takish hozirjavoblighi, chechanligi bilan ham ajralib turardi... Xorazmshohlar davlatning kuchayishi Aloiddin Takish faoliyatining natijasi bo'ldi. Bu esa uzoq davom etgan og'ir janglar natijasida, shuningdek, yakkahokimlik uchun kurashlarda qo'lga kiritildi; Takish mamlakat taxtiga da'vogar birodari Sultonshohga qarshi yigirma yilga yaqin kurash olib bordi. Takish yildan yilga asta-sekinlik bilan o'z mamlakat hududini kengaytirib, sarhadi xalifa an-Nosir mulkiga borib taqalgan yirik imperiya barpo qilmaguncha kurash olib bordi. Manbalarning xabar berishicha, Xorazmshoh qayerda bo'lmasin, o'sha yer aholisi uning idora usuli va ko'rgan ma'muriy choralaridan mamnun bo'lgan. Takish davridagi hokimiyat markazlashuvi o'lpon to'laydigan xalq ahvolini ancha yengillashtirgan ko'rinadi»².

Shuningdek Takish kuchli qo'shin tuzib shaxsan o'zi ham janglarda faol qatnashgan. Uni 170 ming otliq askarlari bor edi. Bunday ko'p sonli qo'shinni oziq-ovqat, yarog'-aslaha, ot va boshqa narsalar bilan ta'minlashning o'zi bo'lmagan, albatta. Ammo xalqni va shaxsan Takishning mustaqillik va ozodlikka qaratilgan xohish-irodasi qiyin va murakkab masalalarni hal etish imkonini bergan. Takish o'z vatanining taraqqiyoti va xalqaro mavqeyini ta'minlash uchun faqat urush bilangina emas, balki diplomatik usullarni mohirlik bilan qo'llab, maqsadini izchillik bilan amalga oshirib bordi. U 400 ga yaqin shaharlarni qo'lga kiritib, davlatni yirik imperiyaga aylantirish zaminini yaratdi. Takishning vatanparvarlik siyosatini o'g'li Sulton Muhammad (1200-1220) yuqori bosqichga ko'tardi. Natijada Xorazmshohlar davlatining chegarasi yanada kengayib, xalqaro mavqeyi oshdi. Zero, 1217 yilga kelib uning tarkibiga Movarounnahr, Xorazm, Isfaxon, Mozandaron, Karmana, Mekran, Kesh, G'azna, Gur, Bayman, O'tror, Ozarbayjon, Arran, Iroq, Sijiston, Fors, Tabariston, Jurjon va boshqa shahar va yerlar kirgan. Imperiya

² O'sha joyda, 83-84-betlar.

shaharlarida hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlandi. Dehqonchilik ham o'sgan edi. Ayniqsa uning poytaxti Ko'hna Urganch eng yirik va obod shahar sifatida shuhrat qozondi.³

Xullas, mustaqillik tufayli Xorazmshohlar davlati Sharq olamining eng yirik va obod diyori sifatida o'chmas iz qoldirdi. Fan va madaniyat rivojlanib va hashamatli binolar qurilib, shuhrati uzoq mamlakatlargacha taraldi.

Xorazm shohi saroyida 27 hukmdor yoki ularning vakillari itoat kamarini bellariga bog'lab, oltin nog'ora chalib turganlar.

Ammo Xorazmshohlar davlatining shon-shuhrati saroydagi ichki ziddiyat va fitnalar, guruhvozlik va shaxsiy manfaatlarning avjiga minishi orqasidan so'nib bordi. Bu fitnaning asosiy aybdori Sulton Muhammadning onasi Turkon xotun hisoblanadi. Bu mansabparast va o'zboshimcha ayolning saroydagi ta'siri shu darajada baland ediki, hatto shohning farmonlari va ko'rsatmalarini bekor qilib turgan. U o'zining qarindosh-urug'larini qobiliyat va tashkilotchiligini surishtirmay o'ta mas'uliyatli lavozimlarga tayinlagan. Natijada davlat boshqaruvida o'zboshimchalik va tartibsizlik keng quloq yoydi. Sulton Muhammad esa onasining qilmishlariga qarshi chora ko'rishga ojizlik qildi. Chunki davlatning salohiyatli lavozimlari onasining qarindosh va tarafdorlari tomonidan egallangan edi. Turkon xotun farzandlarni orasiga ham nizo va kelishmovchilik urug'ini sepadi. Natijada taxt uchun kurash harakati tobora kuchayib boradi. Poytaxt Ko'hna Urganchda Turkon xotunning qilmishlari orqasidan suv shu darajada loyqalashib ketadiki, Sulton Muhammad poytaxtni Samarqandga ko'chirishga majbur bo'ladi. Ammo, shunda ham uning boshi tinchimay jasoratlik, mardlik, tadbirkorlik va sezgirlik singari fazilatlarini nihoyatda zaiflashib ketadi. Natijada katta qurbonlar va qiyinchiliklar hisobiga bunyod etilgan imperiya ich-ichidan chiriy boshladi. Sulton Muhammad esa davlatni boshqarishda izchillik va muvozanatni yo'qotadi. Xorazmshohlar davlati og'ir kunlarni boshidan kechirayotgan paytda Chingizxon boshliq mo'g'ullarning tajovuzi boshlandi.

³ Ko'hna Urganch hozirda Turkmanistonga qarashli Toshovuz viloyatida joylashgan edi.

Mo'g'ullarning harbiy yurishlari

XII asrning oxiri — XIII asrning boshlarida uzoq Mug'uliyada ancha qudratli davlat va jangovar qo'shin tashkil topgan edi. Uning asoschisi Chingizxon hisoblanib asli oti Temuchin bo'lgan. U 1115 yilda tug'ilib, o'n yoshida otasi vafot etadi. Mirzo Ulug'bekning yozishicha u «onadan tug'ilarkan, qo'lu mushti qonli edi. Zamon donolari: bu bola sohibqiron bo'lib tug'ilgan deyishdi. Yana shuki, mushtida bir kaft qotib qolgan qon bor edi. Bu shundan dalilki, vaqt o'tishi bilan zamon ahlini qatl etur; ko'plab podsholarni oyoq osti qiladi. Xudodan boshqa hamma uning qo'l ostida xor bo'ladi».⁴

Temuchin kuch-quvvatga to'lib, balog'atga yetgandan keyin atrofiga 43 jasoratli yigitlarni to'plab harbiy guruhni tuzadi. Bu vaqtlarda Mo'g'uliyada ko'chmanchi qabilalar o'zaro urushib o'lkada parokandalik hukm surmoqda edi. Temuchin tashkilotchiligi va harbiy mahorati tufayli qabilalarni o'z qo'l ostiga birlashtirishga erishadi. 1206 yilda unga Mo'g'uliyadagi yuqori tabaqalarining qatnashuvida o'tkazilgan qurultoyda Chingizxon nomi berilib, mamlakatning xoqoni deb e'lon qilindi. Chingizxon shohlar shohi ma'nosini anglatadi.⁵ U va uning safdoshlari o'zlarining g'oyatda shavqatsizligi bilan ona yurtida ham nom chiqargan edilar. Ularning qilmishlarining jonli guvohi va vatandoshlaridan biri shunday degan: Chingizxonning atrofidagi kishilar odam go'shti berib boqilgan va temir kishanga solib qo'yilgan itlardir. Ularning peshonalari misdan, tishlari qayrilgan, tillari bigiz singari o'tkir, yuraklari temirdan yasalgan. Bularda qamchi o'rniga qayrilgan qilich bor. Ular shudring ichadi, shamolda uchadi, janglarda odam go'shtini yeydi. Hozirda ular zanjirdan bo'shatib yuborilgan.

Darhaqiqat, Chingizxon boshliq mo'g'ul gazandalari odamlar qonini daryo kabi oqizib, 100 minglab kishilarni yostig'ini quritgan. Ular insoniy fazilatlardan mahrum etilgan vahshiy hayvonlar edi, xolos. Zero, ular o'z maqsadlari yo'lida hyech

⁴ Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Tarjimonlar B.Ahmedov, N.Norqulov va M.Hasaniy. Toshkent, 1994, 81-bet.

⁵ O'sha joyda, 100-bet.

narsadan toymay ko'z ko'rmagan va quloq eshitmagan jazo usullarini qo'llaydilar.

Chingizxon 1211 yilda Yettisuvning g'arbiy tomoniga bostirib kirib, uning bir qismini egalladi. 1215 yilda u Xitoyga hujum qilib Pekinni bosib oldi. Bu yerda u vahshiylarcha jang qilib o'ldirilgan odamlarning suyaklari tog' singari uyilib yotdi. Mo'g'ullarning qonxo'rliги shu darajada dahshatli bo'lganki, ularning qo'lga tushmaslik uchun 60 ming qizlar o'zlarini halok etganlar. Chingizxonning Xitoydagi g'alabasi va qo'lga tushirgan katta boyliklari nomini tarqalishiga olib keldi. Bundan xabar topgan Sulton Muhammad Xorazmshoh haqiqiy ahvolni bilish maqsadida Mo'g'uliyaga, Chingizxon huzuriga Bahoviddin Roziy boshchiligida elchilarni jo'natadi. U bilan katta savdo karvoni ham yo'lga chiqqan edi. Bu vaqtlarda Turkiston savdogarlari ip va ipak gazlamalar, kiyim-bosh va boshqa mollar bilan Mug'uliyada savdo bilan shug'ullanmoqda edilar. Chingizxon Xorazm elchilarini hurmat va izzat bilan qarshi olib Sulton Muhammad bilan tinchlik va do'stlik aloqalarini o'rnatish zarurligini bayon etgan. Chingizxon javob tariqasida xorazmlik Mahmud Yalavoch, buxorolik Alixo'ja va o'trorlik Yusuf Kanqg'a singari kishilardan iborat o'z echilarini yuboradi. Ular savdo karvoni bilan yo'lga chiqib Xorazmga yetib keladilar. Elchilar Chingizxon tomonidan yuborilgan bir katta bo'lak oltin quymasi, qimmatli toshlar, tuya yungidan ishlangan nafis gazmollar va boshqa sovg'alarni Sulton Muhammadga topshirishadi. Bu yerda aytish lozimki, Chingizxon Mo'g'uliyaga bilan savdo qilayotgan xorazmlik, buxorolik va boshqa shaharlik savdogarlarning ayrimlarini o'z tarafiga og'dirib olgan edi. Ular Chingizxonga Xorazmshohlar davlati haqidagi ma'lumotlarni yetkazib turganlar. Bu xususda ayniqsa yuqorida qayd qilingan elchilarning boshlig'i Mahmud Yalavoch jonbozlik ko'rsatgan. U o'z vataniga xiyonat qilib, oshkora Chingizxonga sotilgan edi. Sulton Muhammad tunda Mahmud Yalavochni huzuriga chaqirtirib o'z vataniga xizmat qilishga da'vat etdi. Zero, unga Chingizxon dargohida ayg'oqchilik qilish topshirilganda, o'ldirilishdan qo'rqib rozilik bildirdi. Ammo u umrining oxirigacha Chingizxonga sodiqligicha qolaverdi. Sulton Muhammad uning quruq va'dasiga ishonib

Chingizxon huzuriga qaytishiga ruxsat berdi. Hamda unga o'zining Chingizxon bilan tinch-totuvlikda aloqada bo'lish haqidagi yozma hujjatni topshiradi. Bu ahdomaga ko'ra Chingizxon 1218 yilda Umarxo'ja O'trori, Hammol Marachi, Faxriddin Dizaki Buxoriy va Aminaddin Xaravi boshchiligida 450 kishi va 500 tuyalardan iborat karvonni O'trorgacha jo'natadi. Tuyalarga oltin, kumush, xitoy ipak gazlamasi va turli qimmatli mo'ynalar ortilgan edi. Karvon O'tror (hozirgi Turkiston shahri atrofi)ga kelganda fojea ro'y beradi. Bir manbada ko'rsatilishicha O'tror hokimi G'ayirxon karvondagi mollarni o'zlashtirish maqsadida savdogarlarni o'ldirtirgan. Boshqa manbada esa bu ish Sulton Muhammadning ko'rsatmasiga binoan amalga oshirilgan. Karvon fojeasi Chingizxonning g'azabi va nafratini qo'zitib Turkiston zaminiga harbiy yurish boshlashga katta bahona bo'lgan. Buni anglagan Sulton Muhammad saroyda kengash o'tkazganda qo'shinni bir joyga to'plab, dushmanga zarba berish haqida fikr bildirgan. Bunga qarshi o'laroq harbiy kuchlarni viloyatlarga taqsimlab bo'lingan holda jang qilish taklifi o'rta tashlangan. Mirzo Ulug'bekning asarida ko'rsatilishicha «Sulton Muhammad Xorazmshoh ixtiyorida sanoqsiz askar, ko'pgina lashkar bo'lgan. Muhosiblar uning soni 400 mingdan kam bo'lmaganini aytganlar. Ammo, mo'g'ul lashkari yurishidan keyin Qoracha Hojibni o'n ming kishi bilan O'trorga G'ayirxonga madad uchun jo'natdi. Toki, u O'tror muhofazasini uyushtirgay. 30 ming kishini Buxoro mudofaasi uchun tayinladi. 110 ming kishini Samarqandga qoldirdi. Shu jumlada, 60 ming turklar edi. Ularning sardori Sulton ashrofu a'yonlaridan bo'lgan xonlar bo'lib, har biri o'z davri asfandiyorlaridan edi. 40 ming kishiga qal'alar va hisorlar qurishga farmon berdi».⁶ Ammo bunday choralar o'zini oqlamadi. Chunki Sulton Muhammad imperiyaning hali u, hali bu joyida kezib yurib jang taqdirini har viloyatning hokimlarining o'ziga topshirish bilan chegaralandi. Mamlakat taqdiri qil ustida turgan bir paytda dushmanga qarshi kurashni boshqaradigan markaz tashkil etilmadi. Buning ustiga-ustak Sulton Mahmudning onasi Turkon xotunnnig siyosatga aralashuvi og'ir vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Davlat boshqaruvidagi parokandalik

⁶ Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 135-bet.

avjiga mindi. Ming afsuslar bo'lsinki, agar saroyda ahillik va birdamlik hukm surib, oqilona ish yuritilganda dushman kuchlarini g'olib kelishi hych mumkin emas edi. Chunki Chingizxon davlatiniig harbiy kuchlari va salohiyati Xorazmshohlar davlatiga solishtirganda ancha past edi.

Chingizxon Xorazmshohlar davlatining zaif tomonlarini hisobga olgan holda ustun kelishiga qattiq ishonib, dastavval O'torni bosib olishni rejalashtirdi. 1220 yilning kech kuzida uning boshchiligidagi qo'shin u yerga bostirib kirganda vatan himoyachilarining qattiq qarshiligiga duch keldi. U bu yerdagi urushni cho'zilishini anglab, Chig'atoy va Ugatay singari o'g'illarini harbiy qism bilan O'trorda qoldirdi. Qo'shinning qolganini uch qismga taqsimlab, birinchisini O'tror atrofidagi Jand va Barchinlig'kentni, ikkinchisini Banokat bilan Xo'jandni bosib olish uchun jo'natdi. Uning o'zi o'g'li Tuluy bilan Buxoroga yo'l oldi. Mo'g'ullar O'torni besh oy mobaynida qamalda ushlab turdi. Shu orada har ikki tomon o'rtasida qattiq janglar bo'lib o'tdi. Ammo lashkarboshilardan biri — Qoracha Xojib qo'l ostidaga 10 ming kishilik harbiy qism bilan shahar darvozasidan chiqib mo'g'ullarga taslim bo'lishi vatan himoyachilariga qattiq zarba bo'lib tushdi. Dushman kuchlari mana shu ochilgan darvozadan shaharga bostirib kiradilar Bu yerda dahshatli janglardan so'ng shahar bosqinchilar tomonidan egallanadi. Bu to'g'risida Abulg'ozzi yozadi: «Mo'g'ullar darvozai So'fiydan kirib O'torning ichiga kirdilar va O'torning jami xalqini sahroga chiqarib, shahid qildilar. Ul holda G'ayirxon yigirma ming kishi bilan arkka qamaldi. Har kunda chiqib urushur erdi. Yaxshi mardonaliklar qildi va mo'g'ul askarlaridan ko'p kishilarni o'ldirdi. O'zining qo'shinidagi kishilar tamom shahid bo'ldi. Mo'g'ullar Arkning qal'asini taqib oldi. Ahirul amr G'ayirxon ikki kishi bilan qochib bir tomning ustiga chiqdi. Ul ikki navkari ham shahid bo'ldi. Axir urusha-urusha G'ayirxonning o'qi tugadi. Oqibat kanizlari devordan g'ishtlarni olib bera boshladilar. Ul g'ishtlarni otib urushdi».⁷ Pirovardida G'ayirxon asirlikka olinib o'ldiriladi. Demak amir G'ayirxon boshchiligidagi vatan himoyachilari shu darajada qahramonona jang qildilarki, u besh oy davom etdi.

⁷ Abulg'ozzi. Shajarai Turk. Toshkent, 1992, 65-bet.

Shuning uchun ham bosqinchilar shahar xalqini qirib tashladi. «O'trorning butun aholisini, — deydi Mirzo Ulug'bek, - (mo'-g'ullar) sahroga haydab chiqdilar va qatli om qildilar. G'ayirxon yigirma ming kishi bilan qal'aga kirib olishdi. Barchasi jonidan umid uzib, o'lim yuziga tik boqib, qariyu yosh o'limni zamirlari lavhiga chekib jang qildilar. Bu orada mo'g'ul lashkarining ko'pchiligi qal'agakirib olishdi. Ot, yarog', sipohi qolmaganidan uyi vatomidan bo'lakpanohi qolmadi. Mo'g'ul sipohi ularni qo'lgaoldi. Bu guldek noziklarni ot yoliga bosdilar O'tror hisorni qo'lga kiritib, yer bilan barobar qildilar. Tirik qolganlardan, ra'iyat va hunarmandlarning ba'zilarini hibsga oldilar, ba'zilarini esa qul qilib haydadilar».⁸ Binobarin o'trorliklar «bir tomchi» qonlari qolguncha mustaqillikni saqlash uchun jang qilgan edilar. Mo'g'ullarning qirg'in-barotidan keyin salohiyatli savdo-hunarmand shahri O'tror xarobaga aylantirildi. Bu vaqtda mo'g'ullarning Jo'ji boshchiligidagi qo'shini Sirdaryoning quyi oqimidagi Sig'noq shahri yoniga kelib xoin savdogar Hasan xojini taslim bo'lishlikni so'rab elchi sifatida jo'natdi. Ammo shaharliklarning g'azabi va nafrati qo'zib elchini o'ldiradilar. Shundan keyin mo'g'ullar bilan vatan himoyachilari o'rtasida yetti kun davomida jang bo'lib pirovardida ular g'alabaga erishadilar. Shaharliklarning barchasi qirib tashlanadi. Mo'g'ullar 1219—1220 yillarda O'zgand, Barchin, Lig'kent, Ashnosni va Jand shaharlarini egallab ko'p kishilarni o'ldiradilar, asirlikka oladilar. Banokat ham vahshiylarcha bosib olinadi. Bu yerda boyliklar talandi, odamlar o'ldirildi yoki asirlikka olindi.

Mo'g'ullar qo'lga kiritilgan joylardagi aholini ma'lum qismini asirlikka olib, ularni turli ishlarda qul kabi mehnat qildirgan. Xususan asirlarni harbiy yurish vaqtida qalqon sifatida oldingi safga turg'izganlar. Shuningdek, ulardan qamal qilingan shaharlarga hujum qilshida foydalanganlar. Natijada janglar paytida birinchi o'qlar va zarbalar asirlarga tegardi. Bundan tashqari ular dushmanlarning otlarini oyog'i ostida ham qolib halok bo'lganlar. Asirlarni oldingi saflarda turg'izilishi vatan himoyachilarining hujumini daf etish maqsadida qilingan, albatta. Xuddi mana shunday usulni qo'llanishi mo'g'ullarning g'alabalarini ta'minlagan omillardan biri edi.

⁸ Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 142-bet.

Temur Malik boshchiligidagi kurash

Mo'g'ullar Banokatni bosib olganlaridan keyin 50 ming kishidan iborat asirlarni oldiga solib harbiy yurishni davom ettirdilar. Ular Alaq-no'yon boshchiligida Xo'jand shahriga yaqinlashdilar. Bu vaqtda o'zbek o'g'loni Temur Malik shaharning hokimi edi. U tabiatan pahlavon va jasoratli kishi bo'lib vatanparvar va mohir jangchi hisoblangan. «Shahar valiyasi, — deydi Mirzo Ulug'bek, — Temur Malik edi. Shijoatda shunday martabada ediki, Rustamu Zol tirik bo'lganda uning savlatidan faxrlangan bo'lardi. Agar Somi Suvar hayotdan bahrador bo'lganda, unga bo'lgan bandaligi halqasidan boshi osmonga yetardi. Lekin davr tole'i inqilobidan nochoru noiloj qoldi va Sayxun nomi bilan ma'lum Xo'jand daryosi o'rtasidagi Hisorda suv ikki shoxga bo'linib oqadigan joyda, bir oliy qal'a bino qilgan edilar. Mo'tamid ul-iste'dod ming nafar kishi bilan u yerda o'rnashib olib, tezlik bilan hisorni mustahkamlash va jangga tayyorgarlik bilan mashg'ul bo'ldi».⁹

Ammo, Temur Malik qanchalik puxta tayyorgarlik ko'rmasin baribir dushman kuchlari ko'p bo'lib jangovarligi ham baland edi. Shunga qaramay vatanparvarlik va jasoratlik tuyg'ulari bilan to'lib toshgan xalq va Temur Malik imkoni boricha bosqinchilarga qarshi kurashishni muqaddas burch deb bildilar. Mo'g'ullarning 20 minglik askarlari Xo'jandni qurshab oldilar. Ular 50 ming kishidan iborat asirlarni ham o'zlari bilan olib kelib harbiy ishlarda foydalandilar. Shiddatli janglardan so'ng Temur Malik mingta askar bilan Sirdaryodagi orollarning biriga chekinishga majbur bo'ldi. Abulg'ozining malumotiga ko'ra «Temur Malik o'n ikki kema yasatib erdi. Usti sarpushlik.¹⁰ Anga o'q otmoq va to'pang uchun darichalar tortib berib erdi. Ul kemalarga bir amal qilib erdikim, o'q va to'pang va hyech nimarsa anga o'tmas erdi. Ul kemalarni minib kunda andog' urushlar va mardonaliklar qildikim, tamom mo'g'ullar tahsinlar qildilar va hyech bobda ani olabilmadilar. Oqibat mo'g'ullar ellik ming xashariy (asirlar)ni oldiga solib tosh

⁹ Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 145-bet.

¹⁰ Bu yerda gap kemalarni loy surtilgan namat bilan o'rashib va sirka septirib o'q o'tmaydigan qilinganligi haqida gap ketayapti.

va kesak tashitdilar, o'zlari toshni va kesakni suvga solur edilar. Axirul Amr mo'g'ul lashkari g'olib bo'lgan sababdin Temur Malik yetmish kemaga, qo'sh va asbob yuklab, ul mazkur bo'lgan o'n ikki kemasiga ming yigiti bilan minib kecha bo'lgach, rudxonasining ichi bilan yuriyberdi. Alak no'yon birlan Sukatu Bo'ka mo'g'ullarga sizlar ham daryo labi birlan Temur Malikning ortidan yurung, deb hukm qildi. Mo'g'ullar taki rudxonaning kemasiga yonashib urusha-urusha yurur erdilar».¹¹

Ko'rinib turibdiki, Temur Malik dushmanning Sirdaryoning ikki qirg'og'idan yog'dirgan o'qlari ostida jang qilgan. Mo'g'ullar ko'p minglik asirlarni toshlarni keltirishga majbur etib orolga tashitirgan. Bu bilan o'zlariga yo'l qurib vatan himoyachilari bilan yuzma-yuz jang qilishga harakat qilganlar. Ammo, Temur Malik dushman rejalarini barbod etib ularni yaqinlashtirmagan, shu tariqa urush uzoq davom etib vatan himoyachilarning qurollari va oziq-ovqatlarida yetishmovchilik qattiq sezildi. Chetdan esa hyech qanday yordam berilmadi. Natijada vatan himoyachilari Temur Malik boshchiligida 70 kemada Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab suzdilar. Ular Banokat shahriga yaqinlashganlarida ko'rdilarki mo'g'ullar daryoning bir qirg'og'idan ikkinchi tomoniga temir zanjirni tortib qo'yishgan ekan. Biroq Temur Malik kemalari bilan zanjirni yorib o'tib yo'lni davom ettiradi. U O'tror, Sig'noq va Jand shaharlarini bosib o'tib Barchinlig'ga kelganda dushmanlarning qayiqlaridan yasalgan to'siqqa duch keladi. Temur Malik uni yorib o'tishni iloji yo'qligini anglab va kemalarini sohilga yaqinlashtirib tashqariga chiqadilar. Bu yerda «Temur Malik har soatda o'z do'stlari bilan yelkama-yelka turib jang qilardi, toki do'stlari uzoqroq ketgaylar. Yana o'z do'stlari ortidan yugurishardi. Bir kechayu kunduzda shu tarzda lashkarining aksari nobud bo'ldi, ba'zilar yarador bo'ldilar. Molu mulklarini dushmanlar talab oldi. Temur Malik bir guruh barqaror odamlari bilan shoshilmay dushman yo'lini to'sdi. Yonidagilar ham nobud bo'lgandan keyin, uning qurol-yarog'i qolmadi. Faqat uch o'qi qolgandi. Ularning ham biri singan va paykonsiz edi. Uch mo'g'ul nekomish bilan yelib kelardi. Temur Malik haligi siniq paykonsiz o'q bilan bir

¹¹ Abulg'ozii. O'shar asar, 67-bet.

mo'g'ulning ko'zini chog'lab otdi. U ko'r bo'lib qoldi. Qolgan ikkisiga dedi: «Bu o'q birla sizlarga javob bera olurman desam bo'ladi; qaytinglarki, sizning taqdiringiz shu o'qlarda. Ul ikki mo'g'ul Temur Malik qo'lidan kelgan, ko'z o'ngilarida bo'lgan ishlarni ko'rib, uni so'zini tasdiqladilar va qaytib ketdilar. Temur Malik sog'-salomat qoldi. U Xorazmga jo'nadi va xalq ishiga aralashdi».¹² Ushbu satrlarda bayon etilgan voqyealar shu haqda guvohlik beradiki, Xo'jandda shiddatli janglar bo'lib Temur Malikning mohir lashkarboshiligi tufayln ko'p sonli bosqinchilarga qarshi uzoq va mardonavor kurashilgan. Bunda shaxsan Temur Malikning o'zi nihoyatda bilimdonlik bilan ish yuritib dushmanga qaqshatgich zarbalarni berib turgan. Mo'g'ullar Temur Malikni o'ta xavfli dushman hisoblab, uni qanday bo'imasin qo'lga tushirishga qattiq harakat qiladilar. Bunga erishmak uchun barcha choralarni ko'rishdi, lekin uddasidan chiqa olmadilar.

Temur Malik o'zining vatanparvarligini, mohir jangchiligini shu darajada namoyish etdiki unga dushmanlarining o'zlari tan berishga majbur bo'ldilar. U haqiqatan ham xalq qahramoni, mustaqillik va ozodlik uchun jonini tikkan shaxs edi. U oxirgi o'qi qolguncha jang maydonidan ketmadi. Temur Malik Xorazmga borgandan keyin ham kurashni davom ettirdi. U harbiy qism bilan Katga borib, bu yerga tayinlangan mo'g'ul hokimini o'ldirib qaytadi. Shundan keyin Urganch mudofaasida qatnashadi, so'ngra Jaloliddin bilan birgalikda kurashni davom ettiradi.

Buxoro, Samarqand va Ko'hna Urganchdagi janglar

Chingizxon o'g'illari Tuluy, Jeba no'yon va Subutoy bilan birgalikda Qizilqum cho'llari bo'ylab harbiy yurishni davom ettirdilar. Ular Zarnuq va Nuri Buxoro singari kichik shaharlarni egallab bir necha yuz yoshlarni asirlikka oldilar. Shundan keyin bosqinchi galalar 1220 yil 7 fevralda Buxoro shahrining ostonasiga joylashib urushni boshlab yubordilar. Bu vaqtlarda Buxoro har

¹² Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 146-bet.

jihatdan obod va rivojlangan shahar sifatida shuhrat qozonib, «Islom qubbasi» degan yuksak bahoga sazovor bo'lgan edi. Buxoroliklar mustaqillik va ozodlikni saqlash uchun jon-jahdlari bilan jang qildilar. Vatan himoyachilari Ixtiyoriddin Qushnu, Inanchxon O'g'il Xojib, Hamid Pura, Suyunchxon va Gurxon singari lashkarboshilar rahbarligida shaharni qattiq turib himoya qilganlar. Har ikki tomondan ko'p kishilar o'ldirildi. Kechqurun Ko'kxon, Hamid va Sevinchxon qo'mondonligi ostida uch ming kishilik askarlar shahardan chiqib dushmanlar bilan to'qnashdi. Qattiq janglardan keyin dushman g'alaba qilib shaharga bostirib kirdi. Shaharniig nufuzli kishilari to'planishib taslim bo'lishlikka rozilik bildirdilar. Chunki ko'p askarlar va oddiy kishilar qirilib, urushni davom ettirishning iloji qolmadi. Mo'g'ullar shahar aholisini do'pposlab va ayollarni zo'rlab, quloq eshitmagan azob-uqubatlarni namoyish etdilar. Ular masjid va xonadonlarni talab va Qur'oni karimni otlarining oyog'i ostiga tashlab talon-tarojni uchchiga chiqardilar. Bunga chiday olmagan din peshvolari Rukiaddin Imomzoda va o'g'li, qozi Sadriddinxon va Sadr Majiddin mo'g'ullar bilan jang qilib halok bo'ldilar. Chingizxonning shaxsan o'zi shaharning boyliklarini talash va uni vayronaga aylantirish haqida ko'rsatma berib turdi. U buyruq berdi: «Shaharda nimaiki zohirda turgan bo'lsa, keltirishning hojati yo'q. Maxfiy saqlanayotgan narsalarni bizga topshirishlaringiz zarur». Bunga javoban, — deb yozadi Mirzo Ulug'bek, — boylar va amaldorlar ittifoq bo'lishib, o'z boshlarini oltin evaziga sotib oldilar.

Buxoroning barcha davlatmand kishilari totor (mo'g'ullar) sipohi dastidan ombordagi moli, xarvor-xarvor tillalarini berib, Chingizxondan o'z boshlarini sotib oldilar. Xorazmshoh sipohidan basharti o'z uylarida o'tirmay, shahardan tashqari chiqqanlari bo'lsa, qahrdan boshqa narsani topmadilar... Qazoyu qadar amri bilan totorlar Buxoroda ajab qotilliklar qildilar... Xoqon (Chingizxon)ning g'azabi qaynadi. Shoh qahridan otash chiqardi. Shahar aholisi undan yonib ado bo'ldi. Bir kunda ho'lu quruq yonib bitdi: na jonsiz narsa qoldi, na jonli. Shaharda birorta ham sipoh qolmadi. Ularni o'rnida faqat qoraturun burqsirdi.

Shahar batamom yonib bo'lgandan so'ng, atrof-tevarakda

yashaydiganlarni to‘plab, qal’a poyiga haydab keldilar, qal’a handaqining to‘ldirilmagan joylarini ko‘mdirdilar. Tez kunda qal’ani ham qo‘lga kiritib, o‘t qo‘ydilar. Uning hokimi Kuyukxonni, o‘sha qal’adagilar bilan birga siyosatga yetkazdilar. Hisorni yer bilan yakson qildilar.

Shahru boru, darvozadan qolmadi nishon; Bundayin dardga kim topar darmon»¹³. Shahar aholisi suyagigacha shilingandan keyin faqat egnilaridagi kiyim bilan shahardan tashqariga chiqarildi. Baquvvat erkaklar asirlikka olindi, ayollar mo‘g‘ullarning askarlari o‘rtasida bo‘lindi. Askarlar va shaharliklar dushman bostirib kirganidan keyin qal’aga kirishib kurashni davom ettirgan edilar. Ular ham tor-mor etilib, bitta qoldirmay o‘ldirildi.

Xullas, Buxoro bosqinchilar tomonidan misli ko‘rilmagan darajada vayron etilib uzoq vaqtlargacha xarob holda yotaberdi.

«Bu shahar, — deb yozadi jonli guvoh, — bir vaqtlar Jayhun-ning sohilidagi shaharlarning eng ulug‘i edi. La’nati Mo‘g‘ul Tengiz (Chingiz)... uni shu qadar xarob qilganki, masjldu madrasalar, bozorlar deyarlik bari vayrona bo‘lib yotibdi. Hozir ular orasida bilim — fandan xabardor yo unga qiziquvchi biron kimsa yo‘q».¹⁴

Mazkur ma’lumotlar XIV asrning birinchi yarmida Buxoroda shaxsan bo‘lgan Ibn Battutaning qalamiga mansubdir. Unga ko‘ra Buxoro mo‘g‘ullar tomonidan shu darajada qattiq vayron etilganki, 100 yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsada hamon o‘ziga kelmagan. Vaholanki, Buxoro mo‘g‘ullarning bosqinidan oldin kishi havasini keltiradigan obod shahar hisoblangan. Bu xususda alloma Yoqut al-Xamaviy shunday yozgan: «Shubhasizki, bu juda kadimiy shahar, unda bog‘lar, sarxil mevalar ko‘p. Men borganimda Buxoro mevalari o‘n sakkiz kun yo‘l bosib Marvga, o‘n besh kun yo‘l yurib Xorazmga ham eltib sotilar edi».

«Kitob as-suvar» asarining muallifi yozadi: Movarounnahr yerlarining go‘zalligiga kelsak, (aytish kerakki) men islom mamlakatlarining birortasida Buxorodan ko‘rkamroq shaharni ko‘rgan emasman. Uning arkiga chiqsang, atrofiga zangori osmon

¹³ O‘sha joyda, 141-142-betlar.

¹⁴ Ibrohimov N. Battuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati. Toshkent, 1993, 23-bet.

tutash ko'm-ko'k masofalarni ko'rasan... Movarounnahr va Xuroson yurtlarida o'z yerlarini buxoroliklarchalik yaxshi parvarish qiladigan aholi yo'qdir... Buxoro tekis yerlarga joylashgan shahar, bino sinchlari yog'ochdan. Hamma turar joylar, qo'rg'onlar, bog'lar, rastalar, tosh yo'llar hamda behisob tutash mahallalar, 12 farsax uzunlikdagi devor bilan o'rab olinganki, bu devor barcha o'sha qo'rg'on, uy-joy ham aholi yashaydigan joylarni shahar markazi bilan birlashtirib turadi. Bo'sh qolgan taqir joy yoki biron vayronani ko'rmaysiz. Haliga devordan tashqari... Unga tutash solingan, qishin-yozin aholi yashaydigan shahar uy-joylari, saroy, do'kon va bog'larini qurshab turuvchi boshqa devor ham bor... Butun Movarounnahrda Buxorochalik zich va gavjum shahar yo'q».¹⁵

Ammo mo'g'ullar Buxoroni «kultepa»ga aylantirgan edilar.

Chingizxon Buxorodan olingan bir necha ming asirlarni qo'shinining oldiga solib Samarqand tomon yo'naldi. Bu shahar ham sharqning eng so'lim va obod maskanlaridan biri bo'lgan. Bu yerda Sulton Muhammadning 110 ming askari shaylanib turgan edi. Bundan tashqari aholining talay qismi mudofaaga jalb etilgan. Qo'shin tepasida Tog'ayxon, Alp Erxon, Shayxxon, Bolaxon va boshqa lashkarboshilar turgan. Dushman qamalidagi shaharda xoh askar, xoh oddiy kishilar bo'lsin baribir barchani fikri-zikri mustaqillik va ozodlikni saqlashga qaratilgan. Bunga erishishga yetarli imkoniyat va harbiy kuchlar mavjud edi. Ammo ularni bilimdonlik bilan boshkaradigan rahbar topilmadi. Avvalambor lashkarboshilar harbiy taktika va strategiya sohasida xatoga yo'l qo'yidilar. Zero, Chingizxon o'z qo'shinining oz qismini hujumga tashladi, katta qismini pistirmaga qo'ydi. Lashkarboshilar dushman kuchlarining sonini oz deb hisoblab katta qo'shin bilan darvoza tashqarisiga chiqishib jangni boshladilar. Shu onda pistirmadagi mo'g'ullar ularni qurshab qirib tashlaganlar. Bu fojeali mag'lubiyat shahar aholisini ancha vahimaga solib qo'ydi. Bir guruh nufuzli kishilar go'yo xalqni ommaviy qirilishidan qutqazishni o'ylab taslim bo'lish haqidagi taklif bilan Chingizxonga murojaat qiladilar. Bu taklif qabul qilinib bosqinchilar shaharga «namoz vaqtida kirdilar. Shu kuni va kechasi shaharni xarob qilib, barcha xaloyiqni — eru

¹⁵ O'sha joyda. 22-23-betlar.

ayolni... shahardan sahroga haydab chiqardilar. Odamlari g'orat bo'lgan lashkar shaharni g'orat va talash bilan shug'ullandilar. Burchak va mag'oratlardan kimni topsalar qatl etdilar....

Qorong'u tushganda mo'g'ul lashkari shahardan chiqdi. Qal'a ahli vahmda, shikasta dil, na boshini ko'taradi, na yerga qaraydi. Ertasi tong otishi bilan Olashjon — Sulton Muhammad Xorazmshoh sardorlaridan biri jasorat ko'rguzib, jonidan umid uzib, ming yigiti bilan mo'g'ul lashkari miyonasiga zarba berib, badar ketdi. Keyingi kuni mo'g'ul lashkari Samarqand hisoriga qarab yo'naldi. Devori, borularini vayron qilib, salovotlar oralig'ida darvozani qo'lga kiritdilar. Shaharga kirdilar... 20 mingdan ortiq Sulton Muhammad Xorazmshoh sardorlaridan bo'lgan amirni, u yerda turgan barcha lashkari bilan qatl etdilar. Samarqand ahlidan o'ttiz ming erkakni ajratib olib, o'z farzandlari va qarindoshlariga bo'lib berdi».¹⁶

Ko'rinib turibdiki mo'g'ul askarlari shaharga birinchi marotaba kirganlarida qal'ada Sulton Muhammad askarlari mudofaada turganlar. Mo'g'ullar kechasi ularning hujum qilishidan cho'chib shahardan chiqib ketishga majbur bo'lganlar. Ertasiga erta tongda shaharga qaytadan kirishib qal'adagi askarlarga hujumni uyushtirgan. Bu jangda vatan himoyachilari, xususan, 20 ming kishi tamomila qirilguncha jangni davom ettirgan. Mo'g'ullar yana bir bor Samarqandni vayronaga aylantirib va xalqning boyliklarini talab, o'z hukmronligini o'rnatadi. Bu dahshatli voqyea 1220 yil 17 martda sodir bo'lgan edi. Bundan oldin Samarqandda 100 ming oila yashagan, urushdan keyin esa uning to'rtidan bir qismi qolgan edi, xolos. Vayronaga aylantirilgan shaharda qahatchilik va ochlik hukm surgan. Shubhasiz bu holatdan ham ko'p odamlarning yostig'i qurigan. Mana shunday nihoyatda dahshatli va fojeali sharoit yuzaga kelib vatan himoyachilari katta talafot ko'rayotgan kezlarda Sulton Muhammad vahimaga tushib allaqachon Turkiston zaminini tashlab qochadi. Vaholanki shaxsan uning o'zi dushmanga qarshi kurashlarni tepasida bosh-qosh bo'lib turishi shart edi. U mo'g'ullar tomonidan Buxoroni bosib olganligini eshitib, ko'p miqdordagi oltin va boshqa qimmatli xazina mollarini olib yo'lga

¹⁶ Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 148-bet.

chiqadi. Ammo bu mollar Amudaryodan o'tilayotganda suvga g'arq bo'ladi. Chingizxon Sulton Muhammadni tutish maqsadida Jeba va Subutoy boshchiligida 20 ming askarni orqasidan jo'natdi. Buni eshitgan Sulton Muhammad Nishopo'rga, so'ngra Bisom degan joyga ketadi. Bu yerda yo'lni davom ettirib pirovardida Kaspiy dengizidagi Ashur oroliga o'rnashadi. Bu yerda u qattiq kasalga chalinib, 1220 yil dekabrda olamdan o'tdi. U jon berish oldidan o'g'li Jaloliddinni taxtga merosxo'r deb e'lon qildi. Sulton Muhammadning qochishidan keyin Xorazmshohlar davlatini alg'ov-dalg'ov qilib turgan Sulton Muhammadning onasi Turkon xotun 1220 yil martda 22 kishidan iborat Sulton Muhammadning xotinlari va yosh bolalarini, xazina boyliklarini olib Xorazmni tark etadi. U o'zi bilan birga ketayotgan katta-kichik qarindoshlarining barchasini o'ldirtirib murdasini Amudaryoga cho'ktiradi. Aftidan ular dushman qo'liga tushmasliklari uchun qatl etilgan bo'lsa kerak. Turkon xotun yo'l yurib Mozandarondagi Ilal qal'asiga joylashdi. Bu yerda mo'g'ullar tomonidan asirlikka olinib Mo'g'uliyaga Chingizxon huzuriga yuborildi. Bu yerda 1233 yilda Chingizxon dasturxonidan ortgan ovqatlardan oziqlanib xor-zorlikda vafot etdi.

Shunday qilib Sulton Muhammad va onasi Turkon xotun birgalikda yaqindagina sharq dunyosini larzaga solib turgan Xorazmshohlar davlatini o'zlarining nodonligi orqasidan dushman oyog'i tagiga tashlab berdilar. Ularning kasriga yuz minglab odamlarning qoni to'kilib, shaharlar xarobaga aylantirildi. Bu borada Ko'hna Urganch shahri ham chetda qolmadi. O'z holicha tashlangan Xorazmda tartibsizlik va o'zboshimchalik hukm surib hokimiyatni boshqaradigan yetuk odam topilmadi. Shu orada Jaloliddin ukalari O'zlig'shoh va Oqshoxlar bilan birgalikda otasini dafn etishgandan keyin Xorazmga kelishadi. Turkon xotunning qarindoshlari — amirlar Jaloliddinni taxtga merosxo'rlikini tan olmay Turkon xotunning ukasi Xumor teginni Sulton deb e'lon qildilar hamda Jaloliddinga qarshi suiqasd uyushtirishga kirishdilar. Shu bois Jaloliddin va Temur Malik birgalikda 300 askar bilan poytaxtni tark etishga majbur bo'ladi. Ularning orqasidan yo'lga chiqqan Jaloliddinning yuqorida ko'rsatilgan ukalari mo'g'ullar tomonidan o'ldiriladi. Chingizxonning o'g'illari — Ugaday, Chig'atoy

boshchiligidaga askarlar Ko'hna Urganchni bosib olish harakatini qizitib yuboradilar. Qattiq janglarda ko'p odamlar halok etilgandan keyin mo'g'ullar shahar ichiga bostirib kirishga erishdilar. Dushmanning shaharni yetti oy mobaynida qamalda ushlab turishi orqasidan aholining hayoti juda og'irlashgan edi. Shunga qaramay xalq ommasi yoppasiga bosqinchilarga qarshi jangni davom ettiraberdi. Abulg'ozining asarida ko'rsatilishicha mo'g'ullarning bir guruhi shahar darvozasining oldida turganda 100 ming kishilik vatan himoyachilari u yerdan chiqib, ular ketidan quvgan. Poytaxtdan bir chaqirim naridagi bog'da ko'p sonli dushman askarlariga duch kelishib, shunday qattiq jang bo'lganki, 100 ming kishidan besh-o'n kishi tirik qolib shaharga qochib kelgan. Bu yerda xuddi Samarqanddagi voqyea yuz bergan. U yerdan ham mo'g'ul lashkarboshilar oz sonli askarlarini devor yoniga yaqinlashtirib va bu bilan raqiblarini jangga da'vat etib pistirmadagi ko'p sonli askarlarining hujumiga muhtalo etilgan edilar. Aftidan dushman tomonidan 100 ming kishilik vatan himoyachilarini o'ldirilishi shahar aholisini qattiq vahimaga solgan, albatta. Ammo, ular qanday bo'lmasin ona-yurtini muhofaza qilishga jonlarini ayamadilar. «Mo'g'ullar, — deydi Abulg'oz. — Urganchga elchi yubordilar. Aytdilarkim, bizga tobe' bo'lib el bo'lsangiz, o'zingiz omon bo'lib, o'g'lon va ushoqingiz o'lja va asir bo'lmas. Urganch xalqi ani qabul qilmadilar va itoatga bo'yun egmadilar. Andin so'ng yetti oy-kunda Xorazm lashkari ertadan oqshomgacha urushur edilar. Mo'g'ullar Urganch atrofida manjaniqg'a (tosh otadigan dastgohga) tosh topmay tutning kundalarini kesib manjaniqga solib otor edilar. Ul vaqtda mo'g'ullar xohladilarkim Jayhunni bog'lagaylar, to Urganchga suv bormag'ay. Jayhunni bog'lamoq uchun uch ming mo'g'ul bog'lar yerga keldilar. Ul ishdin Urganch xalqi xabardor bo'lib, kelib uch ming mo'g'ulni o'rtaga olib andog' urushdilarkim, u uch ming mo'g'uldan bir kishi qutulmadi va hyech vajh birlan mo'g'ullar Urganchni ola bilmadilar.

...(Mo'g'ullar) lashkarni xorazmiylarga ro'baro' qilib qattiq urushdilar. Ahirul (mo'g'ullar) Urganchni olib mahalla-mahallaga o't qo'yub tamom xalqni sahroga chiqardilar. Toki yuz ming evlik kishini ahli hunar turur deb oldilar. Juvon-xatun va yosh

o'g'lonlarni taki banda qilmaklik uchun oldilar. Andin o'zga xalqni lashkariga xizmat qildi. Har bir kishi (mo'g'ul)ga yigirma to'rt kishi tegdi va hukm qildilarkim, o'ldiringlar. Mo'g'ullar o'ldirdilar».¹⁷

Mo'g'ullar o'n minglab kishilarni janglarda o'ldirish bilan bir qatorda minglab hunarmand va boshqa kasb egalarini xizmatlaridan foydalanish maqsadida asirlikka olganlar. Ayollarni zo'rlab va o'zaro taqsimlab vahshiylarcha munosabatda bo'lganlar. Har bir mo'g'ul askariga o'ldirish sharti bilan vatan himoyachilaridan 24 kishi birkitilgan. Bularning hammasi o'ldirildi, Urganch uchun kurashlarda o'zbek xotin-qizlari jasorat va mardlikni ko'rsatdilar. Bu xususda taniqli olim Ziyo Buniyodov shunday yozadi: «Mo'g'ullar Kabilon darvozasi orqali Gurganjning tashqi devorini¹⁸ ichiga kirdilar. Lekin ular askarlardan tashqari shahar aholisi — erkaklar va xotinlar tomonidan tashkil qilingan shunday qarshilikka duch keldilarki, kechga tomon ular Tanur mahallasiga yetib borganlariga qaramay. shahardan butunlay haydab chiqarildilar.

Keyingi kuni mo'g'ullar yana o'sha shikastlangan Kabilon darvozasi orqali shaharga yorib kirishga urindilar, lekin ular G'uriy guruhining askarlari tomonidan uloqtirib tashlandilar».¹⁸

Demak, o'zbek ayollari harbiy qurollardan foydalanishni o'zlashtirganlarki jang maydonida bosqinchilarga zarba berishga qodir bo'lganlar. Ularning vatanga sodiqligi va qahramonligi mo'g'ul gazandalarining qahr-g'azabini qaynatgan. Chunonchi ular 1220 yil dekabrda 7 oylik janglardan keyin shaharga bostirib kirib ayollardan ham o'ch olishga kirishib quloq eshitmagan jazo usullarini qo'lladilar. Ular «Urganchning asir ayollariga qip-yalang'och bo'lib o'tishni buyurdilar va ularni ikki guruhga bo'lib, bunday buyruq berdilar: «Sizning shahringiz ayollari juda yaxshi mushtkash jangchilar ekanlar. Shuning uchun buyuramiz: ikkala guruh ayollari bir-birlari bilan mushtlashib urushsinlar. Bu razil tomosha bilan ko'ngil ochishib, mo'g'ullar ayollarni burdalab tashladilar».¹⁹

Shundan keyin mo'g'ul jallodlari Amudaryo suvi bilan Urganchni cho'ktirib hashamatli binolar, obod ko'chalar, nodir

¹⁷ Abulg'oz. O'sha asar, 69-bet.

¹⁸ Ziyo Buniyodov. O'sha asar, 192-bet.

¹⁹ O'sha joyda, 194-bet.

asarlarni o'z ichiga olgan kutubxonani hammasini barbod etdilar. Yaqindagina Sharqning porloq yulduzi bo'lib turgan mashhur Urganch shahari xarobaga aylantirildi. Uning o'n minglab aholisi o'ldirildi, asir olindi va boyliklar talandi. Urganchdagi janglarda taniqli din peshvosi, alloma Shayx Najmiddin Kubroning ko'rsatgan jasorat va kahramonligi tillarda doston bo'ldi. U 1145 yilda Xiva shahrida tug'ilib umrini oxirigacha ona yurtiga sidqidillik bilan xizmat qildi. U yoshlik yillaridayoq Eron, Misr, Shomu Iroq kabi mamlakatlarga borib bilimi va tajribasini oshirdi. U Kubraviya tariqatining asoschisi hisoblanib tariqati va ta'limotida halollik, poklik, insonparvarlik, muruvvatlik va vatanparvarlik singari fazilatlar o'z ifodasini topgan. U qator asarlarning muallifidir. Chingizxon Shayxning obro'yini inobatga olib shahar qamalidan ixtiyoriy ravishda chiqib ketishini va unga hyech qanday ziyon yetkazmasligi haqida xabar qiladi. Ammo Shayxning ongi va qalbida ona yurt va xalqiga muhabbat va sodiqlik shu darajada barq urib turgan ediki, taklifni rad etdi. Vatan uchun jonini tikkanligini ham ma'lum qildi. «Hazrati Shayx Najmiddin Kubroning ovozası, — deydi Abulg'ozı, — olamga mashhur edi. Ul sababdin shahzodalar (Chnngizxon o'g'illari) hazrati Shayxga kishi yubordilar: Shayx oyoq ostida qolmasunlar, o'g'lon va ushoqlari birlan qal'adan chiqib kelsunlar» deb. Hazrati Shayx aytib yubordilarkim, men yakka emasman. Mening qarindoshim va xizmatkorlarim bor turur. Shahzodalar aytib yubordilarkim, o'n kishi birlan kelsunlar. Shayx aytdilarkim, o'ndin ko'p turur. Shahzodalar aytdilarkim, yuz kishi birlan kelsunlar. Shayx aytdilar, yuzdan ko'p turur. Shahzodalar aytdilar, ming kishi birlan kelsunlar. Hazrati Shayx aytib yubordilarkim, yaxshi kunda men bu xalqning tamomi birlan oshno va do'st erdim. Emndi yomon kunda nechuk bularni tashlab borayin: men bora bilmasmen, dedi. U mahalla mo'g'ullar hazrat Shayxning mahallasiga quyulib keldilar. Hazrat Shayx bir necha mo'g'ullarni o'z qo'llari birlan darhol jahannamga yubordilar (o'zlari ham) shahid bo'ldilar».²⁰

Binobarin Shayx o'z javobida xalq bilan bir tan bir jon ekanligini anglatib vatan manfaatini shaxsiy manfaatdan yuqori qo'ygan.

²⁰ Abulg'ozı. O'sha asar, 69—70-bet.

Shubhasiz u o'zining hayotini o'ylab ish yuritganida omon-eson qolishi mumkin edi. Ammo u xalqining boshiga yomon kunlar tushgan vaqtlarda xiyonat qilishlikni vijdoni qabul qilmay dushmanga qarshi kurashdi.

Buyuk davlat arbobi va olim Ulug'bek ham Shayx Najmiddin Kubroning vatanparvarligi va jasoratiga yuqori baho bergan edi. U shunday yozgan: «Murshidi A'zam Shayx Najmiddin Kubro xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda qotil yaloviga yopishdi. Dini haq, iqlimining shohi ul piyr sarpanjasidan o'n zabardast yigit yalov (mo'g'ullar bayrog'i)ni chiqarib ololmadilar. Sayidlar shayxi sarpanjasida kofir yalovini ko'rib hayratda qolgan oqillar bu holni sharhladilar: yalov uchini Shayx tutib, ta'rix aytdiki, vafotim sanasi «Shoxi Shuxudo» («Shahidlar shohi»)dir».²¹ Shayx Najmiddin Kubroning bunday jasorati va qahramonligi uning qalbidagi vatanparvarlikning yorqin namunasidir.

Chingizxon o'zining vahshiyligini Termizda va boshqa joylarda ham namoyish etadi. U qo'shin bilan Termizga kelganda mahalliy aholi qattiq jang qildilar. Ammo, pirovardida, dushman g'alaba qilib, ko'p odamlarni qilichdan o'tkazadi. Shu orada mo'g'ullar «bir xotunni o'ldirishga olib keldilar. Ul xotun aytdi: «Meni o'ldirmanglar. Men sizlarga bir yaxshi dur berayin», dedi. Alar dedilar: «During qayda turur?» Ul xotun aytdi: «Durni yutkan tururman, dur qornimda turur». Mo'g'ullar ul xotunning qornini yorib durni oldilar. Ul sababdii hyech o'luk qolmadi, tamomining qornini yordilar».²²

Ko'rinib turibdiki, bosqinchilar bir dona dur bahonasida qanchadan-qancha ayollarning ichak-chavog'ini ag'dar-to'ntar qilib tashlaganlar. Ular Termizni vayron etib, ko'p odamlarni qirg'andan so'ng Balxga borishib, obod va ko'rkam shaharni ham yer bilan yakson qildilar. Ular Marv shahrini bosib olishda ham vahshiylarcha harakat qildilar. Tulixon boshliq mo'g'ullar shaharga kirganlarida odatdagidek boyliklarni talab qildilar. Ular aholini shahardan haydab mol-mulkni taladilar, so'ngra odamlarni yoppasiga qirdilar. Har bir askarga 40—50 kishini o'ldirish vazifasi yuklatildi. Bu topshiriq darhol bajarildi.

²¹ Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 165-bet.

²² Abulg'ozil. O'sha asar, 70-bet.

Chingizxon o'g'liga Xurosonni bosib olish va chaqoloqdan to 100 yoshgacha bo'lgan odamlarning barchasini qilichdan o'tkazishni buyurdi. Uning poytaxti Marvda mo'g'ullar 130.000 kishini qirdi.

Vatan uchun jonini tikkan Jaloliddin

Jaloliddin 300 kishi bilan Urganchdan chiqqandan keyin G'azna shahariga borishni va bu yerda kuch to'plashni rejalashtiradi. Ammo u Niso shahrining atrofiga kelganda 700 kishilik mo'g'ul askarlari bilan to'qnashadi. Ikki tomon o'rtasidagi jangda dushman kuchlari tor-mor etiladi. Jaloliddin ko'p yarog'-aslaha va boshqa narsalarni o'ljaga oladi. U Nishopurga kelib atrof joylardagi hokimlarga birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashishni so'rab maktublarni tarqatadi. Ammo unga Nishopurda turishlik xavfli bo'lib qoldi. Chunki u mo'g'ul askarlari uni izlab kelayotganligi haqidagi xabarni oladi. Shu bois u 1221 yil fevral oyida G'aznaga yo'l oldi. Qandahor atrofida otasining qarindoshi Hirot hokimi Amin Malik 10 ming qo'shini bilan kelib Jaloliddinga katta yordam ko'rsatadi. Shuningdek Halaj qabilasining boshlig'i Sayfiddin Bo'g'roq, Balx hokimi A'zam Malik, afg'on lashkarboshisi Muzaffar Malik, qarluqlarning sardori al-Hasan bilan Jaloliddinga qo'shiladilar. Bulardan tashqari Amin Malik degan kimsa ham o'z qo'shini bilan kelgan.²³

Xo'jand jangining qahramoni Temur Malik ham Jaloliddinning eng ishonchli kishisi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda edi.

1221 yil bahorida Jaloliddin Qobul daryosining atrofida Valiyon qal'asini qurshab turgan mo'g'ul askarlariga hujum qilib va ming kishini o'ldirib g'alaba qozondi. Mag'lubiyat xabarini olgan Chingizxon «o'zining tajribali sarkardalaridan biri — Shiki Xuthu degan kishini 45 ming qo'shin bilan Jaloliddinga qarshi yuboradi. Mo'g'ullar Jaloliddin qo'shini bilan Parvon degan mavzeda uchrashadi. Jaloliddin o'z askarlariga otdan tushib, ot jilovini bellariga

²³ Shaxob ad-din Muhammad an-Nasavi. Jizne opisaniye Sultana Djalaliddina Mankburnik. Baku, 1973, S.124-125.

bog'lagan holda piyoda bo'lib jang qilishga farmon beradi. Ikki kun jang bo'ladi. Mo'g'ullar charchaganidan so'ng Jaloliddin o'z askarlariga otga minib jang qilishga buyruq beradi. Mo'g'ullar bardosh berolmay qocha boshlaydilar. Jaloliddin bu jangda askarning o'ng qanotini Temur Malikka, chap qanotini Sayfiddin A'raqqa topshirib, o'zi markazda turgan. Endi mo'g'ullar hiyla-nayrang ishlatishga harakat qilib, har bir jangchi o'zini zahirada yetaklab yurgan otining ustiga kigizdan odam shaklida qo'g'irchoq yasab, otga mindirib jangga kirsin degan buyruq beriladi. Ertasiga jangda mo'g'ullar safi ko'payib, xorazmliklarni vahimaga soladi. Mo'g'ullarning hiylasini sezgan Jaloliddin o'z askarlariga dalda berib, dushman hiylasini fosh qiladi va o'z askarlarini jangga olib kiradi. Jaloliddin harbiy mahorat ko'rsatib, mo'g'ullarni o'rab halqa ichiga oladi. Huthu no'yon dushmanga bardosh berolmasligiga ko'zi yetgach, qolgan askarni saqlab qolish uchun jang maydonini tashlab qochadi. Jaloliddin juda ko'p o'ljaga ega bo'ladi.²⁴

Jaloliddinning dushman ustidan qo'lga kiritgan ajoyib g'alabasi shuni ko'rsatadiki, agar rosmahana ahillik va birdamlik bilan harakat qilinsa ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ammo, shunga qaramay g'alabadan keyin lashkarboshilar o'rtasida o'ljalarni taqsimlanishida o'zaro janjal ko'tarildi. Oqibatda yordamga kelgan afg'onlar, halajlar va qarluqlar Jaloliddinni tashlab ketdilar. U ularni tinchitish va yarashtirishga ko'p harakat qildi, lekin shaxsiy manfaatlar va johillik ustun kelib foydasi bo'lmadi. Shundan keyin Jaloliddinning harbiy kuchi juda zaiflashib dushmanga qarshi kurashni davom ettirishning imkoni qolmadi. Bu vaqtda Parvondagi mag'lubiyatdan g'azabl原因 Chingizxon Jaloliddinga qarshi shaxsan o'zi katta qo'shin bilan yo'lga chiqdi. Bundan xabar topgan Jaloliddin G'aznadan chiqib Hindiston tomonga yo'l oladi. Oradan ikki hafta o'tgandan keyin Chingizxon G'aznani bosib oldi. So'ngra Jaloliddindan ajralib ketgan afg'onlar, halajlar va qarluqlarning barchasini qirib tashladi. Chingizxon harbiy qismni Jaloliddinni izlab topish uchun yuboradi. Bu harbiy qism G'aznaning atrofidagi G'ardiz degan joyga kelganda unga Jaloliddin hujum qilib, tor-

²⁴ Fayziyev T. Sulton Jaloliddin Muhammad bin Xovandshoh Mirxond tufqinida. «Xorazmshoh Jaloliddin Mango'berdi». Toshkent, 1999, 69-bet.

mor etadi. U Chingizxonni katta kuch bilan kelishini anglab, Sind daryosi orqali Hindistonga o'tish maqsadida u tomonga ketadi. U bu yerga yetib kelganda Chingizxon katta qo'shin bilan paydo bo'ladi. Shu tariqa Jaloliddin daryo bilan dushman o'rtasida qoladi. Bu shiddatli jang uch kun davom etadi. U bir ma'lumotda 1221 yil 23—25 noyabrda, ikkinchisida 1223 yilning avgustida bo'lgan. Uni Mirzo Ulug'bek quyidagicha ta'riflaydi: «Jaloliddin bahodirlik otini kurash maydoniga solib, totor kofirlaridan ko'pini halokat tuprog'iga qoradi va hyech bir kulfatsiz jang qildiki, agar Rustami doston tirik bo'lganida, unga bo'lgan muhabbat yopig'ini o'z yelkasiga solgan bo'lardi. Agar kumushtan Isfandiyor bu jangni mushohada qilganda, uning xizmatida qullik lavozimini jonu dili bilan qabul qilgan bo'lardi... Sulton Jaloliddin lashkarining qalbida yetti yuzta mard bilan birga mardonalik oyog'ini yerga mahkam qo'yib, tongdan to tush paytigacha qarshilik ko'rsatib, ularni chapdan o'ngga, o'ngdan chapga quvdi va har bir hamlada qanchalab tomonga ot choptirmasii, tuproqni qonga bo'yar edi. Agar bu jangni Zolning o'g'li ko'rsa edi, u Sulton Jaloliddinning qo'lini o'pgan bo'lardi.

Chingizxonning lashkari behisob edi, ular soatma-soat ko'payib borishardi va goh-goh kurash maydonini Jaloliddin uchun tang qilar edilar».²⁵

Ushbu satrlarda Jaloliddin qo'shinining ancha ozligiga qaramay qahramonlarcha jang qilib mo'g'ullarning talay qismini o'ldirganligi bayon etilgan. Boshqa tarixiy manbalarda ham Jaloliddinning jasorati va harbiy mahoratiga yuqori baho berilgan. Agar unga qo'shimcha yordam kuchlari kelganda bu gal ham g'alabaga erishishi turgan gap edi. Ha, u yolg'iz edi, faqat bir necha ming sodiq askarlari bo'lib ular «bir tomchi» qon qolguncha kurashdilar. Bu jang xususida Mirzo Ulug'bek so'zini davom ettirib: «Mo'g'ullar Sulton Jaloliddinni (jang maydonida) qo'lga tushiray deb qolganlaridan keyin Xon Sultonning o'g'li Axos Malik Sulton Jaloliddin otining jilovidan tutib, orqaga olib chiqdi. Sulton yuragi giryon, ko'zlari nigoron bo'lib, bolalari va o'g'illari bilan minglab dardu firog' ila vidolashib, qora to'riq otini minib, mo'g'ullarning behisob

²⁵ Mirzo Ulug'bek. O'sha asar, 182-bet.

qo'shiniga yana hamla qildi. Ularni orqaga surib tashlab, so'ng jilovni orqaga tortdi. Sovutini yelkadan tashlab, chatrini qo'lga oldi, cho'bini yerga otib, otiga qamchi bosdi. Sind daryosi qirg'og'idan to'uzan (suv)gacha o'n gazdan ortiqroq edi. U otni daryoga haydadi. Lashkardan bir to'dasi unga ergashgan edi, mo'g'ullarning o'qidan, yo'qlik dengiziga g'arq bo'ldi... Aytishlaricha, suvda qatl etilgan murdalarning ko'pchiligiga shu darajada o'q tekkan ediki, suv o'liklarning qoni bilan qip-qizil bo'lib ketgan edi».²⁶ Jaloliddin daryodan sog'-salomat suzib narigi qirg'oqda dam olayotganda odamlaridan yetti kishi suvdan chiqib, unga qo'shiladi. Jaloliddinning mohir lashkarboshiligi, jasorati va mardligi shaxsan Chingizxonni lol qoldirgan edi. U uning sha'niga-maqtov so'zlarini izhor etib: «Otdan dunyoda hali bunday o'g'il tugalmagan. U sahroda sher kabi g'olib jangchi, daryoda esa nahang (akula) kabi botir. Qanday qilsinki, hali hyech kim taqdir bilan hyech bir mojaroda teng kelolmagan. Lekin u mardlikning dodini berdi. Qazoi qadar qarshisida qudrat qo'lini (mardona) ochdi. Mardlik bilan undan (qazo) qutulib bo'lmaydi»... U o'g'illariga yuzlandi va dedi: «Otaga shunday o'g'il zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi».²⁷

Jaloliddin xazinani dushman qo'liga tushmasligi uchun Sind daryosiga tashladi. Buni bilgan mo'g'ullar xazinani ma'lum qismini suvdan olganlar.

Shuni aytish lozimki, Jaloliddinning oila a'zolari ham jasorat va mardlik, vatanga sodiqlik namunalarini ko'rsatdi. O'sha Sind daryosining qirg'og'idagi jangda Sulton Jaloliddinning 7—8 yashar o'g'li asirlikka olinib Chingizxon huzurida o'ldirilgan edi. Uning onasi, xotini va boshqa ayollar dushman qo'liga tushgandan ko'ra o'lganimiz yaxshi deyishib, dod-faryod bilan o'zlarini daryoga cho'ktirilishini Jaloliddindan yolvorib so'rashdi. Haqiqatan ham ularni dushman qo'lida o'lishlari turgan gap edi. Buni yaxshi bilgan Jaloliddin qat'iy talablarga binoan daryoga qayg'u-alam bilan cho'ktiradi. Ma'lum vaqtdan keyin daryodan omon-eson suzib chiqqan 4 ming askarlari Jaloliddinga qo'shildi. Shuningdek jangda

²⁶ O'sha asar, 183-bet.

²⁷ O'sha joyda, 183-184-betlar.

tirik qolib, daryodan o'tgan lashkarboshilar — Qulbars Bahodir, Kabkux, Sa'daddin Ali ash-Sharobdorlar kelishadi. Bu katta xursandchilikni uyg'otib, bamisoli onadan yangi tug'ilgandek bo'lishgan. Jaloliddinning keyingi faoliyati Hindistonda kechdi. U bu yerda uch yil mobaynida unga qarshi bosh ko'targan ayrim mahalliy hokimlar boshchiligidagi askarlarga zarba beradi. Hamda o'z mavqeyini ancha mustahkamlab oladi. Biroq unga qarshi kuchlarning zo'rayishi orqasidan Eronga yo'l oladi. Bu yerda u Xorazmshohlar davlati nomidan hukmdorlik qilayotgan ukasi G'iyosiddin Pirshohni qarshiligini yengib, o'ziga bo'ysindiradi. Qariyb butun Eronni egallagan Jaloliddin Ozarbayjonni ham qo'lga olishga harakat qildi. Natijada u bu mamlakatni bo'ysindirib, Xorazmshohlar davlatining bu yerdagi ilgarigi hukmronligini tiklaydi. Tabriz shahari bu davlatning poytaxtiga aylantiriladi. Shuningdek Jaloliddin to'rt yil mobaynida Tiflida hukmronlik qilib Xorazmshohlar davlatining mavqeyini ancha oshiradi. Butun umri xavf-xatar va janglarda o'tib, tinchlik va xotirjamlikni bilmagan Jaloliddin 1231 yil 16 avgustda Kurdiston tog'ida bir kurd kishisi tomonidan o'ldiriladi. Bu xususda taniqli Turkiya olimi Oydin Tonariy shunday yozadi: «Sultonning o'limi to'g'risida tarixchilar bergan ma'lumotlar aksariyat bir-biriga o'xshashdir. Fikrimizcha bu masalada Nasaviy bilan Juvayniyning ma'lumotlari eng to'g'risidir.

Mo'g'ullarning 15 suvoriysi Sultonni ta'qib qilishga tushdi. Ulardan ikkitasi unga yetib oldi. Sulton bir hamlada ularning ikkovini ham o'ldirdi va yana qochdi. U baland toqqa tirmashdi va qaroqchi kurdlarga duch keldi. Kurdlar uni o'ldirmoqchi bo'lganlarida Sulton ularning boshlig'iga: «Men Sultonman. Meni o'ldirishga shoshilmang. Meni yo Malik Muzaffar Shahobiddin huzuriga yoki meni o'lkalarimdan biriga olib bor, seni amir qilib tayinlayman», dedi. Qaroqchilar boshlig'i ikkinchi taklifni qabul qildi va Sultonni o'z ovuliga olib ketdi. So'ng u Sultonni xotiniga topshirib, ot topib kelish uchun ketdi. Biroq ko'p o'tmay nayza ko'targan boshqa bir kurd kirib keldi va xotindan: «Bu xorazmlik kim? Uni nega o'ldirmayapsizlar?» dsb so'radi. Xotin: «Xo'jayinim unga omonlik berdi. Chunki u Sulton ekaninin so'zladi», dedi.

Kurd: «Bu gapga qanday ishonish mumkin? Ular Oxlatda bundan ham azizroq ukamni o'ldirdilar», dedi va bir nayza zarbi bilan Jaloliddinni o'ldirdi. Bu fojia 17-20 avgust orasida ro'y bergan edi.

Oradan bir oz fursat o'tgach, Mayaforiqin hokimi Malik Muzaffar toqqa odam yuborib Sultonga tegishli narsalarni, oti, egari, mashhur qilichi va boshidagi kokili (tilsimli)ni oldirdi. Jaloliddinning yaqinlari bu narsalar Sultonniki ekanligini tasdiqladi. Malik Muzaffar Jaloliddinning jasadini Mayaforiqinga keltirib dafn qildirdi. Biroq bu yerga ko'milgan boshqa ko'pgina ulug' odamlar singari Jaloliddinning qabri qayerda ekanligini aniqlashni iloji bo'lmadi.

Juvayniyning yozishicha, Jaloliddin Ami⁴ tog'lariga chiqib olgach, tunash uchun chodir tiklagan. Kurdlardan tashkil topgan bir guruh kishilarning qimmatbaho kiyimlarini tortib olish uchun «nima qilayotganlarini va qanday inson ekanligini bilmasdan Sultonning ko'ksiga xanjar urib o'ldirdilar».²⁸

Jaloliddin vafoti Turkiston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Kavkazdagi barcha mo'g'ullarga qarshi xalqlar uchun nihoyatda katta yo'qotish hisoblandi. Chunki uning asosiy maqsadi ularni va musulmon dinini mo'g'ullardan himoya etishdan iborat edi. Shuning uchun u ko'rsatilgan mamlakatlarda ko'p mingli qo'shinni va kurashni tashkil etishga erishadi. Vaholanki, u Xorazmdan bor-yo'g'i 300 kishi bilan chiqib ketgan edi. Ammo Jaloliddin xorijiy mamlakatlarda ikki tomonlama, ya'ni mo'g'ullarga va muxolifatdagi kuchlarga qarshi tinimsiz jang qildi. Bu kuchlar ko'proq shaxsiy manfaatlarini o'ylab va nodonlik qilib Jaloliddin olib borayottan ozodlik kurashlariga katta ziyon keltirdi. Jaloliddin bu o'ta zararli harakatlarni bartaraf qilish yo'lida ko'p askarlari va mablag'ini yo'qotdi. Bu holat mo'g'ullarga qarshi kurashga salbiy ta'sir etib ularni g'alabasi uchun keng imkoniyatlarni yaratdi, Jaloliddin o'limidan keyin mo'g'ullarga qarshi kurashni mohirlik bilan boshqaradigan hukmdor yoki lashkarboshi ko'rinmadi. Natijada 1258 yilda xalifalikning poytaxti Bag'dod mo'g'ullar tomonidan egallanib vayronaga aylantirildi. Ko'p yoshu-qari kishilar halok

²⁸ Oydin Tonariy. Jaloliddin Xorazmshoh va uning davri. Toshkent, 1999, 57-58-betlar (Boboxon Muhammad Sharif tarjimai).

etildi. Vaholanki, xalifalik o'z vaqtida Chingizxonga xat yuborib, Xorazmshohlar davlatiga qarshi urush ochishga chaqirgan edi.

Jaloliddinning zamondoshlari uning ozodlik kurashiga yuqori baho bergan. Chunonchi, Ziyo Buniyodovning ma'lumotlariga ko'ra qotil kurdlar Jaloliddinning qimmatli bezaklari va egarjabduqlarini olishgan. Ulardan biri uning libosini kiyib va qurollarini o'ziga osib Amid degan joyda gerdayib yurganda Jaloliddinning yaqinlaridan biri Mayaforiqinning hokimi Al-Malik al-Ashrafga ma'lum qiladi. Bu kishini Jaloliddinga nisbatan dushmanchiligi bor edi. Ammo, u adolat yuzasidan uning bevaqt o'limidan qattiq qayg'uradi. U qotil kurdni o'ldirish, u yashayotgan qishloq aholisining barchasini qirib tashlash haqida ko'rsatma beradi.²⁹ Jaloliddinning liboslari va qurollarini toptiradi. U huzuridagi kishilarga deydi: «Siz meni uni o'limi bilan tabriklayapsizlarmi? Biroq siz buning samarasini yig'asiz, chunki Alloh nomi bilan qasam ichamanki, uning halokati mo'g'ullarning islom yerlarini istilo qilishlarini anglatadi. Endi biz bilan ya'juj va ma'juj o'rtasida devor bo'lib turgan Xorazmshohlardek biror kimsa yo'q».³⁰

Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashishda Jaloliddinga tenglashadigan ko'zga tashlanmadi. Shuning uchun ham uning vafotidan so'ng shon-shuhrati so'nmadi. Hatto uni o'ldirilmaganligi haqida ovozarlar keng tarqaldi. U haqda afsonalar to'qildi. Oydin Tonariyning ko'rsatishicha, Jaloliddinning darveshlar orasida so'fiy kiyimida turli mamlakatlarda yurganligi haqida so'zlar tarqalgan. Iroqi ajam hokimi esa bu gaplarni inobatga olib Jaloliddinni qidirtirgan. 1236 yilda Mozandaron mintaqasida bir kishi o'zini Jaloliddin deb qo'zg'olon ko'taradi. U Jaloliddinning ozodlikni ramzi hisoblab mo'g'ullarga qarshi qo'zg'olon uyushtirgan, albatta. Ammo u fosh etilib, mo'g'ullar tomonidan osib o'ldirildi. 1254 yilda Amudaryo bo'yida bir kishi o'zini Sulton Jaloliddin ekanligi haqida gap tarqatadi. U qo'lga olinadi, lekin umrini oxirigacha o'z so'zidan qaytmadi.³¹

Shunday qilib Sulton Jaloliddinning mustaqillik va ozodlik ramzi sifatida dong'i olam uzra taraldi. Bu yo'lda uning hayoti va jo'shqin

²⁹ Ziyo Buniyodov . O'sha asar, 236.

³⁰ O'sha joyda.

³¹ Oydin Tonariy. O'sha asar, 60-bet.

fioliyati g'oyatda xavf-xatarli, murakkab va o'zaro ziddiyat va kurashlar sharoitida kechdi. U xotirjamlik va osoyishtalikni ko'rmay u mamlakatdan bu mamlakatga, u shahardan bu shaharga, cho'lu, tog'u-toshlar bo'ylab kezib yurishga majbur bo'ldi. U barcha qiyinchiliklar va azob-uqubatlarni, hatto o'limni bo'yniga olib turli xalqlarni Xorazmshohlar davlatining bayrog'i ostiga birlashtirish uchun tinimsiz kurashdi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad ularni mo'g'ullarning tajovuzi va hukmronligidan holi etib, mustaqillik va ozodlikni ta'minlashdan iborat edi. Zero, u o'zbeklar, eronliklar, hindlar, ozarbayjonlar, afg'onlar va boshqa xalqlarning umum manfaatlari uchun kurashgan buyuk davlat arbobi va mashhur lashkarboshi edi. U o'zining oliy fazilatlari bilan ham hurmat va izzatga sazovor bo'lgan. Shahobiddin Nasaviy uni shunday ta'riflaydi: «Qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, tili bo'yicha turk, lekin forscha ham so'ylar edi. Uning jasoratiga kelganda, u sherlarning sheri edi va otliq yigitlar ichida eng dovyuragi edi. U yumshoq edi, jahli chiqmas edi va so'kinmasdi ham. U jiddiy edi, hyech qachon kulmasdi, faqat jilmayardi va kamgap edi. U adolatni sevardi, biroq, u duch kelgan suronli yillar uning ustidan g'alaba qildi va uning fe'lini o'zgartirdi. U fuqarolarning hayotini osonlashtirishni yoqtirardi, lekin tanazzul paytida boshqargani uchun jabr qilishga bordi. Jaloliddin og'ir holatlarda matonatli edi va mashaqqatli sinovlarda sovuqqon edi».³²

Demak Jaloliddin yuz yillarda bir keladigan tom ma'nodagi davlat arbobi hisoblanib, o'zida oliy fazilatlarni mujassamlashtirgan tarixiy shaxs bo'lgan. U barcha erksevar xalqlarning qalbida o'chmas iz qoldirgan edi. U bilan bir tan, bir jon bo'lib ozodlik yo'lida jang qilgan minglab o'zbeklarning katta xizmatlarini ham ko'rsatish ayni muddaodir. Ular uy-joylari va bola-chaqalarini tashlab mo'g'ullarga qarshi 11 yil mobaynida mardonavor kurashdilar. Jaloliddinning vafotidan keyin ular o'z ona yurtiga qayta olmadilar. Chunki bu yerda mo'g'ullar hukmronlik qilmoqda edilar. Shu bois ular xorazmliklar nomida xorijiy mamlakatlarda yashashga majbur bo'ldilar. Vatan va oilalarining diydorini ko'rolmay qayg'u-alamda dunyodan o'tdilar.

Jaloliddin vafotidan keyin lashkarboshilari amir Hisomiddin

³² Ziya Buniyodov O'sha asar, 237-bet.

Qirxon Malikni taxtga Ftrqazdilar. Biroq u o'zining qobiliyatsizligi orqasidan hokimiyatni ushlab turolmadi. Bebosh qolgan xorazmliklar Turkiyadagi u yoki bu viloyat hokimlarining xizmatida bo'lishga majbur bo'ldilar. Ular Misr va Suriada ham harbiy yurishlarda qatnashdilar. Umuman aytganda vaqtlar o'tishi bilan xorazmliklarning harbiy salohiyati zaiflashib turli joylarga tarqalib ketishadi. Natijada xorazmliklarning qoldiqlari Misrda, Suriya shimolida, Iroqda va Anado'lining janubi-g'arbida o'troq bo'lib qoldilar. Xorazmliklarning avlodlari hozirgi kunda ham Iroqning yashmolida Mosul va Qirkuk atrofidagi qishloqlarda yashaydilar, ular o'zlarini turkman deyilar. Anado'lida ular hurzumlu deb ataladilar va hozirgi kunda hurzum (Xorazm) deb ataladigan qishloqlarda yashaydilar. Shunday qishloqlardan sakkiztasi Egay dengizi sohilida Manisa (Turkiya) viloyatida joylashgan.

Xorazmshoh Jaloliddin Manguberding o'limidan so'ng uning amirlaridan biri — Saruxon Qunyo Sultoni Aloviddin Qaykubod I ning xizmatiga o'tadi. Turk olimlarining taxmin qilishicha shu Saruxon Manisa viloyatida hukm surgan Saruxoniylar sulolasiga asos solgan. Bu sulola 815 (1412) yilgacha hukm surgan. Xorazmliklar Sharqiy Anado'lidagi Kushahiya va Alashehr viloyatlarida o'troqlashib qolgan. Ularning avlodlari endi Hurzum ashirai O'vachiq, Hurzum Alayaka, Xo'rzo'm Sazdaryo, Ho'rzo'm Keserlar, Ho'rzo'm, Enbelli qishloqlarida yashaydilar.

Bulardan tashqari Urfa viloyatida Xorazm deb ataladigan uch qishloq bo'lib ularda Suriyadan qochgan xorazmliklarning avlodlari yashaydi.³³

Shunday qilib, Jaloliddin boshliq minglab o'zbeklar mustaqillik va ozodlik uchli jonlarini fido aylab begona mamlakatlarda qolib ketdilar. Bunday vatanga o'ta sodiqlikni tarix hyech qachon unutmaydi.

Mahmud Tarobiy - ozodlik kurashchisi

Mo'g'ul qo'shinlari uch yil mobaynida Turkiston zaminini qonga belab va vayronaga aylantirib o'zlarining hukmronligini o'rnatdilar.

³³ O'sha joyda. 249—250-betlar.

Yillar o'tib bora-berdi, lekin qirg'in-barotlarni va vayronagar-chiliklarning dahshatli oqibatlarini hamon ko'zga tashlanib turdi. Shu bois bu g'oyatda fojiali voqyeaning tilga olmagan birorta tarixchini topish amri mahol. XSH asrning ikkinchi yarmi — XIV asrning boshlarida yashagan Rashididdin shunday yozgan edi: «Solnomalarni aql-idrok bilan o'rganish shu haqda guvohlik beradiki inson zoti dunyoga kelgandan buyon mo'g'ul qo'shinlari tomonidan qilingan vayronalar hyech bir mamlakatda bo'lgan emas. Chingizxon va uning avlodlariga o'xshab odamlarni ko'p qirgan va ko'p mamlakatlarni bosib olgan hukmdorlar hyech qachon bo'lmagan. Hatto, nomi chiqqan jahongashta makedoniyalik Aleksandr ham Chingizxonga tenglasha olmaydi. Chingizxon shoshmay harakat qilib ko'p xalqlarni bo'ysindirdi. Uning o'g'illari va so'ngra avlodlari urushib olingan yerlarni saqlash bilan bir vaqtda boshqa mamlakatlarni ham bosib oldilar. Bosqinchilarning urushi jarayonida yirik shahar va viloyatlarning aholisi shu darajada ko'p o'ldirildiki, tirik qolganlar ozchilikni tashkil etdi. Masalan, Turkiston, Balx, Shaburgan, Talikan, Marv, Saraxs, Hirot, Ray, Hamadon, Qum, Isfahon, Marag, Ardabil, Barda, Gyandja, Bag'dod, Mavsil, Irbil va boshqa bu shaharlarga tegishli viloyatlarda shunday fojea sodir bo'lgan edi. Mo'g'ul qo'shinlari ko'p o'tib turgan viloyatlarda esa odamlar ko'p o'ldirildi yoki ular qochib jon saqladilar. Turar joylari esa kultepaga aylantirildi. Hozirda faqat undan bir qism joylardagina obodonchilik va bunyodkorlik ko'zga tashlanmoqda. To'g'ri ayrim joylarda sun'iy sug'orish, bozorlar va shaharlarni tiklashga harakat qilinmoqda, lekin bu ishlarning oxiriga yetkazilmaganligi guvohi bo'lib turibmiz. Bordiyu ko'rsatilgan ishlar nihoyasiga yetkazilganda ham vayrona bo'lib yetgan joylarga solishtirilsa hyech narsaga arzimaydi».³⁴ Darhaqiqat Turkiston hududida shahar va qishloqlar o'zlarining asl holiga kelmagan edi. Bu kamdek mo'g'ul hukmdorlarining zulmi va talon-taroji tobora kuchayib bora berdi. Ma'lumki ular ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lganliklari uchun davlat boshqaruvi bo'yicha bilimga va tajribaga ega bo'lmaganlar. Shuning uchun ular mahalliy yuqori tabaqaning sotqin guruhlariga

³⁴ Rashididdini. Sbornik letopisey, tom. 3. M., 1946, S. 308—309.

tayangan holda ish yuritdilar. Xususan, Chingizxonga katta yordam bergan Mahmud Yalavoch Movarounnahrning boshqaruvchisi etib tayinlandi. Bu kishi Xo'jand shahrini o'ziga poytaxt etib, bosqinchilarga sidqidillik bilan xizmat qiladi. U shu darajada boyib ketgan ediki, o'lkadan olinadigan soliq va boshqa to'lovlarni oldindan bosqinchilarga o'z hisobidan to'lagan. So'ngra yil davomida soliqlarni oshig'i bilan o'z foydasiga yig'ib ola bergan.

Mahmud Yalavochning ixtiyorida mo'g'ullardan tashkil topgan harbiy qismlar bo'lib, ular butun o'lka xalqini o'z sirtmog'ida ushlab turganlar. O'sha harbiy qismlarning ta'minoti xalqning zimmasiga yuklatilgan edi.

Xullas, mo'g'ullarning hukmronligi moddiy va ma'naviy qashshoqlikni, adolatsizlik va zo'ravonlikni keltirdi, xolos. Shu bois 1238 yilda qo'zg'olon ko'tardi. Bunga Buxoro yaqinidagi Tarob qishlog'ida Mahmud Tarobiy boshchilik qildi. U jamoa ahliga shunday dedi: «Ey adolat himoyachilari! Nima uchun kurashni kutishimiz va kechiktirishimiz kerak, mamlakatni g'ayridinlar (mo'g'ullar)dan ozod etish zarur. Har kim darhol qurollanib ishga kirishsin!» Xalq olomoni bu chaqiriqni to'la quvvatlab qo'llariga nima tushsa shular bilan qurollanib, shaharga bostirib kirdilar. Ular bu yerda hokimiyat saroyini egalladilar. Qo'zg'olonni uyushtirishda taniqli olim Shamsiddin Mahbubi faol qatnashadi. U mazlum xalqni kurashga da'vat etib Mahmud Tarobiy bilan birga qo'zg'olonga boshchilik qiladi. Kun sayin qo'zg'olonga qo'shilgan dehqon va hunarmandlarni soni oshib bordi. Ular bosqinchilar xizmatini qilib boyigan kishilarni o'ldirdilar va mol-mulkini taladilar. Shahar ma'muriyatining vakillari qo'zg'olon haqida Xo'janddagi Mahmud Yalavochga yordam so'rab choparni yubordilar. Shuningdek Mahmud Tarobiyni yashirinch a o'ldirish rejasini tuzdilar. U bundan xabar topib, xavfsizlikni ta'minlash maqsadida shaharning biqinidagi Abu Xafas nomli tepalikka o'rnamshadi. Bu yerda uning atrofiga uzoq-yaqin joylardan kelgan ko'p odamlar jipslashadi. So'ngrau kattakuch bilan shahargakelib hokimiyat saroyiga o'rnamshib nufuzli kishilarni huzuriga taklif etadi. Bu vaqtda uning mavqeyi shu darajada kuchayib kettan ediki, ruhoniylarning sardori Burxoniddin Mahmud Tarobiyga xalifalik hokimiyati vakolatini beradi. Bu bilan uning hokimiyati rasmiylashtirilgan edi. Shundan keyin

Mahmud Tarobiy mo'g'ullarning xizmatidagi nufuzli kishilarni o'ldirtiradi, mol-mulkini talatadi. Hamda xalqning, xususan kambag'allarning manfaatini ko'zlab ish yuritadi.

Mahmud Tarobiyning jazosidan qochib qutilgan mahalliy yuqori tabaqa vakillari Karmanaga borishib, mo'g'ullar bilan birgalikda harbiy tayyorgarlikni ko'radilar. O'z navbatida Mahmud Tarobiy ham dushmanga qarshi jangga tayyorlanmoqda edi. Shu orada shahar atrofidagi qishloqlarning aholisi bolta, ketmon va boshqa narsalar bilan qurollanib, qo'zg'olonchilarga qo'shildilar. Ko'p o'tmay qo'zg'olonchilar bilan mo'g'ullar qo'shinlarining o'rtasida qattiq jang bo'lib 10 ming kishi o'ldirildi. Ammo jangda Mahmud Tarobiy va Shamsiddin Mahbubi halok bo'ldilar. Natijada qo'zg'olonchilar o'zlarining mohir boshliqlaridan judo bo'lishib og'ir ahvolga tushib qoldilar. Mahmud Tarobiyning ukalari — Muhammad va Ali qo'zg'olon rahbarligiga o'tkazildi. Biroq ular qobiliyatsiz kishilar bo'lib chiqdilar. Bu qo'zg'olonchilarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'sha ko'rsatilgan jangdan bir hafta o'tgandan keyin Ildiz nuyon va Chaqan ko'rchi boshchiligida katta qo'shin Buxoroga kelib qo'zg'olonchilarga qarshi hujum qiladi. Har ikki tomon o'rtasida dahshatli jang bo'lib qo'zg'olonchilardan 20 ming kishi o'ldirildi. Bunchalik ko'p sonli kishilarning o'ldirilishi qo'zg'olonni g'oyatda keng quloch yoyganligidan dalolat beradi. Bu yerda favqulodda o'ldirilmay qolgan yoki qochgan kishilarni hisobga olsak u vaqtda qo'zg'olonchilarning soni yana bir necha mingga ko'payadi. Urush paytida Mahmud Tarobiyning ikkita ukasi ham o'ldiriladi.

Biroq mo'g'ullarning qirg'in-baroti va vahshiyliigi davom etabardi. Masalan 1273 yilda Eronda hukmdorlik qilayotgan Hulaguxonning o'g'li Abagaxonning ko'rsatmasiga binoan mo'g'ul qo'shini Buxoroga hujum qilib 50.000 kishining qilichdan o'tkazdilar, boyliklarning taladilar, madrasa va imoratlarning yondirdilar. Vayronaga aylantirilgan shaharda 7 yilgacha birorta jonli kimsa ko'zga ko'rinmadi.³⁵ Bundan oldin ular Shahrisabz va Nasaf (qarshi)ni ostin-ustun qilgan edilar.



³⁵ O'sha joyda, 87-bet.

XIV ASRNING 60-YILLARIDA OZODLIK KURASHLARNING AVJIGA MINISHI



Amir Temur - xalq xaloskori

XIV asrning 50—60 yillarida o'lkada parokandalik avj olib keng mehnatkash ommaning ahvoli yanada yomonlashdi. Shunday sharoitda Temur siyosiy maydonga chiqdi hamda vatan mustaqilligini tiklash uchun nihoyatda mashaqqatli va xavf-xatarli yo'lni bosib o'tdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Temur yoshligidanoq aql-idrokli, jasoratli va kelajagi porloq siymo sifatida tanildi. O'rta asr muallifi Mavlono Lutfilloh Nishaburiy so'ziga ko'ra Temur 7 yoshligida otasi Tarag'ay bilan qarindoshlarinikiga borgan. Bu kishi ko'pdan-ko'p mollarga va qullarga ega bo'lib, doimo xavotirlikda yashar ekan. U Tarag'ayga debdi: «Xudo menga ko'p molu-davlat berdi, lekin uni saqlashga ojizman, qullarim sabr-toqatli emaslar, farzandlarim salohiyatsiz. Shu sababdan molu-dunyoyimga nuqson yetmasin deb qo'rqaman». Temur gapga aralashib debdi: «Ey ota, farzandlaringga mollaringni bo'lib ber va undan so'ng ularni o'z mol-mulklariga dahl qilgilkim, ular o'z-o'zi bilan ovora bo'lsin. So'ng turk qullarini hind qullarining tepasiga qo'ygilkim, hindlarni o'z amr-farmonlariga bo'ysindirsinlar. Keyin har uch qulni ulardan aqlliroyq bu qulning ixtiyoriga topshir. So'ng ularni har birini

yettitadan amiri qil. Keyin yetmish qo'lga bosh bo'lgan ana shu yetta qulni bir-birining ta'zim va tasrifiga buyur. Ularni ko'zdan qochirma, chunki bir-birlari bilan ko'p suhbatlashadi. O'sha kishi Temurning aql-zakovatiga qoyil qolib uning otasiga debdi: «...Sening bu farzanding jahonga podshoh bo'ladi, chunki buni uning shu gaplaridan fahmlab turibman...» So'ng siyohdon va qalam hozirlab o'sha suhbatda Temurdan xat yozdirib oldiki, bunda «uning farzandlari, zurriyodi va yaqinlaridan xiroj olmasin: ularning gunohlaridan o'tsinlar: uning qavmi tarxon qilinsin».³⁶

Buni qarangki Temur taxtga chiqqandan keyin va'daga muvofiq o'sha badavlat kishining avlodlariga tarxon unvonini beradi. Umuman aytganda Amir Temurning aql-idroki, farosati, mardligi va jasorati yuksak adab-ahloqi bolalik kezaridayoq jamoa ahliga ayon bo'lgan edi.

Mo'g'ullar uzoq vaqt davomida og'ir soliqlar solib aholini tinkasini quritganlar. Temur ajnabiy bosqinchilarning shafqatsiz zulmi va azob-uqubatlarining jonli guvohi bo'lib qanday bo'lmasin vatanni ulardan ozod qilishga ahd qilgan. Buni «Temur tuzuklari»da keltirilgan ma'lumotlar yaqqol ko'rsatib turibdi. Mo'g'ul xoni Qazag'on o'lgandan keyin (1358 y.) Movarounnahrda o'zaro chiqishmovchilik va tarqoqlik zo'raydi. U yoki bu viloyatdagi mo'g'ul hokimlari yakkahokimlik uchun o'zaro kurash olib bordilar.

1360 yilda Yettisuv va Sharqiy Turkiston hokimiyatining tepasida turgan mo'g'ul xoni Tug'luq-Temur Movarounnahrni bo'ysindirish uchun harbiy yurish boshlaganligi ma'lum bo'ldi. Bu to'g'risida Temur shunday deydi: «Tug'luq-Temurxon (sarkardalari) Bekchik va Xojibek Erkin va ulug' Tuqtemir Kerayt va Jetening boshqa amirlardan uch favj (qism) qo'shin tuzib, ularni Movarounnahr mamlakatini talon-taroj qilish uchun yuborganligi, o'sha uch favj qo'shin Huzor degan joyga kelib tushganligi xabari qulog'imga yetdi. Shunda Tug'luq-Temurxonni borib ko'rishdan ilgari bu ochko'z amirlarni mol-dunyo bilan aldab Movarounnahr viloyatini qatlu g'oratdan qutqarib qolishga qaror qildim.

³⁶ Tarxon — soliq va jarimalardan tamoman ozod etilgan kishi, yirik, mansabdor tarxonlar xonning oldiga so'roqsiz kira olar va uni ustidan to'qqiz marta jinoyat sodir bo'lmaguncha jazoga tortilmas edilar.

Tilga olingan amirlarni ko'rganimda ularni haybatim bosdi shekilli, ko'p hurmat ko'rsatib, meni ortiqcha siyladilar... Sovg'a-sovrin yo'sinda ularga berilgan har turli taniq mollar ko'zlariga ko'p ko'rindi va Movarounnahrni bosib olish va talon-taroj qilish niyatidan qaytdilar. So'ng to'g'ri borib Tug'luq-Temurxon bilan ko'rishdim. Xon kelishimni yaxshilikka yo'yyib, (saltanat ishlarida) mendan kengash so'radi. Ko'rsatgan kengashlarimni to'g'ri deb topib qabul qildi. Shu asnoda Tug'luq-Temurxonga xabar keltirdilarkim, (yuqorida aytilgan) uch favj qo'shin amirlari, yerlik xalqdan naqd pul sovrinlar olib, ular bilan kelishmishlar. Xon shu ondayoq mol-mulk va naqd pullarni qaytarib olish uchun odam tayin qildi va amirlarni bundan buyon Movarounnahrqa borishlarini man etdi. Mansablaridan bo'shatdi. O'rinlariga Xoji Mahmudshoh Yasavuriyni tayin qildi.

Bu haqda amirlar xabar topgach, dushmanlik bayrog'ini ko'tarib, yurtlariga qaytib keldilar. Yo'lda xonning devon begisi va bosh maslahatchisi O'g'lonxo'jani uchratdilar. Uni ham o'zlariga og'dirib olib Jete tomon yuzlandilar.

Aynan shu vaqtda Tug'luq-Temurxonning Dashti Qipchoqdagi amirlari ham isyon tig'ini ko'targani haqida xabar olindi. Bundan xon tashvishga tushdi. U mendan maslahat so'radi va Jete tarafiga qarab yo'l oldi. Movarounnahrni esa menga qoldirdi va bu xususida yorlig' ahdnoma yozib berdi. Amir Qarachor no'yonning Movarounnahrda tumanini ham menga topshirdi. Men butun Movarounnahr viloyatiga, to Jayxun daryosining sohillarigacha yerga hukmron bo'ldim. Davlat, va saltanatimning boshlanishida eng oldin qilgan kengashim shul edi».³⁷

Ko'rinib turibdiki, Temur mo'g'ullarni ochko'zlikda va bag'ritoshlikda ayblab, aholini ularning talon-tarojidan ozod qilishni maqsad qilib qo'ygan. U bilimdonlik va tadbirkorlik bilan ish yuritib o'z maqsadiga erishgan va hokimiyatni qo'lga kiritgan. U bu vaqtda 26 yoshda edi. Biroq, Temurning hokimligi uzoqqa cho'zilmadi. 1361 yilda Tug'luq Temur Movarounnahrqa qo'shin tortib kelib, hokimiyatni Temurdan olib o'z o'g'li Ilyosxo'jaga

³⁷ Temur tuzuklari. Forsidan Alixon Sog'unii va Hubibullo Karomatov tarjimasi, izohlar B.Ahmedovniki. Toshkent, 1996, 28-29-betlar.

berdi. Temur esa bosh qo‘mondonlik vazifasiga tayinlandi. Shundan keyin mo‘g‘ullarning zulmi va zo‘ravonligi yanada kuchayib ketdi. Ular islom dinini ham oyoq-osti qildilar.

Ularning hukmdorlarini talay qismi sirt dangina dinga o‘zlarini moyilligini namoyish etib, amalda budda diniga sodiq bo‘lib qolaverdilar. «Temurnoma»da yozilishicha Amir Qazag‘on (1346—1358) 40 kun ichida yuzlab mullalarni o‘ldirib din peshvolarini jazolagan. Uni maktab va madrasalarni xarobaga aylantirishi orqasidan o‘quvchilar tarqalib ketganlar. Manbada dinni achinarli holati haqida quyidagi bayt keltiriladi.³⁸

*Qizil qon bo‘lub mavji to‘fonlar, -
Shahid o‘ldilarkim aziz jonlar.
Ketub arbobi din, chu islomdin,
Alar ichra tushti ajab kibru kin.
Jaloyi vatan bo‘ldi ustodlar,
Din ahli xafadur, kuffor shodlar.
Kalisoyu butxonalar zeb ilan,
Berib necha oroyu tortib ilan,
Bo‘lub madrasayu masjid xarob,
Musulmon parishonu hayron sob,
Shariat chirog‘i qolibdur o‘chib,
Shariatning talabi har yon qochib,
Musulmon barisi g‘amu qayg‘uda,*

Qazag‘onning islom diniga nisbatan dushmanlik xalqning nafratini qo‘zg‘atgan. Xususan, Buxoro ahli «bizlar yarog‘ va aslaha olib, jonimizdan kechduk, zolim ila jang qilurmiz» — deyishib bosh ko‘targanlar. Olomon orasidan Inoq ismli kishi Qazag‘onga tosh otib boshini yorgan. Buni orqasidan u o‘lganligi haqida ma‘lumot mavjud. Bosqinchilar mol-mulklarni talash va odamlarni o‘ldirishdan tashqari nufuzli kishilarni asirlikka olgan. Masalan, ular tomonidan yetmishga sayid va sayidzodalar olib ketilgan edi.

Temur ularning zulmiga qarshi kuraishb, sayidlarni, mazlum-

³⁸ Salohiddin Toshkandiy. Temurnoma. Nashrga tayyorlovchi Poyon Rovshonov. Toshkent, 1991, 106-bet.

larni zolimlardan xalos qilgan. Uning bunday harakatlari aholining barcha toifalarini fikri-zikrini ifoda etardi. Shuning uchun ham ular ozodlik kurashida Temurga katta umid va ishonch bilan qaradilar.

«Movarounnahr xalqi mening bu ishimdan xabar topishi bilanoq, — deb yozadi Temur, — tezda (mo'g'ullarga) hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim (mo'g'ullar) toifasidan butunlay bezigan edi. Movarounnahrning aholisining kattayu-kichigi menga birlashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari esa (Mo'g'uliy) toifasini daf qilib yo'qotish haqida fatvo yozib berdilar. Ulus amirlari va qo'shin boshliqlarining ba'zilar ham bu ishga qo'shilib, bizga birlashdilar. Bu to'g'rida yozgan ahdnoma va fatvolarning nusxasi bu edi: «To'g'ri yo'llik xalifalar, Alloh taolo ularning jamisidan mamnun bo'lsin, tutgan yo'llariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrdagi butun aholi islom, sipohu raiyat yoxud ulamo-yu mashoyix bo'lsin, Amir Temurga izzatu-ikrom ko'rsatib, uni Amir Temur Qutbi saltanati Oliy deb atasinlar va uni Allohning (yerdagi) qudrati — saltanat taxtiga loyiq ko'rsinlar. Musulmonlarning yeri, nomusi, mol-mulki hamda joniga zulm-sitam qo'lini cho'zgan (mo'g'ullar) toifasini daf qilishda va umuman yo'qotishda Temurga (yordamlashish uchun) o'z mol va jonlarini (ayamay), tirishib harakat qilsinlar. Biz o'z ahdu-bay'atimizga sodiq qolurmiz. Agar bergan ahd-paymonimizdan qaytsak Allohning qudratiyu-quvvati va yordamidan chiqib, shayton qudrati va yordami yo'liga kirgan bo'laylik». Bu fatvoni menga ko'rsatganlaridan keyin jangu-jadal bayrog'ini ko'tarib, (mo'g'ullar) ustiga lashkar tortishga qaror qildim va mazlumlarni haqqini zolimlardan olmoqchi bo'ldim. Lekin bir necha razil kishilar bu sirni fosh qilib qo'ydilar».³⁹

Binobarin, Temur aholining barcha toifalari tomonidan ajnabiylarga qarshi kurashning ramzi va sardori sifatida tan olingan edi. Shuning uchun ham Tug'luq-Temurxon uni yashirinchalik o'ldirish haqida ko'rsatma bergan edi. Natijada Temur hayoti xavf ostida qoldi. Shu bois u Samarqanddan ketishdan boshqa iloji qolmadi.

1361—1366 yillarda Amir Temur ayrim mo'g'ul hukmdorlari

³⁹ Temur tuzuklari, 30-31-betlar.

bilan murosaa qilishga majbur bo'radi. Xususan, u dastavval Tug'luq Temur, so'ngra Amir Husaynlar bilan hamkorlikda ish yuritadi. Ayniqsa, Amir Husayn bilan aloqasi qizg'in tus olgan. Ma'lumki, u Amir Husaynning singlisi — O'ljaoy Turkanga uylanib, qarindoshchilik yuzaga kelgan edi. Mo'g'uliston xonlari Amir Temurni ham, Amir Husaynni ham umumiy dushmani hisoblagan. Bu holat ham ularni bir-birlariga yaqinlashtirgan. Ammo ularning maqsadlari bir-birlariga zid edi. Chunonchi Amir Temur hali yetarli harbiy kuchga ega bo'lmaganligi uchun Amir Husayndan foydalanib, ashaddiy dushman Mo'g'ulistonga, xususan, Ilyosxo'jaga zarba berishni uylagan. Amir Husayn ham unga tayangan holda o'lkada yakkahokimlikni qo'lga kiritishni maqsad qilib qo'ygan. Shu tariqa Amir Temur sharoit taqozosiga ko'ra dushmanlar bilan vaqtinchalik murosaa qilishni lozim topgan.

YO ozodlik, yo o'lim!

Mazkur vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan so'zlar 1365 yilda Samarqandda bosh ko'targan qo'zg'olonchilarning shiori sifatida jaranglagan edi. Qo'zg'olonchilar Sarbadorlar nomi bilan atalgan edi. «Sarbador» so'zi «bosh dorga» demakdir. Buning ma'nosi g'alaba nasib etsa ozodlikka chiqishlikni, bordiyu mag'lubiyatga duchor bo'linsa dorga osilishga tayyorlikni anglatgan. Sarbadorlar qo'zg'olonining arafasida mamlakatda mo'g'ul shahzodalarining yakkahokimlik uchun kurashi qizg'in tus olib, hayot g'oyatda og'irlashgan. Ayniqsa Amir Husayn va Ilyosxo'ja o'rtasidan kurash katta talafot va parokandalikni yuzaga keltirmoqda edi.

1365 yilda ular o'rtasida Toshkent bilan Chinoz o'rtasida loygarchilik paytida jang bo'ldi. Natijada Amir Husayn yengiladi. Bu g'alabadan ruhlangan Ilyosxo'ja Samarqandni egallash maqsadida yo'lga chiqadi. Bundan xabar topgan Samarqand shahrining aholisi o'zinnng kuchi bilan dushmanga zarba berishlikka ahd qiladi. Ammo Samarqandning mudofaa devori Chingizxon tomonidan buzib tashlanib hamon xaroba holatda edi. Dushman kuchi yaqinlashib kelayottani haqida xabar olinishi bilan shahar maydoniga minglab kishilar to'planadi. Bu yerda madrasa talabasi

Mavlonzoda, paxta tituvchilar mahallalik Abu Bakr Kalaviy va Xurdak Buxoriylar xalqni bosqinchilarga kurashishga da'vat etdilar. Mavlonzoda so'zga chiqib dedi: Musulmon ahli! Hozirda g'ayridinlar — mo'g'ullar kuchli qo'shin bilan bizlarning mol-mulkimizni talon-taroj etish uchun kelmoqdalar. Xalqdan turli soliqlarni undirayotgan va o'zlarining xohishlaricha sarflayotgan hokimiyat vakillari og'ir kunda musulmonlarni tashlab qochdilar. Aytinglarchi, kim islom dinini himoya qilish uchun rahbarlik va mas'uliyatni zimmasiga oladi?

Jamoa ahli yakdillik bilan Mavlonzodani o'zlariga sardor etib sayladilar. Shundan keyin u xalqni dushmanga qarshi jang qilishga chaqirib harbiy tayyorgarlikni boshlab yubordi. «Harakatning rahnamolari, — deb to'g'ri yozadi ingliz olimi Xilda Xukxem, — madrasa talabasi Mavlonzoda, Nadof (paxta tituvchi) Abu Bakr barcha shahar ahliga murojaat qilib, o'z himoyalari uchun jangga otlanishga da'vat etishdi. Masjid yonidagi maydonda umumshahar majlisi chaqirilib turli tabaqalarga mansub bo'lgan o'n minggacha odam yig'ildi. Majlisda Mavlonzoda shahar hokimlarini qo'rqqoqlik va ochko'zlikda ayblab, boshiga og'ir kun kelganida xalqni o'z holiga tashlab, qochib ketganlarini aytdi. «Qanchalik katta tovon to'lamaylik, — dedi u — baribir Samarqandni qutqarib qola olmaymiz. Shaharni omon saqlashning yolg'iz yo'li o'z hayotimizni himoya qilib, jangga otlanmakdir». Shundan so'ng u aslzodalarga murojaat qilib, «Qay biringiz dini islom himoyasiga boshchilik qilishingiz mumkin?» — deb so'radi. Biroq ular «churq» etib og'iz ochishmadi. Shundan so'ng u xalqqa murojaat qilib, shahar mudofaasini o'zi tashkil etajagini aytib, bu ishda uni qo'llab-quvvatlashlari lozimligini iltimos qildi...»⁴⁰

Xalq Mavlonzodani qo'llab uning boshchiligida mo'g'ullarga qarshi kurashishlarini bayon etdilar. Shaharning katta-kichik aholisining barchasi ko'tarinki ruh va g'ayrat bilan shahar mudofaasini mustahkamlashga nima zarur bo'lsa barchasini amalga oshirdilar. Chunonchi tor ko'chalarning ochiq tomoniga to'siqlar qurildi. Baquvvat va jasoratli yigitlar qurollantirilib vazifalari belgalandi. Ularning soni 10 ming kishini tashkil etgan. Mavlonzoda uch kechayu uch kunduz uxlamay qo'l ostidagi vatan himoyachi-

⁴⁰ Xilda Xukxem. Yetti iqlim sultoni. Toshkent, 1999, 49—50-betlar.

larining jangovarligini ta'minlashga qaratilgan muhim choralarni ko'rdi. Ilyosxo'ja va qo'shinlari shaharni qamal qilib jangni boshladilar. Mavlonzoda ularni tuzoqqa tushirish uchun shaharga kiradigan bir ko'chani ochiq qoldirib, o'zi 2000 kishilik qurolangan odamlari bilan pistirmada turadi. Mo'g'ullar xotirjamlik bilan o'sha ko'chaga kirganida pistirmadagi shaharliklarning to'satdan qilgan hujumiga bardosh berolmay ming kishini yo'qotib chekinadilar. Boshqa ma'lumot bo'yicha mo'g'ullardan ikki ming kishi o'ldirilgan.⁴¹ Ertasi kunida ham mo'g'ullar hujumni ehtiyotlik bilan qaytardilar. Biroq g'alabaga erisha olmay, qamalni tashlab ketishga majbur bo'ldilar.⁴² Sarbadorlarning bu g'alabasi katta ahamiyat kasb etib, ovozasi mamlakat bo'ylab tarqaldi. Shunisi kishilarni hayratga soldiki, yaqindagana Amir Husaynning kuchli qo'shinini tor mor etgan Ilyosxo'ja, oddiy xalq tomonidan sharmandalarcha mag'lubiyatga uchratildi. Hatto samarqandliklarning g'alabasi haqida xabarni Amir Husayn ham, Amir Temur ham mamnuniyatlik bilan qarshi oldilar. Bu vaqtda Amir Temur Balxdan Qarshiga kelib harbiy tayyorgarlik ko'rmoqda edi. Sarbadorlar hokimiyatni qo'lga olib bir yil mobaynida shaharni boshqarib turishdi. Bu vaqtda «Sarbadorlardan chiqqan rahnamolar shaharda o'z hokimiyatlarini mustahkam o'rnatib hukmdorlar va shuhratparast amirlarni bir chetga surib qo'ya boshlagan edilar».⁴³ Haqiqatan ham ular mo'g'ullarga tayanib boylik orttirgan va zulmni kuchaytirgan ayrim yuqori tabaqa vakillarini jazolaganlar.

Sarbadorlar dinni niqob qilib haddidan oshgan nufuzli kishilarni ham jazolagan bo'lsalar kerakki, ularni «dinsiz»likda ayblovchi tuhmat so'zlari tarqatildi. Aftidan Amir Husayn o'zining ashaddiy dushmani Ilyosxo'jani mag'lubiyatidan xursand bo'lgan bo'lsa kerakki, Samarqandga elchilar bilan tuyva va belbog'lar, qilich va hokimiyatni boshqarishga vakolat beruvchi yorliqni jo'natgan. Bu elchi va sovg'alar Sarbadorlar tomonidan mamnuniyatlik bilan qabul qilingan. Ular Qarshida istiqomat qilayotgan Amir Temurga sovg'alar yuborishgan. O'z navbatida Sohobqiron Sarbadorlarga elchisini yuborib maslahatlarini yetkazgan.⁴⁴

⁴¹ Bartol'd V.V. Soch.tom 2, chast 2, S. 372.

⁴² O'sha joyda.

⁴³ Xilda Xukxem. O'sha asar, 50-bet.

⁴⁴ Bartol'd V.V. Бартольд В.В. O'sha asar, 374-bet.

Amir Husayn 1366 yil bahorida Samarqandga yurishi oldidan Sarbadorlar huzuriga elchi yuborib ularga to'la ishonishi va hurmat qilishini ma'lum qiladi. U Samarqand yon bag'ridagi Konigil degan so'lim joyga o'rtnashganda sarbador boshliqlari sovg'alar bilan kutib oladi. Ammo Sarbadorlar ertasiga Amir Husayn huzuriga kelishayotganlarida uning odamlari hibsga oladilar. So'ngra ular osib o'ldiriladi. Shunday qilib Amir Husayn Sarbadorlarga ko'rsatgan hurmati va yuborgan sovg'alari shum niyat bilan qilingan siyosat bo'lib chiqdi. U Sarbadorlarning kuch-qudratidan xavfsirab ko'zbo'yamachilik bilan ularda ishonch hosil qilish va to'qnashishni oldini olish rejasini tuzgan. Uning bunday qilishi bejiz bo'lmagan, albatta. Zero, Sarbadorlar shaxsan Ilyosxo'jaga emas balki umuman mo'g'ullarning hukmronligiga qarshi kurashgan. Buni yaxshi tushungan Amir Ho'sayn pirovardida Sarbadorlarning uning o'ziga ham qarshi kurashini oldini olish uchun hiyla-nayrang ishlatib, Sarbadorlarning talay qismini o'ldiradi.

Ayrim olimlar bu hodisalarning ro'y berishida Amir Husayn Amir Temur bilan birgalikda qatnashgan deb hisoblaydilar. Ammo, aslida Amir Temurning bunday qilishiga ishonish qiyin. Chunki barcha o'rta asr manbalarida uning Mavlonzodani o'limdan saqlab qolganligi uqdirib o'tilgan.⁴⁵ Sohibqironning bu ishni qilishi tabiiy hol edi. Chunki uni o'zi ham mo'g'ullarning hukmronliga va zulmiga qarshi bo'lib oshkora kurashga fursatni kutmoqda edi. Shuning uchun ham Sarbadorlar o'zlarining g'alabasi haqida dastavval elchi orqali Amir Temurga ma'lum qilgan edilar. Yuqorida ko'rsatilganidek unga sovg'alar ham yuborilgan.

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur Sarbadorlar kurashiga xayri-xohlik bilan qarab, ularning bosh sardorini o'limdan qutqarib qolgan. «Sarbadorlarning ayrim boshliqlari bilan, — deydi I. Mo'minov, — oldin ham aloqada bo'lganligi rivoyat qilinadi... Ammo Temur bilan Sarbadorlarning ayrim rahbarlari o'rtasidagi bu aloqa qaysi sabablarga ko'ra kelib chiqqanligi hali to'la aniqlangan emas. Bizning fikrimizcha, mo'g'ul zulmi asoratiga qarshi kurash va Movarounnahrda mustaqil davlat tuzish uchun olib borilgan

⁴⁵ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan o'giruvchi Yunusxon Hakimxonov, izohlarni tuzuvchi Habibullo Karamatov. Toshkent, 1996, 50-bet.

harakatlar Sarbadorlarning ayrim rahbarlarini, birinchi navbatda, ularning ilhomchisi va ideologi Mavlonzodani va Temurni bir-birlariga yaqinlashtirgan, ko'makdosh etgan; xuddi shu sababdan Sarbadorlar boshliqlari Temur faoliyatining asosan birinchi davrida yuqoridagi maqsadli amalga oshirish uchun Temurni qo'llab-quvvatlaganlar, unga yordam berganlar».⁴⁶

Mazkur satrlarda bayon etilgan fikrlarga to'la qo'shilish mumkin. Buni quyidagi ma'lumot ham tasdiqlaydi. Chunonchi, Amir Temurning mo'g'ullarga qarshi qaratilgan faoliyati uni Eronda yuzaga kelgan Sarbadorlar davlati bilan do'stlashishga olib kelgan. Bu yerda 1337 yilda Sarbadorlar mo'g'ullarning hukmronligini ag'darib, o'zlarining davlatini tashkil etgan edi. Bu davlat 1581 yilgacha, ya'ni salkam 45 yil hukm surgan edi. «Xoja Ali Muayyad taxtda o'tirgan vaqtda, — deyiladi manbada, — Sarbadorlar mamlakati ziyod bo'ldi: Turshiz, Ko'histon, Tabs va Kilikini bosib oldi va Domg'ondan to Saraxsgacha (bo'lgan yerlarni) o'zining tasarruf tutamiga kiritdi. Ali Muayyad o'zining hukmronligi davrida ulug' Amir, buyuk Sohibqiron Temur Ko'ragon janoblari bilan hamjihat va sadoqatli bo'ldi; (Unga) do'st va xushmuomalada bo'ldi. Xoja Ali Muayyad bir necha bor Amir Vali bilan to'qnashdi va ularning bir-birlariga dushmanligi benihoya kuchayib ketdi. Amir Vali Sabzavor shahrini qamal qildi va Xoja Ali Muayyad ulug' Amir Temur Ko'ragondan yordam, madad so'radi va Totu nomli kishini Samarqandga, Sohibqiron huzuriga yubordi. To'rt oydan so'ng buyuk Sohibqiron Amir Temur Xurosonga lashkar tortdi. Xoja Ali Muayyad Saraxsga ulug' Amir Temur Ko'ragonning istiqboliga bordi, sultonlik marhamatiga musharraf bo'ldi. Ulug' Amir Temurning... unga sadoqati voqye' bo'ldi va Xoja Ali Muayyad Xuroson mamlakatini Amir Temurning tasarrufiga topshirdi. O'zi Sohibqironning mulozimatiga mashg'ul bo'ldi.

Hikoyat qiladilarki... Xoja Ali Muayyad yetti yil Sohibqiron bilan hamsuhbat va unga mulozim bo'ldi. Uning jiyanlari va boshqa qarindoshlari ham o'sha mulozimatda unga hamroh edilar».⁴⁷

⁴⁶ Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Toshkent, 1980, 11-bet.

⁴⁷ Ahmedov B. Davlatshoh Samarqandiy. Toshkent, 1968, 45-46-betlar.

Binobarin Amir Temurning Sarbadorlarni qo'llab-quvvatlashiga shubha yo'q. Shunday ekan, nima uchun u Samarqandda Amir Husayn Sarbadorlarni jazolayottanda unga qarshi kurashmadi degan savol tug'iladi. Sohibqiron sharoit taqozosiga ko'ra bu ishni qila olmas edi. Chunki Amir Husayn katta kuch va salohiyatga ega bo'lib, hali unga qarshi oshkora kurashishi uchun Sohibqironida yetarli imkoniyat bo'lmagan. Shu bois u Amir Husayn bilan murosila qilishdan boshqa iloji bo'lmagan. Shunga qaramay u imkoni boricha harakat qilib Mavlonzodani o'limdan saqlashga erishadi.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Sohibqiron Sarbadorlarni jazolamaslik xususida Amir Husayn bilan bahslashgan. Shuning uchun ham Sohibqiron bilan Amir Husayn o'rtasida o'sha masala bo'yicha nizo paydo bo'lgan, degan fikrlar mavjud. «Husayn Sarbadorlarning boshliqlarini, — deb yozadi ingliz olimi, — mudhish jinoyatlarda aybladi. Abu Bakr Sarbadorlarning boshqa rahnamolari qatori qatli etilibdi. Faqat Mavlonzodaga shafqat qilishibdi — Sarbadorlarni dor ostiga olib kelishganda Temur uning gunohidan o'tishni so'rabdi. Shu ishi tufayli Temurga butun Samarqand ahlining mehri tovlanibdi. Husaynga esa, aksincha, zolim sifatida la'nat o'qishibdi... Ehtimol Temur Sarbadorlar bilan, ayniqsa, ularning orasidagi aslzoda kimsalar bilan yaqin aloqa o'rnatgandir. Husayn bilan uning o'rtasida ana shu Sarbadorlarga nisbatan tutilgan siyosat yuzasidan ixtilof kelib chiqqandir».⁴⁸ Bunday fikr sharqshunos olim A.Yaqubovskiy tomonidan ko'tarilgan edi.⁴⁹

Xullas, mustaqillik va ozodlikni tiklashga qaratilgan Sarbadorlar qo'zg'oloni vahshiylarcha bostirildi. Biroq u mo'g'ullarning kuch-qudrati va salohiyatiga qattiq zarba berdi. Ular o'zlarining irodasi va kuchlariga qattiq tayangan holda kishini hayratga soladigan darajada qahramonona jang qildilar. «Ma'lum muddat raiyat (Sarbadorlar), — deyiladi manbada, — hyech bir podshohning shon-shukuhisiz bosh-oyoq qurollangan g'addor yov bilan adolat va haqiqat uchun mardlarcha kurashdilar. Dushmanga hujum qilishda va mudofaada

⁴⁸ Xilda Xukxem. O'sha asar, 50-bet.

⁴⁹ Yakubovskiy A.YU. Tamerlan: epoxa, lichnost, deyaniya, «Tamerlan», Moskva, 1992. S.25.

shunday matonat ko'rsatdilarki, g'animlarning hukmronligi va istilo qo'li ul shahar aholisining nomus va moli etagiga yetmadi». ⁵⁰

Demak Sarbadorlar mo'g'ullarni tor-mor etib ona yurtni ulardan xalos etganlar. Amir Husayn ularning g'alabasidan cho'chib va hokimiyatni qo'ldan ketishidan xavfsirab, Sarbadorlarning faol qatnashchilarini o'ldirib, Samarqandni egallaydi.



⁵⁰ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma, tarjimon Omonulla Bo'riyev. Toshkent, 1994, 113-114-bet.

AMIR TEMUR TOMONIDAN MO'G'ULLAR HUKMRONLIGINING QO'PORILISHI



Vatan mustaqilligini tiklanishi

Sarbadorlar tomonidan Ilyosxo'janing qo'shinlarini tor-mor etilishi ozodlik kuraishni jadallashtirdi. Bu vaqtga kelib Amir Temurning mamlakatdaga mavqeyi yuqori darajaga ko'tarilib, mo'g'ul hukmdorlarini talvasaga solib qo'ygan edi. Ayniqsa uning o'lkada yakkahokimlik uchun kurashayotgan Amir Husayn bilan aloqasi qizg'in tus oldi. Endilikda taxt uchun kurash asosan o'sha ikki amirlar o'rtasida avjiga minib bordi. Ayniqsa Amir Husayn Sohibqironning mamlakatdaga obro'si va salohiyati oshganligini anglab qanday bo'lmasin unga ziyon yetkazish uchun hyech narsadan toymadi. 1366 yilda Amir Husayn Amir Temurning eng yaqin amirlarining mol-mulkiga ko'z olaytirib kuch-qudratini namoyish etmoqchi bo'ladi. Sharafuddin Ali Yazdiyning so'ziga qaraganda u chegarasi yo'q ochko'z va molparast bo'lgan. «Amir Husaynda, — deydi u, — omadsizlik va baxtsizlikning belgilari tobora quloch yozib borardi. Chunonchi, mag'rur podshohlar sha'niga loyiq bo'lmagan xirs va baxillik, vahishiylilik va ochko'zlik

uning vujudini qamrab oldi, hamda mol-dunyo yig'ish va zahira to'plashga mukkasi bilan shung'ib ketdi. Ahvol shu darajaga yetdiki, hazrat Sohibqiron amirlari va mulozimlari (molig'a ham) ta'ma ko'zini tikdi. Ya'ni, Amri Joku, Amir Sayfiddin, Oqbug'o, Elchi-bahodir Davlatshoh baxshi nomiga anchagina (to'lov) mablag'ini belgilab, uni undirib olish uchun soliq yig'uvchi tayinladi. Biroq, ular yaqinda (Toshqandagi) «loy jangi» voqyeasini boshidan kechirganliklari va mol zahiraning ko'p qismi talon-taroj bo'lib ketganligi uchun u ta'ma qopini to'ldirish uchun mo'ljallangan mablag'ni butkul yig'ib berishga imkoniyatsiz edilar.

Hazrat Sohibqironning husravona himmati yordam qulini cho'zmoqqa taqozo etdi va oltinu kumushdan iborat katta (miqdordagi) mablag'ni, jumladan Mahdi A'lo Uljoy Turkanog'oning bilaguzuk va isirg'asini ham, ularning to'lov mablag'i hisobiga berib yubordi. Amir Husayn uni ko'rib, o'zining singlisiniki ekanligini tanidi. Ammo ochko'zlik xirsi shu darajada yomon bo'lib ketgan ediki, hatto aka-singillik qadr-qimmatini ham ko'zga ilmadi va ularni olishdan hayiqmadi».⁵¹

Bu hujjat shu haqda guvohlik beradiki, ikki amirning dunyoqarashi va odob-axloqida osmon bilan yerchalik farq mavjud. Amir Husayndagi noinsoflik va ochko'zlik bobosi Chingizxonning qonidan o'tgan illat edi. U o'zining shum niyatlarini niqoblash maqsadida Amir Temur bilan bir necha marotaba do'stlik va hamkorlik ahdomasini tuzdi. Hatto u Qur'oni karimni o'rtaga qo'yib o'zining chinakam do'stligini izhor etdi. Ammo «oyni etak bilan yopib» bo'lmaydi, deyilganidek uning dushmanligi borgan sari yuzaga chiqib boraverdi. «Amir Husayn, — deb yozadi Sohibqiron, — saltanatim azimati va shon-shavkatini kuchayganligini ko'rgach, unda hasad tomirlari ura boshladi. Qasam bilan qilgan ahd-paymonlarini buzib, menga qarshi isyon tug'ini ko'tardi. Men uning oldiga ko'p marta (lutf-marhamatlar ko'rsatib) bordim, u bo'lsa aslo qoshimga kelmadi. Buning ustiga sirtidan takalluflar bildirib, aslida xiyla-nayrang ishlatib, mendan Qarshi qal'asini olib qo'ydi. Qarshi qal'asini qo'riqlab turish uchun qo'rg'onbegi amir Muso boshchiligida yetti ming otliq askar

⁵¹ Sharafiddin Ali Yazdiy. O'sha asar, 117-bet.

tainiladi. Keyinroq u yerga yana qo'shimcha besh ming otliq askar yubordi. Bu bilan kifoyalanmay meni o'ldirmoqchi bo'ldi». ⁵² Bu yerda so'z faqat ikki salohiyatli amirlarning tor shaxsiy manfaatlari doirasidagina ketayotgani yo'q, albatta. Aksincha ildizi muhim siyosiy masalaga borib taqaladi. Agar Amir Husayn qanday bo'lmasin mo'g'ullarning hukmronligini halokatdan qutqarishni o'ylagan bo'lsa, Sohibqiron vatan mustaqilligini tiklash uchun kurashayotgan edi. Buni yaxshi anglagan Amir Husayn, avvalam bor Qarshi qal'asini egalladi. Ma'lumki Qarshi Samarqand va umuman Movarounnahrga kiradigan darvoza sifatida muhim strategik ahamiyatga molik edi. Shuning uchun ham uni Amir Temur qo'lidan tortib olib uning rejalariga zarba bermoqchi bo'lgan. U buni yaxshi tushunib, qanday bo'lmasin uni qayta egallashga qattiq kirishdi. Bunga erishmoq uchun jonini tikdi deyilsa aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu vaqtda Qarshida Amir Xusaynning 12 ming kishidan iborat qo'shini bo'lgan bo'lsa Sohibqironida bor yo'g'i 243 askari bor edi. U fursatni boy bermaslik uchun mana shu juda oz askarlar bilan jang qilishga qaror qildi. Sharofiddin Ali Yazdiy uning bu jasoratiga yuksak baho berib: «Bu pahlavonlikdan ortiq darajadagi shijoat belgisi bo'lgan xatti-harakat va bahodirlikdan o'tadigan dovyuraklik nishonasi bo'lmish tadbirdir. (Amir Sohibqiron)... Omuya suvining bo'yiga yetib kelgandan so'ng, o'sha tunning o'zidayoq shaxsan o'zi qirq kishi bilan daryoga ot solib suzib o'tdilar. Biror kishi biror joyga xabar yetkazmasin, degan maqsadda Xastor qishlog'ini o'rab oldilar. U yerdan kemalar olib daryoning nariga tomoniga yubordi va lashkarning qolgan qismi kemada o'tib olishdi. O'sha zafarkirdor yurishda xos bahodirlardan Suyurg'atmish-o'g'lon, dug'lat o'mokidan Amir Dovud, u hazrat Sohibqironning opasi Qutluq Turkan-og'oni o'z nikohiga olgan edi, amir Joku barlos, amir Muayyad Orlot, Ulhazratning singlisi Shirinbek-og'o uning nikohida edi, Amir Sorbug'ay Jalayir, Husayn-bahodir, Amir Sayfuddin Nukuz, Abbos-bahodir qipchoq, Oqbug'o bahodir Nayman, Mahmud'shoh Buxoriy mulozimlikda hozir edilar». ⁵³

⁵² Temur tuzuklari, 48-49-betlar.

⁵³ Sharafiddin Ali Yazdiy. O'sha asar, 134-bet.

Demak Amir Temur ikkita pochchasi va bir guruh atoqli amirlari bilan dushman egallab turgan qal'aga yashirincha kirishga harakat qilganlar. U hozirgi Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanidagi Fazli (Fazd) qishlog'iga kelganlar. So'ngra Qarshi tumanining markazi Beshkent (Shirkent)ga bordilar. Shundan keyin u ikkita safdoshi bilan Qarshi qal'asining suv bilan to'ldirilgan zovuriga yaqinlashdi. Bu yerda u zovur ustiga qurilgan tarnovidan tizza bo'yi keladigan suvni kechib G'uzor tomonidagi darvozasigacha bordi. Bu yerda u devori pastroq joyni ko'rib narvonni shu yerga qo'yishni ko'rsatdi. Shundan keyin orqaga qaytdi. So'ngra askarlari bilan o'sha o'zi yurgan yo'l bo'yicha qal'aga to'satdan hujum qildi. Ular «hazrat Sohibqiron farmoni bilan burg'u (karnay) chaldilar. O'sha ondayoq sipoh bilan qal'agayopirilib kirdilar vaolomon baqiriq-chaqiriqlar qilib ul qurg'onni larzaga soldilar. Qarshi aholisi karnay-surnay (ovozi)dan ko'zidan uyqu o'chib, boshini hayrat tutuni qopladi va o'lkani zabt aylaguchi Sohibqironning o'qi zafar nishoniga tegdi...

Hazrat Sohibqiron shahar darvozasi muhofazasiga shaxsan o'zi boshchilik qildi va Amir Sark-Bug'o uning mulozimligida edi; Amir Dovud, Amir Muayyad, Amir Sayfiddinlarni Xuzor (G'uzor) darvozasini egallashga buyurdi; Suyurg' Otmish-o'g'lon, Amir Abbos, Husayn bahodir, Oqbug'o va boshqa amirlarni boru va burjlarda⁵⁴ qoldirdi. Amir Muayyad Orlot o'ttiz kishi bilan darvozadan chiqib, ul intiqom olguchi sipoh ustigatashlandi va o't yondiruvchi obdor qilich bilan mardliklar namoyish etdi». ⁵⁵ Shu tariqa Amir Temur o'zining askarlari bilan qal'aning ichkarisiga o'rnashib oldilar hamda dushmanlarni tashqaridan qilingan hujumlariga zarba berib turdilar. Amir Muso boshchiligidagi yetti minglik askarlar birin-ketin mag'lubiyatga uchrab har tomonga qochishga majbur bo'ldilar. Ammo, Malik-bahodir boshchiligidagi besh minglik qo'shin G'uzor darvozasi tomonida turgan. Amir Temur 60 kishi bilan ularga qarshi tashlanganda vahimaga tushib qochdilar. Sharafuddin Ali Yazdiy jangga yakun yasab yozadi: «Bu Allohning cheksiz inoyati va poyonsiz marhamati erurki, bir kishi (Amir Temur)ni o'z lutfi ila sarafroz aylab, unga shu qadar quvvat

⁵⁴ Qal'a devori tutashgal minora.

⁵⁵ Sharafiddin Ali Yazdiy. O'sha asar, 137-bet.

vashijoat hadyaetadiki, u (kishi) ikki yuz qirq uch sipoh bilan, majburiy emas, balki o'z ixtiyoricha, o'n ikki ming qonxo'r va qasoskor dushman otliqlarga qarshi chiqib jang qilmoqchi bo'ladi; yetib kelgach, ikki kecha-kunduz ichida ulardan qo'rg'onni tortib oladi, ahli ayolini asir qiladi, barchasini o'q yog'diruvchi obdor shamshir kuchi bilan tarqatib, to'zitib yubordi; o'zi esa ot solib ularni ta'qib qiladi, bahodirlarini qulatadi va asir oladi».⁵⁶

Amir Temurning nihoyatda oz sonli askarlar bilan ko'p mingli dushman qo'shiniga qarshi hujum qilib tor-mor etishi jahon tarixida uchramaydi. G'alaba shu haqda guvohlik beradiki, shaxsan Amir Temurning o'zi bir necha ming qo'shinni tor-mor etish chorasini ko'rgan edi. Bunday misli ko'rilmagan harbiy mahoratga ega bo'lgan davlat arbobi va lashkarboshi hali dunyoga kelgani yo'q. U shonli g'alabani qo'lga kiritgandan keyin butun qish bo'yi Qarshida yashadi. Keyingi vaqtlarda ham Amir Temur bilan Amir Husayn qo'shinlari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib turdi. U tinib-tinchimay Buxoro, Toshkent va boshqa joylarda ham dushmanga qarshi kurashni to'xtatmadi.

Umuman aytganda Amir Temur 1366—1370 yillarda Ilyosxo'ja va Amir Husaynga qarshi ikki tomonlama jang bilan mashg'ul bo'ldi. Shu orada Amir Temur birinchi navbatda Mo'g'uliston xoni Ilyosxo'jaga hal qiluvchi zarba berishini zarur hisoblab, Amir Husayn bilan yarashgan va uchrashgan vaqtlari bo'lgan. Ammo, Amir Husaynda hasadgo'ylik va ko'ra olmaslik ustun kelib qanday bo'lmasin Sohirqironni yo'qotishga harakat qilaverdi.

Amir Husaynning Amir Temurga nisbatan dushmanchiligi tobora kuchayib bordi. Chunki Amir Temur tufayligina ozodlik kurashining uzil-kesil g'alabasi kutilmoqda edi.

«Amir Husayn, — deydi Sohirqiron, — men qo'lga kiritgan g'alaba va yutuqlarimni ko'rolmay, hasad ichini yemirib, menga va haramimdagi o'z singlisiga ko'p ozor berdi. U Movarounnahrni mendan tortib olishga, meni o'ldirib, taxtga o'zi o'ltirishga bel bog'ladi. O'rtamizda bir necha bor urushlar bo'lib turgan bo'lsa-da barchasida yengildi. Uning adolatsizligi, insofsizligiga chegaradan oshgan, meni yengish va o'ldirishga oz qolgan vaqt ham bo'ldi.

⁵⁶ O'sha joyda, 141-bet.

Aynan shu vaqtda qoʻrsligi, yomon yoʻl tutishi tufayli amirlari undan yuz oʻgirishdi». ⁵⁷

Shunday qilib, Amir Husayn Amir Temurga qarshi kurashlarda gʻalabaga erisholmay borgan sari oʻz mavqeyi va salohiyatini yoʻqotib bordi. Hatto, undan eng yaqin safdoshlari boʻysinishdan bosh tortdilar. Nizomiddin Shomiyning soʻzi bilan aytganda «xalqning undan koʻngli sovidi. Davlat va mamlakat aholisi undan yuz oʻgirdi». ⁵⁸ Amir Husaynning adolatsizligi va zulmi xalqning barcha toifalarini allaqachonlar nafrati va gʻazabini uygʻotgan edi. U faqat nayrangbozlik va zoʻravonlik bilan taxtda oʻtirgan. Oʻz-oʻzidan maʼlumki bunday holatni uzoq davom etishi mumkin emas edi, albatta. Uni ayniqsa Amir Temurgʻa nisbatan gʻirromligi va xoinligi xalqning gʻazabiga gʻazab qoʻshgan.

Muhammad paygʻambarning avlodlaridan biri Sayyid Baraka Amir Temurni buyuk zafarlar kutayotganini bashorat qilib, ulugʻ hukmdorlik timsoli hisoblangan nogʻora va bayroqni hadya etadi. Bu toʻgʻrida Sharafuddin Ali Yazdiy yozadi: «Makkai muazzamning buyuk shariflaridan biri, oʻz asrida yer yuzi sayidlarining peshvosi, zoti sharif Toha va Yosin saralangan shodasining vositasi boʻlmish naqblar peshvosi, murtazoi aʼzam, ulugʻligi sifat va unvonlarini keltirishga hojatsiz olijanob Sayyid Baraka hyech qanday vaʼda va oldindan kelishuvsiz, kutilmaganda ul humoyundin manzilda peshvoz chiqdi hamda saltanat va podsholik belgilarini anglatuvchi nogʻora va alam (bayroq) keltirib, hazrat Sohirqironga sovgʻa qildi. (Soʻngra Alloh) koʻmagidan ilhomlangan holda baxt-saodat soʻzlarini aytib bashorat qoʻshigʻini karomat pardasida chala boshladi:

*Alloh himoyasi senga erur posbon,
U boshdan bu boshgacha seniki jahon.
Davlat nogʻorasin chal, maydon seningdur,
Bu olam tangrisining istagi erur».* ⁵⁹

Sayyid Barakaning Amir Temur shaʼniga aytgan soʻzlari va

⁵⁷ Temur tuzuklari, 52-53-betlar.

⁵⁸ Nizomiddin Shomiy. Oʻsha asar, 79-bet.

⁵⁹ Sharafiddin Ali Yazdiy. Oʻsha asar. 202-bet.

bashorati faqat uning o'zini emas, balki butun mazlum xalqning fikri-zikrini izhor etgan edi. Bu vaqtga kelib Amir Temur ozodlik ramzi sifatida olimu fozillarni, din peshvolarini, amirlarni va xalq ommasining diqqat markazidan o'rin egalladi. Bundan ruhlangan Amir Temur uzoq yillar kutib kelgan qulay fursatni qo'ldan boy bermaslikka ahd qilib, hal qiluvchi jangni boshlab yuboradi. U Termizdan uch chaqirim naridagi Buyo degan joyga kelib o'rtnashadi. Bu yerda Sayyid Baraka bilan uchrashgandan keyin Surxondaryoning yuqori oqimida joylashgan Chag'oniya (Denov yaqini)ga kelib qo'shinni tayyorlash bilan shug'ullandi. So'ngra Amir Temur Kofarnihon daryosining Amudaryoga quyilish joyidagi hozirgi Ayvaj qishlog'iga qo'nadi. Ko'rsatilgan yerlarda turli joylardan amirlar qo'shin bilan kelishib Sohibqironga qo'shildilar. Amir Temur Xatlonga, so'ngra Amudaryodan o'tib Afg'onistonning shimolidagi Xulm mavzesiga kelib o'rtnashadi. Amir Temur yuqorida ko'rsatilgan joylarda kuchli qo'shinni tashkil etib Balxni egallash uchun yo'lni davom ettiradi. Uning qo'shinini bir qismi Amir Husayn tomonidan yuborilgan askarlar bilan to'qnashib qattiq jang qilindi. Dushman kuchlari mag'lubiyatga uchratildi. Shundan keyin Amir Temur qo'shinlari Hinduvon nomli Balx qal'asini qurshab oldilar. Bu yerdagi dahshatli jangni Sharafuddin Ali Yazdiy shunday tasvirlaydi.⁶⁰

*Jahongir hamda gardun haybatli shoh,
Tepadan pastga boshlab keldi sipoh.
Chumoli chigirtkadek sonsiz edi,
Shaharu qo'rg'on sari yopirildi.
Turonguruhdan ko'tarildi suron,
Qo'rquvdan titrar tog' va dasht o'shal on.
Otiqlar ot surib rosa jang qildi,
Piyodalar bir-biriga tashlandi.
Yer toraydiyu, qora bo'ldi jahon,
Quyosh titradi va oy qo'rqdi chunon.
Nayzalar qonidan yer yozib borar,
Pistirma kamondan o'lim yuborar.*

⁶⁰ O'sha joyda, 207–208-bet.

*Qorong'u tushguncha urush tinmadi,
Biror kishi jangdan qo'lin tiymadi.*

Haqiqatan ham Balx qal'asi uchun kurash shu darajada dahshatli tus oldiki, qonlar bamisoli suv kabi oqdi. Shunisi diqqatga sazovorki, Amir Temur o'zining yosh o'g'li Umarshayoxni ham jangga jalb qilgan. O'sha jang kuni «amirzoda Umarshayx bor-yo'g'i o'n olti yoshda ekanligiga qaramay bahodirlik bedovini jang maydonida choptirib shijoat va jasorat ko'rsatdi. (To'satdan), taqdir maydonida bir o'q kelib oyog'ining orqasiga tegib tagidan teshib chiqdi. Jarrohlik san'atining ustalari bir sihni qizdirib ul jarohatni shunday kuydirdilarki, sih (oyoqning) boshqa tomonidan chiqdi. Ul dovyurak shahzoda, yoshi kichik bo'lishiga qaramay, iztirob chekaytganligini hyech sezdimadi».⁶¹

Jang oxirida dushmanning bir harbiy qismi qal'ani ichidan chiqib urushni davom ettirdilar. Jang maydoni qonga belanib o'liklar uyilib ketdi. Amir Husayn mag'lubiyatni bo'yniga olib va tunda qal'adan yashirincha chiqib jome' masjid o'rtasidagi minoraga ko'tarilib bekinadi. Ammo, u qo'lga tushirilib o'ldiriladi. Uning uy-joylari va qal'a yakson qilib tashlandi. Ikkita o'g'li ham qatl qilindi.

Balxda qo'lga kiritilgan shonli g'alabadan so'ng 1370 yil 9 aprelda qurultoy chaqirildi. Unda Amir Shayx Muhammad Sudduz, Amir Kayxusrav Xatloniy, Amir O'ljotu Apardiy, Amir Dovud Dug'lot, Amir Sarbug'oy qipchoq, Amir Joku barlos, Amir Muayyad Orlot, Badaxshon valiyi Shayx Muhammad, Husayn-bahodir, Sayyid Baraka, Termiz xonzodalari — xonzoda Abul Maoliy va uning birodari xonzoda Ali Akbar va boshqa kup nufuzli kishilar qatnashuvida Amir Temur Turkiston zaminining hukmdori etib tayinlandi.⁶² Shu tariqa buyuk Amir Temurning Qurultoy qatnashchilari «birgalikda ul hazratga yangidan qasamyod qildilar, belni xizmatkorlikka bog'ladilar. Uning sha'niga quyidagi bayt yozildi:

*Baxtiyor ulug'vorlik senyaga yarashar,
Taxtsiz quloh rusumi senga yarashar.*

⁶¹ O'sha joyda.

⁶² O'sha joyda, 218-bet.

*Dilimiz butunlay farmoningda erur,
Jonimiz butunlay paymoningda erur.
Olam shohlari ichra taniqlisi sen,
Botirlaru sherlar ichra sarasi sen.
Shohdik va ustunlikdan maqsad uning,
Xalqni siylash bo'lar, ulug'lash dinni.
Ehsonga ila xalq xatirin qilg'ay u shod,
Dod so'rab butun jahonni saqlar obod.*

ko'p yillar mobaynida jang maydonlarida mazlum xalqqa tayangan holda olib borgan qahramonona kurashlari tufayli mo'g'ullar hukmronligi qo'porib tashlandi. O'sha paytda u 34 yoshli navqiron yigit edi. Mustaqillik va ozodlikning tiklanishi butun mintaqa xalqining umumiy bayramiga aylanib ketdi. Sharafuddin Ali Yazdiy Sohibqironning xizmatlarini quyidagicha ifodalaydi: «U olam yuzini vahshat va g'am-anduh g'uboridan tozalab, uning saltanat va ulug'vorlik chodirini rub'i maskunning gir atrofini qurshab tikdi; buyuklik va shon-shuhrat bargohining kubbasini esa osmon soyabonidan (ham balandga) o'tkazib, tinchlik va omonlik gilamini yoydi; saltanat asosini to'rtta asos — davomiylilik, barqarorlik, hashamat va iftixor uzra o'rnatib mustahkamladi; shohlik tojini izzatu shavkat javohirlariyu va hashamatu ulug'vorlik yoqutlari ila qadab yasatdi.

*Sohibqiron ko'tardi tilla tojni,
Charaqlatdi shohlikning qilichni.
Shahanshohlik shukuhi ila bog'ladi kamar,
Butun jahon unga bo'ldi xizmatkor,
Yomonlarning yomonlikdan qisqa qildi qo'lini,
Hayotning yorug'lik sari ochdi yo'lini,
Temur Tarag'ay — arslon kabi sulton,
Olamni kezib chiqqan shohi jahon.
Shundan so'ng sharqiy nasab bo'ldi hukmron,
Jahonni adl ila qildi navqiron.
Yer yuzini zulmdan boshdin-ayoq,
Qilichining suvi yuvganda mutlaq.*

*Shamshiri bezarar jahon bog'idan,
Ofat ildizini qo'pordi tubdan».*⁶³

Ushbu baytda Amir Temurning mo'g'ul bosqinchilarining hukmronligini qo'porib, xalqni va vatanni zulm va xo'rlanishdan ozod etganligi bilan yaxshi ifoda etilgan. Unda Amir Temurning xizmati jahon ahamiyatiga molik ekanligi ta'kidlanib, uning olamni yashartirganligi uqdirib o'tilgan. Shuningdek baytda xalqning Amir Temurga samimiy muhabbati, ishonchi va umidi izhor etilgan.

Darhaqiqat Amir Temur ko'p mamlakat va xalqlarni vahshiyona mo'g'ullar hukmronligi zulmidan ozod etgan edi. Sharafuddin Ali Yazdiyning so'zi bilan aytgangda «Hyech bir takallufsiz va maqtovsiz (aytish mumkinki), bu qutlug' voqyeadan olam va olam ahlining ushbu davlat ayyomining davomligiga va bul saltanatning barqarorligiga boshqa davr va zamonga qaraganda, umidi juda ko'p erur. Shundayki: mo'tabar oilaning (payg'ambar avlodlari)ning himoyasi yer yuzining va zamonning boshqa diyor va makoniga nisbatan tinchlik va omonlik palosi bilan bezatilmish; aholi va shaharlar ahvolining bog'lari buzg'unchi va bebosh kishilar bosqinchiligi va aldovi tikonidan qaychilab chiqilmish; xaloyiqning umid niholi adolat va ehson tomchilaridan maqsad mevasi tutmish va tinchlik-xotirjamlik ko'lankasini yoymish; katta-kichikning tinchlik va omonlik ekinzorida in'om bulutidan (tomgan) qatralardan orzu shoxchasida murod mevasi o'sish; go'zallar qosh va zulfidan o'zga joyda egrilik va noto'g'rilikdan asar qolgani yo'q».⁶⁴

Demak, Amir Temur tinchlik, barqarorlik ramzi sifatida mashhur bo'lgan edi.

U Balxdan Samarqandga yo'lga chiqib, Shahrisabzga kelib o'rnashadi. Bu yerda kkki oy turib, yangi davlatning boshqaruv tizimini tuzishga kirishadi. U birinchi navbatda sadoqatli va janglarda faol qatnashgan safdoshlarini oliy mansablarga tayinlab, qadri-qimmatini o'rniga qo'ydi. Chunonchi Dovudbekka Samarqand hokimligi va devon mansabini berdi. Amir Joku, Amir Sayfiddin, Amir Abbos, Iskandar, Olam-shayx, Alka qavchin, Ardasher

⁶³ O'sha joyda, 220-222-betlar.

⁶⁴ O'sha joyda.

qavchin, Kimori Iynoqqa lashkar amirligi va tavochilik mansabini topshirdi; Amir Sari-Bug‘o, Husayn barlos, Amir Oqbug‘o, Xoji Mahmudshoh, Elchi-bahodir, Davlatshoh baxshilarni devon miri etib tayinladi; Xitoy-bahodir, Shayx Ali-bahodir, Oq-Temir-bahodir, Tobon-bahodir, Dukana, Baxshishoh, Qora-Hindu, Taqanaq Alochiy-kalta, Qiron-Bug‘o-Arslon, Shayx Ali va Oq-Temurlar bahodirlarning sardori vazifasiga qo‘yildi.⁶⁵

Amir Temur Shahrisabzdan Samarqandga kelib uni davlatining poytaxtiga aylantirishga qaratilgan choralarni izchillik bilan oshirib bordi.

Amir Temur besh marotaba harbiy yurishlarni uyushtirib, Xorazmni ham egalladi. Bu bilan u Oltin O‘rdaning Turkiston zaminidagi eng muhim tayanchi Xorazmni uning qo‘lidan ozod etdi. Hamda uni qattiq kuchsizlantirib, mo‘g‘ullarning hukmronligiga yana bir bor zarba berdi.

Shunday qilib, Amir Temurning bir necha yillar davomida olib borgan qahramonona kurashlari tufayli 150 yillik mo‘g‘ullarning hukmronligi qo‘porib tashlandi.

Harbiy yurishlarning mohiyati va yo‘nalishi

Hyech kimga sir emaski, Sohibqiron turli mamlakatlarga harbiy yurishlar uyushtirgan. O‘tmishda mualliflar mana shu harbiy yurishlarni ro‘kach qilib, Sohibqironning faoliyatiga salbiy baho berishga qattiq urinishgan. Bunday hol, ayniqsa, sho‘ro davrida avjiga mindi. Afsuski, ayrim kimsalar o‘sha noto‘g‘ri qarashlarni shu kunlarda ham quvvatlashga intilmoqda. Shu bois ushbu tadqiqotda harbiy yurishlarning mohiyati va yo‘nalishini yoritish hamda haqiqatni aniqlash maqsad qilib qo‘yildi.

Avvalambor shuni aytish lozimki, Sohibqiron tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar o‘sha davrdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat taqozosiga ko‘ra yuzaga kelib, sabablari quyidagilardan iborat edi.

Birinchidan, XIII asr boshlari - XIV asr 60-yillarida mo‘g‘ul-

⁶⁵ O‘sha joyda, 225-bet.

larning tajovuzlari, so'ngra hukmronligi vaqtida insoniyat boshiga misli ko'rilmagan ofat va talafot yog'dirilib, yuz minglab kishilar qirib tashlandi, jarohatlandi va asirlikka olindi. Fan va madaniyatga qattiq zarba berilib, moddiy va ma'naviy boyliklar ayovsiz talandi. XIII asrda yashagan yirik tarixchi Rashiddinning yozishicha, jahon ahli hyech qachon mo'g'ullarning tajovuzlari vaqtidagidek vayronagarchilikka uchramagan. Ular shaharlarni bosib olganlaridan keyin bitta ham tirik jonni qoldirmaslikka harakat qilgan. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bunday dahshatli fojialar Turkiston, Eron, Ozarbayjon, Balx, Hirot, Bag'dod, Rus knazliklari va boshqa ko'p joylarda sodir bo'ldi. Xarobaga aylantirilgan shahar va qishloqlar uzoq yillar mobaynida qanday bo'lsa, shunday yotavergan. Rashiddinning ko'rsatishicha, mo'g'ullar tomonidan vayronaga aylantirilgan joylarning o'ndan ikki qismigina tiklangan, xolos.⁶⁶

Mo'g'ul bosqinchilarining tajovuzlari va hukmronligining naqadar dahshatli bo'lganini o'rta asr muallifi Ibn al-Asir ham uqtirib o'tgan edi: «Kunu tunlarda misli ko'rilmagan va hammayoqni, xususan, musulmonlar yaratgan boyliklarni qamrab olgan g'oyat katta bir falokat bo'ldi. Agar biron, hamma narsaga qudrati yetuvchi va har narsaning ustidan turuvchi Olloh odamni yaratgandan buyon dunyo shu mahalgacha hyech bunday narsani ko'rmagan, desa haq gapni aytgan bo'lardi: darhaqiqat, yilnomalarla bunga o'xshash va unga teng keladigan bunday zo'r falokat bo'lmagan. Ularda tasvirlangan voqyealar ichida Navuxodonosorning isroiliylarni kaltaklash va Quddusni vayron qilish bobidagi qiliishi eng dahshatlisidir. Biroq bu la'natilar (mo'g'ullar) vayron-talon qilib tashlagan mamlakatlar oldida Quddus nima bo'libdi? Bu mamlakatlardagi har bir shahar Quddusga ikki barobar keladi! Mo'g'ullar qirib tashlagan odamlarga qaraganda isroiliylar nima bo'libdi? Axir, ayrim bitta shaharda mo'g'ullar kaltaklagan aholi barcha isroiliylardan ko'p bo'lgan... Ular hyech kimni ayamadi; ayollarni, erkaklarni, go'daklarni do'pposlay berdi. Homiladorlarning qornini yorib bolalarini o'ldirdi... Shunday bir hodisa bo'ldiki, uning uchqunlari har tomonga sochilib ketdi va balosi hammaning boshiga tushdi; u shamol quvgan bulutdek hammayoqni bosib oldi».⁶⁷

⁶⁶ Rashid ad-Din. O'sha asar, 309-bet.

⁶⁷ B.D.Grekov, Yakubovskiy A.YU. O'sha asar, 46-bet.

Haqiqatan ham, mo'g'ullar tajovuzi va hukmronligi jahonning ko'p joylarini qamrab olgan edi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, mo'g'ullar tomonidan Samarqandda 100000, Nishopurda 160000, Bag'dodda 800000, Balxda 200000, Sabzavorda 70000 kishining yostig'i quritilgan. Shuningdek, O'tror, Urganch, Termiz, Niso, Hamadon, Ray, Marog'a, Ardabil, Tus, Qazvin, Buxoro, Xo'jand, Toshkent va boshqa joylarning aholisiga ham qiron keltirilgan edi. Hirotdek katta shaharda 40 kishi favqulodda tirik qolgan ekan, xolos. Asirlikka olingan minglab kishilar mo'g'ul askarlarining oldingi qatoriga qalqon sifatida tizilgani sabab birinchi o'qlar ularga tegib halok qilgan. Yoki vatan himoyachilari o'z odamlariga o'q uzishni lozim ko'rmay taslim bo'lishga majbur bo'lganlar. Mo'g'ullar ko'p mamlakatlarni egallab, adolatsizlik va zulmni davom ettirdi. Chingizxonning Chig'atoy, Jo'chi va Hulogu singari vorislaridan tashkil topgan sulolalar Xitoy, Turkiston, Sibir, Volga va Ural bo'ylari, rus knazliklarida o'z hukmronligini o'rnatdi. Ular Eron, Afg'oniston, Janubiy va Shimoliy Ozarbayjon, Armaniston, yuqori va quyi Mesopotamiya, Kichik Osiyoning sharqiy qismini egalladi. Gruziya, Trabzon podshohligi, Kipr, Kichik Osiyodagi Saljuq davlati yarim vassal sifatida mo'g'ullarga bo'ysundi. Mo'g'ullar Polsha va Vengriyaga ham bostirib kirdi. Ular hatto Adriatika dengizi qirg'oqlarigacha bordi. Umumlashtirib aytganda, birgina Hulogu sulolasi Amudaryodan deyarli O'rta dengizgacha, Kavkazdan Hind okeanigacha cho'zilgan katta yerlarni egallab oldi.

Ko'rinib turibdiki, mo'g'ullar butun Sharq va Yevropani vahima va larzaga solib, dini va millatidan qatyi nazar, ko'p xalqlarni bo'ysundirdi. Shuni aytish lozimki, ular bosib olgan mamlakatlarda dastlab ularning tajovuzlari, so'ngra hukmronligiga qarshi ozodlik kurashlari olib borildi. Biroq ularni boshqarish va g'alabani ta'minlashga qodir zabardast rahbar bo'lmagani oqibatida dushmani tamomila tor-mor qilishga erishilmagan. Bunday o'ta mohir lashkarboshi, chinakam davlat arbobi XIV asrning 60 yillarida Amir Temur siymosida namoyon bo'ldi. U mo'g'ullarning Turkiston zaminidagi 150 yillik zulmiga qarshi kurash tayanchiga aylandi.

Sohibqiron, avvalambor, Turkistonni ozod etib, mustaqil davlat



tashkil qildi. Movarounnahrda, – deb yozgandi u, — mo‘g‘ullarning jabru zulmi ortib ketdi. Mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qildim va mazlumlarni zolimlar jabridan ozod qildim. Ammo mo‘g‘ullarga qarshi kurash hali nihoyasiga yetmay ular Turkistonni qaytadan qo‘lga kiritish imkoniga ega edi. Shu bois Sohirqiron amalda Oltin O‘rdaga tobe bo‘lgan Xorazmga, Yettisuv va Sharqiy Turkistonni o‘z ichiga olgan Mo‘g‘ulistonga harbiy yurish uyushtirib, ularni bir davlatga birlashtirdi. Bu bilan Sohirqiron mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyodagi hukmronligini qo‘porib tashlashga muvaffaq bo‘ldi. Ammo Oltin O‘rda davlati Amir Temur qo‘l ostidagi yerlarla mo‘g‘ullarning hukmronligini tiklash uchun kurashni boshlab yubordi. Chunonchi, Oltin O‘rda xoni O‘rusxon (1361-1376) «jangga joy hozirlash»ni Sohirqironidan talab etdi⁶⁸. Bunday qo‘pol munosabatga javoban Sohirqiron harbiy yurish uyushtirib, O‘rusxonni mag‘lubiyatga uchratdi.

Bu bilan o‘zining kuch-qudratini yo‘qotmagan Oltin O‘rda Amir Temurga nisbatan dushmanlikdan voz kechmadi. Sohirqironning

⁶⁸ Nizomiddin Shomiy. O‘sha asar, 104-bet.

yordami bilan Oltin O'rda taxtini egallagan, lekin xoinlik yo'liga kirgan To'xtamishxon Turkiston va Eronga qarashli yerlarga harbiy yurish uyushtirib, ularni bosib olishda hyech narsadan toymadi. Bundan g'azablangan Amir Temur uch marotaba Oltin O'rdaga lashkar tortib, dushmanni qaqshatqich zarbaga uchratib, bo'ysundirdi. Amir Temurning Oltin O'rdadagi g'alabasining aks sadosi Kavkazga ham tarqalib, bu yerdagi davlatlarni tashvishga solib qo'ydi. Ular Sohibqironga nisbatan dushman ko'zi bilan qaray boshladi. Ayni paytda XIV asrning to'rtinchi choragida birmuncha kuchaygan gruzin davlati Shimoliy Ozarbayjonning Ganja va Sheki kabi joylarini bosib olib, musulmonlarga nisbatan xavf tug'dirdi. Shuning uchun Sohibqiron uni bo'ysundirish va xavf-xatarni bartaraf qilishni lozim topdi.

Eronga uyushtirilgan harbiy yurishlarga kelganda, shuni aytish lozimki, 1336 yilda mo'g'ullar hukmronligiga barham berilib, Kermon va Yazdda sarbadorlar hukmronligi o'rnatildi. Ammo keyin mamlakat bir necha bo'lakka parchalanib, g'oyatda og'ir vaziyat yuzaga keldi. Eron yerlarida o'ndan ortiq mustaqil va kichik davlatlar yuzaga kelib, ko'p joylarda hamon mo'g'ullar hukmronligi davom etmoqda edi. Ularning orasida yakkahokimlik uchun kurashlar qizg'in tus oldi. O'rta asr tarixchisining ko'rsatishicha, Eronda «viloyat bilan viloyat, qishloq bilan qishloq o'rtasidagi dushmanchilik va kurashlar to Amir Temur ularni tinchitmaguncha va isyon olovini o'chirmaguncha bartaraf qilinmadi».⁶⁹ Bu vaqtlarda Eronning talay qismida muzaffariylar sulolasi hokimiyatni boshqarib, adolatsizlik va zulm avjiga mingan edi. Bu xususda Nizomiddin Shomiy shunday yozgan: «Muhammad Muzaffarning avlodi va nabiralari u mamlakatni egallab, har biri biron shahar va mavzeda o'z nomiga... xutba o'qitgan. «Yaqin qarindoshlar bir-birlariga chayondekdirlar» (degan maqol timsolida) bir-birlarining qoni, nomusi va mol-mulkiga tajovuz qilib kelayotgan edi. Shu bois barcha raiyatlar doim turli hodisalar ostida ezilib, xorlik va ranju mashaqqat jabrini tortib, fuqaro holiga beqarorligu alg'ov-dalg'ovlik yo'l topgan, mamlakat ishlari o'z

⁶⁹ I.I.Petrushevskiy. Zemledeliye i agrarnyye otnosheniya v Irane XIII-XIV vekov. M., -L., 1960, 65-bet.

tartibu intizomidan chiqib ketgan edi. Mamlakatning hamma katta-kichiklari Amir Sohirqiron huzuriga yig'ildi. Raiyat va mamlakat aholisi (muzaffariylarning) zo'ravonliklari, xalqqa yetkazgan jabru zulmlari haqida arz qilib dedilar: «Agar Amir Sohirqiron yana bir bor mamlakat jilovini ularning qo'liga bersalar, ularning zo'ravonlik va jabru sitam qo'lini xalq ustidan daf qilmasalar, butun aholi xorlik maydonida oyoq ostida qolib, halok bo'lg'usidir».⁷⁰

Demak, eronliklarning o'zlari Sohirqironni hokimiyatni egallashga da'vat etgan. Bu borada muzaffariylar sulolasining ayrim vakillarining raqiblarga qarshi yordam so'rab Sohirqironga murojaat qilganini ham ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Biroq Amir Temurga Erondagi barcha joylar ixtiyoriy ravishda bo'ysundi, deyilsa, xatoga yo'l qo'yiladi. Eronning katta qismida uning hukmronligiga bir qator shahar va qal'alar qarshilik ko'rsatdi. Ular jang bilan qo'lga kiritilib, mo'g'ullarning bo'lajak xavfidan xoli qilindi. Sohirqiroi «o'ttuz besh yoshida saltanat taxtiga o'lturdi va maqomi aslini poytaxt qildi va o'ttuz olti yil yurub, olamni musaxxar qildi. Chig'atoyxonning ulusini va Huloguxonning ulusini va o'zga ulug' mamlakatlarni musaxxar qildi».⁷¹

Sohirqiron, oldingi sahifalarda qayd qilinganidek, Mo'g'uliston, Oltin O'rda va boshqa joylarda ham mo'g'ullarning hukmronligiga qaqshatqich zarba bergan edi. Demak, Sohirqiron harbiy yurishlarining siyosiy jihati Turkiston va boshqa qator mintaqalarda mo'g'ullarga qarshi kurashdan iborat bo'lgan.

Ikkinchidan, iqtisodiy va ma'naviy omillar ham harbiy yurishlarning mohiyati va yo'nalishini aks ettirgan. Ma'lumki, qadimdan ichki va tashqi savdoni rivojlantirish taraqqiyotni va farovon hayotni ta'minlashda muhim o'rin egallagan. Ammo hamma vaqt karvon yo'llarida sharoitni yaxshilash va xavfsizlikni saqlashning iloji bo'lavermagan. Bu esa u yoki bu mamlakat hayotiga salbiy ta'sir etib, jamoa ahlining turmushini og'irlashtirgan. Bunday holat mo'g'ullarning hukmronligi davrida taxt uchun o'zaro kurashlar va qaroqchilarning talon-torajida ko'zga tashlandi.

⁷⁰ Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, 179-180-betlar.

⁷¹ Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma, so'z boshi va izohlar Ashraf Ahmad va Haydarbek Bobabekov. Toshkent, 1997, 308-bet.

Sohibqiron bu holatni bartaraf etish maqsadida xalqaro karvon yo'llarini nazorat ostiga olish va savdo-sotiq samaradorligini ta'minlash uchun kurashdi. U Eron, Hindiston, Turkiya, arab mamlakatlari, Kaspiy - Volga bo'ylari orqali o'tadigan karvon yo'llarini egallashni tarixiy zaruriyat deb bildi. Qadimiy «Ipak yo'li»ga jon kirgizdi. Bu Turkistonninggina emas, balki boshqa qator mamlakatlarning ham manfaatini ta'minlashda havo bilan suvdek zarur edi.

Sohibqironning karvon yo'llarida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan choralaridan biri qaroqchilik bilan shug'ullanayotgan Qora Yusufga qarshi kurashda o'z ifodasini topdi.

So'z oxirida aytish lozimki Sohibqironning oliy fazilatlaridan biri kamtarlik va oddiylikdan iborat bo'lib sha'niga aytiladigan maqtovlarni yoqtirmagan. Shuningdek ziyolilarni juda qadrlab ularning fikr-mulohazalarga ham tayanib ish yuritishiga harakat qilgan. Chunonchi u olimu fozillarni huzuriga chaqirib maslahat so'rganida ular: «Xudoga shukrki, Sohibqiron hazrat o'zlari hammaga yaxshi yo'lni o'rgatadilar, bizlarga o'xshaganlarning nasihatlariga ehtiyojlari yo'qdir» - deganlarida Sohibqiron bu so'zlarga e'tiroz bildirib: «Menga tahsin aytishi va mening mijozimga muvofiq gapirishingiz menga hush kelmaydi, vazifa shuki, sizlar har toifa har bir tomondan kelgansizlar. U tomonning yaxshi ham yomon ahvolu avzoiyni menga aytinglar va hyech nimani mendan yashirmanglar. Men bu so'zni sizlar menga ishonch bildiringlar yoki undan mening mulkimga biror foyda yetsin, deb aytganim yo'q... ulomalar bu so'zlar sidqidildan ekanligini bilgach, mamlakat ahvolidagi semizu oriq, yaxshiyu yomonlarni ochib so'zladilar».⁷²

Tarixda mashhur va zabardast hukmdorlarning Sohibqironga o'xshab olimu-fozillarning fikrlari bilan hisoblashadigan kamdan kam uchraydigan hodisadir. Bu uning o'zining kuch-qudratiga ishonganligi va bag'ri kengligini ko'rsatadi, albatta. U ayni paytda yuksak odob-ahloq sohibi edi.

Ediki, uning so'zlari raftorining husnu jami fazilatlar bobining debochisi bo'ldi. Uning yurishi-turish tarzi tabiiy mezon va odatga

⁷² Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, 370-bet.

aylandi. O'zining askar vaqtini sayidlar, olimlar va mashoyixlar bilan suhbatlashishga sarf qilardi".⁷³

Xullas, Sohibqiron o'zining oliy fazilatlarini bilan shuhrat qozonganidan Qora Yusuf Rum, ya'ni Turkiya Sultoni Boyazid huzuricha borib boshpana topdi. Shu bois Sohibqiron unga quyidagi mazmunda xat jo'natdi: «Men tabiatan u tomon (Turkiya)ga yuzlanish va Askar Surishni xohlayman. Amir Boyazid doimo faranglarga qarshi g'azot qilayotganligi sababli men faranglar quvvatlanib, ahli islomning kuschizlanishini istamayman. Ammo Qora Yusuf qaroqchi va yo'l kesardir, uning fitnayu fasodidan mususlmonlar shaharlariga yetgan zarar atrofdagi begonalar-nikidan ko'ra ortiqdir. Amir Boyazid esa uni himoyasiga olib, joy berildi. Endi ikki ishning birini qilinishi kerak: avvalo, uning kirdikorlarini to'xtatmoq uchun shamshir ishlatib, ishni oxiriga yetkazsin yoki uni bizga yuborsin, toki biz gunohini so'rab, qilgan qilmishicha yarasha jazosini beraylik. Agar amir Boyazid bu ikki ishning birini ham xohlamasa, uni mamlakatdan tashqariga haydasin! Anna shunda o'rtamizda ota-bolalik, do'stlik va ittifoqlik barpo bo'ladi, qiz berib qiz olamiz, kofirlar bilan qilgan g'azotlarida har nimagaki qodir bo'lsa yordam qilamiz va ko'maklashamiz».⁷⁴

Umuman, qadimgi va o'rta asrlarda yirik hukmdorlarning harbiy yurishlarida karvon yo'llarini egallash asosiy vazifalardan biri hisoblangan. Bu Amir Temurning faoliyatida ham yaqqol ko'zga tashlandi. U Sharq bilan Yevropani bog'lovchi karvon yo'llarini qo'lga kiritib, zarur shart-sharoitni to'la yaratishga erishdi. «Buyurdimki, - deydi Sohibqiron, — yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, o'tkinchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatab, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javob berish ularning zimmasida bo'lsin... Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik

⁷³ Muiniddin Natanaziy. Muntahob ut-tavorihi muiniy. «Temuriylar buyudokorligi davr manbalarida». T., 1997, 60-bet.

⁷⁴ Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, 323-bet.

haqidagi xabarlar, qo'shni podsholar, ularning gaplari, ishlari va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil xabarlarni rostlik-to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar».⁷⁵

Demak Sohibqiron Qora Yusufni davlat ahamiyatiga molik masala sifatida qoralab karvon yo'llarining havfsizligini ta'minlashga alohida ahamiyat bergan. Hatto, Turkiya Sultoni Boyazidga qarshi harbiy yurishgacha borganidi. Bunga Boyazidning bemaza maktublar yozib mensimaslik va chiranish yo'lining tutishi ham sabab bo'ldi.

Binobarin, Sohibqiron ichki va tashqi aloqalarga alohida ahamiyat berib, ularni qattiq nazorat ostiga olgan. Hatto haqiqiy ahvolni buzib xabar beruvchilarning «yozgan barmoqlari kesilsin», degan farmon chiqarilgan edi. Bunday maqsad aloqa yo'llarida adolatsizlik, zulm va boshqa tartibsizliklarni qo'porib tashlashdan iborat bo'lgan. Sohibqiron yana shunday degan: «Har mamlakat va diyor sayohatchilariyu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin: Xitoy, Xo'tan, Chinu Mochin, Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangiston, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfaalaridan keltirishsin... sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin».⁷⁶ Karvon yo'llarida va barcha savdo ahli uchun shu darajada qulay va xavf-xatarsiz sharoit yaratildiki, oldin ham aytib o'tilganidek, agar Samarqanddan birorta odam boshiga tilla to'ldirilgan ko'zani qo'yib butun saltanatni aylansa, hyech qanday to'siq va talafot ko'rmay qaytgan.

Mo'g'ullar va ularning hukmron vakillari islom dinini qabul qilgan bo'lsa-da, ularning orasida butparastlik hamon zimdan saqlanmoqda edi. «Temurnoma»da yozilishicha, mo'g'ullarning hukmdorlaridan biri ko'p din peshvolarini o'ldirib, maktab va madrasalarni xarobaga aylantirgan.⁷⁷ «Movarounnahrda, — deb

⁷⁵ Temur tuzuklari, 120-124-betlar.

⁷⁶ O'sha joyda, 84-85-betlar.

⁷⁷ Temurnoma 106-bet.

yozgandi Sohibqiron, - mo'g'ullarning jabr-zulmi ortib ketdi. Chunonchi, sayyid va sayyidzodalardan yetmish kishini asir olib band etdilar».⁷⁸ Mo'g'ullar tub aholi bilan murosila qilish uchungina islom dinini qabul qilgan edi. To'g'ri, ularning hukmdorlari orasida ayrim sultonlar islom diniga chinakam berildi. Biroq bunday holat mo'g'ullar jamoasi orasida ommaviy ravishda chuqur ildiz otmadi. Ular ichida «chala musulmon»lar oz emas edi. Shu bois Sohibqiron Turkistonda va umuman bo'ysundirilgan mamlakatlarda ham islom dinining ravnaqi uchun mardonavor kurashdi. Bu xususda u shunday yozadi: «Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqolar qurishni... buyurdim. Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim... Shu tariqa islom dinini rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoydim. Islom dinini yoyib, unga ravnaq berganim haqidagi ovoza kattayu-kichik ahli mo'minning qulog'iga yetgandan keyin, islom olimlari: «Tangri taolo har yuz yilda Muhammad, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, diniga rivoj berish va yangilash uchun bir kishini islom dinining yoyuvchisi va yangilovchisi sifatida ixtiyor etadi. Bu sakkizinchi yuz yillikda (ya'ni, XIV asrda - H.Z.) Amir sohibqiron islom dinini jahon ahliga tarqatdi. Shuning uchun bu yuz yillikda Muhammad dinining yangilovchisi shu kishi bo'lgay», — deb fatvo berdilar».⁷⁹

Shuningdek, Sohibqiron saltanatning u yoki bu joyida mashhur din peshvolarining xarobaga aylangan qabriga hashamatli yodgorliklar qurdirib, xotirasini abadiylashtirdi. Dinning muhim masalalari bo'yicha bahslar, suhbat va targ'ibot ishlarini uyushtirdi. Bularda shaxsan o'zi ham bevosita qatnashib turdi. Hatto qo'shinlar uchun maxsus qozi lavozimi joriy qilinib, islom dinining qoida va tartiblari vatan himoyachilarining ongiga yanada chuqur singdirildi. Bu ularning ona yurtiga sodiqligi va jangovarligini mustahkamladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inson dunyoga kelgandan buyon shu kungacha urushlar hamon davom etmoqda. Tarix sahifalari varaqlansa, Sharqda va umuman dunyoda urush girdobiga

⁷⁸ Temur tuzuklari. 30-bet.

⁷⁹ O'sha joyda, 74-bet.

tortilmagan va katta talafotlarni ko'rmagan mamlakatni topish amrimahol. Odatda, urushlar adolatli va adolatsiz bo'ladi. Birinchisi, u yoki bu davlat va xalqning bosqinchilarga qarshi kurashib, mustaqillik va ozodlikni tiklashidan iboratdir. Adolatsiz urushlar esa mustamlakachilik va ulug' millatchilik ruhidagi hukmdorlar tomonidan uyushtirilgan. Masalan, Ahamoniylar, makedoniyalik Aleksandr, xalifalik, mo'g'ullar, chorizm va sho'rolar davlatining tajovuzlari shular jumlasidandir. Vatanimizda ularning hukmronligi umumlashtirilganda 850 yildan oshadi.

O'zbek xalqi bu misli ko'rilmagan azob-uqubat, zulm va talafotlarga to'lib-toshgan davrlarda bosqinchilarga qarshi qahramonona kurashdi. Ularning orasida buyuk Amir Temur boshchiligida olib borilgan ozodlik kurashlari alohida o'rin egallaydi. Uning ichki va tashqi siyosati adolatga asoslangan bo'lib, nafaqat ona yurtining, balki boshqa mamlakatlar xalqlarining manfaati uchun ham tinimsiz kurashdi. Yuqorida zikr etilganidek, Chingizxon va uning vorislari ko'p mamlakatlarni egallab, Sharq va Yevropaning qator xalqlarini vahshiylarcha qirdi, boyliklarini taladi va qul kabi ishlatdi. Ularning zulmi shu darajada avjiga mindiki, mazkur qilmishlar «o'rta asr fashizmi» deb baholansa, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Shu tariqa mo'g'ullar, XX asrdagi fashistlar kabi, umuminsoniyat va taraqqiyot dushmaniga aylandi. Shuning uchun, mo'g'ullarga qayerda bo'lmasin zarba berish zamon talabi edi. Barcha mazlum xalqlarning manfaatini ta'minlovchi bu talabni amalga oshirish, Allohning marhamati ila Sohibqironning zimmasiga tushdi. U, avvalambor, Turkiston zaminida qudratli davlat bunyod qilib, uni bo'lajak xavf-xatar va talon-torojlardan saqlash uchun kurashdi. Bunga erishmoq uchun qator xorijiy mamlakatlarga harbiy yurishlar uyushtirishni, ya'ni mo'g'ullarga va boshqa dushmanlarga zarba berishni maqsad qilib qo'ydi. Saltanatning kuch-qudrati va xavfsizligini ta'minlash uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasini izchillik bilan amalga oshirdi. Ko'p mamlakat va xalqlarning Sohibqiron asos solgan yagona va qudratli davlat qo'l ostiga birlashtirilishi ularning hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xavfsizligini ta'minladi. Saltanatga qarashli yerlarda iqtisodiy va madaniy aloqalar rivojlandi. Islom dinining ravnaqi uchun sharoit yaratildi. Sohibqiron

ozodlik va taraqqiyot ramzi sifatida tanilib, adolatga asoslangan harbiy yurishlarni amalga oshirdi. Bundan maqsad tinchlik, barqarorlik, din va taraqqiyot dushmanlariga ularning makonida zarba berishdan iborat edi. Aks holda ularning bostirib kelishi turgan gap edi.

Ichki va tashqi savdoning rivojlanishi ham katta ahamiyat kasb etdi. Bunda xalqaro karvon yo'llari xavfsizligining ta'minlanishi muhim o'rin egalladi. G'iyosiddin Ali ko'rsatishicha, Sohibqironning beqiyos katta xizmatlaridan biri quyidagilarni o'z ichiga olgan: ilgarilari saltanatning barcha viloyatlaridagi yo'llarda savdogarlar va boshqa yo'lovchilarni talash, ya'ni o'g'irlik, bosqinchilik avjiga chiqib, juda og'ir ahvol hukm surardi. Endilikda adolat, tinchlik va barqarorlik o'rnatilishi natijasida har bir kishi o'zining oltini va boshqa boyliklari bilan xohlagan joyida bemalol o'tirish imkoniga ega bo'ldi. Karvon yo'llarida shunday yaxshi sharoit va tartib o'rnatildiki, ular bilan faxrlanishga barcha asoslar mavjud. Sohibqiron o'rnatgan adolat va barqarorlik barcha mamlakatlar uchun abadul-abad namuna bo'lib qolishi muqarrar.⁸⁰

Sohibqironning harbiy yurishlari siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablarni o'zida mujassamlashtirgan. Ular mustaqillik va tinchlik g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, ona yurt va boshqa mamlakatlarni mo'g'ullar hukmronligi hamda zulmidan ozod qilishga yo'naltirilgan edi. Boshqacha aytganda, harbiy yurishlar tarixiy zaruriyat mahsuli sifatida namoyon bo'lgan. Bilamizki, harbiy yurishlar jarayonida ko'p odamlar halok bo'lib, aholi turar joylari buzilgan. Biroq oliy maqsadni amalga oshirishning bundan boshqa yo'li yo'q edi. Zero, davlat ahamiyatigamolik masalalarni hammavaqt diplomatiyayo'li bilan hal etishning iloji bo'lavermagan. Faqat qurol va jang vositasi bilangina maqsadga erishilgan. Shu bois Sohibqiron o'zining jahon ahamiyatiga molik siyosatini harbiy yurishlar orqali ham amalga oshirishga majbur bo'lgan. Aks holda mo'g'ullar hamda yangidan shakllangan boshqa raqiblar mustaqillik va ozodlikli barbod qilishi aniq edi.

Demak, buyuk Amir Temurning adolatli harbiy yurishlarining mag'zini chaqmay, uning sha'niga dog' tushirishga urinish tarixni soxtalashtirishdan bo'lak narsa emas.

⁸⁰ Giyasaddin Ali. Dnevnik poxoda Timura va Indiyu. V sb. «Tamerlan». M., 1992, 202-203-betlar.

Davlat mafkurasi

Aytib o'tish lozimki, mafkura hyech qachon osmonu falakdan tayyor holda tushib, so'ngra odamlarning ongiga singdirilmagan. U yillar, asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, xalqning ongi va shuuridan chuqur joy olgan. Shu ma'noda, xalqimiz mafkurasining ildizlari aslida chuqur tarixiy davrlarga borib taqalib, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning mahsuli sifatida allaqachonlar shakllangan.

Milliy mafkuramiz VI—VII asrlarda, ya'ni Turk xoqonligi davrida o'tmish merosining yakunlovchi bosqichi sifatida yanada kuch-qudratga to'ldi va mustahkamlandi. U bu davrlarda xalqning qoniga va suyak-suyagigacha shu darajada qattiq singib ketgan ediki, hamon ilhomboxsh kuch sifatida yolqinlanib turibdi. O'sha uzoq tarixiy davrlarda «turk» atamasining keng ko'lamda qo'llanishi va qatyiyan rasmiylashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, «Turk vatani», «Turkiy til», «Turk yozuvi» va «Turk davlati» singari iboralar mintaqadagina emas, balki jahon ahli ko'z o'ngida to'la namoyon bo'ldi. Shu ravishda «Turkiy mafkura» yangi bosqichga ko'tarilib, o'z-o'zini anglash, ona yerga sodiqlik, ozodlik, erkinlik va taraqqiyot singari omillarni qamrab olgan. Unda xalqni va vatanni ulug'lash, jahon doirasida munosib o'rin egallash singari g'oyalar o'z ifodasini topdi. Shuningdek, mamlakatda o'zaro chiqishmovchiliklarni va urushlarni bartaraf qilib, birdamlikni va barqarorlikni ta'minlashga alohida ahamiyat berilgan. Aks holda dahshatli fojialar ro'y berishi uqtirib o'tilgan:

*Ey, turkiylar, taqdirga tan berib,
Yurak-bag'ri qop-qora qon bo'ldingiz.
Ko'rgulikka ko'nikdingiz noiloj,
Yurtingizda zoru nolon bo'ldingiz.
Qo'ldan ketdi Turonzamin necha bor,
Ey, turkiylar, ayting, bunga kim sabab?
Boy berildi erkinligu ixtiyor,
Turoniylar, ayting, bunga kim sabab?
Ayrildingiz, ayrilganni bo'ri yer,
Dushman yedi bitta-bitga ayirib,*

*Kishan soldi, Turon «zanjirband bir sher»,
Tiz cho'ktirdi dushman sizni qayi.ib.
Turonlilar, mana, keldi istiqlol,
Tezda qo'lni qo'lga berib birlashing!
Bir olingu qo'lga muqaddas yurtni,
Ammo bermang endi uni dushmanga.
Hur tilagim: Xudo sizni saqlasin,
Hatto tushda duch kelmangiz kishanga...*

Ajabo, bundan 1200 yil ilgari bitilgan mazkur misralarda keyingi 130 yil mobaynida ota-bobolarimiz va biz bosib o'tgan dahshatli zamonlar gavdalanib turibdi. Ma'lumki, o'zaro chiqishmov-chiliklar va qonli urushlardan foydalangan chor hukumati, so'ngra sovet davlati Turkiston o'lkasini bosib oldi. Natijada o'sha bitiklarda qayd etilganidek, Turkiston kishanga solindi, Turon «zanjirband sher»ga aylantirilib, yurak-bag'ri qora qonga belantirilib, ozodlikdan mahrum qilindi. Undagi «Mana, keldi istiqlol» va «Qo'lni qo'lga berib birlashing!» degan so'zlar bugungi kunda ham jaranglab turibdi. Shuningdek, «bermang uni (vatanni) dushmanga» va «Hatto tushda ham duch kelmangiz kishanga» degan so'zlar shu kun talabiga ham mosdir. Keyinchalik o'zbek nomi bilan atalgan «Turkiy mafkura» asrlar osha yashab o'zining asl mohiyati va yo'nalishini hamon saqlamoqda. Shuni uqtirib o'tish joizki, bu mafkura qattiq nazorat va ta'qib ostiga olinib, bir burchakka siqib qo'yilgan paytlar bo'lgan. Ammo uni hyech qanday kuch mahv qilolmagan. Vaqti kelib u dillardan qaynab chiqib, umumxalq harakatlarini yuzaga keltirgan. Masalan, mo'g'ullar hukmronligiga qarshi ko'tarilgan Mahmud Torobiy va sarbadorlar qo'zg'olonlari shular jumlasidandir. Ularni milliy mafkuraning mustaqillik va ozodlik haqidagi g'oyalari chulg'ab olgan edi.

Mafkura g'oyalariga aql-idrokli, vatanparvar, jasoratli, tadbirkor va umuman, har jihatdan yetuk shaxs boshchilik qilgandagina samarali bo'lishi mumkin. Buyuk Amir Temur mana shunday ahyonda dunyoga bir keladigan tabarruk zotlardan edi. U mustaqillik va ozodlikning ramzi sifatida tan olingan shaxs hisoblangan. Amir Temur xalqni zulmdan ozod qilishni muqaddas burch deb bilgan.

U bu oliy maqsadga sodiqligini amalda ko'rsatab, bosqinchilarga qarshi kurash olib bordi.

Shundan keyin Amir Temur o'lkaning goh u, goh bu joyida dushmanga qarshi kurashib, ko'p azob-uqubatlarni boshidan kechirdi. Hatto u bir necha bor halokat yoqasida turdi, lekin uning vatanga muhabbati va irodasi bukmadi hamda sinmadi. Uning nafaqat qalbi, umuman, butun jismu joni mafkuraning vatanparvarlik, mustaqillik va ozodlik g'oyalari bilan sug'orilgan edi. U xalq va vatan dardida yashab, uning ravnaqi uchun hyech narsadan toymadi.

Ibn Arabshoh ham Sohibqironning fazilatlarini sharhlab yoegan: «Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, chuqur mulohazali kishi bo'lib, tafakkur dengizining qa'ri yo'q va (uning) tadbiri tog'iga na tekislig-u, na g'adir-budur orqali yo'l topiladi».⁸¹

Xullas, xalq mafkurasi Amir Temur siymosida va faoliyatida to'la ifodasini topdi. Shuning uchun ham mamlakat mustaqilligini tiklashga erishildi, xalq mafkurasi Amir Temur davlatining mohiyati va yo'nalishini belgiladi. U bu davrda ham siyosiy, ham iqtisodiy va ma'naviy asoslarga ega edi.

Mafkuraning siyosiy sohadagi tutgan muhim o'rni 1370 yilda Amir Temur davlatining barpo etilishida namoyon bo'ldi. Bu yerda uning mustaqillikni tiklash haqidagi da'vati amalga oshirildi. Markazlashgan va qudratli davlatni yuzaga keltirish mafkuraning asosiy yo'nalishiga aylandi. Bunga erishish uchun, avvalo, o'zaro chiqishmovchiliklarga va urushlarga barham berib, davlatni ichki tarafdin mustahkamlash zarur edi. Bu to'g'rida Amir Temurning so'zlarini keltirish o'rindir: «Turon viloyatini zabt etib, Movarounnahr viloyatini (mo'g'ullar) vujudining xas-xashagidan tozalaganimdan keyin ba'zi uluslarning amirlari menga itoat etib, bosh egishni istamadilar va har biri o'z qabilalari oldida (hyech kimga bo'ysunmasligini ko'rsatmoqchi bo'lib) noz qilib turardilar. Amirlarimdan ba'zilari ularning yonini olib, menga, «bu davlatga barimiz sherik bo'lganimizdan keyin ularni ham davlatga sherik deb bilaylik» dedilar. Lekin ularning gaplari mening saltanat yuritishimdagi g'ayratimga ta'sir qilmadi. O'zimcha kengashdimki,

⁸¹ Ibn Arabshoh, O'sha asar, 2-kitob, 71-bet.

«Xudo bitta, uning sherigi yo'qdir. Shunday bo'lgach, Alloh taoloning muqaddas mulki — Yer yuziga egalik qiladigan (kadxudo) kishi ham bitta bo'lishi kerak».⁸² Amir Temur o'zining bunday siyosatini hokimiyatni qo'lga olgunga qadar va keyin ham izchillik bilan olib borishi tufayli butun mamlakatda tinchlik va osoyishtalik ta'minlandi. Amir Temur davlatining mafkurasida qo'shinning kuch-qudratini va jangovarligini oshirish muhim o'rin egalladi. Avvalo, Amir Temurning o'zi mohir jangchi va lashkarboshi hamda sipohlarning jonu dili bo'lib, ular bilan birga jang maydonlarida qahramonlik namunalari namoyish etdi.

«Sipohlarning, — deydi Sohibqiron, — ko'ngliganimao'tirsa, shuni qildim. Boshimga po'lat dubulg'a, egnimga Dovudiy sovt kiydim, belimga Misr qilichini bog'lab, bahodirlig'u kurash taxtiga o'tirdim». U sipohlarni yarog'-aslahalar, maosh va boshqazarur narsalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor berdi. Jangchilarning xizmatlarini qattiq qadrladi va o'zini ko'rsatganlarga «Bahodir» unvonini ta'sis etdi. Hatto harbiy xizmatga ayollar ham jalb qilingan edi. Zero Ibn Arabshoh yozadi: «Temur askari ichida ayollar ham bo'lib, ular jang to's-to'polonlari va shiddatli to'qnashuvlarda matonat ko'rsatardilar. Ular (dushman) erkaklariga qarshi turib mardonavor urush qilardilar, jangda nayza sanchishda, qilich bilan zarba berishda va kamondan otishda mohir erkaklardan ko'ra ham ortiqroq ish qilardilar. Agar ulardan biri homilador bo'lib, yo'lda ketayotgan paytda uni dard tutsa, u o'z jamoasidan ajralib, (yo'ldan) chetga chiqardi va ulovidan (otidan) tushardi. Ko'zi yorigach, chaqalog'ini o'rab olib, uloviga minardi va yana jamoasiga kelib qo'shilardi».⁸³

Ko'rinib turibdiki, gap yuritilayotgan davrda mafkuraning vatanga sodiqlik va jangovarlik g'oyalari shu darajada barq urganki, ayollarni ham jangga otlantirgan. Ayollarning jang maydonlaridagi qahramonona kurashlari kishini hayratga soladi. Ayniqsa, ko'zi yorigan ayollarning darhol jangga shaylanishi diqqatga sazovordir. Ma'lumki, tarixiy asarlarda Amir Temur askarlarini «vahshiy» kishilar tarzida tasvirlash odat tusiga kirib ketgan. Vaholanki, Amir

⁸² Temur tuzuklari. 47-bet.

⁸³ Ibn Arabshoh, O'sha asar, 2-kitob, 99-bet.

Temur o'zi yuksak axloq-odob egasi bo'lgani uchun qo'shini ham shunga monand nihoyatda tartibli va insofli bo'lgan. Ibn Arabshohning yozishicha, «Temur askari ichida olijanob, ibodatli, taqvodor, xudojo'y, saxovatli, himmatli kishilar ham ko'p bo'lib, ular ezguliklarda (cheksiz) manbalar bo'lib, bu (xayrlik)lar buloqlarining kirm va chiqimlari bor edi. Asirni ozod qilish, noqislikni to'lg'azish, yonganni o'chirish, (suvga) g'arq bo'layotganni qutqazish, o'zgalarga xayru ehson ko'rsatish, boshiga kulfat tushganga yordam qo'lini cho'zish u (kishilar) odatlaridandir».⁸⁴

Mafkuraning tom ma'noda umumxalq harakati sifatida gavdalanishi va uning Amir Temur tomonidan nihoyatda sidqidillik va bilimdonlik bilan boshqarilishi orqasida jangovar va yengilmas milliy qo'shin tashkil etildi. Endilikda mamlakatni tashqi xavfdan saqlash zaruriyati tugaldi. Tarixdan ma'lumki, chet elliklar hamisha Turkistonga bostirib kirib, qirg'in barot va talon-toroj qilganlar. Amir Temur bularga chek qo'yib, dushmanlarning o'z yerida zarba berib, o'lkani jahon miqyosiga olib chiqish maqsadida qator harbiy yurishlar uyushtirdi. Natijada mafkurada ulug' davlatchilik harakati avjiga minib, jahonni larzaga solgan Temur imperiyasi tashkil topdi. Hozirgi zamon nuqtai nazaridan qaraganda u g'ayritabiiy bo'lib ko'rinadi. Lekin o'sha davrdagi sharoit u yoki bu davlatning hukmron yoki qaram (mustamlaka) bo'lishini taqozo qilardi. Ayniqsa, tabiiy va ma'naviy boylikka ega bo'lgan mamlakatlar o'sha ikki holatning biriga duch kelishi turgan gap edi. Amir Temur buni yaxshi anglagan holda tashabbus ko'rsatib, ona yurti bo'lajak tashqi xavf-xatardan xoli qildi. Bu o'z davri uchun qo'llanilgan to'g'ri siyosat edi, albatta. Bordi-yu, Amir Temur davlati «o'z qozonida qovurilib», ta'sir doirasini qo'shni mamlakatlar hisobiga kengaytirmaganda, karvon yo'llari va savdo markazlarining egasi bo'lmaganda, qudratli davlat yuzaga kelmas edi. Yurt ahli mafkurasida huquqiy davlat, ya'ni mamlakatni qonun-qoida (demokratik) asosda boshqarishga qaratilgan harakat ko'zga tashlandi. O'rta asr tarixida bu kamdan-kam uchraydigan voqyeadir. Shu bois Amir Temur davlatining mafkurasi o'ziga xos ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Amir Temurning o'zi davlat

⁸⁴ O'sha joyda, 100-bet.

qonunini (tuzukini) yozdi va izchillik bilan hayotga tatbiq qilib bordi. Binobarin, Amir Temur mafkuraning adolat va insof nuqtai nazaridan davlatni boshqarish g'oyalarini hayotga tatbiq qilgan edi. Bu xususda mamlakatda qurultoylar chaqirilib muhim masalalar bo'yicha munozaralar o'tkazilishi ham diqqatga sazovordir. Shuningdek, Amir Temur saroyida kengash ta'sis etilishi va har bir masalaning muhokama qilinishi demokratiya ko'rinishlaridan biridir.

Ibn Arabshohning yozishicha, Amir Temur biron masala muhokama qilinayotganda, «gap jilovini tashlab qo'yib» erkin fikrlashga keng yo'l bergan. U shunday der ekan: agar bir kishi «masalaga chuqur qarab, bir kun bilan bir yil orasidagi ishlar oqibatini ko'zlab gapirsa, uning gunohi yo'q. Mayli, har kimsa xatoning eng quyisigacha yiqilsa ham yoki savobning cho'qqisiga ko'tarilsa ham farqi yo'q, hyech bir tortinmasdan gapiraversin. Chunki agar xato qilsa, bu nuqson emas, agar maqsadga muvofiq bo'lsa, unga ikki hissa mukofotdir». «Shunda har kim, - deydi Ibn Arabshoh, — o'z jiddu jahdini sarflab, bu masalada maqsadi va mehnatini ko'rsatib, o'z ijtihodi bergan natijasini namoyon qilar, o'ylagan fikri Temur murodiga muvofiq deb tasavvur etardi. Shu tarzda hamma fikrlar to'planib bo'lgach, ushbu majlis (ahli) tarqalardi».⁸⁵

Gapning sirasini aytganda, Amir Temur singari kishilarning maslahatiga katta e'tibor va chanqoqlik bilan qaraydigan hukmdorlar tarixda unchalik ko'p emas. Uning bunday fazilatlar har bir sohada katta yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini berdi. Amir Temurning adolat bilan davlatni boshqarganini uning tuzuklaridan ham bilsa bo'ladi. Bu xususda Sohibqiron shunday yozgan: «Kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan so'zlasa, unga ham quloq solardim, lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon tomonlari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim... Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib ziyon yetkazishga hyech bir kimsaning qurbi yetmasdi».

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur davlatni mustahkamlashda qonun-qoidalarining tutgan o'rniga alohida ahamiyat bergan. Buning

⁸⁵ Ibn Arabshoh, O'sha asar, 2-jild, 73-bet.

orqasida uning hokimiyati shu darajada katta qudratga ega bo'lganki, unga chang solishga qodir kishi topilmagan. Amir Temur kengash etgan masalalarni yana bir bor o'z safdoshlari bilan birgalikda ko'rib, keyin ularni so'zsiz va qattiqqo'llik bilan amalga oshirgan. Shuningdek, u lafzi halolligi, pokligi va samimiyligi bilan shuhrat qozongan.

Ma'lumki, xalq mafkurasining asosiy tayanchi va boshqaruvchisi hokimiyatdir. Shu bois taxt xavfsizligi va kuch-qudratini ta'minlash hukmdorning muqaddas burchidir. Lekin bu har bir podshoh qo'ldan kelmasligi orqasida bosqinchilar hukmronligi o'rnatilgan vaqtlar bo'lgan. Amir Temur esa o'z xalqi oldidagi mas'uliyatini yaxshi anglagan holda o'z taxtining xavfsizligini saqlashga alohida ahamiyat bergan. Amir Temur davlatining mafkurasida mamlakatning jahondaga mavqeini ta'minlash ham o'z aksini topdi. Sohibqiron Sharq davlatlari bilangina emas, balki Ispaniya, Angliya, Fransiyasingari Ovro'po davlatlari bilan diplomatik va iqtisodiy aloqalar o'rnatishga va rivojlantirishga harakat qildi.

Demak, davlat mafkurasi siyosiy hayotning barcha sohalarida o'z ifodasini topgan. U shunga o'xshash iqtisodiyotni ham qamrab olgan edi. Chunonchi, mo'g'ullar davrida qashshoqlashgan xo'jalikni tiklash, savdo-sotiqni rivojlantirish va farovon turmushni yaratish muhim vazifa hisoblandi. Bu vaqtlarda sun'iy sug'orish ishlari, yangi yerlarni o'zlashtirish va umuman, dehqonchilik keng ko'lamda rivojlantirildi. Amir Temur farmoni bo'yicha davlat dehqonlarni mablag', ishlab chiqarish qurollari va boshqa narsalar bilan ta'minlab turdi. Hunarmandchilikning barcha tarmoqlari ham o'sdi va turli-tuman mahsulotlar ishlab chiqarildi. Ichki va tashqi savdo rivojlanib, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Xitoy, Arabiston va boshqa mamlakatlar bilan aloqalar yuqori bosqichga ko'tarildi.

Natijada mamlakatda mul-ko'lhilikka erishilib, fuqarolar yaxshi hayot kechirdi. Umuman, Amir Temur davlatida mafkuraning iqtisodiy asoslari o'z samarasini berib, farovonlik hukm surdi.

Mafkuraning ma'naviy tomonlari ham keng quloch yoydi. Undagi vatanni sevis, xalqni ulug'lash, faxrlanish va g'ururlanish singari oliy fazilatlar barq urib turdi. Bularni Amir Temurning quyidagi so'zlaridan ham yaqqol bilish mumkin. U shunday yozgan:

*«Bizkim, mulki Turon, Amiri Turkistonmiz.
Bizkim, millatlarning eng qadimi va eng ulugʻi —
Turkning bosh boʻgʻinimiz».*

Shubhasiz, bu dur kabi terilgan fikrlar oʻsha davr maʼnaviy hayotining yoʻnalishi hisoblanib, oʻzbek xalqi oʻz-oʻzini anglashini koʻrsatadi va uning milliy his-tuygʻulari joʻshib turganidan dalolat beradi. Shuning uchun ham buyuk davlatchilik gʻoyasi yuzaga keldi va u roʻyobga chiqarildi.

Din mafkuraning ustunlaridan biri edi. Shu bois Sohibqiron din rivojiga alohida eʼtibor berib, muhim choralarni amalga oshirdi. «Yana tajribamdan koʻrdimki, - deydi u, — agar davlat dinu tartib asosida qurilmas ekan, toʻra-tuzukka bogʻlanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yoʻqoladi. Bunday saltanat yalangʻoch odamga oʻxsharkim, uni koʻrgan har bir kimsa nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigi — toʻsigʻi yoʻq uyga oʻxshaydi. Shuning uchun ham men oʻz saltanatim binosini dini islom, toʻra va tuzuk asosida mustahkamladim... Har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yoʻlovchi musofirlar uchun yoʻl ustiga rabotlar bino qilishni, daryolar ustiga koʻpriklar qurishni buyurdim».⁸⁶

Ilm-fan, meʼmorchilik, sanʼat sohalari ham rivojlanib, maʼnaviy hayot yuqori bosqichga koʻtarildi: Amir Temur saroyida olimu fozillarga, din peshvolariga va umuman, ziyolilar vakillariga zoʻr hurmat va gʻamxoʻrlik koʻrsatildi.

Amir Temur davrida maʼnaviy hayot barq urib rivojlangani haqidagi maʼlumotlar koʻpchilikka maʼlum boʻlgann uchun ularga batafsil toʻxtashga hojat yoʻq.

Umumiy xulosa shuki, Amir Temur davlatining mafkurasi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning yoʻnaltiruvchi kuchi va koʻzgusi sifatida gavdalandi. Uning ilhombaxsh kuch-qudrati va samarasi buyuk davlatni va taraqqiyotni taʼminlashda hal qiluvchi omil boʻldi. U uzoq tarixiy davrlarda shakllangan xalqchil mafkuraning davomi va takomili boʻlib, asrlar osha bizgacha yetib

⁸⁶ Temur tuzuklari. 72-73-betlar.

keldi. Endilikda u, hozirgi zamon sharoiti taqozosiga ko'ra, yangi bosqichga ko'tarilib, kelajakdagi buyuk davlat zaminini hozirlamoqda. Bu xususda Amir Temurning o'lim to'shagida izhor etgan vasiyatini yana bir bor keltirish ayni muddaodir: «Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz o'lsun. Men kabi uzun saltanat surmoq istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir da'fa chekkandan so'ngra-da uni ustalik-la qo'llangiz. Orangizga nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat qiling. Ba'zi xodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlari sochmoqqa, bundan foydalanmoqqa chalishajakdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim».⁸⁷

Buyuk Sohibqiron mafkurasining asosiy mohiyatini tashkil etgan - «millat dardiga darmon» bo'lishga chaqirig'i hozirgi kunda ham suv bilan havodek zarur da'vatdir.

Umumiy xulosa shuki, Amir Temur davlatining mafkurasi siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayot g'oyalari va amaliy ishlarining bir-biriga chatishib va qorishib ketishi orqasida yuzaga kelgan yo'naltiruvchi kuch hisoblanadi. U jamiyat ruhining reja va maqsadlarini, mustaqillik va taraqqiyotni ifoda etib buyuk o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Oliy fazilatlar sohibi va xalqparvar hukmdor

*Xudoyo, Eronu Turonni o'z farmonida tutib turgan
Jahonning bu darveshdo'st shohini
Xalq boshida doimo ustuvor saqlagil!
Toatu ibodat ko'magida dilini hushyor tutgil!
Uning umid daraxtini hosildor saqlagil,
Umrini uzog'u yuzini yorug' etgil!*

Amir Temurga bag'ishlangan ushbu satrlar muallifi Nizomiddin Shomiy - Sohibqiron bilan shaxsan suhbatlashgan va unga

⁸⁷ O'sha joyda, 61-bet.

«Zafarnoma» asarini taqdim etgan mashhur tarixchi⁸⁸. Bundan 600 yil ilgari bildirilgan ushbu tilakda chuqur ma'no o'z ifodasini topgan. Donishmand tarixchi buyuk Sohibqironning uzoq yashashi va uning yuzi hamisha yorug' bo'lishini Allohdan so'ragan edi.

Bu tilaklar bejiz aytilmagan. Zero, Sohibqironning uzoq yashashi tufayli saltanat qo'l ostidagi ko'p mamlakatlarning tinchligi va barqarorligi ta'minlanib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanish davom etardi. Qolaversa, o'zining yuksak qobiliyati va odob-axloqi bilan u chinakam davlat arbobi va xalqparvar hukmdor edi. Xo'sh, Amir Temurning shaxsiy fazilatlar, xalq va Vatan oldidagi xizmatlari nimalardan iborat bo'lgan?

Shuni hisobga olish lozimki, u yoki bu davlat rahbarining faoliyati uning aql-idroki, fe'l-atvori, bilimi va dunyoqarashiga monand ravishda shakllanadi. Buni Amir Temur misolida ham ko'rish mumkin. Avvalambor, u yoshligidan aqlli, ochiq ko'ngilli, jur'atli bo'lib, vazir va boshqa amaldorlarning farzandlari bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Amir Temur zamondoshi Ibn Arabshohning yozishicha, Sohibqiron «Baland qadli, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy pahlavonlar avlodlaridan bo'lib, keng peshanali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo'lalilik, oqu qizil yuzli, lekin dog'siz, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol... yo'g'on ovozli edi; u o'limdan qo'rqmas, yoshi yetmishga yetgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgiyu ko'ngilxushlikka maylsiz... edi».⁸⁹

Amir Temur madrasada ta'lim olgan, bilimli va dunyoqarashi har jihatdan keng qamrovli nishi bo'lgan. Xususan u ilm-fanning jonkuyari bo'lib ayniqsa tarix faniga juda qiziqqan. Turk, Arab va boshqa podshohlarining faoliyatini chuqur o'rgangan. Ilmiy bahslar uyushtirib va qatnashib bahslarda umuman sohibqiron o'zining aql-idroki tufayli bilim darajasi baland bo'lgan. Shu bois uning fikr-mulohazalari mazmun va o'tkirligi jihatidan kishilarni hayratga

⁸⁸ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. O'sha asar, 22-bet.

⁸⁹ Ibn Arabshoh. O'sha asar. 2-kitob, T., 1992, 65-bet.

solgan. «Amir Temur eng adolatli hukmdor sifatida shuhrat qozonganidi. Hatto, adolat soʻzi tamgʻaga muhrlanganidi...»⁹⁰ «Temur tamgʻasining naqshi «rosti rasti» boʻlib, bu «haqgoʻy boʻlsang, najot topasan» demakdir... uning majlisida uyatsiz soʻzlar, qon toʻkish, asir olish, nahbu gʻorat qilish va haram (haqi)ga haqorat gaplar boʻlmasdi. Temur qoʻrqmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan boʻlib, jasoratli kishilarni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi... U (birovdan) bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va koʻz ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi».⁹¹

Sohibqiron adolat jihatidan barcha hukmdorlardan ustun turgan. Koʻrinib turibdiki, Sohibqiron oʻta zehnli, farosatli va adolatli hukmdor hisoblanib, yuksak odob-axloq sohibi boʻlgan. «U sinchkov, har bir ishoratdan ogoh kishi boʻlib, yuz beradigan barcha ishni koʻrib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchining aldovi yashirilib qolmas va firibgarning firibi oʻtmas, oʻz farosati bilan haqgoʻy va yolgʻonchini ajratar edi... Agar u biror narsani amr qilsa yoki bir narsaga ishorat qilsa, undan aslo qaytmasdi yoki u biror narsaga qasdlansa, beqarorlik, yengiltaklik va sustkashlikka mansub boʻlmaslik uchun oʻz qatʼiyati jilovini u narsadan sira burmasdi».⁹²

Binobarin, Sohibqiron davlat ishlarida beparvolikka yoʻl bermay, qilinishi lozim boʻlgan vazifalarni qatʼiyatlik bilan nihoyasiga yetkazmaguncha qoʻymagan. U odamlarni oʻz taʼsir doirasiga tortish, ragʻbatlantirish, ruhini koʻtarish va ishlatishda tengsiz qobiliyat egasi boʻlgan. Gʻayratli, mehnatsevar, sodiq va halol amaldorlarning qadr-qimmatini oʻrniga qoʻyish va moddiy jihatdan taʼminlashga alohida ahamiyat bergan. Shuningdek, ularning oʻzlarini tutishlari va yurish-turishlarini nazorat qilib borgan.

Bir rivoyatga koʻra, kunlarning birida Sohibqiron ikki amaldorni huzuriga chaqirib, birinchisiga shunday degan: «Sizni shu bugundan boshlab egallab turgan lavozimingizdan boʻshatdim». Shu onda u: «Olampanoh, mening ishlarimdan hamisha mamnun

⁹⁰ Oʻsha joyda.

⁹¹ Oʻsha joyda.

⁹² Oʻsha joyda. 65-66-betlar.

bo'lib va maqtab yurgan edingiz, nima sabab bo'ldiki, mendan ko'nglingiz qoldi?» — deb hayron bo'lganida, mana bu javobni olgan ekan: «To'g'ri, o'zingizning vazifangizmi biz istagandek bajarib keldingiz, lekin keyingi paytlarda so'zlaringiz va o'zingizni tutishingiz egallab turgan mansabingiz doirasidan yuqorilashib ketdi. Manmanlik va g'o'dayishga berilib, hyech kimni mensimay qoldingiz. Tunov kuni masjid oldida o'tirgan qariyalarning qarshisidan otdan tushmay va salom bermay o'tib ketibsiz, hatto qabristondan ham Qur'on o'qimay otda o'tibsiz. Bunga o'xshash ma'lumotlar ancha to'planib qoldi. Bu ketishda o'zingizning ham, hokimiyatning ham sha'niga putur yetkazib qo'yasiz. Yaxshisi, o'zingizni tarbiyalab oling, so'ng sizni e'tibordan chetda qoldirmaymiz, albatta». Ikkinchi amaldorga esa Sohobqiron shunday debdi: «Sizning muomalangiz va faoliyatingiz egallab turgan mansabingiz doirasidan juda pasayib ketdi, shu bois siz ham undan ozod etildingiz». Demak, Amir Temurning fikricha, u yoki bu amaldor haddidan oshmay, o'ziga berilgan vakolat doirasida sidqidildan xizmat qilishi kerak. Shuningdek, u noshud va zarbi yo'q mansabdorlarni darhol bo'shatgan. Natijada Sohobqiron saroyida jasoratli, mard, tirishqoq, o'z fikr-mulohazalarini oshkora ayta oladigan ochiq yuzli mansabdorlar to'planib, sadoqat bilan xizmat qilgan.

Sohobqiron tom ma'noda xalqparvar hukmdor bo'lib, mamlakatda adolat, tinchlik va farovon hayotni ta'minlash uchun kurashadi. «Amir Sohobqiron, - deydi Nizomiddin Shomiy, - raiyatlar ahvolini chuqur tekshirib, mazlumning dodini zolimdan oldi, mamlakatning xarobligu obodonligi borasida ma'lumotlar olishga iltifot ko'rgazdi. Har kimning haq-huquqini o'z o'rniga qo'ygan holda xaloyiqning har bir sinfini turli-tuman mehribonliklar bilan siyladi: sayyidlarni ulug'lashu ehtirom, amirlarni choponu in'om, ulamolarni e'zozu ikrom, zaiflarni saxovatu ehson, raiyatni amonligu odillik bilan xushnud etdi. Shuning uchun uning muborak zoti Xudoyi taoloning lutfu inoyatiga sazovor bo'ldi...»⁹³ «Temur olimlarga mehribon bo'lib, sayyidu shariflarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolalar va fozillarga to'la-to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qanday kimsadan batamom muqaddam

⁹³ Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, 220-bet.

ko'rardi — har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biror fazilat va sharofat bo'lsa, shu kasb egalariga g'oyatda mehr qo'ygan edi».⁹⁴

Darhaqiqat, Sohibqiron mo'g'ullarning 150 yil davom etgan adolatsizligi, talon-toroj, parokandalik va o'zaro qonli kurashlarni tugatib, mamlakatni belgilab qo'yilgan qonun va tartiblar asosida boshqardi.

Haqsizlik, zulm, zo'ravonlik va o'zboshimchalik singari illatlarga barham berilib, xalq manfaati himoya ostiga olindi. «Sa'y-harakatni, - deydi Sohibqiron, - obodonchilik va fuqaro farovonligiga yo'naltirishni hukmdorlik yo'l-yo'riqlarining farzlaridan va jahondorlik sunnatlaridan deb bildik».⁹⁵ U farzandlariga ham qo'l ostidagi mamlakatlarda ko'rsatilgan tarzda siyosat yurgizishni topshirib, bunday degan: «...ushbu ulug' ishni shu yo'sinda olib borsinki, toki u adolat, haqiqat, hukmdorlik zaruriyatlari va raiyatparvarlik uchun kafolat bo'la olsun hamda uning qoidalariga shunday bir tarzda amal qilsinki, toki u olamning obodligi va insoniyat tinchtotuvligi bilan yakun topsin,... haqparvarlarni qo'llab-quvvatlash va e'zozlashda, masjid va madrasalarni ta'mirlashda va xayrli dargohlarni ko'paytirishda tirishqoqlik namoyish etib, mufsidlar, avboshlar, jinoyatchilar va qaroqchilarni hamda shariatga xilof ishlarning ko'payishini va noloyiq qonun-qoidalarni tag-tugi bilan yo'qotishni zarur va lozim, deb bilsin. Shundagina mamlakat ishlari bir tekis boradi: saltanat mavqeyi va to'g'ri yo'l-yo'riq barqaror bo'ladi».⁹⁶

Demak, Sohibqiron shunchalik puxta o'ylab ish yuritganki, saltanat kuch-qudratini saqlash, ba'zi podshohlar o'ylaganidek, faqat qo'shinga emas, balki birinchi navbatda xalqning tinchligi va manfaatini ta'minlashga ham bog'liq, deb hisoblagan. Shundagina xalqning o'z hukmdori va davlatiga bo'lgan mehr-muhabbati oshib, vaqti kelganda ular uchun jonini ham, molini ham tikadi. Shuni aytish lozimki, Sohibqiron nafaqat Turkiston, balki qo'l ostidagi boshqa mamlakatlar xalqlarining manfaatlarini ham o'ylab ish yuritgan. U yerlarga hokim etib tayinlangan farzandlari zimmasiga

⁹⁴ Ibn Arabshoh. O'sha asar, 2-kitob, 69-bet.

⁹⁵ Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, 384-bet.

⁹⁶ O'sha joyda, 385-bet.

adolat va haqiqatga, obodonchilik va taraqqiyotga qaratilgan siyosat yuritishni yuklagan.

Sohibqironning olijanoblighi harbiy yurishlar jarayonida ham namoyon bo'ldi. Uning ashaddiy dushmanlari kechirishni va afv etishni so'rganlarida, ularning hurmat va izzatani o'rniga qo'yib, qimmatli sovg'alar bilan takdirlagan. Hatto hukmdorlarni o'z o'rnida qoldirgan vaqtlari ham bo'lgan. Urushlar tufayli buzilgan joylar darhol tiklangan, yangi shaharlar qurilgan. Xususan, «Sheroz Amir Sohibqironning sharaflari qadami barakoti bilan bir necha vaqt amonda bo'lib, obodonlashdi. Kishilar ayshu farog'atga yaqin va qiyinchiligi balolardan uzoq yashadilar. Bir qancha mavzelarga xayriya imoratlari, masjidi madrasalar qurildi va shaharning ba'zi mahallalariga oqar suvlar keltirildi... (Amir Sohibqironning) oliy himmati jahon ahli ahvolining osoyishtaligiga qaratilgani va shunga sarflanayotgani tufayli ravshan qalbi oynasida shu narsa yuz ko'rsatdiki, «Turon mamlakatida mashhur mavzela imorat qilganimizdek, Eron mamlakatida ham biz hazratdan yodgorliklar qolg'ay...» «Baylaqon yerida bir mavzeda shahar bino qilishga oliy ishorat sodir bo'ldi. Bir shahar tarhini chizdilar: u keng bir devor, chuqur bir xandaq, to'rtburchak shaklida bozor, ko'p uy-joylar, hammom, saroy, maydon va chamanzorlardan iborat edi. Shahar devorining aylanasi shar'iy gazda ikki ming to'rt yuz gaz, devor kengligi o'n bir gaz, devorining balandligi kungiralar tepasigacha o'n besh gazga yaqin, xandaqning kengligi qirq gaz, chuqurligi qariyb yigirma gaz, shahar devori bo'ylab soqchilar va posbonlar uchun uylar belgilangan, uning to'rt tomon burchagidan har birida bir burj - minora ko'tarilgan, chiqar joylar, tosh otiladigan joylar tartibga keltirilgan. Haqiqatda agar biror komkor podshoh shunday bir mavzeni tiklashni xohlasa, avval bir muddat asbob-uskunalarini tayyorlagach, agar bir yilda uni bitirishga muyassar bo'la olsa, hamma taajjub qilardi. Shunday quruq bir sahroga tayyorgarlik ko'rmasdan, asbobu olat yig'masdan, yolg'iz oliy iltifot bilan shu qadar oliy bir imorat va baland shahristonni barpo etish bir oy muddatda tamomiga yetdi. Donishmandlar bu komronlikka taajjub qildilar, jahondiyda kishilar... ofarinlar o'qidilar».⁹⁷ Ushbu ma'lumotlar

⁹⁷ Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, 371-372-betlar.

Sohibqironning tashkilotchilik va bunyodkorlik qobiliyatining chegarasi yo'qligi haqida guvohlik beradi. O'sha yangi qurilgan shahar misolida ham Sohibqironning oliyhimmatliligi va bag'rikengligini yaqqol ko'rish mumkin.

Sohibqiron Turkiston mintaqasi bilan bir qatorda boshqa joylarda ham qattiq tartib va tadbirkorlik bilan ish yuritish bo'yicha muhim choralarni ko'rgan. Masalan, u Ozarbayjon va Iroqi Ajamga hokim etib tayinlangan nabirasi Umarga shunday ko'rsatma bergan: «Chiqim bilan kirim bir me'yorda tutilsin, shundagina mamlakatni boshqarish osonlashadi va zulm qilishga o'rin qolmaydi. Chegaralarga hayot sinovidan o'tgan, hushyor, sergak, mard va tajribali kishilar qo'yilsin. Fahm-farosatli va shijoatli yetuk kishilar e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Yo'llarni muhofaza qilish rahbarlikning eng muhim vazifalaridan ekanini unutmaslik lozim. Savdogarlar va yo'lovchilarga ozor berilishiga yo'l qo'yilmasin».⁹⁸ Bunday ko'rsatmalar berilishi bejiz bo'lmagan, albatta. Chunki moliyaviy ishlarni bilimdonlik va hisob-kitob bilan yuritish, ichki va tashqi savdoni rivojlantirishga qaratilgan choralarni ko'rish saltanatni mustahkamlash va xalq farovonligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Shunisi diqqatga sazovorki, Sohibqiron saltanatga qarashli hamma joyda adolat va tartibni nazorat qilishni ziyolilarning ham zimmasiga yuklagan. U olimlarning aql-idrokli vakillarini hukumat nomidan turli joylarga yuborib, ahvol qanday kechayotgani haqida ma'lumot to'plab, axborot berishni buyurgan: «Amir Sohibqiron bir guruh taniqli va diyonatli olimlardan tanlab, ularning har birini devoni a'lo tomonidan bir amin bilan mamlakat chekkalaridan biriga nomzod qildi, toki ular tayin etilgan tomonga jo'nab, mamlakat ishlarining tagiga yetsinlar, agar biron-bir mazlumga zulm yetgan bo'lsa yoki biron o'jizga zo'ravonlik ravo ko'rilgan bo'lsa, zarar tikanini mazlumlar oyog'idan chiqarib, ulardan zo'rlik bilan olingan narsa isbot qilinsa, o'sha tomonda bo'lgan xazina molidan ularga qaytarib bersinlar, bo'lgan ahvolni yozib olib qaytsinlar va arz izzatgohiga yetkazsinlar, toki bundan keyin u (zulm) qoidalarini ulardan yiroqlashtirsinlar. Shunda dur to'kuvchi lafzidan chiqarib

⁹⁸ O'sha joyda, 383-bet.

aytdi: «To shu vaqtgacha jahongirlik ishlarida zoʻr saʼy-harakat qilindi, bundan soʻng esa podshohona niyat jahonni boshqarish alomatlarini yuqori koʻtarishga sarf etilajak. Bundan gʻaraz shulki, har kim nimani bilsa, bexavotir bizning arz izzatgohimizga yetkazsin, har narsaki, mamlakat islohi unga aloqador va mazlumlar boshidan zararni daf etish unga bogʻliq boʻlsa, u haqda bizga yetkazishda beparvolik qilmasin, eʼtimod va toʻla ishonch bilan ochiq koʻrsatsin».⁹⁹

Shunday qilib, Sohibqiron oʻz qoʻl ostidagi mamlakatlarda millati, irqi va diniy qarashlariga qaratilgan odil siyosat yurgizgan. Ularning tili va madaniyatiga hurmat bilan qaragan. Buni Samarqandda Sohibqiron tomonidan xalq uchun uyushtirilgan ziyofatda turli millat vakillari qatnashganida ham koʻrish mumkin: «Olamning turli taraflaridan yigʻilgan, tillari va kiyimlari bir-birlaridan farqli har qaysi mamlakat sozandalari, har bir iqlimning sanʼat ahllariyu hunar sohiblari guruh-guruh boʻlishib, har diyorning oʻzida rasm va odat qilingan zeb-ziynat buyumlari, taqinchoqlari, kiyim-kechak va matolari bilan yasanib, oʻzlariga oro berdilar. Xushnagʻma sozandalar va xushovoz xonandalar fors tariqasida, ajam tartibida, arab qoidasida, turk yoʻsinida, moʻgʻul ayolgʻusida, xitoy rusumida, altoy uslubida soz chalmoq, ashula aytmoq va ohang bogʻlamoq ila mashgʻul edilar».¹⁰⁰

Turli millat sanʼatkorlarining ajoyibu gʻaroyib ashula va raqslarini maroq bilan tanglab, tomosha qilgan Sohibqiron jamoa ahliga qarata shunday degan ekan: «Tengi yoʻq Tangri... olamni yorituvchi oftob misoli, uzoq va yaqinni bir xil bilib, barcha davlatlar va millatlardagi kuchli va zaif, faqir va sharif, katta va kichik — hammasini oʻz marhamatimiz himoyasi va shafqatimiz soyasida bir xil koʻrishni, har bir kishini oʻz mavqeiga qarab bu buyuk davlat mahsulidan bahramand etishimizni shart qilib qoʻymish».¹⁰¹

Oʻrta asrlarda xorijiy mamlakatlar xalqlariga mehribonlik va doʻstlik koʻzi bilan qarash Sohibqironning misli koʻrilmagan darajada xalqparvar va olijanob shaxs boʻlganini koʻrsatadi. Chunki oʻsha

⁹⁹ Oʻsha joyda, 370-371-betlar.

¹⁰⁰ Oʻsha joyda, 393-bet.

¹⁰¹ Oʻsha joyda, 394-395-betlar.

uzoq vaqtlarda begona millatlarni kamsitish hukmdorlar va ularning qo'l ostidagi mansabdorlar uchun odat tusiga aylangan edi. Sohibqiron esa o'z davridagi qarashlardan uzoqlashib, ilg'or fikrlarni olg'a surib, ibratli ishlarni amalga oshirgan. Yuqorida ko'rsatilganidek, har bir fuqaroga dardiyu arzini tortinmay, cho'chimay, bevosita Sohibqironga bildirish huquqi berilishining ham ahamiyati katta. Shuningdek, Sohibqiron tomonidan majlislar va qurultoylar o'tkazilganini hamda davlat kengash asosida boshqarilganini ko'rsatib o'tish lozim. Sohibqiron xalq turmush darajasini va ma'naviyatini boyitishga ham katta ahamiyat berdi. Natijada mamlakatda mo'l-ko'pchilik va to'qchilik qaror topdi. Madrasa va masjidlar qurildi. Olimu fozillar faoliyati uchun to'la sharoit yaratildi. Dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoni keng ko'lamda rivojlantirish orqali farovonlikka erishilib, mehnatkash xalqning turmushi yuqori darajaga ko'tarildi.

Olimu fozillar, din peshvolari va atoqli kishilar Sohibqironning faoliyatiga yuqori baho berdilar. Masalan, Misr qozilarining qozisi va taniqli tarixchi Valiuddin Abdurahmon ibn Xaldun Sohibqironga ta'zim ila quyidagi so'zlar bilan murojaat qilgan: «Azbaroyi Xudo, e, Mavlono Amir! Dunyo fathlarining kaliti bo'lgan qo'lingni (menga) bergin, men uni o'pish sharafiga muyassar bo'lay... Mavlono Amir! Misr sendan o'zga noib hukmidan yoinki unda faqat sening amringdan boshqa amr joriy bo'lishidan xorijdur. Senga barobar keladigan (kimsa) mening nasli-nasabim, ahliyu avlodim, vatanu mamlakatim, do'stu birodarlarim, xeshu aqrabolarim, odamlar podshohlari tugul barcha orqayu bosh, balki butun insoniyat orasida ham yo'qdir. Chunki ular hammalari bo'xtonlik qornida (ov bo'lib) tutilib qolganlar. Men faqat o'z umrimning behuda o'tib, o'z davrimning (befayz) ketganiga achinib, afsuslanaman. (O'tgan umrim) qanday qilib sening xizmatingdan o'zganing xizmatida o'tdi? Nega mening ko'zlarim sening siymong nurlarini o'ziga surma qilib surmadi?.. Mayli, sening panohingda qaytadan ikkinchi umrimni boshlayman... Boqiy umrimni sening xizmatingga bag'ishlab, zoye ketgan umrimni topib, sening quyushqoningga mahkam yopishib olaman. Ushbu vaqtni hayotimning... eng sharaflisi deb hisoblayman».¹⁰² Ushbu

¹⁰² Ibn Arabshoh. O'sha asar, 2-kitob, 66-67-betlar.

satrlarda Sohibqiron sha'niga izhor etilgan durdona so'zlar haqiqatni aks ettirib, uning buyukligiyu shuhratini anglatuvchi misollardan biridir.

Oltin O'rdaga zarba berilishi

Amir Temur davlatini kuchiga kuch qo'shib jahon davrasidagi mavqeyini oshishi Oltin O'rda manfaatlariga putur yetkazadigan bo'lib qoldi. Ayniqsa, uning tarkibidagi Shimoliy Xorazmning Amir Temur tomonidan bosib olinishi katta ziyon keltirdi. Bundan tashqari Amir Temurning o'zi Oltin O'rdani kelajakda siyosiy va iqtisodiy jihatdan xavfliligini yaxshi bilardi. U Oltin O'rdada o'z ta'sirini o'rnatish uchun u yerdan qochib kelgan taxt da'vogari To'xtamishni harbiy kuch bilan ta'minlab 1376 yilda ikki marotaba O'rdaga qo'shin jo'natdi. To'xtamish 1379 yildagina Temurni yordami bilan Oltin O'rdani bir qismi bo'lmish Oq O'rda taxtini egalladi. Shundan keyin u Oltin O'rda taxtini qo'lga kiritish uchun Mamayxonga qarshi yurish qilib mag'lubiyatga uchratdi. Shu ravishda To'xtamish butun Oltin O'rdani yakkahokimligiga erishdi. Shundan keyin u Amir Temurni barcha yaxshiliklari va yordamini nazar-pisand qilmay Turkistonni egallash harakatiga tushdi. U 1387—1388 yillarda Amir Temur Erondaligida Turkistonga hujum qildi. Bundan xabar topgan Amir Temur darhol vataniga qaytishga majbur bo'ldi. Ammo To'xtamish qo'rqib qochadi. Xorazm hukmdori Sulaymon Sufi To'xtamish bilan til biriktirib Amir Temurga qarshi bosh ko'targan edi. Shuning uchun Amir Temur 1386 yilda Xorazmga harbiy yurish qilib uni qayta bo'ysundirdi. To'xtamish esa Amir Temurga qarshi harakatni davom etdiradi. Shuning uchun Amir Temur Oltin O'rdaga 1389, 1391 va 1394—1395 yillarda katta harbiy yurish qilib Oltin O'rda tinkasini quritdi. Ayniqsa, 1391 yilda hozirgi Samara shahri va Chistopol oralig'ida joylashgan Qunduzcha degan joydagi urushda To'xtamish qo'shinlarini qattiq zarbaga uchrashi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyingi 1395 yildagi Amir Temur va To'xtamish qo'shinlari o'rtasidagi jang shimoliy Kavkazdagi Teroq daryosini yoqasida sodir bo'ldi. Bu jangda To'xtamish kuchlari shu darajada qattiq zarbaga

uchradiki, u shundan keyin o'zini o'nglay olmadi. Amir Temur bu g'alabadan so'ng Oltin O'rdani Saroy Berka, Astraxan, Qrim va Qora dengiz bo'ylaridagi shaharlarini, Azovni va shimoliy Kavkazni egallab qoldi. Shu ravishda Oltin O'rda Amir Temur davlatiga qo'shib olindi.

Yedigey, Temur Qutlug' va boshqa Oltin O'rdaning amirlari Amir Temur huzuriga qochib kelib To'xtamishga qarshi urushlarda faol qatnashgan edilar. Amir Temur g'alabadan keyin Yedigey Chingizxon xonadonidan bo'lmaganligi uchun Oltin O'rda taxtiga Temur Qutlug'ni, so'ngra uning avlodlarini (1397—1419) o'tkazdi. Bu xon Oltin O'rdani qaddini bir muncha rostlashga erishdi. Ammo Amir Temur Oltin O'rda shaharlarini ostin-ustin qilib qo'shinarini shu darajada majaqlab tashladiki, bamisoli beli bukchaytirilib qo'yildi.

Bu endigina qaddini roslayotgan rus davlatiga juda qo'l kelganidi. Bu xususda, A.Yakubovskiy yozgan: «1395 yilda Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi, Astraxon va ayniqsa Oltin O'rta poytaxti Saroy Berkaning xarob qilinishi va yondirib yuborilishi faqat O'rta Osiyo va o'sha vaqtdagi janubiy-sharqiy Yevropa uchungina emas, balki rus uchun ham katta ahamiyatga ega bo'ldi... To'xtamishni yengish bilan rus yeriga obyektiv suratda xizmat ko'rsatgan. Lekin shunday bo'lib chiqishini uni o'zi mutlaqo payqamagan».¹⁰³ Ikkinchi bir rus tarixchisi Solovyev ham shunga o'xshash bahoni bergan: «Temur Oltin O'rdani tor-mor qilgandan keyin Moskva knazi uchun u uzoq vaqtgacha xavf-xatarsiz bo'lib qoldi».

Shu tariqa, Amir Temur rus knazliklarini oldini to'sib turgan to'g'onni — Oltin O'rdaga qaqshatg'ich zarba berib, kelajakda qudratli rus davlatini kuchayib ketishiga o'zi o'ylamagan holda beqiyos katta sharoitni yaratdi.

XV asrning birinchi yarmida Oltin O'rda xarobalarida Qrim va Qozon, keyinchalik Astraxon va Sibir xonliklari paydo bo'ldi. 1480 yilda esa rus knazliklari ham Oltin O'rda qaramligidan qutildi. 1502 yilda Qrim xoni Oltin O'rdaning oxirgi hukmdorini tor-mor etib, uni tamomila tugatdi. Buni ustiga ustak XVI asrning boshlarida

¹⁰³ Grekov B.D., Yakubovskiy A.YU. O'sha asar, 317-318-betlar.

Oltin Oʻrda xonlaridan biri Shayboniy Temuriylar davlatining agʻdarib va oʻn minglab odamlarni Turkiston zaminiga joylashtirib Oltin Oʻrdani huvillatib qoʻydi. Natijada u yerda odamlar soni juda kamayib ketdi.

XVI asrning oʻrtalarida rus davlati Qozon (1552) va Astraxon (1556) xonliklarini bosib oldi. Soʻngra Sibir xonligi ham urushib olindi. Shu ravishda Volga boʻylarida, Uralda, Qora dengiz qirgʻoqlarida va Sibirda ikki ming yildan ortiq davrda slavyanlarga, shu jumladan ruslarga toʻsiq boʻlib turgan turkiy davlatlar oʻrnini rus davlati egallab, oltin, kumush, temir, koʻmir, oʻrmonlar, unumli yerlar va boshqa tabiiy boyliklarni hamda olamshumul ahamiyatga molik karvon yoʻllari singari bitmas-tuganmas xazinani qoʻlga kiritdi. Bu bilan rus davlati «gʻijja moyga botdi» va tobora kuchayib barcha imkoniyatlarga ega boʻldi.

Oltin Oʻrdani parchalanishi va qulashi u yerda koʻp asrlar mobaynida oʻz mavqeini saqlab kelayotgan Turkiston oʻlkasining kelajakdagi manfaatlariga katta ziyon keltirdi. Chunki u joylar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar Turkistonda, ayniqsa, Xorazm vohasida ishlab chiqarish kuchlarining oʻsishida va taraqqiyotida muhim oʻrinni egallagan edi.

XIV asrning oxirlari — XVI asrlar mobaynida rus knazliklarini birlashtirilishi asosida markazlashgan Rus davlati tashkil topdi. Qanchalik vaqtlarning oʻtishi bilan sobiq Oltin Oʻrda yerlarida rus shaharlarini, harbiy istehkomlarini, togʻ konlarini va zavodlarini soni shunchalik koʻpayib bordi. Koʻrsatilgan joylarda rus davlati oʻz mavqeini mustahkamlab olganidan keyin Turkistonni ham boʻysundirish harakatiga tushdi.

Oldingi sahifalardan koʻrinib turibdiki Sohibqiron yuz yillarda bir keladigan buyuk tarixiy shaxsdir.

Xoʻsh, Amir Temurning xizmatlari nimalardan iborat boʻlgan?

Birinchidan, Amir Temur xalq ommasining uzoq vaqtlardan buyon chet el hukmronligiga qarshi kurashini nihoyasiga yetkazib, mustaqil davlat barpo etdi. Natijada 150 yildan buyon davom etib kelayotgan moʻgʻullarning zulmi va talon-taroji ildizi bilan qoʻporib tashlandi. Amir Temur moʻgʻullarning hukmronligini oʻz vatanida emas, balki xorijiy mamlakatlarda ham toʻgatganidi. Shuningdek,

mamlakatning moddiy va ma'naviy hayotiga katta ziyon keltirayotgan o'zaro qonli urushlarni tugatib, markazlashgan davlatni yuzaga keltirdi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Amir Temur mamlakatni qonun asosida boshqardi. «Davlat ishlarini, — deydi u, — saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim».¹⁰⁴

Ichki va tashqi siyosatni kengash a'zolari bilan maslahatlashgan holda olib borgan. «Har bir ishni, — deydi u, — qilishga kirishar ekanman, avval obdon o'ylab, (amirlarim bilan) kengashdim. Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomon, foydayu ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmaslik haqida so'z ochib, (ulardan) fikr so'rar edim. Ularning so'zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib, foydaziyonlarini ko'nglimdan kechirardim; uning xatarli tomonlariga ko'proq e'tibor nazari bilan qarardim; qaysi bir ishda ikki xatar mavjud bo'lsa, uni (bajarishdan) voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim... Ishlarimning barisida avval kengash-maslahat qo'lladim, ishni bajarishga kirishar ekanman, oldindan chora-tadbirlar belgilab qo'yardim hamda bu ish qanday yakunlanishi haqida fikr-mulohaza qilgan holda ish boshlardim; so'ngra, kezi kelganda, to'g'ri tadbir va qat'iy jazm, yoxud mulohazakorlik va ehtiyotkorlik yoki uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda, uni (ko'ngildagidek) nihoyasiga yetkazardim... Sipohni ikkilantiradigan (turumsiz) kengashni eshitishdan saqlanardim. Kengash ahlidan kimki kuyinib maslahat bersa, kuloq solardim, lekin kimki oqilona gaplarni erlarcha kesiklik bilan so'zlasa, uni diqqat bilan tinglardim. Har kimdan so'z olib, kengash so'rar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon taraflari haqida o'ylab ko'rgach, to'g'ri va savoblirog'ini tanlab olardim».¹⁰⁵

U mansabdor shaxslarning xususiyatlari va burchlarini ko'rsatuvchi qoidalarni ham yaratdi. Chunki u hokimiyatning mustahkamligi va faoliyatining samarali bo'lishida ma'muriyat vakillarining tutgan o'rinlari kattaligini yaxshi bilardi. U, ayniqsa,

¹⁰⁴ Temur tuzuklari, 69-bet.

¹⁰⁵ O'sha joyda, 25-27-betlar.

vazir va lashkarboshi mansablariga zo'r e'tibor berdi. Uning ko'rsatishicha, vazir aql-farosatli, sabr-toqatli, tinchliksevar va qo'shinga g'amxo'r bo'lishi kerak. Uning so'zicha: «Kamolatga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va ta'qiqlovchi buyruqlarida uning asilligi va toza naslligi ko'rinib tursin. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aysalar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u (oxiri) yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonlik qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, (oxiri) oldiga bosh egib keladi. Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliyu zoti past, hasadchi, ginakek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez orada qo'laydi... Tajribali, ishbilarmon va bilimdon vazir shunday bo'ladiki, mamlakat obodonligini, raiyat vasipohning tinch-farovonligini, xazina boyligini doim ko'zda tutadi. Davlat, saltanatga foyda keltiradigan ishlarini bajarishga tirishib, harakat qiladi. Saltanatga zarar yetkazadigan xatarli ishlarni bartaraf qilishda molu jonini ayamaydi. Sipohu raiyatgategishli muhim ishlarni yaxshilik yo'li bilan, to'g'ri tadbir ishlatib, amalga oshiradi. Yaxshi xulqli vazir shulki, uning ezgu ishlari yomon fe'li atvoridan ustunlik qiladi».¹⁰⁶

U harbiy taktika va strategiyani takomillashtirdi. Qo'shinning jangovarligini ta'minlashni bir daqiqa ham unutmadi. U o'z lashkarboshilariga va askarlariga nihoyatda g'amxo'r va mehribon bo'lib, ulardan hyech narsani ayamadi. Natijada, harbiy qurollari takomillashgan va o'z vataniga sodiq qudratli milliy qo'shin yuzaga kelgan. Shunisi diqqatga sazovorki, bu qo'shin Amir Temurning 35 yillik hukmronlik davrida biror marotaba mag'lubiyatga uchramaydi. Bu holat uning dong'ini olamga taratib, dushmanlarni larzaga soldi.

¹⁰⁶ Temur tuzuklari, 94-97-betlar.

«Amirlarim vasi pohlilarimni, — deb yozadi Amir Temur, — martaba va unvonlar, oltin-kumush bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga (o‘z yonimdan) o‘rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig‘ tutmadim. Ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnatu mashaqqatlarini o‘zimga oldim va ularni tarbiyat qildim. Amirlar, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo‘lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Turon, Eron, Rum, Mag‘rib, Shom, Misr, ikki Iroq, Mozandaron, Gilop, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jete Dashti, Qipchoq Dashti, Xorazm, Xo‘tan, Qobuliston, Boxtarzamin va Hindistonga podshoh bo‘lib, hukm surdim».¹⁰⁷

Shunday qilib, Amir Temur dunyoni lol qoldirgan qudratli saltanatni tashkil etgan edi.

Ikkinchidan, Amir Temur barpo etgan mustaqil va markazlashgan davlat o‘lkada hunarmandchilikni, dehqonchilikni, ichki va tashqi savdoning rivojlanishini ta‘minladi. Bu tub aholining moddiy va madaniy turmushiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Amir Temurning eng katta xizmatlaridan biri shuki, soliq tizimini tartibga solib uni fuqarolarni shilish quroliga aylanishiga yo‘l bermadi. Bu yo‘lda odatdagidek qilinadigan adolatsizlik, zo‘ravonlik va talonchilik singari jamoa ahlini qashshoqlashtiradigan usullar taqiqlandi, «Amr etdimki, — deydi Sohibqiron, - raiyatdan mol-xiroj yig‘ishda ularni og‘ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo‘yishdan saqlanish kerak... Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihat olinmasin. Hosil yetilishiga qarab, soliqni uchga bo‘lib olsinlar. Agar raiyat soliq to‘plovchi yubormasdan, soliqni o‘zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to‘plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo‘lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so‘z bilan olsinlar; kaltak, arqon ishlatib, ishni urish-so‘kishgacha olib bormasinlar. Ularni bog‘lab, zanjir bilan kishanlamasinlar»¹⁰⁸.

Demak, Sohibqiron amalda soliq to‘lashlikni ixtiyoriy, deb

¹⁰⁷ O‘sha joyda, 69-bet.

¹⁰⁸ O‘sha joyda, 122-124-betlar.

hisoblagan edi. Bu adolat va xalqparvarlikning yorqin namunasidir, albatta.

U sun'iy sug'orishga va yangi yerlarni o'zlashtirishga e'tibor berdi. «Yana amr etdimki, — deydi u, — kimki biron sahrani obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hyech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili (esa oliq-soliq) qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar...

Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan va kerakli narsalar bersinlar, tok o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar».¹⁰⁹

U faqat o'z vatanida emas balki boshqa mamlakatlarda ham suniy sug'orishga e'tibor berdi. Masalan, erondagi Bayqalan shahrida Bayqalon anhorini qazitib minglab odamlarni suv va Yangi yerlar bilan ta'minladi. Bu bir yilda bitadigan ish bir oyda amalga oshirilganligi Sohibqiron saltanatining kuch-qudratini namoyish etib odamlarning hayratga solganidi. Sohibqiron xaroba holdagi Hirotda ham suniy-sug'orishni rivojlantirdi. Zero Dilkosho, Ganjraon, Darband, Ganjxona, Umar Tobon, Oq-Bo'qo, Qutluk Temur, Shayh Abu Sa'd Shayh Ali, Davlat Shoh Jondon, Gulb Og'on, Qutluq xotun, Hasan Jondor, Amir Alouddin, Sanjidak, Navruz, Kabekchi Mengli xoja, Kavsanchon va Ali Malik nomlaridagi ariqlar shular jumlasidandir.

Xullas, Sohibqiron iqtisodiy hayotini yuqori bosqichga ko'tardi.

Uchinchidan, Fan va madaniyat va obodonchilikka ishlariga ham zo'r e'tibor bergan. U fan va madaniyatning jonkuyari sifatida maqtovg'a sazovordir.

Muiniddin Natanaziyning asarida yozilishicha «Sohibqiron ilmu hikmat ahli va fan arboblari bilan g'oyatda ulfatlashgan edi. Ularni izzat-ikrom qilishda mubolag'alar ko'rsatardi. Tarix kitoblarini eshitish orqali ummatlar nasabi va sharhi hollarini, Turk, Arab va Ajam podshohlarining bo'lgan joylari va qilgan ishlarini va bu

¹⁰⁹ O'sha joyda, 124-bet.

ilmning boshqa tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi. ...Uning majlisida ilmiy masalalar bahsi juda ko'p bo'lib turardi. Nozik masalalar bahsida ustunlikka erishar, aksar hollarda u ko'rsatgan yechim asosli va to'g'ri bo'lardi. Tib va nujum ilmlarining mashhur masalalarida yetarli ma'lumotga ega edi. Axloqining go'zalligi shu darajada ediki, uning so'zlari va raftorining husnu jami fazilatlar bobining debochasi bo'ldi. Uning yurish turishim tarzi tabiiy mezon va odatga aylandi. O'zining aksar vaqtini sayyidlar, olimlar va mashoyihlar bilan suhbatlashga sarf qilardi». ¹¹⁰

Ko'rinib turibdiki, Amir Temur mamlakatni taraqqiy ettirishda ilm-fan vakillariga tayangan. Ilgarilari binolar guvala, paxsa va sinchdan qurilardi. Sohibqiron esa shahar va qishloqlarda pishiq g'ishtlardan masjidlar, madrasalar, rabotlar, honaqohlar, uy-joylar, shifoxonalar, saroylar, qozixonalar, qo'riqxonalar, ko'priklar, bozor va savdo rastalarini qurdi. Yoshlarni tarbiyalash va bilimli qilish maqsadida madrasalardagi talabalarning nafaqasini juda oshiradi. Ularning soni bir necha ming kishini tashkil qilib fanning sohalari bo'yicha mutaxassislar yetishib chiqdi. Fan arboblari bilan juda do'stlashib g'amxo'rlik va mehribonlikni ayamadi.

U o'z ona tili turkiy, ya'ni o'zbek tili mavqeini yanada oshirishda muhim o'rin egalladi. Hatto, uning o'zi turkiy tilda Amir Husaynga quyidagicha tarzda bayt yozgan:

*Yorga yetkur sabo, kim makr qilmoshdir manga
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun anga.*

Amir Temur ayniqsa, poytaxt Samarqand shahrining shon-shuhratini oshirishga zo'r e'tibor berdi. Bu yerda tarix, adabiyot, matematika, astronomiya, geometriya, me'morchilik va boshqa sohalar taraqqiyot yo'liga Samarqandda Ko'ksaroy, Bibixonim masjidi, Shoxi zinda mavzoleyi va Go'ri Amir singari hashamatli me'morchilik binolari qurildi. Uning atrofida Bog'i Chinor, Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht Bog'i Nav singari ajoyib

¹¹⁰ Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. Tuzuvchilar A.O'rinbayev va O.Buriyev. Toshkent, 1997, 59-60-betlar.

bog'lar barpo etildi. Shaharlardagi ko'chalar kengaytirildi va obodonlashtirildi, savdo rastalari va bozorlar qurildi. Shahar atrofida musulmon mamlakatlari shaharlari — Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz ia Sultoniya nomlarida qishloqlar barpo etildi.

U Samarqandda nodir diniy va ilmiy asarlarni jamlagan yirik kutubxona qurdirib, uni tobora boyitib bordi. Kutubxonada faqat sharq tillaridagina emas, balki yunon, lotin, arman va gruziya tillarida ham bitilgan asarlar to'plangan edi. Shu tariqa Samarqand Amir Temur imperiyasining yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi sifatida dong'i olamga taraldi. Shu boisdan Samarqand «Sayqali ro'yi zamin ast — butun yer yuzining husni», deb ta'riflanadi. Shahardagina emas balki uning atrof joylarida ajoyib bog'lar va go'zal binolar qurilib ko'p joylardan odamlar u yerga kelishib «Hazrat Amir Sohob qironning adolati va marhamati soyasidan panoh topishdi».

U mamlakatning boshqa joylarida ham hashamatli binolarni barpo etgan. Masalan: Shahrisabzdagi Oqsaroy, Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi va boshqa yodgorliklar shular jumlasidandir. 1392 yilda Sirdaryo bo'yidagi qadimgi Banokent o'rnida yangi shahar qurib, unga Amir Temurning o'g'li Shohruh nomi berildi.

Demak, Amir Temur mo'g'ullarning uzoq vaqtlardan buyon hukmronligi davrida inqirozga uchragan iqtisodiy va madaniy hayotga jon kirgizib, uni rivojlantirishga boshchilik qilib, ilg'or va taraqqiyparvar davlat arbobi sifatida namoyon bo'ldi.

To'rtinchidan, Sohobqiron Turkiston zaminini jahon davrasiga olib chiqib, uning shon-shuhratini taratdi. Yaqindagina mo'g'ullarning zulmi ostida bir burchakda siqilib va inqirozga uchrab yotgan mintaqa qisqa vaqt ichida olamga tanildi. Uning Eron, Hindiston, Turkiya, Arabiston, Oltin O'rda, Kavkaz va boshqa mamlakatlar bilan aloqasi yangi bosqichga ko'tarilib, keng ko'lamda rivojlandi. Ayniqsa, Amir Temurning Ovrupo davlatlari bilan aloqalar o'rnatishi katta ahamiyat kasb etdi. Chunonchi, Vizantiya, Vengriya, Genuya, Ispaniya-Kastiliya, Fransiya va Angliya bilan aloqalar yaxshi yo'lga qo'yildi. Bunday mamlakatlar bilan bevosita aloqalarni yurgizish Turkiston tarixida ilk bor bo'lgan edi.

Beshinchidan, u o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan ham tarixda

o'chmas iz qoldirgan. U 12 yoshidayoq siyosiy maydonga chiqib, mo'g'ul bosqinchilarining ayovsiz zulmi va talon-tarojining jonli guvohi bo'lgan. Unga xalq ommasining azob-uqubatlari va qashshoqlanishi katta ta'sir ko'rsatib, qandan bo'lmasin vatanni ozod qilish istagi yuzaga keldi. Bu oliy maqsadga erishish uchun mamlakatning turli joylarini kezib, ko'k azob-uqubatlarni boshdan kechirdi. Bu yo'lda uning butun umri kurashda va xavf-xatarda o'tib, bir necha bor o'lim yoqasidan qaytdi. Biroq, azob-uqubatlardan ruhsizlanmay va g'alabalardan mag'rurlanmay kurashni uzluksiz davom ettirdi.

Ma'lumki, Amir Temur taxtni odatdagidek ota merosi sifatida emas, balki oqilona siyosat va mohirona kurash orqasidan qo'lga kiritgan. Bunda uning tabiatan aql-idroki, jasorati va tadbirkor bo'lganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Uning o'zi kuchli shaxs bo'lganligi uchun raqobatdan cho'chimay, o'z atrofiga jasoratli va ochiqchasiga gaplashadigan kishilarni to'plab ish yuritdi. U ikkiyuzlamachi kishilarning gapiga quloq solmagan, qo'rqqo odamlarni o'ziga yaqinlashtirmagan. Chunki, o'z soyasidan cho'chiydigan qul tabiatli mansab egalarini davlatning eng xavfli dushmani, deb hisoblagan.

Darhaqiqat, ular o'zlarining qo'rqqoligi va ojizligi tufayli laganbardorlik va nayrangbozlik bilan ish yuritishlari hyech gap emas. Ular bordiyu hukmdor oqni qora desa, qora deb yoki qorani oq desa, oq deb o'zlarining unga go'yo sodiqligini bildirmoqchi bo'ladilar. Ular kezi kelganda, o'z hukmdoriga va hatto vataniga xiyonat qilishdan ham toymadilar. Shu boisdan Amir Temur qul tabiatli kishilarni yoqtirmay, o'z qadru qimmatini, vijdonini, onomusini va g'ururini saqlay oladigan amaldorlarni davlatning ustuni, deb hisoblagan. U bu xildagi kishilarni ko'z qorachig'iday saqlagan va ardoqlagan.

Amir Temur juda hushyor va sezgir bo'lib, irodasiga tayangan holda harakat qilgan. Hatto, u ashaddiy dushmanlari bilan umumiy til topish yo'llarini izlab, ularni o'z tarafiga og'dirgai vaqtlari bo'lgan.

U katta harbiy mahoratga ega bo'lib, qo'shinni ruhlantiradigan, jangovarligini oshiradigan va g'alabani ta'minlashni biladigan

sarkarda edi. U: «Boshimga po‘lat dubulg‘a, egnimga dovudiy sovut kiydim, belimga Misr qilichini bog‘lab, bahodirligu kurash taxtiga o‘tirdim», degan edi.

U shaxmat o‘ynashni yaxshi ko‘rgan. U ko‘p davlat rahbarlariga o‘xshab hokimiyatni qo‘lga kiritgandan keyin o‘z huzur-halovatini o‘ylamay davlatni mustahkamlash uchun tinimsiz harakat qildi. Bu haqda uning o‘zi shunday yozgan: «Saltanat to‘nini kiygach, tinchligu sog‘ligim ketdi, o‘z to‘shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. O‘n ikki yoshligimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo‘llab (g‘anim) qo‘shinlarni sindirdim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko‘rdim, ulardan achchiq so‘zlar eshitdim. Lekin sabru bardosh bilan o‘zimni eshitmaganga, ko‘rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko‘tarib, jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim... Adolat va insof bilan tangrining yaratgan bandalarini o‘zimdan rozi qildim».

Shu tariqa, Amir Temur vatan manfaatlari uchun katta kuch-g‘ayrat va matonat bilan tinimsiz kurashdi.

Amir Temur davlati zamon taqozosiga ko‘ra 130 yil yashadi. Lekin u butunlay yemirilib ketmadi, buyuk Bobur bu davlatni Hindistonda tikladi.

Ma‘lumki, bu mamlakatni ilgari ham Amir Temur egallagan edi. Bu yerda Temuriylar davlati 332 yil (1526—1858) hukm surdi. Hammasi jamlanganda Temuriylar davlati O‘rta Osiyo va Hindistonda salkam 500 yil yashadi. Bu uzoq davr ichida har ikki imperiyada Amir Temur asos solgan siyosat davom ettirilib, fan va madaniyat yuksak darajaga ko‘tarildi. Bu ajoyib yutuqlar jahon madaniyati xazinasining bebaho durdonalaridan biri hisoblanmoqda.

Oltinchidan, Sohibqiron tomonidan oldin O‘rdaga qaqshatg‘ich zarba berilishi uning kuch-qudrati va mavqeyini tiklab bo‘lmaydigan darajada parchalanishiga olib keldi. Ayniqsa uning yirik shaharlarini vayronaga aylantirilishi nihoyatda fojiali kechdi. Amir Temurning bunday qilmasligini hyech iloji yo‘g‘idi. Chunki Oltin O‘rda Turkiston zaminida va boshqa joylarda mo‘g‘ullarning hukmronligini saqlashni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edi. Bu Sohibqironning siyosatiga tamomila qarshi harakat hisoblanganidi.

Oltin O'rdaning tor-mor etilishi uni qaramidagi rus knazliklariga juda qo'l keldi. Zero, vaqt kelib knazliklar mustaqillikni tiklash va rivojlanish imkoniga ega bo'ldi. Oltin O'rdaga tegishli yerlardagi turli-tuman nodir boyliklar Rossiyaning qudratli va salohiyatli davlatga aylanishida asosiy o'rinni egalladi.

Agar Rossiya Oltin O'rdaning yerlaridagi oltin, temir, miss, ko'mir, kumush bepoyon o'rmonlar, bahaybat dengiz va daryolar, xalqaro karvon yo'llari va boshqa turli-tuman tabiiy boyliklarga ega bo'lmaganida hozirda u Vengriya, Ruminiya va Bolg'ariya singari kichik davlat bo'lib turishi turgan gap edi.

Shunday qilib Amir Temur o'zi mutloqo uylamagan holda Rossiyaga juda katta foyda keltirganidi.

Qur'oni karim asl nusxasining keltirilishi

Ma'lumki, Muhammad Mustafo sallallohu alayhi vasallam hayotliklari chog'ida savodli kishilar ozchilikni tashkil etgani tufayli oyatlar yodlangan. Payg'ambar atrofidagi ayrim savodli kishilargina oyatlarni yozib borganlar. Xalifa Abu Bakr Siddiq (632-634) davrida payg'ambar hadislarini to'plashga kirishilgan.

Xalifa Usmon (644-656) hukmdorlik qilgan yillarda mavjud barcha oyatlar to'plamlari taqqoslanib va jamlanib 6 nusxada yagona bir Qur'on bitilgan.

XX asr boshlaridagi ma'lumotlarga ko'ra, o'tmish zamonlarda ularning uchasi Makka va Madinada, ikkitasi Misrda, bittasi Turkiyada saqlangan.

Qur'oni karimning Turkiyadan olib kelinganligi haqida har xil fikrlar mavjud. Bu haqda 1870 yilda «Golos» gazetasida shunday yozilgan: «Salkam 400 yil ilgari naqshbandiya tariqatining piri Xo'ja Ahroming muridlaridan biri hajdan qaytayotib Rumda, ya'ni Konstantinopolda (Istanbulda) to'xtaydi. Bu vaqtda Turkiya sultoni juda og'ir dardga chalingan ekan. Xo'ja Ahrorning muridi uni darddan forig' etadi. Sulton, agar shifo tortsam, tabib nima talab qilsa, shuni so'zsiz bajaraman, deb ont ichgan ekan. Murid uni

davolab, Qur'oni karimning asl nusxasini berishni so'rabdi. Noiloj qolgan sulton vaziri va boshqa a'yonlari bilan maslahatlashib, Qur'onni muridga berishga majbur bo'libdi. Murid uni darhol Xo'ja Ahrorga yuboribdi».

Qur'oni karim shu tariqa Samarqanddagi Xo'ja Ahror masjididan joy olgan ekan. Ammo bu ma'lumot afsonaga o'xshaydi. Bundan tashqari, uning begona mamlakatga yuborilishi Turkiya aholisining nafratini uyg'otib, sultonning obro'yi va mavqeyiga ziyon keltirishi turgan gap edi. Sulton buni inobatga olmasligining iloji yo'q edi.

Men o'z maqolamda («Sharq yulduzi», 1991, 1-son) Amir Temur Turkiya sultoni Boyazidni yenggandan keyin uning saroyidan Qur'oni karimni Samarqandga olib kelganligini uqtirib o'tgan edim. Endilikda bu fikrimdan qaytishimga to'g'ri keladi. Chunki yaqinda qo'limga tushgan bir ma'lumot shuni taqozo etadi.

XIII asrda Volga bo'ylarida tashkil topgan va rivojlangan qudratli Oltin O'rda davlatining mo'g'ul hukmdorlari birin-ketin islom dinini qabul qilganlar. Ular vaqt o'tishi bilan turklashib, islom dinini rivojlantirib bordilar. Ulardan birinchi bo'lib Berka (1257-1266) islom dinini qabul qilgan edi. Hatto u Buxoroda bo'lib, taniqli din peshvolari bilan suhbatlashgan. Berkaxon hukmdorlik qilgan vaqtdan boshlab, islom dinining rivojlanishi ayrim xorijiy mamlakatlarning diqqatini jalb etdi. Xususan, Oltin O'rda davlati tashkil topgan mintaqadan Misrga borib hokimiyatni qo'lga olgan qipchoqlar (mamluklar) o'z onayurtlarida islom dinining kamol topishini zo'r qiziqish va mamnuniyat bilan qarshi oldilar. Natijada Berkaxon bilan Misr podshohi Baybars o'rtasida elchilik va do'stlik aloqalari shakllandi. Mazmunan, mamluklar o'zlarining vatanlarini qumsab, uniig ravnaqi uchun imkoni boricha yordam berish maqsadida Oltin O'rda bilan yaqinlashish siyosatini yurgizgan. Bu haqda Baybarsning elchi orqali Berkaxonga yuborgan sovg'alari ham dalolat beradi. Bular quyidagilardan tashkil topgan edi: **«Xalifa Usmon ko'rsatmasiga ko'ra jamlangan muqaddas Qur'on;** rang-barang yostiqlar; masjid gilamlari; Vsnetiya matolari va Livan liboslari; teridan ilgichli qilib ishlangan va xom teridan qilingan gilamlar; naqshli kaljur qilichlar; oltin suvi berilgai gurzilar; frank dubulg'alari va oltin suvi berilgan sovutlar, yopiq fonuslar; katta

shamdonlar; ...moychiroq; Xorazm egarlari; joynamozlar; yuganchalar - bularning hammasiga oltin va kumushdan naqsh chekilgan; halqali yoylar; tosh yoylar; neft solib otadigan yoylar; qamish va yog'och nayzalar; qutilarga solingan yoy o'qlari; qozonlar; oltin va kumush zanjirli is chiroqlar; qoratanli malaylar va oqsoch oshpazlar; chavandoz arab otlari va Nubiya tuyalari; tezyurar uy hayvonlari; maymunlar; to'tiqushlar va boshqa har turli buyumlar bor edi. Shuningdek, jirafa, Misr eshaklari, Xitoy qo'ralari, Iskandariya kiyimlari ham sovg'aga qo'shib yuborilgan».¹¹¹

Misr podshohi qanday bo'lmasin, Berkaxonni o'ziga jalb etish uchun nihoyatda qimmatli va nodir narsalarni yuborgan. Hatto Qur'oni karimning asl nusxasini ham ayamagan. Qur'oni karimning Misrdan yuborilganligini Qohiradagi al-Azhar musulmon universitetining professori Amin al-Hali o'zining Nil va Volga o'rtasidagi aloqalar tarixi kitobida (M., 1962, 20-bet) tasdiqlaydi. Uning ko'rsatishicha Qur'oni karim qizil atlas bilan urolib qora yog'och va fil suyagidan ishlangan hamda kumush bilan bezatilgan qutiga solingan ekan. Mana, o'sha vaqtdan buyon ko'p asrlar o'tdi, lekin uning qayerdaligi haqida hych gap yo'q. Shubhasiz, Amir Temur To'xtamishni mag'lubiyatga uchratib, poytaxtni egallagandan keyin, o'sha Qur'onni qo'lga kiritib, Samarqandga olib kelgan. Bunga dalolat shundan iboratki, Sohibqiron Qur'oni karimni Misrdan ham, Turkiyadan ham olmagan. Shu boisdan ham Qur'onlarning to'rtta asl nusxalari bu yerlarda hamon saqlanmoqda.

Hozirda uning 6 nusxasidan 5 tasi mavjud, bittasi esa Madinada masjidga o't tushganda kuygan ekan. Qur'onni soniga qarab hisoblaganda ham Amir Temur uni Oltin O'rdadan olgani ma'lum bo'ladi. Zero, uning ikkitasi Madina va Makkada, ikkitasi Misr va Turkiyadadir. Beshinchisi bizning yurtimizda saqlanmoqda. Bu yerdagisi, ya'ni Istanbuldagisini 1912 yilda hajga borgan o'zbeklar Aya-So'fiya masjidda ko'rib, uning hozirda Tashkentda saqlanayotgan Qur'oni karimga juda o'xshashligini bayon etganlar. Bu ma'lumot ham Qur'oni karimning Turkiyadan keltirilganligi

¹¹¹ B.D.Grekov, A.YU.Yakubovskiy. Oltin O'rda va uning qulashi. Toshkent, 1956, 68-69-betlar.

haqidagi fikrni noto'g'riligini ko'rsatadi. Demak, bu ma'lumotlar Qur'oni karim Oltin O'rdadan olingani haqida dalolat beradi. XX asr boshlaridagi tekshiruvga ko'ra, kiyik terisiga yozilgan Qur'oni karimning umumiy hajmi 68x53 hisoblanib, 353 varaqni o'z ichiga olgan. Bu varaqlarning yaltiroq va sarg'ish rangdagi yuz tomoni yaxshi saqlanib, ularning orqa beti birmuncha g'ijimlanganroq, siyqalangan ko'rinishda bo'lgan.

Qur'oni karimning sahifalari nam tortishi orqasida birmuncha shikastlangan va ularda qon dog'lari bor edi. Uning yirtib olingani yoki qattiq shikastlangan varaqlari o'rniga 69 ta teriga o'xshash qalin va mayin varaqlar tikib qo'yilgan. Bu varaqlar paxtadan tayyorlangan qog'ozlardan tashkil topgan. Ular shu darajada mohirlik bilan ishlanganki, Qur'onning asl nusxalaridan farq qilish qiyin bo'lgan.

«Turkestanskiye vedomosti» gazetasida (1870 yil) berilgan ma'lumotlarda quyidagilarni o'qiymiz: «Samarqand musulmonlari Usmon Qur'onini «Kalomi sharif» deyishadi. Bu hamma Qur'on uchun umumiy nomdir. Biroq Samarqanddagi musulmonlardan birortasi Qur'ondan kufiy xati bilan yozilgan bir satrni ham o'qiy olmadilar».

Rossiya Samarqandni bosib olgandan keyin, ya'ni 1869 yilda Zarafshon okrugi boshlig'i general-mayor Abramov Xo'ja Ahror masjidida Qur'onning noyob nusxasi saqlanayotganini eshitib, polkovnik Serovga katta ilmiy ahamiyatga molik Qur'onning qo'ldan chiqib ketmasligi chorasini ko'rishni buyurdi. Ma'lum bo'lishicha, mazkur noyob nusxa urush vaqtida berkitilib, so'ngra yana Xo'ja Ahror masjidiga qo'yilgan ekan. Rus harbiy ma'muriyatining unga bo'lgan qiziqishidan xabar topgan bir guruh ruhoniylar Qur'onni Buxoroga olib ketishni mo'ljallaydilar. Biroq, bu Qur'on general Abramov tomonidan Xo'ja Ahror masjidi imomidan 125 so'mga sotib olinadi. Shundan so'ng Qur'oni karim Samarqanddan Toshkentga keltiriladi. Bir gal general-gubernator Kaufman uni Buxorodan kelgan Yahyo ismli elchiga ko'rsatganda, shunday degan: «Qur'onning bu asl nusxasi xalifa Usmonning o'z qo'li bilan yozilgan va uning qoni bilan dog'langan. Bu Qur'on asl nusxa hisoblanib, keyingi davrlarda undan olingan nusxalar butun

musulmon olamiga tarqatilgan. U Amir Temur kutubxonasida xanasida saqlangan qadimiy asardir. U Sohibqiron tomonidan olib kelingan va kutubxonaning eng qimmatbaho ziynati hisoblangan». ¹¹² O'rta Osiyo tarixi bo'yicha zabardast olim Vamberi ham Qur'onning asl nusxasini Amir Temur tomonidan keltirilganligini ko'rsatgan. Demak, bu ma'lumot ham Qur'onning Amir Temur tomonidan olib kelinganligini tasdiqlaydi. Sharqshunos olim A.Kun ham bu fikrni to'g'ri deb hisoblaydi.

1869 yildayoq Qur'oni karim Toshkentdan Peterburgga olib ketilib, shaxsan imperatorga ko'rsatilgan. Bu haqda menga ko'p yillar ilgari Sankt-Peterburgda rus olimi shunday deganidi: Hamid! Men arxivlarda ishlayotganimda imperator Saroy ahlining huzurida: Ko'ringlar! Bu Qur'oni karimning eng qadimiy asl nusxasidir, buni qo'lga kiritilishi islom dinning ustidan ham g'alaba qilinganligini anglatadi, degan ekan. Bu so'zlar olqishlar bilan qarshi olingan ekan. Qur'oni karim saroydan olinib, avval xalq maorifi vazirligiga, so'ngra hozirgi Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shchedrin nomidagi kutubxonaga beriladi. 1873 yilda Qashqardan Peterburgga elchi sifatida kelgan Targ'axo'ja uni ko'rib, bunday degan: «Men bu Qur'onni Samarqandda ko'rganman. U xalifa Usmon tomonidan bitilgan asl nusxadir. U nihoyatda qimmatlidir. Uning sahifasidagi dog'lar Usmonning qonidir».

Bu dog'lar xalifa Usmon vahshiyona ravishda o'ldirilayotganda qo'lida ushlab turgan Qur'onga to'kilgan qondan yuzaga kelgan.

Guvohlarning ko'rsatishicha, Qashqar elchisi katta mamnuniyat va e'tiqod bilan Qur'oni karimni ko'ziga va labiga surtgan («Moskovskiyе vedomosti», 1873, 195-son). 1910 yilda «Turkiston kuryeri» gazetasida bosilgan xabarga ko'ra, Peterburgdagi musulmonlar «Mashhur Usmon Qur'onining shu yerda qurilayotgan masjid ixtiyoriga berilishini hukumatdan iltimos qilishgan. Biroq bu iltimos inobatga olinmagan». Sovet davlatining dastlabki yillarida Qur'oni karim Toshkentga olib kelindi. Shuni aytish lozimki, Turkiston zamini faqat Qur'onning asl nusxasi bilan emas, balki boshqa noyob nusxalari bilan ham faxrlanishga haqlidir. Chunonchi, XX asr boshlarida Turkiston shahridagi Ahmad Yassaviy maqba-

¹¹² «Turkestanskiy sbornik», 1870, T., 41, S. 169.

rasida juda qadimiy Qur'on nuxsasi saqlangani haqida ma'lumotlar mavjud.

Manbalarning birida saqlanayotgan joyi noma'lum Qur'on nuxsasi XVIII bobiga tegishli qismining rasmi keltirilgan. Yozuv uslubiga qaraganda u juda qadimiy nuxsaga o'xshaydi. Ushbu Qur'on nuxsasi hazrat Alining o'g'li Husayn tomonidan ko'chirilgani haqida fikr tarqalgan.

Asrimiz boshlarida Samarqanddagi Shohizindada kattaligi va hashamati jihatidan tengi yo'q Qur'oni karim nuxsasi ko'z qorachig'iday saqlangan. Har bir varag'ining o'lchovi bo'yiga 2 gaz va 4 qarich, eniga 1 gaz va 6 qarich bo'lgan. Shunga yarasha harflarning katta bo'lgani ham tabiiy. U 1827 yili Buxoro amiri Nasrullo topshiriga binoan Husayn degan kishi tomonidan tayyorlangan ekan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u qandaydir qadimiy Qur'on nuxsasi ko'chirilgan.

Katta o'lchovdagi Qur'on nuxsasiga mo'ljallangan kursi Ulug'bek davridan to asrimiz boshlarigacha Bibixonim masjidi hovlisida turgan. Kursi oq marmardan ishlanib, balandligi 2 gaz va 6 qarich, eni 2 gaz va o'n uch qarich, uzunligi 3 gaz va 3 qarichga teng bo'lgan. Uning uch qatordan iborat to'qqiz oyog'i bor edi. Suyanchig'i qanoti va balandligi bir gazdan oshgan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, mazkur marmar kursi Amir Temur zamonida tayyorlanib, unga Qur'onning asl nuxsasi qo'yilgan. Hatto uni Bibixonim o'z masjidi derazasidan qarab o'qir ekan.

Hunarmandchilik va san'atning asl va ajoyib namunasi bo'lmish mazkur kursi xalqimizning Qur'on kitobiga bo'lgan yuksak e'tiqodining isbotidir, albatta.

Qur'oni karimda marjon tizmalari kabi terilgai suralar shu darajada hayotiyki, ular millati, diniy e'tiqodidan qatyi nazar, kishilarda mehnatsevarlik va halollik, saxiylik va kamtarinlik, muruvvatlilik, birodarlik, vatanga sodiqlik kabi oliy fazilatlar shakllanishiga zamin hozirlaydi. Unda hayot hamda odob-axloqning barcha tarmoqlariga oid cyatlar mavjud. Taniqli sharqshunos olim V.V.Bartold: "Islom dini jahon miqyosida asrlar davomida o'zining hayotiyligini isbotladi va nasroniy diniga nisbatan o'zida tenglik va birodarlikni ko'proq aks ettirdi. Islomni hyech qanday din jahon

doirasidan siqib chiqara olmaydi», deb ta'kidlaydi. Qur'oni karim qadimdan nasroniy dinidagi xalqlar diqqatini o'ziga jalb etib kelgan. Chunki u 1422 va 1698 yili lotin tiliga, 1770–1828 yillar orasida sakkiz marotaba fransuz tiliga, 1946 yili nemis tiliga, rus tiliga esa 1716 yil, 1790, 1864, 1907 va 1963 yillarda tarjima qilingan. Shunisi diqqatga sazovorki, Qur'oni karim buyuk rus shoiri A.S.Pushkin e'tiborini ham o'ziga tortadi. Shoir «Qur'ondan iqtibos» degan she'riy asar yaratgan. Bunda u sura va oyatlarni mutolaa qilib, uning mazmunini she'riy yo'lda ifoda etishni o'ziga asosiy maqsad qilib qo'ygan. Buyuk nemis adibi Volfgang Fon Gyote esa «insoniyat har jihatdan Hazrati Muhammad oldida qarzdor», deb targ'ibot qilgan edi. U Qur'oni karimga tan bergan va «Hazrati Muhammad tarannumi» asarini yozgan. Ko'rinib turibdiki, Qur'on asrlar mobaynida turli tillarga o'girilgan va ko'p mamlakatlarda qiziqish uyg'otgan.

So'nggi so'z o'rnida shuni uqtirib o'tish lozimki, Qur'oni karimning asl nusxasining sohibi bo'lish va uni o'z ko'zi bilan ko'rib hayot kechirish katta baxt va saodatdir. U bizning diyorimizda saqlanishi Xudoi taoloning xohish–irodasi va marhamatidir. Buyuk bobomiz Amir Temur uni yurtimizga keltirib, o'zbek xalqining shon-shuhratini olamga taratishga va uning ma'naviy hayotini bezashga ulkan hissasini qo'shdi. Bu borada u o'z vatani va xalqiga beqiyos katta xizmat qilgan edi.¹¹³

Amir Temurning so'nggi yillari va vafoti

Amir Temur yetti yillik harbiy yurishdan so'ng 1404 yil iyulda ona yurtiga qaytib, Samarqanddagi Bog'i Chinorga o'rnashdi. Bu yerda u bir hafta mobaynida dardga chalinib yetdi. Shu orada Muhammad Sulton madrasasini borib ko'rdi. Sog'aygandan keyin Bog'i Shamol, so'ng Bog'i Balandda istiqomat qildi. Sohibqiron

¹¹³ Qur'oni karim to 1917 yilgacha Peterburgda ko'z qorachig'idek saqlandi. Bu yerda o'tkazilgan o'lka musulmonlar qurultoi Qur'oni karimning musulmonlarga qaytarilishini so'rab Leninga murojaat qilganlaridan «tezda berilsin» deb imzo chekdi. Bu haqda xalq maorifi vaziri A.Lunacharskiyga ko'rsatma berildi.

Shundan keyin u soqchilar nazoratidagi maxsus vagonda Ufaga, so'ng 1924 yil avgust oyida Toshkentga keltirildi.

o'sha madrasaga qayta borib, uning yonida oliy gumbaz solish haqida ko'rsatma berdi. Shunga binoan hashamatli gumbaz, sardoba va katta bog' qurilgan. Shundan keyin u o'zi qurdirgan masjid va Bibixonim madrasasini ko'rib, tegishli maslahatlar bergan. U Bog'i Chinorda Oltin O'rda elchisi bilan suhbatlashgan. Bu yerdan Bog'i Dilkushoga o'tib, u yerda Ispaniya elchisi Klavixoni qabul qilgan. Bog'i Shamolning janubida to'rt tomonining uzunligi yetti yuz ellik metr kenglikda katta bog' va uning o'rtasida qasr qurish to'g'risida buyruq bergan. Bu bog' qisqa vaqtda bitkazilgan. Ko'rinib turibdiki, Sohibqiron ona shahriga qaytishi bilanoq bunyodkorlik ishlarini davom ettirgan. Ayni paytda o'zi Samarqandda yo'qligida davlat ishlari qanday olib borilganligini sinchkovlik bilan tekshirib, yo'l qo'yilgan adolatsizlik va tartibsizliklar uchun ma'muriyat vakillarini jazolagan. «Temur, — deb yozadi Ibn Arabshoh, - o'zi g'oyibligida mamlakati va raiyasi ishlarida nelar yuz berganini surishtirib, yeru mulklari masalalarini diqqat bilan o'rgana boshladi va hokimlariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi; atrof va chegaralar, tevarak-chetlar foydasi tadbirini ko'rib, kattayu kichikning g'amini yeb, boyu faqirning manfaati bilan mashg'ul bo'ldi. O'z mulohazasi taqozosiga ko'ra barcha ashyolarni o'z o'rniga qo'yib, jami mansabu martabalar jilovini o'shanga sazovor kishilar qo'liga tutqaza boshladi»¹¹⁴.

Binobarin, Sohibqiron tekshirish jarayonida ko'p noma'qul ishlari ko'rganki, mansabdorlarni almashtirish va ayrim o'ta nufuzli kishilarni qattiq jazolashgacha borgan. Masalan, Samarqand shahar boshliqlari Xoja Muhammad Dovud va Muhammad Jald dorga osildilar. O'g'irlik, buzuqchilik va boshqa qabih ishlar bilan shug'ullanuvchilar ham ildizi bilan quritildi. Tuhmat bilan zindonga tashlangan sobiq shahar hokimi Xoja Sharofiddin Ali ozod qilinib, Xoja Faxriddin Ahmad bilan birgalikda shahar devoniga tayinlandilar.

Sohibqiron saltanat boshqaruvini yaxshilash va joylarda ma'muriyatga ko'rsatmalar berish maqsadida qurultoy chaqirdi. Unda barcha viloyatlar hokimlari, lashkarboshilar, din peshvolari va nufuzli kishilar qatnashdilar. U o'zi yo'qligida mansabdorlarning aybi bilan jamoa ahli ranjitilganligini hisobga olib, kayfiyatini ko'tarish maqsadida xalq bayramini o'tkazish va shu bilan birga

¹¹⁴ Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1-kitob, 304-bet.

nabiralarini uylantirish haqida ko'rsatma beradi. Bu xususta Ibn Arabshoh shunday yozadi: «Temur Samarqand ahliga zebi ziynatta o'ralishni, ular ustidan jabru sitamlarni ko'tarib, soliq va to'lovlardan ozod qilishni, ularga omonlik bisotini yozishni, aholidan kattayu kichik, yuqori-quyi (tabaqali) kishilarga fazlu ehson bilan muomala qilishni, o'z yerlarida qilich yalang'ochlamaslik, zulm va nohaqlik qilmasliklarini hamda ularga (Samarqand ahliga) o'z zebu ziynatlari bilan Samarqand etagida, bir milda joylashgan Konigil deb ataladigan joyga chiqishlarini amr qildi. U joyning havosi mushkdan ham sof, suvi qanddan ham shirin bo'lib, go'yo bu (joylar) jannat bo'stonidan (bo'lib olingan) bir qitya»¹¹⁵. Ushbu satrlarda Sohobqironning o'z vataniga va xalqiga sodiqligini, adolat, tinchlik va farovon hayot uchun kurashganligini aks ettiruvchi dalillar o'z ifodasini topgan. Hatto u jamoa ahlini soliq va to'lovlardan ozod etishgacha borgan. Bunday olijanoblik tarixda kamdan-kam uchraydigan hodisadir. Bu o'sha davrdagi mo'l-ko'lichilik va to'kinchilikning mahsuli edi, albatta.

Sohobqiron xalq bayrami va to'yni uyushtirishga shaxsan o'zi boshchilik qildi. Konigilda minglab kishilar sig'adigan chodir va o'tovlar tikilib, oltin, kumush, nodir javohirlar bilan bezatildi. Oltindan yasalgan idish-tovoqlar qo'yilib, turli ovqatlar pishirildi. Bayram va to'yda Sohobqironning farzandlari, xotinlari, kelinlari, qarindoshlari, viloyatlar hokimlari, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va harbiy qismlar o'zlariga belgilangan joylarga o'rnashdilar. Eron, Turkiya, Arab mamlakatlari, Oltin O'rda, Xitoy, Misr va boshqa qator mamlakatlardan elchilar tashrif buyurdi. Ularning orasida Klavixox ham bor edi. «Temur, podshohlar va amirlar, ufqlar sultonlari va ulug'larini, tuman oqsoqollari, askarlar azimlari va qo'mondonlarini taklif etib, ...ularga g'oyat qimmatbaho xil'atlar kiygizib, xilma-xil in'om-ehson va armug'onlar ado etib, ularning har birini o'z yonidan o'ng (tomon)iga o'tqazardi. Ammo chap tomoni esa ayollar va xonimlar uchun (maxsus) edi. Darvoqe, ayollar erkaklardan bekinmasdilar»¹¹⁶.

Bayram mobaynida Sohobqironning nabiralari Ulug'bek, Ibrohim

¹¹⁵ O'sha joyda, 304—305-betlar.

¹¹⁶ O'sha joyda, 312-bet.

Sulton, Iyjal, Ahmad va Boyqarolar uylantirildi. To'yda o'zbek, arab, xitoy, mo'g'ul va boshqa xalqlar raqslari, ashula va kuylari yangradi. Uning ko'rsatmasiga ko'ra, bayram va to'y kunlari xalqning amaliy va badiiy san'atining yuksak namunalari namoyish qilindi: «Shahar ahli zebu ziynatlarini yuzaga chiqarib, Temurning ro'parasiga, ko'zga tashlanadigan joyga qo'ydilar. Shahar ahlidan har biri o'z holi-qudrati yetguncha ko'rkam bo'lishga urindi. Har bir hunarmand o'z hunariga bog'liq narsada jiddu jahd ko'rsatdi, har bir san'at ahli o'z san'ataga mansub narsada imkonidan ham oshirib hunarini ko'rsatdiki, hatto bir qamish to'quvchi (qamishdan) mukammal qurol-yarog'li bir otliqni yasab chiqardi va uning suratini kamoliga yetkazib, hatto tirnoqlariyu kipriklarini ham yasadi. Unga (otliqqa) zarur bo'lgan qurol-yarog'lardan yoy, qilich va boshqa taalluqli narsalarning hammasini kamoliga yetkazib yasadi. Ushbu (anjom)larning barchasi qamishdan bo'lib, ularni hyech bir mashaqqat va qiynoqsiz (hammasini) o'z o'rniga tikladi. Paxta tituvchilar paxtadan tikligi yarashgan, baland, pishiq ishlangan, go'zal suratli nafis va chiroyli bir mezana yasadilarki, u o'z jismining oqligida jannat huridan ko'ra ham yuqori va bo'yining barkamolligi (baland) qasrlardan ko'ra ham baland edi... U o'z husni bilan odamlar nazarini o'ziga lol qilar va qomatining oliyligi bilan bu bepoyon maskanda o'tkinchilarga yo'l ko'rsatib turardiki, hatto u sayyoraga bir belgi va o'sha binolar jome'lari ustidagi bir minora bo'lib qoldi. Shuningdek, zargarlar, temirchilar, etikdo'zlar, yoy yasovchilar va boshqa toifalar hunarmandlari, musiqa, hazil-mutoyiba va latifalar sohiblari ham o'z hunaru san'atlarini namoyon qildilar».¹¹⁷

Mazkur ma'lumotlarning ahamiyati shu darajada kattaki, ular ko'p masalalarni hal etish imkonini beradi. Avvalambor, ular Sohibqironning xalq hunarmandchiligiga katta ahamiyat berganini ko'rsatadi. Natijada hunarmandchilikning barcha turlari yuqori cho'qqiga ko'tarilib, samaradorligi va oliy sifati bilan ajralib turgan. Masalaning muhim tomoni yana shundaki, hozirgi zamon tili bilan aytganda, ishlab chiqarish mahsulotlarining ko'rgazmasi jahonda ilk bor Amir Temur tomonidan kashf qilingan deyilsa, aslo xato bo'lmaydi. Bayram va to'y kunlari rassomchilik san'atining

¹¹⁷ O'sha joyda, 308—309-betlar.

ulkan yutuqlari ham xaloyiq diqqatiga havola qilingan. Bu ajoyib hodisa guvohining yozishicha, chodir va o'tovlar «xilma-xil naqshlar bilan naqshlangan bo'lib, nabotot, imoratlar va arshlar, turli-tuman hasharotlar, qushlar, vahshiy hayvonlar, keksa va yosh kishilar, ayollar, bolalar rasmlari, kitobat naqshlari, mamlakatlar ajoyibotlari, musiqa asboblari va hayvonlar g'aroyibotlari suratlari alvon bo'yoqlar bilan bezalganki, ular bekamu ko'stlik va yetuklikda o'ta kamolga molik edi. (Ular shunday



maqorat bilan ishlanganki) go'yoki suratlari harakatga tushib, sen bilan suhbat qurayotgandek va quyi egilib turgan mevalar esa o'zini terishga seni chorlayotgandek tuyuladi».¹¹⁸

Bu yerda shuni aytish lozimki, Turkiston zaminidagi rassomchilik keyingi ming yil mobaynida Amir Temur davridagina birinchi va oxirgi marotaba yuksak darajaga ko'tarildi. Rassomchilikning keng ko'lamda rivojlanishi Sohibqiron dunyoqarashining chuqurligi va ilg'orligidan, umuman san'

atning barcha turlari qadriga yetganligidan dalolat beradi.

Ibn Arabshoh Konigildagi bayramlarni tasvirlashni davom ettirib yozadi: «Shunday qilib, osoyishtaligu xotirjamlik, farog'atu to'kinchilik, narxi-navo arzonligi, orzu-havas ushalishi, zamon mo'tadilligi, sulton adlligi, tani-badan sihatligi, vaqti chog'lik, nafrat ko'tarilishi, matlubga yetishish, mahbubga visollik hosil bo'ldi... Ushbu to'y tantanasida Temurga savlatlilik va ulug'vorlik, hashamat va dabdabalikdan (shunday) bir (ulug') narsa muyassar bo'ldiki, o'ylaymanki, bu qadarlik narsa qadim o'tgan xalifalardan

¹¹⁸ O'sha joyda. 307-308-betlar.

hyech biriga nasib bo‘lmagan va (bundan) keyin keladiganlardan ham birontasiga nasib bo‘lmaydi». ¹¹⁹

U Amir Temur davrida saltanatda o‘rnatilgan tinchlik, barqarorlik, farovon hayotni shu darajada to‘g‘ri bayon etganki, ularni izohlashga o‘rin yo‘q, deb o‘ylaymiz. Shuningdek, uning Amir Temur ulug‘ligini tan olishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Sohibqiron xalqning o‘ziga nisbatan mislsiz mehr-muhabbati, hurmat va izzati, mehnatsevarligi va mahoratini ko‘rib, ich-ichidan g‘ururlandi va faxrlandi. Xuddi shu damlarda ona yurti va xalqining baxt-saodati uchun umr bo‘yi olib borgan kurashlari behuda ketmaganligidan Sohibqironning boshi osmonga yetgan bo‘lsa ajab emas.

Sohibqiron bayram va to‘y oxirida xaloyiqqa qarata shunday degan ekan: «Tengi yo‘q Tang‘ri va rang-barang olamning egasi rub‘i maskundagi mamlakatlarning ixtiyor jilovini bizning qudrat changalimizga tutqazgan hamda jahonning quruqligi yu suvlaridagi barcha maxluqotni bizning amrimizga bo‘ysundirgan ekan, olamni yorituvchi oftob misoli, uzoq va yaqinni bir xil qilib, barcha davlatlar va millatlardan kuchli va zaif, faqir va sharif, katta va kichik hammasini o‘z marhamatimiz himoyasi va shafqatimiz soyasida bir xil ko‘rishni, har bir kishini o‘z mavqyeiga qarab bu buyuk davlat mahsulidan bahramand etishimizni shart qilib qo‘ymish. Sizlar ham har doim, agar (bergan ne‘matlarimga) shukur qilsangizlar, albatta ularni ziyoda qilurman». ¹²⁰

Sohibqironning ushbu so‘zlari insonparvarlik, millati va dinidan qat‘i nazar barcha xalqlarning teng huquqliligi va ularning davlatdan bab-barobar bahramand bo‘lishlarini aks ettiruvchi tuyg‘ular bilan sug‘orilgan. Barcha xalqlarga bunday adolatli munosabatda bo‘lish tarixda deyarli uchramaydi. Aksincha, saltanatlar tarixida ulug‘ millatchilik va kamsitish siyosati keng quloach yoyganligi ma‘lumdir.

Umrining oxirgi oylarida Amir Temur Xitoy yurishiga tayyorgarlik ko‘rgani ma‘lum. Bunga o‘sha kezlarda ushbu mamlakatda hukmronlik qilayotgan min sulolasi imperatorlarining Turkiston zaminiga da‘vogarliklari, manmanlikka berilib, Sohibqironga «o‘g‘lim» deb murojaat qilganliklari sabab bo‘lgan edi. Zero, o‘sha

¹¹⁹ O‘sha joyda, 311-bet.

¹²⁰ Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. 80-bet.

davr diplomatiyasida yoki bu hukmdorni «o'g'lim» deb atash «sen menga tobesan», deyishini anglatgan. Imperator Sohibqirondan soliq to'lab turishni talab qilish darajasigacha katta ketgan edi. Shu bois, Sohibqironning unga qarshi lashkar tortishdan boshqa iloji qolmagandi. Turkiston, Eron, Turkiya, Iroq, Ozarbayjon va saltanatning boshqa joylaridan to'plangan 200 ming kishilik qo'shin Amir Temur boshchiligidagi 1404 yil 15 yanvarda O'trorga kelib o'rtnashadi. Shu kunlarda sovuq shu darajada qattiq bo'lgandiki, «til og'iz»da uyushib qolardi. Mana shunday qahraton qishda Sohibqiron dardga chalinib, ahvoli kundan-kunga og'irlashib bordi. «Odatga ko'ra, - deydi Hofizi Abru, - arkoni davlat va hazrat (Sohibqiron)ning yaqinlari har biri (Allohga) iltijo qilib turardilar. Shu orada (Allohning) quli bo'lmish hazrat Sohibqiron avval bir barmog'ini, so'ngra ikki barmog'ini ko'tardi va ko'zi bilan imlab bu nimani anglatishini so'radi. Amirlardan ba'zilar bunga javob topmoqqa urindilar va: «Hazrat (Sohibqiron tuzalish uchun) bir yoki ikki iloj qoldi, (deb ishorat qildilar), deyishdi. Hazrat Sohibqiron: «Yo'q, men unday demoqchimasdim, «Men sizning orangizda bir kun yoki ikki kundan ortiq bo'lmasman», — dedi. Ushbu so'zlarning (haqligini isbotlash uchun) guvohlikka tabiblarni chaqirtirdi va amirlar barcha kechmishni so'zlab berdilar. Sohibqiron tabiblarga: «Rostini ayting, xushomad qilmang, chunki menga to'g'rilik yoqadi», — dedi. Tabiblar dedilar: «Allohning inoyati bilan hali ko'p yillar Yaratganning soyasi (bo'lmish podshohimiz) rub'i maskundagi mamlakatlar uzra barqaror bo'lg'ay, degan umiddamiz. Biroq tibbiyot qoidasidan kelib chiqilsa, Allohning quli bo'lmish hazrat Sohibqiron aytganlaricha erur». Bundan mulozimlardan ba'zilarining, nega bunday dedingiz, deb jahli chiqdi. (Allohning) bandasi bo'lmish hazrat Sohibqiron esa, ularga tahsinlar aytdi».¹²¹

Demak, Sohibqiron to'g'ri gapni o'lim to'shagida yotganida ham unutmadi. Bundan boshqacha bo'lishi Mumkin ham emasdi. Chunki u umrining oxirigacha jasorat, adolat, rostgo'ylik, halollik singari oliy fazilatlar bilan hayot kechirdi. Uning vasiyati ham shuning isbotidir: «Anglab turibmanki, ruh qushi qalb qafasidan parvoz qilmoqchi. Tangri taoloning dargohiga jonimni baxsh etayotibman.

¹²¹ Nizomiddin Shomiy. O'sha asar, (Ilovada) 399-400-betlar.

Sizlarni uning lutfu marhamatiga topshirdim. Obi diyda qilib o'ltirmanglar, ohu nola chekmanglar, chunki bundan foyda yo'q. Ruhimni fотиha va takbir bilan shod etinglar. Alhamdulillah, Tangri taoloning yordamida ma'murayi olamni shunday zabt etdimki, bugun tamom Eronu Turonda biron kishining boshqalarning ishiga aralashish yoki jabru bepok qo'lini bechoralarga ozor berish uchun ko'tarishga majoli yo'qdir... Tangri taoloning mulkini beqiyos saxiylik bilan qo'riqladim, zolimlarning taarruzli qo'lini mazlumlarning hayot etagidan yulib tashladim, ...zo'ravonning zaif ustidan zo'ravonlik qilishiga yo'l qo'ymadim...

Shu kundan e'tiboran farzandimiz Pirmuhammad Jahongirni o'zimizg'a valiahd va toju taxt vorisi etib tayinladikim, Samarqand taxti uning amr-farmonida bo'lg'ay, tamkinlik va istiqloл bilan mulku millat, lashkar va raiyatning muhim yumushlari bilan mashg'ul bo'lsin. Sizlar (esa) unga tobelik va bo'yinsunish marosimini o'rninga qo'yinglar, uni birgalikda qo'llab-qo'ltiqlanglar, toki olam buzilmasin... Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaifalarni qo'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik - dasturingiz, rahbaringiz o'lsin. Men kabi uzun saltanat surmak istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Orangizga nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Ba'zi nodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlari sochmakka, bundan foydalanmakka chalishajakdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz, tosh boshingizga tushmas...

Mendan so'ng xoqon - Pirmuhammad Jahongir bo'lajakdir. Onga, menga itoat etar kabi itoat etajaksiz. Qo'mondonlarim, menga hozir itoat omini izhor etingiz». ¹²²

Ushbu vasiyatni eshitgan barcha lashkarboshilar, saroy odamlari ko'z yoshlari bilan «omin» deb fотиha o'qidilar. Shundan keyin, 1405 yil 18 fevralda Sohibqiron dunyodan ko'z yumdi.

Vasiyatda Sohibqironning Vatan va xalq oldidagi buyuk xizmatlari, vorislar, mansabdorlar va lashkarboshilarga qoldirgan topshiriqlari shu darajada ishonchli va lo'nda bayon qilinganki,

¹²² Amir Temur o'gitlari nashrga tayyorlovchilar B.Ahmedov va Akrom Aminov. T., 1992, 60-61-betlar.

ularni ortiqcha izohlashning hojati yo'q. U Sohibqironning nafaqat o'zbek xalqi, balki boshqa barcha millatlar xaloskori, mehriboni va g'amxo'ri bo'lganligini ko'rsatadi. Ammo vaziyat Sohibqiron o'ylaganidek bo'lib chiqmay, to's-to'polonlar boshlanib ketdi. Hofizi Abruning so'zi bilan aytganda, Sohibqiron shunday bir shahanshoh ediki, uning yo'qligidan jahonda parokandalik boshlandi.¹²³

1405 yil 19 feral tunida Sohibqironning jasadi Saroymulxonim, To'kalxonim, Tumon Og'o, nabirasi Ulug'bek va boshqa atoqli kishilar kuzatuvida Samarqandga yuboriladigan bo'ldi. Ular Xoja Yusuf va Ali Qavchin boshchiligida yo'lga chiqdilar. Shundan keyin Sohibqiron vasiyat qilayotganda unga jonlari chiqqunga qadar sodiqligini va nima degan bo'lsa, barchasini og'ishmay amalga oshirishlarini izhor qilgan amirlar — Shoh Malik va Shayx Nuriddin kengash o'tkazib, Sohibqiron rejalashtirgan harbiy yurishni davom ettirish haqida qaror qabul qildilar. Ayni paytda ular Sohibqironning vafoti va vasiyatini saltanatning turli joylarida hukmdorlik qilayotgan o'g'illari Mironshoh va Shohruxga, nabiralari Xalil Sulton, Pirmuhammad, Umar va boshqalarga xat orqali ma'lum qildilar. Shoh Malik va Shayx Nuriddin harbiy yurishni davom ettirishga harakat qildilar, lekin Sohibqironning o'sha o'g'illari va nabiralardan hyech qanday madad ololmadilar. Aksincha, ularning har biri Sohibqironning Pirmuhammadni hukmdor etib tayinlaganligi haqidagi vasiyatini tan olmay, taxtni egallashga harakat qildi. Toshkentda istiqomat qilayotgan Xalil Sulton vasiyatga xiyonat qilish yo'lga o'tdi. Bu Shoh Malik va Shayx Nuriddinni tashvishga soldi va qo'shini bilan Samarqandga jo'nashlariga sabab bo'ldi. Ular Sohibqiron jasadini olib kelayotganlar bilan Sirdaryodan o'tganlarida uchrashdilar. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bu yerda «eru xotun yig'lamoq bila faryodu zori ko'tardilar va andoq fig'onu sho'ri olamda gushtikim, sadosi gunbazi aflokdin o'tti. Beklar va qavchinlar dastorlarini boshlaridan tashlab, o'zlarini tufroqqa soldilar. Va og'alar sochlarini uzub, yuzlarini yirttilar va kulu tufroq boshlarig'a sochib, faryod etar erdilar».¹²⁴

¹²³ Nizomiddin Shomi. Zafarnoma, Ilovada 402-bet.

¹²⁴ Sharafuddin Ali Yazdiy, O'sha joyda, 298-bet.

Shu tariqa jamoa ahlini judolik va qayg‘u-alam qoplab, aks sadosi osmonu falakni qamrab olgan edi. Yuraklarni o‘rtovchi bunday motam hukm surayotgan paytda Sohobqiron ayrim vorislarining fikri-zikri qanday bo‘lmasin taxtni egallashdan iborat bo‘ldi. Chunonchi, Xalil Sulton qimmatbaho sovg‘alar tarqatish orqali atrofiga tarafdorlarni to‘plashga erishdi va kuch to‘plab, Toshkentdan Samarqandga otlandi. Bir guruh amirlar, Sohobqiron vasiyatini pisand qilmay, Xalil Sultonni quvvatladilar. Ularning orasida Sohobqironning yana bir nabirasi ham bor edi. Shu tariqa «amirzoda Ahmad Umarshayx va amir Xudaydodi Husayniy va amir Abbas va Yodgorshoh Arlot va amir Shamsuddin Abbas va Burundubek va o‘zga beklarkim anda erdilar, barcha ittifoq qilib og‘olar bila va Shayx Nuriddinbek bila va Shoh Malikbek bila kengash qilmay, amirzoda Xalil Sultonni podshoh ko‘tardilar».¹²⁵

Bu yerda shuni aytish lozimki, Xalil Sulton va uning tarafdorlari Sohobqiron vasiyatiga sodiqliklarini va Pirmuhammadning valiahdligini til uchida tan olgan holda harakat qildilar. Bularning hammasi ko‘zbo‘yamachilikdan iborat edi, xolos. Eng fojialisi, Sohobqiron tomonidan poytaxt boshliqligiga tayinlangan Arg‘unshoh jasadni shaharga kiritib, Saroymulxonim, To‘kalxonim, Tumon Og‘o va boshqa malikalarni qo‘ymagan. Shuningdek, Ulug‘bek, Shoh Malik va Shayx Nuriddinga ham shahar darvozasi ochilmagan. Bunday xoinlik va adolatsizlikdan g‘azablangan malikalar, Ulug‘bek va beklar Buxoroga yo‘l olishga majbur bo‘lganlar. Shu ravishda Sohobqironning jasadini uning farzandlarisiz, nabiralarisiz, sodiq lashkarboshilarisiz Muhammad Sulton madrasasiga ko‘mildi. Bu marosimda Sohobqironning Samarqandda qolgan xotin va qarindoshlari qatnashganlar, albatta. Xususan, shaharning chekkasidagi «Sohobqironning haramlari ba‘zi kichik shahzodalar bila, misli Boyqaro va Iyjal va Sa‘d Vaqqos va Suyurg‘atmish va g‘ayruhu va jamoat xossa kishilari bila Alioboddin ko‘chub, Sohobqironning tug‘ va naqqorasi bila Samarqand sari mutavajjih bo‘ldilar va ta‘ziyat to‘nlarini kiyib, nola va faryod bila Chahorroha darvozasig‘a yettilar. Ichkaridaga beklar yomon andishalar qilib, alarni kirgali qo‘ymadilar. Va ul kun ular shahzoda

¹²⁵ Sharafuddin Ali Yazdiy, O‘sha joyda, 301-bet.

Shohruxning bog'ikim, darvozag'a yaqin erdi, anda borib tushtilar va ul kecha anda turdilar. Tonglasi... shaharga kirdilar va Muhammad Sulton mirzoning madrasasig'a bordilarkim, Sohibqironni anda qo'yub erdilar. Anda tushkonda aza ochib, faryod va fig'ong'a mashg'ul bo'ldilar. Og'olar yuzlarini yirtib, sochlarini uzib, andoq zori birla yig'lar erdilarkim, sharh qilsa bo'lmas. Va shahzodalarning xotunlarikim, shaharda erdilar va beklarning xotunlari va buzurglarning xotunlari barcha qaro kiyib, bo'yunlarig'a qaro kiyizlar solib, barcha kelib jam' bo'lub, faryod qilur erdilar. Va amirzoda Muhammad Jahongirkim, shaharda edi va o'zga shahzodalar va beklar va akobiru ashrof, misli Xoja Abdul Avval va Xoja Asomiddin va Sayyid Sharif Jurjoniy va Amirak Donishmand va g'ayruhu barcha liboslarini tag'ayyur borib, hozir bo'ldilar. Va samarqandiylarning ahli barcha do'konlarini bog'lab, nola va faryod qilur erdilar...

*Shahrning eru xotuni barcha
Qildilar bu alam uchun afg'on.
Yoqolarini qildilar yuz chok,
Ko'zlari erdi barcha giryon».¹²⁶*

Binobarin, shahar va uning atrofidagi xalqning barcha toifalari qora libosga o'ralib, judolik alamini tortganlar. Bu umumxalq motamida ko'z yosh to'kmagan kimsa qolmadi. O'sha kuni savdosotiq, mehmondorchilik, to'y va boshqa marosimlar to'xtatildi. Sohibqiron dafn qilingandan keyin bir oy mobaynida shaharda aholining hayoti vahima va xavotirlikda kechib, turli mish-mishlar vaziyatni yanada keskinlashtirdi. Chunki, saltanat hamon hukmdorsiz va tartibsiz bo'lib, yuqori tabaqa vakillari sarosimaga tushib qolgandilar. 1405 yil 18 martda Xalil Sulton vasiyatga itoat qilmay sotilgan beklar va qo'shin bilan Toshkentdan Samarqandga kelib, taxtni egallagan edi. Manbalarning ko'rsatishicha, bu yerda unga qarshilik ko'rsatilmagan. Aksincha, yuqorida tilga olingan Arg'unshoh boshchiligidagi bir guruh beklar va nufuzli kishilar Xalil Sultonga taxt va xazinani ikki qo'llab topshirdilar.

¹²⁶ O'sha joyda, 305-bet.

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bu vaqtda ul mahalda «Samarqanddek yer yuzida ma'mur shahar yo'q erdi. Va atrof olamdagi fozillar va donishmandlar va hunarmandlar ko'chlari bila anda erdi. Va xazinalarkim, anda bor erdi - oltunu kumush va raxtu qumosh va aslaha - har nimadan xazinalar to'la erdi, andoqkim, agar barcha olam navisanda bo'lib, hisob etsa erdilar, bir xazinaning uhdasidan chiqa olmas erdilar... Va o'ttuz olti yilkim, hazrat Sohirqiron olamni musaxxar qilib erdi va viloyatlarning molu xiroji munda tushar edi, mundoq xazina va yaroq bu shahzodaning elikiga tushti. To'rt yilda andoq qildikim, ul moldan hyech asar qolmadi».¹²⁷

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, nodir boyliklar, Sohirqiron niyat qilganidek, taxt vorisi Pirmuhammad emas, balki xayolda yo'q Xalil Sulton tomonidan osonlik bilan egallandi.

Taxtni g'ayriqonuniy bosib olgan hukmdor xazinani mamlakat va xalq manfaati uchun emas, balki o'z hokimiyatini mustahkamlash va huzur-halovatini ta'minlashga sarfladi. Chunonchi, u lashkarboshilar, mansabdorlar, din peshvolari va boshqa atoqli kimsalarni o'z tarafiga jalb qilish maqsadida oltin, kumush va javohirlarni bug'doy tortadigan chelakda ulashdi. Uning bunday qilmaslikdan o'zga iloji ham yo'q edi. Chunki Shohrux, Pirmuhammad va boshqa shahzodalar taxtdan voz kechishmagan, beklar va lashkarboshilar orasida Sohirqiron vasiyatiga sodiq kishilar ko'p edi.

Xalil Sulton bobosi Sohirqironga «sodiqligi»ni namoyish qilish va mavqeini mustahkamlash uchun uning jasadini Muhammad Sulton madrasasidan olib, hozirgi gumbazli maqbaraga dafn etish bilan shug'ullandi. Bu tadbir qanday amalga oshirilganligini Ibn Arabshoh quyidagicha ta'riflagan: Jasadni «tobutga solib, boshliqlar boshlarida ko'tardilar. Uning janozasi marosimida podshohlaru qo'shinlar bosh-yalang, qora kiyim kiygan holda bordilar, ular bilan birga amirlar va a'yonlar toifalari ham bor edilar. Temurni nabirasi Muhammad Sultonning yoniga, nabirasi madrasasiga, Ruhobod deb ataladigan joy yaqiniga qo'ydilar... Xalil Sulton uning (jasadi) ustida aza shartlarini: xatmi Qur'on, rub'a poralari, duo o'qitish, sadaqalar tarqatish, taomlar va shirinliklar ulashishni

¹²⁷ O'sha joyda, 307-bet.

bajo keltirdi. (Keyin) u qabrni sag'ana qilib ishlatib, (Temur) ishini nihoyasiga yetkazdi». ¹²⁸

Shunday qilib, Sohirqiron jasaki shaharda ikki marotaba dafn qilishdi. Bu galgi motam marosimi ham ommaviy tus olib, jamoa ahlining barcha tabaqalari Sohirqironning ruhini yod etdilar. «Qabri ustiga kiyimlarini yoyib, devorlariga esa qurol-aslaha va anjomlarini osdi. Bularning hammasi qimmatbaho toshlar va oltin bilan bezatilib, zarkash berilib ishlangan edi. Ulardan eng arzimaganining qiymati bir iqlim xirojiga barobar va u javohirlar uyumidan bir bug'doy donasi (miqdorining) bahosi taqvimdan ortiq edi. Uning qabri shiftlari samosiga oltin va kumush qandillar yulduzlarini ildi... Temur qabri (avvalgi) mashhur joyida bo'lib, unga nazr-nuzurlar keltirilib, kishilar o'z hojatlarini tilaydilar, uning yonida duo qilib, rijo istaydilar. Agar qabr yonidan podshohlar o'tib qolsalar, ta'zim bilan bosh egadilar, ko'pincha unga hurmat va izzat yuzasidan o'z ulovlaridan tushadilar». ¹²⁹

Demak, Sohirqiron qabri shu darajada qadrli ziyoratgoh hisoblanganki, odamlar uni tavof qilganlar, madad so'rab, tilaklarini izhor qilganlar. Shubhasiz, Sohirqiron o'zi ozodlikka chiqargan va ardoqlagan xalqining boshini ruhan siladi, erkaladi, dardiga darmon bo'lib, mushkullarini oson qildi. O'z xaloskori va hukmdori Sohirqiron dan minnatdor xalq ommasi uning buyuk xizmatlarini unutmay, qabri oldida otdan tushib, hurmati va qadr-qimmatini o'rniga qo'yg'anlar.

Xalil Sulton to'rt yillik hukmdorligi mobaynida maishat bilan shug'ullanib, davlat ishlariga yetarli darajada ahamiyat bermadi. Oldiniga Sohirqiron to'plagan boyliklarni sovurdi. Ustiga-ustak, u Shodmulk ismli ayolga uylanib, uning chizgan chizig'idan chiqmadi. Bu ayyor xotin bilan maishat qilib, uning asiriga aylandi.

Natijada, «Xalil Sulton xotin tili bilan, xotini esa Xalil Sulton tili bilan so'zlaydigan bo'lib qoldi». Boshqacha aytganda, Xalil Sulton xotining roziligisiz farmonga imzo chekmasdi. O'sha xotin o'ziga yaqin kishilarni mansablarga, hatto vazirlik lavozimiga tayinladi. Ularning barchasi qobiliyatsiz va nopok kishilar edi.

¹²⁸ Ibn Arabshoh. O'sha asar, 2-kitob, 11-12-betlar.

¹²⁹ O'sha joyda, 12-bet.

Sohibqiron vasiyatiga xoinlik Buxoroda ham sodir bo'lib, shahar boshlig'i Rustam Shoh Malik, Shayx Nuriddin, Ulug'bek va Ibrohim Sultonlarga hujum qildi. Ammo ular qochib, Shohrux huzuriga bordilar. Shoh Malik esa Amudaryo bo'yida o'rnatib, kurashni davom ettirdi. Umuman, Sohibqironning o'g'li va nabiralari Shohrux, Xalil Sulton, Sulton Husayn, Pirmuhammad, atoqli bek va lashkarboshilar o'rtasida taxt uchun kurash qizib, saltanat zaiflashdi. Bundan foydalangan dushmanlar — Mo'g'ulistondagi mo'g'ullar bosh ko'tardi. Oltin O'rda amiri Idiqu Xorazmni egallab, Buxoro atrofida talonchilik bilan shug'ullandi. Qora Yusuf esa Ozarbayjonni zabt etdi.

Nihoyat, 1409 yilda Shohrux Xalil Sultonni mag'lubiyatga uchratib, Samarqandni egalladi va taxtga o'g'li Ulug'bekni o'tqazdi, Xalil Sulton tarafdorlarini qattiq jazoladi. Ayniqsa, Shodmulkka nisbatan alohida chora ko'rildi: «Shodmulkni qo'lga olib xo'rladilar, uni himoya qilgan kishilarni tahqirlab, sha'nini pastga urdilar. Uni go'yo tikonli daraxtga bog'lagandek azob bilan o'radilar hamda undagi mol-dunyoni olishda zolim amaldorlar qo'llaydigan qiynoqlarni qo'lladilar. Shu zaylda xo'rlab, turli-tuman boyliklarni undan olgach, uni mahkamlab arqon bilan qattiq bog'ladilar va bozorlarda jarchi chaqirtirib, (uni) xaloyiqqa sazoyi qildilar».¹³⁰ Xalil Sultonga esa Shohrux Erondagi Ray shahri hokimligini berdi. U shu yerda 1411 yilda vafot etgach, rafiqasi Shodmulk bu judolikka chidolmay o'ziga xanjar urib jonidan kechdi.

Shohruxning hukmroilik yillarida (1409-1447) Xorazm, Ozarbayjon va boshqa joylar qayta qo'lga kiritilib, saltanat qaddini ancha rostlab oldi. Biroq saltanat dardga chalingan edi.

Xulosa: Sohibqiron vasiyatini dastlab vorislari, so'ng ayrim mansabdor va lashkarboshilar buzib, ko'proq shaxsiy manfaatlarini o'ylab ish yuritdilar. Natijada, salkam besh yil mobaynida behuda qonlar to'kildi, boyliklar talandi va parokandalik hukm surdi. Shu yillarda saltanat «badaniga chiqqan yara» borgan sari kattalashib, uni ich-ichidan zaiflashtirib bordi. Podshohlarning, shu jumladan, Amir Temurning ham ko'p xotinliligi o'zaro kurashlarni avj oldirdi. Chunki otasi bir, onasi boshqa farzandlar

¹³⁰ O'sha joyda, 61-bet.

va nabiralarning har biri o'zini taxtni egallashga haqdor deb bildi.

Sohibqiron vafotidan keyin murakkab vaziyatni bartaraf etib, saltanat jilovini mahkam ushlashga qodir kuchli shaxs, ya'ni hukmdor topilmadi. Ayniqsa, katta o'g'il Shohruxning bilimdonlik va shiddat bilan harakat qilmay, Xurosonda «berkinib» o'tirishi o'ta salbiy oqibatlariga olib keldi. U amadda salkam besh yil ayanchli voqealarning tomoshabini bo'lib turdi. U barcha shahzodalarni o'z atrofigajipslashtirib, Samarqandni zudlik bilan qo'lga olishi lozim edi. Shohrux kech bo'lsa-da, poytaxtni qo'lga kiritdi, lekin bu ish «temirni qizig'ida bos» deyilganidek, o'z vaqtida qilinmadi.

Shohrux poytaxtni Hirotga ko'chirib ham katta xatoga yo'l qo'ydi. U bu yerda saltanat hukmdori sifatida ish yuritib, davlatning yuragi bo'lmish Turkiston zaminining, xususan, Samarqandning shon-shuhratiga putur yetkazdi. Amalda saltanat ikkiga ajraldi. Chunonchi, o'g'li Ulug'bek Samarqandda turib, hozirgi O'zbekistonga qarashli hududlarni boshqardi. U dastavval, otasining vassali hisoblangan, keyinchalik esa mustaqil ish yuritadigan bo'ldi. Shohrux esa Hirotida saltanatning ikkinchi qismiga boshchilik qildi. Poytaxtning Hirotga ko'chirilishi va saltanatning parchalanishi davlatning kuch-qudrati hamda xalqaro mavqeyi pasayishiga olib keldi. Bundan tashqari, u yoki bu viloyatlarni boshqarayotgan shahzodalar mustaqillikka erishishga harakat qildilar. Natijada, Amir Temur vaqtidagi metindek intizom vaji pslik susayib ketdi.

Shubhasiz, saltanat, shu jumladan, Samarqand aholisi mustaqillik, ozodlik va taraqqiyot baxsh etgan Sohobqiron vasiyatiga sodiq bo'lish dardi bilan yashagan. Biroq uni sotqinlarga qarshi kurashga otlantiradigan mohir rahbar chiqmadi. Natijada Amir Temur saltanati borgan sari zaiflashib bordi.

Sohobqiron sevgan nevara

Tarixda Amir Temurga o'xshab oilasiga beqiyos katta g'amho'rlik va mehribonlik ko'rsatib kaftida ko'tarib yuradigan hukmdor kamdan-kam uchraydi. Uning malikalari, farzand va nevaralari belgilab qo'yilgan tartib va nazorat ostida yashab oliy fazilatlarini o'zlashtirganlar, «Musofir bo'lmasang musulmon bo'lmasan»

deyilganidek oila a'zolari uzoq mamlakatlarda yashab yo'l azob uqubatlarni ko'rib har jihatdan chiniqqanlar. 1394 yilda mana shunday vaqtlarning birida Sultoniya degan joyda Shoxruhning rafiqasining ko'zi yorib o'g'il ko'radi.

Bu vaqtda sohibqiron Shimoliy Iroqdagi Mordinda jang qilayotganida. U nevara ko'rganligini eshitib va shodligidan boshi osmonga yetib chaqaloqqa otasining Muhammad Torag'ay ismini qo'yadi. Keyinchalik uni Ulug'bek deb atash odat tusiga aylandi.

Sohibqiron nevara ko'rganligining suyunchisiga Mordin aholisiga omonlik berish va soliqlardan ozod etish, hokimlikni tub aholi vakiliga berish haqida farmon berdi. Bundan zavqlangan va hayratlangan donishmand kishilar: Ulug'bek onadan tug'ilishi bilanoq halqqa mehribonlik va yaxshilik ko'rsatdi deyishdilar. Shubhasiz Mordin xalqi Ulug'bekning sha'niga duolarni o'qib minnatdor bo'lganliklarini izhor etganlar, albatta.

Sohibqiron Ulug'bekning parvarish qilish va tarbiyalashni Saroymulk hokimga topshirdi U 1298-1404 yillarda buvisi bilan qora bog'da yashab hayot tajribasi borgan sari boyib bordi. Shu orada u Amir Temurning Turkiya va Misrga qarshi qaratilgan harbiy yurishlarda Saroymulk xonim bilan birgalikda qatnashdi. 1404 yilda sohibqiron nevaralarini, shu jumladan 10 yoshlik Ulug'bekni uylantirib unga Toshkent, Sayram, Avliyo ota, Ashpardan to Xitoy chegarasigacha taralagan yerlarni inom qiladi. Shuningdek unga xazinadan mol ajratib beradi. U boshqa nevaralar qatori Ulug'bekni ham saroyda elchilarni qabul qilish marosimlarida qatnashtirgan. Ular elchilardan xorijiy hukmdorlarning yorliqlarini olib sohibqironga topshirishgan. Shuningdek, elchilarni buvaning huzuriga boshlab borganlar.

Rivoyatga ko'ra sohibqiron otlarni janglarda hurkishi va qochishini bartaraf qilish uchun oldindan ular bilan harbiy mashg'ulot o'tkazgan. Bunda sarbozlarga otlarni jang paytida boshqarish usullari ham o'rgatilgan. Shu tariqa «jang» qilishni o'zlashtirgan otlar g'alabalarni ta'minlagan omillardan biri hisoblangan ekan. Mashqdan keyin Ulug'bekni sarbozlarcha kiyintirib va qurollantirib va otga mingdirib mashg'ulot o'tkazilgan. Xullas, Amir Temur farzandlari va nevaralarini yoshlik vaqtdan boshlab jasoratlik, mardlik va jangovorlik ruhida tarbiyalashga katta ahamiyat bergan.

Amir Temur 1405 yilda qo'shin, Saroymulk xonim, Ulug'bek va boshqa nufuzli kishilar bilan birgalikda O'trorga kelib o'rtnashdi. Biroq ko'p o'tmay vafot etdi. Bu judolik Ulug'bekni ham yurak bag'rini tilka pora qildi. Chunki uning eng sevimli va mehribon buvasidan ayrilishiga chidashi juda qiyin edi. Shu vaqtdan boshlab uning boshiga azob va kulfatlar birin-ketin yog'ila berdi.

Avvalo, sohibqironning jasadi Samarqandga keltirilganda Saroymulk xonim va Ulug'bek shaharga kiritilmaganida Buxoroga borish juda qayg'u-alamli kechdi.

Garchand Ulug'bek va Saroymulk xonimlarga Samarqandga kelishga ruxsat etilgan bo'lsa-da, lekin ular xavf-xatarda yashaydilar. Shu bois Xurosondagi otasi Shoxruh huzuriga borib bu yerda 1405-1409 yilgacha istiqomat qildi. Nihoyat Shoxruh 1409 yilda Samarqandni egallab uni Movarounnahr va umuman Turkiston zaminining hokimi etib tayinladi. Shundan keyin otasining panohida davlatni boshqarib hayotning barcha sohalarida ulkan yutuqlarga erishildi.

Zero, u bobosining ichki va tashqi siyosatini davom etdirib dehqonchilik va hunarmandchilikning rivojlantirdi. Shaharlar va boshqa joylarda savdo-sotiq qizib xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar yo'lga qo'yildi. Xususan, Hindiston, Xitoy, Oltin O'rda va boshqa mamlakatlar bilan aloqalar yuqori bosqichga ko'tarildi. Karvon saroylar, bozorlar, hammom va bir qator jamoat binolari qad ko'tardi. Amir Temur vaqtida nihoyasiga yetkazilmagan binolar, xususan, Go'ri Amir maqbarasi, Shohi Zinda mozori va Shahrisabzdagi ko'k gumbaz masjidi tamomila ta'mirlandi. Buvasi bunyod qilgan ajoyib va g'aroyib bog'lar yashnab ilgarigidek ulardan aholi bemalol foydalandi.

Abdurazzoq Samarqandiy shunday yozgan: - «Toju-taxtga baxtli Mirzo Ulug'bek donolik kasb etuvchi bir podshoh va shavqatli hukmdordir. Uning davrida Movarounnahr va Turkiston xalqi farovon hayot bag'rida yashab ma'murchilik va obodonchilik cho'qqiga ko'tarildi. Ulug'bek Mirzo, - deb so'zini davom ettiradi o'sha muallif, - jahondagi barcha podsholardan ustun va afzal turadi».

U tabiatan o'ta iste'dodli, bilimli va dunyoqarashi keng bo'lib arab va forsiy tillarni, tarix va adabiyotni mukammal bilgan. U olimu-fozillarni atrofiga to'plab tom ma'nodagi ilmiy markaz -

akademiyani tashkil etdi. Keyingi ming yillikda akademiya Xorazmshoxlar zamonida, Ulugʻbek, soʻngra Navoiy davrlarida uch marotaba bunyod etilganidi. Bularni orasida Ulugʻbek akademiyasi alohida oʻrin egallaydi. Zero, unda hozirgi ibora bilan aytilganda matematika, fizika, geometriya va astronomiya singari texnika fanlari salmoqli oʻrinni egallagan. Shunisi diqqatga sazovor akademiya 50 kishidan iborat matematikalar ilmiy ishlar bilan shugʻullanganlar. Bu yerda Qozizoda Rumiy, Gʻiyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Mavlono Muiniddin Jamshid Koshiy, Mavlono Ibrohim singari mashhur olimlar, muhandislar, faylasuflar va boshqa fan sohibilari xizmat qilganlar.

Ilm-fanni madrasalarsiz tasavvur etib boʻlmas edi. Shu bois Ulugʻbek Samarqand, Buxoro va Gʻijdivonda hashamatli uchta madrasa koʻrdi. Bularda dunyoviy fanlar ham oʻqitilib Ulugʻbekning oʻzi ham maʼruzalar oʻqidi.

Ulugʻbek shu darajada isteʼdodli ediki sheʼrlar ham yozgan, musiqa bilan shugʻullangan.

1429 yilda ishga tushirilgan rasadxona (observatoriya)da mashaqqatli mehnat evaziga Ulugʻbekning «ziji» asari dunyo yuzini koʻrdi. Buning ilmiy jihatdan ahamiyati shu darajada balandki taʼriflashga soʻz ojizlik qiladi. Jahon olimlari uni buyuk kashfiyot sifatida baholab zoʻr qiziqish bilan oʻrganmoqdalar. Masalan, asarni Hindiston, Angliya, Fransiya, Germaniya, Amerika, Misr va Rossiya oʻrganish va tahlil qilish oʻtmish davrlardan oq boshlanganidi. Uning ayrim qismlari turli tillarga tarjima qilindi. Hozirda dunyoda «ziji»ning 120 ga yaqin forscha va 15 dan ortiq arabiy nusxalari saqlanmoqda.

Ulugʻbek tarix sohasida ham qalam tebratib Oʻrta Osiyo, Eron va boshqa mamlakatlarning tarixini oʻz ichiga olgan «Toʻrt ulus tarixi» asarini yozgan.

Umuman aytganda Ulugʻbek buyuk davlat arbobi va zabardast olim sifatida tarixda oʻchmas iz qoldirdi. Navoiy unga bagʻishlab quyidagi sheʼrni yozgan:

*Temurxon naslidan Sulton Ulugʻbek
Ki olam koʻrmadi Sulton oningdek*

*Valek ul ilm sari topti chun dast
Ko'zi olinda bo'ldi osmon past
Rasadkim bog'lamish zebi jahondir
Jahon ichra yana bir osmondir
Bilib bu nav' ilmi osmoniy
Ki ondin yozdi «ziji ko'rag'oniy»
Qiyomatga deganda ahli ayom
Yozarlar oni ahkomidin ahkom.*

Ulug'bek faqat mashhur hukmdor emas balki olimu-fozillarning ham sultoni edi. Mahalliy manbaning tili bilan aytganda u «podshoh ham, odil, g'olib va sohibi himmat edi. Ilmda oliy martabaga erishgan». Biroq 1449 yilda uning taraqqiyot uchun kurashi va osmonu falak sirlarini o'rganish birinchi navbatda ruhoniylarning fanatizm bilan zaharlangan guruhlar va boshqa qora kuchlarining qahr-g'azabini qo'zg'atishi orqasida vahshiyona ravishda o'ldirildi.

Ulug'bekning ilmiy ishlari jahon olimlari tomonidan qadrlanib u ilm dunyosining to'riga o'tkazildi. Bu haqda chex astronomi Yan Geveliyning «Astronimiya darakchisi»ga kiritilgan gravuradachi olimlar orasida yuqorida o'tirishi dalolat beradi.

Amir Temur saltanati ispan elchisi nigohida

Buyuk Amir Temur boshchiligida vatan mustaqilligi va ozodligi tiklangandan keyin siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda misli ko'rilmagan darajada tub o'zgarishlar va taraqqiyot sodir bo'ldi¹³¹. Turkiston zamini jahon doirasida munosib o'rinni egallab xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar rivojlandi. Ayniqsa, Fransiya, Angliya, Italiya va Ispaniya singari davlatlar bilan elchilik aloqalarining yo'lga qo'yilishi katta ahamiyat kasb etdi. Amir Temur huzuriga tashrif buyurgan elchilar orasida Ispaniya elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning faoliyati alohida o'rin egallaydi. Amir Temur 1402

¹³¹ Mazkur maqolani yozishda Klavixoning «Dnevnik puteshestviya v Samarkand v dvore Timura (1403-1406)», (M., 1990) kundaligining O.Tog'ayev tomonidan qilingan tarjimasidan to'la foydalanildi. «San'at» jurnali, 1989-1990.

yilda Ispaniyaga Xo'ja Muhammad Qozini elchi sifatida yuborib do'stlik va savdo aloqalarini o'rnatishni izhor etgan edi. Ispaniya qiroli Genrix III (1390—1407) Sohibqiron elchisini hurmat va izzat bilan qarshi olib, javob tariqasida nufuzli amaldor Ryui Gonzalesde Klavixoni, ilohiyot ilmining magistri Alfonso Poes de Santa Mariya va saroy soqchisi Gomes de Salazarlardan iborat elchilarni Samarqandga jo'natgan.

Klavixo 1403 yil 22 mayda elchi Xo'ja Muhammad Qozi bilan birgalikda yo'lga chiqib, O'rta dengiz orqali Svyatoy Mariya portiga, so'ngra Italiyaning janubiy qirg'oqlari bo'ylab Gretsiya, Rados, Kichik Osiyo orqali Konstantinopol va Trapezund shaharlariga kelgan. Bu yerdan Sultoniya, Tehron, Nishopur va Balxga borgan. So'ngra Amudaryo orqali Termizga kirgan. Klavixo hamrohlari bilan 15 oy deganda yo'l azob-uqubatlarini mardonavor yengib, Samarqandga kelgan edi. U o'zi bosib o'tgan yo'lda ko'rganlarini kundalik daftariga yozib borgan. Bunday ma'lumotlar Amir Temur saltanatining tarixini o'rganishda noyob manba hisoblanadi.

Amudaryo va Termizda

Klavixo Balxga kelganda uning aholisi va bog'lar ko'pligi paxsa devor bilan o'ralganining guvohi bo'lgan. Bu yerda paxta ko'p ekilgan. U 1404 yil 21 avgustda Amudaryoga yetib kelganda suvning loyqaligi va tez oqayotganini ko'rgan. Uning so'ziga ko'ra, Sohibqiron daryodan o'tmoqchi bo'lganda qayiqlar ustiga ko'prik qurdirib, bir uchi qirg'oqqa ikkinchisi suvning sayoz joyigacha yetkazilgan. Bu yerdan otda suv kechilib ko'priikka chiqilgan. Qo'shin ko'prikkda o'tgandan keyin, undan dushman foydalanmasligi uchun, darhol buzib tashlangan. Kerak bo'lganda ko'prik yangidan qurilgan. Oddiy kunlarda chetga chiqishga ruxsat berilgan kimsalargina qayiqlarda daryodan o'tkazib turilgan. Ammo Termizga chetdan keluvchilardan ruxsat qog'ozi talab qilinmagan. Termiz shahri va atrofida aholi hamda qishloqlarning soni ko'p bo'lib, mudofaa devori bilan o'ralmagan. Bog'larning seroblighi va savdoning qizg'in tus olganligi ko'zga tashlangan. Klavixo Termizdan chiqqandan keyin, yo'lda aholisi zich qishloqlarni bosib, Sohibqiron yo'lga chiqqanda dam oladigan xonadonga yetib kelgan.

Shundan keyin, u yo'lni davom ettirib, baland tog'ning bag'rida pishiq g'ishtdan ishlangan hashamatli binoni ko'rgan. Bino qanday qurilgani haqida Sharafuddin Ali Yazdiy shunday yozgan: «Hazrati Sohibqiron Samarqanddan chiqib Kesh (Shahrisabz) tomon yurdi. Bu yo'lda bir tog' bor ediki, Samarqandgacha yetti farsax keladi. Uning boshlanishida anhor oqadi. Daryodek saxiy va osmondek shavkatli podshohona tashrif shu'lası u tog'ga tushdi. Olamni tartibga keltirib, ravnaq berish borasida himmatning zo'rliğı tufayli bog'ni yaratishga farmon berdi. Shuningdek, tog'ning bag'rida bir qasr qurish haqida hukm chiqardi. Qasr qurilib, unga «Taxta qarochi» deb nom berildi».¹³²

Klavixo bu qasrning hashamatidan hayratlanib va uning atrofıdagi bog'da dam olib, so'ngra yo'lni davom ettirgan.

Shahrisabz va Gulbog'da

1404 yil 22 avgustda Shahrisabzga yetib kelgan Klavkxo o'zining boy taassurotini quyıdagicha izohlagan. Shahar tekis yerga joylashgan bo'lib, atrofi ko'plab uylar va bog'lar bilan qoplangan. Bu yerda soy va ariq suvlari oqib, tokzorlar va mevali daraxtlar yashnab turgan. Bug'doy, paxta, qovun va boshqa o'simlik turlari yetishtirilgan. Sohibqironning farmoyishi bilan qurilgan masjid va maqbaralar tillo, havorang bo'yoqlar va koshinlar bilan juda chiroyli bezatilgan. Masjid hovlisida hovuz bo'lib, daraxtlar o'sib turgan. Sohibqironning ko'rsatmasiga binoan otasi va o'g'li Jahongir dafn qilingan maqbaralarda har kuni 20 ta qo'y qurbonlik qilingan.

Klavixo Oqsaroyıni ko'rib, hayajonlangan va hayratlangan holda tomosha qilgan. Unga uzun yo'lak va g'oyatda baland darvoza orqali kirgan. Yo'lakning o'ng va chap tomoni har xil guldor koshinlar bilan bezatilgan, g'ishtdan ishlangan aryuchar ko'zga tashlangan. Bu yerda kichkina hujralar qurilgan. Yo'ldagi bezatilgan ikkinchi eshik orqali sahniga marmar yotqizilgan va o'rtasida hovuzi bor hovliga o'tilgan. Bu yerdan zarhal va zangori bo'yoqlar hamda naqshli koshinlar bilan bezatilgan juda katta va baland eshik orqali chiroyli qabulxonaga kirilgan. Eshik peshtoqining o'rta qismida porlab turgan quyosh nurlari ostida sherning surati solingan. Uning chetki

¹³² «Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida». Toshkent, 1997, 93-bet.

tomonida Sohibqironning uchta bodomsimon shakldagi muhri tasvirlangan.

Bu muhrdagi uchta belgi Sohibqiron Osiyo, Ovro'po va Afrikadan iborat uchta qit'aga hukmron degan tushunchani anglatgan. Muhr tanga va boshqa muhim hujjatlarga ham bosilgan. O'sha qabulxonaning devorlari tilla, zangori ranglar va koshinlar bilan sayqallangan. Shifta ham tillarang bilan bo'yalgan.

Qabulxonadan zinapoyalar bo'ylab Oqsaroyning ikkinchi qavatiga chiqilgan. Bu yerda xonalar shu darajada ko'pki, - deydi Klavixo, - ularning hammasi haqida gapirish uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi. Xonalar tilla, zangori va boshqa har xil bo'yoqlar bilan misli ko'rilmagan darajada o'ta go'zal ravishda bezatilganki, g'oyat nozik didlarga ega bo'lgan Parij ham ularni ko'rib hayratlangan bo'lardi.

Bulardan tashqari, Sohibqiron va malikalarining turishi va bazm o'tkazishiga mo'ljallangan keng va hashamatli xonaning devorlari, shifti va sahni haddan tashqari bezatilgan. Klavixo va boshqa elchilar Oqsaroydan chiqib, ko'plab mevali va manzarali daraxtlar o'sib turgan, ko'plab hovuz va did bilan joylashtirilgan chamanzorlarni o'z ichiga olgan bog'ga kelishgan. Bog'ga kiraverishda shu qalar katta maydon ko'ringanki, odamlar yoz oylari suv bo'yida, daraxtlar soyasida huzur qilib dam olishlari mumkin edi.

1404 yil 30 avgustda Klavixo hamrohlari bilan Shahrisabzdan chiqib, yo'lda katta boqqa o'rnatishganlar. Bog'ning atrofi paxsa devor bilan o'ralib, oltita hovuzi bor edi. Uning o'rtasidan anhor oqib o'tgan. Hovuzlarning biridan ikkinchisiga katta va baland soyali daraxtlarning tagi bo'ylab o'tilgan. Bog'dagi tepalikning ustida juda chiroyli qasr qurilgan bo'lib, uning devorlari va shifti tilla va zangori ranglar, koshinlar bilan sayqallangan. U suvga to'ldirilgan chuqur zovur bilan o'ralib, unga ikkita ko'prik orqali kirilgan. Bog'da kiyiklar va tustovuqlar aylanib yurishgan. Bog'ning yonidagi tokzor va daraxtlar juda manzarali edi. U Gulbog' deb nomlangan.

Amir Temur huzurida

8 sentabrda Klavixo va boshqa elchilar Samarqand tashqarisidagi Dilkusho nomli bog'da uyushtirilgan ziyofatda Sohibqiron bilan uchrashish sharafiga muyassar bo'ldilar.

Sharafuddin Ali Yazdiy Dilkusho bog'ining bunyod etilishini shunday ta'riflagan: «Hazrat Sohibqiron Konigil degan joyning chekkasida orastaligi va tarovati bilan Eram bog'idan ko'ra ko'proq ko'ngil ochuvchi bir bog' yaratish haqida farmon berdi.

«Mashriqdan tortib Mag'ribgacha har bir mamlakat va davlatdan taxtning qarorgohi (Samarqand)ga jam bo'lgan donishmand muhandislar va sohibhunar quruvchilar saodatli soatda va tong yulduzi kulib boqqan damda oliy hazratning ishorati bilan ul joyda bir bog' ijod etdilar. Bog' to'rtburchak shaklida bo'lib, har bir tomoni bir yarim ming gazga barobar. To'rt tomonning har biri o'rtasida bittadan baland darvoza o'rnatildiki, ularning toqi osmonning muqarnas shiftiga yuksalgan. Tog'lar turfa rangli koshinlaru naqshlar bilan bezatilgan. Bog'ning to'rt tomonidagi to'rt burchakning har birida yulduzi oshyonga yetgudek kabutar burji qad ko'targan. Burjlar koshinkorlik san'ati bilan bag'oyat nafis va go'zal qilib bezatilgan. Bog' sahni handasa uslubida to'rt burchak shaklidagi o'tish joylar, olti burchak va uch burchak shaklidagi chamanzorlarga bo'lingan. Yo'llar chetiga oq teraklar, olti burchak va uch burchak chamanzorlar atrofida esa turli-tuman mevali daraxtlar va gullar ekishga farmon berildi. Bog' nihoyatda dilkusho va go'zal tarzda barpo etilgach, uning ismi jismiga monand bo'lishi uchun «Bog'i Dilkusho» deb atadi. Bog'ning o'rtasiga uchta baland toqili, qubbasi esa ko'kka bo'y cho'zgan qasr qurdilar».¹³³

Boqqa tilla va zangori koshinlar bilan bezatilgai keng va baland darvoza orqali kirilgan. Bu yerda fillarning ustida o'tirgan odamlar ularni har xil o'yinlarni ko'rsatishga undaganlar. Bu vaqtda Sohibqiron taxtda, ustida gulsiz silliq shoyi ko'ylak, boshida qizil yoqut, javohir va boshqa qimmatli toshlar qadalgan cho'qqaygan oq telpak kiygan holda o'tirgan. Uning ro'parasida ustida qizil olmalar aylanayotgan favvora (fontan) balandga otilib turgan.

Elchilar Sohibqironni ko'rishlari bilanoq, o'ng oyoqlari bilan tiz cho'kib, qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildilar. Keyin bir oz yaqinlashib yana ta'zim qildilar, yana bir bor ta'zim qilib, so'ng tiz cho'kib o'tirdilar.

Shundan keyin Sohibqiron Klavixonga qarab: «Qirolning ahvoli

¹³³ O'sha joyda, 91-92-betlar.

qalay? Uning ishlari joyidami?» deb so‘ragan. Elchilar uning savollariga to‘la javob berganlar. U elchilarning so‘zlarini diqqat bilan tinglagan. So‘ng Sohibqiron mehmonlarga shunday so‘zlarni izhor etgan: «Mana, bular dunyoning u burchagida yashovchi farangi (ovro‘pali)larning qirollari orasida salmoqli o‘rinni egallab turgan Ispaniya qirolining elchilaridir! Bu mamlakatdagilar haqiqatan ulug‘ xalqdir. Men qirolni sharaflayman. Qirol elchilarini hyech bir sovg‘asiz, faqat maktub bilangina yuborganida ham men qirolning ahvoli va sog‘lig‘ini bilib, sovg‘a olgandek bo‘lar edim».

Bu vaqtda Sohibqironning nevarasi qirol maktubini qo‘lida baland ko‘tarib buvasi qarshisida turgan. Sohibqiron maktubni ochib ko‘rgan.

Ziyofatning dasturxonlari nihoyatda har xil taomlar va nozune‘matlar bilan to‘ldirilgai edi. Klavixoning yozishicha, ularning ustiga juda ko‘p qovurilgan hamda qaynatilgan qo‘y va ot go‘shtlari qo‘yilgan. Go‘sht to‘g‘rovchi xizmatkorlar kelib go‘shtlarni tilla, kumush, sopol, chinni laganlarga bo‘lak-bo‘lak qilib solganlar. Nonlarni to‘rt buklab idishlardagi go‘shtlarning ustiga qo‘yganlar. Shundan keyin mehmonlarga sho‘rva - suyuq ovqat berilgan.

Sohibqiron o‘z oldiga qo‘yilgan taomlar solingan ikki idishni iltifot yuzasidan elchilar oldiga qo‘ydirtirdi. Tilla va kumush kuvachalarda mazali qimiz keltirilgan. Oxirida dasturxonlar ko‘p meva-cheva, qovun, uzum, shaftoli bilan yasatilgan.

15 sentabrda Sohibqiron bir ajoyib bog‘da ziyofat bergan. Ammo Klavixo bu bog‘ning nomini yozmagan bo‘lsa-da, uning go‘zalligini yaxshi tasvirlagan. Bunga ko‘ra, bog‘ning katta darvozasi tilla va zangori bo‘yoqlar, koshinlar bilan bezatilgan edi. Soya-salqin solib turuvchi mevali va manzarali daraxtlar o‘sib turgan. Bog‘dagi yo‘llar va so‘qmoqlar to‘siqlar bilan o‘ralgan. Bog‘da guldor gilamlar va turli xildagi shoyi gazlamalardan ko‘pdan-ko‘p chodirlar va soyabonlar tikilgan.

Bog‘ning o‘rtasida juda chiroyli ravishda bezatilgan bino, uning ichkarisidagi xonada uchta taxmon bo‘lib, devorlari va sahni koshinlar bilan qoplangan. Eng katta taxmonda balandligi odam bo‘yi, kengligi uch quloch keladigan va zarhallangan kumush javon qo‘yilgan. Kimxob va boshqa shoyi matolardan tikilgan ko‘rpachalar stol oldida ustma-ust taxlangan.

Bu nihoyatda chiroyli xona Sohibqiron o'tiradigan joy bo'lgan. Uning devorlariga pushtirang shoyi matolardan pardalar tutilib, ularga zumrad, marvarid va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan. Uy sahniga gilamlar yozilgan. Uning o'rtasida oltindan ishlangan ikkita stollar qo'yilib, ularning ustiga yettita oltin ko'ra qo'yilgan. Ko'ralarning ikkitasi yirik marvarid, zumrad va feruzalar bilan bezatilgan. Har biriga zihicha yoqut yopishtirilgan. Bundan tashqari, stol ustida oltita oltin kosa qo'yilgan. Ulardan birining ichi yirik, oppoq marvaridlar bilan bezatilgan. Kosaning o'rtasiga yo'g'onligi ikki barmoq keladigan tiniq rangdagi oq yoqut yopishtirilgan.

Ziyofatda Sohibqironning oila a'zolari, elchi va boshqa ko'p mehmonlar ishtirok etgan.

22 sentabrda elchilar, shu jumladan, Klavixo Bog'inavda Sohibqiron tomonidan tashkil qilingan katta ziyofatga qatnashganlar. Uning kundaligida yozilishicha, bog' to'rt tomondan baland devor bilan o'ralgan bo'lib, har burchagida baland minoralar qad ko'targan. Uning o'rta qismida tilla va zangori ranglar bilan bo'yalgan bino qurilib, oldi tomonida hovuz bo'lgan. Dasturxonlarga ko'p qo'y va ot go'shtlari, turli usullarda tayyorlangan guruchli ovqatlar qo'yilgan. Sohibqiron ovqatlanib bo'lgandan keyin, mansabdorlardan biri kumush tangalar bilan to'ldirilgan kosani ushlagan holda o'rta chiqib, ularni mehmonlar va elchilar ustiga sochgan. Kosa tagidagi tangalarni olib elchilar oyog'i ostiga tashlagan. So'ngra Sohibqiron elchilarga kimxob to'nlarni kiygizishni buyurgan. Elchilar uch marotaba tiz cho'kib, Sohibqironga ta'zim qilganlar.

23 sentabrda Dilkusho bog'ida Sohibqiron tomonidan uyushtirilgan ziyofat ham katta tantana bilan o'tkazilgan.

Klavixo mana shu bog'ning g'oyatda go'zalligini va Sohibqironning kayfiyati juda yaxshiligini yana ta'kidlagan. Dasturxonlar turli oziq-ovqatlar bilan yasatilgan edi. Bu yerda Sohibqironning xotinlari, farzandlari, qarindosh-urug'laridan tashqari, qo'shinning bir qismi ham qatnashgan. Ziyofatga shu qadar ko'p odam yig'ilgan ediki, elchilar huzuridagi shaxsiy qo'riqchilar yo'l ochilgandan keyingina ular bilan Sohibqiron o'tirgan joyga yaqinlashganlar.

Bog'ning oldidagi keng maydonda daryo va ko'plab ariq oqib turgan. Sohibqiron mana shu maydonda harbiy qismlarni to'plashni

va ular uchun chodirlarni o'rnatishni buyurgan. Shundan keyin, katta-yu kichik hamma o'z o'rnini bilib, hyech bir shovqin-suronsiz chodirlarni qurishga kirishganlar. Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin saltanat qarorgohi atrofida qariyb yigirma ming chodir paydo bo'lgan. To'plangan qo'shin orasida qassoblarni, oshpazlarni, yaxna go'sht va shirinliklar sotuvchilarni, novvoylarni va boshqa istagan hunar egalarini ko'rish mumkin edi.

29 sentabrda Sohobqiron yana ziyofat tashkil qilib, ko'p yaqin va uzoq odamlarni, elchilarni huzuriga chaqirdi. Klavixoning gapiga ko'ra, Sohobqiron Xitoy bilan chegaradosh joydan kelgan elchilar bilan suhbatlashgan. Bu elchilarning boshlig'i eskiroq pocha-po'stin kiygan, boshidagi kichkina telpakning bog'ichlari ko'kragiga tushib turgan. Telpak juda kichkina bo'lib, boshida zo'rg'a ilinib turgan. Uning hamrohlari ham kalta po'stin kiygan edi. Ba'zi po'stinlarning mo'yi ich tarafiga, boshqasi sirtiga tikilgan.

Elchilar suvsar, oqtulki va boshqa mo'ynalar, lochinlardan iborat sovg'ani keltirganlar. Klavixo elchilarni xristian dinidagi kishilar deb yozgan. Ular Rossiya tarafdin kelgan elchilar bo'lishi ehtimoldin xoli emas. Klavixo Sohobqironning shaxmat o'ynab o'tirganligini ko'rgan edi.

Sohobqironning ko'rsatmasiga binoan 2-oktabrda ham Konigilda katta ziyofat uyushtirilib Klaviho va boshqa mehmonlar qatnashgan. Bu to'g'rida Sohobqironning kotibi Hofizi Abru shunday yozgan: «Kongil ulangidan to shavdorgacha, taxminan o'n farsang keladigan oraliqqa sohobqironning muborak urdulari, barcha shahzodalar, o'g'lonlar, amirlar, turli-tuman askarlar har biri o'z mavqi va mansabiga ko'ra qo'ndilar.

Katta urdu kelib tushgan joyga qirq ustunli oliy bargohni tikdilar, uning atrofida yarim farsang keladigan yerni bargoh, kata chodir va soyabonlar vositasida quyosh nurlari tushmaydigan qildilar; ...jomlarni qator turli-tuman yegulik va ichimliklar bilan to'ldirib – tashirdilar. Yetti iqlim sultonlarining chodirlari (Sohobqiron) urdusi atrofida uzoq-uzoqlargacha yastangan edi. Uning ortida tuman amirlari va qo'shin boshliqlari bir xillari yaqinroqda, ba'zilari uzoqroqda, chavchilar, amaldorlar va sardorlar kelib tushdilar, har biriga chodirlar qurilgan edi. Ularning ortidan lashkar qismlari

– mingliklar, qo‘shinlar, yuzliklar va o‘nliklar tartib bilan har qaysisi o‘zining jarchisi ortida, cho‘q-cho‘q bo‘lib o‘rnashdi; tavochi, ayudachi va yasavul amirlari xos bedovlarga minib olib tarqu va nazli ila yosol va yosoq etardilar. Jahonning turli qismidan har qaysi mamlakat va iqlimning san‘atkorlari, o‘z yurtidagidek yoshiga qarab kiyingan holda guruh-guruh bo‘lib, ularda qabul qilinganday har bir diyorning zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho taqinchoqlari, kiyim-kechaklari va matolari bilan bezangan holda turli rasm-rusum va ajabtovur yasan-tusanlar qildilar. Hushnag‘ma sazondalar va hushovoz ashulachilar foris tariqasida, turk yo‘sinida, mo‘g‘ul u yolg‘usida, Xitoy rususmida, Altay uslubida soz chalmoq, ashula aytmoq va naqsh chizmoq ila mashg‘ul edilar. ...Turli mamlakatlardan qilgan elchilarning har birinchi o‘z jirg‘achiga chorlab tortiq va in‘omlar ulashilsin, degan oliy farmon bo‘ldi». ¹³⁴

Bu sohibqironning malikalari, farzandlari, kelinlari va boshqa qarindosh-urug‘lari ham qatnashgan. Ziyofat saltanatning kuch-qudrati va shon-shuhratini namoyish etgan holda o‘tkazilib millati va dinidan qat’iy nazar barcha halqlarning vakillariga katta hurmat va izzat ko‘rsatilgan. Ular ziyofatda o‘zlarining kiyimida milliy san‘at namunalarini ko‘rsatganlar.

6 oktabrda o‘tkazilgan ziyofat juda dabdabali ravishda o‘tgan. U Bog‘i Dilkushoda Sohibqiron boshchiligidagi uyushtirilib, uning chodirlarni qurish haqidagi farmoni to‘la amalga oshirilgan edi. Klavixo va boshqa elchilar kelishganda son-sanoqsiz chodirlari ko‘rganlar. Ularning katta qismi daryo bo‘yiga qurilgan. Klavixoda Sohibqironning qarorgohi — qasr va bir-birlaridan go‘zal chodirlar o‘chmas taassurot qoldirgan. Qasr to‘rt burchak shaklida qurilgan bo‘lib, shifti gumbaz tarzida ishlangan va o‘n ikkita ustunlarga o‘rnatilgan. Ustunlar tilla, zangori va boshqa ranglar bilan sayqallangan. Qasrning u burchagidan bu burchagigacha uchta ustun qo‘yilgan. Unda jami o‘ttiz oltita ustun qo‘yilgan.

Qasrning tashqi tomonidan oq, qora va sariq, yo‘l-yo‘l shoyi mato bilan qoplangan. Har bir ustunning ustiga oy tasviri tushirilib, mis olma osilgan. Qasrning ichkarisida, bir tomonda gilamlarning ustiga uch-to‘rt qavat ko‘rpachalar to‘shalgan supa Sohibqironga mo‘ljallangan. Bundan tashqari, yana ikkita supa bo‘lgan.

¹³⁴ O‘sha joyda, 78-79-betlar.

Shiftning o'rtasi juda chiroyli bezatalib, uning to'rt burchagida qanoti tushirilgan to'rtta burgut surati tasvirlangan.

— Xullas, qasr, — deydi Klavixo, — shu qadar go'zal, baland, keng va ulug'vorki, unga hayratlanmasdan qarash mumkin emas.

Klavixo Sohibqironning xotinlari Saroymulkxonim va Tumon Og'o begimlarga atab qurilgan chodirlarni ham maroq bilan tomosha qilgan. Zero, halqa shaklidagi baland chodir nayzadan yo'g'onroq poyalardan to'rt shaklida bir-biriga chatishtirib ishlangan. Chodirning devori va gumbazi eni kaftday tasmalar bilan bog'langan. Chodir shu darajada baland ediki, uning tasmalar yordamida tik turganiga ajablanmaslik mumkin emas. Uning usti qizil gilamlar bilan qoplangan, oftob tushmasligi uchun tagiga gulsiz chit gazlamalar, sidirg'a gulko'rpa qoqilgan. Chodir devorining ich tomonlari kumush va boshqa qimmatbaho toshlar bilan sayqallangan. Uning atrofida yaxti bezatilgan chodirlar bo'lib, ulardan birining gumbazida qanoti tushirilgan yirik burgutning zarhallangan kumush surati tasvirlangan. Undan sal pastroqda chodirning uch tomonidan bir-biriga to'g'ri joylashtirilgan kumushdan yasalgan lochinlar surati solingan. Bu lochinlar go'yo burgutdan qochib ketmoqchi bo'lganday turardi. Burgut lochinlardan biriga tashlanmoqchiday bo'lib turgan. Burgut va lochinlar shu darajada tabiiy tasvirlanib, ma'noli joylashtirilganligi orqasida xuddi tariqqa o'xshab turardilar.

Chodir eshigi oldida turli rangli shoyi matodan yasalgan soyabon quyosh harakatiga qarab aylanib, doimiy soya solib turgan.

9 oktabrda Sohibqiron nevaralaridan birining to'yiga elchilarning ham kelishlarini buyurgan. To'y behad chiroyli chodirlarda o'tkazilib, Saroymulkxonim ham qatnashgan. U umumxalq bazmiga aylanib, savdogarlar, zargarlar, chitfurushlar, tikuvchilar, kavushdo'zlar, novvoylar, oshpazlar, qassoblar va boshqa turli hunar egalari o'zlarining kasblarini namoyish qilganlar. San'at vakillari va dorboz ustalari mehmonlarning ko'nglini shod qilib turganlar. Sohibqiron o'zi Samarqandda yo'qligida mollarning narxini oshirib sotgan savdogar va hunarmandlarni jazolashni buyurgan. Shuningdek, o'z mansabini suiiste'mol qilgan ayrim nufuzli kishilar o'lim jazosiga tortilgan. Bu hodisalar Klavixo va boshqa

elchilar va umuman jamoa ahli huzurida sodir bo'lgan. Shu tariqa adolatli siyosat o'z kuchini ko'rsatgan edi.

13 oktabrda katta to'y o'tkazilib, elchilar ham olib kelingan edi. Klavixoning aytashicha, Sohibqiron mehmonlar bilan o'tirgan. Chodirlar ilgarigiga nisbatan yanada ziynatliroq va chiroylik ravishda bezatilgan. Xususan, ulardan biri zarhal ip bilan naqshinkor usulida to'qilgan, qizil gilamlar bilan o'ralgan. Chodirlarga baland eshikdan kirilgan. Ularning usti zar iplar bilan chiroyli tikilgan gumbazlar bilan qoplangan. Devorlarining ayrim joylarida matolarga gul solib tikilgan darchalar bor edi. Elchilar Sohibqironning o'g'li Jahongirning farzandi va Afg'onistonga hokim etib tayinlangan Pirmuhammadning huzuriga borishib, o'ng oyoq bilan tiz cho'kib, qo'lni ko'krakka qo'yib bosh egganlar. Bu vaklda Pirmuhammad juda ko'rkam kiyingan bo'lib, ustida zarhal bilan halqa shaklida tikilgan ko'k atlas to'n bor edi. Boshidagi telpagi yirik dur va qimmatli toshlar bilan bezatilib, uning tepasiga qadalgan yoqut charaqlab turgan. U 22 yoshlardagi soqoli o'smagan, qorachadan kelgan yigit edi.

Elchilar Sohibqiron atrofida o'tirishib, ajoyib tomoshalarni ko'rishgan. Xususan, chalingan nog'oralar sadosi tomoshalardan hosil bo'lgan ovozlari bilan hamohang bo'lib, ajib bir shovqin-suron vujudga kelgan. Shuningdek, sozandalar ham xizmat qilganlar. Sohibqironning ro'parasida dor o'rnatilgan bo'lib, dorbozlar har xil tomoshalarni ko'rsatganlar. Mehmonlar va elchilarda fil o'yini katta qiziqish uyg'otgan. «Sohibqironning, — deb yozgan edi Klavix, — o'n to'rtga fili bo'lib, ularning ustiga yog'och ayvonchalar o'rnatilgan. Har bir ayvonning ustiga to'rttadan sariq va yashil bayroq tikilgan. Ayvonlarning har birida besh-oltitadan odam, fil gardanida sim qamchin ushlagan bir kishi o'tirgan... Fil juda idrokli hayvon bo'lib, ustidagi kishi buyruqlarini shu ondayoq bajaradi. Odam filning bir kishi zo'rg'a sig'adigai bo'yniga o'rtnashib, oyoqlarini fil qulog'i orqasiga uzatib o'tirgan. Fil qamchin ko'rsatgan tomonga tez yuradi yoki orqaga qaytishga imo qilinsa, xuddi ayiq singari keyingi oyoqlari bilan shu ondayoq orqaga buriladi...

Shu kuni fillarni ot va odamlar ketidan yugurtirib, har xil

tomoshalar ko'rsatdilar. Fillar hammasi birga yugurganlarida, yer larzaga kelgandek tuyulardi».

Ziyofat dasturxonlariga go'shtlarni zarhallangan charm supralarda keltirishgan. Go'shtlar shu darajada ko'p bo'lganki, supralarni yuztagacha odamlar ko'targanlar.

Saroy malikalarining ziyofatlarida

Klavixo o'zbek ayollarining ochiq va erkin holda yurib, erkaklar bilan bemalol suhbatlashganlarining guvohi bo'lgan. U xotin-qizlarning ziyofatlarda erkaklar qatori qatnashganlikari va ular bilan o'yin-kulgi qilganliklarini yozgan. Hatto saroy malikalariga shu darajada mustaqil fikr yuritish va erkinlik berilganki, ular o'zlari yashab turgan joylarida to'y-tomoshalarni uyushtirganlar. Masalan, 9 oktabrda Sohibqironning katta o'g'li Mironshohning xotini Xonzoda yaqin qarindoshlaridan birining nikoh to'yi munosabati bilan ko'p odamlar va elchilarning ishtirokida ziyofat bergan. Bunda Saroymulkxonim va boshqa ko'p ayollar qatnashganlar. Klavixoning so'zicha, Xonzoda ko'rinishidan qirq yoshlar chamasidagi to'ladan kelgan ayol hisoblangan. U o'tirgan supada ustma-ust taxlangan ko'rpachalar yozilib, istagan vaqtda ularga yonboshlagan.

Avvalgi ziyofatdagiga o'xshash dasturxonlar pishirilgan go'shtlar, turli taomlar va shirinliklar bilan yasatilgan. Go'shtlar zarhallangan supralarda olib kelingan. Ular shu darajada ko'p ediki, supralarni uch yuztagacha odamlar ko'targanlar.

Saroymulkxonim elchilarga alohida e'tibor bergan va huzuriga chaqirib samimiy ravishda mehmon qilgan.

17 oktabrda Saroymulkxonimning o'zi ham ziyofat tashkil qilib, ko'p odamlar va elchilarni mehmonga chaqirgan. Klavixo uning qasrini ko'rib hayratlangan va batafsil izohlashga harakat qilgan. Uning so'ziga ko'ra, qasrda bir nechta g'oyatda go'zal chodirlar bor. Ulardan biri katta va baland bo'lib, unga ikkita eshik o'rnatilgan. Chodir qizil shoyi mato bilan o'ralib, o'zining o'ta chiroyliligi bilan ajralib turgan. Eshiklar tilla, zangori va boshqa ranglar bilan bezatilgan. Ularning guli va naqshlari bu yerning o'zidagi hamda xristianlar yurtidagiga o'xshash eng nozik, eng yaxshi san'at

namunasi hisoblangan. Eshiklarning birida avliyo Pyotr, ikkinchisida avliyo Pavel qo'llarida tilla muqovali kitobni ushlagan holda tasvirlangan. Aytishlaricha, Sohibqiron bu eshiklarni Turk sultonining xazinasidan olgan. Chodir o'rtasida oltin va kumush solingan, tilladan yasalgan sandiq qo'yilib, uning balandligi odam ko'krigidan kelgan. Uning qopqog'iga marvarid va qimmatli toshlar oraliq'ida dumaloq bir dona dur o'rnatilgan. Uning ustiga oltita tilla ko'za quyilgan bo'lib, ular marvarid va qimmatli toshlar bilan sayqallangan. Shularga o'xshash bezatilgan oltita dumaloq oltin piyola qo'yilgan. Sandiqning yonida yirik marvarid va qimmatli toshlar bilan bezatilgan va balandligi bir qarich keladigan kichik oltin xontaxta turgan. Buning chetiga tiniq va yorqin rangli zumrad o'yib ishlangan. Uning ro'parasida eman daraxti shaklida oltindan yasalgan daraxt qo'ndirilib, tanasi odam oyog'i yo'g'onligicha kelgan. Balandligi esa odam bo'yiga yaqinlashgan. Uning yaproqlari har tomonga taralib, mevalari sarg'ish, qizil, zangori yoqutlar, zumradlar, feruzalar, yirik va tiniq ajoyib marvaridlardan ishlangan. Bulardan tashqari, daraxtga chiroyli bezatilgan qushchalar qo'nib turgan. Ayrim qushchalarning qanoti tushirilgan, boshqalar tushib ketadiganday bo'lib, yaproqlarga zo'rg'a ilinib turgan. Boshqa qushlar esa daraxt mevalarini yeyayotganday, yoqut, feruza, marvarid va qimmatli toshlarni tumshuqlarida ushlab turgan.

Klavixo va boshqa elchilar sirti kulrang olmaxon mo'ynasi, ichkarisidan oq mo'yna bilan qoplangan chodirni ham ko'rganlar. U oq atlas va har xil shoyi matolar bilan qoplangan. U ko'p go'zal chodirlarni ko'zdan kechirgan. Jami 40-50 ming atrofida chodirlar tikilgan bo'lib, ular nihoyatda ko'rkamligi bilan havasni keltirgan. Bu haqda Klavixo o'z fikrini yakunlab: chodirlarning hammasi shu darajada san'atkorona ishlanib hashamatli ediki, so'z bilan ifodalash qiyin, ularni faqat ko'z bilan ko'rish lozim, deydi.

Klavixoning saroy malikalarining, xususan, Saroymulkxonimning kiyimlari haqidagi ma'lumoti ham juda qimmatlidir. Uning gapiga ko'ra, Saroymulkxonim zarhal bilan tikilgan, etaklari yerda sudralib turgan uzun va keng, ensiz va yoqasiz qizil shoyi ko'ylak kiygan. Ko'ylakning bel tomoni toraytirilmay, etagigacha kengayib borgan. Bu etak juda keng va uzun bo'lganligi uchun uni

o'n beshta ayol ko'tarib yurgan. U oftobdan saqlanish uchun juda ko'p upa surganligi orqasida yuzi bamisoli oq qog'ozga o'xshab turgan. U ko'plab yirik dur, yoqut, feruza va boshqa xilma-xil qimmatli toshlar qadalgan uzun qizil bosh kiyimida bo'lgan. Zarhal bilan tikilgan va yelkasiga tushib turgan qismiga qimmatli toshlar va tilla bargak qadalgan. Qalpoqning uchidagi tekis joyga tovlanib turgan chiroyli va tiniq yoqut o'rnatilgan. Malikaning tim qora sochlari yelkasiga tushirilgan.

Saroymulkxonimning qizil bosh kiyimi sirg'almasligi uchun ayollar ushlab turganlar. Uni ziyofatga uch yuzga yaqin ayollar kuzatib kelgan. Uning yuziga oftob tushmasligi uchun bir ayol nayzasimon tayoqqa o'rnatilgan soyabonni tutgan. Sohibqironning boshqa xotinlari ham Saroymulkxonim singari kiyingan edilar. Klavixo Sohibqironni o'zining xotinlariga atab ajoyib bog'lar va masjidlar qurganligi haqida alohida aytib o'tgan.

Samarqand va Buxoroda

Klavixo Sohibqironning yurgizgan siyosati va davlat boshqaruviga doir juda oz bo'lsa-da, ayrim ma'lumotlarni kundaligida aks ettirgan. «Samarqand shahrida, - deb yozgan edi u, — adolatga amal qilinadi. Hyech kim shoh ruxsatisiz birovga ozor yetkazish yoki zo'ravonlik qilishga jur'at eta olmaydi. Shoh o'z qarorgohi va xonadoni ishlari bilan shug'ullanuvchi kimsalarni hamisha o'zi bilan olib yuradi. Biror joyga kelganida ular o'sha mamlakat xalqini boshqarish bilan ham shug'ullanadilar. Mamlakat aholisi ularning so'zlariga quloq soladi, farmoyishlarini inobatga oladi... Ulardan qozilar turli kishilar orasida kelib chiqadigan muhim ishlar va mojarolarni hal etish bilan shug'ullanadi. Ularning ba'zilar shohga tegishli shaharlar va yurtlarga noib va boshliq etib tayinlanadilar va yana boshqalari elchilik vazifasini o'taydilar».

Klavixoning mansabdorlarning faoliyatiga tegishli fikrlari ham diqqatga sazovordir. Chunonchi, ular uchta chodir tikib, bu yerda shikoyat bilan kelgan odamlarni tinglab, tegishli qaror chiqargan. Shundan keyin ular Sohibqiron huzuriga borib qilgan ishlari haqida axborot berib turganlar. Agar ko'rilayotgan masalani hujjatlash-tirish lozim topilsa, u vaqtda mirzalar (kotiblar) darhol uni

tayyorlab maslahatchi lavozimidagi xodimga topshirgan. Xodim qog'ozga kumushdan ishlangan muhrni bosgan. Shundan keyin, boshqa xodim qog'ozni olib va tekshirib o'z boshlig'iga uzatgan. Boshliq ham o'z muhrini bosgan. Qog'oz shu tariqa uch-to'rt qo'ldan o'tgach, unga saltanatning «rosti rusti» (kuch adolatda) so'zi yozilgan muhri bosilgan.

«Shunday qilib, - deydi Klavixo, - har bir maslahatchi xodimning o'z mirzasi va o'zining qayd etilgan daftari bor. Muayyan shaxsga taqdim etilgan bunday hujjatdagi shoh muhri va mirzalar muhri bilan har qanday ish shu kuni, shu soatdayoq zudlik bilan bajo keltirilgan».

Klavixoning Samarqand va Buxoro shaharlariga tegishli taassuroti ham juda muhimdir. U Samarqandda oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan go'shtning serobligidan hayratlangan. Ko'y juda ko'p bo'lib, dumbasining o'zini bir odam zo'rg'a ko'targan. Non shu darajada arzon ediki, bundan ham arzon bo'lishi mumkin emas. Guruch esa hammayoqni bosib ketgan. Umuman, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa har xil mollar hayratlanadigan darajada serob va arzon bo'lgan. Mamlakatning boyligi faqat oziq-ovqatning mo'l-ko'lligida bo'lmagan. Bu dargohda hunarmandchilik yuqori darajadarivojlanib, ipak, turli gazlamalar, kiyim-kechaklar, tilla va zangori bo'yoqlar va boshqa mahsulotlar katta hajmda ishlab chiqarilgan. Bulardan tashqari, salkam ming kishidan iborat mohir ustalar harbiy qurol-aslahalarni ishlash bilan shug'ullanganlar.

Samarqand shaxri bog'lar va tokzorlar bilan o'ralib, juda ko'p aholi yashagan. Bu joylarda Sohibqiron saroylari, hashamatli binolar, omborxonalar mavjud bo'lgan. Shahar va bog'larda suv quvurlar orqali o'tgan. Bog'larning oralig'idagi joylarda paxta yetishtirilgan. Qovun juda ko'p va shirin bo'lib, har kuni qovun ortilgan tuyalar shu qadar ko'p kelganki, qanday qilib xarid qilinishiga va iste'mol qilinishiga ajablanmaslik mumkin emas. Qovunlardan qovun qoqi qilinib yanagi yilgacha saqlangan. Bog'lar shu darajada ko'p bo'lganki, shahar bamisoli baland daraxtlarlan iborat o'rmon o'rtasida joylashganday ko'ringan.

Klavixonning Samarqandning obodligiga doir ma'lumotlarini mahalliy manbalar ham to'la tasdiqlaydi. Bu haqda Hofizi Abru

shunday yozgan: «Sohibqiron qurilishlaridan biri Samarqandni oʻzida qurilgan Jomeʼ masjid erur. Uning asosi xoro toshi (granit)dan, mehrobi poʻlatdan; unga gʻaroyib shakllar, ajoyib nafisliklar, latif yozuvlar va nozik sanʼatkorliklar qilingan. Toʻrt ruknida toʻrtta minora Ayyuk yulduzigacha boʻy choʻzilish. Har biri oʻn gaz keladigan toʻrt yuzta marmar ustun uzoq joydan birdaniga olib kelinib, u yerga oʻrnatilgan sahni va tomi hammasi toshdan shunday bir sanʼat bilan terib chiqilganki, oylar va yillar taʼsiridan, naqshlari oʻchib ketishdan, binosi yemirilishdan himoyalangandir.

Boshqa oliy imoratlar jumlasidan shahar atrofida barpo etilgan bir nechta bogʻlardurkim, har bir bogʻda qoʻshiq (qasr)lar qurilgan. Ular: Bogʻi Dilkosho, Bogʻi Chinor, Bogʻi Behisht, Bogʻi Buldo, Bogʻi Amirzoda Shohruh, Bogʻi Zogon, Bogʻi baland, Bogʻi amrzoda Ulugʻbek, Bogʻi maydon. Bularidan tashqari yana (bir qancha) madrasalar, xonakohlar, maʼmuriy binolar, uy-joylar qurilgan... Ilgari Samarqandning barcha binolari loy va yogʻochdan Sinchi edi. Bu davlat chogʻida koʻp imoratlar pishiq gʻishtdan qurilgan... Samarqand atrofida Hazrat Amir Sohobqiron va Ulugʻbekning obodonchilik ishlari tufayli qaysi tomondan yurilmasin, bir oylik yoki ikki oylik (yoʻlda) musofirlar tunda tunashga toʻgʻri kelmaydirgan biror joy qolmagan. Hatto ular ming otliq boʻlsalar ham hammalari uchun toʻrt fasl davomida boshpana va suv tayyor turadi. Samarqand atrofida, uning shaharga tegishli qismi beshta ariq va yetmish beshta ikki qishloq erur».¹³⁵

Butun saltanatda, shu jumladan Samarqand shahrida ichki va tashqi savdo misli koʻrilmagan darajada rivojlanib, Hindiston, Turkiya, Oltin Oʻrda, Rus knazliklari va boshqa mamlakatlar bilan savdo olib borilgan. Sohobqiron birinchi navbatda poytaxt Samarqand shahrini yirik savdo markaziga aylantirishga qaratilgan muhim choralarni amalga oshirgan. U shaharning xarob boʻlib yotgan markaziy koʻchasini buzdirib va obod qilib, ikki tomoniga qator yangi doʻkonlarni qurdirib, savdo rastasini barpo etgan. Har bir doʻkon oldida oq toshlar bilan qoplangan baland kursilar oʻrnatilgan. Doʻkonlarning har biri ikki xonadan iborat boʻlib,

¹³⁵ Oʻsha joyda, 71-72-betlar.

ko'chaning butun usti gumbaz shaklida yopilgan. Bularda yorug'lik tushib turishi uchun darchalar qurilgan. Ko'chaning ayrim joylarida hovuzlar bo'lgan.

Shu ravishda markaziy savdo rastasi qurilib, Oltin O'rda, Rus knazliklaridan charm, qalin gazmol, Xitoydan shoyi gazlamalar, mushk, yoqut, olmos, marvarid, ravoch, ziravor dorilar va boshqa mollar keltirilgan, Klavixo Xitoydan 800 tuyada karvon kelganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

Hindistondan eng yuqori navli xushbo'y ziravorlar, muskat yong'oqlari, qalampirmunchoq, muskat bo'yog'i, dolchin bo'yog'i va boshqa mollar olib kelingan.

Samarqandda bir nechta bozor ishlab, did bilan pishirilgan yaxna parranda va mol go'shtlari, pokiza yopilgan non, sarxil mevalar va umuman, turli oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilingan, bozorlar kechayu- kunduz uzluksiz ishlab, hamma vaqt odamlar bilan to'la bo'lgan. Go'sht do'konlarida qo'y, tovuq, kaklik, tustovuq va boshqa go'sht xillari sotilib, ularni istagan paytda xarid qilish mumkin edi.

Klavixo shaharda ko'chma masjid va hammomni ko'rgan. Yog'ochdan ishlangan masjidga zinapoyadan chiqilgan. Uning atrofi daxliz va ayvon bilan o'ralgan. Zarhal va havo-ranglar bilan bezatilgan masjid zaruriyat tug'ilganla bo'laklarga ajratilgan. Sohibqiron uni safarga chiqqanda o'zi bilan olib yurib, keragida tiklagan va besh vaqt namozni o'qigan. Shunga o'xshash safarda ko'chma hammomdan foydalanilgan. U chodirdan iborat bo'lib, suv maxsus qozonda qaynatilgan. Unda qo'shin ham yuvingan.

Sohibqiron bo'ysundirilgan mamlakatlardan turli millat va hunarga mansub kishilarni shahar va uning atrofiga joylashtirgan. Ularning umumiy soni 150 mingdan oshgan. «Sohibqiron bu tadbir bilan, - deydi Klavixo, — Samarqandning shuhratini oshirishga zo'r berib harakat qilgan». Samarqand shahrining atrofi devor va suvga to'ldirilgan zovur bilan o'ralgan. Klavixo va boshqa elchilar 1404 yil 1 noyabrda Samarqanddan yo'lga chiqib, 27 noyabrda Buxoroga kelganlar. Uning so'ziga ko'ra, Buxoro katta shahar hisoblanib, atrofi devor va zovur bilan mahkamlangan.

Uning bir chetida qal'a qurilgan bo'lib, yonidan suv oqqan. Shaharda baland binolar qad ko'targan. Qishloqlar ko'zga tashlangan. Shaharda g'alla, go'sht va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari mo'l bo'lgan. Elchilar 1404 yil 5 dekabrda Buxorodan chiqib, yo'lni davom ettirganlar.

Aloqa yo'llarida

Sohibqiron mamlakatni rivojlantirishda karvon yo'llarining beqiyos ahamiyatini tushunib, ularning xavfsizligi va obodonligiga alohida ahamiyat bergan. Bu yo'llardan Klavixo bemalol yurib va yaxshi sharoitni ko'rib, shunday degan: Yasovul elchilarga katta iltifot ko'rsatib, hamma yerda bizga taom va boshqa zarur narsalarni berib turdi. Ular bizni har kuni yangi otlar bilan ta'minladilar. Sohibqironning farmoyishiga binoan, Samarqandgacha har kunlik yo'l oxirida bir yuz, boshqasida ikki yuz va hokazo otlar tayyorlab qo'yilgan edi. Sohibqiron biror joyga jo'natgan yoki uning huzuriga kelayotgan kishilar mana shu otlarda kechayu-kunduz tez sur'at bilan yo'l bosishlari lozim edi. Bunday otlar aholi yashaydigan mamlakatdagi manzillarda ham yo'lovchilarni kutib turgan. Kimsasiz joylarda esa musofirxonalar tarzida katta binolar qurilgan bo'lib, yaqin shahar va qishloq aholisi bu binolarni suv va oziq-ovqat bilan ta'minlashlari lozim edi. Otlarni boqish uchun otboqarlar tayinlangan. Sohibqiron elchilari yoki unga xabar yetkazmoqchi bo'lgan boshqa biror kishi yetib kelganda, otboqarlar ular minib kelgan otlarning egarlarini olib, o'z qaramog'idagi boshqa otni egarlaganlar. Otboqarlardan bir-ikki kishi yanagi manzilgacha yo'lovchilarga qo'shilib borgan. Ular yangi manzilga yetgandan keyin orqaga qaytganlar. Mabodo otlardan biri charchab qolsa, yo'lda uchragan har qanday kishining otini olib, yo'lni davom ettirgan. Yo'lda uchragan suvoriy oddiy kishi yoki hokim, savdogar va umuman kim bo'lishidan qat'i nazar, Sohibqiron huzuriga borayotgan kishining talabi bilan otdan tushib, otni unga topshirgan. Agar talabni bajarmasa, o'limga mahkum etilgan. Zaruriyat tug'ilsa, ot qo'shından ham olingan. Hatto shahzoda yoki malikalarning otlarini olishga ham ijozat berilgan. Ba'zi ma'lumotga ko'ra, — deydi Klavixo, — Sohibqiron huzuriga

borayotgan bir kishi uning katta o'g'lini otdan tushishga majbur qilgan. Ko'rsatilgan yo'l tartiblari saltanatga qarashli barcha mamlakatlarda hayotga tatbiq etilgan.

Shu tariqa, Sohibqiron o'z qo'li ostidagi yerlar va chegaralarning hamma burchaklaridan bir necha kun ichida xabar olib turgan. Uning huzuriga kelayotgan, uning nomidan biror joyga yuborilgan kishi uch kunlik yo'lni bir kunda bosib o'tib, uchta otni ishdan chiqarsa, bunday kishi Sohibqironga katta xizmat ko'rsatgan bo'ladi. Yo'ldagi bir masofadan ikkinchi masofagacha ustunlar qo'yilgan.

Shubhasiz, yuqorida sharhlangan yo'llarda karvonlar ham xavf-xatarsiz va bermalol qatnaganlar.

Xulosa: Klavixo o'zining asosiy vazifasini oqilona va bilimdonlik bilan bajarishi barobarida Amir Temur saltanatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir ma'lumotlarni kundaligida yozib qoldirgan. Bu yerda shuni aytish lozimki, Klavixoning ma'lumotlari shu qadar qimmatliki, unga o'xshagani mahalliy va xorijiy manbalarda deyarli uchramaydi. To'g'ri, kundalikda ayrim xato fikrlar mavjud. Biroq ular uning qiymatini tushira olmaydi.

Klavixo jonli guvoh sifatida Amir Temur tomonidan katta jasorat, bilimdonlik va izchillik bilan amalga oshirilgan buyuk o'zgarishlar va taraqqiyotni xolis baholashga harakat qilgan. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur mo'g'ullar hukmronligi davrida qashshoqlashgan va vayronaga aylangan Turkiston zaminiga bamisoli jon kirgizib, taraqqiyot va farovon hayotni ta'minlagan. Zero, dehqonchilik va hunarmandchilik sohalari, ichki va tashqi savdo misli ko'rilmagan darajada yuqori bosqichga ko'tarilgan. Ayniqsa, xaroba holdagi Samarqandning jahonda tengi yo'q yirik, boy, obod va go'zal shaharga aylantirilib, shon-shuhrati olam uzra taralishi katta ahamiyat kasb etdi. Bu yerda va boshqa joylarda kishini hayratlantiradigan sun'iy sug'orish tarmoqlari, hovuzlar, g'oyat hashamatli binolar, ajoyib-g'aroyib bog'lar, bozorlar, ravon yo'llar tarixan qisqa vaqt ichida qurildi. Tashqi va ichki savdo keng ko'lamda rivojlantirildi. Ko'rsatilgan buyuk o'zgarish va qurilishlar shaxsan Amir Temur tashabbusi va boshchiligidagi amalga oshirilgan edi. U o'z davrining mohir me'mori sifatida ham tanilgan hukmdor edi. Chunki barcha katta-kichik qurilishlarning barchasi uning fikrlari inobatga olingan holda amalga oshirilgan.

Amir Temur o'zbek diplomatiyasining kuch-qudratini bilim-donlik bilan namoyish etdi. U tariximizda birinchi bo'lib qator Ovro'po mamlakatlari bilan elchilik aloqalarini o'rnatdi. Bu kamdan-kam uchraydigan hodisa edi.

Klavixoning tan olishicha, Amir Temur saltanatiga qarashli barcha joylarda elchilarga oliy darajada g'amxo'rlik va mehribonlik ko'rsatilib, ularni shig'ovul lavozimidagi kimsa kuzatib yurgan. Elchilarning faoliyati uchun ayniqsa Samarqandda juda katta imkoniyat yaratilib, shaxsan Sohobqiron tomonidan ularning hurmati va izzati o'rniga qo'yilgan. Sohobqiron 7 yillik urushdan keyin Samarqandga kelib, g'alabalar sharafiga ikki oy mobaynida bir necha marotaba to'y va ziyofatlar uyushtirgan edi. Elchilar bularning barchasida qatnashib, Sohobqiron bilan suhbatlashganlar.

Klavixo va boshqa mamlakat elchilari ziyofatlarning birida qatnashganlarida, saroyning yirik amaldorlaridan biri Malik Mirzo ularga kimxob to'nlar, astarti mo'ynalik po'stin kiydirgan. Bu po'stinning yoqasiga ikki savsar mo'ynasi tikilgan. Elchilarning boshlariga telpak berilgan. Malik Mirzo elchilarga besh yuz kumush tanga solingan xaltani topshirgan. Klavixo va boshqa mamlakat elchilari zo'r hurmat va izzat bilan o'z vatanlariga qaytganlar.

Klavixo 1412 yilda Madrid shaxrida vafot etib, ota-bobolar xilxonasiga dafn etilgan.

Amir Temurning «oqlash» harakati yohud Olimning ilmiy jasorati

Ulug' millatchilik g'oyalari bilan sug'orilgan mustamlakachilar Amir Temurni qoralashda hych narsadan toymadi. Bunday tarixni soxtalashtirishga qarshi kurash o'sha mudhish sho'ro davridayoq boshlangan edi. Bu nihoyatda muhim ishga birinchilardan bo'lib taniqli olim I. Mo'minov qo'l urdi. Bunday harakat jamoa ahlini hayratga solgani hamon esimda. Chunki qattiq nazorat va ta'qib hukm surayotgan og'ir sharoitda mustaqillik va ozodlik ramzi — Amir Temurni oqlash haqida oshkora yozish hazil gap bo'lmagan. Buning uchun vatanparvar, millatparvar va jasoratli bo'lish zarur

edi. I. Mo'minov xuddi shunday olim sifatida o'zini ko'rsatdi. I. Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli» kitobi nashr etilganda nihoyatda ezilgan va xo'rlangan o'zbek xalqida g'ururlanish va faxrlanish tuyg'ulari uyg'onib, yelkasiga oftob va ko'kragiga shamol tekkandek bo'ldi.

Bu holat kommunistik partiyaning g'azabini qo'zg'atishi turgan gap edi. Natijada xavf-xatar va mish-mish gaplar zo'rayib bordi. Markazdagilar I. Mo'minov va uning tarafdorlariga qarshi kurashda odatdagidek ayrim mo'rt kishilarni ishga solishdi, ya'ni «sopi o'zidan chiqarildi».

Xo'sh, Amir Temurni «oqlash» va unga qarshi kurash jarayoni qanday kechgan edi?

Aytish lozimki, men O'zR FA Tarix instituti direktorining ilmiy ishlar bo'yicha o'rinbosari va ayni paytda bo'lim rahbari lavozimida ishlardim. I. Mo'minov meni chaqirib, dedi:

— Tarixiy shaxslarni, birinchi navbatda, Amir Temur faoliyatini o'rganish zarurati tug'ilyapti. Bu masala bo'yicha institutda qanday ishlar qilingan?

— Afsuski, hych bir ish olib borilmagan, bilasiz, bunday masalani rejalashtirishning imkoni yo'q, ruxsat berilmaydi.

— Qachongacha Vatani va xalqiga fidokorona xizmat qilgan davlat arboblari qoralanadi, — dedi Ibrohim aka. — Sizga topshiriq shuki, mutaxassislar bilan Amir Temur haqida ilmiy ish yozish borasida gaplashing. Qo'rqmanglar, quvvatlaymiz, yordam beramiz.

Ochig'ini aytganda, Ibrohim akaning bu so'zlari mening uchun g'ayritabiiy bo'lib ko'rinmadi. Chunki u kishi bilan ko'p yillar mobaynida suhbatlarda bo'lib, o'tmish-tarixga mehr-muhabbatini va vatanparvarligini yaxshi bilardim.

O'z davrining taniqli olimlariga Amir Temur haqida gapirganimda cho'chib va qo'rqib: bizlarni millatchilikda ayblashib qoralaydilar-ku, qamalashimiz ham hych gap emas dedilar. Shu tariqa hych kim Amir Temur haqida ish yozishga rozilik bildirmadi.

Men bu haqda Ibrohim akaga aytganimda. U: -nahotki olimlarning orasidan bita ham «xo'roz» chiqmasa bu nihoyatda achinarli-ku degan edi.

Ko'p o'tmay Ibrohim aka Amir Temur faoliyatini shaxsan o'zi yozishga ahd qilgani ma'lum bo'ldi. Bu meni va boshqa olimlarni

hayratlantirdi. Chunki Ibrohim aka partiya g'oyaviy siyosatining bosh rahbari, deputat va davlatning ishonchli kishilaridan bo'la turib, qoralanayotgan Amir Temurni o'rganishga jazm etishi bizga g'alati bir hodisa bo'lib ko'rindi. Hatto, bunga Sharof Rashidovdan ruxsat bo'lganmi yoki yo'qmikin, degan fikrlar oralab qoldi. Menimcha, Ibrohim akaning vatanparvarligi, mardligi va jasorati ustun kelgan edi. U bir necha oy davomida manbalarni qunt bilan o'rganib, umumlashtirib, ishni nihoyasiga yetkazdi. Bu ishga taq-rizlar va uning muhokamasini uyushtirish menga topshirildi. Garchand ish bilan tanishgan olimlarda u yaxshi taassurot qoldirgan bo'lsa-da, taqrizni yozma ravishda olish qiyinchilik bilan bo'ldi. Biroq mard olimlar topildi. Ibrohim aka ishni qayerda va qaysi doirada muhokama qilish haqida fikr so'radi. Men bunga javoban: «FA tarixshunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo'limlarining kengaytirilgan yig'ilishida o'tkazilsa yaxshi bo'lardi», dedim. Ibrohim aka avval bu taklifni ma'qullagan bo'lsa-da, ikki-uch kundan keyin meni chaqirib, O'zbekiston Fanlar akademiyasi prezidiumining kengaytirilgan majlisida muhokamadan o'tkazi-lishini ma'lum qildi.

Nihoyat, 1968 yil 5 may soat o'nda akademiyaning birinchi qavatidagi kichik zalda akademiya prezidiumining kengashi ochildi. Ammo bu yig'inga kelayotgan kishilarning rangi o'chgan, kayfiyati past bo'lib, ko'zlarida xavotirlik va qo'rquv alomatleri yaqqol bilinib turardi. Shu tarzda O.S.Sodiqov ham kirib keldi. Ketma-ket akademiklar: A.Muzaffarov, V.Qobulov, S.N.Rijov, YO.X.To'ra-qulov, M.N.Nabiyev, S.X.Sirojiddinov, M.T.Oybek, YA.G'u-lomov, V.P.Shcheglov; O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zolari: M.Z.Hamidxonov, M.K.Nurmuhamedov, SH.Z.O'razayev, O.E.Eshonov, M.Y.Yo'ldoshev, R.X.Aminova, YU.S.Sultonov; fan doktorlari: H.Ziyoyev, M.M.Xayrullayev, A.A.A'zamxo'jayev, B.V.Lunin, X.SH.Inoyatov, H.S.Sulay-monov, H.T.Zarifov, A.X.Hayitmetov, L.I.Rempel, G.A.Puga-chenkova, E.Fozilov, F.R.Rashidov, O.D.Chexovich, F.Abdullayev; fan nomzodlari: M.O.Oxunova, S.A.Azimjonova, U.Karimov, Q.Munirov, K.K.Komilov, A.T.Muhammadjonov, A.O'.O'rinboyev, S.Mirhosilov va boshqalar kirib kelishdi.

Mana, O.S.Sodiqov ma'yuslik va ehtiyotlik bilan kengashni ochib, ma'ruza uchun so'zni Ibrohim akaga berdi. Bu kishi o'ziga to'la ishongan va mardonavor holda Amir Temur faoliyatini birmabir sharhlab, uni mashhur davlat arbobi, mohir lashkarboshi va taraqqiyparvar shaxs sifatida ta'rifladi. Ma'ruza vaqtada shu darajada jimjitlik hukmron ediki, pashsha uchsa bilinardi.

Muzokarada Ibrohim akaning ishini yoqlab YA.G'ulomov, H.Ziyoyev, O.E.Eshonov, SH.Z.O'razayev, H.S.Sulaymonov, B.V.Lunin, L.I.Rempel, G.A.Pugachenkova, M.Xayrullayev, M.K.Nurmuhamedov P.Mukminova va X.SH.Inoyatovlar so'zga chiqdilar.

Kengash bir og'izdan Ibrohim akaning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli» kitobini chop etish haqida qaror qildi. Shundan keyin qatnashchilarning yuzidagi qo'rquv va xavotirlik alomatlari yanada kuchayib, zal bir zumda bo'shab qoldi. Men Otaboy Eshonov bilan Yahyo akaning xonasiga bir piyola choy ichishga kirdik. Uchalamiz ancha hayajonlangan holda bir-birimizni tabrikladik. Yahyo aka dedi:

— Xo'p zo'r ish bo'ldi, men kengash janjalga aylansa kerak, deb o'ylagan edim. Menimcha, kengash prezidium doirasida o'tkazilishining salobati bosib ketdimi, hyech kim «g'ing» deya olmali. Endi, shuni aytib qo'yayki, ikkalangiz ham «qora xat»ga tushdingiz.

— Yahyo aka, — dedi Otaboy aka, — bugun qurbon bo'lishga arziydigan ish bo'ldi, qo'llaridan kelsa osmonga olib chiqib, tashlab yuborsinlar.

Chamasi, bir soatlardan keyin Ibrohim aka meni o'z huzuriga chaqirdi.

Ma'lumki, qand kasalligi tufayli Ibrohim akaning rangi hamisha o'chganroq ko'rinardi, lekin endi u kishining ranglari qizargan va ko'zlaridan nur yog'ilib turardi, kayfiyati nihoyatda ko'tarinki edi. Gapning ochig'ini aytganda, Ibrohim akani bunday holatda birinchi ko'rishim edi. U darhol o'rnidan turib qo'lini men tomon cho'zib ko'rishgandan keyin katta muvaffaqiyat bilan tabrikladim.

— Hamidulla, mening nomimdan muzokaralarga chiqqanlarga yana bir bor minnatdorlik bildiring, ayniqsa, Yahyo G'ulomovdan xursandligimni ayting.



Akademiq Ibrohim Mo'minov

— Bugungi kengash, — dedim men, — tarixga muhim voqeya sifatida kiradi.

Ibrohim aka dedi:

— Haqiqatan ham ulug' ish bo'ldi, biroq u faqat bizzagina emas, balki kengashda qatnashgan ximiklar, matematiklar, biologlar, huquqshunoslar, sharqshunoslar va boshqa soha vakillari uchun ham qutlug' kun bo'ldi. Ularning kengashda qatnashib, bizning tarafimizda turishi katta madad hisoblanadi. Keyinchalik Tarix institutida «Amir Temur va temuriylar davlati tarixi» bo'limini tashkil

qilib, uni chuqur va atroflicha o'rganamiz.

1968 yilda Ibrohim akaning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixidagi tutgan o'rni va roli» degan kitobi o'zbek va rus tillarida chop etildi. U kishining tashabbusi va bevosita ishtirokida «Amir Temur tuzuklari» va Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari nashr qilindi. Shu tariqa Ibrohim aka tarixni soxtalashtirishga qarshi birinchilardan bo'lib dadil va oshkora bosh ko'targan olim edi.

Amir Temur haqidagi yuqorida ko'rsatilgan ishlarning nashr etilishi butun respublika ziyoli ahlini va umuman jamoani to'liqlantirib yubordi. Ko'chada ketayotganimda duch kelgan tanish-bilishlar tabriklashib, Ibrohim akadan g'oyatda mamnun ekanliklarini izhor qilardilar. Bundan tashqari, menga odamlar ketma-ket telefon qilishib, Ibrohim akaga qoyil qolganliklarini bildirishar, kitobidan topib berishimni iltimos qilishardi. Tez kunda kitoblar sotilib ketdi, ammo unga talab zo'rayib boraverdi. Shu boisdan Ibrohim akadan kitobni qayta nashr etishlikni so'radim, lekin u kishi sabr qilib turishni aytdi. Ko'p o'tmay, bir guruh kishilar, xususan, M.Vahobov, M.Abduraimov, R.Nabiyev va boshqalar Ibrohim akani Amir Temurni ideallashtirishda qoraladi.

M.Vahobov partiya faollari yig'ilishlarida va boshqa joylarda Ibrohim akani qattiq tanqid qilaverdi. Mening yoki Yahyo akaning xonasida Ibrohim akaga qarshi qilinayotgan hujumni qay tarzda bartaraf qilishi haqida fikr yuritilardi. Bunda O.Eshonov, M.K.Nurmuhamedov va boshqa kishilar ham qatnashardi. Yahyo aka menga Ibrohim akaning kitobiga taqriz yozishni taklif qildi. Ibrohim aka esa dedi:

— Hozir Amir Temur haqidagi kitobdan faqat O'zbekistondagina emas, balki Moskva va boshqa jumhuriyatlarda ham qattiq norozi kishilar bor. Ayniqsa, Moskvadaga bir guruh olimlar to'polon qilishyapti. Bu ish alanga oladiganga o'xshaydi, tag'in siz jabrlanib qolmang.

— Ibrohim aka, kemaga tushganning joni bir, birgalikda kurashamiz.

Bu gapimni Yahyo aka to'la quvvatladi. Shu bilan suhbat tugadi. Bir haftadan keyin «Sovet O'zbekistoni» gazetasining muharriri M.Qoriyevga taqrizni topshirganimda bir-ikki kundan keyin qo'ng'iroq qilishini aytdi. Qo'ng'iroq qilib, ijobiy javob oldim va bir necha kundan keyin taqriz ancha qisqartirilgan va siliqlashtirilgan holda «Ilmiy risola» nomida «Sovet O'zbekistoni» gazetasida (1969 yil 4 yanvar) chop etildi. Bunda kitobda qo'yilgan masalalar va fikrlar to'la qo'llab-quvvatlandi.

Darhaqiqat, Ibrohim aka aytganlaridek, kitobga qarshi harakatlar avjiga minib bordi. O'zbekiston partiya Markaziy komiteti kotibiyatning qarori bilan «Zafarnoma» va «Temur tuzuklari» hibsga olindi. Moskvada KPSS Markaziy Komiteti fan bo'limining tashabbusi bilan respublikalar tarixchilarining yig'ilishi o'tkazildi. Bu yig'ilishda Tarix instituti direktori M.Oxunova ham qatnashgan edi. U Toshkentga qaytganidan keyin menga dedi: «Yig'ilishda akademik B.G'afurov O'zbekistonda odamlarning boshidan minora yasagan zolim Amir Temur ko'klarga ko'tarilib, Vatan qahramoniga aylantirildi. Shuningdek, u Sharof Rashidovga telefon orqali bundan o'zining qattiq noroziligini bildirganini ma'lum qilibdi. Zalda o'tirganlar orasida g'ala-g'ovur boshlanib qattiq «choralar ko'rish» haqida luqmalar tashlanibdi. Bilasizki, Ibrohim Mo'minovichning salomatligi yaxshi emas, men bor gapni aytsam,

og'irlashib qolishlari mumkin. Shuning uchun siz yotig'i bilan tushuntirsangiz, yaxshi bo'lardi».

Men bunga rozi bo'lib, Ibrohim akaga umumiy tarzda ma'lum qilganimda, «xabarim bor, lekin ayting, Melixon oldimga kelsin».

Meli Oxunova u kishining huzurida bo'lganidan keyin meni chaqirdi. Kirsam, uning ko'zi yoshlangan va hayajonlangan holda o'tiribdi.

— Ishqilib oxiri, - dedi Meli Oxunova, — yaxshilik bilan tugasin-da. Ibrohim aka menga yig'ilishda ikki og'iz gapirganingizda juda o'rinli bo'lardi, deb xafa bo'ldi. Axir, o'zingiz o'ylang, men sovet davri bo'yicha mutaxassis bo'la turib, qanaqasiga Amir Temur masalasi bo'yicha so'zga chiqishim mumkin edi.

— Gapingiz to'g'ri, lekin institut rahbari sifatida umumiy tarzda so'zga chiqsangiz yomon bo'lmasdi.

— Kim biladi deysiz, xayolda yo'q narsani, to'satdan gapirshgandan keyin o'zimni yo'qotib qo'ydim, shekilli.

Xullas, borgan sari Ibrohim akaga hujum zo'rayib bordi. Chunonchi, A.P.Novosel'sevning «Voprosi istorii» jurnalida (Moskva, 1973, № 2), «Literaturnaya gazeta»da va M.Abduraimovning «Istoriya SSSR» jurnalida (Moskva, 1973, № 5) Ibrohim akaning kitobiga qarshi maqolalar chop etildi. Ularda Ibrohim akani Amir Temurni ideallashtirishda ayblashib, qattiq qoralashdi. Vaholanki, marhum M.Abduraimov bir vaqtlar o'zining «Temur va To'xtamish» nomidagi nomzodlik dissertatsiyasi va keyinroq e'lon qilingan bir maqolasida Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida ijobiy rol o'ynaganini ko'rsatib o'tgan edi. Ammo o'zining bu fikrini jurnal tahririyatidan yashirgan holda Ibrohim akani qattiq tanqid o'qiga tutdi.

Men darhol unga qarshi maqola yozib, Yahyo akaga va Ibrohim akaga ko'rsatdim. Ular maqolani ma'qullashdi. Taxminan ikki-uch kunlar o'tganidan keyin Ibrohim aka meni chaqirib maqolani Sharof Rashidovning ruxsatisiz yubormaslikni tayinladi. Ko'p o'tmay, meni Sharof Rashidov qabul qildi. Bu kishiga ham maqola ma'qul tushib, dedi:

— Ko'rib turibmizki, Amir Temur masalasi bo'yicha ko'tarilgan norozilik avjiga chiqdi. Ayting-chi, siz o'z fikringizda oxirigacha qattiq turasizmi?

— Sharof Rashidovich, har qanday sharoitda o'z so'zimdagi turganman, bundan keyin ham shunday bo'lishiga Sizni ishonтираман.

— Yaxshi, hoziroq bu maqolani «Istoriya SSSR» jurnaliga yuboring.

— Bordiyu, maqolani akademiyamiz jurnalida yoki birorta gazetada ham chop ettirsak, qalay bo'larkin?

— Bunday qilish, — dedi Sharof Rashidov, — olovga kerosin quyishi bilan tengdir. Menimcha, Moskvada o'sha jurnalda chiqqani har jihatdan yaxshidir.

Men Sharof Rashidov bilan suhbatlashganimdan keyin angladimki, Ibrohim aka uning roziligi bilan ish yuritgan. O'sha davrdagi uning holatida, ya'ni qarindoshchilik va mansab yuzasidan, o'zboshimchalik bilan Amir Temurni o'rganishga kirishishi mumkin emas edi, albatta. Buni Sohibqironga bag'ishlangan kitobning zudlik bilan chop etilishi ham isbotlaydi. Men maqolamni Moskvaga 1974 yil may oyida yuborgan edim, javobini o'sha yilning sentabrida oldim. Bu vaqtda Ibrohim aka olamdan o'tgan edi.

Bu xususda jurnal muharririning o'rinbosari Krasilnikov imzo chekkan o'sha javob xatida shunday deyilgan: «Abduraimov o'zining Amir Temur haqidagi ijobiy fikrlaridan qaytganligini hyech qachon oshkora ma'lum qilgan emas. Shu bois, u bu masalaga bag'ishlangan adabiyotlarga tanqidiy baho berishga ma'naviy jihatdan haqqi yo'q edi, deb o'ylaymiz. Buni yana shu narsa tasdiqlaydiki, u «XV—XVI asrlarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy tafakkurning rivojlanish tarixidan» nomli to'plamdagi, asosan, Amir Temurga bag'ishlangan maqolasini tilga olmay, jurnalga Ibrohim Mo'minovning ishini tanqid qilib maqola yuborgan». Umuman, jurnal tahririyati Ibrohim Mo'minovning kitobidagi Amir Temur buyuk davlat arbobi va mohir lashkarboshi, fan va madaniyat homiysi hamda qudratli shaxs sifatida gavalantirilganini qattiq qoralab, maqolamni bosishdan bosh tortdi. Shunga qaramay, men ikkinchi marotaba uni chop etishni so'rab, tahririyatga murojaat qildim. Biroq bu gal ham maqolamni chiqarolmasliklarini ma'lum qilishdi. Shaxsan mening o'zim M. Abduraimov bilan yaqin munosabatda bo'lganman. U tarixga doir ko'plab ilmiy asarlarning muallifidir. Shuningdek, u Amir Temur faoliyati haqida yaxshi

fikrlarni yozgan. O‘zaro suhbatlarda ham Sohibqironning xizmatlarini tan olardi.

M.Abduraimovning nima uchun to‘satdan «to‘nini teskari» kiyganining sababi tom ma’nodagi ilmiy bahs emas, balki ko‘proq ayrim kishilarning aybi bilan yuzaga kelgan shaxsiy adovatlarning mahsuli bo‘lgan edi. Bundan tashqari, o‘sha davrdagi sho‘ro tuzumi suvni loyqalatib turishdan o‘ta manfaatdor edi.

Xullas Ibrohim akaga qarshi olib borilgan kurash va tuhmatlar uning sog‘lig‘ini og‘irlashtirdi. Hatto uni qamalarmish degan ovozarlar tarqaldi. U meni 1974 yil iyun oyida chaqirib bir jildlik «O‘zbekiston tarixi»ga, Buxoro va Xorazm shaharlar tarixiga bag‘ishlangan ishlar bilan tanishganligini, qtzini to‘yidan keyin davolanishga yotishini aytgan edi. U stansanarga yotganida bu yerda davolanayotgan Yahyo G‘ulomov telefon qoqib darhol borishimni so‘radi. Kelganimda u shunday dedi: Hamidulla! Kecha Ibrohim Mo‘minov vrachlarni chaqirib: Men bu yerga o‘z oyog‘im bilan yurib keldim, lekin sizlar meni yuraolmaydigan qilib qo‘ydinglar-ku, ahvolim og‘irlashyapdi-ku deb da‘vogar bo‘libdi. Vrachlardan biri Ibrohim akani noto‘g‘ri davolayotganini aytgan ekan. Ko‘p o‘tmay Ibrohim aka sirli ravishda dunyodan ko‘z yumdi.

Fursatdan foydalanib, Ibrohim akaning faoliyati va fazilatlariga diqqatni jalb etmoqchiman. Chunki ular boshqalar uchun ham nihoyatda ibratlidir.

Ibrohim aka hyech vaqt ayrim rahbarlarga o‘xshab, kishining nuqsonini va ishidagi kamchiligani ro‘kach qilib, u yoki bu muallifni ko‘pchilikning huzurida dilini siyoh qilmas edi. Bordiyu kamchilik va xatolarini ko‘rsatish lozim bo‘lsa, muallif va institut rahbarini huzuriga chaqirib tanqid qilardi. Umuman olganda, Ibrohim aka u yoki bu ilmiy ishning kamchiligidan foydalanib, shovqin-suron va janjal ko‘tarishga yo‘l qo‘ymagan. U menga shunday degan edi: «O‘zingizning farzandingizni qanday ehtiyot qilsangiz, ilmiy ishlar qaysi darajada yozilishidan qatyi nazar, shunchalik ehtiyot qiling. Uning sifatini yaxshilashga xolis va o‘rtoqlarcha yondashing, ishning ilmiy kengash majlisigacha kamchiliklarini tuzatish lozimligini unutmang. Shunday qilinsa, odamlar o‘rtasida ahilchilik saqlanadi».

Ibrohim aka bilan 1955—1956 yillarda, ya'ni Tarix institutining direktori lavozimida ishlaganlarida yaqindan tanishganman. Men u vaqtlarda institutning «Yangi tarix» bo'limida katta ilmiy xodim sifatida ishlar edim. Gapning ochig'ini aytganda, mutaxassisligi faylasuf bo'lgan kishining Tarix institutiga boshliq qilib tayinlanishi bizlarni taajjublantirgan edi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu fikrning qanchalik asossizligiga shunchalik ko'p ishonдик. Ibrohim aka o'zining sofdilligi, ishbilarmonligi va kamtarligi bilan namoyon bo'ldi. U ayrim direktorlarga o'xshab vaqtlarini ko'proq bekorchilik bilan o'tkazadigan va turli yo'llar bilan kattalarning biqiniga suqilib kiradigan «sodiq» kishilarga emas, balki halol va mehnatsevar xodimlarga tayanib ish yuritardi. Natijada ancha o'pirilgan Tarix institutida muhim o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Ammo ko'p o'tmay, Ibrohim aka O'zbekiston Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti vazifasiga saylandi. Shundan keyin ham u odatda bo'lganidek, Tarix institutiga umumiy rahbargina emas, aksincha, shu institutning haqiqiy jonkuyari edi.

U kishida faqat olimlik emas, balki vatanparvarlik, tashkilotchilik, ishbilarmonlik va bag'rikenglik singari oliy fazilatlar mavjud edi. Ayni bir paytda Ibrohim aka o'ta kamtarligi va muruvvatligi bilan ajralib turardi.

Ibrohim aka o'zi egallab turgan lavozimning nihoyatda muhimligi va mas'uliyatligini yaxshi anglab, ijtimoiy fanning barcha sohalarini rivojlantirish uchun tinimsiz harakat qildi. U mening mutaxassisligim faylasuflik deb, o'zini chetga olmay, tarix, falsafa, adabiyot, tilshunoslik va sharqshunoslik fanlariga doir ilmiy ishlarni tayyorlash va nashr etishga alohida ahamiyat berardi, u yoki bu ish bo'yicha fikr-mulohazalarini bildirardi.

Xullas, Ibrohim akaning xonasi buyruqbozlik, do'q-po'pisa, mayda-chuyda gaplar va umuman rasmiyatchilik hamda yuzakichilik makoniga emas, balki tom ma'nodagi ilmiy ijodxonaga aylangan edi. Bu yerda institut rahbarlaridan tashqari, ko'plab bo'lim mudirlari, ilmiy xodimlar, doktorantlar, aspirantlar va oddiy kishilar bo'lishib. ijodlariga baraka va dardlariga malham topganlar. U kishining qabulxonasidan odam arimas edi. Bular bejiz bo'lmagan, albatta. U ko'plab fan doktorlari va nomzodlarini yetishtirishga ulkan hissa qo'shdi.

Ma'lumki, Ibrohim aka o'zbek xalqining boy madaniy merosini

juda qadrllovchi shaxs sifatida dong chiqargan edi. Beruniy, Ibn Sino, Forobiy va boshqa buyuk olimlarning asarlarini chop etishda va yubileylarini o'tkazishdagi ilmiy va tashkiliy ishlari hyech qachon unutilmaydi. Uning bevosita ko'rsatmasi bilan Tarix institutida «O'zbekiston madaniyati tarixi» bo'limi ochildi. Bu bo'lim zimmasiga o'tmish va hozirgi zamon madaniyatiga oid barcha sohalarni o'rganish va ommalashtirish vazifasi yuklatildi. Ammo Ibrohim aka vafotidan keyin bu ish susayib ketdi. Ibrohim aka qadimiy va hozirgi zamon shaharlar tarixini o'rganish uchun institutda «Shaharlar tarixi» bo'limini tashkil qildi. Bu bo'lim Ibrohim akaning mas'ul muharrirligida ikki jildli «Samarqand tarixi», «Buxoro tarixi» va «Xorazm tarixi» singari kitoblarni chop etdi. So'ngra Toshkent, Andijon, Qo'qon va boshqa shaharlar tarixiga doir asarlar yaratildi.

Ibrohim aka tufayli Tarix institutida «Ishchilar sinfi tarixi», «Ikkinchi jahon urushi tarixi», «Sug'orish tarixi» va «Tarixshunoslik» bo'limlari yuzaga kelib, ko'plab ilmiy ishlar qilindi.

I. Mo'minovning tashabbusi bilan 1969 yilda Samarqandda Temur va Temuriylar davridagi markaziy Osiyo San'ati bo'yicha xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi. U Yuneskonning bu ilmiy anjuman haqidagi qarorini amalga oshirish ishiga boshchilik qilgandi. Anjuman vositasida ham Amir Temurni «oqlash» nazarda tutilgandi.

Umumiy xulosa shuki, Ibrohim akaning Amir Temur haqidagi kitobiga qarshi hujumlar va uni bartaraf qilish harakati 1969 yildan to 1974 yilgacha, ya'ni u kishining vafotigacha davom etdi. Bu mashaqqatli yillarda Ibrohim aka ustidan Markazga ko'plab imzoli va imzosiz xatlar yuborildi. Hatto ular orasida 50 yil avvalgi Ibrohim akani «bo'lg'alachga» qaratilgan tuhmat so'zlar ham mavjud edi. Ayniqsa, adolatsizlik va tuhmatlar ruhida yozilgan xatlar Ibrohim akaning sog'lig'ini yomonlashtira bordi.

Ibrohim Mo'minov umrining oxirigacha o'z Vatani va millati ravnaqi uchun kuchini va bilimini ayamadi. U vatanparvarligi va ilm-fanning chinakam fidoyisi sifatida shuhrat qozonib, xalqimizning milliy his-tuyg'ulari va siyosiy ongining o'sishiga katta hissa qo'shdi. Shubhasiz, uning ko'rsatgan jasorati va matonati hyech qachon unutilmaydi.

TEMURIYLAR DAVLATINING AG'DARILISHI VA FOJIASI



Shayboniylar bosqini

Muhammad Shayboniyxon nasl-nasabi jihatidan Chingizxonning o'g'li Jo'ji sulolasiga borib taqaladi. Jo'jining farzandi Botu XIII asrning 30 yillarida Volga bo'yida Oltin O'rda davlatiga asos soldi. Buning chegaralari Rus knazliklaridan o'tib, janubda Qrim, dengiz bo'yi shaharlari va Darbandgacha borib taqalgan. Unga Kavkaz va ba'zida Boku, Shimoliy Xorazm, Urganch shahri qaragan. G'arbda Dneprdan boshlangan dashtliklarni, Sharqda Sibir va Sirdaryo etaklarini qamrab olgan. Oltin O'rdaga Rus knazliklari ham tobe edi.

Bu vaqtlarda Turkistonda Chingizxon o'g'li Chig'atoyning vorislari egalik qilmoqda edi. 1256-1258 yillarda Chingizxonning nabirasi Hulogu Eronni egallaydi. Shu tariqa Jo'ji, Chig'atoy va Hulogu boshchiligidagi mo'g'ullarning uchta sulolasi juda katta yerlarda hukmronlik qildilar. Turkiston mintaqasi uzoq yillar mobaynida mazkur sulolalarning kurash maydoniga aylandi. Uning bosib olinishi esa, dastavval, Botu davrida boshlandi. U Movarounnahrni jang bilan qo'lga kiritdi. Biroq XIII asrning 60 yillarida Chig'atoyning nabirasi Olg'uxon taxtni egallab, sulolaning mustaqilligini tikladi.

1273 yilda Eron hukmdori Hulogu Shahrisabz va Qarshi, so'ngra Buxoroga qo'shin yuborib odamlarni qirish va boyliklarini talashga mukkasidan tushib, uni vayronaga aylantirdi. Bu Chingizxonning Buxoroga vahshiyona hujumidan keyin qilingan ikkinchi dahshatli qirg'ini edi. Huloguning qo'shini Buxoroni yakson qilib, boyliklarini olgandan so'ng Eronga qaytgan.

1387 yilda Oltin O'rda xoni To'xtamishxon (1376—1391) Sirdaryoning quyi oqimiga bostirib kirib, Movarounnahrni egallashni rejalashtirdi. U bundan keyin ham hujumni davom ettirdi.

Shu bois, Amir Temur 1389, 1391 va 1394-1395 yillarda Oltin O'rdaga, ya'ni mo'g'ullarga qarshi harbiy yurishlar qilib, uni bo'ysundirdi. Oltin O'rda Ko'k va Oq O'rda deb nomlangan ikki qismni o'z ichiga olgan edi. Ular Jo'ji sulolasi sultonlari o'rtasida taqsimlangan bo'lib, yakka hokimlik uchun kurashlar uzoq davom etgan. Bundan tashqari, har bir O'rdaning ichida taxtni egallash uchun kurashlar olib borilgan. Pirovardida Jo'jining o'g'li, Shayboniyxonning avlodi — Abulxayrxon (1428-1468) Oq O'rdada ancha kuchli davlat tuzishga erishdi. Uning chegarasi shimolda Tura (G'arbiy Sibir)ga, janubda Orol dengizi va Sirdaryo etaklariga, g'arbda Yoyiq (Ural) daryosiga borib taqalgan. U Volganing o'ng qirg'og'idan to Darbandgacha yoyilgan yerlarni ham qamrab olgan. Shu tariqa Shayboniylar davlati yuzaga kelgan edi.

Abulxayrxon 1441 yilda Xorazmga hujum qilib, xalq boshiga ko'p azob-uqubatlar yog'dirgani ma'lum. «Tarixi Abulxayrxoniy» asarida yozilishicha, xorazmliklar jang qilishga ahd qilganlar, biroq bir guruh ruhoniylar bunday qilishning foydasi yo'q, deb hisoblab, dushmanga shahar darvozasini ochib berganlar. Abulxayrxon askarlari shahardagi qimmatli boyliklarni ko'targanlaricha olganlar.¹³⁶ U Xorazmda vabo kasalligi boshlanganligi uchun o'z yurtiga qaytgan. 1446 yilda esa Abulxayrxon Sirdaryoning ikki qirg'og'idagi Oqqo'rg'on, Arkuk, O'zgand, Sig'noq va Suzoq shaharlarini temuriylardan tortib oladi. Uning bosqinchilik urushlari, ayniqsa, Shohrux (1409-1447) vafotidan keyin kuchayib,

¹³⁶ Tarixi Abulxayrxoniy. O'zbskiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar jamg'armasi. Raqami 5392, 319-320 varaqlar; Qarang: Materialy po istorii kazaxskix xanstv v XV-XVIII vv., Alma-Ata, 1969, S. 169.

Samarqand va Buxoro atrofidagi qishloqlarni xarobaga aylantiradi. Ko'p boyliklarni o'ljaga oladi.

Shunday qilib, mo'g'ullar temuriylarning qo'l ostidagi shaharlarga vahshiylarcha hujum qilib turdi. Bu holat temuriylardan bosqinchilarga qarshi bir yoqadan bosh chiqarib kurashish va mamlakat mustaqilligini saqlab qolishni taqozo qilardi. Biroq ular buning o'rniga taxt talashib, o'zaro urushlarni avj oldirishdi. Bu ham kamlik qilganidek, ular Abulxayrxondan harbiy yordam so'rab, bosh egardilar, uning «nihoyatsiz inoyat va rioyatlaridan to'liq lazzat va nasiba olib, bahramand bo'lardilar. Shular jumlasidan, buyuk Amir Temur Ko'ragonning ulug' avlodlaridan Sulton Abusaid mirzo, uning akasi Minuchehr mirzo, Muhammad Jo'qiy mirzo va Sulton Husayn mirzolar xonning xizmatiga kelib, davlat kabi uning uzangisiga mulozim bo'ldilar, himoyat qo'llari bilan uning ehtiromli etaklarini tutamlab, madad va himoyalari barakotidan o'z orzularining nihoyasiga yetdilar va taxtu davlat avjida hamda saltanat tojining tepasida qaror topib, orom oldilar».¹³⁷

Darhaqiqat, 1450 yilda Abusaid (1451—1469) Abulxayrxonning harbiy kuchlari ishtirokida Samarqand taxtini egalladi, bu yordam evaziga Samarqandda Abulxayrxon nomiga xutba o'qittirdi va tanga zarb ettirdi. Bunday qilish Abulxayrxonga qaramlikni tan olish edi. Bu bilan Abusaid temuriylar davlatining nufuzi va sha'niga katta dog' tushirgandi. Endilikda Oq O'rda hukmdorlarining temuriylar davlatining kuch-qudrati haqidagi tasavvuri o'zgarib, uni bosib olishga ishonchi kuchaydi. Buni, ayniqsa, Abulxayrxonning nabirasi Muhammad Shayboniyxon (1488–1510) yaxshi angladi. U, dastavval, Buxoroda mavlono Muhammad Jaloliddin va Mansur singari shayxlarga murid bo'lib ta'lim olgan. Movarounnahrning boshqa joylarida ham bo'lib, temuriylar davlatining kuch-qudrati zaiflashib, halokat yoqasiga kelib qolganini o'z ko'zi bilan ko'rgan. Muhammad Shayboniyxon Oq O'rdaga qaytib, raqiblarini yengib, taxtni egallagach, ancha kuchli qo'shin bilan temuriylarning qo'l ostidagi yerlariga bostirib kirdi. U Turkiston, Sayram va boshqa joylarni egallab, goh g'alabaga, goh

¹³⁷ Hofiz Tanish al-Buxoriy. Abdullanoma. Tarjimon Sodiq Mirzayev. Birinchi kitob. T., 1999, 54-bet.

mag'lubiyatga uchradi. Shahrisabz va Qarshiga hujum qilib, boyliklarini taladi. So'ng Samarqandni qamal qildi. Lekin Buxorodan temuriylarning harbiy kuchi kelayotganligidan xabar topib, ularga qarshi otlandi. Dabusiya bo'lgan jangda Muhammad Shayboniyxon ustun kelib, 1500 yilda Buxoroni urushsiz egalladi.¹³⁸ Shundan keyin u Samarqand tomon ketayotganida Buxoroda unga qarshi harakat boshlanganligi haqida xabar oladi. Darhol orqaga qaytib, Buxoroga yaqinlashganda temuriylar u bilan to'qnashishdan cho'chib, qochadilar. Muhammad Shayboniyxon shaharga urushsiz kirib, aholini qiradi, asir oladi, mol-mulkini esa askarlariga talattiradi. Shahardagi harbiy istehkomlarni buzdirib tovon soladi.

1500 yilda u Samarqandni ham jangsiz egallaydi va bu yerda 600 kishilik harbiy qismni qoldirib, o'zi shahardan tashqarida, uzoqroq joyga o'rinishadi. Shu orada shaharning nufuzli kishilaridan Abulmakorim Samarqand taxtini egallashni so'rab, Andijonga Boburga xat jo'natadi. Shunga binoan, shaharga yetib kelgan Boburni aholi xursandchilik bilan qarshi oladi. Muhammad Shayboniyxon qoldirgan 600 kishilik harbiy qism va uning tarafdorlari o'ldiriladi. Garchand shahar bosqinchilardan ozod qilingan bo'lsa-da, ocharchilik va qahatchilik boshlanib, hayot juda yomonlashadi. «Elga, — deb yozgan edi Bobur, — bisyor tanqislik bo'ldi. Anga yettikim, faqir va miskin it etini, eshak etini yiya kirishtilar. Otqa bo'guz kam yoft bo'ldi. Daraxtlarning barglarini otga berurlar edi. Anda tajriba bo'ldikim, bori yafroqlardan tut yafrog'i va qora yog'och yafrog'i otga sazovorroq emish. Ba'zi quruq yig'ochlarni randa qilib, taroshasini suvga ibitib otg'a berurlar edi».¹³⁹ Bobur oziq-ovqat bilan ta'minlashning iloji yo'qligidan Farg'ona askarlariga vodiya qaytishlariga ruxsat berdi. Muhammad Shayboniyxon 1501 yilda Boburning og'ir ahvolini bilib, Samarqand tomon harbiy yurish qildi. Zarafshon atrofidagi Saripulda ikki o'rtada bo'lib o'tgan jangda Bobur mag'lubiyatga uchradi. U shaharga qaytib, jangni davom ettirdi. Muhammad Shayboniyxon Samarqandni qamal qilib, so'ng jangsiz egalladi. Bobur kichik harbiy qism bilan yashirincha Toshkentga jo'nadi.

¹³⁸ Tavorixi guzida — Nusratnoma. Tuzuvchi A.M.Akramov. T., 1967, 121-bet.

¹³⁹ Boburnoma. T., 2002, 85-bet.

Shahar aholisining talay qismi turli joylarga qochdi. Boburning tarafdorlari, jumladan, Xoja Abulmakorim o'ldirildi.

1503 yilda Muhammad Shayboniyxon Andijonni ham bosib oldi. Bu vaqtda Xorazm va Xurosonni egallab turgan temuriylarning taniqli vakili Husayn Boyqaro kechikib bo'lsa-da, o'g'li Badiuzzamonga dushmanga qarshi kurashishni buyurdi. Unga Hisor, Xatlon, Ko'lob, Qunduz va Badaxshon hokimlari qo'shiladigan bo'ldilar. Shundan keyin Badiuzzamon 20 ming kishilik qo'shin bilan Termizga keldi. Ammo otasi Husayn Boyqaro va Hisor hokimi Xusravshoh va'da qilgan qo'shimcha harbiy kuchlarni yubormadilar. Badiuzzamon bosqinchilar bilan to'qnashishdan cho'chib, orqaga — Balxga qaytdi.

Shundan keyin Muhammad Shayboniyxon Andijon, Qorako'l, Shohruxiya, O'ratepa, Konibodom, Qo'qon va boshqa joylarni bosib oldi. 1505 yilda, o'n oylik qamaldan keyin, u Xorazmni ham egalladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Urganch aholisi unga qarshi qahramonlarcha jang qilgan. Hatto ayollar ham jasorat va mardlik namunalarini namoyish etganlar. Zero, «Muhammad Shayboniyxon son-sanoqsiz sipoh bilan Xorazm ustiga yurib, uning qal'asini qamal qilgan zamonda, bir kuni jang chog'ida Hamza sultonning yaqin mulozimlaridan bo'lgan Biyroq bahodir (dushman tomonidan) bir kishi bilan muqobil kelib qoladi. Bu kishi qon to'kish va fitna qo'zg'atishda g'oyatda chaqqon va epchil bo'lgan. Misra: (Turklar kabi go'zal yuzlilarning ikki ko'zi qo'rqmasdir). (Biyroq bahodir) ko'p urushib-talashib nayzabozlik qilib, iqtidorlik jangida (dushmanga) hisobsiz zarbalar berib, (ulardan) birini qo'lga tushirgandan so'ng ma'lum bo'ldiki, (u) er kishi emas, xotin kishi ekan. (Biyroq) bahodir benihoyat ajablanib, uni o'z sultonining (Hamza sultonning) huzuriga olib keldi (va sultonga) uning pahlavonlik qissasini va qahramonlik hikoyasini birma-bir so'zlab berdi. Hamza sulton (uni) g'oyat shijoatli va jasoratli bo'lganidan (o'zining) himoyasi tasarrufiga olib (va) juda sevib qolib nikohiga oldi».¹⁴⁰

1506 yili Husayn Boyqaro vafot etgach, uning o'g'illari Badiuzzamon va Muzaffar hamkorlikda davlatni boshqara boshladilar. Ular

¹⁴⁰ Hofiz Tanish al-Buxoriy. O'sha asar, Birinchi kitob, 53-bet.

1506 yilning kuzida Balxni qamal qilgan Muhammad Shayboniyxonga qarshi otlandilar. Kobuldan kelgan Bobur ham askarlari bilan ularga qo'shildi. Shu orada Muhammad Shayboniyxon ochlikdan toliqqan Balxni yer bilan yakson qildi, biroq Badiuzzamon boshliq qo'shin bilan to'qnashishdan cho'chib, Movarounnahrğa ketdi. Badiuzzamon bu qulay fursatdan foydalanib, uning orqasidan quvganida, g'alaba qilishi ehtimoldan xoli emas edi. Chunki Muhammad Shayboniyxonning chekingani uning zaifligi belgisi edi. Ammo Badiuzzamon qulay fursatni boy berdi. Uning qo'l ostidagi harbiy qismlari tarqalib ketdi.

1507 yil 7 mayda Muhammad Shayboniyxon qo'shini to'satdan Hirotga hujum qilib, uni egalladi. Badiuzzamon Kandahorga, Muzaffar Astrobodga qochishdi. Amirlar va qo'shin turli tomonga tarqalib ketdilar. Jami urushda 200000 kishi o'ldirildi! Shaharning din peshvolari va boshqa nufuzli kishilar Muhammad Shayboniyxon huzuriga katta sovg'a-salomlar bilan kelishib, taslim bo'lganliklarini ma'lum qildilar. Xazina bosqinchilar qo'liga o'tdi. Aholidan 100 ming dinor tovon olindi. Jome masjidida Muhammad Shayboniyxon nomiga xutba o'qilib, hukmdorligi tan olindi, U Xurosonning g'arbiy qismidagi Astrobod, Gurgon va boshqa joylarni ham bosib oldi. Badiuzzamon Istanbulga qochib, o'sha yerda o'ldi, Muzaffar ham ko'p o'tmay vafot etdi. Hofiz Tanish Buxoriy yozishicha, 1509 yilda Bobur eronlik Ismoilshohning harbiy yordamiga tayanib, shayboniylar bosib olgan Hisorga hujum qildi. Bu yerda Muhammad Shayboniyxonning o'g'li Hamza sulton hokim edi. «Puli Sangin (ko'prigi)ning tepasida, - deydi o'sha muallif, - ...(bu) ikki firqa bir-birlari bilan muqobil bo'ldilar. Bobur podshoh u mardona firqa ustidan g'alaba qilib... Hisor mamlakatini bosib olib, (o'zining) muborakbod ovozasini ko'k gumbaziga otdi».¹⁴¹ Muhammad Shayboniyxon Kermonga bostirib kirgach, uning Eron hukmdori Ismoilshoh bilan to'qnashishi aniq bo'lib qoldi. 1510 yilda Marvda har ikki tomon o'rtasida dahshatli jang bo'lib, Muhammad Shayboniyxon va uning lashkarboshilari o'ldirildi, askarlari ham halok etildi. Ismoilshohning

¹⁴¹ Bu jangda Bobur Hisor hokimi, Muhammad Shayboniyxonning o'g'li Hamza sulton va uning safdoshlarini asir olib, so'ng ozod etgan.

ko'rsatmasi bo'yicha Muhammad Shayboniynonning bosh chanog'i oltin bilan sirlanib, ziyofatlarda sharob ichiladigan idishga aylantirildi. Boshining terisi shilinib va ichiga somon tiqilib, Turkiya sultoniga jo'natildi. Bundan maqsad shialarning sunniylar ustidan g'alabasini namoyish etish edi. Muhammad Shayboniynonning o'ldirilishi Boburni yangi kurashga otlantirdi. U 1512 yilda Samarqandni egalladi. Uning qo'l ostida yaxshi qurollangan va kuchli qo'shin yetarli bo'lmagan. 1512 yilda Buxoro atrofidagi Ko'li Malikda shayboniylardan Ubaydullaxon boshchiligidaga qo'shin bilan Bobur o'rtasida bo'lib o'tgan jangda Bobur yengilib, Xisorga chekindi. Biroq u Ismoilshohdan yana harbiy yordam olib, Termiz orqali Qarshiga va bu yerdan Buxoro tomon yurdi. G'ijduvonda shayboniylarning qo'shini g'alabaga erishib, Bobur Kobulga ketishga majbur bo'ldi. Shundan keyin shayboniylarga qarshi kurash uzil-kesil nihoyasiga yetdi. Bobur kurashni davom ettirishdan voz kechib, e'tiborni Hindistonga qaratdi. Uning o'zi bu haqda shunday degan: «Bizning ashaddiy dushmanlarimiz Muhammad Shayboniynon boshliq ko'chmanchilar temuriylar qo'l ostidagi yerlarni egalladilar. Men Kobulda yolg'izlanib qoldim. Dushman qudratli, biz esa zaifmiz. Sulh tuzish yoki qarshi kurashishning iloji yo'q. Shu bois, dushmanga qarshi kurashishni davom ettirishning ham iloji yo'q. Endilikda Badaxshon yoki Hindistonga yo'l olishimiz lozim». Haqiqatan ham, o'sha vaqtdagi qaltis va murakkab sharoit shayboniylarga qarshi kurashni to'xtatishni taqozo qilardi. Bobur vaziyatni to'g'ri tushundi va Hindistonga harbiy yurish qilib, bu mamlakatda hokimiyatni qo'lga oldi.

Yuqorida bayon qilinganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: birinchidan, temuriylarning ko'proq shaxsiy manfaatni o'ylab taxt uchun olib borgan davomli kurashlari mamlakatda tarqoqlik va parokandalikni yuzaga keltirdi. O'zaro kelishmovchiliklar va adovat ularning ongi va qalbini shu darajada chulg'ab oldiki, umummillat va davlat manfaatlari bilan hisoblashmay qo'ydilar. Oqibatda qo'shinning jangovarlik qobiliyati va mamlakatning mudofaa qudrati pasayib ketdi. Bunday holat, ayniqsa Shohrux vafotidan keyin yaqqol ko'zga tashlandi. O'lkada og'ir ahvol yuzaga kelgan vaqtda Oq O'rdada Abulxayrxon boshliq shayboniylar ancha kuchli

davlatni tashkil qildilar. Temuriylar hokimiyatning zaifligidan foydalanib, Movarounnahrda harbiy yurishlar uyushtirib turdilar. Shunisi achinarliki, temuriy sultonlar taxt uchun kurashlarda ko'chmanchi hukmdor Abulxayrxonning kuchlariga tayandilar. Bu bilan ular dushmanga mamlakat darvozasini ochib berib, yangidan-yangi harbiy yurishlarga otlantirdilar.

Shuni alohida aytish lozimki, Husayn Boyqaro temuriylar davlatining salohiyatini saqlab qolishga harakat qilib, muhim yutuqlarga erishdi. Biroq umrining oxirgi yillarida ichkilikka berilib, davlat ishlarida fojiali xatoliklarga yo'l qo'ydi. Ayniqsa, o'g'li Badiuzzamon bilan kelishmasligi va u bilan janglar qilishi vaziyatni keskinlashtirdi. U Muhammad Shayboniyxon tajovuzlari vaqtida atrofiga temuriy sultonlarni jipslashtirib, umumdushmanga qarshi kurashni uyushtira olmadi. Eng nozik vaziyatda, ya'ni davlatning taqdiri qil ustida turganda ham loqayllik va mas'uliyatsizlikni namoyish qildi. Ayniqsa, uning Vatan mustaqilligi uchun jonini tikkan Boburga harbiy yordam bermagani tuzatib bo'lmaydigan siyosiy xato bo'ldi. Vaholanki, Bobur ikki marotaba Samarqandni egallab, shayboniylarga ancha zarba bergan edi. Agar Husayn Boyqaro zudlik bilan harbiy yordam berganida, bosqinchilar tormor etilishi turgan gap edi. Biroq Bobur qanchalik harakat qilmasin, hech qayerdan yordam ololmadi. «Har necha atrof va javonibqa, - deydi Bobur, - elchilar va kishilar yuborildi, hech kimdan ko'mak va madad yetishmadi. Ul mahaldakim, zo'r va quvvatimiz bor edi, hech nav' va shikast va nuqson bo'lmaydur edi. Ko'mak va madad qilmadilar... Sulton Husayn mirzodek mardona va sohib-tajriba podshoh bizga madad qilmay va ko'maklar bermay elchi yubormay, Shayboqxonga Kamoliddin Husayn Gozurgohiyni muxosara ovonida elchilikka yubordi... hech tarafdin umidvorlik qolmadi. Ozuq va zaxira kam edi. Bo'lg'oni ham tugadi, hech tarafdin ozuq va zaxira kelmadi».¹⁴²

Ushbu satrlardan ayonki, Bobur Samarqandda turgan vaqtida yordam so'rab Husayn Boyqaro va boshqa sultonlarga murojaat qilishiga qaramay, hech kimsa harbiy ko'mak va oziq-ovqat yubormagan. U aytganki, «ul mahaldakim, zo'r va quvvatimiz

¹⁴² Boburnoma, 85-bet.

bor edi», ya'ni harbiy kuchlar yetarli bo'lib, birlashib harakat qilinganda, dushmanni yengish mumkin edi. Aksincha, temuriylar bir-biridan hadiksirab va har kim «o'zim bo'lay», degan fikr bilan ish yuritganlar. Temuriy sultonlar bir yoqadan bosh chiqarib va harbiy kuchlarni markazlashtirgan holda Samarqand, Buxoro va Xorazmga yuborib, Muhammad Shayboniyxonga qarshi jang qilishlari lozim edi. Aksincha, Husayn Boyqaro ko'rsatilgan joylarni o'z holiga tashlab qo'ydi. Hatto uning Xorazmdagi hokimi Muhammad Shayboniixon qo'shiniga qarshi harbiy yordam so'raganda u: «Urganchni deb butun Xurosonni xavf ostida qoldirishni xohlamayman», - deb javob bergan.¹⁴³ Bobur mag'lubiyatlarga Husayn Boyqaroni aybdor, deb hisoblaydi: «Sulton Husayn mirzodek Amir Temurbek o'rniga o'ltirg'on ulug' podshoh g'anim ustiga yurmakni demasdan beparvolik qilsa, el va ulusqa ne umidvorlik qolgay?» Haqiqatan ham, davlat boshlig'i barcha kuchlarni birlashtirib, dushmanga qarshi mardonavor hujum qilish o'rniga orqaga tislansa, beparvolik qilsa, xalq ommasini dushmanga qarshi otlantirish qiyin kechadi, albatta.

Umuman aytganda, temuriylarning noahilligi, jur'atsizligi va taxt uchun shaxsiy manfaatlarni ko'zlab olib borgan kurashlari mamlakatning shayboniylar tomonidan bosib olinishiga keng yo'l ochib berdi.

Oltin O'rdaning tub aholisi — qipchoqlarning til vadin jihatidan Turkiston aholisidan farqi bo'lmagan. Ammo ular ko'proq ko'chmanchi xalq hisoblangan. Oltin O'rda hukmdorlari va ular bilan kelgan mo'g'ullar vaqt o'tishi bilan qipchoqlarga aralashib, tili va urf-odatlarini yo'qotib bordilar. Bu haqda Umariyning so'zlari ham dalolat beradi: «Qadimgi zamonda Oltin O'rda qipchoqlar mamlakati bo'lgan, lekin tatar (mo'g'ul)lar unga ega bo'lib chiqqandan keyin qipchoqlar ularning aholisiga aylandilar. Keyin ular (mo'g'ullar) aralashib, qipchoqlar bilan qavm-qarindoshlashib ketdi... Ularning hammasi qipchoqlar bilan bir urug'dek bo'lib, bir-birovi bilan aralashib-quralashib ketdi».¹⁴⁴

Bu turklashgan mo'g'ullar islom dini va ismlarini qabul qildilar.

¹⁴³ Tavorixi guzida — Nusratnoma. 119-bet.

¹⁴⁴ B.D.Grekov, A.YU.Yakubovskiy. Oltin O'rda va uning qulashi. 57-bet.

Ammo ularning hukmron tabaqasi o'zi aslida Chingizxonning avlodi ekanligini ongi va qalbida mustahkam saqladi. Bu hukmdorlar Chingizxon va uning farzandlari tomonidan bosib olingan mamlakatlarni surbetlarcha o'zlarining haqiqiy mulki deb hisobladilar. Ularning tushunchasida Amir Temur va uning vorislari Turkiston taxtini xorijiy bosqinchilar sifatida egallagan emishlar. Mening Bobom Abulxayrxon, - degan edi Muhammad Shayboniyxon, - Temuriylar sultoni Abusaidga harbiy yordam berib, Samarqandni urushib olgan vaqtda taxtni o'zi bimalol egallashi mumkin edi. Biroq, U vaqtda Mavraunnahrni egallab Chingizxon avlodlariga uni qaytarishi mumkin edi. Allohning' xohishiga ko'ra, taxtga Abusaidni o'tqazdi. Hozir Movarounnahr viloyatlarini Amir Temur avlodlaridan tortib olishimizdan asosiy maqsad podshohlik qilish emas, balki ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan mamlakat-mulkimizni qo'limizga qaytarib olishdan iboratdir.¹⁴⁵

Chig'atoy sultonlaridan biri Tug'luq Temur (1338—1362) Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Tyan-Shan etaklari, Balxash ko'li, Irtish va Ili daryolari atrofidagi joylarda Mo'g'uliston nomida davlat tuzgan edi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahrni egallash uchun kurashayotganida Mo'g'uliston sultonlariga shunday degan:

*Men Jo'ji o'g'limanu siz ikki xon,
Chig'atoy o'g'lisiz, bo'lsin bu ayon.
Barimiz bir onaning o'g'limiz,
Barchamizning otamizdir Chingiz.
Jo'jixonu Chig'atoyxon hasil,
Surg'olu ushbu jahondin maxmil.
Bizing, sizning aro bo'lmadi qon,
Har kishi o'z yerida bo'ldi xon.*

Ko'rinib turibdiki, Muhammad Shayboniyxon Jo'ji va Chig'atoy sulolalarining nasl-nasabi bittaligini anglatib, birlashgan holda ish yuritishga da'vat qilgan. U o'zini mo'g'ullarning farzandi va Chingizxonning merosxo'ri sifatida gavdalantirib, Turkiston

¹⁴⁵ Fazlallax ibn Ruzbixan Isfaxani. Mixmannamayi Buxara. Tarjimon R.P.Jalilovga. M., 1976, 96-bet.

zaminida amalda mo'g'ullarning hukmronligini qaytadan tiklashga erishdi. Shundan keyin Buxoro xonligida shayboniylar sulolasi XVI asrning oxirlarigacha hukmronlik qildilar.

Muhammad Shayboniyxon Turkiston o'lkasida olib borgan urushlar va uning bu hududdagi hukmronligi ikki jihatdan fojiali oqibatlarini yuzaga keltirdi. Avvalambor, u ko'p shahar va qishloqlarni vayronaga aylantirib, minglab kishilarni o'ldirdi va asir oldi. Katta boyliklar talandi. Muhammad Shayboniyxonning ko'rsatmasiga muvofiq Vaxshuvor shahri va uning atrofidagi joylardan 50 ming nafar kishi asir olindi, 110 ming qo'y, 50 ming ot va 200 ming tuya qo'lga kiritildi. Shohruxiyada 1,5 ming askar, aholidan 3 mng kishi asir olinib, 5 ming ot o'lja sifatida olib ketildi. Xorazmning Qiyot va Bo'ldimsoz shaharlari aholisi Buxoroga majburlab ko'chirildi. Qorako'l shahrida odamlarning kallasidan minora yasaldi.

Umuman aytganda, Muhammad Shayboniyxon qaysi joyda jang qilmasin, o'sha yerning boyligini taladi va minglab kishilarni o'ldirdi. Bu bilan u bobosi Chingizxonning vahshiyona siyosatini davom ettirdi.

Muhammad Shayboniyxon va uning vorislari ko'chmanchilar vakillari bo'lganliklari uchun Amir Temur va temuriylar davridagi takomillashgan davlat boshqaruvi va taraqqiyotning qadriga yetmay, oyoq osti qildilar. Ular bunday olamshumul ahamiyatga molik katta yutuqlarga dushmanlik ko'zi bilan qaradilar. Natijada, hashamatli binolar, ajoyib-g'aroyib bog'lar, obod ko'chalar, bozor va karvon yo'llari borgan sari xarobaga aylandi. Ulug'bekning mashhur rasadxonasi buzilib, yerga ko'mib yuborilganligi tufayli XX asrning boshlarigacha qayerdaligi noma'lum bo'lib keldi. Shahrisabzdagi go'zallikda tengi yo'q Oqsaroy ham buzildi. XVI asrning 80-90-yillarida Samarqandda «buyuk Amir Temur va uning avlodlaridan qolgan hamda buzilib, vayronlikka yuz tutgan imoratlar» mavjudligi manbalarda aniq yozib qoldirilgan. Bunday holat ko'proq Muhammad Shayboniyxonning harbiy yurishlari vaqtida sodir bo'lgan, albatta.

Mintaqada Muhammad Shayboniy hukmronligining o'rnatilishi o'z o'rnida Oltin O'rdaga ham katta talafot yetkazdi. Chunki u

yerdagi, ya'ni Dashti qi pchoqdagi qabilalar o'z onayurtini tashlab, Turkiston viloyatlariga kelib o'rnashishi Oq O'rdada odamlarning soni juda kamayib, uning huvillab qolishiga olib keldi. Ushbu holat uning siyosiy va iqtisodiy inqirozini yanada chuqurlashtirdi. U yerda tashqi dushmanga qarshi kurashadigan qudratli kuch qolmadi. Bu rus davlatiga juda qo'l kelib, XVI asrning ikkinchi yarmida u Oltin O'rda yerlaridagi Astraxan, Qozon, Sibir, so'ngra Qrim xonliklarini bosib oldi. Bu joylardagi oltin, kumush, temir, mis, ko'mir va boshqa xilma-xil tabiiy boyliklar, unumli yerlar va o'rmonlar Rossiyaning qudratli davlatga aylanishida asosiy omil hisoblanadi.

Xullas, Muhammad Shayboniyxon Oltin O'rdaga ham, Turkiston zaminiga ham juda katta ziyon va talafotlar yetkazdi.

Xonliklar davridagi inqiroz va qoloqlik

Nega jahonga Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur kabi buyuk siymolarni bergan bu millat XVII—XIX asrlarga kelib, to shu choqqacha erishgan yuksalish darajalaridan tushib ketdi? Nega so'nggi uch asr mobaynida boshimiz qoloqlikdan chiqmay qoldi? Ajdodlarimizning qattiq qarshiligiga qaramay, chor Rossiyasining o'lkamizni nisbatan oson zabt etishida ana shu qoloqlikning ham o'rni bo'lmaganmikan?

Islom Karimov

Siyosiy muhit. XVI asrda Buxoro xonligida hokimiyat tepasida turgan shayboniylar sulolasi, avvalambor, Amir Temur va temuriylar davridagi saltanat va taraqqiyotni barbod qildi. Markazlashgan va takomillashgan davlat boshqaruvi tizimi tugatilib, mintaqa Buxoro, Xiva, Qo'qon xonliklaridan iborat uch qismga parchalanib taxt jang maydoniga aylandi. XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon (1558—1598) Xiva xonligi, Badaxshon, Balx,

Hiro, Xuroson, Mashhad va boshqa joylarni Buxoro xonligiga qo'shib oldi.

Sirtidan qaraganda, u ancha salohiyatli davlat bunyod qilganga o'xshardi. Biroq mamlakat ichkarisi o'zaro ziddiyatlar va kurashlar bilan to'lib-toshib yetardi. Voqyealarning jonli guvohi bo'lgan Hofiz Tanish Buxoriyning yozishicha, Toshkent, Turkiston, Xo'jand, Samarqand, Axsikent, Nasaf, Termiz, Andijon va boshqa joylarda isyonchilarga qarshi qattiq janglar olib borilgan. Ko'pdan-ko'p odamlar o'ldirildi va jarohatlandi. Hofiz Tanish Buxoriy bunday fojialardan birini shunday tasvirlaydi:

*Tig' va o'qdan o'lganlar ustida
Sovutdan boshqa hyech kim achinib yig'lamadi.
Kina nayidan boshqa yig'lovchi bo'lmadi.
Qarg'adan o'zga qora kiyuvchi bo'lmadi.
Qondan yer uqubat moyasiga¹⁴⁶ aylanib,
Balo dashtidan fitna guli bosh chiqardi.
U cho'lda har bir noumid qoni ketidan
Qizil toldan boshqa hyech bir giyoh ko'karmadi.¹⁴⁷*

Muallifning so'zicha, taxt uchun kurashlarda talafotlar shu darajada katta bo'lganki, odamlarning qonlari bamisoli daryo bo'lib oqqan.

Abdullaxonning ko'p vaqti ichki dushmanlarga qarshi kurashlar bilan o'tdi. Biroq u davlatni ichki tomondan mustahkamlashga erisholmadi. Buning oqibatida 1598 yilda uning vafotidai keyin taxtga o'tirgan o'g'li Abdulmo'min o'ldirildi. Xiva xonligi mustaqillikni tikladi, Xuroson va boshqa joylar xonlikdan ajralib ketdi. Qozoq xoni Tavakkal fursatdan foydalanib, vaqtincha bo'lsa-da, Turkiston, Toshkent, Andijon va Samarqandni bosib oldi.

1556 yilda Rossiya Astraxanni bosib olgandan keyin, u yerdan qochib kelgan ashtarxoniylar sulolasi 1601 yilda taxtni qo'liga o'tdi. Ashtarxoniylarning hukmronligi vaqtida ham o'zaro urushlar davom etaverdi. Turli ko'chmanchi qabilalarning hujumlari ahvolni

¹⁴⁶ Moya — mohiyat, bir narsaning asl moddasi; o'g'it, achitqi.

¹⁴⁷ Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. O'sha asar. II jild, 69-bet.

yanada yomonlashtirdi. Garchand Imomqulixon (1611—1642) ularga zarba berib, nisbatan osoyishtalikni ta'minlagan bo'lsa-da, lekin uning ukasi Nadr Muhammadxon (1642—1645) vaqtida yana ko'chmanchilarning tajovuzi boshlandi. Ko'p o'tmay, uning o'g'li Abdulaziz otasidan taxtni tortib oldi.

Abdulazizxon (1645-1680) va Subhonqulixon (1680-1702) vaqtida ham mahalliy isyonlarga qarshi kurash olib borildi. Shuningdek, Ubaydullaxonga ham (1702-1711) bunday kurashlarni uzluksiz davom ettirishga to'g'ri keldi. Xususan, u Termiz, Shahrisabz, Balx va boshqa joylarga harbiy yurishlar uyushtirib, bo'yin tovllovchilarga qarshi jang qildi. U hokimiyatni boshqarishda amir va boshqa nufuzli kishilarning ta'sirini qo'porishga va ruhoniylarning vaqf yerlarini qisqartirishga harakat qildi. Shuning uchun u 1711 yilda fitna uyushtirilib o'ldirildi. O'zaro urushlar shu darajada talafot keltirdiki, 1735 yilda aholi xavfsiz joylarga qochishi oqibatida Samarqand huvillab qolgan. Buxoroda esa ikkitagina mahallada odamlar jon saqlagan.

1747 yilda ashtarxoniylar sulolasining oxirgi vakili Abulfayzxon o'ldirilgach, Buxoro xonligining taxti mang'itlar sulolasi qo'lga o'tdi. 1920 yilgacha hukmronligi davom etgan bu sulola davrida ham ichki ziddiyat va kurashlar tinmadi.

1511 yilda Oltin o'rdalik Elbarsxon Xorazmda taxtni egallab, Xiva xonligiga asos solgan Elbarsxon 1558 yilda o'lgandan so'ng taxt uchun o'zaro kurashlar qizib, hokimiyat bir qo'ldan ikkinchi qo'lga o'tib turdi. Masalan, Arab Muhammadxonga (1602—1623) qarshi o'g'illari jang qilib, uning o'rnini egalladilar. Otalari ko'ziga mil tortib, ko'r qilib qamadilar. U shu ahvolda vafot etdi. Xiva xonligida o'zaro kurashlar keyingi xonlar vaqtida ham davom etaverdi. Xonlar tez-tez almashinib turishidan «xonlar o'yini» degan ibora yuzaga keldi. Ish shu darajaga bordiki, xonlikning yuqori tabaqalari XVIII asrning 40-yillaridan boshlab qozoq ko'chmanchilarining vakillarini taxtga nomiga o'tqazib, ulardan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalandilar. Bundan tashqari, turkmanlar hukmdori Xivaga hujum qilib, boyliklarni talab, aholini g'oyat og'ir ahvolga soldi. Natijada aholi Buxoro va boshqa joylarga qochishga majbur bo'lib, Xivada 40 oilagina qoladi. Shaharda qahatchilik va azob-uqubatlarni

hukm surdi. 1687-1716 yillarda Xivada o'nta xon almashdi. XIX asr boshlarida esa hokimiyat qo'ng'irotlar sulolasi qo'liga o'tdi.

XVIII asr boshlarida Farg'ona vodiysida tashkil topgan Qo'qon xonligida ham taxt uchun kurashlar ko'zga tashlanadi. Hokimiyat tepasida turgan ming sulolasi hukmdorlari ichki va tashqi dushmanlarga qarshi tinimsiz kurashishiga to'g'ri keldi. Hokimiyat da'vogarlarini o'rtasidagi kurashlar oqibatida ularning orasida o'ldirilganlarni ham ko'rish mumkin edi. Masalan, Olimxon, Sherali, Murodxon va Mallaxonlar qatl etildi. Taxt uchun kurashlar jarayonida Xudoyorxonga hokimiyatni uch marotaba qo'lga olishga to'g'ri kelgan edi.

Buxoro, Xiva va Quqon xonliklarida taxt uchun ichki kurashlar bilan bir qatorda ular o'rtasida olib borilgan urushlar ham juda fojiali kechdi. Chunonchi, Xiva xonlari Abulg'azi (1644-1664) va Anusha (1664-1687) Buxoro atroflariga hujum qilib, talon-toroj va zo'ravonlik bilan shug'ullandi. 1804 yilda Buxoro qo'shini Xiva xonligiga hujum qilib, katta talafot keltirdi. Bunday o'zaro urushlar XIX asrning birinchi yarmida ham davom etdi.

Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida uzoq yillar mobaynida dahshatli janglar bo'ldi. Ayniqsa, 1842 yilda Buxoro amiri Nasrulloning Qo'qonga hujumi juda dahshatli oqibatlariga olib keldi. Madalixon, Nodirabegim va boshqa nufuzli kishilar o'ldirildi. Saroy xazinasi va xalqning boyliklari talandi. Shahar xarobaga aylantirildi. Nasrullo Madalixonning yosh o'g'lini odamlarning ko'z o'ngida o'ldirayottanida uning onasi kelib shunday degan: «Ey zolim, sanga osiy bo'lgan atosi, bu murqihi begunoh nima gunoh qildi?! Ey berahm zolim, qizil qonga bo'yading, Xudoning oldida sening ila murofaa qilaman, sen ham nuri chashmingdan ajrab, xonavayron bo'lib, qizil qoningga bo'yal, xonadoningdan ajrab xarob bo'l». Shahzodaning onasi Nasrulloning sha'niga haqorat so'zlarini yog'dirib, jasorat va mardlik ko'rsatadi. Amir farmoniga muvofiq jigar-bag'ri tilka-pora bo'lgan ona ham so'yildi. Nasrulloning Qo'qonda amalga oshirgan vahshiyona qirg'in-baroti va talon-toroji kishilar qalbida nafrat va qahr-g'azab uyg'otib, shoirlar marsiyalar yozdilar. Ularning birida quyidagi satrlar bitilgan edi:¹⁴⁸

¹⁴⁸ Ibrat. Farg'ona tarixi. «Meros» turkumi. T., 1991, 294-bet.

*So 'yduymoqqa xonni amr etub qoldi,
O'shal damda jallod qilichin oldi,
Rahm aylamay xonning bo'ynig'a soldi,
Qaro soqol qizil qong'a bo'yoldi,
Ahli haramlari fig'on ayladi.*

Xonliklarda uzluksiz davom etayotgan o'zaro urushlardan va ularning zaiflanishidan foydalanib, chor Rossiya harbiy yurishlarni uyushtirishga kirishdi. Bu xavf-xatarni yaxshi anglagan ayrim aql-idrokli kishilar amir Nasrulloni Qo'qon xonligi bilan murosila qilish va birgalikda dushmanga qarshi turishga da'vat etdilar. Jumladan, amirning vazirlaridan biri Abdusama'noib unga: «Endi Qo'qon zabt qilindi, Farg'ona katta mamlakatdir, qancha askar va sipohu xazina olindi, hozirda Rusiyaning kelish xavfi bor, agar Madalixonni ont ichtirib, tavba qildirib, Qo'qonga qo'yib, Buxoroga tobe qilib qo'yilsa, bizlarga kelgan dushmanlarga qarshi qalqon bo'lur erdi», — deganda amirga ma'qul bo'lmay, uning og'ziga kavush bilan urdirgan.¹⁴⁹

Demak, vazir amirlik va xonlikning kuchlarini birlashtirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash istagini o'rinli izhor qilgan, lekin jazolangan. Bu amirning kaltafahmli va nodonligidan dalolat beradi, albatta. Qo'qonliklar ko'p o'tmay, bosh ko'tarib, buxoroliklar qo'shini va amaldorlarini qirib tashlashdi. Taxtga Sheralixon o'tqazilib, Qo'qon xonligi tiklandi. Shundan keyin ham taxt uchun kurashlar davom etaverdi.

Fojia yana shundan iborat ediki, xonlar hokimiyatni belgilab qo'yilgan qonun va tartib (dastur, tuzuk) asosida boshqarmay, shaxsan o'zlari nimani xohlasa, shuni qilavergan. Payti kelganda shariat bilan ham hisoblashmagan. Ularning orasida xotinbozlik, ichkilikbozlik, zulm va adolatsizlik va boshqa noxush ishlar bilan shug'ullangan kimsalar oz emas edi. Buxoro hukmdorlari Abulfayzxon, Nasrullo, Muzaffar, Qo'qon hukmdorlari Olimxon (laqabi Zolimxon),¹⁵⁰ Xudoyorxon va boshqalar shular jumlasidandir. Amir Nasrullo qonxo'r bo'lgani uchun xalq orasida

¹⁴⁹ O'sha joyda, 293-bet.

¹⁵⁰ O'sha joyda, 287-bet.

«Qassob amir» deb yuritilgan. O'zining qadrini bilgan ayrim xonlar bundan mustasno, albatta. Yuqorida ko'rsatilgan omillar inqiroz va qoloqlikning siyosiy qiyofasini shakllantirdi.

Iqtisodiy ahvol. Ma'lumki, davlatning ahvoli qanday bo'lsa, iqtisodiy hayot ham unga monand ravishda shakllanadi. Avvalambor, uzoq davom etgan urush xarajatlari, ko'rilgan talafot va vayronaliklar dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdoga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hozirgi til bilan aytganda, milliy daromad juda kamaydi, soliq va majburiyatlar esa oshdi. Masalan, Xudoyorxon «havodan boshqa» barcha narsalarga soliq joriy etganligi haqida malumotlar mavjud. Hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish choralari deyarli ko'rmay, soliq yig'ish orqali davlat daromadini oshirish bilan shug'ullandi. To'g'ri, sun'iy sug'orish va ma'lum darajada yangi yerlarni o'zlashtirishga harakat qililib, ayrim yutuqlarga erishildi. Biroq ular izchil va keng ko'lamda olib borilmay, qilingan foydali ishlar o'lda-jo'lda bo'lib qolavergan. Iqtisodiy masalalarda xalq o'z yog'iga o'zi qovurilib, o'z holiga tashlangan holda yashadi. Bu borada davlat tomonidan onda-sonda ko'rsatilgan marhamat va yordam dengizdan bir tomchi edi, xolos. Ayniqsa, yer (agrar) siyosati katta ziyon keltirdi. Unumdor va suvli yer maydonlarining katta qismi hukmron tabaqalar qo'lida bo'lishi, vaqf yerlarning me'yordan oshib ketishi va qator qishloqlar odamlari bilan ularga birlashtirilishi, zulm va adolatsizlik ishlab chiqarish kuchlarining o'sishiga to'sqinlik qildi. Natural xo'jalikning hukmronligi oqibatida pul munosabatlari rivojlanmay qoldi. To'g'ri, tangalar zarb etildi, lekin muomalada salmoqli o'rinni egallay olmadi. Molni molga almashish yuz yillar mobaynida davom etib, iqtisodiy hayotning yuqori darajaga ko'tarilishiga yo'l bermadi. Savdo sohalari uzluksiz va keng ko'lamda qanot yoza olmadi. Karvon yo'llaridagi xavf-xatar va talon-torojlar, boj undirishdagi adolatsizlik va boshqa turli to'siqlar yetarli darajada bartaraf qilinmadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish texnikasini takomillashtirishga ahamiyat berilmagani natijasida hunarmandchilik mahsulotlari raqobatga bardosh berolmay qoldi. Bu ularning tashqi bozordan asta-sekin siqib chiqarilishiga olib keldi. Bunday o'ta zararli holat XIX asrning 40-60-yillarida ko'zga tashlandi. Bu — Turkiston zamini xom-

ashyo manbai va tayer mahsulotlar bozoriga aylanishidagi dastlabki qadam edi. Bu hol iqtisodiy jihatdan inqiroz va qoloqlikni yuzaga keltirdi. Bunga o'lkah aholisining o'troq va ko'chmanchilardan iborat ikki qismga bo'linishi ham sabab bo'lgan edi. Ma'lumki, o'lkah aholisining ma'lum qismini ko'chmanchilar tashkil qilib, ularni gazlama, kiyim-kechak, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa mollar bilan ta'minlash o'troq aholi zimmasida edi. Ko'chmanchilar mollarining sifati past edi. Shu bois, o'troq aholi ularning «qoloq» talabiga mos tushadigan mahsulotlarni tayyorlashga moslashib qolgandi. Hatto o'troq aholining o'zi ham ko'p hollarda asrlar davomida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ular qanday bo'lsa, shunday ishlatishga odatlanib qolgandi. Rus sanoat mollari kirib kelgandan keyingina ichki mahsulotning sifati orqada qolayotgani ma'lum bo'lgan, lekin fursat boy berilib, g'aflatda qolingan edi.

O'troq va ko'chmanchi hayot butun Turkiston zamini uchun yaxlit bir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni yaratish imkonini bermadi. Bunday bir-biriga zid ikki holat qudratli davlat barpo etishga to'sqinlik qildi. Shunga monand ravishda o'troq aholi bilan ko'chmanchilar o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy aloqalar uzluksiz va bir tekis rivojlanmay, sharoit taqozosiga ko'ra, goh ma'lum darajada o'sib, goh pasayib turdi.

Madaniy hayot. Xonlar davrini faqat qonli urush va talafotlar doirasida ta'riflash xato bo'ladi, albatta. Chunki xalq ommasi har qanday azob-uqubat va qiyinchiliklarni mardonavor yengib, otabobolarining dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, ma'naviy hayotdagi boy merosini ko'z qorachig'idek saqlab, tarixiy an'analarini asrab keldi. Ammo hukmdor doiralarning aybi bilan madaniyat sohalarini keng ko'lamda va samarali rivojlantirish imkoni bo'lmadi. To'g'ri, yangi madrasalar, masjidlar, bozorlar va boshqa hashamatli binolar qurilib, yuksak me'morchilik mahorati namoyish qilindi. Adabiyot, tarix va san'at sohalaridagi yutuqlar ham diqqatni jalb etadi. Biroq maktab va madrasalarda asosan savod chiqarish, o'zbek, arab, fors tillarida o'qish va yozish, diniy ta'limotlarni takomillashtirish bilan shug'ullanib, aniq va texnika fanlari e'tibordan chetda qoldirildi. Bu sohada Amir Temur va temuriylar davridagi katta o'zgarish va taraqqiyotdan deyarli hyech

narsa qolmadi. Butun o'lkada bironta maxsus maktab binosi qurilmaganligi kishini taajjublantirmasdan qo'ymaydi. Ta'lim, asosan, masjid va boshqa duch kelgan joylarda tashkil etilgan. Maktab va madrasalarda ayrim tartib va qoidalar qo'llanilgan bo'lsa-da, lekin amalda ta'lim olish muddati aniq belgilanmay, mullavachchalar (talabalar) o'n-o'n besh va undan ortiq yillar mobaynida shug'ullanganlar. Masalan, mening otam Ahmad o'g'li mulla Ziyo har yili erta bahorda boqqa ko'chib borib, kech kuzda shaharga qaytganidan keyin, ya'ni qish faslida madrasada o'qishni davom ettirgan. Bunday uzilish bilan o'qish 15 yilga cho'zilgan ekan. Shu sababli madrasalarla yoshi katta talabalar ham bo'lgan. Bunday holat xonliklar davridan qolgan meros hisoblangan.

Umuman, maktab va madrasalar zamon talabiga moslashtirilmay, asrlar mobaynidabir qolipdaushlab turilgan. Madrasalarda, asosan, diniy ta'limotlarga urg'u berilishi fanatazmning kuchayishiga olib keldi. Bunga dinning siyosiyashtirilishi ham zamin hozirladi. Chunonchi, xon saroyida shayxulislom lavozimi ta'sis qilindi.

Shunday qilib, xonliklarda olib borilgan ichki va tashqi urushlar, dinning siyosiyashtirilishi taraqqiyotni ta'minlovchi aniq va texnika fanlariga ahamiyat bermaslik, madrasalar faoliyati takomillash-tirilmaganligi ilm, maorif va madaniyat sohalarini qoloqlikka muhtalo qildi.

Paranji va giyohvandlik fojiasi

O'zbek ayollari yuzlab yillar mobaynida paranji va chachvon ichida yurishga majbur qilindi. Paranji va chachvon qachon va qaysi tarzda joriy bo'lgani haqida ma'lumotlar hozircha topilgani yo'q. Aftidan, paranji xonliklar davrida, fanatizmning o'ta kuchayishi oqibatida joriy qilingan. Negaki, ispan elchisi Klavixoning guvohligiga qaraganda, Amir Temur davrida ayollar hukumat ziyofatlarida «yuzlarini berkitmasdai» o'tirgan. Bu vaqtlarda ayollar paranji yopinmagan. Hatto Amir Temur oddiy ayollardan harbiy qismlari tuzgan, ular dushmanlarga qarshi janglarda mardonavor qatnashgan.

Xonliklar davrida ahvol tamomila o'zgarib, ayollar ochiq va erkin

yurishlardan mahrum bo'ldi. Tarixiy manbalarda ayollarning jamiyatda tutgan o'rni va faoliyati haqida ma'lumotlarni uchratish qiyin. Biroq shu narsa ayonki, ular xonadonlarida dehqonchilik, hunarmandchilik, uy-ro'zg'or ishlari, farzandlarni tarbiyalash singari mashaqqatli mehnat bilangina shug'ullangan. Otinlar qo'lida savod chiqargan ayrim ayollar va shoirlarni hisobga olmaganda ayollarning deyarli hammasi savodsiz bo'lgan. Bilamizki, savodsizlik zulmatda yashashdir. Bu ham kamdek, ayollarning paranjiga o'ralib yurishi salomatlik va ma'naviy jihatdan ham salbiy oqibatlariga olib kelgan. Bechora ayollar tashqi dunyo bilan tanishish va muloqotdan chetlashtirilib, o'zlarini erkin va ozod tutashlariga imkoniyat berilmagan.

Haq-huquqlari belgilanmay, uy ishlari bilan tamomila o'ralashib qolgan ayollar orasida kundosh azobini tortayotganlar ham bor edi. Biroq shuni unutmazlik lozimki, ayollar «bir burchakka» siqib qo'yilgan bo'lsa-da, erkaklar tomonidan odatda ularga hurmat-izzat ko'rsatilib, qadri-qimmatini o'rniga qo'yilgan. Ayniqsa, farzandlar onalarini boshiga ko'tarib yurishgan. Umuman aytganda, paranji va chachvon ayollarning jamiyatning siyosiy va madaniy hayotida faol qatnashishiga yo'l bermagan. Shunga qaramay, ozodlik, erkinlik va jamoa ishlarida erkaklar bilan yonma-yon qatnashish istagi hych qachon so'nmadi, ularning orasidan mohir shoirlar yetishib chiqqan.

Xonliklar davrida qoradori va nasha singari giyohvand moddalarni iste'mol qilish taqiqlanmagani sababli jamiyat hayotiga dog' tushirildi. Keksa va yoshlarning ma'lum qismi giyohvandlikka oshkora berilishi qanchadan-qancha oilalarning qashshoqlashishiga olib keldi.

Xonliklar davrida shakllangan giyohvandlik va bangilik asrlar davomida jamiyatni orqaga surib tashladi. Ayollarning yopintirib qo'yilishi ham yaxshilikka olib kelmadi. Paranji va chachvon tutilishi natajasida ongi va dunyoqarashga toraygan, jamiyatdan ajratilgan ayollarning madaniy hayotda erkaklar bilan bir qatorda faol qatnashishining iloji yo'q edi. Bu xonliklar davrida fan va madaniyatning keng ko'lamda rivojlanishiga ham katta to'siq bo'ldi.

Diniy fanatizm va uning talofati

Xonlar qobiliyatsiz va ojiz bo'lganliklari uchun davlatni yuqori darajada boshqara olmadilar. Buni ustiga ustak taxt uchun olib borilgan kurashlar xalqning hayotini yanada yomonlashtirdi. Ko'p odamlarning qoni behuda to'kildi, ayrim shahar va qishloqlar vayronaga aylandi. Xonlarning ko'pchiligi o'zlarining maishati va huzurini ko'rishga berilib xalqni o'z holiga tashlab qo'ydi.

Natijada ular xalq orasida mustahkam tayanchga ega bo'la olmadilar. Shu bois ularni taxtni egallash va uni qo'lda ushlab turish uchun din peshvolariga tayanishdan boshqa iloji qolmadi. Bu vaqtlarda butun o'lkada nufuzli shayxlar qo'l ostida o'rta hisobda 30–40 ming darveshlar bo'lgan. Ular «bu dunyo foni, narigi dunyo boqiy» degan shiorni baland ko'tarib shahar va qishloqlarni kezib sadaqa hamda xayriya hisobiga yashaganlar. Shuni aytish lozimki darveshlar o'zlarining sardori shayxlarning chizgan chizig'idan chiqmay topshiriqlarni qanday bo'lsa shunday ado etganlar. Binobarin shayxlar darveshlarni xohlagan kuyga solishi mumkin edi. Ular shahzoda yoki xonni darveshlar vositasida quvvatlash yoki obro'sizlantirish imkoniga ega edilar. Buni yaxshi anglagan taxt da'vogarlari shayxlarga murid tushib yoki itoat etib kelajagini ta'minlashga qattiq kirishganlar.

Shuni aytish lozimki darveshlar ikki guruhga bo'linib birinchisi siyosatga, ya'ni taxt uchun kurashlarga aralashmay din ta'limotlarini xolis targ'ibot qilish bilan shug'ullangan sog'lom fikrli kimsalar edi. Ularga ruhoniylarning ilg'or va vatanparvar shayxlari boshchilik qilganlar. Ikkinchi toifadagi darveshlar esa shaxsiy manfaatga berilgan va boylik ortdirish maqsadida hokimiyatni o'z ta'siri doirasida ushlab turishga bel bog'lagan ba'zi nufuzli shayxlarning qo'l ostidagi kishilar edi.

XVI asrni ikkinchi yarmida vaqtinchalik kuchli davlat tuzgan Buxoro xoni Abdullaxon yoshligidan Jo'ybar shayxlarining sardori Shayx Xoja Muhammad Ismoilga Murid tushgan. Shayx Abdullaxonni taxtni egallashga tayyorlab bordi. U Abdullaxonga hali taxtni egallamasidan oldin shunday degan: - «Tez vaqt ichida

Mavorounnahr Turkiston mamlakatlari bilan birga, sening tasarrufing ostiga, barcha viloyatlar mulozimating qo'li ostiga o'tadi». ¹⁵¹ Xoja Muhammad Islom bu maqsadini amalga oshirish uchun Abdullaxonning taxti uchun kurashlarida faol qatnashib muhim choralarni ko'rdi. Xususan, o'z davrining jonli guvohi Hofiz Tanishning yozishicha: «ul Hazrat xoja Muhammad Ismoil (Buxoro shahriga) kelishlari bilangina qal'a olindi, bo'lmasa bu viloyat bo'ysundirish girdobidan tushib yotgan edi. Bu g'alaba ul qutli sifat zotning barokatlari orqasida bo'ldi». ¹⁵²

Shuningdek, xoja Muhammad Islom Abdullaxonning ashaddiy dushmani Buxoro hokimini o'ldirishga fотиha bergan. Uning ko'rsatmasiga binoan Chorjo'y viloyatining hokimi Abdullaxonga ixtiyoriy ravishda bo'ysungan. Abdullaxon o'zining piri xoja Muhammad Ismoil ko'rsatmalarini sidqidillik bilan bajardi. «Abdullaxon, - deydi Hofiz Tanish, - dinni qo'llab-quvvatlashda, yaqin va sodiq kishilarni joy-joyiga qo'yishda, mamlakat va o'lkalarni zabt qilish va yo'llarni qo'riqlashda, xudojo'y odamlarni hurmatlashda, rayiga rioya qilish va xaloyiqni hurmatlashda Xoja Muhammad Ismoil amru farmoniga quloq solar va uni bajarish uchun kuchi boricha tirishar hamda so'z bilan ta'rif qilib bo'lmaydigan darajada harakat qilar edi». ¹⁵³

Demak hokimiyat jilovi Shayx xoja Muhammad Ismoilning qo'lida bo'lgan. Uning hokimiyatga ta'siri shu darajada kuchli ediki, nimani xohlasa shuni qilaverdi. Hatto, unga Abdullaxon qarshilik ko'rsatishga jur'at qilolmagan. Masalan, u dehqonlarning «Xoja Ismoil boshqalarning kichkina yerini, uy-joylarini buzib, o'zining yeriga yo'l ochmoqda va suv o'tkazmoqda» - deb shikoyat qilganlarida Abdullaxon qo'lida qamchisini ko'tarib: «Xoja mening ikki qoshim orasidan ariq o'tkazsa ham mayli, hyech narsa deyishga haqqim yo'q - deb javob bergan».

Ko'rilayotgan davrda hokimiyatni taqdiri shayxlar va darveshlarning qo'lidaligini Hofiz Tanish shunday tasvirlaydi. ¹⁵⁴

¹⁵¹ Hofiz Tanishi. O'sha asar, 100-bet.

¹⁵² O'sha joyda, 148-bet.

¹⁵³ O'sha joyda, 173-bet.

¹⁵⁴ O'sha joyda, 64-bet.

*Har ikki jahonning davlati - darveshlarning xizmatidir,
Dinu dunyosiniig hammasi darveshlarning suhbatidir.
Kamolga nuqson yetmaydigan davlat azaliy bo'ladi.
Azaldan abadgacha darveshlarning davlatidir.
Gadoga toj berish Shohdan taxt olish,
Bularning hammasi - darveshlarning davlatidir.
Agar sening ishing yurishmasa sarosimaga tushma,
Chunki uning kushodi darveshlarning himmati eshigidadir.*

Yuqorida ko'rsatilgan voqyealar Xoja Muhammad Ismoil va uning boshchiligidagi darveshlar jamoasi katta siyosiy kuchga aylanganidan dalolat beradi. Shuning uchun Abdullaxon taxtni egallagandan keyin ham piri Xoja Muhammad Ismoil qadr-qimmatini yanada ko'tarib boyliklarga boylik qo'shdi.

Ayrim ma'lumotlarning ko'rsatishicha Shayx Muhammad Ismoilning Buxoro, Miyonqol, Nasaf (Qarshi), Qorako'l va Marvda 2,5 ming gektar yeri, 7000 oltin tanga, 10.000 qo'yi, 700 oti, 500 tuyasi, 300 quli, yuzlab ov qushlari, 104 savdo do'konlari, korxona va ustaxonalari bo'lgan. Shayxning savdo karvonlari xorijiy mamlakatlarga qatnab turgan. Uning boyliklari shu darajada ko'payganki uni boshqaradigan maxsus devoni (idorasi) bo'lgan. Uning avlodlari ham juda boyib ketadilar. Uning o'g'li Xoja Sa'ddin Abu Bakr (Xoja Kalon)ning Buxoro, Miyonqol, Nurota tog'lari, Samarqand, Toshkent, Sayram, Turkiston, Andijon, Axsikent, Nasaf, Hisor, Termiz, Balx, Xiro, Badaxshon va boshqa joylarda 12 ming gektar yerlarga ega edi. Uning qo'l ostida 1000 nafar qullar, minglab qo'y, ot, tuya va uy hayvonlari bor edi. Uning avlodlaridan biri Sayid Tadjiddinning 500 quli va shunga yarasha juda ko'p yeri va mol-mulki bo'lgan. Xoja Muhammad Ismoilning vafotidan (1563) keyin Xoja Saqddin Abu Bakr (Xoja Kalon) Abdullaxonga pirlik qilib otasining siyosatini davom ettirdi.

Shunday qilib ruhoniylarning taniqli vakillari hukmdorlarning o'z ta'siri doirasida mahkam ushlab katta hajmdagi boyliklarni qo'lga kiritdilar. Bu xususda yana bir misol: Abdullaxon Sirdaryo bo'yidagi Shohruxiyada yashovchi darveshlarning sardorlaridan biri Asaddulla

Abduvali eshon va va safdoshlariga 5500 gektardan ortiq yerni vaqf qilib bergan edi.

Xonlar tomonidan ruhoniylarni hokimiyatga sherik qilinishi ularni jamoa ahligi ta'sirini yanada kuchaytirdi. Darveshlar jamoasining faoliyati jo'sh urib ko'p oddiy kishilarni orqalaridan ergashtirishga muvaffaq bo'ldilar. O'zaro qonli urushlardan, mamlakatning chuqur inqirozga uchrashidan, notinchlik va zulmdan toliqqan xalqning faoliyati ancha zaiflashib ketdi. Jamiyatda haddan tashqari ibodatga berilish va sig'inish qizg'in tus oldi. Kishilar ongini Avliyolarning tushlari va bashoratlari, ajoyib va qarayib diniy hikoyalar chulg'ab oldi. Bu dunyo vaqtinchalik, narigi dunyo abadiy, hayot lazzatlariga ko'ngil qo'ymaslik degan g'oyalar keng ko'lamda targ'ibot qilindi. Shu tariqa diniy fanatizm avjiga mindi.

Xonlar saroyida maxsus Shayhul Islom lavozimiga eng nufuzli ruhoniylar vakillari tayinlandi. Ayrim xonlar xususan Ubaydullaxon (1702-1711) ruhoniylarning changalidan qutilish uchun ularni yerlarini qisqartirishiga harakat qilib, ularning qarshiligiga duch keldi. Ammo, ko'p o'tmay xon o'ldirilib, Saroy talandi.

Doniyolbiyxon (1758-1785) ruhoniylarning maslahatisiz davlat ishlarining hal qilmay va bir qadam tashlamay yurgan.

Fanatizm ham shu darajada qizg'in tus oldiki, hatto ba'zi xonlar darveshlikni bo'yniga oldi. Masalan, Shoxmurod (1785-1800) o'zini Shayx Safar degan kishining Muridi hisoblab, hayot lazzatlaridan voz kechib, kundalik yashash xarajatini bir tanga (20 tiyin)dan oshirmadi. Ashula, musiqa va o'yin-kulgini ta'qiqladi. U madrasalarda talabalarni sonini ko'paytirib darveshona hayotni targ'ibot qildi. Bu sohada uni o'zi birinchi bo'lib namuna ko'rsatdi.

XIX asrda ham Jo'yboriy xo'jalarning siyosatga aralashishi davom etdi. 1842 yilga tegishli ma'lumotga ko'ra o'sha sulolaning vakillaridan biri Xo'jand hokimligini boshqargan. Amir Abdulahad (1885-1910) ruhoniylarning yirik vakillari bilan to'qnashib Buxoro shahrini tark etishga majbur bo'lgan. Hatto u hokimiyatni vaqtinchalik Karmanaga ko'chirgan.

Fanatizm ham mamlakatni chuqur inqirozga muhtalo etib har jihatdan qoloqlik va parokandalik hukm surdi. Ollohning «sendan

harakat, mendan barokat» - deganiga ahamiyat berilmay. Faqat sig'inish va ibodat bilan shug'ullanishning quruq o'zi hamma narsani hal qiladi degan zararli g'oya tarqaldi. Bu holat xonlarning ham ongini chulg'ab olgan edi. Vaholanki, jamiyat siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksak darajaga ko'tarilgandagina mamlakatning kuch-qudrati oshib davlatni va dinni himoya qilishi imkoni tug'ilardi. Vaqti soati kelib chor hukumatining tajovuzi vaqtida fanatizm va qaloqning dahshatli oqibatlarini namoyon bo'ldi. Ahmad Donishning Rossiyaning tajovuzi vaqtida yozganiga ko'ra: «Ulamolar jihad va g'azot farzdir, deb shovqin-so'ron qildilar. Ular bilmas edilarkim, bu g'azot nima uchun farz hisoblanadi va uning vojibligi sababi nimada? Qaysi bir qurol aslaha bilan urishish mumkin? Hatto, so'ramas edilarkim, dushmaning kuch-qudrati qanday? Askarlar xalq hisobidan maosh olib yurardilar, shu bois ular birinchi navbatda urushda qatnashishlari shartdir. Bordi-yu, ular mag'lubiyatga uchrab, qirilgan taqdirdagina jang qilish navbati fuqarolarga keladi. Nahotki tinchlik paytida askarlar o'z qonlarini pulini oldindan olgan bo'lsalar-u, urush vaqtida fuqarolar oldingi safda tursa. Bunday tartib hych bir mamlakat va millatda yo'q. Aksincha ulamolarga urushdan oldin fuqaroga harbiy mashq, xususan, o'q, miltiq, to'fang otishni hamda qilichbozlikni o'rgatishlari lozim edi. Buni qo'yaylik, askarlarning o'zi harbiy mashqni yaxshi o'zlashtirmagan va urush maydonini ko'rmagan bezori va sayoh kishilardan tashkil topgandilarkim, bechora fuqaro nima qilsin».

Haqiqatan ham xonlar va ruhoniylar vakillari mamlakatda qo'shinni zamonaviy qurol-aslahalar bilan ta'minlab, jangovorligini oshirishga ahamiyat bermadilar. Buning o'ta fojiali oqibati 1866 yilda chor hukumatining askarlari bilan Sirdaryoning atrofida Oqjar degan joydagi jangda ham o'z ifodasini topdi. Buxoroda dushmanga qarshi «g'azot» e'lon qilinganda qari-yu yosh aralash 100 ming kishidan iborat olomon to'plandi. Ular qo'llariga nima tushsa, shu bilan qurollandilar. Ularni orasida askarlar ham bor edi.

O'sha Oqjarda qo'shin va xalq olomonning joylashgan yerning atrofida Muzaffarxon chodir qurib o'rnatildi. «U, deb - yozadi Ahmad Donish, - chodir ichida o'tirib shaxmat o'ynardi. Uning huzurida bir guruh kishilar musiqa chalardi va ashula aytardilar.

Shuningdek, besoqol bolalar ham bor edi. Amir esa, shaxmat o'ynab turib barmoqlarini musiqa ohangiga solardi. Shu orada mahramlaridan biriga dedi: «Tez borib to'pxona boshlig'i Salimbek va askarlar qo'mondoni Sherali Inoqqa aytinglarki, rus xazinasi talon-taroj qilinmasin, askarlarni ko'p o'ldirmay ko'proq asirlikka olsinlar bular qo'shinimizda xizmat qilishga va tartib o'rnatilishiga jalb qilinadi».

Demak Muzaffarxon g'alabaga qattiq ishongan holda surbetlarcha manmanlik, g'o'dayish, farosatsizlik, chiranish va ma'suliyat-sizlikda tengi yo'q xon bo'lgan. Bunga yana bir misol: 1865 yilda Chernyayev askarlari Toshkentni qamalda ushlab turganda u yerdan elchilar Buxoroga xondan yordam so'rab keladilar. Saroyda bu masala muhokama qilinayotganida Muzaffarxon shunday degan: men oddiy rus lashkarboshisi bilan jang qilishni or deb bilaman. Agar urushishni xohlasam, to'ppa-to'g'ri Moskva yoki Sankt-Peterburgga borib jang qilaman - deb chirangan. Shundan keyin toshkentliklar hyech qanday madad ololmay qaytganlar.

Yuz minglik xalqning o'sha Oqjarda ko'kragini o'qqa tutishi vatanparvarlik va qahramonlikning namunasidir, albatta. Biroq ular tamomila oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan, qurollanmagan va harbiy mahorati yo'q bo'lib favqulodda to'plangan olomon edi, xolos. Shunga qaramay ular miltiq, to'p va qilichlar bilan yaxshi qurollangan dushman changaliga tashlandi. Oq-jarda jang ketayotganida Muzaffarxon o'zini qanday tutganligi haqida Avaz Muhammad Attor Qo'qondiy yozadi: «Dushman askari kelib islom lashkariga hujumga o'tdilar. Ikki tomon bir-birlari bilan uchrashib ko'rgan va eshitgan kishining aqli hayratda qoladigan urushni boshlab yubordilar. Mang'itlar (xonlar sulolasi) esa ko'p yildan buyon xalq nonini tuya qilib yeb na o'zlari na ota-bobolari urushni ko'rgan edilar. Hammalari oldi-orqalariga qaramasdan qochish yo'lini qidirdilar. Nima bo'lsang ham xez bo'lma, degandek Buxoro podshosi (Muzaffarxon) bir farsox masofada turib durbin orqali urushni tamosh o qilardi.

Dushman xushsiz mang'itlarni to'pu-to'fonlardan otardilar. Lashkari islom parishon va parokanda bo'lib cho'lu-biyobonga qochib ketdilar. Xezalak podshoh Muzaffarxon durbinda bu ahvolni

ko'rdi va kiyinib ulgurmasdan ming hasrat ila otga minib namoz asr vaqtida Jizzax tomon yo'l oldi. Uning lashkariga putur yetdi va parishon bo'lib jang maydonidan qochib qoldilar. Hyech kim bunday besaramjonlik va nomardlikni, to'nkabadan kishini, amiri xezni hozirgacha ko'rmagan edi». Muzaffarxon shu darajada qo'rqqanki otda ichki kiyimida qochayotganida ishtoni bulg'alangan. Mana xohlasam Moskva va Peterburgga borib jang qilaman deb chirangan va katta gapirgan xonning ahvoli. Jang maydonida «g'azot» jarchisi sifatida targ'ibot yurgizayotgan Yahyo xo'ja esa sallasini otib qochgan. Jangda ko'p minglab odamlar o'ldirildi yoki jarohatlandi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra 5000 kishi o'ldirilib jang maydoni murdalarga to'lib toshgan. Tirik qolganlar yo'lda cho'lu-biyobon va tog'larda ochlikdan va suvsizlikdan o'lganlar. Ularni orasida vahshiy hayvonlarga yem bo'lganlar ham bor edi.

Buxorodan Toshkent atrofiga piyoda kelib oziq-ovqat hamda harbiy qurollar bilan ta'minlanmagan ko'p minglik olomonning ko'pchiligi jangda va yo'llarda o'lgan edi.

Diniy fanatizm Xiva va Qo'qon xonliklarida ham keng quloch yoygan. Bu joylarda ham vatan mudofaasini mustahkamlashga va taraqqiyotni ta'minlashga ahamiyat berilmadi.

Chor hukumatining tajovuzi vaqtida ruhoniylarning orasida vatan xoinlari ham chiqqan. Masalan, Shayxulislom Nosir Mulla Ishoq, Qozi Mirza Talashpan, Qozi Kalon Yusufxo'ja Abdullaxo'jayev, Qozi Qalandar Xo'ja Junaydullayev shular jumlasidandir. Ular va boshqa xoinlardan tuzilgan delegatsiya chor hukumatining sodiq kishilari sifatida Peterburgga jo'natildi. Bu yerda ular 1867 yilda delegatsiya shaxsan imperator Aleksandr II tomonidan qabul qilindi. Xoinlar Turkistonni chor hukumati tanballigiga olinganliklaridan baxtiyorliklarini, mangu sodiqliklarini izhor qiluvchi qalbaki maktubni imperatorga topshirdilar. Shu tariqa ona yurt mustaqilligi barbod bo'lib mustamlaka va zulm iskanjasida hayot kechirishga majbur bo'lindi.



XULOSA

XIII-XIV asrning 60-yillarida Turkiston zaminida hukmronlik qilgan mo'g'ul qaroqchilari o'zlarining vahshiyona tajovuzi vaqtidayoq namoyish etgan edi. Zero, yuz minglab vatan himoyachilari qilichdan o'tkazildi, juda ko'p odamlar asir olindi, boyliklar talandi, shahar va qishloqlar vayronaga aylantirildi.

Ularning 150 yillik hukmronligi davrida adolatsizlik, boyliklarni talash, xo'rlash va zo'ravonlik avjiga mindi. Natijada o'lka ko'p azob-uqubatlar va chuqur inqirozni boshidan kechirdi. Islom dini esa kamsitildi.

Biroq, xalqning onggi va qalbidagi ozodlik g'oyasi so'nmay, XIV asrning 60-yillarida «suv yuziga qalqib chiqib», bosqinchilarga qarshi kurash boshlandi. Chunonchi, 1365 yilda Samarqandda ko'tarilgan Sarbadorlar qo'zg'olonining qatnashchilari mo'g'ullarga dastlabki zarbani berdi. Bu g'alabaning ta'sir kuchi butun mamlatni qamrab olgan edi.

Mana shunday sharoitda Amir Temurning siyosiy faoliyati jo'sh urib xalqning ozodlik kurashiga boshchilik qilishni o'z zimmasiga oldi. U maqsadga erishish uchun muhim choralarni amalga oshirib nihoyatda xavf-xatarli voqyealarni boshidan kechirdi. Hatto, bir necha bor o'lim yoqasida turdi. U jamoa ahlining barcha toifalariga tayangan holda janglarda g'alabaga erishib, 1370 yilda vatan mustaqilligini tikladi. Amir Temur tomonidan vatan mustaqilligini tiklanishi mo'g'ullarning tajovuziga qarshi qaratilgan qahramona janglarning, shuningdek Jaloliddin, Mahmud Tarobiy va sarbadorlar olib borgan kurashlarning mantiqiy davomi va yakunlovchi bosqichi hisoblangan edi.

Amir Temur jasoratli, mard, adolatli, xalqparvarlik va vatanparvarlik, mohir lashkarboshi, singari oliy fazilatlariga tufayli misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Avvalo, har jihatdan takomillashgan qudratli milliy davlat va qo'shin tashkil qilinib, hokimiyat boshqaruvi belgilab qo'yilgan qonun-qoidalar (tuzuk)

asosida boshqarildi. Turkiston zamini jahon davrasida munosib o'rinni egalladi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo aloqalari rivojlantirildi. Qurilish va obodonchilik ishlari keng quloch yoydi. Fan va madaniyat ravnaqi uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Amir Temur saltanati, turli millat va elatlarni xavf-xatarlardan, talon-taroj va o'zaro urushlardan saqladi. Bu ularning o'zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini samarali kechishida muhim o'rin egalladi. Uning katta xizmatlari yana shulardan iboratki, mo'g'ullarning hukmronligini o'zining ona yurtidagina emas, balki ularning ta'sir kuchini boshqa mamlakatlardan ham qo'pordi. U vatan xavfsizligini ta'minlash uchun ichki va tashqi dushmanlarga qarshi ayovsiz kurashdi. Taraqqiyotni ta'minlaydigan muhim omillardan biri - xalqaro karvon yo'llarini ko'lga kiritdi. Bu joylarda bekatlar qurildi, obodonchilik ishlari amalga oshirildi, ularning xavfsizligi to'la ta'minlandi. Amir Temur Qur'oni Karimning asl nusxasini keltirib, vatan shuhratini yanada oshirdi.

Ma'lumki, o'tmishda nashr qilingan asarlarda Amir Temurning faoliyatini soxtalashtirish uchun uning harbiy yurishlarini bosqinchilik va vahshiylik deb asossiz qoralangan. Aslida, bu harbiy yurishlardan maqsad, vatan va boshqa mamlakatlarning manfaatini ta'minlashdan iborat edi. Boshqacha bo'lishining iloji bo'lmay harbiy yurishlar tarixiy zaruriyatning mahsuli edi.

Temuriylar davrining oxirgi yillarida hukmdorlarining qobiliyatsizligi va taxt uchun olib borilgan kurashlar saltanatni zaiflashtirib bordi. Natijada XVI asrning boshlarida Oltin O'rda hukmdori Shayboniyxon temuriylar davlatini tor-mor etib, hokimiyatni egalladi. Shundan keyin salkam 400 yilni o'z ichiga olgan xonliklar davrida Amir Temur va temuriylar davridagi taraqqiyot barbod qilindi. Turkiston o'lkasi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklaridan iborat uch qismga parchalandi. Siyosiy va iqtisodiy hayot, fan va madaniyat chuqur inqirozga uchradi. Diniy fanatizmning haddan tashqari kuchayishi ham fojiali oqibatlarga olib keldi.

Provordida bunday nihoyatda fojiali holat Turkiston zaminini chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga olib keldi.



ILOVA

QUR'ONI KARIMNING ASL NUSXASIGA DOIR QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining «Nodir nashrlar va qo'lyozmalar bo'limi»da hazrati Usmon Qur'onining faksimil nusxasi saqlanmoqda. Bu yodgorlik 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan keyin Xadradagi «Toshtram» hududini kengaytirish vaqtida eski uylardan birining devori tokchasidan chiqqan va kutubxonaga taqdim etilgan. Yodgorlik egasi islomiy qadriyatlardan boxabar ma'rifatparvar kishi bo'lsa kerak, dinga qarshi kurash yillarida, qatag'ondan qo'rqib, uni sinch devor orasiga qo'yib somon suvoq bilan suvab yuborgan. Hajmi 352 varaq, har bir varaqning uzunligi 75 sm, eni 50 sm. Har varaq 14 satrdan iborat, harfining kattaligi 12 sm. Faksiml nusxaning og'irligi 20 kilogramm.

Hozirda O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanayotgan kiyik terisiga yozilgan Usmon Qur'onining asliyatida ayrim varaqlar yetishmasligini hisobga olganda, ushbu asar O'rta Osiyo mintaqasida saqlanayotgan hazrati Usmon Qur'onining eng to'liq nusxasidir.

Bu yodgorlik Toshkentga qanday qilib kelib qolganligi hozircha noma'lum. Ammo u Peterburg shahrida S.I.Pisarev tomonidan

fotoapparat yordamida 50 nusxa ko‘paytirilgan Qur‘ondan biri ekanligiga shubha yo‘q.

Quyida ushbu yodgorlik tarixi haqida «Turkiston viloyati gazeti»ning 1904 yil 19 dekabr sonida bosilgan maqolani keltiramiz.

**Ergash UMAROV,
Nargiza ZOITOVA,
Shoxida ABBAZOVA**

USMON QUR‘ONI

«Peterburx shahridag‘i imperatorskaya publichnaya nomliq kitobxonag‘a qo‘yulg‘on har xil qimmat baholik va ilm xususida nihoyatda tabarruk va kamyob kitoblarning ichida, albatta, hazrati Usmon xalifaning nomlari yozilgan Qur‘on bordur. Mazkur Qur‘on tamomi yer yuzidag‘i musulmoniya olimlarig‘a malumdur. Ul Qur‘on Rusiya askarlari Samarqand shahrig‘a kirgan vaqtida hazrati Xo‘ja Ahror madrasalarida bo‘lub, Rusiya askarining boshlug‘i general Abramofg‘a mazkur shaharning olimlari sotibdur. Va general Abramof ul Qur‘onni Turkiston viloyatining avvalg‘i general gubernatori general adyutant Kaufmang‘a yetkurub va general adyutant Kaufman ul Qur‘onni yuqorida zikr bo‘lg‘on Peterburx shahridag‘i imperatorskaya publichnaya kitobxonag‘a topshurubdurlar. Va ul Qur‘onni xohlagan musulmoniyalar bemo‘ne kirib ko‘rub ziyorat qiladurlar.

Mundin to‘rt yil muqaddam Peterburx shahridag‘i arxiulugicheski institut madrasaning Pisorev nomliq ulamoi mudarrisi mazkur Qur‘onning xud harflarig‘a va naqshlarig‘a va katta-kichiklig‘ig‘a va varaq va satrlarini baayni o‘zig‘a o‘xshash qilib putug‘raf ilan ellik adad nusxa tayyorlab bir adadini Hazrati Sulton halifag‘a va bir adadini Misr Xadivig‘a (Misr podshohi — mualliflar) va bir adadini Eron podshohig‘a va bir adadini hazrati Buxorog‘a va bir adadini hazrati Xeva xonig‘a va bir adadini hazrati afg‘on amirig‘a va bir adadini Moruk (Marokash) ya‘ni Fos

sultonig'a va bo'lak musulmoniya podshohlarig'a har qayularig'a bir adaddin hadya bermakg'a niyat qilinibdur. Va qolg'on 25 adadini sotmoqqa bo'ludur. Va lekin har bir adadining bahosi besh yuz so'mdin sotiladur. Mazkur tariqada qilingan nusxa asl nusxadagidek yetti yuz olti adad katta varaqdin (maqola muallifi sahifani nazarda tutgan bo'lsa kerak. — Mualliflar) tarkib topib, tamomi naqshlari o'zidek har xil rang ilan munaqqash qilinib va qalin qog'ozg'a olingandur. Va bul yilning oxirig'acha ul nusxalar tayyor bo'lsa kerak. Agar musulmoniya boyonlari biror katta masjidg'a qo'ymoq uchun bul tariqa nusxani sotib olmoqqa xohlasalar, Peterburx shahridag'i imperaturskaya publichnaya kitobxonag'a ariza qilib, besh yuz so'm yuborsalar bo'ludur. Darhaqiqat, musulmoniya boyonlari munday tabarruk Kalomi Sharifni sotib olsalar nihoyatda yaxshi bo'lar edi»¹⁵⁵.

Londondagi Britaniya muzeyida «Muqaddas qo'lyozmalar bizni yaqinlashtiradi» deb nomlangan xalqaro ko'rgazma ish boshladi. Unda yahudiylik, nasroniylik va islom diniga oid eng mashhur va qimmatbaho qo'lyozmalari namoyish etilmoqda.

Britaniya, Oksford, Stokolm va Parij muzeylari, Lids, Manchester, Kolledjvil (AQSH), Toshkent islom universitetlari, Britaniya, Marokash Podshohlik va Milliy kutubxonalari hamda Irlandiyaning Chester Bitti kutubxonasi o'rtasidagi hamkorlikning hosilasi bo'lgan ushbu ko'rgazma Buyuk Britaniya qirolichasi Yelizaveta 2 ning turmush o'rtog'i Edinburg Gersogi va Marokash podshohi Muhammad 4 sha'feligida o'tkazilmoqda.

S.MAKKENDRIK,
Britaniya kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limi direktori:

ISLOM MADANIYATINING BEBAHO GANJINASI

Ko'rgazmada uch din rivojining turli davrlariga tegishli bo'lgan 200 dan ziyod beqiyos eksponatlari, qadimiy diniy qo'lyozmalari

¹⁵⁵ O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2007, 22-son.

namoyish etilmoqda. Ularning eng qimmatbaho namunalari orasidan ko'rgazma tashkilotchilariga yurtimiz vakillari tomonidan taqdim etilgan «Usmon Qur'oni»ning qo'lyozma nusxasi, «O'lik dengiz o'ramlari» va «Injil»ning eng qadimiy nusxasi joy olgan.

«Usmon Qur'oni»ning asli O'zbekiston musulmonlar idorasining kutubxonasida saqlanadi. Uning London ko'rgazmasida ishtirok etish uchun taqdim etilgan nusxasi Britaniya kutubxonasida eng qimmatli va noyob eksponatlardan biri sifatida talqin etilmoqda. Shu bilan bir qatorda ko'rgazma mehmonlarida buyuk olim Mahmud az-Zamaxshariy tomonidan tuzilgan «Al-Kashshof» tafsirlari (Britaniya kutubxonasiga tegishli) ham katta qiziqish uyg'otdi.

Anjumanning ochilishi arafasida bo'lib o'tgan tantanali qabul marosimida taniqli olimlar, Britaniya hukumati, diplomatiya korpusi, ekspert va ilmiy-akademik doiralar vakillari, diniy ulamolar, jurnalistlar ishtirok etdi. Marosimda so'zga chiqqan Buyuk Britaniya madaniyat ishlari vaziri T.Jovell hamda Britaniya kutubxonasi direktori L.Brayndli xonim bu kabi tadbirlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashgani holda bunday anjumanlar turli dinlar vakillari o'rtasidagi tinch-totuvlik va bag'ri-kenglik tamoyillarini targ'ib qilish, jahon hamjamiyatiga uch samoviy din o'rtasida mavjud bo'lgan o'zaro bog'liqliklarni tushuntirish ishiga xizmat qilishini qayd etdilar.

Britaniya jamoatchiligi «Usmon Qur'oni»ning namoyishini katta qiziqish bilan kutib oldi. Britaniya kutubxonasi direktori L.Brayndli xonimning aytishicha, ko'rgazmada ma'rifatparvar islom markazlaridan biri bo'lgan O'zbekistondan kelgan eksponatlarning namoyish etilishi mamlakatda yuqori darajadagi ma'naviyat, madaniyat masalalariga hamda xalqning tarixiy merosini targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi. «Bu esa o'zaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish istagida bo'lgan olimlarimiz uchun yaxshi imkoniyat bo'lib xizmat qiladi», dedi Brayndli xonim.

Britaniya kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limi direktori S.Makkendrik «Usmon Qur'oni» islom madaniyatining bebaho ganjinasini ekanini alohida ta'kidladi.

E'TIROF

— Bu ganjinani qabul qilishni dunyoning ko'plab ilmiy va madaniy

muassasalari o'zi uchun sharaf, deb biladi, — dedi u. — Ana shunday imkoniyat aynan Britaniya kutubxonasiga taqdim etilgani uchun biz o'zbekistonlik do'stlarimizdan minnatdormiz. Qo'lyozmaning salobatli hajmi unga nisbatan hurmat hislarini uyg'otishi bilan bir qatorda ushbu noyob manba ulkan ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega ekanidan ham dalolat beradi, — dedi olim.

Londondagi Sharq va Afrika tadqiqotlari maktabining Islom fanlari markazi direktori Muhammad Abdul Xalim bu kabi uchrashuvlarni o'tkazish islom merosi, madaniyati va fanini targ'ib qilishda juda muhim ahamiyat kasb etishini aytdi. U Britaniya jamoatchiligiga o'z ma'ruzalari bilan o'rtoqlashishlari uchun o'zbekistonlik islomshunos olimlarning tashriflarini tashkil etish hamda ularning ilmiy maqolalari o'zi rahbarlik qilayotgan «Qur'on tadqiqotlari» jurnalida chop etilishi yuzasidan ko'maklashishga tayyor ekanini malum qildi.

O'zaro muloqotlar chog'ida Britaniyaning madaniy-akademik va siyosiy doiralari vakillari O'zbekistonning diniy qadriyatlarni asrab-avaylash va targ'ib qilish borasidagi tajribasini o'rganishga katta qiziqish bildirishdi. Bu esa marifatparvar islomning chuqur tarixiy ildizlari, mamlakatimizdagi ma'naviyat va dinlararo uyg'unlikning etirofidan dalolatdir.

FRANSIYADA TEMURIYLAR ASSOTSIATSIYASINING YUBILEYI NISHONLANDI

Fransiyaning Temuriylar davri tarixi va san'atini o'rganish bo'yicha assotsiatsiyasi o'zining yigirma yilligini nishonladi.

Mazkur assotsiatsiya 1988 yilda tashkil etilgan bo'lib, sohibqiron Amir Temur va Temuriylarning boy madaniy merosini o'rganish, Fransiya jamoatchiligi orasida O'zbekistonning ko'hna tarixi va

madaniyatini targʻib etish ishlari bilan shugʻullanadi. Tashkilot Temuriylar davriga oid ilmiy tadqiqotlar olib boradi, turli taqdimotlar oʻtkazadi hamda adabiyotlar nashr etadi. Assotsiatsiyaning «Temuriylar» nomli jurnali sahifalarida Oʻzbekiston va Fransiya olimlarining mazkur davr tarixi, sanʼati va madaniyatiga bagʻishlangan, shuningdek, Oʻzbekistonning bugungi kundagi ilmiy va madaniy hayotiga doir ilmiy maqolalar muntazam ravishda chop etib kelinmoqda.

Shampan hududida joylashgan Sezan shahrida sohibqiron Amir Temur tavalludining 672 yillik va «Temuriylar assotsiatsiyasi»ning yigirma yillik yubileyi munosabati bilan tashkilotning sayyor tadbirlari boʻlib oʻtdi. Unda Temuriylar assotsiatsiyasi rahbarlari va aʼzolari, ushbu shahar maʼmuriyati hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Sezan shahri meri tadbir mehmonlarini qutlar ekan, u boshqarayotgan shahar ahli va maʼmuriyati Temuriylar davri tarixi va sanʼatani oʻrganib kelayotgan assotsiatsiya yubileyida ishtirok etayotganidan mamnunligini qayd etdi. «Binobarin, tashkilot ikki xalq oʻrtasidagi doʻstlik va oʻzaro tushunish tuygʻularini mustahkamlashga xizmat qilmoqda hamda Fransiya jamoatchiligida Oʻzbekistonning koʻhna tarixi va boy madaniyatini har tomonlama targʻib etashga koʻmaklashmoqda», dedi u.

Mamlakatimizning fransiyadagi elchisi R.Olimovning maʼruzasida qayd etilishicha, Oʻzbekistonda buyuk ajdodlar tomonidan koʻp asrlar davomida yaratilgan oʻzbek xalqining ulkan maʼnaviy va madaniy merosini qayta tiklash ishi davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Ular orasida Amir Temurning hayoti va faoliyati hamda tarixda tutgan rolga alohida ahamiyat karatib kelinmoqda. Sohibqiron bobomizning buyuk xizmatlariga ehtirom ramzi sifatida Toshkent, Samarkand va Shahrisabz shaharlarida ul zotga haykallar oʻrnatildi, shuningdek, Oʻzbekistonning ulugʻvor tarixi va bugungi kunini oʻzida aks ettirgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi.

Assotsiatsiya prezidenti va asoschisi, professor Lyusyen Keren Amir Temurning tarixda tutgan oʻrni va merosiga batafsil toʻxtaldi.

— Amir Temur jahon tarixida yorqin iz qoldirgan buyuk shaxs edi, — deya taʼkidladi fransiyalik olim. — Amir Temurning beqiyos

xizmatlari yana shu bilan ibratliki, u tarixning murakkab davrida xalqni totuvlik va hamjihatlik sari boshladi, tarqoq o'lk va xalqlarni birlashtirdi hamda kuchli markazlashgan davlatga asos soldi. Shuningdek, u iqtisodiyot, ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnashini ta'minladi, xalqaro siyosiy va savdo munosabatlarini o'rnatdi.

L. Kerenning so'zlariga ko'ra, «Amir Temur eng avvalo, buyuk davlat arbobi, iste'dodli sarkarda va diplomat, ilm-fan vasan'at homiysi kabi sifatlari bilan ajralib turgan. Poytaxti Samarqand shahrida joylashgan ulkan saltanat hukmdori — Amir Temur o'tkir zehn sohibi bo'lib, davlat boshqaruviga oqilona yondashgan. Shu bois tinchlik va barqarorlik hukm surdi, savdo va hunarmandchilik ravnaq topdi. Sohibqiron hamisha adolat tarafdori bo'lib, ilm-fan, madaniyat va san'at arboblari hurmat bilan munosabatda bo'lgan hamda ularni qo'llab-quvvatlagan. Amir Temur o'z farzandlari va nabiralari ham shu ruhda tarbiyaladi. Natijada ularning aksariyati tarixda munosib iz qoldirdi. Movaroun-nahr hukmdori, o'rta asrlardagi buyuk astronom va faylasuf Mirzo Ulug'bek, Hindiston hududida ulkan va ravnaq topgan davlatga asos solgan podshoh, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur, shuningdek, Xuroson hoqoni va ko'plab nazmiy asarlar muallifi Husayn Boyqaro nomlari butun dunyoga mashhur. Temuriylar davri — bu inson tafakkurining ulug'vor yuksalishi, ilm-fan, san'at va me'morchilik jadal taraqqiy etgan palla sifatida ham tarix solnomalariga muhrlangan».

Fransiyalik olim O'zbekiston hukumati tomonidan o'zbek xalqining madaniy merosini qayta tiklash va uni boyitish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga yuqori baho berib, jumladan shunday dedi: «Amir Temur shaxsi va uning insoniyat tarixida tutgan muhim o'rmini jahon hamjamiyatiga yetkazish borasida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning xizmatlari ayniqsa beqiyosdir».

Tadbir so'ngida «Samarqand shashmaqomi» folklor ansambli ijodiy jamoasi tomonidan taqdim etilgan o'zbek mumtoz qo'shiqlari hamda raqs ijrolari kechaga ajoyib shukuh bag'ishladi.

Mardon YOQUBOV
«Jahon» AA muxbiri, Parij

AMIR TEMUR HAQIDAGI HIKOYALAR



Amir Temurning dono tadbiri

Sohibqiron amaldorlarni faoliyatini qattiq nazorat ostiga tutgan. O'z burchini bajarishda manmanlik, beparvolik, maqtanchoqlik va shaxsiyatparastlikka berilgan amaldorlarga qarshi qattiq choralar ko'rgan. Kunlarning birida Amir Temur barcha amaldorlarning qatnashuvida Haqqul ismli kishiga: «Siz shu bugundan boshlab mansabdan mahrum etildingiz, — debdi.

— Podshohi olam, hammavaqat mening qilgan ishlarimdan mamnun bo'lib, bir necha bor maqtagansiz-ku.

— Gapingiz to'g'ri, lekin sizning yurish-turishingiz va so'z-laringiz egallab turgan mansabingiz doirasidan oshib ketdi. Siz bosar-to'saringizni bilmay haddingizdan oshib ketdingiz. Arzimagan narsaga ham odamlarga qamchi ko'tarayotganligingiz haqida ma'lumotlar kelib turibdi. To'y va marosimlarga qariyalardan oldin to'rga o'tirib dasturxonga birinchi qo'l uzatadi va hyech kimni mensimaydi, deyishayapti. Bular kamdek, o'tgan jumada masjid oldida o'tirgan qariyalar ro'parasidan otdan tushmay, gerdayib o'tib ketibsiz. Shu tarzda qabristonni ham bosib o'tibsiz. Bizga tirikni ham, o'likni ham oyoq osti qiluvchi amaldorning keragi yo'q.

Amir Temur o'sha yig'ilishda ikkinchi bir amaldorlarni sustlikda ayblab: Sizning so'zlaringiz, o'zingizni tutishingiz, yurish-

turishingiz va qilayotgan ishlaringiz egallab turgan mansabingiz doirasidan juda pasayib ketdi, siz ham ishdan olindingiz, — debdi.

Shu tariqa sohibqiron mansabdorning birini haddidan oshganligi, ikkinchisini sustligi uchun mansabdan chetlatgan.

Samarqand atrofidagi bir qishloq aholisining vakillari Amir Temurga shunday deyishibdi: — «Podshohi olam! Biz suv yetishmasligi orqasida ko'p yillardan beri qiynalamiz. Siz uni hisobga olib, mingboshiga yangi ariq qazib suvni ko'paytirish haqida ko'rsatma bergan edingiz. Ammo Siz xorijiy mamlakatga ketganingizdan keyin, mingboshi ariq qazishni to'xtatib qo'ydi. Natijada bu yil ham yaxshi hosil ololmay, og'ir ahvolga tushib qoldik. Bizning soliqlardan ozod qilishingizni o'tinib so'raymiz».

G'azablangan Amir Temur qishloqqa borib va vaziyatni o'rganib, 30 kun ichida ariqni qazib bitirishni buyuribdi. Mingboshi bu vaqtda uzoq joyga mehmonga ketgan ekan. U kelgandan keyin hamma ishga bosh-qosh bo'lib, hashar yo'li bilan topshiriqni 20 kunda bitkazib xabar qilish uchun saroyga kelibdi. Bu yerdagi amaldorlar o'zida yo'q xursand mingboshini ishni muddatdan oldin do'ndirib bajarganligi bilan tabriklashib ming boshidan sovg'a olishini bildirishibdi.

Bunga javoban mingboshi ularga katta ziyofat berishni va'da qilibdi. Ma'lum fursatdan keyin Amir Temur uni qabul qilib:

- Qanday qilib topshiriqni muddatdan oldin bajardingiz?
- Olam panohimiz, katta g'ayrat va shijoat bilan ishladik.
- Juda yaxshi, lekin nima uchun siz bu ishni o'zingizcha qilabermay, men aralashgandan keyingina kirishingiz.
- Uzu so'rayman, beparvolik qilibman.
- Bilasizmi, bu beparvolik dehqonlarga qanchadan-qancha ziyon keltirdi. Buning ustiga siz davlatimizning obro'yiga ham putur yetkazdingiz.
- Nima bo'lsayam ish bitib qishloqqa suv keltirildi, haloyiq benihoyat xursand.

— Agarda bu ishni o'zingizcha qilganingizda, taqdirlagan bo'lar edim. Shuni unutmashlik kerakki, u yoki bu amaldor imkoni va sharoiti bo'laturib topshirilgan ishni haloyiqning shikoyati va hukmdorning aralashuvidan keyin amalga oshirsa, hisobga olinmaydi hamda gunohi kechirilmaydi.

Shu boisdan, — debdi Amir Temur, — mingboshiga darra urilsin, mol-mulki musodara qilinib qishloq aholisi foydasiga musodara qilinsin. Bu voqyeadan keyin amaldorlar o'z vazifalariga juda ma'suliyat bilan qaraydigan bo'lishibdi. Podshoh saroyiga aholi tomonidan tushadigan shikoyatlar ancha kamayibdi.

ADOLATLI HUKM

Amir Temur birorta shahar yoki qishloqqa borsa bozordagi sharoit va narx-navoni ko'zdan kechirar ekan. Bir kuni Samarqanddagi bozorga kirs qassob go'shtga me'yoridan ortiq narh qo'yibdi. Amir Temur uni ochko'zlik va insofsizlikda ayblab darra urdiribdi. Shundan keyin bozorda hamma mollarning narxini oshirib sotishga hyech kim jur'at qilolmabdi.

Amir Temur shaxsiy manfaatlarini o'ylab soxta obro' orttirishga harakat qilgan amaldorlarni ham jazolagan. U mamlakatning bir katta qishlog'ida bozorni chekkasida kasalga chalingan va holdan toygan eshakka achinib bir oz tikilib turgan. U ketgandan keyin mingboshi bu eshak podshohimizning nazarlariga tushdi deb rosa parvarish qiladi. Ma'lum vaqtdan keyin eshak semirib va yiltillab ketdi. Mingboshi odamlarga: bu eshakda bir sir va hislat borki sohibqiron oliylarining diqqatini jalb qildi. Shu bois uni ziyorat qilish har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Bunga ishongan amaldorlar va odamlar eshakni ziyorat qiladigan bo'lishibdi. Amaldorlardan biri mingboshiga:

Taqsir! Aql-idrokingizga qoyilmiz. Podshohimizning nazarlari tushgan eshakni qadr-qimmatini o'rniga qo'ydingiz. Ajab emaski martabangiz bundan ham ziyoda bo'lsa. U bunday so'zlardan xursand bo'lib martabasini oshishiga umid bog'ladi. Hatto qilgan ishini Amir Temurga ma'lum qilish uchun Samarqandga bordi. Bu yerda Amir Temur uni qabul qilib: — Men qishloqda kambag'al va yetimlarni boshini silab va tangalar berib xursand qilganman. Shu tariqa ular meni nazaringa tushib behad xursand bo'ldilar. Biroq siz buni hisobga olib ularga mehribonlik va g'amxo'rlik qilish o'rniga dardga chalingan eshakni boqib va parvarish qilib odamlarni uni ziyorat qilishlariga taklif qilibsiz. Axir hayvonni emas balki

kambag'al va yetimlarni ta'minlab turish lozim edi-ku. Nahotki insonni eshakdan farqi borligini anglamaslik shunchalik qiyin bo'lsa. Siz nodonlik va farosatsizlik qilib soxta obro' ortdirish va o'rinsiz maqtonishga berilib kechirilmaydigan xatoga yo'l qo'ydingiz. Shu bois sizni lavozimdon bo'shatish va darra urush jazosiga tortish haqida farmon berdik.

VAQT OLTINDAN HAM...

Buyuk Amir Temur o'zining eng yaqin safdoshlari bilan samimiy suhbatlashib o'tirganda ulardan biri:

— Podshohi olam! Bilasizki ko'pdan-ko'p azob-uqubatlar va xatarli kunlarni birgalikda boshimizdan kechirgan edik. Hatto xalqimizning bir burda nonga zor bo'lgan vaqtlarini ko'rganmiz. Ollohga ming qatra shukrlar bo'lsinki, taxt qo'lga kiritilgach tinchlik va farovonlikda yashamoqdamiz. Hyech bir narsaga muhtojligimiz yo'q.

— To'g'ri aytasizlar, yurtimizda insonga nimaiki zarur bo'lsa barchasi mavjud. Ammo shaxsan menda bir yetishmovchilik bor. U ham bo'lsa vaqtdir. Qilishimiz lozim bo'lgan ishlar shu darajada ko'pki ularni amalga oshirishga vaqt ozlik qilyapti. Bamisoli kishi sahroda suvga qanchalik chanqoq bo'lsa men ham vaqtga shunchalik ko'p tashna bo'lib yuraman. Hyech kimga sir emaski vaqtни sotib olish yoki o'rmini bosadiganni topishni hyech iloji yo'q. U bir marotaba o'zini ko'rsatadiyu, so'ng o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi. Masalan bugungi soat va kunni ertaga topib bo'lmaydi. Shu bois mening uchun vaqtning har bir daqiqasi oltindan ham qimmatlidir.

Shu onda suhbatdoshlar: Ey olloh podshohimizga vaqtни ko'p bergin deyishib duoga qo'l ko'tarishibdi hamda uni sha'niga uzundan-uzoq duo va maqto'v so'zlarini takrorlay berishibdi.

— To'xtatinglar, Sizlar meni hadeb maqtay berib vaqtimni olyapsizlar. Vaqt ollohning nig'mati, albatta. Ammo uni tejash va undan samarali foydalanish siz va boshqa mansabdorlarning muqaddas burchdir. Bilasizlarki mening farmonlarim yoki topshiriqlarim hamma vaqt ko'ngildagidek amalga oshirmasligi orqasida aralashishimga va ortiqcha vaqtini sarflashga to'g'ri kelyapti. Agar mansabdorlar o'z zimmalaridagi vazifalarni doimo o'z vaqtida

ko'ngildagidek ado etganlarida ortiqcha tekshirish va yig'ilishlarga o'rin qolmas edi. Bu bilan hammamizning vaqtimiz tejali ko'p ishlarni qilish imkoni tugilardi. Ma'lumki, saroyda va boshqa joylarda yig'ilish o'tkazganimda har bir kishi navbati bilan meni duo qilish va maqtash bilan shug'ullanadi. Shu paytda vakti bekorga sarflanayotganligidan yuragim achib xuddi ninani ustida o'tirgandek bo'laman. Gap shuki bundan buyon har bir kishi salom-alikdan so'ng bevosita ishga taalluqli fikr-mulohazalarini qisqa bayon etsin.

Demak, mening vaqtimni tejash mansabdorlarning qo'lida. Ular har bir ishni bilimdonlik bilan bajarsa vaqtni tejash imkoni tug'ilardi. Xullas oltin va durlardan ham qimmatli vaqtni qat'iy ravishda tejash har bir mansabdorning muqaddas burchidir.



TEMUR TUZUKLARI



**FORSIDAN ALIHON SOG'UNIY VA
HABIBULLO KARAMATOV TARJIMASI,
IZOHLAR B.AHMEDOVNIKI**

BISMILLOHIR-RAHMONIR-RAHIM

BIRINCHI MAQOLA

TADBIRLAR VA KENGASHLAR

Oʻzga mamlakatlarni zabt etish, ularni idora qilish, gʻanim lashkarlarini sindirish, dushmanni tuzoqqa tushirish, muxoliflarni (koʻnglini topib) doʻstga aylantirish, doʻst-dushman orasida muomala, murosayu madora qilish xususida ushbu tadbir va kengashlarni qoʻlladim.

Pirim Zaynuddin Abubakr Toybodiy¹⁵⁶ menga yozmishlarkim: «Abulmansur¹⁵⁷ Temur saltanat yumushlarida toʻrt ishini qoʻllasin, yani: 1)kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) hushyorligu mulohazakorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato boʻlgan johil odamga qiyoslash mumkin: uning soʻzlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay. Shunday ekan, saltanatni boshqarishda mashvaratu maslahat va tadbir bilan ish yuritgan, toki oqibatda nadomat chekib, pushaymon boʻlmagaysan. Yana shuni ham bilgilkim, saltanat ishlarining bir qismi sabru toqat bilan boʻlgay, yana bir qismi esa bilib-bilmaslikka, koʻrib-koʻrmaslikka solish bilan bitur. (Xullas) tadbirlardan ogoh qilingandan keyin shuni aytish joyizdirkim, qatyyilik, sabr, chidamlilik, hushyorlik, ehtiyotkorlik va shijoat bilan barcha ishlar amalga oshirilgay. Vassalom».

Bu maktub menga yoʻl boshlovchi yangligʻ rahnamolik qildi. U menga saltanat ishlarining toʻqqiz ulushi mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini anglatdi. /Donishmandlar/ demishlarkim, oʻz oʻrnida qoʻllangan

¹⁵⁶ Zaynuddin Abubakr Toybodiy - xurosonlik yirik shayx va shayxulislom Amir Temurning eʼtiqod qoʻygan pirlaridan; tinchliksevar va raiyatparvar inson.

¹⁵⁷ Abulmansur (lugʻaviy maʼnosi: zafarmand, gʻalaba qozonuvchi) - ulamo va mashoyix tarafidan Amir Temurga berilgan faxrli nom.

tadbir bilan ko'plab lashkarining qilichi o'zlik qilgan har qanday mamlakat darvozasini ochib, favj-favj askarlarni yengib bo'lur. Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab odamga ish buyuradi.

Men yana tajribamda ko'rdimki, g'anim lashkarini yengish qo'shinining ko'pligabilan emas, mag'lub bo'lish esasi pohning kamligidan bo'lmaydi. Balki /Tangrining/ madadi va bandasining tadbiri bilandir. Chunonchi, men kengashgan va tadbir yuritgan holda ikki yuz qirq uch kishi bilan Qarshi qal'asi ustiga yurdim. Amir Muso va Malik bahodir o'n ikki ming otliq askar bilan qal'a va uning atrofini qo'riqlamoqda edilar. Lekin Tangri taoloning yordami yetib, o'zim qo'llagan to'g'ri tadbirlarim orqali Qarshi qal'asini egalladim.

Shundan so'ng amir Muso va Malik bahodir o'n ikki ming otliq askar bilan ustimga bostirib kelib meni Qarshi qal'asida qamal qildilar. Men Tangrining madadi va inoyatiga ishonib, tadbirkorlik va ehtiyotkorlik ishlatgan holda qalyadan chiqdim va qulay fursat topib bir necha marta jangga kirdim. Pirovardida shu ikki yuz qirq uch yigitim bilan o'n ikki ming otliq g'anim lashkarini mag'lubiyatga uchratdim va ularni bir necha farsang yergacha quvib bordim.

Yana tajribamdan o'tmishkim, garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi orqasida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishi mulohazakorlik, tadbir va kengashga tayanishi lozim. [Shuning uchun] payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallam (unga tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin) aytganlaridek, har bir ishni qilishga kirishar ekanman, avval obdon o'ylab, [amirlarim bilan] kengashdim.

Maslahatchilar va kengash ahli yig'ilganda oldimizdagi ishlarning yaxshi-yomon, foydayu ziyon tomonlari, ularni qilish-qilmaslik haqida so'z ochib, [ulardan] fikr so'rar edim. Ularning so'zlarini eshitgach, ishning har ikki tomonini mushohada qilib, foydaziyonlarini ko'nglimdan kechirardim; uning xatarli tomonlariga ko'proq etibor nazari bilan qarardim; qaysi bir ishda ikki xatar

mavjud bo'lsa, uni [bajarishdan] voz kechardim va bir xatarlik ishni ixtiyor etardim. Chunonchi shunga ko'ra Tug'luq Temurxonga¹⁵⁸ to'g'ri yo'l ko'rsatganman. Uning amirlari Dashti jete¹⁵⁹ da isyon tug'ini ko'targanlarida, mendan maslahat so'radi. Unga shunday dedim: «Agar g'animni sindirish uchun bir favj askar yuborsang, oldingda ikki xatar bordir, agar o'zing borsang, bir xatar mavjud». U mening maslahatimga kirib, Dasht tomon o'zi borib edi, men aytgandek bo'ldi.

Ishlarimning barisida avval kengash-maslahat qo'lladim, ishni bajarishga kirishar ekanman, oldindan chora-tadbirlar belgilab qo'yardim, hamda bu ish qanday yakunlanishi haqida fikr-mulohaza qilgan holda ish boshlardim; so'ngra, kezi kelganda, to'g'ri tadbir va qat'iy jazm, yoxud mulohazakorlik va ehtiyotkorlik, yoki uzoqni ko'rib, ortini o'ylagan holda, uni [ko'ngildagidek] nihoyasiga yetkazardim.

Yana tajribamdan o'tkazdimki, so'zlarida ittifoqlik bo'lgan, qilmoqchi bo'lgan ishlarini biror vajh ko'rsatib bajarmasdan qoldirmaydigan; agar biror ishni qilmaslikka so'z berar ekanlar, qaytib uning yaqiniga ham yo'lamaydigan kishilargina kengash ahli bo'la oladilar.

Tajribamdan malum bo'ldiki, kengash ikki turli bo'lur. Biri - til uchida aytilgani, ikkinchisi - dildan chiqqani. Til uchida aytilganini [shunchaki] eshitardim. Dildan aytilgan maslahatni esa qalbim qulog'iga quyardim va dilimga joylardim.

Agar [g'anim ustiga] lashkar tortmoqchi bo'lsam, urush-yarashdan o'rtaga so'z tashlab, amirlarim ko'ngillarning bu ikkovidan qay biriga moyilligini bilishga intilardim. Agar yarashdan so'z ochsalar, buning foydasini urush ziyoniga solishtirib ko'rardim. Agar urushga moyil bo'lsalar, uning naf va foydasini yarash ziyoniga taqqoslab ko'rardim; qaysi biri foydaliroq bo'lsa, shuni ixtiyor qilardim.

¹⁵⁸ Tug'luq Temurxon - Mo'g'uliston xoni (1348-1363).

¹⁵⁹ Jete - mamlakat nomi; Chig'atoy ulusi ikki qismga ajralib ketgandan (XIV asrning o'rtalarida) keyin Yettisuv va Chu vohalari va sharqiy Turkistonni o'z ichiga olgan. Uning sharqiy-shimoliy qismi tarix kitoblarida Mo'g'uliston yoki Jete nomi bilan atalgan.

Sipohni ikkilantiradigan [turumsiz] kengashni eshitishdan saqlanardim. Kengash ahlidan kimki kuyinib maslahat bersa, quloq solardim, lekin kimki oqilona gaplarni erlarcha keskinlik bilan soʻzlasa, uni diqqat bilan tinglardim.

Har kimdan soʻz olib, kengash soʻrar edim. Lekin aytilgan har bir maslahatning yaxshi va yomon taraflari haqida oʻylab koʻrgach, toʻgʻri va savoblirogʻini tanlab olardim.

Chunonchi, Chingizxon avlodidan boʻlmish Tugʻluq Temurxon Movarounnahr mulkini bosib olish qasdidagi qoʻshin tortib,¹⁶⁰ Xoʻjand suvidan kechib oʻtgach, menga, amir Hoji barlos¹⁶¹ va amir Boyazid jaloyir nomiga yorligʻ joʻnatib, uning huzuriga borishimizni talab qilgan edi. Ular men bilan kengashdilar: «Oʻz el-ulusimiz bilan Xurosonga ketaylikmi yoki Tugʻluq Temurxon qoshiga boraylikmi?» Men ularga bunday yoʻl koʻrsatdim: «Tugʻluq Temurxonning huzuriga borsangiz ikki foyda, bir ziyon bordir. Xuroson tomonga oʻtib ketishning [esa] ikki ziyoni, bir foydasi bordir».

Ular mening kengashimga kirmay [el-yurti bilan koʻchib] Xuroson tomonga ketdilar.

Men ham Xurosonga yoki boʻlmasa Tugʻluq Temurxonning qoshiga borish-bormasligimni bilmay ikkilanib qoldim.

Shu hol asnosida pirim [Taybodyi]dan maslahat soʻrab xat yozgan edim, ushbu mazmunda javob yozib yuboribdilar: «Toʻrtinchi xalifa (hazrati Ali ibn Abu Tolib)¹⁶²dan, unga Tangrining karamu marhamati boʻlsin, bir kishi soʻrabdiki, osmon - kamon, yer - kamon ipi, hodisalar oʻq boʻlsa, insonlar ul oʻqqa nishon boʻlsa, otgʻuchi [esa] - Xudoyi taolo boʻlsa, uning qudrati yana ham ulugʻ boʻlsin, odamlar qayerga ham qochadilar?» Xalifa javob qilib: «Odamlar Tangrining qoshiga qochsinlar», debdilar. Shunga oʻxshash sen ham hozir Tugʻluq Temurxonning oldiga qochgʻil va qoʻlidagi oʻq-yoyini tortib olgʻil».

¹⁶⁰ 1360 yilning bahorida sodir boʻlgan.

¹⁶¹ Hoji Barlos - nufuzli barlos beklaridan; Amir Temurning amakisi; Kesh va unga tobeʼ yerlar hokimi.

¹⁶² Ali ibi Abu Tolib - toʻgʻri yoʻldan borgʻuvchilar jumlasidan toʻrtinchi xalifa (656-661); Muhammad paygʻambarning amakivachchasi va kuyovi. Xorijiyalar tarafidan 661 yili Kufada oʻldirilgan.

Bu javob kelishi bilan ko'nglim ko'tarilib, yuragim bundan quvvat oldi va Tug'luq Temurxon qoshiga borishga ahd qildim. Lekin biron ishni qilmoqchi bo'lsan, kengashib olgach, keyin Quryondan fol ochardim va Quryon hukmi bilan ish qilur edim. Tug'luq Temurxon oldiga borishdan avval Qur'ondan varaq ochsam, «Surayi Yusuf» alayhis-salom chiqdi va Quryoni Majid hukmiga amal qildim.

TUG'LUQ TEMURXON BILAN UCHRASHGANIMDAN SO'NG KO'NGLIMGA KELGAN BIRINCHI KENGASH

Tug'luq Temurxon, [sarkardalari] Bekijak, Hojibek erkinit,¹⁶³ Ulug' To'qtemur kerayit¹⁶⁴ va Jetening boshqa amirlaridan uch favj tuzib, ularni Movarounnahr mamlakatini talon-taroj qilish uchun yuborganligi, o'sha uch favj qo'shni Xuzor¹⁶⁵ degan joyga kelib tushganligi xabari mening qulog'imga yetdi. Shunda Tug'luq Temurxonni borib ko'rishdan ilgari bu ochko'z amirlarni moldunyo bilan mahliyo qilib, Movarounnahr viloyatini qatlu g'oratdan qutqarib qolishga qaror qildim.

Tilga olingan amirlarni ko'rganimda ularni haybatim bosdi shekilli, ko'p hurmat ko'rsatib, meni ortiqcha siyladilar. Ularning ko'zlariga o'xshash ko'ngillari ham tor bo'lganligidan, sovg'a-sovurun¹⁶⁶ yo'sinida ularga berilgan har turlik tansiq mollar ko'zlariga ko'p ko'rindi, Movarounnahrni bosib olish va talon-taroj qilish niyatidan qaytdilar.

[Shundan so'ng] to'g'ri borib Tug'luq Temurxon bilan ko'rishdim. Xon kelishimni yaxshilikka yo'yib, [saltanat ishlarida]

¹⁶³ Erkinit - Chig'atoy ulusning sharqiy qismi (Mo'g'uliston)da ko'chib yurgan turk-mo'g'ul qabilalaridan birining nomi.

¹⁶⁴ Kerayit - nufuzli turk-mo'g'ul qavmlaridan birining nomi.

¹⁶⁵ Xuzor - Nasaf (Qarshi) bilan Kesh oralig'ida, karvon yo'li ustida joylashgan o'rta asr shaharchasi. Qashqadaryo viloyatiga qarashli hozirgi G'uzor tumani markazi.

¹⁶⁶ Sovurun - o'rta asrlarda podshoh va xonlar, umuman oliy martabali kishilar bilan uchrashganda ularga qilinadigan tansiq mollardan iborat qimmatbaho tortiq.

mendan kengash so'radi. Ko'rsatgan kengashlarimni to'g'ri deb topib, hammasini qabul qildi.

Shu asnoda Tug'luq Temurxonga xabar keltirdilarkim, [yuqorida aytilgan] uch favj amirlari, yerlik xalqdan naqd pul va sovurunlar olib, ular bilan kelishmishlar. Xon shu ondayoq mol-mulk va naqd pullarni qaytarib olish uchun odam tayin qildi va amirlarni bundan buyon Movarounnahrğa borishlarini man etdi, mansablaridan bo'shatdi. O'rinlariga Hoji Mahmudshoh Yasavuriyni tayin qildi.

Bu haqda amirlar xabar topgach, dushmanlik bayrog'ini ko'tarib, yurtlariga qaytib ketdilar. Yo'lda xonning devonbegisi va bosh maslahatchisi bo'lmish O'g'lonxo'jani uchratdilar. Uni ham o'zlariga og'dirib olib, Jete tomon yuzlandilar.

Aynan shu vaqtda Tug'luq Temurxonning Dashti Qipchoqdagi amirlari ham isyon tutini ko'targani haqida xabar olindi. Bundan xon tashvishga tushdi. U men bergan maslahatga ko'ra Jete tarafga [qarab] yo'l oldi. Movarounnahrni esa menga qoldirdi va bu xususda yorlig'u ahdnoma yozib berdi. Amir Qarachar no'yon¹⁶⁷ ning Movarounnahrdagi tumanini ham menga topshirdi. Men butun Movarounnahr viloyatiga, to Jayxun daryosining sohillarigacha cho'zilgan yerlarga hukmron bo'ldim.

Davlat va saltanatimning boshlanishida eng avval qilgan kengashim shul edi.

Men tajribamdan shuni bildimki, yuz ming otliq askar qilolmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin ekan.

DAVLAT QURISH OLDDAN QILGAN IKKINCHI KENGASHIM

U shundan iborat bo'ldiki, Tug'luq Temurxon men bilan tuzgan ahdu qarorini buzib, ikkinchi bor Movarounnahr mamlakatiga qo'shin tortib keldi va hukumatni mendan tortib olib, o'g'li Ilyosxo'jagatopshirdi. Meni esaungasi pohsolar vamaslahatchi

¹⁶⁷ Qarachar no'yon - Chig'atoy hukumatining yirik nomoyondalaridan; Amir ul-umaro, yani Bosh amir lavozimini egallagan. Amir Temurning beshinchi ajdodi.

qilib tayinladi. Menga Qochuvli bahodir¹⁶⁸ va Qobulxon¹⁶⁹ tomondan bitilgan ahdnomasi ko'rsatdi. Men ulug' bobolarimizning so'z vanomalarini qabul qilib, sipohsolorlik qilishgarozi bo'ldim.

Hijriy 762 (milodiy 1360-1361) yili Tug'luq Temurxon ikkinchi marta Movarounnahrda lashkar tortib kelib, meni o'z huzuriga chorlab noma jo'natdi. Men [rozi bo'lib], uning istiqboliga chiqib, u bilan ko'rishdim. U oramizdagi ahdni buzib, Movarounnahrni o'g'li Ilyosxo'jaga topishrdi, meni esa sipohsolar etib tayinladi. Bu ishga ortiqcha ro'yxushlik bildirmayotganimni ko'rib, bobom Qochuvli bahodir va o'zining bobosi Qobulxonlarning ahdnomasini ko'rsatdi. Po'lat taxtaga yozilgan ahdnomada «xonlik Qobulxon avlodining qo'lida, sipohsolarlik esa Qochuvli bahodir bolalarida bo'lsin, ular bir-biri bilan yovlashmasin», degan so'zlar bitilgan ekan. Buni o'qib ko'rgach, ulug'lar ahdigaga vafadorlik qilish yuzasidan sipohsolarlikni qabul qildim.

Movarounnahrda mo'g'ullarning jabru zulmi ortib ketdi. Chunonchi, sayyid va sayyidzodalardan yetmish kishini asir olib band etdilar. Ilyosxo'ja bo'lsa davlat va siyosat ishlarida layoqatsiz bo'lgani tufayli, ularning zulmu sitamiga barham berishga o'jiz edi. Men bo'lsam o'z salobatim va haybatim bilan mo'g'ullar ustidan g'alaba qildim. Bu Ilyosxo'janing amirlari va mo'g'ullarning menga nisbatan dushmanlik qilishlariga sabab bo'ldi. Ular Tug'luq Temurxonga xat yozib, «Temur bizga qarshi isyon tug'ini ko'tardi», dedilar. Xon bu yolg'on gaplarni chin bilib, meni o'ldirib, yo'qotish haqida yorlig' yubordi. Bu yorlig' mening qo'limga tushib qoldi. Undan o'limga mahkum qilinganimni bilib oldim. Buning ilojini qilib, quyidagi tadbirni ishlatdim. Barlos urug'ining bahodir yigitlarini o'z atrofimga yig'ib, ularni birlashtirdim. Menga bo'ysunib ko'makdosh bo'lish uchun rozilik bergan birinchi kishi - Iki Temur bo'ldi, ikkinchisi - amir Joku barlos edi. Bulardan boshqa ulus bahodirlari ham jonu dillari bilan menga bo'ysunmoqchi [va xizmat qilmoqchi] ekanliklarini bildirdilar.

¹⁶⁸ Qochuvli Bahodir - barloslarning birinchi yetakchisi; Amir Temurning sakkizinchi ajdodi.

¹⁶⁹ Qobulxon - turklarning afsonaviy onasi Alonquvaning avlodi; Chingizxonning uchinchi ajdodi.

Movarounnahr xalqi mening bu ishimdan xabar topishi bilanoq, tezda o'zbeklar ustiga hujum qilishim kerakligi haqida istak bildirdilar. Chunki ularning qalbi zolim mo'g'ullar toifasidan butunlay bezgan edi. Movarounnahr xalqining kattayu kichigi men bilan birlashdi. Mamlakatning ulamo va mashoyixlari esa mo'g'ul toifasini yo'q qilish haqida fatvo yozib berdilar. Bu to'g'rida yozilgan ahdnoma va fatvolarning nusxasi bu edi: «To'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar, Olloh taolo ularning jamisidan rozi bo'lsin, tutgan yo'llariga va qilgan ishlariga muvofiq Movarounnahrda tamom ahli islom, sipohu raiyat¹⁷⁰ yoki ulamoyu mashoyix bo'lsin, Amir Temurga izzatu ikrom ko'rsatib, uni Amir Temur qutbi saltanati oliy deb atasinlar va uni Ollohning [yerdagi] qudrati - saltanat taxtiga munosib ko'rsinlar. Musulmonlarning yer-suvi, nomusi, mol-mulki hamda joniga zulm-sitam qo'lini cho'zgan o'zbeklar toifasini daf' qilishda va umuman yo'qotishda Temurga [yordamlashish uchun] o'z mol va jonlarini [ayamay], tirishib harakat qilsinlar. Bir o'z ahdu bay'at¹⁷¹ imizga sodiq qolurmiz. Agar bergan ahd-paymonimizdan qaytsak, Ollohning qudratiyu quvvati va yordamidan chiqib, shayton qudrati va yordami yo'liga kirgan bo'laylik».

Bu fatvoni menga ko'rsatganlaridan keyin jangu jadal bayrog'ini ko'tarib, mo'g'ullar ustiga lashkar tortishga qaror qildim va mazlumlar haqini zolimlardan olib bermoqchi bo'ldim. Lekin bir necha razil kishilar bu sirni fosh qilib qo'ydilar.

[Shundan keyin] o'ylanib qoldim, «mabodo Samarqand shahri ichida mo'g'ullarga qarshi urush boshlasamu, biroq Movarounnahr ahli [jang qilishdan] qo'l tortsa-chi? [Unda nima bo'ladi?] Shunday bo'lgach, yaxshisi, shahardan chiqib, Samarqand tog'larida o'rinlashay, toki menga qo'shilishni istaganlar huzurimga kelsinlar. Shundamen kattasipoh to'plab, o'zbeklarga qarshi jangu jadalni boshlagayman», deb qaror qildim.

Samarqanddan chiqqanimda oltmish otliqdan boshqa bir kishi ham menga ergashmadi. Shundan bildimki, o'ylagan kengashim

¹⁷⁰ Raiyat - soliq to'lovchi xalq, qora xalq.

¹⁷¹ Bay'at - ahd-paymon, kelishuv, va'da berish; hukumatga itoat haqida berilgan va'da; oliy hukmdorning haq-huquqini etirof qilish.

xato bo'lmagan ekan. O'sha tog'da bir haftacha kutib yotdim, [lekin] biron kishi bizga kelib qo'shilmadi. Shuning uchun kengash tuzib Badaxshon tarafga o'tib, u yerning shohlari bilan qo'shilishga qaror qildim. O'tlanib, Amir Kulol¹⁷² ning huzurlariga bordim. Ular menga Xorazmga borishimni maslahat berdilar. Agar o'zbeklar ustidan g'alaba qozonsam, Samarqandning bir yillik xirojini ularga nazr qilishga qaror qildim. Ular menga zafar tilab fотиha o'qigach, ketishimga ijozat berdilar.

Sayyid Amir Kulolning xizmatlaridan chiqqanimda, menga hammasi bo'lib oltmish otliq hamrohlik qilardi. Ilyosxo'ja mening Xorazmga yurish qilayotganimdan xabar topib, Xivaq hokimi Tavakkal bahodirga xat yozib, menga qarshi chiqishni va meni o'ldirishni buyurgan ekan.

Tavakkal bahodir ming otliq askar olib, mening ustimga keldi. Oltmish otliq yigitim va yo'lda menga qo'shilgan amir Husayn bilan birga ming otliq kishilik g'anım lashkariga yuzma-yuz bo'ldim va jangga kirishdim, Bu jangda shundayin bahodirlik qilib, chidamlak ko'rsatdimki, uning ming kishisidan ellik kishi qoldi, mening oltmish otliq yigitimdan o'n kishigina qoldi. Shunday bo'lsa-da, zafar men tomonda edi [ularni qochirdim]. Mening zafar quchganim xabari Ilyosxo'ja va Jete amirlariga yetgach, ular [taajjublanib], «Temur ajab er kishi ekan, unga Tangrining madadi yetib, baxtu iqboli ochilmish», deb o'zaro so'zlashibdilar. Men bu urushdagi zafarni yaxshilik alomati deb bildim. O'zbeklar mendan cho'chiydigan bo'ldilar.

O'Z SALTANATIMNI TUZISH YO'LIDA QILGAN UCHINCHI KENGASHIM

O'sha vaqtda davlatimning kuchi ketib, saltanatimning asosi yemirila boshladi. Chunonchi, menga ergashgan do'stlarim o'n kishidan ortiq emasdi. Ulardan yettitasi otliq, uch kishi esa piyoda

¹⁷² Sayyid Amir Kulol - naqshbandiya-xojagon tariqatining yirik namoyondalaridan; Buxoro viloyatining Suxori qishlog'ida tug'ilgan. O'sha yerda yashab, 1370 yilda vafot etgan. Qabri ham o'sha yerda.

edilar. Ulardan boshqa men bilan hyech kim qolmagandi. Muhtarama jufti halolim bo'lmish amir Husaynning singlisini otimga mindirib olgan edim. Shu alpozda Xorazm cho'llarida bir necha kun sargardon bo'lib yurdim. Kunlarning birida kech tushgach, qandaydir quduq boshiga kelib yetdim. O'sha kechasi piyoda yurgan uch nafar xurosonlik bevafoqlik qilib, otlarimizni minib qochdilar. Yetti kishi to'rt ot bilan qoldik. Ahvolim juda og'irlashdi. Lekin ko'ngil to'q edi. Bu ishni chakki qilgan ekanman, deb hyech o'ksinmas edim. So'ngra bu quduq boshidan ham ko'chdim. Shu vaqt Alibek Joniqurboniy yopirilib tepamga keldi. Meni [o'z eliga] eltib, burga bosgan bir qorong'u uyga qamab qo'ydi. Bir necha kishini menga soqchi etib tayinladi. Oltmish ikki kun meni tutqinlikda saqladi. Undan qutulish chorasini izlab, o'z-o'zim bilan kengashdim va Tangrining inoyati yetib bahodirligim tutdi. Kuchli va chaqqon bilaklarim ish berib, soqchilardan birining qo'lidan qilichini tortib oldim-da, ularga hamla qilgan edim, hammalari qochib qoldilar.

[Qilich ko'targanimcha], to'g'ri Alibekning ustiga bostirib kirdim. Meni ko'rgach, [hushi boshidan uchdi] qilgan nomaqbul ishidan pushaymon bo'lib, mendan uzr so'radi. Otlarimni, jabduqlarim va yaroqlarimni hozirlatib, menga bir oriq ot va bir qari tuya tortiq qilgan bo'ldi. Og'asi Muhammadbek menga atab yuborgan bir qancha sovg'a-salomlarni ochko'zlik qilib o'ziga olib qoldi. So'ng ketishimga ijozat berdi. Xorazm cho'li tomon ravona bo'ldim. O'n ikki otliq atrofimga to'plandi. Ikki kundan so'ng bir manzilga yetib, qandaydir uyga tushdik. Shu orada bir guruh o'sha yerlik turkmanlar paydo bo'lib, meni ko'lgach «o'g'ri, o'g'ri!» - deyishib hujum qilmoqchi bo'ldilar. Amir Husaynning singlisini bir uyga yashirib qo'yib, o'sha jamoaga qarshi otlandim. Turkmanlar ichida Hoji Muhammad degan odam meni tanib qoldi. «Hoy, to'xtanglar, bu Amir Temur-ku!», deb ularni urushdan qaytardi. O'zi esa tiz urib oldimga keldi. Men ham uning ko'nglini ovlab, boshiga mandilam¹⁷³ ni qo'ydim. Keyin u o'z og'a-inilari bilan menga mulozim bo'ldi.

¹⁷³ Mandil - bosh kiyimi, do'ppi, kuloh, salla; hukmdorlarda mehri tushgan biron kimsaga bosh kiyimi, kamari yoki choponini taqdim etish orqali o'z minnatdorchiligi, hurmat-etiborini bildirish odati bo'lgan.

SALTANATIMNING DASTLABKI DAVRLARIDA QILGAN TO'RTINCHI KENGASHIM

Menga ergashganlar soni oltmish otliqqa yetib qolgandan keyin o'zimcha o'yladim: «Agar kelgan manzilda turaversam-u, mabodo yerlik aholi menga qarshi qo'zg'alib, mo'g'ullarga xabar berib qo'ysalar-chi? Yaxshisi, bu yerdan ketib, el oyog'i yetmagan yerga borib joylashsam, tez fursat-da atrofimga saltanatimning kuch-qudrati bo'la oladigan lashkar to'planar». Shu fikrda u yerdan ko'chib, Xuroson tomonga yuzlandim - Yo'l ustida Mohon hokimi Muborakshoh Sanjariy yuz otliq askari bilan kelib, menga qo'shildi va yaxshi otlar tortiq qildi. U yerning jami sayyidlari va aholisi ham menga qo'shildi. O'sha sahroda otliq, yayov bo'lib ikki yuzga yaqin kishi yonimga kirdi. Shu payt Muborakshoh, sayyid Hasan va sayyid Ziyouddin menga arz qildilar; «Bu sahroda turaverish [lashkar] tarqab ketishiga bois bo'lur, biron tomonga yurib, biron viloyatni egallashimiz kerak». Men o'z-o'zim bilan kengashib, so'ng ularga aytdim: «Xotiramga bir fikr keldi. Samarqandga boraylik. Sizlarni [vaqtincha] Buxoro tomonlarga tarqatib turaman, o'zim esa Samarqand tevaragiga borib, el-ulus ichiga kiraman va ularni o'zimizga ko'plab olishga [harakat qilaman]. Yetarli lashkar yig'ilib [kuch-quvvat qo'lga kirganidan keyin], sizlarni chaqirib olurman. Keyin Jete va Ilyosxo'ja qo'shiniga qarshi jangga otlanurmiz va Movarounnahr mamlakatini qo'lga kiriturmiz».

Ularning hammasi mening bu kengash va tadbirimni to'g'ri deb topdilar. Yurishiga fотиha berishgach, men yo'lga tushdim. Ikki yuz odamimni Buxoro atrofiga tarqatdim. Amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkonog'ani ham yashirinchа o'sha yerda qoldirdim va o'zim Samarqand tomon yo'l oldim. Yo'lda Tamuka qavchin¹⁷⁴ o'n besh otlig'i bilan menga qo'shildi. Sirimni unga aytib, Muborakshoh oldiga yubordim. O'zim yashirinchа ulus oralab, ikki mingga yaqin kishini o'zingа ittifoqchi qildim. Samarqand uzra saltanat bayrog'ini ko'targudek bo'lsam, ular yordamga keladigan bo'ldilar.

¹⁷⁴ Qavchin - nufuzli turk qabilalaridai birining nomi.

Tunda pinhona Samarqandga kirdim va tung'ich opam Qutlug'-Turkonog'aning uyiga borib joylashdim. Kechayu kunduz fikr og'ushida chora-tadbir izladim. Shu tariqa qirq sakkiz kun yashirilib yotdim. Oxiri shaharliklardan bittasi mening bu yerga kelganimni payqab qoldi. Sirim ochilishiga oz qolganda, nochor, kechasi o'zim bilan kelgan ellik otliq bilan Samarqanddan chiqib, yana Xorazm tomon yo'l oldim.

Men bilan bir to'p piyoda kishilar ham bor edi. Yo'l davomida turkmanlarning bir poda yilqisidan bir nechtasini qo'lga kiritib, piyodalarimni ularga mindirdim.

[Ko'p vaqt] yo'l yurib Amu bo'yidagi Achig'iy degan o'nqir-cho'nqir yerga kelib tushdik. Shu yerga kelganimda, Buxoro tevaragida qoldirgan haram ahli, Muborakshoh, sayyid Hasan va boshqa jamoa ham yetishib keldilar. [Bulardan boshqa] Temurxo'ja o'g'lon, Bahrom jaloyir o'zlariga qarashli qo'shin bilan kelib, menga mulozim bo'ldilar. [Shu tariqa], minga yaqin otliq askar atrofimga jamlandi. Shu yerda kengash qilib, Buxtazamin va Qandahor tarafga ravona bo'lishga va o'sha yerlarni tasarrufimga kiritishga qaror qildim.

XURUJ KUNLARI QILGAN BESHINCHI KENGASHIM

Buxtazamin va Qandahor tomon ketayotib, Hirmand daryosining bo'yiga yetganimda to'xtab bir yurt yasattirdim. Askarlarimni siylash uchun bir kun o'sha yerda turdim. Shu asnoda Garmsir viloyatining xalqi vasipohidan qariyb ming otliq turk va tojik ham menga [kelib] qo'shildilar. Shu tariqa Garmsir viloyati ham mening tasarrufimga kirdi.

Shunda Seiston¹⁷⁵ ga bosqin qilishga qaror qildim. Bu xabar Seiston voliysiga yetgach, elchi orqali sovg'a-salomlar yuborib, mendan yordam so'radi: «Dushmanlarim menga zulm qilib, qo'limdan yetti qal'amni tortib oldilar. Agar mendan dushman

¹⁷⁵ Seiston — hozirgi Eron va Afg'oniston tarkibidagi tarixiy viloyat; saklar mamlakati.

qo'lini qisqa qilsalar, askarlarga olti oylik oziq-ovqatni yetkazib berardim».

O'zimga kengashib ko'rib, Seiston tomonga lashkar tortdim. Dushmanlar egallab olgan yetta qal'adan beshtasini kuch va qahr bilan qo'lga kiritdim. Buni ko'rib, Seiston voliysining yuragiga qo'rquv tushdi va kechagi dushmanini endi o'ziga do'st tutdi. «Agar Amir Temur bu yerlarda turib qolar ekan, Seiston mulki qo'limizdan ketishi aniqdir», deyishib, sipoh varaiyat barchasi birlashib, mening ustimga bostirib keldilar.

Seiston voliysi va'dasiga vafo qilmaganligi uchun ilojsiz, yo'llarini to'sib, jangu jadalga kirishdim. Shu payt bir o'q kelib bilagimga qadaldi, yana bir o'q oyog'imga tegib yaraladi. [Shunday bo'lsa ham] oxiri ular ustidan g'alaba qozondim. [Lekin] o'sha mamlakatning ob-havosi mening mizojimga to'g'ri kelmagani sababli, u yerdan ko'chib, yana Garmsirga bordim. O'sha viloyatda yaralarim bitguncha ikki oycha turib qoldim.

XURUJ VAQTIDA QILGAN OLTINCHI KENGASHIM

U shundan iboratki, Гармсир тасарруфимга Фтрач va yaralarim tuzalgach, Balx sarhadidaga tog'larda turib, o'sha yerda qo'shin to'plab, Movarounnahr mulkini zabt etish uchun yurish qilmoqchi bo'ldim. Kengash shunga to'xtagach, bu yerdan otlanib chiqdim. Odamlar tarqalib ketib qirq otliq kishigina qolgan ekanmiz. Lekin ularning barisi aslzoda, amirzoda va nasli pok yigitlar edi. Shundayin azamatlar bu og'ir kunlarda nima uchundir men kabi oltinu molsiz, oziq-ovqatsiz bir kishiga hamrohlik qilib, mening iznimga kirib [tog'-toshlarda ergashib] yurganlari uchun Tangri taologa shukrlar qildim. O'zimcha: «Olloh taoloning men bilan qilarlik ulug' ishlari bo'lg'aykim, o'zim kabi yigitlarni menga bo'sundirmish», — deb o'yladim.

[So'ng] Balx tog'lariga qarab yo'lga tushdim. Ketayotganimizda Qarachar no'yon avlodidan bo'lmish Siddiq barlosga duch keldim. Meni izlab sargardon bo'lib yurgan ekan, o'n besh otlig'i bilan

kelib menga qo'shildi. Uning kelganini yaxshilikka yo'ydim. O'sha kunlari ov eti bilan kun kechirmoqda edik.

Shu zaylda ilgarilab borarkanmiz, yiroqdan tepa ustida bir to'p kishiniig qorasi ko'rindi. Oldinga yurganimiz sari soatma-soat ularning soni ham ortib bordi. To'xtadim. «Bular kim bo'ldi ekan?» — deb ularning oldiga qorovullar¹⁷⁶ jo'natdim. Qorovullar borib: «Amir [Temur]ning sobiq navkari Qozonchi bahodir ekan va Jete lashkaridan yuz otliq bilan ajralib chiqib, shundan beri amirni izlab, sargardon bo'lib yurgan emish», — deb xabar olib keldilar. [Buni eshitib] yerga bosh qo'yib Tangri taologa shukr qildim. Darhol Qazonchini huzurimga olib kelish uchun odam yubordam. U kelgach, tiz urib oyoqlarimni o'pdi. Men ham uning ko'nglini olib, yog'lig'¹⁷⁷ imni boshiga qo'ydim. So'ng bu yerdan yurib Darayn Arsif¹⁷⁸ degan joyga kelib tushdim.

Ertasiga otlanib, darani aylana boshladim. Uning o'rtasida bag'oyat xushhavo bir tepalik bor ekan, men o'sha balandlikka chiqdim. Lashkarlarni tepalikni qurshab o'rinlashdilar. O'sha kecha juma tuni edi, tong otguncha [xudodan madad so'rab] uxlamay chiqdim. Tong otgach, bomdod namozini o'tadim, so'ng qo'limni duoga ochgan edim, ko'zlarim yoshlandi. Yuragim bo'shashdi. Tangri taologa yolvorib, meni bu sarsonlikdan qutqarishini tiladim. Duo tamom bo'lganicha ham yo'q ediki, uzoqdan bir to'p odam ko'rindi. Ular tepalikni yonlab o'tib ketmoqda edilar. Otlanib, ularning kimligini bilish maqsadida orqalaridan bordim. [Qarasam] hammasi bo'lib yetmish otliq ekanlar. Ulardan so'radim:

— Bahodirlar, kim bo'lasizlar? Ular javob qildilar:

— Amir Temurning navkarlarimiz. Uni izlab topolmay, kezib yuribmiz.

Men dedim:

— Men ham amirning navkarlaridan biridurmen. Yuringiz, sizlarni uning oldiga boshlab borayin.

Ulardan biri otini choptirdi va borib gapimni o'z sardorlariga

¹⁷⁶ Qorovul - xon o'rdasi va o'g'ruqni qo'riqlovchi harbiy bo'linma. Qo'shinning markaz, qanotlari, ilg'or va dumi (aryergard)ni qo'riqlab boruvchi maxsus harbiy qism ham shu nom bilan atalgan.

¹⁷⁷ Yog'liq - bosh kiyimi.

¹⁷⁸ Darayi Arsif - Balx ko'histonida (Elburztog'da) joylashgan bahavo bir dara.

yetkazdiki, «biz Amir Temurning huzuriga olib boradigan yo‘lboshlovchini topdik», deb.

Ular otlarining jilovini burib, meni darhol huzurlariga keltirishni buyurdilar. Ular uch favj ekanlar. Birinchi favjning sardori - Tug‘liqxo‘ja barlos, ikkinchisiniki - amir Sayfuddin, uchinchisiniki - Tubak bahodir ekan. Ko‘zlari menga tushgani hamonoq, o‘zlaridan ketayozib, otdan tushdilar. Tiz urib, uzangimni o‘pishdi. Men ham otdan tushib, har biri bilan quchoqlashib ko‘rishdim. Mandilimni Tug‘luqxo‘janing boshiga qo‘ydim. Juda nozik ishlangan, oltin bilan ziynatlangan kamarimni esa amir Sayfuddinining beliga bog‘ladim. Choponimni Tubak bahodirga kiydirdim. Ularning ko‘ngli yumshab, bag‘oyat ta’sirlandilar. Men ham qattiq ta’sirlandim. Namoz vaqti yetishgach, jamoat bilan namozni ado etdik. So‘ngra otlanib, qarorgohga borib tushdik, majlis qurib, to‘y berdik. Ertasi kuni Sher Bahrom ham keldi. U ilgari yoshlik qilib, mendan ajrab, Hindiston zaminini havas qilib ketib qolgan edi. Qilgan ishlaridan pushaymon bo‘lib, mendan uzr so‘radi. Men uni quchog‘imga oldim va uzrini qabul etdim. Shu qadar unga mehribonlik ko‘rsatdimki, u xijolatdan butunlay forig‘ bo‘ldi.

XURUJ KUNLARI QILGAN YETTINCHI KENGASHIM

Lashkarimning sonini hisoblab ko‘rsam, hammasi uch yuz o‘n uch otliq ekan. Kengash qilib biron qal’ani qo‘lga kiritib, o‘rinlashishga qaror berdim. Dastlab Aloju qal’asini bosib olishga jazm qildim. Ilyosxo‘ja tomonidan Mengli Bug‘o suldus¹⁷⁹ bu qalyaga qo‘yilgan ekan. U yerni oziq-ovqat va yuklar saqlanadigan joyga aylantirmoqchi bo‘ldim. Shu maqsadda Aloju qalyasiga yo‘l oldim. Sher Bahrom va [Mengli Bug‘o suldus] o‘rtalarida qadimdan oshnolik bo‘lganligidan, u: «Men qal’aga borib, uni o‘zimizga el qilsam», deb ruxsat so‘radi. Biroq Sher Bahrom qal’a atrofiga yetib borgach, menga «Mengli Bug‘oning so‘ziga qaraganda,

¹⁷⁹ Suldus - nufuzli mo‘g‘ul qavmlaridan birining nomi.

Ilyosxo‘ja qal‘ani unga ishonib topshirgan. Shunday bo‘lgach, endi Amir Temurga el tutinib, qal‘ani unga topshirsa, mardlik va muruvvatdan uzoq ish bo‘lur emish. [Shuning uchun] qal‘ani bizga topshirishdan bosh tortdi», degan xabar keldi. Lekin taqdir ekan. U mening qo‘shni tortib kelayottanimdan xabar topgach, ko‘ngliga vahima tushib, qal‘ani tashlab qochdi. Ilgari mening xizmatimda mulozimlik qilgan, do‘lon jovun qavmidan uch yuz yigit u bilan (Mengli Bug‘o bilan) shu qal‘ada edi, ular kelib menga qo‘shildilar. [Bu yerdan ko‘chib] Darayi suf¹⁸⁰ degan joyga keldim. O‘sha vaqtda Tuman bahodirning o‘g‘li Imlis Balx shahari atrofida talonchilik bilan mashg‘ul edi. Mening kelganimdan xabar topib, ikki yuz otlig‘i bilan kelib menga mulozim bo‘ldi. Men ham uning ko‘nglini olib ovuntirdim.

Shu yerda turib Tamuka bahodirga uch otliq qo‘shdim va Termiz daryosi¹⁸¹ dan kechib o‘tib, Jete lashkari haqida, uning ahvoli va rejaları to‘g‘risida xabar topib keltirishni buyurdim. Tamuka to‘rt kundan keyin kelib shuni xabar qildiki, Jete lashkari Termiz viloyatiga kelgan va xalqini talab, urush-talash bilan mashg‘ul emish. Buni eshitib, Daragez¹⁸² degan joyga borib turishni lozim ko‘rdim. Keyinroq qulay fursat topib, Jete lashkari ustiga to‘satdan bostirib borishni o‘yladim. Daragezga kelgach, Jayxun daryosi bo‘yida joylashgan Elchi Bug‘o maydoniga kelib tushdim. Ilyosxo‘ja Daragezga kelganim haqida xabar topishi bilanoq, lashkaridan bir necha favjini menga qarshi urushga hozirladi.

Shu orada Jete lashkaridan amir Sulaymon barlos, amir Muso barlos, amir Joku barlos, amir Jaloluddin, amir Hinduka barlos Jete amirlaridan yuz o‘girib, o‘z askarlari bilan eski Termizga tushganlari haqida xabar keltirdilar. Ular mening huzurimga yuborgan To‘lan Bug‘o yetib kelib, mulozimtimda bo‘ldi hamda [nomlari yuqorida tilga olingan] amirlar ming otliq askari bilan menga qo‘shilmoqchi va mulozim bo‘lmoqchi ekanliklarini malum qildi. Men ersam ularning kelishini ishimning o‘nglanishidan

¹⁸⁰ Darayi suf - Balxni Kobul bilan bog‘lovchi yo‘l atrofida joylashgan.

¹⁸¹ Termiz daryosi - Amudaryoning O‘rta asrlardagi nomlaridan.

¹⁸² Daragez (Darayigez) - Balxning janubiy tarafida, undan taxminan to‘rt farsah masofada, Balxob daryosi bo‘yida joylashgan xushmanzara joy.

darakchi deb tushundim. Ular menga tunda Jete lashkari ustiga kutilmagan bosqin qilishni maslahat berdilar. O'tlanib yo'lga chiqqan ham edikki, Jete lashkari yetib kelganini bildirishdi: Men o'z qo'shinlarimni safga tizib, dushman qarshisiga borib turdim. Har ikki lashkar o'rtasida suv bor edi.

G'animlarimni chuchuk so'z, shirin hikoyatim bilan o'z tomonimga og'dirib olmoqchi va ular vujudidagi yondiruvchi [g'azab] o'tini to'g'ri tadbir suvi bilan o'chirmoqni maslahat ko'rdim. Shu tarzda ularni rom qilmoqchi bo'ldim. [Aynan shu maqsadda] Jete lashkarining sardori amir Abu Sa'idga [ko'p yaxshi] so'zlar aytdim. U aytgan gaplarimni ma'qulladi. Biroq boshqa amirlar unga qarshi chiqishib, urush qilish tarafdori bo'ldilar. [Buni ko'rgach] mening ham [g'azab] o'tim alangalanib, lashkarimni safga tizdim.

JETE LASHKARINI SINDIRISH MAQSADIDA QILGAN SAKKIZINCHI KENGASHIM

O'z-o'zimga dedim: «Jete lashkari bilan jang qilsam-u, ular ko'p sonli bo'lgani tufayli mabodo mening lashkarimga zarar yetsa-chi?» Lekin shu zahotiyoq g'ayratim qaynab: «Saltanatni egallashga da'vogarlik qilib xuruj qilgan ekansan, saltanat sha'ni va martabasiga loyiq ish tutishing zarur. Jangga kirib, yo zafar quchib g'olib bo'lgaysan, yoxud o'ldirilgaysan».

Qaror qabul qilish chog'imda g'anamlar uch favjga ajralib, urushtalab bo'lib turganlarini ko'rdim. Men o'z lashkarimni yetti favjga bo'ldim. Yetti favjni ketma-ket dushman ustiga yuborib turishni maslahat ko'rdim. Jangu jadal o'ti [ko'kka] ko'tarilgach, amr qildimki, hirovul¹⁸³ favjlari pistirmadan turib g'animga yomg'urday o'q yog'dirsin. Shiqovul¹⁸⁴ va chopovul¹⁸⁵ qanotidagi

¹⁸³ Hirovul - lashkarning qanot qismi atrofiga qo'yilgan qo'riqchi qism; qanot qo'riqchilari.

¹⁸⁴ Shiqovul (shig'ovul) - lashkar qanotlarini qo'riqlab turuvchi maxsus bo'linma; eshik og'asi.

¹⁸⁵ Chopovul - harbiy yurishlar paytida va qamal janglari vaqtida tevarak-atrofdagi qishloqlarga to'satdan bosqin uyushtiruvchi harbiy qism.

favjlarga esa hujumga o'tishni buyurdim. O'zim bo'lsa jarong'or¹⁸⁶ va barong'or¹⁸⁷ favjlari bilan harakatga keldim. Birinchi va ikkinchi hamlaning o'zidayoq Jete lashkarining bosh amiri Abu Sa'idni yengdim. Shu payt Haydar Andxudiy va Mengli Bug'o menga qarshi jang qilish uchun maydonga tushdilar. Ularga qarshi o'zim otlandim va birinchi hamladayoq har ikkalasini ham tumtaraqay qildim. [Shunday qilib] Jetening lashkari yengilib, tarqalib va sochilib ketdi.

SALTANATNI TIKLASH YO'LIDAGI TO'QQIZINCHI KENGASHIM

Jete lashkari amirlari ustidan g'alaba qozonganimdan keyin, saltanatga da'vogarlik qilganim uchungina xuruj etganligim haqida Turonzaminda xabar tarqaldi. Shunda men adolat bilan hukmronlik qilishga azmu jazm etdim. Saltanatimni mustahkamlash uchun, to'plagan xazinamdagi naqd pullar va [qimmatbaho buyumlarni si pohgataqsimlab berishgavadastavval Qahalqaqal'asi¹⁸⁸ ni olishga qaror qildim.

Lashkarga [yetarli] ozuqa-tag'or berganim sababli ularni safga tizdim. So'ng Jayxun daryosi bo'yiga kelib tushdim. Termiz kechuvidan narigi qirg'oqqa o'tgach, Qahalqa qal'asi tarafiga qorovullar jo'natdim. [O'zim] Jayxun bo'yida bir necha kun turdim va qorovullar olib keladigan xabarni sabrsizlik bilan kutdim.

Mening bu yerga kelganim xabari Ilyosxo'jaga eshiltigach, [amir] Bekchikning inisi Olchin bahodirni katta qo'shin bilan ustimga yubordi. Qorovullarim g'aflat uyqusida qolgan ekanlar, ularning yonidan o'tib, faqat kechalari harakat qilib tun qorong'usida to'satdan hujum qildilar.

Men uch tomoni suv bilan o'ralgan yarim orolda o'rinlash-gandim. Yarim orol tashqarisida qurilgan bir necha chodir Jete lashkari tomonidan talon-taroj qilindi. Omon qolgan askarlar yarim

¹⁸⁶ Jarong'or (javong'or) - turkcha-mo'g'ulcha atama; lashkarning so'l qanoti.

¹⁸⁷ Barong'or - turkcha-mo'g'ulcha atama; lashkarning o'ng qanoti.

¹⁸⁸ Qahalqa (mo'g'ulcha; qadimiy turkiy tilda («Temir qapug'») - Boysuntog'dagi tor darv og'ziga qurilgan temir darvoza.

orolga ko'chib o'tdilar [va jon saqlab qoldilar]. Men bo'lsam urush talab bo'lib, tezlik bilan yarim orolning kirish qismiga bordim. Dushman mendan qo'rqqani sababli urushga botinolmadi. O'n kungacha men shu yarim orolda turdim. So'ng u yerdan chiqib, suv bo'ylarida olachuq¹⁸⁹lar tiktirib, Jete lashkarining qarshisida bir oycha kuzatib yotdim. Oxiri g'animni qo'rquv bosib, orqalariga qaytib ketdi. Men suvdan o'tib, ularning manziliga tushdim va dushman orqasidan ta'qib qilish uchun bir favj askar jo'natdim.

SALTANATIMNI MUSTAHKAMLASH UCHUN QILGAN O'NINCHI KENGASHIM

Jete lashkarini mag'lubiyatga uchratganimdan keyin, Badaxshon viloyatiga borib, uni egallashga, [bu bilan] saltanat ishlariga rivoj berishga qaror qildim. [Shu niyatda] daryo bo'yidan ko'chib Xulm degan joyga tushdim.

[Shu yerda] amir Qazag'an¹⁹⁰ning nabirasi va qaynog'am bo'lmish amir Husayn bilan uchrashdim. Uning sharafiga ziyofat berdim. So'ngra amir Husayn bilan kengashib, Badaxshonga borishga qaror qildim.

Qunduzga yetib borgach, Yuruldoy elining sardorlari u yerda to'planib, kelib menga qo'shilmagunicha o'rinlashib turdim. Kelishgach, ularning har bariga faxrli xil'atlar kiygizib, ko'ngillarini ovladim.

Qo'shnimning jangga hozirligi haqidagi xabar Badaxshon shohlariga yeggach, urushga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Maslahatni shunda ko'rdimki, epchillik, uddaburonlik qilib, dushman lashkar to'plab ulgurmasdan burun ularga zarba berib, to'zitib yubormoqchi bo'ldim. [Shuning uchun] yurish qilib, Toliqonga yetib keldim.

Toliqonga kelganimdan Badaxshon shohlari xabardor bo'lgach, tinch yo'l tutib, menga mulozim bo'lishni ixtiyor qildilar.

¹⁸⁹ Olachuq - kapa; kichik chodir.

¹⁹⁰ Amir Qozag'an - Chig'atoy ulusining nufuzli amir ul-umarolaridan; 1346 yili Qarshi yonida bo'lgan jangga Qozonxonni, hokimiyatni qo'lga olgan (1346-1358). 1358 yili o'zi ham fitna qurboni bo'ldi va ov paytida o'ldirildi.

Qo'llagan tadbirimdan ko'nglim to'ldi va xato qilmaganligimni angladim. Mening saltanatim butun Badaxshon viloyatiga yoyildi. Badaxshon sipohlarining aksariyati mening xizmatimdabo'lishni ixtiyor etdilar.

SALTANATGA RIVOJ BERISH UCHUN QILGAN O'N BIRINCHI KENGASHIM

Badaxshon shohlari mening itoatimga kirgach, Xuttalonga qarab yurdim. Bu mamlakatga kelsam, qaynog'am amir Husaynning qo'rsligidan Po'lod Bug'o va Sher Bahrom undan ajralib, o'z ulusiga ketib qolishgan ekanlar.

Bu yerdan ko'chib, Dashti ko'lak jilg'asiga borib tushdim. [u yerdan] Jete va Ilyosxo'ja lashkarlari ahvolini bilib kelishi uchun ayg'oqchilar jo'natdim. Xabarchilar o'n kundan keyin xabar keltirdilarkim, Jete amirlari: birinchisi - Kuch Temur Bekchik o'g'li, ikkinchisi - Temur No'bkon, uchinchisi - Soriq bahodir, to'rtinchisi - Shanqum, beshinchisi - Hojibekning inisi Tug'luqxo'ja yigirma ming otliq askar bilan Xalotiy va Puli sangin oralig'ida o'rinlashib turgan emishlar.

Ular men turgan yer va lashkarim qay ahvolda ekanligini bilib kelish uchun oldimga elchi jo'natdilar. [Elchini chalg'itish maqsadida] lashkarimni ikki marta qayta-qayta uning oldidan o'tkazdirdim, so'ng elchiga ruxsat berdim.

(Keyin) kengashib, elchining ketidan izma-iz [qo'shin tortib] borishga qaror qildim. Lekin lashkarin bu borada men bilan hamjihat bo'lmadi. Lashkarimni atrofimga birlashtirmoq uchun ba'zilariga muruvvat, mehribonlik qildim; boshqalari bilan kelishishga intildim, yana bir guruhini esa molu dunyo bilan o'zimga ag'darib olmoqchi bo'ldim. Yaxshi so'z, ahdu paymon va va'dalar bilan qolganlarining ko'nglini ko'tarishni maslahat ko'rdim.

Shu asnoda xabar keltirdilarkim, ilgari mening navkarim bo'lgan Tug'luq suldus va Kayxusrav, Jetening olti ming otliq askariga boshchilik qilib, ustimga kelmoqda emishlar. Bu xabar lashkarim o'rtasida tarqalgach, ularning ittifoqsizligi yanada kuchayib,

sarosimaga tushib qoldilar. Lekin amir Joku, Iki Temur, amir Sulaymon va amir Jaloluddin mening yonimda qoldilar.

LASHKARIMNI ITTIFOQQA KELTIRISH UCHUN QILGAN O'N IKKINCHI KENGASHIM

Amir Joku, Iki Temur, amir Sulaymon va amir Jaloluddinlarni xilvatroq yerga chorladim va ularni o'zimga ittifoqchi qilmoqchi bo'ldim. Xilvatda' ular bilan suhbat qurib, «davlatimga sherik bo'lasizlar», dedim. Bu bilan [ularning dilida] o'zlariga ishonch va menga xizmat qilish uchun qat'iyat uyg'otdim. Shunga o'xshash, men bilan ittifoqi buzilgan toifadagi boshqa amirlarni ham birma-bir xoli joyga chorlab, har qaysisi bilan alohida gaplashdim. Bulardan mol-dunyoga hirs qo'ygan ochko'z va ta'magirlariga mol-ashyo va'da etdim, mansab-martabaga va mamlakatlarni boshqarishga ko'z tikkan amalparastlarga qo'lim ostidagi mamlakat va viloyatlardan birining hokimligini berdim. Ularning hammasini umid va qo'rqinch orasida saqladim. Har biriga bittadan noib va kutvol tayinladim. Qolgan sipohiylarni ham yemak-ichmakvakiyim-kechak umidi shirin so'z va ochiq yuz bilan o'zimga rom etdim. Bir xizmatini o'n barobar qilib taqdirlab, dillarini xushnud etdim. Natijada meni qo'llab-quvvatlaganlar ham, teskari bo'lgan munofiqlar ham barchasi endi atrofimda birlashdi. Har ishda birlik-ittifoqlikni qo'ldan bermaslikka, amrimdan chiqmaslikka va'da berib, men uchun mol-jonlarini ayamay, maydonda jonbozlik qilishga ahd qildilar.

Lashkardan ko'nglim tinchigach, Ilyosxo'jaga qarshi jangga hozirlik ko'ra boshladim. Uni daf' etish va [u bilan] qay yo'sinda urush olib borishim haqida kengashdim, g'animlar xabar topib ulgurmasdan, chapdastlik bilan ularning ustiga qo'qqisdan bosqin qilishga qaror berdim. Bu xususda Qur'oni Majiddan fol ochib qarasam, ushbu oyati karima chiqdi: «Qanchadan-qancha kichik guruhlar Ollohning izni bilan katta guruhlar ustidan g'alaba qilgan»¹⁹¹. Ushbu bashoratni topganimdan keyin lashkarimni

¹⁹¹ Qur'on, Baqara surasi, 249-oyat.

tartibga keltirdim. Uni yetti favjga bo'lib, yo'lga tushdim. Tong yorisha boshlaganda [Ilyosxo'jaxonning] hirovuli bo'lmish Tug'luq suldu va Kayxusravga yetishdim. Ikki hamla bilan ularni yengdim va [ularni] Ilyosxo'ja joylashgan Puli sangingacha quvib bordim. Qorong'u tushgach, yetgan yerimizda to'xtadik. Jang maydoni sovib qolmasdan, qizig'ida Ilyosxo'janing qariyb o'ttiz minglik lashkari ustiga to'satdan bosqin qilishga qaror qildim. Bordiyu [yurishni] to'xtatsam va biron kor-hol yuz bersa uning ilojini topish uchun [o'zgalarning] ko'magiga muhtoj bo'lib qolishim mumkinliga to'g'risida o'y surdim. Orqadan amir Husayn [qo'shini bilan] meni qo'llab-quvvatlab kelayotgan edi, biroq men o'zimni uning yordamiga muhtoj bo'lib qolish darajasiga yetkazmadim. To'g'ri chorayu tadbir ishlatib, Ilyosxo'ja lashkarini sindirdim.

JETE VA ILYOSHO'JA LASHKARIGA SHIKAST YETKAZISH HAQIDA QILGAN O'N UCHINCHI KENGASHIM

Birinchi navbatda Ilyosxo'janing lashkarini zafarli favjlarimdan biri orqali bir joyga bog'langan holda ushlab turishga qaror qildim. Shu maqsadda amir Muayyad orlot¹⁹², Uchqora bahodir, amir Muso boshchiligidagi ikki ming otliq askarimni Ilyosxo'ja ro'baro'sidagi ko'priq yoniga joylashtirdim. O'zim besh ming otliq bilan Ilyosxo'ja lashkari tepasidagi toqqa chiqib o'rnatishdim va kechasi ko'p joyga gulxan yoqishni buyurdim. Jete sipohlari tog'dagi ko'p gulxanlar qarshilarida, Puli sangin boshida turgan lashkarimning ko'pligini ko'rib, qo'rquvdan sarosimaga tushib qoldilar. O'sha tunni Ilyosxo'ja lashkari «jangga hozirlan» buyrug'ini kutib [bedorlikda] o'tkazdi. Men tuni bilan tog' ustida uxlamay Tangri taologa iltijo qilib, undan ojizu muhtoj bandasiga madad berishini tilash va payg'ambarimiz Muhammad sallollohu alayhi vasallam, uning yaqinlari va sahobalariga salavot aytish bilan mashg'ul bo'ldim. Yarim uyqu va yarim uyg'oqlik orasida qulog'imga: «Temur, fathu zafar senga yor bo'ladi!» degan nido

¹⁹² Orlot - yirik turk qavmlaridan birining nomi.

eshitildi. Tong otib, yorug' tushgach, namozni jamoat bilan o'qidim. Shu payt qarasam, Ilyosxo'ja o'z amirlari bilan o'tlanib, bo'linma-bo'linmabo'lib ketayotibdilar. Amirlarim vasi pohiylarim ularning ketidan quvish qasdida mendan buyruq berishimni iltimos qildilar. Men o'ylab turib ularni to maqsadlari ma'lum bo'lguncha ta'qib etishni bir oz kechiktirishni maslahat ko'rdim. [Taxminan] to'rt farsang yerga borib to'xgaganlaridan keyin, ularning maqsadlarini tushundim. Niyatlari - bizni tog'dan tushirib, yalang yerda jang qilish ekan.

[Bir necha kun ilgari] men shikast yetkazgan hirovul amirlari ham [Ilyosxo'ja] qoshiga qochib borgandi va Ilyosxo'ja ularni toza koyib bergandi.

Shu payt ularning rejalarini bilganimni va tog'dan tushmayotganimni ko'rib, orqalariga qaytishga va menga hujum qilishga majbur bo'ldilar. Men favjlarimni tog' etagida safga tizib, jangga kirishni mo'ljalladim. Jete lashkari tog' etagiga yetib kelib, nima qilishini bilmay hayron turganda, bahodirlarimga yov ustiga yomg'urdek o'q yog'dirishni buyurdim. Dushmanning ko'pini yarador qildilar. Kech kirib qorong'u tushganda, [mo'g'ullar] qo'llaridan bir nima kelmasligini ko'rishib, tog' etaklarini gard aylantirib o'rinlashdilar. O'sha kech lashkarimni to'rt bo'lakka ajratib o'zim bosh bo'lib, tunda g'anim ustiga to'satdan bosqin qilish fikriga keldim. Mening bu kengashim amirlarimning ham diliga o'tirgach, tongga yaqin otlandim va tun panasida to'rt tomondan g'anim ustiga hamla qildim. Jete lashkari o'zini yig'ib, tartibga keltirguncha bahodir yigitlarim ularni to'zitib tashladilar. Chopqilashish paytida har ikki tomondan ko'p odam o'ldi. Jete lashkari «al-faror»¹⁹³, «al-faror» deya chekindilar. Men Ilyosxo'jaga yetib olib, «Yo'l bo'lsin?» deb qichqirdim. Ovozim Ilyosxo'janing qulog'iga yetgach, u g'azab bilan lashkariga do'q-po'pisa qildi va askarlari ortlariga qaytdilar. Kun ko'tarilguncha lashkarlarimiz o'rtasida jangu chopqin davom etdi. Sadoq-o'qdonlarimiz bo'shadi. G'anim lashkari chekina turib, jang qildilar va to'rt farsang uzoqlikdagi o'z qarorgohlariga yo'lda

¹⁹³ «Al-faror» - Quryoni Karim Ahzob surasining 16-oyatiga ishora. Oyatda, xususan, bunday deyilgan: «[Ey Muhammad] ayting: Agar sizlar o'lish yoki o'ldirilishdan qochsangizlar, bu qochish sizlarga [baribir] biron foyda bermas...»

to'kilib-sochilib, shikastahol, bazo'r yetib oldilar. Men ham tizgini tortib, orqalaridan boshqa quvlamadim va o'sha atrofdagi qo'ndim.

Jete lashkari urushda yengilganiga iqror bo'lganidan keyin ikkinchi bor jang qilishga botinolmadi. Men esa sipohim bilan llyosxo'ja qarorgohini qurshab oldim. So'ng vaqti-vaqti bilan ularga hujum qildim. Tinkasini quritdim. Oxiri chorasiz qolgan llyosxo'ja Xo'jand suvidan o'tib ketdi. Men ham ularni ta'qib qilib o'tirmasdan fathu zafar bilan Movarounnahrda qaytdim.

[Shundan so'ng] saltanatimning mustaqilliga va mustahkamligi borasida kengashlar o'tkazdim. Kengashlarim o'zini shavkatli, buyuk amir deb hisoblagan va boshqa amirlardan o'zini ulug'roq bilayotgan amirlarni itoat ettirib, bo'ysundirishga qaratilgandi. Birinchi navbatda Movarounnahrda saltanat bayrog'ini ko'targan amir Qazag'anning nabirasi amir Husaynni davlatimga sherik deb [elga] eshittirdim va u bilan murosayu madora qildim. Garchi u tashqi ko'rinishdan menga do'stlik bildirsa-da, ammo ichidan hamisha hasad va nifoq maqomida turdi. [Chunki] o'zi Movarounnahr saltanati taxtiga o'tirishni orzu etardi. Unga ishonchim yo'qligi tufayli uni xoja Shamsuddin [Kulol]¹⁹⁴ mazoriga boshlab borib, do'stlik izhor qilib qasam ichdim. U ham do'stlikka xilof biron ish qilmaslik haqida ahdu paymon etdi.

[Amir Husayn] shundan keyin yana uch bor Quryoni Majidni qo'liga olib, do'stlik bobida ont ichdi. [Lekin] ahdigaga vafo qilmagani uchun oxiri mening [jazoyimga] giriftor bo'ldi.

Amir Bayon suldusning o'g'li amir Shayx Muhammad o'zini ulug' amir deb hisoblardi. Uning ham [ko'nglini topib], o'z tomonimga og'dirib oldim va yetti qo'shinga boshliq atab, o'zimga mute va mulozim qildim. Mazkur qo'shnlarning amirlaridan har qaysisiga viloyat in'om etdim.

Mendan ajralib o'z ulusiga ketib qolgan Sher Bahrom hali ham menga bo'ysunishni istamas edi. Uni ham o'zimga og'dirib oldim va huzurimga chaqirtirdim. U o'z ulusi bilan kelib, itoatda bo'lajagini bildirdi. Sher Bahromni o'z mulozimim etib, bir viloyatni unga berdim.

¹⁹⁴ Xoja Shamsuddin Kulol - naqshbandiya tariqati shayxlaridan. U Amir Temurning otasi Amir Tarag'oyning va Amir Temurning ham piri, 1363 yil Keshda vafot etib, o'sha yerda dafn etilgan.

Amir Husayn bilan oramizda qarindoshlik bo'lganligidan unga turli muruvvat ko'rsatib, murosayu madora qildim, lekin do'st bo'lmadi. Ish shu darajaga borib yetdiki, Balx va Hisoni Shodmon viloyatlarini mendan tortib oldi. Men [esam] uning singlisi haramimda ekanligining xotirini qilib, amir Husaynni siquvga olmadim. U bilan murosayu madora qilishga shunchalik intildimki, hatto uning amirlariga ham bu ta'sir etib, menga bo'ysundilar. Lekin amir Husayn hamma vaqt meni mag'lub etish payiga tushib, firib berib kelardi. Oxir-oqibat uni qilichim bilan bo'ysundirishga qaror berdim.

Turonni zabt etib, Movarounnahrni mo'g'ullar vujudining xasxashagidan tozalaganimdan keyin, ba'zi uluslarning amirlari menga itoat-la bosh egishni istamadilar va har biri o'z qabilalari oldida [hyech kimga bo'ysunmasligini ko'rsatmoqchi bo'lib) noz qilib turardilar. Amirlarimdan ba'zilar ularning yonini olib menga «bu davlatga barimiz sherik bo'lganimizdan keyin, ularni ham davlatga sherik deb bilaylik», dedilar. Lekin ularning gaplari mening saltanat yuritishimdagi g'ayratimga ta'sir qilmadi. O'z-o'zimcha: «Xudo bitta, uning sherigi yo'qdir. Shunday bo'lgach, Olloh taaloning muqaddas mulki - yer yuziga egalik qiladigan podshoh ham bitta bo'lishi kerak», deya o'ylar edim.

Shu payt [avliyolardan hisoblangan] Bobo Alishoh huzurimga keldi va: «Hoy Temur, Tangri taolo buyurganki, agar yerda va ko'kda ikki xudo bo'lsa, jahonning ishi buzilur», dedi. Men uning so'zlariga ergashdim. Qur'oni Majiddan fol ochsam, ushbu qutlug' oyat chiqdi: «Inno jaalnoka xalifatan fil arz», ya'ni «Biz seni yer yuziga xalifa qildik»¹⁹⁵. Men buni [istiqbolning] xayrlik va muborak follari sirasiga kirshdim va o'zlarini davlat sherigi bilib, menga bo'ysunishni istamagan amirlarni turli tadbirlar ishlatib, o'zimga itoat ettirish uchun bir necha bor urindim. Eng avval amir Hoji barlos oldiga borib, uni o'zimga ittifoqdosh qildim. Bayon suldusning o'g'li Shayx Muhammad sharobxo'rlikka mukkasidan berilib ketgandi. Oxiri sharob uning bo'g'zidan oldi va u olam bilan vidolashdi. Uning viloyatini o'zimga qo'shib oldim. Amir

¹⁹⁵ Qur'on, Sod surasi, 26-oyat.

Boyazid jaloyir ham Xo'jand viloyatini tasarruf etgan edi. Unga [do'stona] nasihat bersam, qabul qilmadi. Oqibatda o'z ulusining odamlari unga qarshi chiqishib, oldimga kishanlab keltirdilar. Men [o'tgan ishlarni yuziga solmay] unga iltifotlar ko'rgizdim. Buni ko'rgach, o'zi [uyatdan] sharmanda bo'ldi. Elchi Bug'o suldu Balxda o'z saltanati tug'ini ko'targan edi. Bobosi amir Qazag'an taxti shu yerda bo'lganligi uchun Balx taxtiga da'vo qilayotgan amir Husaynni Elchi Bug'oga qarshi qayradim. Muxammadxo'ja Aperdi nayman aymog'idan bo'lib, Shibirg'onot¹⁹⁶ viloyatini bosib olgach, menga qarshi isyon tug'ini ko'targan edi. Men unga boshqa viloyat berib, uni o'zimga sodiq navkar qilib oldim. Badaxshon viloyatiga egalik qilayotgan Badaxshon shohlari esa menga qarshi dushmanlik yo'lini tutdilar. Ularning har biri bilan turlicha kelishuv qildimki, bir-birlari bilan urushib ketdilar. Oxiri mening panohimga kelib, [bo'ysundilar]. Kayxusrav Xuttalon viloyatini va O'ljoytu Aperdi Arhang¹⁹⁷ viloyatini egallab olgandilar. Kayxusravga O'ljoytu Aperdining viloyatini bosib olishi uchun madad kuchi jo'natdim. Oqibatda O'ljoytu Aperdi panoh izlab mening xizmatimga keldi. Amir Xizir Yasavuriy o'z xalqi - yasavuriylar madadi bilan Toshkand viloyatini bosib olish edi. Kayxusrav bilan O'ljoytu Aperdini bir-biri bilan yarashtirdim. Bularga yordamchi kuch yo'sinida bir to'da kishi qo'shdim. Ikkovlari barlashib yasavuriylarga hujum uyushtirib, [uni] talon-taroj qildilar. Amir Xizir ojiz qilib, mening panohimga kelda. Shunday qilib Movarounnahrni urush-talashdan tinchitdim. Mening qahramon askarlarim to'la kuch-quvvatga kirdi. Har tomonga barlos ulusining nomi va dong'i tarqaldi. Mening himmatim bilan Chig'atoy qo'shinlari va tumanlarining ovozi olamga yoyildi. Jami elu xalq, qo'shunot va tumonot hamda ko'chmanchilar mening hukmronligim ostiga o'tdi. Biroq Movarounnahrdagi ba'zi qal'alar [hamon] amir Husayn qo'lida edi, ularga mening hukmim o'tmasdi. Amir Husayn saltanatim azamati va shon-shavkatining kuchayganini ko'rgach, unda hasad tomirlari [qattiqroq] ura boshladi. Qasam bilan mustahkamlagan

¹⁹⁶ Shibirg'onot viloyati - Balxning g'arbiy tarafida joylashgan viloyat.

¹⁹⁷ Arhang - Amudaryoning so'l sohilida joylashgan qadimgi Toxariston mamlakatidagi Badaxshon bilan tutash viloyat (qadimgi Aybak).

ahd-paymonlarini buzib, menga qarshi isyon tug'ini ko'tardi. Men uning oldiga ko'p marta [lutf-marhamatlar ko'rsatib] bordim, u bo'lsa aslo qoshimga kelmadi. Buning ustiga sirtidan takalluflar bildirib, aslida hiyla-nayrang ishlatib, mendan Qarshi qal'asini olib qo'ydi. Qarshi qal'asini qo'riqlab turish uchun qo'rg'onbegi amir Muso boshchiligidagi yetti ming otliq askar tayinladi. Keyinroq u yerga yana qo'shimcha besh ming otliq askar yubordi. Bu bilan kifoyalanmay, meni o'ldirmoqchi bo'ldi. Mendaga saltanat g'ayrati tug'yonga kelib, Qarshi qal'asini undan tortib olishga undadi. Ba'zi amirlarim u yerga yurish qilib, qal'ani jang bilan qo'lga kiritishni menga maslahat berdilar. Qarshi qal'asini olish rejalarini tuza boshladim. Ular aytgandek urush bilan olsam, buning xatarli tomonlari ko'pligi ko'nglimdan o'tdi. O'zimcha «Mabodo qal'ani jang bilan olmoqchi bo'lsam u g'anim lashkarining yomon ko'zidan qo'shinimga zarar yetsa-chi?» deb o'yladim. So'ngra jang qilish fikridan vaqtincha voz kechdim va boshqa tadbirni qo'llashga kirishdim. Xuroson tomonga yuzlanib, bu bilan Qarshi qal'asi beklarining xotirini jam qilmoqchi bo'ldim. Keyin esa lashkarim bilan [yashirinchalik] orqaga qaytib, tunda to'satdan qalyaga hujum qilib, u yerni bosib olishni rejaladim. Xullas, bu yerdan ko'chib, Xurosonga qarab yo'lga tushdim. Amudaryodan kechib o'tganimga, Xuroson tomondan Qarshiga kelayotgan karvonga duch keldim. Karvon boshchisi menga sovg'alar taqdim etdi. Men undan Xuroson amirlarining hol-ahvolini surishtirdim va Xuroson viloyatiga ketayotganligimni aytdim va ketishlariga ijozat berdim. [Lekin] karvonga ayg'oqchi qo'shib yubordim va u xabar keltirgunicha daryo sohilida joylashib kutdim. Ayg'oqchi olib kelgan xabarga ko'ra, karvondagilar amir Musoga shunday degan emishlar: «Amir Temurni Amudaryo suvi yoqasida ko'rdik, Xuroson tomonga ketayotgan ekan». Bu gap amir Muso va amir Husaynning lashkariga yetgach, xursand bo'lib, o'yin-kulgi va aysh-ishratga berilibdilar.

Bu xabarni eshitishim bilan lashkarni ichidan eng ishonchli, dovyurak, jang ko'rgan bahodir yigitlardan ikki yuz qirq uchtasini

tanlab oldim va daryodan o'tib, oldinga yubordim. Shirkent¹⁹⁸ atalmish yerga yetdim va o'sha yerda bir kecha-kunduz to'xtab, [so'ng] yana yo'lga tushib, Qarshi qalyasidan bir farsang masofaga kelib tushdim. Odamlarga arqonlarni bir-biriga bog'lab zina hozirlab qo'yishlarini buyurdim. Shu payt amir Joku tiz urib: «Bir guruh bahodirlar orqada qoldilar. Ular yetib kelguncha to'xtab turish zarur», deb o'tinch qildi. Shunda xotiramga bir fikr keldi. Bahodirlarim yetib kelguncha qal'ani o'zim ko'zdan kechirmoqchi bo'ldim. Qirq kishi hamrohligida Qarshi qal'asi tomon yo'l oldim. Yiroqdan qalya qorasi ko'ringanda, bahodirlarimni kelgan yerda to'xtatib qo'ydim va uyimizda tug'ilib o'sgan Mubashshir va Abdullolarni birga olib o'zim ketdim. Xandaq bo'yiga yetdim. Qarasam, xandaq suv bilan limmo-lim ekan. Tevarak-atrofga nazar solib, xandaq tepasidan o'tkazilgan, qal'aga suv olib boradigan tarnovga ko'zim tushdi. Otimni Mubashshirga qoldirib, o'sha tarnov orqali xandaq ustidan o'tdim va qal'aning xokrezi¹⁹⁹ ga yetdim. Darvoza oldiga borib, eshik qoqdim. [Lekin] darvozabonlar uxlayotgan ekan, [ichkaridan sado chiqmadi]. [Har ehtimolga qarshi] darvozani tashqarisidan kesak-tosh va loy bilan to'ldirib qo'yishgan ekan. Qal'a devori atrofini ko'zdan kechirib, narvon va zinalar qo'ysa bo'ladigan joyni topdim. [So'ng orqamga qaytdim va o'tlanib bahodirlarim huzuriga bordim. Orqada qolgan lashkar favji ham narvonlar bilan yetib kelishgan ekan. Hammalari shaylanib, narvonlarni olishdi va qalya sari yuzlandik. Xandaqdan tarnov orqali qal'aga o'tdilar. Zinalarni ham olib o'tdilar va devorga qo'ydilar. Er yigitlardan qirqtasi tepaga chiqib, qalyaga kirib oldilar. Men ham narvonga oyoq qo'yib endi qal'aga kirmoqchi bo'lgan edim, karnay tortib, burg'u chaldilar. Tangri taoloning qo'llashi bilan qal'ani qo'lga kiritdim.

Bu xabar amir Husaynga yetgach, [endi] makru hiyla yo'li bilan, do'st-oshno libosini kiyib, meni rom etmoqchi bo'ldi.

¹⁹⁸ Shirkent - hozir Beshkent, Qarshi tumanining markazi.

¹⁹⁹ Xokrez - dushman o'qlari va hujumidan himoya maqsadida qalya devori ostiga o'r qilib uyulgan tuproq.

MENI QO'LGA TUSHIRMOQCHI BO'LGAN AMIR HUSAYNNING MAKRU HIYLASIDAN QUTULISH UCHUN QILGAN KENGASHIM

Amir Husayn, «mening do'stlik va qarindoshlikni rioya qilishdan boshqa niyatim yo'q», deb Qur'on tutib qasam ichdi va o'sha Qur'onni menga jo'natdi. U yana mana bularni ham aytgandi: «Agar senga aytgan gaplarimga xilof biron ish tutish niyatim bo'lsa va o'rtadaga ahd-paymonimni buzib, senga yomonlik qilsam, shu ushlagan Qur'on - Xudoning kitobi meni ursin». Uni musulmon deb bilganim uchun so'zlariga ishondim. Shundan keyin u mening huzurimga odam yuborib, «o'rtadagi ahd-paymonimizni yangilasak, xudo haqi durust bo'lardi», deb meni Chakchak²⁰⁰ darasida uchrashishga da'vat etdi. Uning maqsadi meni makru firib bilan qo'lga tushirish edi. Ahd-paymoni, so'ziga ishonib bo'lmasligini bilsam ham, ammo Qur'on hurmatini saqlab qolib, [aytgan joyiga] uchrashuvga borishga qaror qildim. [Biroq bu borada] ehtiyot shart, Chakchak darasi atrofiga bahodirlarimdan bir guruhini yuborib, yashirib qo'yishni, keyin esa o'zim bir necha odamimni olib, uchrashuvga borish rejasini tuzdim.

Amir Husayn xizmatida bo'lgan do'stlarimga xat jo'natib, ulardan amir Husaynning qilmoqchi bo'lgan ishidan meni ogoh etib turishlarini so'radim. Do'stlarimdan biri Sher Bahrom amir Husaynning niyati shum ekanligidan meni ogohlantirdi. Amir Husayn [buni sezib qolib] Sher Bahromni qatl ettirdi, mening ustimga esa ming otliq askar bilan hujum boshladi.

Bu xabar menga yetganida, endi daraga kelib tushgan edim. Qo'shinimni tartibga soldim. Shu vaqt amir Husayn lashkarining qorasi ko'rindi. Qorovullar bu faqat amir Husayn lashkarining bir qismi ekanligi, uning o'zi bu yerda yo'qligini xabar qildilar va: «Amir Temur bir o'zi kelibdi, degan gapni eshitib, sizni qo'lga tushirish uchun lashkarnning bir qisminigina yubordi», dedilar.

Men [jangu jadalga] hozirlana boshladim. Bu yerda hammasi bo'lib ikki yuz otliq askar bor edi. Amir Husayn qo'shinining

²⁰⁰ Chakchak darasi — Boysun tog'da joylashgan.

favji daraga kirgunigacha sabr qilib turdim. O'zim kelgunga qadar [bu yerga] yuborgan odamlarimga ularning qaytish yo'lini to'sishlarini buyurdim, o'zim esa yog'iyga yuzma-yuz bo'ldim. [Xullas] darada ikki yoqdan qamalib qolgan g'anim lashkarining ko'p qismini qo'lga tushirdim. [So'ng] odamlarimni to'plab, saf-saf qilib tuzdim va Qarshiga qarab yuzlandim. Tajribamdan shuni ko'rib bildimki, do'st har yerda asqotar ekan. Amir Husaynga [esa] ushbu mazmunda turkiy bayt yozib yubordim:

*Yorg'a yetkur, sabo, kim makr qilmishdir menga,
Qildi ersa kimga makrin, qaytadur bir kun anga.*

Bu xatim amir Husaynga borib yetgach, ko'p xijolat bo'ldi va mendan uzr so'radi, [lekin] men ikkinchi bor uning so'ziga ishonmadim.

TURONZAMINNI MO'G'ULLAR TOIFASI QOLDIQLARIDAN TOZALASH UCHUN QILGAN KENGASHIM

Jete va Ilyosxo'ja lashkarini Movarounnahrda quvib, Xo'jand daryosining narigi qirg'og'iga o'tkazib yuborgan bo'lsam ham, mo'g'ullarning ba'zi qismlari Movarounnahr qal'alarida mustahkam joylashib olgan edilar. Avvaliga ularni bostirish uchun lashkarim qismlarini yubormoqchi bo'ldim, biroq mabodo bu ish cho'zilib ketsa-chi, degan fikr meni tashvishga soldi.

Shu orada menga mo'g'ullar qal'alarga yashirinib olganlari haqida xabar keltirdilar. Lashkar qismlarni u yerga yuborish to'g'ri bo'lmas, deb [boshqa] chora izlay boshladim. So'ngra Ilyosxo'ja nomidan qal'adagilarga qarata yorlig' yozib, uni urushsiz topshirishlarini buyurdim. Yorliqni bir mo'g'ul qo'lga tutqazib, unga hamroh qilib lashkarimning bir qismini jo'natdim. Askarlarimga chang-to'zon ko'tarib, o'zlarini g'animga ko'pday qilib ko'rsatishni buyurdim. Ilyosxo'janing talabi yozilgan yorlig' g'animlar qo'lga tekkach va askarlarni ko'targan chang-to'zonni

ko'rishgach, tun qorong'usida qalyalarni tashlab qochdilar. Xullas, Movarounnahr tuprog'i meni o'ldirishga qasd qilgan o'sha zolimlardan tozalandi va mamlakat tamoman mening qo'limga o'tdi.

Qarindoshlik hurmati uchun Balx bilan Hsori Shodmon viloyatlarini amir Husaynga tortiq etdim. U esa bu ehsonu muruvvatimni bilmadi, meni mahv etishga qasd qildi. Men ham o'z-o'zim bilan kengashib, amir Husaynni o'ldirishga qaror berdim.

Amir Husayn men qo'lga kiritgan g'alaba va yutuqlarimni ko'rolmay, hasad ichini kemirib, menga va haramimdagi o'z singlisiga ko'p ozor berdi.²⁰¹ U Movarounnahrni mendan tortib olishga, meni [esa] o'ldirib, taxtga o'zi o'tirishga bel bog'lagan edi. O'rtamizda necha bor urushlar bo'lib o'tgan bo'lsa-da, barchasida yengildi. Uning adolatsizligi, insofsizligi haddidan oshgan, meni yengish va o'ldirishga oz qolgan vaqt ham bo'ldi. Aynan shu vaqtda qo'rsiligi, yomon yo'l tutishi tufayli amirlari undan yuz o'girdilar. Xuttalon hokimi amir Kayxusravning inisini sababsiz qatl ettirdi. Oqibatda, amir Kayxusrav ham Xuttalonda unga dushman bo'lib qoldi.

Amirlari [anchadan beri] undan norozi bo'lib, adovat saqlar edilar, u esa ularni o'z tarafdori deb bilardi. Shu sababli yana meni tor-mor keltirib, mahv etish qasdidagi qarorgohini Balx chekkasidagi bir joyga ko'chirdi²⁰². Bu xabarni eshitishim bilan, amir Husayn harakatga kelmasdan burun, ustiga bostirib borishga qaror qildim. Bor lashkarim bilan Balx sari yuzlandim. Yo'lda har yoqdan zafarli lashkar qismlari kelib menga qo'shildilar va Balx atrofiga borib tushdim. Amir Husayn qarshi chiqib, men bilan jang qildi. Oxiri qochib qal'aga kirib oldi. So'ngra boshiga nima kelgan bo'lsa, o'z qilmishi tufayli ko'rgiligini ko'rdi²⁰³.

²⁰¹ 1366 yilda amir Husayn Samarqandda Amir Temurga yaqin bir necha beklarni isyon ko'tarishda ayblab, ularga katta jarima soldi. Amir Temur bisotidagi bor oltin va javohirlarni, shuningdek, xotini O'ljoy Turkon og'aning qimmatbaho taqinchoqlarini ham qo'shib, tovonga to'lagan.

²⁰² Bu yerda so'z amir Husayn tiklagan Balxdagi Hinduvon hsori haqida borayotir.

²⁰³ Nizomiddin Shomiy bilan Sharafiddin Ali Yazdiy amir Husaynning ochiq jangdan qochib ichkari qalyaga yashiringani va 1370 yil 10 aprelida qo'lga olinishi, o'sha yilning 12 aprelida o'ldirilganini aytadilar.

MENGA HAR TURLI YOMONLIKLAR QILIB CHO'CHIB YURGAN VA QILMISHLARI UCHUN «MENI O'LDIRADI» DEB VAHIMADA YURGANLARNI O'ZIMGA EL QILIB OLISH BOBIDAGI KENGASHIM

Amir Husayn menga asir tushgandan keyin uning navkarlari va amirlari «endi bizni o'ldiradi», deb gumon qilgan edilar. Avvalo niyatim ularni o'ldirish edi, keyinroq, «axir ular askarlar-ku», deb ularni afv etdim va yana askarlikka tayinladim.

Badaxshonda hokim bo'lib turgan ularning bosh amiri ko'p martaba jangda men bilan yuzma-yuz kelib, qilich chopishgan kishi edi. Amir Husayn qatl etilganini²⁰⁴ eshitgach, mening qahrimdan qo'rqib, o'zini sergak tutdi va bordiyu uni tutish uchun qo'shin yuborsam, to'g'ri ish qilmagan bo'lur edim. [Shuning uchun] o'zimni uni unutgan kishidek tutdim va [uning borasida] ushbu tadbirni qo'lladim: majlislarda, yig'in-o'tirishlarda uni yaxshi so'zlar bilan yod etib, mardliga va bahodirligini maqtadim, toki do'stlari «Amir [Temur] senga nisbatan marhamat va inoyat maqomida turibdi», deb unga xat yozdilar. U zorlanib menga maktub yubordi va inoyatu marhamatimdan umidvor bo'lib, panohimga keldi.

XUROSON POYTaxTI (HIROT)NI OLISH BOBIDA QILGAN KENGASHIM

Amir Husayn o'ldirilib, [unga qarashli] Balx, Hsori Shodmon²⁰⁵ va Badaxshon viloyatlari mening tasarrufimga o'tgani haqidagi xabar Xo'roson hokimi malik G'iyosuddinga²⁰⁶ yetganida,

²⁰⁴ Amir Husaynni xun talab bo'lib Xuttalon hokimi amir Kayxusrav o'ldirdi, chunki amir Husayn 1360 yili uning inisi Kayqubodni o'ldirgan edi.

²⁰⁵ Hsori Shodmon - shu nomdaga viloyat markazi; qadimgi nomi Shumon (asosan hozirgi Hsori vodiysi).

²⁰⁶ Malik G'iyosuddin - 1245-1389 yillari G'ur (markaziy Afg'oniston) va Hirot viloyatlari ustidan hukm yurgizgan kartlar sulolasidan chiqqan hukmdor. Haqiqiy ismi Malik G'iyosiddin II Pir Ali (1370-1311).

uni qo'rqinch bosdi, [urush qilish uchun] lashkaru sipoh to'plab, mudofaaga shaylandi.

Kengashib, xurosonliklarning xushyorligini so'ndirib, g'aflat uyqusiga cho'mdirish uchun, men harbiy hiyla ishlatish fikriga tushdim. Shu maqsadda Samarqandga yurish qilmoqchiday bo'lib orqaga qaytdim. Shu asnoda Malik G'iyosuddin [mendan ko'ngli tinchib], jabr-zulm qilmoqqa qo'l urganligi haqida pirimdan²⁰⁷ xat oldim. Mening Samarqand tarafga qaytganim haqidagi xabarni eshitib G'iyosuddin xotirjam o'tirgan edi. Shunda men o'z-o'zimga kengashib, «ana endi xurosonliklarning ko'ngli mendan xotirjam bo'ldi, ularning ustiga bostirib borishning ayni payti», dedim. Hirotga qarab yurdim, malik G'iyosuddinni g'aflat uyqusida bosdim va u nochor shahardan chiqdi, xazina va tamom boyligini menga peshkash qildi. Shunday qilib, Xuroson mulki mening qo'limga o'tdi²⁰⁸. Xurosonning barcha amirlari menga bo'ysundilar.

SEISTON, QANDAHOR VA AFG'ONISTON MAMLAKATLARINI ZABT ETISH HAQIDAGI BOSHQA KENGASHIM

Xuroson mamlakati bo'ysundirilgandan keyin amirlarim yuqorida eslatilgan uch mamlakatga lashkar yuboraylik, deb maslahat berdilar. Men dedimki: «Agar lashkarlarning o'zi bilangina ish bitmasa-chi? Unda o'zim borishim kerak bo'ladi. Mening esa mo'ljalab qo'ygan boshqa ishlarim ko'p».

Maslahatni shunda bildimki, o'sha diyorlar hokimlarini o'zinga og'dirib olish uchun «Agar menga qo'shilsanglar [qutulasizlar], kurashsanglar yiqilasizlar. U holda taqdiringizda nima bo'lsa o'shani ko'rasizlar», degan mazmunda yorlig'lar yo'lladim. Bu tadbirim taqdirga to'g'ri keldi. Yorlig'larim ularga yetishi bilanoq itoat boshlarini bo'ysunish maqomiga qo'ydilar.

²⁰⁷ «Pirimdan...» - bu yerda Amir Temurning piri Zaynuddin Abubakr Taybodiy nazarda tutiladi.

²⁰⁸ Amir Temur tomonidan Xurosonning uzil-kesil buysundirilishi 1381 - 1383 yillari bo'lgan.

O'RUSXON²⁰⁹ NI BARTARAF QILISH VA DASHTI QIPCHOQNI BOSIB OLISHDA QILGAN KENGASHIM

Dashti Qipchoq xoni To'xtamish²¹⁰ xonlik talashib O'rusxondan yengilib, mening panohimga qochib kelgan edi. Uning bilan qo'shini yuborsammikan, yo o'zim borsammikin deb turganimda O'rusxonning elchisi kelib qoldi. Kengashib, elchining ko'nglini ovlab, so'ng ketishiga ijozat berishni, o'zim esa Dashti Qipchoq tomon yuzlanib, elchining ketidan lashkar jo'natishni mo'ljalladim, toki elchi xotirjamlik bilan bo'lgan voqyealarni O'rusxonning majlisida bayon qilsin, ertasi kuni mening qo'shinlarim qo'qqisidan ularning ustiga bostirib borsin.

O'ylaganimdek ish tutgandim, tadbirim taqdirga to'g'ri keldi. O'rusxon elchisi bo'lgan voqyealarni so'zlab berayotgan paytda, menga qo'rqmas lashkarim nogahon kelgan balodek O'rusxon ustiga yopirildilar. O'rusxon qarshilik ko'rsata olmay, qochishni ixtiyor qildi. Dashti Qipchoq mamlakati mengabo'ysundi²¹¹.

GILON, JURJON, MOZANDARON, OZARBAYJON, SHIRVON, FORS VA IROQ MAMLAKATLARINI ZABT ETISH BOBIDA QILGAN KENGASHIM

Iroq aholisining muzaffariylar²¹² va turli toifadagn hukmdorlar zulmidan shikoyat qilib yozgan arizalari qo'limga tushgach, Iroqqa yurish tadorigini ko'rishga jazm qildim.

²⁰⁹ O'rusxon - Jo'chi naslidan bo'lgan Oq o'rda xoni (1361-1376). U har ikkala o'rda: Oltin o'rda va Oq o'rdani birlashtirish uchun ko'p kurashdi, lekin bunga muvassar bo'lolmadi.

²¹⁰ To'xtamish - Jo'chi avlodi; Oq o'rda xoni. 1376 yili Jo'chi ulusining har ikkala qismini, Oq o'rda bilan Oltin o'rdani bir-biriga qo'shib, 1395 yilga qadar Jo'chi ulusi ustidan hukmronlik qilgan podshoh.

²¹¹ Bu jang 1376 yilda bo'lgan.

²¹² Muzaffariylar - 1314-1393 yillarda janubiy Eronii idora qilgan mahalliy sulola. Bu yurish Xurosonda amir Valibek va Alibek Joniqurboniy isyonini bostirish maqsadida qilingan.

Shu payt xotiramga: «Bu mamlakatlarning podshohlari ittifoq bo‘lib, menga qarshi urushga ko‘tarilsalar-chi? Demak, jangga shay bo‘lish lozim!» degan fikr keldi. Amirlarim ham jangdan avval tegishli tayyorgarlikni ko‘rish kerak, deb maslahat berdilar. O‘zim esa ularni birma-bir rom etgan holda bo‘ysundirish, itoatga kelmaganlarini esa jazolash lozim, degan fikrda edim. Mening panohimga kelgan birinchi odam Mozandaron hokimi Amir Ali bo‘ldi. U menga peshkash jo‘natib, maktubida «Biz hazrati Ali avlodidan bo‘lgan bir jamoamiz. Shu yerda qanoat qilib kun kechirayotibmiz. Bu yerni olsangiz quvvatu kuchingiz ortar, ammo kechib yuborishingiz taqvoga yaqinroq ishdir», degan gaplar bitilgan edi.

Men Mozandaron hokimining itoat bildirib qilgan bu murojaatini yaxshilikka yo‘ydim. Keyin Gilon va Jurjonga qarab yo‘l oldim. U o‘lkaning hokimlari menga bo‘ysunmagach, qahrli qo‘shinim favjlarini ularning ustiga jo‘natdim, o‘zim esa Iroq sari lashkar tortdim.

Isfahonni zabt etdim. Isfahon aholisiga ishonch bildirib, qalyasini o‘zlarining qo‘liga topshirdim. Ular esa isyon ko‘tarib, men tayinlagan dorug‘ani askarlarimdan uch ming odam bilan birga tig‘dan o‘tkazdilar. Men Isfahon aholisini qatli omm qilish haqida buyruq berdim.

FORS POYTAXTI (SHEROZ)NI VA IROQNING QOLGAN QISMINI ZABT ETISH BOBIDAGI KENGASHIM

Sherozni muzaffariylarga qoldirib, Isfahonda esa uch ming odamimni tayinlab, o‘zim To‘xtamishxonni daf etish uchun Dashti Qipchoqqa lashkar tortib borganimda, Isfahon aholisi dorug‘ani o‘ldirdi. Shu vaqtning o‘zida Sheraz aholisi ham menga bo‘ysunmay qo‘ygan edi. Shu sababdan, ularni jazolash maqsadida yana Iroqqa yurish qilishga tayyorlana boshladim. Sakson ming otliq askar to‘pladim. Lekin bu katta lashkar bilan bir yo‘la Iroq o‘lkasiga kirsam, u yerga sig‘may qolishi mumkinligini mulohaza qilib,

lashkarimni qismlarga bo'lib, ularni Iroq mamlakatini bosqin qilishga birin-ketin yuborish kerak, deya o'yladim.

Shu qarorga kelib, lashkarimni uch qismga bo'ldim va o'zimdanda borishni tayin qildim. Iroqning har yer-har yerida to'plangan g'anim askarlarining hammasi tarqalib ketdi. So'ng Sheroz ustiga lashkar tortdim. Shoh Mansur²¹³ jang maydonida men bilan to'qnashib, jazosini topdi.

TO'XTAMISHXONGA SHIKAST YETKAZISH BOBIDA QILINGAN KENGASH

Lashkarlarim besh oy davomida To'xtamishxonning ortidan quvib yurgani sababli²¹⁴ ko'pincha och qola boshladilar. Chunonchi, bir necha jun boshbalmoq o'ti, ov go'shti, sahro parrandalarining tuxumi bilan kun kechirdilar. Lashkarim bunday og'ir ahvolga tushib qolganini eshitgan To'xtamishxon fursatdan foydalanmoqchi bo'ldi va chumoliyu chigirtkadan ham ko'p askari bilan ustimizga yopirilib keldi va men bilan to'qnashdi. Askarlarimning ochliqdan tinkasi qurigan edi. To'xtamishxon askarlari esa, to'q va osuda edilar. Farzandlarim va nabiralarim huzurimga kelib, tiz cho'kib, men uchun jon fido qilishga tayyor ekanliklarini bildirmagunlaricha, sarkardalarim va askar boshliqlarim jang qilishga ro'yxushlik bermadilar. Shu payt To'xtamishxonning bayroqdori men bilan til biriktirdi - urush boshlaganimda va ikki tomon lashkari yuzma-yuz kelganda, bayroqdor bayrog'ini tuban qilishi haqida u bilan kelishib oldim. Farzandlarim [va nabiralarim] oldimga kelib, tiz cho'kkanini eshitgach, amirlarim va no'yonlarimning jasurligi tutib, jangga shay holatga keldilar. Shunda men [nabiram] amirzoda Abu Bakr²¹⁵ ni sakkiz ming otliq bilan hirovul

²¹³ Shoh Mansur - Muzaffariylar sulolasidan 1387-1393 yillari Fors bilan Iroqni Ajamni idora qilgan hukmdor. 1393 yil 26 aprelda urushda halok bo'lgan.

²¹⁴ Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi 1391 yildagi Temurning g'alabasi bilan yakunlangan.

²¹⁵ Amirzoda Abu Bakr - amirzoda Mironshohning o'g'li, Ozarbayjon va Iroq hukmdori (1382-1417). Yana bir Abubakr ham bo'lib, u amirzoda Umarshayxning o'g'lidir va uning o'limidan (1394 y.) keyin Fors mamlakatini idora qilgan.

etib tayinladim. Savashu chopish qizishib, jangu jadal o'ti ko'kka ko'tarilganda, chodirlar tikib, taom tayyorlashga kirishishni buyurdim. Xuddi shu payt To'xtamishxonning bayrog'i tuban bo'ldi va To'xtamishxon sarosimaga tushib qoldi. U Jo'chi ulusini talon-tarojga tashlab, hang maydoniga orqa o'girib qochdi.

DORUSSALOM BAG'DOD VA ARAB IROQINI ZABT ETISH TO'G'RIDAGI KENGASHIM

Ajam Iroqi²¹⁶ va Forsni zabt etganimdan keyin, qutb ul-aqtob²¹⁷ pirimdan menga quyidagi mazmunda maktub keldi: «Arab Iroqi²¹⁸ va Ajam Iroqining qahramoni (Oллоh), [ikkinchi] Iroqni ham senga taqdim etdi».

Bag'dodni zabt etish uchun dastavval sulton Ahmad jaloir huzuriga, Bag'dod lashkarlarining qay ahvolda ekanligi, yurish-turishi, qudrati haqida ma'lumotlar olib kelish uchun elchi yuborishga kelishildi. Elchi Bag'doddan menga: «Sulton Ahmad ikki ko'zli bir bo'lak go'sht ekan», degan mazmunda xat yubordi. Men Tangrining inoyatiga suyanib, [Bag'dod ustiga] qarab yurdim va tez fursatda Bag'dodga yetib bordim. Sulton Ahmad jaloir qolishdan ko'ra qochishni afzal ko'rib, Karbalo tarafga qarab qochdi. Shu bilan dorussalom Bag'dod menga bo'ysundi.

TO'XTAMISHXONNI YO'QOTISH UCHUN QILGAN KENGASHIM

[To'xtamishxon mendan yengilib] Jo'chi ulusini talon-tarojga tashlab, o'zi qochgan edi. Keyinroq mening yo'qligimdan foydalanib, Darband va Shirvon orqali Ozarbayjonga ko'p sonli lashkar yuborib, fitnayu fasod ko'tardi. Bu vaqtda men har ikkala Iroqni ham endigina zabt etib bo'lgandim. To'xtamishxonni

²¹⁶ Ajam Iroqi - ajamliklar (yani arab bo'lmagan xalqlar) istiqomat qilib turgan Iroq (qadimga Midiya).

²¹⁷ Qutb ul-aqtob - «qutblar qutbi». Ulug' martabali shayxlar, din peshvolari va valiyarga berilgan faxriy nom.

²¹⁸ Arab Iroqi - arablar istiqomat qilib turgan Iroq; asl Iroq (qadimgi Vavilon).

yo'qotish uchun behisob lashkar bilan Darband yo'li orqali yana Dashti Qipchoqqayurishni maslahat ko'rdim.

Yurish oldidan ko'rik qilib, lashkarim qayergacha borib yetishini bilmoqchi bo'ldim. Qarasam, to'rt farsang masofada lashkarlarim saf tortib turardi. Tangri taologa shukr keltirdim. So'ng Samur²¹⁹ daryosidan o'tib, Dashti Qipchoqning elu ulusigaushbu mazmunda yorliqlar yo'lladim: «Kimki menga kelib qo'shilsa ulug'lanadi, kimki ish bilan kurashmoqchi bo'lsa yiqiladi».

Hijriy 797 (milodiy 1394-95) yili Dashti Qipchoqqakirdim va uzoq shimolida ystanib yotgan yerlarigacha bordim²²⁰. Menga qarshi bo'lgan Jo'chi el-ulusini xarob qilib, o'zimga tobe etdim. Beshinchi va oltinchi iqlim²²¹ viloyatlari, uluslari va qalyalarini zabt etdim va zafar quchib ortimga qaytdim.

HINDISTONNI ZABT ETISH UCHUN QILGAN KENGASHIM

Dastavval, farzandlarim va amirlarimning ko'ngli, o'y-fikrlarini bilish uchun ularga maslahat soldim.

Amirzoda Pirmuhammad Jahongir:²²² «Agar Hindistonni olsak, uning oltinlari bilan butun yer yuzini egallaymiz», dedi. Amirzoda Muhammad Sulton²²³ esa: «Hindistonni olamiz-u, biroq [bunga] to'siqlar bor; birinchisi - daryolar, ikkinchisi - o'rmonu to'qaylar, uchinchisi - to'liq qurollangan sipohiyar vaodamgaov qiluvchi fillari ko'p», dedi. Amirzoda Sulton Husayn²²⁴: «Agar Hindistonni

²¹⁹ Kavkazdagi Terak daryosi nazarda tutilgan.

²²⁰ Amir Temur bilan To'xtamishxon o'rtasidagi bu urush 1395 yil 17 aprelda Terak daryosi bo'yidagi vodiya bo'lgan va Temurning g'alabasi bilan yakunlangan. Shundan keyin Amir Temur Dashti Qipchoqqa qarashli qator viloyat va shaharlarni, Oltin o'rdaning poytaxti Saroy Berkani egalagan.

²²¹ Movarounnahr, Farg'ona, Xorazm va poyonsiz Dashti Qipchoq yerlari.

²²² Pirmuhammad Jahongir - (1376-1407) Amir Temurning nabirasi. Otasi Jahongir vafotidan (1376) keyin uning ulusi (Kobul, Qandahor, G'azni, Balx)ni idora qilish.

²²³ Muhammad Sulton - Temurning nabirasi Jahongirning o'g'li (1376-1403). Onasi Oltin o'rda xoni O'zbekxonning (1312-1341) nabirasi Xonzoda begim bo'lgan. Amir Temur o'ziga valiahd etib tayinlagan. 1403 yili Qora shahar (Turkiya)da kasal bo'lib o'lgan.

²²⁴ Sulton Husayn - Amir Temurning qizi O'ga begimdan bo'lgan nabirasi. 1406 yili Nushirvon barlos tarafidan Zubayda borida qatl etilgan.

qo'lg'a kirita olsak, to'rt iqlimga hukmron bo'lurmiz» dedi. Amirzoda Shohrux²²⁵ dedi: «Men turk qonunlarida o'qigan edimki, jahonda beshta shon-shavkatli podshoh bordir. Ularning ulug'vorligini hurmatlab nomlarini atamay, laqablari bilan aytadilar: Hind podshosini - roy, Rum podshosini - qaysar, Xitoy va Chinu Mochin podshosini - fag'fur, Turkiston va Eron podshosini - hoqon, Eronu Turon podshosini - shahanshoh deydilar. Shahanshoh hukmi hamma Hindiston mamlakatlarida [ham] joriy etilardi. Hozir Turon va Eron bizning qo'limizda bo'lgani uchun, Hindistonni ham fath etmog'imiz lozimdir». Amirlar esa: «Boringki, Hindistonni oldik ham deylik. Biroq u yerda turg'un bo'lib qolsak, naslimiz yo'qoladi, avlodlarimiz o'z aslidan ajrab, hatto tillari hindcha bo'lib ketadi», deyishdi. Men bo'lsam, Hindistonga yurish uchun himmat kamarini belga bog'laganimdan o'z azmu jazmimdan voz kechishni istamadim va shunday javob qildim: «Tangri taologa o'tinch bilan murojaat etaylik. Jang qilish yoki qilmaslik haqida Quryondan fol ochaylik, Tangri taolo meni buyursa shunga amal qilgaymiz». Hammalari mening taklifimni ma'qullashdi. Qur'oni Majiddan fol ochsam, ushbu ulug' oyat chiqdi: «Ey payg'ambar, kofirlarga va munofiqlarga qarshi jahd qilgil»²²⁶. Ulamo mazkur oyatning mazmunini amirlarga tushuntirib bergandan keyin, boshlarini egib, jim bo'lib qoldilar. Ularning xomushligidan dilim ranjidi.

O'z-o'zinga kengashib, Hindistonni zabt etishga rozilik bermayotgan amirlarni mansablaridan olib, qo'shinlarini kutvollariga topshirsammikin, deb o'yladim. Lekin o'zin tarbiyalagan kishilar bo'lganliklari uchun, ularni xarob qilishni istamadim. Garchi yuragimni qonga to'ldirib, ezsalar-da, ularga muloyimlik ko'rsatdim. Oxiri fikrimga qo'shilganlarida, ko'nglimda ularga nisbatan g'ubor qolmadi. So'ngra qaytadan kengash chaqirib, baxtimiz uyi - Hindistonga yuzlanib zafaru fath duosini o'qidim.

²²⁵ Shohrux - Amir Temurning kenj o'g'li (1377-1447), Xuroson noibi (1409-1447y).

²²⁶ Qur'on, Taxrim surasi, 9-oyat.

HINDISTON POYTAXTI (DEHLI)GA LASHKAR TORTISH BORASIDA QILINGAN KENGASH

Kobulda o'ttiz ming javong'or otliq askari bilan turgan amirzoda Pirmuhammad Jahongirga Sulaymon tog'i orqali yurib, Sind daryosidan o'tgach, Mo'ltan voloyati ustiga to'satdan bosqin qilib, uni zabt etishni buyurdim. Sulton Muhammadxon, amirzoda Rustam²²⁷ va boshqa amirlarga o'ttiz ming barong'or otliq bilan Sind daryosidan kechib o'tib, Kashmir tog' etagidagi yo'ldan yurib, Lohur viloyatiga qo'qqisdan bosqin qilishni buyurdim. O'zim g'ulning²²⁸ o'ttiz ikki ming otliq askarlari bilan bo'ldim. Hindiston yurishiga jamlangan lashkarlarimning umumiy soni to'qson ikki ming otliqqa yetgan edi. Bu esa Ollohning yerdagi elchisi Muhammad sallollohu alayhi vasallam ismi shariflari soniga to'g'ri kelganliga uchun, bu tasodifni istiqbolning xayrli va muborak follari sirasiga kiritdim.

Otlanib yo'lga tushdim va Badaxshon chegarasidagi Andarob degan joyga kelib tushdim. [Bu yerda bir necha kun turib] Katur²²⁹ tog'ida istiqomat qilib to'rgan kofirlarni yengdim. Ularga jazo berganimdan so'ng, dor ul-harb²³⁰ bo'lmish Hindiston g'azovatiga yuzlandim²³¹.

HINDISTONGA OLIB BORADIGAN YO'LNI AFG'ONLARDAN TOZALASH UCHUN QILINGAN KENGASH

Shu orada menga arz qildilarki, bir to'da afg'onlar Hindistonga olib boradigan yo'lga bosqin qilib, u yerda qaroqchilik qilayotgan

²²⁷ Amirzoda Rustam (1381-1424) - Amirzoda Umaroshyxning o'g'li. 1405-1408 va 1415 yillari Isfahon hokimi bo'lgan. 1424 yili o'sha yerda (Isfahonda) vafot etgan.

²²⁸ G'ul (qo'l) - qo'shinning markaz qismi.

²²⁹ Katur - Hindikushdagi tog'li viloyat, Kofiriston, Nuriston deb ham ataladi.

²³⁰ Dor ul-harb - arabcha urush uyi; islom dinini qabul qilmagani uchun jihodga nishon bo'lgan mamlakat.

²³¹ Hindistonga yurish 1398 yil aprel oyida boshlanib, 1399 yil aprel oyining 27 sigacha davom etgan.

ekanlar. Xususan, bulardan Karkas qabilasining boshchisi Muso afg'on haddidan oshayotgan ekan. Mening vafodor xizmatkor va tobe'larimdan biri bo'lgan Lashkarshoh afg'onni Pirmuhammad Jahongir Irob qal'asini qo'riqlashga qo'ygan edi, Muso afg'on mazkur qal'aga ot solib, shiddat bilan bosib olibdi, Lashkarshoh afg'onni o'ldirib, qal'adagilarning bor-yo'g'ini talab ketibdi.

Shu paytda [huzurimga] Lashkarshohning inisi Malik Muhammad dod-faryod ko'tarib keldi. U og'asini o'ldirgan Muso afg'onning jabru zulmidan shikoyat qildi. Men bo'lsam [uning so'ziga quloq solmagan bo'lib], «Hoy, inson! Muso afg'on menga xayrxohlardan biridir», dedim va uni qamab qo'yishlarini buyurdim. Amirilar meni nohaq zulm o'tkazdi, deb aybladilar. Biroq buning aksicha, Muso afg'on bo'lsa, Malik Muhammadning hibsga olinganligi haqidagi xabarni va mening aytgan gaplarimni eshitib, ko'ngli taskin topdi. Shundan keyin, uni huzurimga kelishini talab qilib yozgan yorlig'imni olgach, hadiksiramadan darhol yetib kelib, qal'ani menga peshkash qildi.

Men u qal'ani tamosha qilish uchun ichkarisiga kirganimda, uning (Muso afg'onning) si'pohiylaridan biri meni o'ldirish qasdidao'q otdi. Keyin Muso afg'on o'ziga yarasha jazosini topdi. Hindiston yo'li ochildi.

DEHLI HOKIMI SULTON MAHMUD VA MALLUXONLARNI YENGISH BOBIDAGI KENGASH

Sulton Mahmud²³² va Malluxon²³³ ellik ming otliq va piyoda askar, 120 zanjirband fillar bilan Dehli qal'asini mustahkamladilar va men bilan jang qilishga shaylandilar. Ko'nglim g'ash bo'ldi. Bordiyu Dehli qal'asini bosib olishga borsam-u, mabodo bu ish uzoq muddatga cho'zilib ketsa, [unda nima qilaman?]. Kengashni shundan topdimki, g'anim lashkari dadillanib, [qal'adan] chiqib,

²³² Sulton Maxmudshoh - shimoliy Hindistonni 1320-1414 yillari idora qilgan Tug'luqiylar sulolasidan chiqqan podshoh Sulton Mahmudshoh zamonida Nosiriddin Mahmudshoh (1393-1413).

²³³ Malluxon - Sulton Nosiriddin Mahmudshoh zamonida amir ul-umaro va Dehli hokimi.

saf tortib jang maydoniga kirishi uchun, o'zimni kuchsiz va [qo'rqqandek] qilib ko'rsatmoqchi bo'ldim. Shu sababdan lashkardan uzoqroqqa xandaq qazdirdim. Lashkarim bilan xandaq ichiga yaxshilab joylashganimdan keyin, lashkarlarimning bir qismini dushmanga qarshi jangga tashladim. Dushman qarshisiga borgach, o'zlarini kuchsiz ko'rsatib, qo'rqqanday bo'lib chekinishlarini va g'animlarni dadillantirib kelishni buyurdim. Dushman lashkari bu holni ko'rib o'zlarini g'olib hisoblab, gerdayib jang maydoniga chiqqan edilarki, [mening] qahrli lashkarim bilan yuzma-yuz keldilar. Dehli hokimi Sulton Mahmud jangga kirishdi va yengilib tog' tarafga qochdi. Beqiyos xazina va mol-mulki si pohlilarimganasib bo'ldi.

Bir yil ichida Hindiston poytaxti Dehlini zabt etdim²³⁴ va mazkur yilning oxirlarida saltanatim poytaxti [Samarqand]ga qaytdim²³⁵.

GURJISTON MAMLAKATINI EGALLASH UCHUN QILGAN KENGASHIM

Hindistondan zafar qozonib qaytganimdan keyin, hali safar charchog'i chiqmay turib, ikki Iroq hokimlaridan menga arznoma keldi. Yozishlaricha, Gurjiston kofirlari hadlaridan oshib, chegarani buzgan emishlar.

Men hamisha podshohlar uchun kofirlarga qarshi g'azovat qilishdan, mamlakatlarni zabt etishdan va jahongirlikdan yaxshiroq ish yo'q, degan fikrda edim. Gurjiston imonsizlarining tug'yon ko'tarishi haqidaga xabar kelishi bilanoq kengash o'tkazib, «o'sha diyordagi boshqa buzuqi odamlarning ham bosh ko'tarishiga yo'l ochilmasin», deb zudlik bilan ularni daf qilishga tutindim. Hind yurishidan kelgan si pohlilarimga «xohlovchilar shu yerdaqolsin, xohlovchilar men bilan borsin», deb ixtiyorni o'zlariga berdim. Xuroson, Qandahor, Seiston, Kermon, Tabariston, Gilon, Mozandaron va Fors viloyatlaridagi lashkarlarimga jang hozirligini ko'rib, Isfahon atrofiga kelib, mening zafarli lashkarimga qo'shilsinlar, deb yorlig'lar jo'natdim.

²³⁴ 1398 yil 18 dekabr.

²³⁵ 1399 yil 27 aprelda.

Har bir mamlakatdagi itoatdan bo'yin tovlavchilarni turli yerlarga tarqatib yuborishni maslahat ko'rdim. Chunonchi, Xuroson va Forsdagi bo'yin tovlavchilarni Turonga ko'chirdim va bu mamlakatlarning sathini ularning muxolifligidan tozaladim.

So'ng Gurjiston viloyati qalyalarini zabt etish uchun o'sha mamlakat ustiga otlandim²³⁶. Si pohiylarning ko'ngliganimao'tirsa, shuni qildim. Boshimga po'lat dubulg'a, egnimga Dovudiy sovut kiydim, belimga Misr qilichini bog'lab, bahodirligu kurash taxtiga o'tirdim. Turonlik dovyurak yigitlarga, Xuroson pahlavonlariga, Gilon va Mozandaron botirlariga qo'rqinch soldim va Sivas²³⁷ hamda Gurjiston qal'alarini fath qildim. Qalyadan turib, [qarshilik ko'rsatganlarning] barchasini tag-tomiri bilan yulib, qalyadan olgan o'ljalarni g'olib askarlarimga ulashdim. Ozarbayjonlik buzuqi, bevosh kishilarni jazoladim.

Shundan keyin Malatiya qalyasi va uning tevaragidagi yerlarni zabt etishdan kirishdim. O'sha qal'alarni zabt etishdan xotirjam bo'lganimdan so'ng Halab²³⁸ va Xumis²³⁹ ni zabt etishga himmat kamarini bog'ladim va bir oz harakat bilan bu mamlakatlarni ham fath etdim. So'ng Misr va Shom mamlakatlarini zabt etishga kamar bog'ladim²⁴⁰.

MISR VA SHOMNI FATH ETISH BOBIDA QILGAN KENGASHIM

Mening shon-shavkat va qudratim ovozasini Rum qaysarining²⁴¹ qulog'iga yetdi. U o'ziga qarashli Sivas hamda Malatiya qalyalari va

²³⁶ Amir Temur Gurjistonga hammasi bo'lib olti marta (1386-87, 1392, 1394, 1399, 1402 va 1403 y.) yurish uyushtirgan. Nihoyat, so'nggi yurishida 1403 yilning dekabr oyida Gurjiston podshosi Gurgenxon, yani Georgiy VII (1393-1407) Amir Temurga taslim bo'lib, sulh tuzgan.

²³⁷ Sivas - Kichik Osiyoning yirik qalya-shaharlaridan; qalyasi o'ta mustahkam bo'lgan. Sultoniya-Tabriz-Qo'niyo yo'li ustida. Qizil irmoq daryosi havzasida joylashgan o'rta asr shahari (hozirgi Turkiyada).

²³⁸ Halab - Shom (Suriya)ning shimolida joylashish qadimiy shahar (milod. va. 20-asrdan ma'lum), Aleppo nomi bilan mashhur.

²³⁹ Xumis (qadimgi Emessa) - Osi (Orient) daryosi bo'yida joylashgan va Shomga qarashli qadimiy shahar.

²⁴⁰ Misr va Shom zabtiga Temur yetti yillik (1399-1404) yurish vaqtida, aniqrog'i 1401 yili kirishgan.

²⁴¹ Bu yerda Usmonli imperiyasi sultoni Yildirim Boyazid I (1389-1402) nazarda tutiladi (1403 yilning 8-martida Oqshaharda vafot etgan).

ularga tobe yerlarni zabt etganim, qal'alar ichidaga askarlarining barisini tarqatib, tevarak-atrofga sohib tashlaganim haqidagi xabarni eshitgach, tomirlaridagi g'ayrat harakatga keldi va lashkarim zarbasidan qochib, qaysar qoshida panoh topgan Qora Yusuf turkman²⁴² ig'vosi bilan ustimga lashkar tortishga qaror qildi.

Qaysar baloga yo'liqib, davlati vayron bo'lishi yaqinlashib qolgan edi, chunki u Qora Yusufning ig'vosiga uchib, menga qarshi lashkar tortgan edi. [Qolaversa] Misr va Shom qo'shinlarini ham yordamga chaqirgan edi. Men kengashib lashkarimni uch qismga ajratsam yaxshi bo'lar, dedim. Biroq jangda yengish-yengilish ishi taqdir pardasi ostida yashirinligiga bois bu to'g'rida amirlarim bilan kengash o'tkazdim. Ular sipohiylarga xos ishni tutib, urush ochmoqni maslahat berdilar.

[Shunday bo'lsa] ham men qaysarning [g'ayrat] o'sha achchiq-chuchuk gap bilan so'ndirmoqni maslahat ko'rdim va qaysarga maktub yo'lladim. Xatning qisqacha mazmuni shunday edi: «Yeru ko'kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo'lsinkim, yetti iqlim mamlakatlarining ko'pini mening farmonimga kirgizdi va olam sultonlari va hokimlari menga egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdilar. O'z qadrini bilib, haddidan oshmay jasorat oyoqlarini tiygan bandasini Tangri yorlaqasin! Sening naslu nasabing kim ekanligi jahon xalqi oldida ma'lumdur. Shunday ekan, holingga munosab ish tutib, jur'at oyog'ini oldinga qo'ymaki, ranju mehnat balchig'iga botib, balo chuquriga yiqilgaysan. Iqbol eshigidan haydalgan bir to'da ig'vogar kishilar g'arazli ishlarini bajarish uchun sening panohingdan joy olib, uxlab yotgan fitnani uyg'otmishlar. Yana o'shalarining ig'vosi bilan ofat va balo eshigini davlating yuziga ochmagil. [Darhol] Qora Yusufni mening oldimga yuborgil. Yo'q esa taqdir pardasi ikki lashkar saflari to'qnashganda yuzingga ochilg'usidir»²⁴³.

²⁴² Qora Yusuf turkman — 1380-1468 yillari Iroq va Ozarbayjon ustidan hukm yuritgan Qora-quyunlilar sulolasidai chiqqan oliy hukmdor (1388-1420). 1388-89 y. Armanston, Iroq va Janubiy Ozarbayjon sarhadlaridan Amir Temur lashkari bilan janglar qilgan. U Sulton Ahmad jaloir bilan ittifoqdosh bo'lgan. Lekin har ikkalalari ham yengilib, Sulton Boyazid Yildirimning qanoti ostiga qochib borganlar Tabrizga faqat 1406 y. Temur vafotidan keyin qaytgan.

²⁴³ Lekin Boyazid Yildirim Amir Temurning talabini inobatga olmagan, aksincha unga haqoratimiz javob maktubi yo'llagan.

Maktubni tanilgan elchilarim bilan qaysarga yuborganimdan keyin Shom poytaxti (Dimishq)ga borib turishga qaror qildim. Xumis va Halab yo'li orqali u yerga ravona bo'ldim. Halab shahariga yetganimda Misr podshosi Malik Barquq o'g'li Malik Faraj²⁴⁴ mening Dimishqqa kelayotganimni eshitib, shoshilinch ravishda Misrdan Dimishqqa qarab yo'l olgani haqida xabar keltirdilar. Men Misr va Shom lashkarlarning qo'shilishiga yo'l qo'ymaslik uchun zudlik bilan o'tlanib, oldinga yurdim. Lekin Malik Faraj abjirlik qilib, mendan oldin Dimishqqa yetib oldi. [Shunday bo'lsa ham] men uning orqasidan shaharga yetib bordim va Dimishqni zabt etdim²⁴⁵.

RUM MAMLAKATINI ZABT ETIB, QAYSAR LASHKARINI SINDIRISH BOBIDA QILGAN KENGASHIM

Shom shaharlarini zabt etganimdan keyin va Misru Shom podshosi Malik Faraj jang maydonini tashlab qochgandan so'ng, Rumga yuborgan elchim Yildirim Boyazidning teskari javobini²⁴⁶ olib keldi. Lekin [Boyazid] Misr va Shom lashkari mendan yengilganini eshitgach, o'ylanib qolganini, sarosimaga tushib, shoshilinch ravishda yurishga tayyorgarlik ko'ra boshlaganini ham aytdi. Men esa kengashib Dimishq shahrini olib, Shom viloyatlarini bo'ysundirgach, Mo'sul²⁴⁷ yo'li bilan Bag'dodga qarab yurdim. Bu bilan qaysarning men bilan urush qilish niyati bor-yo'qligini bilib olmoqchi bo'ldim.

Tabriz tarafga qarab yurdim. Amirzodalardan ba'zilariga ko'p

²⁴⁴ Malik Barquq Ibn Malik Faraj – 1382-1517 yillarda Misr bilan Shomda hukmronlik qilgan Burjiylar sulolasidan chiqqan oliy hukmdor (1399-1405). Sharqdagi Temurga qarshi kuchlar, To'xtamish, Qora-quyunli turkmanlari, Sulton Ahmad jaloir va Rum sultonlari bilan ittifoqdosh bo'lgan.

²⁴⁵ 1401 yil 11-yanvar.

²⁴⁶ Ibn Arabshohning so'zlariga qaraganda, Boyazid I Yildirim o'zining javob xatida Amir Temurdan orani ochiq qilib olish uchun huzuriga kelishni talab qilgan. Aks holda «xotinlarning taloq bi-s-salosa (uch taloq) bo'lsin», deb uni qattiq haqorat qilgan.

²⁴⁷ Mo'sul - Arab Iroqining katta shaharlaridan.

sonli lashkar qismlarini qo'shib, Bag'dod ustiga jo'natdim. Bu vaqtda Bag'dod hokimi Sulton Ahmad jaloyir shaharni va uning qalyasini qo'riqlashni navkari Farruxga topshirib, yoniga ko'p odamlarni to'plab bergandi. Amirzodalar Bag'dodga yetib, shaharni qurshab oldilar. Ish urush qilishga borib taqalgach, [chopar orqali] bor haqiqatni menga arz qildilar. [Bu xabarni] eshitib o'zim Bag'dodga borib, shahar va qal'ani ozod etishga qaror berdim. Tabriz yo'lidan orqaga qaytib, yurish bilan Bag'dodga keldim va ehtiyotkorlik bilan harbiy hiylalar ishlatib, qalyani qo'lga olishga kirishdim. Qamal muddati ikki oyu va yana bir necha kunga cho'zilgandan keyingina qalya bilan shahar ishg'ol etilib, g'alaba qozonildi²⁴⁸. Qal'a boshlig'i Farrux Dajla daryosida g'arq bo'ldi. Men shaharga kirdim va barcha bebosh, buzuqi kishilarni o'ldirishni, qalya va shahar imoratlarini buzib, yer bilan barobar qilishni buyurdim.

Bag'doddan keyin Ozarbayjonga keldim va o'sha yerda bir qancha vaqt turib qoldim. Shu asnoda qaysar Halab, Xumis va Diyorbahr viloyatlariga lashkar qismlarini yuborgani va mendan qochib qaysar panohiga kirgan Qora Yusuf turkman esa qaroqchilar boshlig'iga aylanib, ayniqsa ikki muqqadas shahar²⁴⁹ ziyoratiga qatnovchilarning karvonlariga ko'p zarar keltirayotganliga xabari quloqqa eshitildi. Buning ustiga o'sha taraflardan bir jamoat kishilar kelib, ular ham Qora Yusufning jabr-zulmidan arz qildilar. Shuning uchun Qora Yusufning jazosini berib, qaysarning ko'zini g'aflat uyqusidan ochib qo'yishim lozim ko'rindi. Bu xususda maslahatni shundan topdimki, har bir shahar va qabiladan lashkar to'plab, qaysarning ustiga yopirilib borgayman. Lashkarlar jam bo'lgandan keyin hijriy 804 yilning rajab oyida Ozarbayjondan chiqib, qaysarlarga qarshi jang qilish uchun yo'lga tushdim.

O'zimdagi ilgari lashkarimdan bir necha qismini Rum mamlakati ustiga to'satdan bosqin qilishga tayin etdim. Yana bir necha qismga esa yo'limizdagi to'xtash manzillarini ko'zdan kechirib, yemish va ichmishni hozirlab turishni buyurdim. O'zim Anguriya²⁵⁰ yo'li

²⁴⁸ 1401 yil 20 iyun.

²⁴⁹ Makkayi mukarrama va Madinayi munavvaraga berilgan faxriy nom.

²⁵⁰ Anguriya - Anqara shaharining o'rta asrlardagi nomi.

bilan yurish qildim. Qaysar to'rt yuz ming otliq va piyoda askari bilan menga qarshi yuzlandi. Urushni boshladim va uni yengdim²⁵¹. Qaysarni lashkarboshilarimdan biri qo'lga tushirib, huzurimga keltirdi.

Yetti yillik yurishdan so'ng zafar va nusrat bilan Samarqandga qaytdim²⁵².

IKKINCHI MAQOLA

Mamlakatlarni fath etguvchi baxtli farzandlarim va jahonni idora etguvchi qudratli nabiralaringma ma'lum bo'lsinkim, Tangri taolo dargohidan umidim shulki, ko'plab farzandlarim, avlodim va zurriyotim saltanat taxtiga o'tirib, mamlakatlarni idora etgay. Shuning uchun saltanat qurish, davlat tutish bobida o'zim qo'llagan ishlarni bir necha tuzukka²⁵³ bog'ladim va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma yozib qoldirdim, toki farzandlarim, avlodim va zurriyotimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin; mehnatu mashaqqatlar, ko'p harbiy yurishlar, urush-talashlar bilan, Tangrining inoyati va hazrati Muhammadning, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, tole'i baland millatining sharofati, onhazratning ulug'vor avlodi va qimmatli sahobalariga qilgan muhabbat va do'stligim orqali qo'lga kiritgan davlat va saltanatni saqlagaylar.

Bu tuzuklardan saltanat ishlarini boshqarshida qo'llanma sifatida foydalanganlar, toki mendan ularga yetadigan davlat va saltanat zararu tanazzuldan omon bo'lgay.

Endi mening nomdor, baxtiyor farzandlarim va mamlakatlarni zabt etguvchi iqtidorli nabiralaringma yo'l-yo'rig'im shulki, men o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, saltanat martabasiga erishdim. Shu o'n ikki narsa yordamida mamlakatlarni zabt etib, saltanatimni boshqardim va saltanat taxtiga zebu ziynat berdim. Ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar. Mening va o'zlarining davlatu saltanatlarini ehtiyot qilsinlar.

²⁵¹ 1402 yil 20 iyulda.

²⁵² 1404 yil avgust oyida.

²⁵³ Tuzuk - qonun.

Birinchisi - davlat va saltanatimga bog'lagan mening birinchi tuzugim shulkim, Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim.

Ikkinchisi shulkim, o'n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim, ularni idora qildim. Davlat, saltanat ustunlarini o'shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim.

Uchinchisi shulki, maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik, ehtiyotkorlik bilan g'anim qo'shinlarini yengib, mamlakatlarni o'zimga bo'ysundirdim. Saltanatim ishlarini murosayu madora, muruvvat, sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko'p narsani bilib tursam ham o'zimni bilmaslikka soldim, do'stu dushman bilan murosayu madora qildim.

To'rtinchisi - davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, saltanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, sipoh, raiyat, har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi.

Beshinchisi - amirlarim vasi pohlilarimni martabavaunvonlar, oltin-kumush bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga [o'z yonimdan] o'rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig' tutmadim. Ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnatu mashaqqatlarini o'zimga oldim va ularni tarbiyat qildim. Amirlar, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardligu mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Turon, Eron, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, ikki Iroq, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jete Dashti, Qipchoq Dashti, Xorazm, Xo'tan, Kobuliston, Boxtarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim.

Saltanat to'nini kiygach, o'z to'shagimda rohatda uxlash huzur-halovatidan voz kechdim. O'n ikki yoshimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo'lladim, [g'anim] qismlarini sindirdim. Amirlar vasi pohlilarning isyonlarini ko'rdim, ulardan achchiq so'zlar eshitdim. Lekin sabru bardosh

bilan o'zimni eshitmagan-ko'rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko'tarib jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim.

Oltinchisi - adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan sipohiylarim va raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, sipohiylarga in'omlar ulashdim.

Zolimga qarshi mazlum dodiga yetdim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, uni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim.

Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishingga ko'p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru' qilib kelgach, hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yo'l tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qo'rquv bo'lsa, butunlay unutishar edi.

Yettinchisi - sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e'tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini o'rniga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Ulamo bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim, ularning himmatlaridan ulush tilab, muborak nafaslari bilan duofotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim, ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og'zi shaloq, g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmatu g'iybat qilsalar, quloq solmadim.

Sakkizinchi - azmu jazm bilan ish tutdim. Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim. Har neki desam, unga o'zim amal qildim. Hyech kimga g'azab bilan qattiq muomalada bo'lmadim va hyech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga

duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang etmasin deb. Odam Otadan boshlab Muhammad payg'ambargacha, ulardan to hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donolardan so'rab-surishtirdim. Har qaysilarining yo'l-yo'riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xotiramda saqladim va yaxshi axloqlari, ma'qul sifatlaridan o'rnak olib, unga amal qildim. Davlatlarining tanazzulga uchrashi sabablarini surishtirdim va davlatu saltanat zavoliga sabab bo'luvchi ishlardan saqlandim, aslni buzuvchi, ocharchilik va vabo kasali keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan saqlanishni o'zimga lozim bildim.

To'qqizinchisi - riyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim. Har yerning tabiati, har el va shaharning rasmu odatlari, mizojidan voqif bo'lib turdim. Har bir o'lka va shahar aholisining ulug'lari bilan do'st tutindim. Ularning mizojlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. Har bir diyor aholisining ahvolidan ogoh bo'lib turdim. Har bir mamlakatning ahvolini, siyohu riyat kayfiyatini, turish-turmushini, qilish-qilmishlarini, o'rtalaridagi aloqalarni xatga bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli, to'g'ri yozuvchi kishilarni belgiladim. Bordiyu egri yozganlari mengabildirilsaularni jazoladim. Hokimlarni siyohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkizganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolatu insof yuzasidan chora ko'rdim.

O'ninchidan - turku tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va xizmatimga kirgan kishilarning ulug'lariga izzat-hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Yaxshilariga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim.

Kim menga do'stlik qilsa qadrladim, unutmadi va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim. Kimki mening xizmatimni qilsa, xizmati haqini ado etdim. Kimki menga dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo'lib, iltijo bilan himoya istab, tiz cho'kib huzurimga kelsa, dushmanligini unutib, muruvvat va do'stlik ko'rsatdim. Chunonchi, ulus amiri Sher Bahrom avval menga hamroh edi, boshimga ish tushganda meni tashlab ketdi va dushmanlarimga qo'shildi, menga qarshi qilich

ko'tardi. Oxiri bergan tuzim haqi tiz urib, yana iltijo qilib keldi. Asl er-yigit ekani va jangu-jadal bilan suyagi qotgan mardlardan bo'lganligi sababli yomon ishlarining hammasidan ko'z yumdim. Huzurimga kelgach, o'zini hurmatlab, martabasini oshirdim. Uni mardu mardonaligi uchun kechirdim.

O'n birinchisi - farzandlar, qarindoshlar, yoru birodar, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu nemat martabasiga erishganimda unutmadim, [molu mulk va naqd pul bilan] haqlarini ado etdim. O'z farzandlarim, qavmu qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o'tgan bo'lsa, darhal [qo'l-oyog'ini] bog'lab, o'ldirishga buyurmadi. Har kimni [turish-turmushning pastu balandlarida] turli yo'llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yarasha muomala qildim. Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do'stu dushman bilan kelishib yashadim.

O'n ikkinchisi - do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar. O'zlarini ma'rakamaydonga, halokatga otib, jonlarini qurbon qiladilar.

Agar g'anim sipohidan biror kimsa o'z valine'matigasidqidildan xizmat qilib, urush kunlarida menga qarshi qilich ko'targan bo'lsa ham, unday odamga nisbatan lutf-marhamatlar ko'rsatdim. Qoshimga [panoh istab] kelganda, uni qadrlab, yashovchini qozondim, vafodorligi va haqiqat bilan xizmat qilishiga ishondim.

Qaysi bir sipohiy tuz haqi vavafodorlikni unutib, xizmat vaqtida o'z egasidan yuz o'girib, mening oldimga kelgan bo'lsa, unday odamni o'zimga eng yomon dushman deb bildim. Chunonchi, To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda uning amirlari menga xabarlar va shikoyatlar yozib, o'z hukmdori, ya'ni mening dushmanim bo'lmish To'xtamishxon bergan tuz haqini unutdilar. Vafodorlik va haqiqatni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, mening huzurimga panoh istab kelganlari uchun ularni la'natladim, o'zimcha, «bular o'z sohibiga vafo qilmagach, menga qilarmidi», deb o'yladim.

Yana tajribamda ko'rib bildimki, davlat agar dinu tartib asosida

qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, undan saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xshaydirmekim, uni ko'rgan har kimsa [undan] nigohini olib qochadi. Yoxud har xil qalang'i-qasang'i odamlar tap tortmay kirib-chiqadigan tomsiz, eshigi-to'sig'i yo'q uyga o'xshaydi.

Shuning uchun ham men o'z saltanatim binosini islom dini, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Saltanatni boshqarishimda uchragan har qanday voqyea va ishni to'ra va tuzuk asosida ado etdim.

Dilimning mashriqidan ko'tarilgan birinchi tuzuk shundan iborat bo'ldiki, islom dinini yoyib, Muhammad, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, shariatini quvvatladim. Jahonning turli mamlakatlari, katta va kichik shaharlarida islom dinini va odamlarning eng xayrlisi²⁵⁴ ning to'g'ri yo'llarini targ'ib etdim. O'z saltanatimni shariat bilan bezadim.

Ravshan dinga rivoj berishda qo'llagan birinchi tuzugim shu bo'ldiki, sayyidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga boshliq - sadr etib tayinladim. Tamom vaqf²⁵⁵ larni boshqarish va nazorat qilish uchun mutavalliy tanlashni, har bir shahar va viloyatda qozi, muftiy, muhtasib tayinlashni uning o'ziga havola qildim. U sayyidlar, ulamo, shayxlar va boshqa arboblarga loyiq suyurg'ol²⁵⁶ belgilab, har birining vazifasini tayin qilsin, dedim.

Lashkar uchun maxsus qozi va raiyat uchun alohida qozi tayinladim; har mamlakatga shayxulislom yubordimki, toki musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, ularni yaxshi va savob ishlarga undasin. Noiblarimga har bir shaharda masjidlar, madrasalar, xonaqohlar qurishni, yo'lovchi musofirlar uchun yo'l ustiga rabotlar solishni, daryolar ustiga ko'priklar qurishni buyurdim.

Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlaridan tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim.

²⁵⁴ Hazrati Muhammadning sifatlaridan.

²⁵⁵ Vaqf - podshoh yoki boy-badavlat kishilar tarafidan masjidlar, xonaqohlar, mozorlarga yoki ayrim yirik dinu tariqat arboblriga, ularning maoshi uchun berilgan yer-suv, mol-mulk.

²⁵⁶ Suyurg'ol - in'om, sovg'a (yer, mol-mulk).

Turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganliga xususida menga xabar qilib turishni buyurdim. Shungao'xshash har el vabar shahardasipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjalli ishlar haqida menga ma'lumot berib tursin, deb adolat amirini tayinladim.

Shu tariqa islom dinini rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoydim. Islom dinini yoyib, unga ravnaq berganim haqidagi ovoza kattayu kichik ahli mo'minning qulog'iga yetgandan keyin, islom olimlari: «Tangri taolo har yuz yilda Muhammad, unga tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, diniga rivoj berish va [uni] yangilash uchun bir kishini islom dinining yoyuvchisi va yangilovchisi sifatida ixtiyor etadi. Bu sakkizinchi yuz yillik²⁵⁷ da Amir sohibqiron²⁵⁸ islom dinini jahon ahliga tarqatdi. Shuning uchun bu yuz yillikda Muhammad dinining yangilovchisi shu kishi bo'lg'ay», deb fatvo berdilar.

Zamon ulamosining ulug'i bo'lmish Mir Sayyid Sharif²⁵⁹ bu xususda menga maktub yo'llab yozgan edilarki, ilgari va keyingi avlod islom olimlarining barchasi bir og'izdan ittifoq bo'lib deganlarki, Olohi taolo, hazrati risolatpanoh payg'ambarimiz, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, uning dinini tarqatish uchun har yuz yilda bir kishini dinni yangilovchi sifatida ixtiyor etadi. Sakkizinchi yuz yillikning boshida Amir sohibqiron dini mo'binni rivojlantirdi va har tomonga yoydi. Dini islom olamning turli o'lkalari va shaharlarida ravnaq topdi. Haqli ravshida [bu asrda] dinning tarqatuvchisi Amir sohibqironligi tasdiqlandi. Ushbu maktubning nusxasi budir: «YO, Olohi! Kimki Muhammad dinini qo'llab-quvvatlasa, Sen ham uni qo'llagil, kimki Muhammad dinini xor qilsa, Sen ham uni xor qilg'il».

²⁵⁷ Sakkizinchi yuz yillik - hijriy hisob; milodiy XIV asr.

²⁵⁸ Sohibqiron - Zuhro va Mupggariyning bir-biriga yaqinlashgan holati «Qiron burji» deb ataladi. Amir Temur Zuhro (Venera) va Mushtariy (Yupiter) bir-biri bilan yaqinlashganda tug'ilgan. Etiqodga jo'ra bunday bola kelajakdi toj-saltanat va baxtu iqbol egasi bo'ladi. Shunday faxriy nomi Chingizxon (1155-1227) va Shayboniy Abdulloxon II (1583-1598) ham sazovor bo'lishgan.

²⁵⁹ Mir Sayyid Sharif Jurjoniy (1330-1414) - jurjonlik mashhur faylasuf olim. 1387 yili Amir Temur uni Samarqandga olib kelgan va u ulug' amirning «Dorushshifo»sida dars bergan.

Risolatpanoh payg'ambarimiz hijrat etganlariga ham sakkiz yuz yildan oshdi. Har yuz yil boshida Oллоhi taolo va taqaddus o'z elchisi va habibi Muhammad dinini uning ummatiga tarqatuvchi va yangilovchini ixtiyor qiladi. Oллоhga hamdu sanolar bo'lsinki, sakkizinchi yuz yillik boshida Oллоhi taolo Amir sohibqironni islom dinining yangilovchisi va rivojlantiruvchisi sifatida ixtiyor qildi va u turli o'lkalar hamda mamlakatlarda hamda Muhammad dinini qabul qildirdi. Ilk islom olimlari dinni yangilovchilar ahvolini o'rganib, o'z kitoblarida bu haqda ma'lumot berganlar. Bu yangilovchilar quyidagilardir:

Hijratdan keyingi birinchi yuz yilliqda dinni yangilovchi kishi Umar ibn Abdulaziz²⁶⁰ edilar. U xorijiylar²⁶¹ Muhammad dinini qabul qildirdi. Ilk islom olimlari dinni yangilovchilar ahvolini o'rganib, o'z kitoblarida bu minbardan turib hazrati Aliga ta'na qilishib, la'natlar yog'dirishib, islom dinini zaiflashtirganda, bu [nizoni] bartaraf etdi. O'sha vaqtda islom ahli ittifoqi buzilib, kinayu adovat paydo bo'lgan edi; bir toifa odamlar to'g'ri yo'ldan borgan xalifalarni la'natlab, ularga ta'nayu dashnom yog'dirdilar; boshqa birlari esa mo'minlar amiri hazrati Ali [boshliq] imon Husayn²⁶² va hazrati Abbos²⁶³ ni la'natlar edilar. Bu ikki guruh o'zaro adovatda bo'lib, o'ta mutaassib edilar. Umar ibn Abdulaziz bu nizolarni bartaraf qilib, islom dinini yangiladi.

Ikkinchi yuz yillikning boshida kelgan din yangilovchisi xalifa Ma'mun ibn Xorun ar-Rashid²⁶⁴ edi. U islom dinida paydo bo'lgan yetmish ikki turli botil²⁶⁵ mazhablarni yo'qotib, haq mazhabi - ahli sunnat va jamoatni rivojlantirdi. Ali ibn Muso Ja'far²⁶⁶ ni, undan Oллоh rozi bo'lsin, Xurosondan olib kelib, uni o'ziga

²⁶⁰ Umar Ibn Abdulaziz - umaviya sulolasi (661-750)ga mansub sakkizinchi xalifa (712-720).

²⁶¹ Xorijiylar (ajralib chiqqanlar; isyonchilar) - VII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan islomdagi g'oyaviy-siyosiy oqim.

²⁶² Imom Husayn - xalifa Alining o'g'li (626-680). Kufada xalifa Yazid (680-683) askarlari bilan bo'lgan urushda 680 yil 10 oktabr kuni o'ldirilgan.

²⁶³ Hazrati Abbos - Muhammad payg'ambarning amakivachchasi Abulabbos as-Saffoh, abbosiylar sulolasining asoschisi (749-754).

²⁶⁴ Mamun Ibn Xorun ar-Rashid - mashhur xalifa Xorun ar-Rapshd (786-809)ning o'g'li va taxt vorisi (813- 433).

²⁶⁵ Botil - bekor qilingan, buzuq;

²⁶⁶ Ali Ibn Muso Jafar (765 yoki 770- 818) - shialarning sakkizinchi imomi.

valiahd deb elon qildi. Uning izni va maslahati bilan mamlakatda hukmronlik qildi.

Uchinchi yuz yillik boshida dini Muhammadiyni yangilovchisi xalifa Muqtadir billoh Abbosiy²⁶⁷ edi. Abu Tohir boshchiligidaga qarmatlar²⁶⁸ Makkai muazzamani bosib olib, arafa kuni hajga borganlardan o'ttiz mingtasining joniga qasd qildilar va ularni shahid etdilar. Muqaddas qora toshni Ka'ba devoridan sug'urib oldilar. Islom mamlakatlarini vayron etib [xalqni] qatliom va talon-toroj qildilar. Shu sababdan islom dini zaiflashib qoldi. Muqtadir billoh ustiga lashkar tortib, ularni uloqtirib tashladi [va fitnani bostirdi]. Bu bilan islom dini va shariatiga rivoj berdi.

To'rtinchi yuz yillikning boshida Muhammad dinini rivojlantirgan kishi Izzuddavla Daylamiy²⁶⁹ edi. Shu davrning xalifasi abbosiy Muti' amrilloh²⁷⁰ hukmronligi vaqtida bo'lgan fisq-fujurlar va unga tobe kishilarning zulmi orqasida islom dini zaiflashgan va islom mamlakatlarida turli-tuman fisq-fasod ko'paygan edi. Izzuddavla bu xalifani taxtdan yiqitib, o'rniga o'g'li Toi' Bidloh²⁷¹ ni valiahd qildi. Izzuddavla shaxsan o'zi bu dinni tarqatish va tozalashda, bid'atni yo'qotishda, noshar'iy ishlarni bartaraf etishda, jabr-zulmni tugatishda mutasaddi bo'ldi. Muhammad diniga rivoj berdi.

Beshinchi yuz yillik boshida dinu shariatni rivojlantirgan odam Sulton Sanjar ibn sulton Malikshoh²⁷² edi. Shayx Ahmad Jom²⁷³ va hakim Sanoiy²⁷⁴ uning zamondoshlari bo'lib, sulton ularning muridi edi. Bu davrda dinsizlar va johillar islom dinini zaiflashtirgan edi. Sulton Sanjar dinsizlarni yo'qotib, islom dinini rivojlantirishga kirishdi. Muhammad dini itoat va tobelikda shunday darajaga erishdiki, shariatga xilof bo'lgan hyech bir ish qilmadi.

²⁶⁷ Muqtadir Billoh - abbosiylar xonadoniga mansub o'n to'qqizinchi xalifa (908- 932).

²⁶⁸ Qarmatlar - ismoiliylar mazhabi shahobchalaridan birining tarafdorlari, IX asrda Mesopotamiyaning janubida paydo bo'lgan.

²⁶⁹ Izzuddavla Daylamiy - buvayxiylar sulolasidan (932-1062) chiqqan va Iroqda hukmronlik qilgan podshoh (967- 978).

²⁷⁰ Xalifa Muti - abbosiy xalifalari jumlasidan (946-974).

²⁷¹ Toi Billoh - abbosiy xalifalaridan (974-991).

²⁷² Sulton Sanjar Ibn Malikshoh - 1038-1194 yillari Eron bilan Iroqni idora qilgan saljuqiylar sulolasidan bo'lgan podshoh (1118-1157).

²⁷³ Ahmad Jom (1049-1142) - xurosonlik mashhur hadis olimi va mutasavvif shoir.

²⁷⁴ Hakim Sanoiy - g'aznaviylar davrida o'tgan yirik shoir (1070-1140).

Oltinchi yuz yillikning boshida din yangilovchisi G'ozonxon ibn Arg'unxon ibn Halokuxon²⁷⁵ edi. Islom dini turkistonlik kofirlarning²⁷⁶ istilosi natijasida zaiflashgan edi. Ollohi taolo din rivoji uchun G'ozonxonni yuz ming askari bilan qo'zg'adi. [Tangri taoloning irodasi bilan unga topshirilgan] yuz ming askar Lor sahrosida shayx Ibrohim Hamaviy rahnamoligida Ollohga imon keltirib, musulmon bo'ldilar. Tillarini: «Ollohdan boshqa xudo yo'q, Muhammad Ollohning [yerdagi] elchisidir», degan imon kalimasiga ochdilar va kufr-bid'at ishlarini tashladilar. Mamlakatda va shaharlarda shariatga rivoj berdilar.

Yettinchi yuz yillikniig boshida kelgan O'ljoytu Sulton²⁷⁷ ibn Arg'unxon, laqabi Sulton Muhammad Xudobanda edi, mazkur sana²⁷⁸ da og'asi G'ozonxondan so'ng saltanat taxtiga o'tirdi. [Bir kuni] unint qulog'iga «dini Muhammadiy shu qadar bo'shashganki, namoz vaqtida musulmonlar tashahhud²⁷⁹ dan so'ng Muhammadga va uning avlodiga salavot aytmay qo'yibdilar», degan gap yetkazildi. U o'rnidan turib Sultoniya²⁸⁰ jome' masjidiga bordi va u yerga islom ulamosi hozir bo'lishini buyurdi. So'ngra sulton ulardan: «Namoz vaqtida Muhammadga va uning naslu avlodiga salavot aytishning nima fazilatlar bor?», deb so'radi. Ular bir ovozdan: «Xudoyi taolo hukmiga ko'ra, namozda Muhammad va uning avlodiga salavot aytish lozimdir», deb javob berdilar. O'sha payt bir guruh, ulamo: «Imom Shofi'iy²⁸¹, Muhammadga va uning avlodiga salavot aytmasdan o'qilgan namoz buzilgan hisoblanadi,

²⁷⁵ G'ozonxon Ibn Arg'unxon Ibn Halokuxon – 1256-1353-yillarda Eron, Ozarbayjon va Iroqni idora qilgan va tarixda Elxoniylar nomi bilan mashhur bo'lgan mo'g'ul sulolasi namoyondasi. U 1295- 1304 yillari saltanat qurgan; islom dinini qabul qilib, qator ijtimoiy-siyosiy islohotlar o'tkazgan.

²⁷⁶ «turkistonlik kofirlarning...» - bu yerda Movarounnahr, Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlarni istilo qilgan (XSH asr) Chingizxon qo'shinlari nazarda tutiladi.

²⁷⁷ O'ljoytu Sulton (1304-1317) - Elxoniylardan. Musulmon bo'lgani uchun Sulton Muhammad Xudobanda nomi bilan tanilgan.

²⁷⁸ 1304 yilda.

²⁷⁹ Tashahhud (guvohlik) - shahodatning boshi, ya'ni Ollohning yagonaligi va Muhammad payg'ambarning elchiligini bildiradigan kalima (Ashhadu anna Muhammadan abdu va rasulihu)ni aytish.

²⁸⁰ Sultonov - elxon O'ljoytuxon qurdirgan shahar poytaxti. Xarobalari Abxar va Zanjon oraliqida joylashgan. (Eron ozarbayjonida).

²⁸¹ Imom Shofi'iy - sunniylikda shofiyya mazhabining asoschisi va bosh imomi; faqih. Asl ismi Abu Abdulloh (767-820).

deb aytganlar», deb o'z fikrini bildirdi. Yana bir guruhi aytdilarkim: «Imomi A'zam²⁸² demishdirki, Muhammadga va uning avlodiga salavot aytilmay o'qilgan namoz makruhdir». Shunda sulton ulamodan so'radi: «Nega salavot aytganda payg'ambarimizning naslu avlodidan bo'lgan har bir kishining ismi [alohida] zikr etilmaydi-yu, [faqat] xotam ul-anbiyo bo'lmish payg'ambarimizga salavot aytgandagina «va uning avlodi...» deb qo'shadilar?». Butun ulamo bu savolga javob berishga o'zilik qilib, o'ylanib qolishdi. Shunda sulton aytdi: «Bu savolga javob berishda xotiramga ikki dalil keladi. Birinchisi shulki, dushmanlar payg'ambarimiz Muhammadni o'g'ilsiz deb atadilar. Tangri taolo naslsizlikni ularning o'ziga ravo ko'rdi. Dunyodan nasllari uzildi. Agar nasl qolgan bo'lsa ham nom-nishonsiz bo'lib, ularning nomini biror kishi tilga olmaydi. Ammo payg'ambarimiz oilasining zurriyotlari soni shu qadar o'sdika, ularning hisobini Ollohdan boshqa hyech kim bilmaydi. [Shuning uchun] payg'ambarimizga, unga Ollohning marhamatlari va salomlari bo'lsin, salavot aytgandan keyin ularga ham [Ollohdan] yaxshilik tilaydilar. Ikkinchisi shulki, o'tgan barcha payg'ambarlarning dinlari, qilgan ishlari yo yo'qolardi, yoki o'zgarardi. Ular dinining hukmlari doimiy emas edi. Ammo hazrati Muhammad, unga Ollohning marhamatlari va salomlari bo'lsin, dini o'zgarishdan omon bo'lib, qiyomatgacha shu yo'lda saqlanur. Shunday bo'lgach, onhazrat (payg'ambar)ning ummatlari salavot aytish vaqtida, uning muborak nomini zikr etgan paytda, uning avlodini ham eshlari lozimdir. Ummatlarga ma'lum bo'lsinkim, Muhammad dinining homiylari, Qur'oni Karimni sharhlovchilar, maqtovg'a loyiq shariat ilmining hofizlari, payg'ambarlik ilmining vorislari aynan shu kishilardir. Musulmon dinining ilmlari va islomning farzu vojiblarini ulardan o'rgansinlar, ularga ergashib, hurmat qilishni burchlaridan biri deb bilsinlar», dedi.

Sulton shu so'zlarni aytgani hamono, masjidga to'plangan ulamo va odamlar birdaniga guldiratib, payg'ambarga va uning avlodiga salavot o'qidilar. Shunda sulton aytdi: «Muhammad avlodidan

²⁸² Imomi A'zam (katta imom) - Sunnadagi to'rt mazhabdan biri hisoblangan xanafiya mazhabining asoschisi va bosh imomi. Asl ismi Abu Xanifa Nu'mon ibn Sobit (699-767).

birinchisi - hazrati Ali, so'nggisi - imom Muhammad Mahdiy²⁸³ oxir zamondir. Shunday bo'lgach, payg'ambarimiz avlodining izni va ruxsatisiz uning mulkini o'z tasarrufimizga kiritmasligimiz zarur, aks holda bosqinchilik qilgan bo'lamiz».

Sultonning bu so'zlari xosu ommaning qulog'iga eshtilgach, barcha ulamo uning aytganlarini qabul etdi. Gaplarni inobatga olinganidan so'ng sulton amr qildi: «Haqiqat shul erkan, ahli bayt²⁸⁴ nomiga xutba o'qib, ularning nomi zarblangan pullar chiqarish lozim». Bu gaplarni eshitgan, kurgan ulamo uning fikrini tasdiqlab, Ollohg'a imon keltirdilar va «O'ljoytu Sulton - dinu shariatga rivoj beruvchi», deb fatvo yozdilar.

Sakkizinchi yuz yillikda chiqqan din yangilovchisi Amir Sohibqirondirki, olamning turli mamlakatlari va shaharlarida dinu shariatni rivojlantirdi; sayyidlar va ulamoni izzatu ikrom qildi. Payg'ambar xonadoni zurriyotlarining izni va ruxsati bilan uning mulkini o'z tasarrufiga kiritdi.

Mir Said Sharif yozgan ushbu maktub menga yetgach, Tangri taologa shukr aytib, Muhammad va uning xonadoniga iltijo qilib, Tangri taologa yolvordim: «Menga dinu shariatni yangilash va unga rivoj berishda madad bergil!» So'ng bu maktubni olib, pirim [Abu Bakr Toybody]ning huzurlariga yubordim. [Ul zot] maktub hoshiyasiga mana bu so'zlarni yozib menga qaytardilar: «Dinu shariatga rivoj beruvchi [Amir] Temur sohibqironga, Ollo uni qo'llasin, malum bo'lsinkim, bu ish ul qutbi saltanatga Ollohi taolo tarafidan berilgan juda katta ehson va buyuk yordamdir. Din yangilash, shariatga rivoj berishdek ulkan ishda Tangri taolo senga yordam bag'ishlamish. [Vafodorliging va yaxshi ishlaringni] qancha ko'paytirsang, Olloh ham senga [inoyat va karamini] shuncha oshirgay».

Pirimga yuborgan ushbu maktub, uning xati bilan ziynatlanib menga qaytgach, sayyidlar va ulamoni izzatu ikrom etishni bajo keltirib, shariat rivoji uchun ilgarigidan ham ko'proq sa'yi-harakat

²⁸³ Muhammad Mahdiy - shialarning o'n ikkinchi imomi. 874-878 yillar orasida, 7-9 yoshlik paytida yo'qolgan. Zamon taqozosiga ko'ra, o'ldirilgan bo'lishi ehtimol. Shialar e'tiqodiga ko'ra, u bir kuni yana paydo bo'lib, islom dinini eski asliga (sofligiga) keltirar emish.

²⁸⁴ Ahli bayt - Muhammad payg'ambar xonadoniga mansub kishilar.

qildim. Bu maktubni [boshimdan kechmish] voqyealar daftari²⁸⁵ ga ko'chirib yozib qo'yishlarini buyurdim.

Dinu shariat ishlari tuzukini tartibga keltirganimdan keyin, saltanatim korxonasining tuzukini tuzishga kirishdim. Qonun va qoidalar (to'ra va tuzukka) tayanib, saltanatim martabayu e'tiborini saqladim. Saltanatim obro'-martabasini saqlash tuzuklari quyidagilardir.

Birinchidan, saltanatim tuzuklarini islom dini va kishilarning eng xayrlisi [hazrati Muhammad]ning shariatiga bog'lab, izzatu hurmatlash vojib bo'lgan onhazratning avlodi va sahobalariga muhabbat bildirish asosida tuzdim. Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hyech bir kimsaning qurbi yetmasdi.

Ikkinchidan, sipohu raiyatni umid vaqo'rquv orasidasaqladim. Do'st-dushmanni murosayu madora martabasida tutdim. Qilmishlarini, aytgan gaplarini gohida sabr-toqat, gohida bilib-bilmaslikka olish bilan o'tkazdim. Do'st-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelsa do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi.

Menga biron kimsaning haqi bo'lsa, haqini hyech vaqt unutmadi. Biron kimsa bilan tanishgan bo'lsam, uni hyech vaqt nazarimdan chetda qoldirmadim. Davlatim va saltanatim quyoshi ko'tarilib kelayotgan vaqtda menga iltijo qilib kelgan yaxshi-yomon odamlar, xoh yaxshilik, xoh yomonlik qilsinlar, saltanat taxtiga o'tirganimdan keyin ularni xayr-ehsonlarim bilan xijolatga qo'ydim. O'zimni ularning yomonliklarini unutgandek tutib, yomon qilmishlari daftari ustiga afv qalamini tortdim.

Uchinchidan, hyech kimdan o'ch olish payida bo'lmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim. Ish ko'rgan, sinalgan, shijoatli er-yigitlarni qoshimda tutdim. Sofdil kishilar, sayyidlar, olimlar va fozillarga dargohim doim ochiq edi. Nafsi yomon himmatsizlarni, ko'ngli buzuq qo'rloqlarni majlisimdan quvib yubordim.

²⁸⁵ Voqyealar daftari - podsholiqda har kuni bo'lib turadigan voqyealar yozib borilgan maxsus daftar; kundalik.

To'rtinchidan, ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolatga talpindim va jabr-zulmdan uzoqroqda bo'lishga intildim.

Shu paytda pirimdan xat keldi. Ular: «Buyuk zafarlar sohibi Temurga, Oллоh uni hamisha qo'llasin, ma'lum bo'lsinkim, [uning] saltanati korxonasi Tangri taolo korxonasining bir [kichik] nusxasidirki, unda turli mansabdagi xodim va xizmatkorlar noiblar, eshik og'alari bordir, ularning har biri martabasiga yarasha o'z yumushi bilan mashg'uldir, hyech biri o'z martabasidan chetga chiqmaydi va doimo Oллоhning amriga muntazir turadi. Shunday ekan, sen hamisha hushyor va ehtiyotkor bo'l, toki vazirlar, lashkarboshilar, amaldorlar, ish yurituvchilar, sipohsolorlardan hyech biri o'z martabasi chegarasidan chiqmasin va doimo sening hukmingni kutib turishsin. Har toifa va har qavmni o'z martabalarida tutginki, [bu bilan] saltanating nizomga kelib, davlat intizomga kirgay. Agar har narsani va har kimni o'z martabasida saqlay olmasang, saltanatinga bundan ko'p halal va ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qiymatini, tutgan mavqyeini va har narsaning o'lchovini belgilab olishing va shunga muvofiq ish yuritishing kerak.

[Hazrati] Muhammad avlodidan bo'lganlarning martabasini boshqalardan yuqori ko'tarib, ularning izzat-hurmatini o'rniga qo'ygil. Ularga qancha ko'p muhabbat bildirsang ham, uni isrof deb o'ylama, chunki qaysi ish xudo yo'lida bo'lsa, unda isrof yo'qdir. O'n ikki toifa bilan davlatingga ziynat berib, o'sha bilan saltanat qurgil. Vassalom», deb yozibdilar.

Pirimning ushbu maktubi menga yetgach, unda buyurilgan har bir narsani bajo keltirdim. Saltanatim ishlarini tartib-intizomga solib, saltanatim martabasiga to'ra va tuzuk bilan zebu ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim.

Saltanatim martabasi bo'lmish to'ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatin falaknning o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim.

BIRINCHI TOIFA — sayyidlar, ulamo, shayxlar va fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlislarimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni

o'rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va xaromga oid masalalarni men ulardan o'rgandim.

IKKINCHI TOIFA — aqlli kishilar va kengash sohiblari; ehtiyotkor, qat'iyatli arboblar; keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, kekxa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, ularning suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim.

UCHINCHI TOIFA — duogo'y kishilarni qadrladim. Xilvatda ulardan duolar tilab, istaklarimning bajo etilishini o'tinib so'rardim. Majlislarda, yig'inlar, bazmlar va jang maydonlarida ulardan ko'p barakotlar topdim. Chunonchi, mening lashkarim To'xtamishxon lashkarining ko'pligini ko'rib sarosimaga tushib qolganda, sohibi duo bo'lmish Mirziyoddin Sabzavoriy boshidan sallasini oldi; qo'llarini duoga ochib men uchun Tangridan zafar tiladi. Hali duosi tugamay, duo ta'siri ko'rindi va lashkarim yog'iyini qochirdi.

Yana bir misol shulki, saroyim haramidagilardan biri qattiq betob bo'lib, o'limi yaqinlashdi. Duogo'y sayyidlardan o'n ikki kishi yig'ilishib keldilar. Har biri o'z umridan bir yilni unga bag'ishladi va u sog'ayib yana o'n ikki yil umr ko'rdi.

TO'RTINCHI TOIFA — amirlar, sarhanglar²⁸⁶ si pohslorlarga majlisimdan o'rin berib, martabalarini yuqori ko'tardik. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar oldim.

Jang maydonida ko'p martaba qilich chopishgan shijoatli jasur kishilarni xush ko'rardim; jang maydonlariga ot choptirib kirib-chiqish usullarini, g'anim lashkari to'pini buzib, saflarini sindirishni, nayza sanchib, qilich chopishni ulardan so'rar edim. Sipohgarlik ishlarida ularga ishonib kengash so'rar edim.

BESHINCHI TOIFA — sipoh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qaradim. Sipohiylardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o'tog'a²⁸⁷, kanar va o'qdon taqdim etib, martabalarini ko'tardim. Har mulk va mamlakatning beklari, ulug'lari, boshliq-oqsoqollarini hurmatladim; ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandim. Sipohiylarimni hamisha

²⁸⁶ Sarhang - katta qo'shin boshlig'i, hozirgi polkovnik darajasidagi harbiy boshliq.

²⁸⁷ O'tog'a - bosh kiyimga taqiladigan, ukpar va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ziynatli belgi, mansab va martaba ramzi.

jangga tayyor holda tutdim; oylik haqlarini so'rattirmay vaqtida berardim. Chunonchi, Rum yurishida sipohiylarimga o'tgan va kelajakda qiladigan xizmatlari uchun yetti yillik ozuqalarini birvarakayigaberdim. Sipoh varaiyatni shunday tutdimki, birontasi ikkinchisiga zulm ko'rsatib, oyoqosti qilolmas edi. Boshqa sipohiylarni o'z martabalariga va darajalariga qarab shunday saqladimki, ular haddidan oshib ortiqcha qadam qo'yolmasdi. Ularning martabalarini na ko'p ko'tarib, hovliqtirmadim va na ko'p tushirib ko'ngillarini cho'ktirmadim. Qaysi biri biror xizmat ko'rsatar ekan, in'omlar berib, boshqalardan ayrica hurmatladim.

Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik darajasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim.

OLTINCHI TOIFA — ishonchli, to'g'ri etiqodli oqil-xiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, saltanat ishlari bo'yicha ulardan maslahat olishimga loyiq edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o'z maxfiy ishlarim va nihoniy sir-asrorimni o'shalarga topshirdim.

YETTINCHI TOIFA — vazirlar, devon kotiblari va munshiylariki, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim. Bularni menga tobe' mamlakatlarni ko'rsatuvchi ko'zgu deb bildim. Chunki ular har mulk-mamlakat, sipoh va raiyat voqyealarini menga bildirib turdilar. Bular davlat xazinasini, sipoh varaiyatga oid ishlarni tartibga solib yuritdilar. Saltanat mulkiga tushgan rahnalarni berkitishning loyiq chorayu tadbirlarini ko'rdilar. Saltanatni korxonasi xazinasining kirim va chiqimiga oid ishlarni to'g'ri olib bordilar. Hamisha mamlakat to'kinchiliga va obodliga uchun harakat qilishardi.

SAKKIZINCHI TOIFA — hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muxandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o'z atrofimga to'pladim. Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar edim. Munajjimlardan sayyoralarning qutlug' va qutsiz kunlari, ularning harakati va osmonda aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar qurib, bog'u bo'stonlarning tarhini chizdirdim.

TO‘QQIZINCHI TOIFA — muhanddislar, payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar hamda qissaxonlar bo‘lib, ularni ham o‘zimga yaqinlashtirdim. Payg‘ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o‘tgan podshohlar to‘g‘risidagi xabarlarni, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko‘ra zavol topganligini ulardan so‘rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so‘zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamda bo‘layotgan voqoyalarni ulardan eshitardim va jahon ahli ahvolidan xabar topar edim.

O‘NINCHI TOIFA — mashoyixlar, so‘fiylar, Xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo‘lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan Tangri taoloning so‘zlarini eshitib, karomatlar ko‘rdim, mo‘jizalarini mushohada etdim va suhbatlaridan rohatlanib, huzur qildim.

O‘N BIRINCHI TOIFA — kasbu hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo‘lganlarini davlatxonamga olib kelib, o‘z o‘rdamdan o‘rin belgiladimki, safarda vaturg‘unlikdasi pohimga kerakli yaroqlar va boshqa jihozlarni hozirladilar.

O‘N IKKINCHI TOIFA — har mamlakat va diyor sayohatchilariyu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin, Xitoygami, Xo‘tan, Chinu Mochin,²⁸⁸ Hindiston, Arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangiston²⁸⁹ - gami, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirsinlar. O‘sha mamlakatlarda istiqomat qiluvchi kishilarning hol-ahvoli, turish-turmushi haqida menga xabar olib kelsinlar. Har bir mamlakat hukmdorining o‘z raiyatiga qanday muomalayu munosabatda ekanligini aniqlasinlar.

²⁸⁸ Chinu Mochin - Chin - Xitoyning markaziy va sharqiy qismi; Mochin - Janubiy Xitoy. Mochining boshqa nomi Tabg‘ach.

²⁸⁹ Farangiston - bu yerda Fransiya.

MENING DARGOHIMGA ILTIJO QILIB, PANOH ISTAB KELGAN TURKU TOJIK, ARABU AJAM TOIFALARIDAN BO'LGANLAR HAQIDAGI TUZUK

Birinchî navbatda, mazkur toifa va tabaqalardan bo'lgan sayyidlar va ulamoni izzat-hurmat qilishni, har qanday istaklari bo'lsa darhol muhayyo etib, muqarrar ravishda ularning ahvolidan xabardor bo'lib turishni buyurdim. Agar sipohiylar toifasidan bo'lsalar, xizmat o'rinlariga belgilab, hol-ahvollariga yarasha, ehtiyojlari ta'minlansin. Agar kasbu hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsalar, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar. Yana shunday amr qildimki, sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar va yordam berilsin.

Har toifa va har sinfdan kimki o'z ixtiyori bilan sipohiylik xizmatiga kirishni istasa, uni harbiy [xizmat]ga olsinlar. Asil va shijoatli sipohiyzoda qaysi toifadan bo'lmasin, unga o'rin berib, xizmatiga va ishiga yarasha tarbiyat qilsinlar.

Yana amr etdimki, uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo'lsa ham, davlatim dasturxoni nematidan uni mahrum qilmasinlar.

Kimki huzurimga kiritilsa va ko'zim unga tushsa holiga yarasha hurmatlab, sovg'a-salomlar bilan kuzatishlar. Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham, uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh yo'liga kirsas, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar.

SALTANATNI O'Z ERKIMDA SAQLASH UCHUN AMAL QILGAN TUZUGIM

Ushbu o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olganligim uchun to'la mustaqillik bilan saltanat taxtiga o'tirdim. O'z tajribamdan sinab bildimki, agar qay bir podshoh shu o'n ikki narsaga ega bo'lmas ekan, saltanatdan bebahra qolur.

[Podshoh]:

Birinchidan, o'z so'ziga ega bo'lsin, ishini o'zi bilib qilsin, ya'ni raiyat podshosining aytgan so'zini, qilgan ishini o'zi aytadi, o'zi qiladi, hyech kim bunga aralasholmaydi, deb bilsin. Shunday bo'lgach, podshoh saltanat martabasiga sherik bo'lgudek qilib birovning gapiga va ishiga ergashmasin. Garchi yaxshi so'zni hammadan eshitish zarur bo'lsa ham, lekin so'zda, ishda boshqalar saltanat ishlarida podshohga sherik, yoxud ustun bo'lmasliklari shart.

Ikkinchidan, sulton har narsada adolatpesha bo'lsin, qoshida insofli, adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo'lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agarda vazir zolim bo'lsa, ko'p vaqt o'tmay saltanat uyi qulaydi. Chunonchi, amir Husaynning zolim bir vaziri bor edi. U sipohu raiyatganoha q jarimalar solar edi. Oradan ko'p vaqt o'tmay o'sha noinsof vazirning shumligidan amir Husaynning saltanat uyi xarob bo'ldi.

Uchinchidan, butun mamlakatda buyruq va ta'qiqlashlar podshohning o'z ixtiyorida bo'lishi lozim. Podshoh har ishda o'zi hukm chiqarsin, toki hyech kim uning hukmiga aralashib, o'zgartira olmasin.

To'rtinchidan, podshoh o'z qarorida qat'yiy bo'lsin, ya'ni har qanday ishni qilishga qasd qilar ekan, uni bekor etmasin va to bitirmaguncha undan qo'l tortmasin.

Beshinchidan, podshoh hukmi joriy etilishi zarur, yani, qanday hukm chiqarishidan qat'yiy nazar, amalga oshirilishi kerak. Biron kimsa garchi hukmni zararli deb bilgan bo'lsa ham, unga monelik qmlolmasin. Chunonchi, eshitganmanki, sulton Mahmud

G'aznaviy²⁹⁰ G'azna shahari²⁹¹ maydoniga katta toshni keltirib qo'yishni buyurgan ekan. Undan o'tkinchi-ketkinchilarning otulovlari hurkib o'ta olmay qolibdi. Shunda odamlar tosh yo'l bo'yidan olib tashlansa, deb sulton huzuriga qanchalik arz-shikoyat qilib borishmasin sulton «chiqargan hukmimdan qaytmayman, unga xilof biron ish ham qilmayman», degan ekan.

Oltinchidan, podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib, erkni unga berib qo'ymasinkim, dunyo bevafo xotin kabi, uning hushtori ko'pdir. Agar shunday qilar ekan, o'zganing nafi tez orada podshoh bo'lishni tilab, saltanat taxtina o'zi egallashga kirishadi. Chunonchi sulton Maxmudga xoinlik qilgan vazirlar uni saltanat taxtidan tushirib, taxtni o'zlari egalladilar. Shunday bo'lgach, saltanat ishlarini ishonchli va mo'tabar bir necha kishiga bo'lib berish lozim. Shunda har biri o'z ishiga bog'lanib, saltanat taxtiga ko'z olaytira olmaydi.

Yettinchidan, saltanat ishlarida har kimning so'zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. [Lekin] qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatsin.

Sakkizinchidan, saltanat ishlarida, sipohu raiyatga bog'liq masalalarda boshqalarning so'z va fe'liga qarab ish tutmasin. Vazirlar, amirlar biron kimsa haqida yaxshi-yomon so'z qilar ekanlar, eshitsin. Lekin amal qilishda butun haqiqat ayon bo'lmaguncha shoshmay, mulohaza bilan ish tutsin.

To'qqizinchidan, podshoh haybati sipohu raiyat ko'nglida shunday o'rtnashgan bo'lishi kerakki, uning amr-farmoniga hyech kim qarshilik qilishga juriyat etolmasin; itoat va tobe'lik qilsin; isyon ko'tarmasin.

O'ninchidan, [podshoh] nima qilsa, o'z erkicha qilsin, nima desa o'z so'zida qat'iy tursin, chunki podshohlarning hukm hurmatidan boshqa bahramandliklari yo'qdir. Xazina, lashkar, raiyat, saltanat - bularning barisi uning hukmi bilandir.

²⁹⁰ Mahmud G'aznaviy - Xuroson, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonni 977-1186 yillar idora qilgan G'aznaviylar sulolasining yirik namoyondasi (998-1030); mashhur fotih, ilm-fan va adabiyot homiysi.

²⁹¹ G'azna (G'azni) - Kobulning janubida, Qandahor orqali Lohur va Shimoliy Hindistonning boshqa shaharlariga olib boradigan yo'l ustida joylashgan poytaxt shahar.

O'n birinchidan, saltanat ishlarida, hukm yurgizishda podshoh o'zini yagona bilib, hyech kimni o'ziga saltanat sherigi qilmasin.

O'n ikkinchidan, [podshoh] majlis ahlidan ogoh va hushyor bo'lsinkim, ular ko'pincha ayb axtarib, gapni tashqariga tashiydilar, podshohning so'zidan, ishidan vazirlarga, amirlarga xabar berib turadilar. Masalan, shunga o'xshash bir voqyea mening o'zim bilan [ham] ro'y bergandi. O'zimning xos majlisimdagi bir qancha suhbatdoshlarim vazirlar va amirlarimning josuslari bo'lib chiqdi.

SIPOH SAQLAB TURISH TUZUGI

Amr qildimki, qachonki asl sipohiylardan ish ko'rgan, jangu jadal bilan suyaga qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirliga ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqiztasining roziligi va ma'qullashi bilan, uni o'zlariga boshchi saylab, otini o'nboshi deb atasinlar.

O'n nafar o'nboshi jam bo'lsa, o'z ichlaridan eng ish ko'rgan, jang maydonlarida toblanib, tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar.

Agar o'n yuzboshi yig'lsa, amirzodalardan aqlli, shijoatli, bahodir bir kishini amir etib saylab, uni mingboshn desinlar va mingboshi amir deb ulug'lasinlar.

Agar qaramog'idagi biron kimsa o'lsa yoki qochib ketsa, o'rniga yangi kishini tayinlash o'nboshilarning ixtiyorida bo'lsin. Shunga o'xshash yuzboshilar o'nboshilarni, mingboshilar yuzboshilarni tayin qilsin. Bulardan o'lgan, qochganlar, yangi tayinlanganlar bo'lsa, sabablarini aytib, mening arzimga yetkazsinlar.

Yana buyurdimki, urush kunlarida va saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshiniki o'nboshiga, o'nboshiniki qo'l ostidagilarga joriy etiladi. Agar bu tuzukka qarshilik qilsalar, jazoga tortilsinlar. Agar urush ishlarida kim kamchilikka yo'l qo'yar ekan, uni chetlatib, o'rniga boshqani qo'ysinlar.

SIPOHGA HAQ BERISH TUZUGI

Amr qildimki, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar va oddiy sipohiylarga shu tartibda oylik berilsin.

Oddiy sipohiyga, o'z vazifasini o'rinlatib bajarish sharti bilan, oyligi mangan otining bahosi bo'lsin. Bahodirlarning maoshi ikki ot bahosidan to'rt oygacha tayin qilinsin. O'nboshilar oyligi qo'l ostidagi oddiy sipohiylaridan o'n barobar ortiq bo'lsin. Yuzboshilar maoshi o'nboshilarga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo'lsin.

Yana hukm qildimki, sipohiylardan qaysi biri urush ishlarida xatolikka yo'l qo'ysa, oyligini o'ndan birga kamaytirsinar.

Yana buyurdimki, o'nboshi yuzboshini tasdig'i bilan, yuzboshi mingboshining tasdig'i bilan, mingboshi amirlar amiri tasdig'i bilan haq olsinlar.

Amr qildimki, amirlar amirning oyliga o'z qo'l ostidagilardan o'n barobar ortiq bo'lsin. Shunga o'xshash, devonbegi va vazirlarning maoshlari esa amirlarnikidan o'n barobar ko'p bo'lsin. Yasovul²⁹² lar, jasovullar, qalaqchi²⁹³ larning oyligi o'z xizmatlariga yarasha, mingdan o'n ming [ot bahosi miqdorida] bo'lsin.

Ahli majlis bo'lmish sayyidlar, olimlar, fozillar, hakimlar, tabiblar, munajjimlar, qissaxonlar, xabarchilar, tarixshunoslarga o'z hollariga qarab, suyurg'ol, vazifa va maosh belgilasinlar. Piyodalar, xizmatchilar, chodirchilarga yuzdan minggacha (ot bahosi barobarida) maosh bersinlar.

Yana hukm qildimki, amir amiri o'z haqini devonbegi va vazirlarning tasdig'i bilan olsin. Davlat tomonidan belgilangan butun maoshlarning to'liq ma'lumotlarini devonbega va vazirlar avval menga bildirib, so'ngra haqlar berilsin.

Yanabuyurdimki, sipohiylarning har birigamaosh olish yorlig'i topshirilsin. Ularga berilgan mablag' miqdori shu yorlig'ning orqasiga yozib qo'yilsin.

²⁹² Yasovul - xonlarning kichik xizmatchisi; yasa nazoratchisi.

²⁹³ Qalaqchi - hosilga qarab xiroj miqdorini belgilab beruvchi mansabdor.

SIPOHGA HAQ TAQSIMLASH TUZUGI

Amr qildimki, piyodalar, qalaqchilar, yasovullar, jasovullarning bir yillik oyliklarini hisoblab, belgilangan mablag'ni devonxonaga keltirib, shu yerda ularga ulashsinlar. Oddiy sipohiylar va bahodirlarning olti oylik maoshini ham hisoblab, xazinadan olib berishni buyurdim.

O'nboshi, yuzboshilarga maosh shahar omonligi²⁹⁴ xazinasidan va podsholik mulki daromadidan naqd pul hisobida qolsin. Mingboshilarga viloyat ichidagi tuproqlardan yer-suv bersinlar. Amirlar va amir ul-umarolarga esa chegara yerlardagi viloyatlardan biri mulk qilib belgilansin.

Viloyatlardan tushgan daromadlarni ushbu yo'sinda taqsimlashni buyurdim: viloyatlar va mamlakatlardan olingan jamiy daromadim taqsimlab, maosh berish yorliqlariga biriga kam, biriga ortiq qilib yozsinlar. So'ng yorliqlar devonxonaga keltirilsin. Amirlar va mingboshilar shu yorliqlardan birini chiqarib olsin. Agar yorliqda maoshidan ortiq [ko'rsatilgan] bo'lsa, boshqani o'ziga sherik qilsin. Bordiyu kam bo'lsa, uni qo'yib boshqa yorliq tortib olsin.

Yana buyurdimki, amirlar, mingboshilar raiyatdan molu jihat²⁹⁵ yiqqanlarida, xirojdan ortiqcha sovari²⁹⁶, qo'nalga²⁹⁷ va shilon²⁹⁸ talab qilinsinlar.

Mulk qilib berilgan har bir mamlakatga ikkitadan vazir tayinlasinlar. Biri viloyatdan yig'ilgan molni yozib, raiyat ahvolini tekshirib tursinki, jogirdor²⁹⁹ fuqaroga jabr-zulm yetkazib, ular-

²⁹⁴ Shahar omonligi xazinasini - fath etilgan shahar aholisidan to'plangan moli omon (o'lpon) saqlanadigan xazina.

²⁹⁵ Molu jihat qishloq xo'jalik mahsulotlaridan natura tarzida olinadigan soliq; daromadning beshdan bir yoki uchdan bir qismi xajmida olingan.

²⁹⁶ Sovariy (turk.) - tortiq, sovg'a.

²⁹⁷ Qo'nalga - elchilar, xon (shoh) choparlari, o'tkinchi amaldorlar va sipohiyga qo'noq berish; ularning navkarlari, soqchilari va xizmatchilarini, shuningdek, ot-ulovini boqish majburiyati.

²⁹⁸ Shilon (puli) - podshohlar ziyofati uchun xalqdan to'planadigan mablag'.

²⁹⁹ Jogirdor - jogir egasi. Toj-taxt oldida ko'rsatgan xizmatlari uchun beriladigan inyom; yer-suv, mol-mulk. «Jogir» «suyurg'ol»ning sinonimi bo'lib, Boburiylar (1526-1858) davrida Hindistonda amalda bo'lgan.

ning holini xarob etmasin. U viloyatdan yig'ilgan butun mol-ashyolarni kirim daftariga yozishi lozim. Ikkinchi vazir esa [daromadning] xarj etilgan qismini chiqim daftariga yozsin va [yig'ilgan mollardan] sipohiylarning maoshi uchun taqsim qilsin. Qaysi amirga mulk berilar ekan, uni uch yilgacha o'z holiga qo'ysinlar. Uch yil o'tgandan so'ng uni tekshirib ko'rsinlar. Agar mamlakat obod, raiyat rozi ekan, shu holicha qoldirsinlar. Agar ahvol bunga ters bo'lsa, u viloyatni xolisa³⁰⁰ ga o'tkazib, uch yilgacha o'sha jogirdorga haq berilmasin.

Yana buyurdimki, xirojni raiyatdan kaltaklash va savalash yo'li bilan emas, balki ogohlantirish, qo'rqitish va tushuntirish yo'li bilan undirsinlar. Qaysi hokim hukmining-ta'siri kaltaklash ta'siridan kamroq ekan, unday hokim hukumat yurgizishga yaroqsizdir.

O'G'ILLAR VA NABIRALARGA HAQ BERISH TARTIBI

Amr qildimki, to'ng'ich o'g'lim Muhammad Jahongir valiahdimdir; u viloyat hokimi bo'lib, o'n ikki ming otliq askarga haq olsin.

Ikkinchi o'g'lim - Umarshayx o'n ming otliq askarga haq olsin va unga bir viloyat berilsin.

Uchinchi o'g'lim - Mironshoh to'qqiz ming otliq askarga haq olib, bir viloyatni boshqarsin.

To'rtinchi o'g'lim - Shohrux yetti ming otliq askarga haq olib, bir viloyatga ega bo'lsin.

Nabiralar esa har qaysisi, qobiliyatiga yarasha, uch mingdan yetti ming otliqqacha haq olib, bir viloyatga egalik qilsin.

Va yana menga qavm-qarindoshligi bor kishilarga, o'z holiga qarab va qobiliyatiga yarasha, birinchi darajali amir martabasidan tortib to yettinchi darajali amir martabasigacha amirlik va hukmdorlik [mansablari] berilsin. Ularning har biri o'z martabasiga

³⁰⁰ Xolisa - davlat ixtiyorida bo'lgan va barcha soliqlardan ozod etilgan yer-suv va mol-mulkni tasarruf etuvchi oliy idora.

yarasha ish tutib, haddidan oshmasin. Bunga xilof ravishda ish tutganlar javobgarlikka tortilsin.

O'G'ILLAR, NABIRALAR, QAVM-QARINDOSHLAR, AMIRLAR VA VAZIRLARNI JAZOLASH YO'LI BILAN SALTANATDAN INTIZOM SAQLASH HAQIDA

Amr qildimki, agar o'g'illarimdan qaysi birov saltanat martabasi-ga da'vogarlik qilib bosh ko'tarar ekan, uni o'ldirishga, bog'lashga yoki muchasidan biroq joyini kamaytirishga hyech kim jur'at qilmasin. Lekin o'z da'vosidan kechmaguncha asirlikda saqlasinlar, toki Xudoning mulkida urush chiqmasin. Agarda nabiralar va qavm-qarindoshlardan biri menga qarshi ko'tarilsa, uni darvishlik holatiga solsinlar³⁰¹.

Saltanatim qo'rg'onlari bo'lmish amirlar agar ish ustida nifoqqa borsalar, ularni martabasidan tushirsinlar. Agar davlatga ziyon yetkizgudek ish qilsalar, ular boshqa amirlarga tobe etilsinlar. Agar si pohiylik ishlaridayalqovlik qilgan bo'lsalar, ulargayozish-chizish bilan shug'ullanuvchilar orasidan ish berilsin. Agar shundan keyin ham xatoga yo'l qo'yib, kaltabinlik qilsalar, ikkinchi bor xizmatga olmasinlar.

Saltanat saroyining ishonchli va e'tiborli kishilari bo'lmish vazirlar xususida shunday buyruq berdim: agar saltanat ishlarida ular xiyonat etsalar saltanatni ag'darishga jazm qilgan bo'lsalar ham, ularni o'ldirishga shoshilmasinlar. Avvalambor ularni ayblovchi va xabar yetkazguchilarning kimligini tekshirib ko'rsinlar. Qoralovchilar davolarining rost-yolg'onligi va ularning to'g'ri so'zligini mahak toshi³⁰²ga urib sinab ko'rsinlar. Chunki ko'p hollarda hasadchilar va g'iybatchilar niyatlarini amalga oshirish uchun yolg'on to'qib, uni chinday qilib ko'rsatadilar. Talaygina pastkash, razil odamlar borki, davlat dushmanlarini yaxshilab, davlat jonfidoyilarini hiylagarlik va makkorlik bilan xarob qiladilar.

³⁰¹ Ya'ni, mol-mulki tortib olinsin.

³⁰² Mahak toshi - kumush va oltinning tozaligini aniqlab beradigan qora tusli bir tosh.

Makru sotqinlik bilan saltanat qo'rg'oniga putur yetkizmoq payida bo'ladilar.

Chunonchi, amir Husayn vazirlarimdan biri bilan til biriktirib, unga boylik va'da qilgan holda, davlatimning tayanchlaridan bo'lmish amir Iki Temur va amir Jokuni menga qarshi qayrashni buyurgan. Uning shum niyatidan ogoh bo'ldim va menga ular haqida aytilgan gaplarga quloq solmadim.

Yana bir voqyea yuz bergan edi. Yaqinlarimdan ba'zilari yolg'iz qolganimizda va odamlar oldida ulug' va etiborli amirlarimdan sanalgan amir Abbosga hasad va dushmanlik qilib, uning haqida bo'lmag'ur gaplarni aytdilar. Yolg'on so'zlari shamoli bilan g'azabim o'tini alangalatdilar. Natijada gaplarini tekshirib ko'rmasdan g'azab ustida amir Abbosni o'linga mahkum etdim. Oxir-oqibatda esa ularning amir Abbos haqiga xiyonat etganliklarini angladim va qilgan ishimdan o'kinib, pushaymon bo'ldim.

Mamlakat xazinachilari bo'lmish moliya vazirlari, moliya ishlarida xiyonat qilsalar va [boylikning bir qismini] o'zlashtirib olgan bo'lsalar, [tekshirib ko'rilsin]. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i o'ziga tegishli haq miqdoridan oshmasa, mazkur mablag' unga in'om o'rnida qoldirilsin. Agar o'zlashtirib olgan mablag'i maoshidan ikki barobar ortiq bo'lsa, ortig'i oladigan oyligi hisobidan ushlab qolinsin. Agar maoshidan uch barobar ko'p mablag' olgan bo'lsa, hammasi [saltanat xazinasiga] tortiq sifatida olinsin.

Yana hukm qildimki, [vazirlarni] ortiqcha siylamasinlar, chunki alohida izzat-ikrom ko'rsatib, o'zlarini obro'sizlantirib qo'yishlari mumkin. Bu esa saltanatga ziyon yetishiga sabab bo'lur.

G'arazgo'y, buzuqi va hasadgo'y odamlarning vazirlar haqidagi uydirmalarini eshitmasinlar, chunki bu tabaqadagi kishilarning dushmanlari ko'p bo'ladi, negaki, olam ahlining barchasi dunyo-talabdir. Agar vazirlar bunday odamlarning ko'ngliga qarasalar davlatga xiyonat qilgan bo'lurlar; qaramasalar, vazirlarga dushmanlik qilurlar.

Chig'atoyxon³⁰³ ning bir vaziri bo'lgan ekan. G'arazgo'ylar uni

³⁰³ Chig'atoyxon - Chingizxonning ikkinchi o'g'li, 1227-1241y. da o'z ulusida - Chig'atoy ulusida xon bo'lgan. Ushbu ulusga hozirgi Sharqiy Turkiston, Koshg'ar, Ila va Yettisuv vohasidagi yerlar, shuningdek, Movarounnahr qaragan.

«xazinadan bir necha ming oltin o'g'irladi», deb [xonga maktub] yozgan edilar. Maktubni xonga ko'rsatganlarida, u o'sha vazirni huzuriga chaqirtirib, unga g'azab qilib debdi: «Sen nazari past odam ekansan. Mendek podshohning vaziri bo'laturib, mamlakatimdan shunchalik oz narsa o'zlashtirib olibsan!» Dono vazir [xonning] bu qadar katta ehsonidan mamnun bo'libdi va bor davlatining barchasini keltirib xonga peshkash qilibdi. [Bu bilan] xon oldida o'z martabasini va obro'-e'tiborini saqlab qolibdi.

Yana hukm qildimki, qaysi bir sipohiy haddidan oshib, qo'l ostidagi kishiga zulm o'tkazar ekan, uni tutib mazlum qo'lga topshirsinlar, toki uning jazosini zulm ko'rganlar bersin.

Qishloq oqsoqoli va shahar ulug'lari kichikroq darajadaga odamga zulm qilsalar, o'sha zulmga yarasha, har kimning ko'tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug'alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm etib, ularni xarob qilgan bo'lsalar, ishlariga loyiq jazo berilsin. Botir kimsaning gunohi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, so'ng yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar.

O'g'rilar xususida buyurdimki, ular qayerda bo'lmasin, tutib olinsa, yasa³⁰⁴ bo'yicha jazolansin. Kimki birovning molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar.

Agar kimda-kim tish sindirsa, ko'zini ko'r qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino ishlar qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ajrim chiqaruvchi qoziga olib borib topshirsinlar. Shariatga oid ishlarni hal etishda islom qozisi hukm chiqarsin. Urf-odat ishlarini esa ajrim qozisi taftish qilib, so'ng mening arzimga yetkazsin.

VAZIR TUTISH TUZUGI

Amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilardan bo'lishlari lozim: birinchisi - asillik, toza nasllilik; ikkinchisi - aql-farosatlilik; uchinchisi - sipohu raiyat ahvolidan xabardorlik,

³⁰⁴ Yasa - turk-mo'g'ul xalqlari orasida amalda bo'lgan qonun-qoidalar; Chingizxon davrida joriy etilgan qonunlar.

ularga nisbatan xushmuomalalik; to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik.

Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar, uni vazir yoki maslahatchi deb tayinlasinlar, mamlakat ishlarini, sipoh va raiyat ixtiyorini unga topshirsinlar. Bunday vazirga to'rt imtiyoz: ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilsin.

Kamolatga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va ta'qiqlovchi buyruqlarida uning asilligi va toza asilligi ko'rinib tursin. Dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aysalar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u [oxiri] yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonlik qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, [oxiri] oldiga bosh egib keladi.

Qaysi vazir g'iybat gaplarni aytsa, uydirma gaplarga quloq solsa, jabr-zulm qilsa, o'ziga yoqmagan kishilarni yo'qotish payiga tushsa, uni vazirlikdan tushirish lozim. Nasliyu zoti past, hasadchi, kina-kek saqlovchi, qora ko'ngilli kishilarga zinhor vazirlik lavozimi berilmasin. Buzuqi, qora ko'ngilli, zoti past odam vazirlik qilsa, davlatu saltanat tez orada qo'laydi. Masalan, Malikshoh Saljuqiy³⁰⁵ o'z vaziri Nizomulmulk³⁰⁶ni martabasidan tushirdi. Vazir boshdan-oyoq yaxshi sifatlarga o'ralgan edi. Uning o'rniga zoti past, yomon bir kishini vazir qilib tayniladi. Bu shumqadam vazirning qabih, ishlari, zulm-sitami va nafs buzuvchiligi kasofatidan saltanat binosi buzila boshladi. Shunga o'xshash yana bir misol.

³⁰⁵ Malikshoh Saljuqiy - saljuqiylar sulolasi (1038-1194)dan chiqqan va ko'pincha Jaloliddin Malikshoh I nomi bilan mashhur podshoh. (1072-1092). Saljuqiylar Eron va Iroq ustidan hukmronlik qilganlar.

³⁰⁶ Nizomulmulk (asl ismi: Abu Ali al-Hasan ibn Ali ibn Ishoq at-Tusiy / 1018-1092/ - Saljuqiy sultonlardan Alp Arslon (1063-1072) va Malikshoh I (1072-1092)larning bosh vaziri. Nizomulmulk «Siyosatnoma» nomli katta tarixiy asari bilan ham mashhur.

Abbosiylardan xalifa Musta'sim Billoh³⁰⁷ hasadchi, gina-quduratchi ibn Al'amiyni o'ziga vazir etib tayinladi. U ko'nglida xalifaga nisbatan kina-qudurat, dushmanligi bor bo'lganliga uchun, xalifani munofiqona gaplar bilan aldab, o'zi esa Halokuxon³⁰⁸ bilan til biriktirib, uni xalifalik tepasiga olib keldi. Xalifa Musta'simni esa qo'lga olib, o'limga mahkum etdi. Shuni etiborga olib, asli toza, nasli pok, ulug' zotlardan bo'lgan, yaxshi ravishlik kishilaridan topib, vazir qilinganlar. Chunki asli toza kishi xatolikka yo'l qo'ymaydi, badasl esa [xojasiga] vafo qilmaydi.

Qaysi vazir soflik, to'g'rilik bilan vazirlik ishiga kirishib, davlatning moliya va mulkiya ishlarini diyonat, savob bilan, nafs buzuvchilik qilmay, omonatga xiyonat etmay bajarar ekan, unday vazirni eng oliy martabalarga yetkizsinlar. Qaysi vazir buzuvchilik qilib, yomonlik yo'li bilan mamlakat ishlarini yurgizar ekan, ko'p o'tmay unday saltanatdan xayru barakat ko'tariladi.

Dono vazir shuldirki, o'z o'rniga qarab, goh qattiqqo'llik, gohida esa muloyimlik bilan ish yuritadi. Bundan vazir ortiqcha qattiqqo'llik ham qilmaydi, ko'p muloyimlik bilan yumshab ham ketmaydi. Agar ko'p muloyimlik qilsa, dunyotalab, tamagir odamlar uni yutib yuboradilar. Agar ortiqcha qattiqqo'llik ishlatsa, undan qochadilar va unga boshqa murojaat qilmaydilar. Demak, dono vazir shuldirki, saltanat korxonasining ishlarini eng to'g'ri chorayu tadbirlar qo'llab, yaxshi anglagan holda amalga oshirib, davlatni tartib-intizomga keltiradi. Saltanat ishlarini sabr-toqat, chidam bilan ado etadi. Saltanat muammolarini o'z o'rnida qattiqqo'llik, o'z o'rnida muloyimlik bilan hal qiladi. Bu xildaga vazirni davlat sheriga deb bilsinlar, chunki davlatu saltanat uch narsa: mulk, xazina va lashkar bilan tikdir. Dono vazir bularning har uchalasini tadbirkorlik bilan yaxshi ahvolda, saranjon tutadi. Jami yaxshi xulqlar sohibi bo'lgan vazir aziat yetganda ham hyech kimga ko'nglida kina-adovat saqlamaydi. Agar ginayu kek saqlab, dushmanlik qilarkan, bunday vazir muvofiqdir. Unday vazirdan

³⁰⁷ Musta'sim Billoh - abbosiylar sulolasiga mansub Bag'dod xalifalarining so'nggi vakili (1242-1258).

³⁰⁸ Halokuxon - Eron, Ozarbayjon va Iroqni 1256-1353 yillar ichida idora qilgan elxoniylar sulolasining birinchi hukmdori Haloku; (1256-1265). Bag'dod xalifaligini tugatgan hukmdor.

ehtiyot bo'lish zarur, chunki davlat dushmanlari bilan til biriktirib, xazinani va lashkarni xarob qiladi. Aqlli vazir ulki, bir qo'li bilan raiyatni, ikkinchi qo'li bilan esa sipohni tutadi. Olgulik joydan olib, bergulik joyga beradi. Sergaklik va ehtiyotkorlikni qo'ldan bermaydi. To'g'rilik va rostlik bilan muomalada bo'lib, har ishning oqibatini o'ylab ish tutadi. Davlat foydasini ko'zlagani uchun birovga dushmanlik qilishni ko'ngliga keltirmaydi. Tajribali, ishbilarmon va bilimdon vazir shunday bo'ladiki, mamlakat obodonligini, raiyat va sipohning tinch-farovonligini, xazina boyligini doim ko'zda tutadi. Davlat, saltanatga foyda keltiradigan ishlarini bajarishga tirishib, harakat qiladi. Saltanatga zarar yetkazadigan xatarli ishlarni bartaraf qilishda molu jonini ayamaydi. Sipohu raiyatgategishli muhim ishlarni yaxshilikyo'li bilan, to'g'ri tadbir ishlatib, amalga oshiradi. Yaxshi xulqli vazir shulki, uning ezgu ishlari yomon feli atvoridan ustunlik qiladi.

Eshitishimcha, Nizomulmulkning ozgina yomon qilmishlarini ko'plab xayrli ishlari mag'lub etgan edi. U hajga bormoqchi bo'lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi: «Malikshoh davlatning xizmatida bo'lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlaring va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardar».

Yana eshitganmanki, Ali ibn Laqatiy xalifa Xorun ar-Rashidning³⁰⁹ vaziri edi. Undan Tangri taoloning bandalariga ko'p naf'u foyda yetardi. Kunlardan bir kuni o'z ixtiyori bilan vazirlikni tark etmoqchi bo'libdi. O'shanda din peshvolaridan biri unga shunday deb yozibdi: «Sen xalifa dargohida mulozimlik qilib, vazirlik ishini bajarib turaver. Bu ishni tashlashni o'ylamagan ham, chunki (bu martabada turib) xalqqa yetkazayotgan yordaming va nafing, sen qilgan butun ishlar va harakatlaringning eng oliysidir».

Yana shuni ham eshitdimki, Hazrati Payg'ambarimizdan, o'sha Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, so'rabdilar: «Agar siz nabi va rasul etib yuborilmaganingizda qaysi ish bilan mashg'ul bo'lardingiz?» Ular shunday deb javob bergan ekanlar: «Sultonlar

³⁰⁹ Xorun ar-Rashid - abbosiylar sulolasidan chiqqan mashhur xalifa (786-809); adolatparvar hukmdor va ilm-fan, madaniyat homiysi.

xizmatida bo‘lishni ixtiyor etib, Tangri taoloning bandalariga foyda va yaxshilik yetkizardim».

Shu sababdan, xalqqa yordamu madad berish maqsadida, men ham Tug‘luq Temurxonning o‘g‘li Ilyosxo‘jaga vazirlik hamda sipohsolorlik qilishgarozi bo‘lgan edim. Tangri taoloning bandalariga yordam qilganimdan bo‘lsa kerakki, Alloh taolo meni saltanat [tutish] martabasiga yetkazdi.

Tadbirkorlik va qilich vositasi bilan biror mulkni zabt etgan, yoki [hukumati ostida] saqlab qololgan vazirni e‘zozlab, izzat-ikrom etsinlar. Uning martabasini oshirib, uni «qilich va qalam sohibi» deb atasinlar.

Aqlli, bilimdon va hushyor vazir shunday bo‘ladiki, bir tadbir qo‘llab g‘anim qo‘shinini parokanda qilib yubora oladi. Murosayu madora, xushmuomalalik bilan sipohni birlashtirib, dushman lashkarini o‘ziga rom qiladi. Bunday vazir valine‘matning soqchisi bo‘lib, podshosining boshiga tushgan muhim va mushkul ishlarni tadbirkorlik va uzoqni ko‘ra bilishi bilan osonlashtiradi. Agar saltanat ishlarida chigil-jumboq uchrasa, aqlu farosati barmog‘i bilan uni yechib yuboradi. Chunonchi, Alibek Janiqurboniy meni band etgach, burga to‘la uyga qamab qo‘ydi. Vazirlarimdan Azizuddin Termizdan yurish qilib, menga yordam berish uchun yetib keldi, [tadbir ishlatib] Alibekni uxlatib qo‘ydi. Bu ishi bilan uning ko‘zini mendan berkitib, quvvat bag‘ishladi. Shijoat va mardligim tutib, qo‘limdagi qilich zarbi bilan ko‘p soqchilar orasidan qutulib, najot topdim. Shunga o‘xshash Nnzomulmulk ham Sulton Malikshohni qaysar bandidan xalos etgan edi.

Shunday bo‘lgach, bunaqa vazirni davlat sherigi deb bilib, aziz tutsinlar, zinhor uning so‘zidan chiqmasinlar. U nima degan bo‘lsa bari aql ko‘zgusidir.

Agar podshoh zolim bo‘lib, vaziri odil bo‘lsa, podshohning jabr-zulmini [to‘xtatish] chora-tadbirini ko‘radi. Lekin vazir zolim bo‘lsa, saltanat ishlari tez muddatda inqirozga uchraydi.

AMIRLIK VA HUKMDORLIK TUZUGI

Eng yaqin navkarlarimdan uch yuz o'n uch kishiga amirlik mansabi berishni buyurdim, chunki ular asli toza, aql-farosatli, bahodir, dovyurak, tadbirkor, sergak, ehtiyotkor, oldi va ketini o'ylab ish tutadigan kishilar edi. Ularning har biriga o'rinbosar tayinladim. Agar amirlardan birontasi vafot etsa, u holda, o'rinbosari uning o'rniga o'tiradi va uni «amirlikka nomzod» deb ataydilar. Mening bu uch yuz o'n uch amirlarimning barisi aql-hush egalari, bazmu jang sherlari, mahoratli sarkarda, lashkar to'pini buzib, uni mag'lub etuvchi kishilar edilar.

Tajribamdan sinab bildimki, jangning sir-asrorini, g'anim askarlarini sindirish yo'lini bilgan, urush qiziganda o'zini yo'qotmasdan, qo'l-oyog'i bo'shashmasdan, askar qismlarini jangga boshlay oladigan, agar qo'shni safiga rahna tushsa, uni tezda tuzata oladigan kishigina amirlik va hukmronlikka loyiq hisoblanadi.

Shunday kishi amir ul-umaro bo'laoladiki, men yo'g'imda, tinchligu savashda o'rinbosarni bo'lib, shon-shavkat va mahobat bilan butun sipohgabayruq berib, unga qarshilik qilganlarni jazalay oladigan bo'lsin.

Uch yuz o'n uch kishidan to'rt nafarini beglarbegi etib, bir kishini amir ul-umaro qilib tayinlashni buyurdimki, uning hukmi yurishlarda, urushlarda amirlar vabutun sipoh tomonidan so'zsiz ijro etilsin. U o'zim borimda yo'ldoshim, yo'g'imda esa o'rinbosarimdir.

G'ayratli, or-nomusli bo'lgan yana o'n ikki kishiga ushbu tartibda amirlik darajasini berdim.

Birinchi amirga ming kishiga buyruq berish haqini berib, uni amir qilib tayinladim. Ikkinchi amirga ikki ming kishiga buyruq berish haqini berib, mazkur ikki ming askarga amir etib qo'ydim. Shunga o'xshash uchinchi amirni - uch ming, to'rtinchisini - to'rt ming, beshinchisini - besh ming va shu tartibda o'n ikkinchi amirgacha ko'paytirib borib, olti mingdan o'n ikki minggacha

askarga amir etib belgiladim. Amirlik tartibiga qarab, birini ikkinchisiga noib qildim. Masalan, birinchi amirni ikkinchi amirning noibi, ikkinchi amirni uchinchi amirning noibi, shu tartibda o'n birinchi amirni o'n ikkinchi amirning noibi qilib belgiladim. O'n ikkinchi amir esa amir ul-umarining noibi bo'ldi. Amir ul-umaro esa mening noibin hisoblanadi. Qaysi bir amirga biror kor-hol bo'lsa, o'rniga noibi o'tirsin.

Yana buyurdimki, o'sha uch yuz o'n uch kishidan yuztasi - o'nboshi, yuztasi - yuzboshi, yuztasi - mingboshi bo'ldi. Jang paytida amir ul-umaro - amirlarga, amirlar - mingboshilarga, mingboshilar - yuzboshilarga, yuzboshilar - o'nboshilarga boshliq deb buyruq berdim. Shuningdek, o'nboshining ishini - yuzboshiga, yuzboshining ishini - mingboshiga, mingboshining ishini - amirga, amirning ishini - amir ul-umaroga buyurmasinlar. O'nboshi bilan bitadigan ishini yuzboshiga, yuzboshi bitirsa bo'ladigan ishini mingboshiga yuklmasinlar. Amirlardan qaysi biri o'zi qiziqib ish so'rar ekan, unga buyursa bo'lur.

SIPOHIYLARNI ENG QUYI DARAJADAN OLIIY MARTABAGACHA KO'TARISH TUZUGI

Qilich chopishda o'zini ko'rsatgan bahodirlarni, birinchi martaba bo'lsa - o'nboshi, ikkinchi martaba botirlik qilsa - yuzboshi, uchinchi martabasida esa mingboshi qilib tayinlasinlar. O'nboshi qo'li ostidagilardan biri botirlik ko'rsatsa, birinchi galda uni o'nboshi qilsinlar.

Qilich chopishda o'zini himoya qila turib ko'zga tashlangan askarlar bundan istisnodir, chunki ho'kiz ham suzishganda shoxini niqtaydi. Shunday ekan, sipohiyning aslu nasabiga ham qarash lozim.

Agar mingboshi qilich zarbi bilan g'animning bir qism lashkarini sindirsa, uni birinchi amir etib tayinlasinlar. Birinchi amir yov lashkari safini buzib, ularni tarqatib, bahodirlik ko'r-satsa, uni ikkinchi amirlik darajasiga ko'tarsinlar. Shunga o'xshash,

qaysi amir yov lashkari to'pini to'zdirib, ish ko'rsatar ekan, uni o'z martabasidan yuqori ko'tarsinlar. Sipohiylardan kimki astoydil qilich chopsa, oyligini oshirsinlar. Qaysi bir sipohiy urushdan yuz o'girib qochsa, uni iltifotimizdan mahrum etsinlar. Agar majburan chekingan bo'lsa, uzrini qabul qilsinlar. Agarda uni vahima bosgan bo'lsa, izza qilsinlar. Qaysi sipohiy dushman qarshisida qilich chopib, yaralansa, uni taqdirlab, in'om bersinlar. Bordiyu yaralangandan keyin qochish bo'lsa, unga tahsin o'qib, yaralanganligini etiborga olsinlar. Chunki u g'animga hujum qilmagan taqdirda ham, yov hamlasi vaqtida jarohatlangandir, yarasi uning ne holga tushganligining guvohidir.

Qaysi bir sipohiy o'zini ko'rsatgan bo'lsa, rag'batlantirib haqini ado etsinlar. Qaysi bir sipohiy xizmatda yurib qarilik yoshiga yetarkan, uni oylik-haqdan mahrum etmaslik va martabasidan tushirmaslikkerak. Hyech bir sipohiyning xizmati nazardan chetda qolmasin. Chunki ular davlat xizmatida ekan, boqiy hayotlarini foniy dunyo naqdi uchun ayamaganliklarning o'zi ham inyomga va moddiy ta'minotga loyiqqligini bildiradi. Uni in'omidan mahrum qilib, xizmatlarini ko'rsatmasalar, noinsoflik qilgan bo'lurlar.

Yana amr qildimki, qaysi bir amir yoki sipohiyning mening davlatim uchun xizmati singgani aniq bo'lsa - g'anim lashkarini sindirgan, biror mamlakatni zabt etgan, yoki [jon-jahd bilan] qilich chopishgan bo'lsa, xizmatini taqdirlab, haqini ado qilsinlar. Yoshi ulug', keksa sipohiylarni hurmatlab, aziz tutsinlar. Ulardan foydali maslahatlar olsinlar, chunki ular aytadigan gaplar o'z tajribalarida ko'rib, bilganlaridir. Ularni saltanat korxonasining ustunlari deb bilsinlar. Ulardan keyin o'g'illarini o'rinlariga o'tqazsinlar.

Yana amr qildimki, g'anim tarafidan qo'limizga har qanday sipohiy asir tushib qolsa, uni o'ldirmasinlar. O'shaixtiyor berilsin. Agar navkarlikni qabul qilsa, navkar bo'lsin; yo'q desa uni ozod etsinlar. Bunga misol, men qaysar bilan urushda³¹⁰ qo'lga tushgan to'rt ming rumlik askarni ozod qildim.

G'anim sipohiylaridai qaysi biri o'z davlatining tuzini oqlab,

³¹⁰ Amir Temurning Rum sultoni Boyazid I Yildirim bilan 1402 y.ning 20 iyulida Anqara ostonasida bo'lgan urushi.

bizga qarshi qilich chopgan, so'ngra ixtiyoriy ravishda, yoki majbur bo'lib, panohimizga kelsa, bunday askarga ishonib, uni aziz tutsinlar. Chunki u o'z sohibiga vafodorlik qilib, yegan tuz haqini oqlagan. Shunga o'xshash, men ham Sher Bahromga nisbatan shunday qildim. Amir Husayn bilan bo'lgan urushda u men bilan yuzma-yuz to'qnashib, qilich chopishdi; keyinroq esa, o'zi ilojiylikdan mening panohimga kelganda, uni hurmatladim.

Mengli Bug'o ham Balx urushida menga qarshi lashkar tortdi. Jang boshlanishidan avval o'zim tomonga og'dirish unga xat yubordim. U esa Tug'luq Temurxonning haqiga ko'rnamaklik qilmadi va menga qarshi lashkar tortib, erlarcha jang qildi. Oxir-oqibat yengildi. Keyinchalik o'z ixtiyori bilan huzurimga tiz cho'kib, panoh izlab kelganda, uning martabasini ulug'ladim, iltifotu marhamatlar ko'rsatdim. Unga qilgan inoyatlarim haqi o'rtamizdan o'tgan noxushliklarni butunlay unutdi. Yig'inlarda uning qilgan bahodirliklaridan so'zlab, ofarin aytar edim. O'zi aslida er yigit bo'lgani uchun mening davlatimda ham ko'p bahodirlik ko'rsatib, meni mamnun etdi. Ozarbayjon urushida Qora Yusuf bilan to'qnashganimda, lashkarim og'ir ahvolga tushib qoldi. Shunda u maydonda o'lgan Qora Yusufning lashkar boshliqlaridan birining boshini nayza uchiga sanchib, baland ko'tardi va lashkarimga uni Qora Yusufning boshi deb, uni o'ldiga chiqardi. Bundan lashkarim dadillanib, jangga tashlandi va Qora Yusuf lashkarni o'rtasiga hujum qilib, Qora Yusufni qochirdi. Bu urushda Qora Yusuf ustidan qozonilgan g'alabani Mengli Bug'o nomiga yozdirdim va uning martabasini oshirdim.

AMIRLAR, VAZIRLAR, SIPOHIYLAR HAMDA RAIYATNI TAQDIRLAB, IN'OM - SOVG'ALAR VA MARTABALAR BERISH TUZUGI

Amr qildimki, qaysi bir amir biron mamlakatni fath etsa, yo g'anim lashkarini yengsa, uni uch narsa bilan taqdirlasinlar: faxrli xitob, tug' va nog'ora berib, uni «bahodir» deb atasinlar; uni davlat va saltanat sherigi [deb] bilib, kengash majlisiga kirgizsinlar;

unga chegara viloyati topshirilsin va o'sha yerlik amirlar unga buysunsinlar. Agar amirlardan qaysi birovi to'rani (xon o'g'lini) yengsa yoki biron amirzodaga shikast yetkizsa, yo biror o'lka xonini mag'lub etsa, uni yuqoridagi tartibda mukofotlasinlar. Chunonchi, Dashti Qipchoqqa, O'rusxonga qarshi urush uchun yuborgan amirni Iki Temur uni yengib qaytgach, amirni mukofotlab, unga tuman (lashkar), tug', alam (bayroq) va nog'ora berdim. Uni davlatimga sherik bilib, o'zimga maslahatchi va vazir qildim. Kengashlarimga kiritdim va chegaradaga viloyatlardan birini unga taqdim etib, u yerlik amirlarni unga bo'ysundirdim.

Shunda hasadchilar uning haqida [turli uydirma] gaplar tarqatib, «O'rusxonning ulusini talon-toroj qilib, mol-mulkni o'ziniki qilib oldi» dedilar. Bu gaplari bilan undan ko'nglimizni bir oz sovutdilar. Biroq men Baxrom Chubin³¹¹ qissasini eshitib tajribam ortgandi. Voqeya bunday bo'lgan ekan. Xoqon³¹² uch yuz ming botir turk askari bilan Xo'rmuz ibn Nushirvon³¹³ ustiga lashkar tortdi. Ho'rmuz esa Nushirvonning vaziri, maslahatchisi vasi pohsolori bo'lmish Bahrom Chubinni 320 ming eronlik askar bilan xoqonga qarshi urushga yo'lladi. U xoqon lashkari bilan to'qnashib, uch kechayu uch kunduz jangu jadal qildi. Oxiri xoqonni yengib, bor haqiqatni Ho'rmuzga arz qildi, o'lja qilib qo'lga kiritgan butun mol-mulkni Xo'rmuzning huzuriga jo'natdi. Shu asnoda hasadchilar va g'iybatchilar Xo'rmuz majlisida unga qarshi tuhmat qilib, «Bahrom mol-mulkning katta qismini o'ziga olib qoldi, xoqonning asl qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan qilichi va toji, javohirlar qadalgan etigini o'ziniki qilib oldi,» dedilar. Xo'rmuz ham xomtam'a bo'lib, Bahromning [avvalgi] xizmatlarini unutdi. G'arazgo'y va g'iybatchi kishilarning so'zlariga ishonib, Baxrom Chubinni gunohkor va xoin deb bildi. Unga ayollar yopinchi'gi, kishan va zanjir yuboribdi. Bahrom bo'yniga bo'g'ov, oyog'iga kishan solib, ayollar libosini kiydi. So'ng huzuriga amirlar, si poh

³¹¹ Bahrom Chubin - sasoniylar (mil.ning III-VII asrlari) zamonida o'tgan mashhur sarkarda va Eron podshosi (590-591).

³¹² Milodning 590 yili Eronzaminga bostirib kirgan g'arbiy turklarning xoqoni Shaba hoqon.

³¹³ Xo'rmuz ibn Nushirvon (Anushirvon) - sasoniylar sulolasidan chiqqan shahanshoh Ho'rmuz IV (579-590).

boshliqlarini chaqirtirib, saroyda yig'ilganlar oldiga shu alpozda chiqdi. Sarkardalar va boshqa sipohiylar bu holni ko'rib, Xo'rmuzga ta'nayu dashnomlar yog'dirishdi. Undan ixloslari qaytdi. Sipoh Bahrom Chubin bilan ittifoq bo'lib, Xo'rmuz dargohiga bostirib keldi; uni saltanatdan tushirib, Ajam mamlakati saltanatining taxtiga Xusrav Parviz³¹⁴ni o'tqazdilar. Men bu voqyeadan saboq olganim sababli, sipohimning ta'nayu dashnomlariga qolib ketmaslik uchun amir Iki Temurni huzurimga chorladim; saroy xodimlari va xalqni to'plab majlis qurdim. O'rusxon ulusidan o'lja qilib olingan butun mol-mulkni bir yerga to'plab, amir Iki Temurga va u bilan birga qilich chopgan bahodirlargavaSi pohlilargainyom qildim.

Yana amr qildimki, jangda o'zini ko'rsatib, qarshisidagi g'anim lashkarini sindirgan har bir amirning martabasini oshirsinar.

Chunonchi, Tobon bahodir To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda [ot solib], g'anim bayroqdoriga yetib oldi va dushman bayrog'ini yerga tushirdi, o'zi bir necha joyidan yaralandi. Hasadchilar va shu qahramonlikka da'vogarlar uning bu xizmatini mendan yashirmoqchi bo'ldilar. Lekin uni [in'omdan] xoli qoldirish insofdan emas, deb bilib, Tobon bahodirga amirlik martabasini berdim. So'ngra unga izzat-ikrom ko'rsatib, bayroq taqdim etdim.

Yana amr qildimki, o'nboshi, yuzboshn va mingboshilardan qay biri dushman safini buzib, o'z qarshisidagi askar sindirsa, o'nboshi bo'lsa, shahar hokimligini bersinar. Yuzboshi bo'lsa, uni biron mamlakat hukmdori etsinar. Bunga misol shulki, yuzboshi Barlos bahodir To'xtamishxon bilan bo'lgan urushda dushman qo'shinini sindirdi. Uni Hitori Shodmon³¹⁵ mamlakatiga hokim etib tayinladim. Yana buyurdimki, mingboshilardan birontasi qarshisida turgan g'anim lashkarini sindirsa, uni mamlakat voliyasi qilsinar. Bunga misol, Muhammad Ozod Katur jangidan [bir oz

³¹⁴ Xusrav Parviz - sasoniylar sulolasiga mansub podshoh (581-628).

³¹⁵ Hitori Shodmon - Hisor viloyati (qadimgi Chag'oniyo)ning bosh shahari; mustahkam qal'asi bo'lgan. Hozirgi Surxondaryo viloyatida; Kofimihon daryosining shimoliy tarafidagi yerlarni o'ziga birlashtirgan qadimiy Hisor viloyatining markazi. Xarobalari hozirgi Dushanba shahrining kunbotar tarafida hozir ham mavjud.

burun] Burhon o'g'lon lashkarini mag'lubiyatga uchratgan siyohpush³¹⁶ jamoasini yengib, ularni sindirdi. Muhammad Ozodni Qunduz va Ko'lob³¹⁷ mamlakatlariga voliy etib tayinladim.

Yana hukm chiqardimki, amirlardan qaysi biri g'anim qo'lidagi biror mamlakatni fath etib, dushman tasarrufidan ozod qilsa, shu mamlakatni uch yilga unga in'om tariqasida bersinlar.

Va amr qildimki, qaysi bir askar qilich chopib bahodirlik ko'rsatsa, unga in'om tariqasida cho'moq, qimmatbaho toshlar qadalgan o'tog'a, kamar, turna bellik qilich va bir ot bersinlar hamda o'nboshilik martabasiga ko'tarsinlar. Ikkinchi, uchinchi bor bahodirlik ko'rsatsa, yuzboshi va mingboshi martabasiga yetishadi.

KATTA NOG'ORA VA BAYROQ ATO ETISH TUZUGI

Amr qildimki, o'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin. Amir ul-umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'nboshiga bittadan katta nog'ora bersinlar. Aymoq³¹⁸ larning amirlariga bo'lsa, bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u bersinlar.

[O'n ikki] amirdan qaysi biri dushman qismini sindirsa yoki g'anim qo'li ostidagi biror mamlakatni fath uni taqdirlab, agar birinchi [darajali] amir bo'lsa ikkinchi [darajali], ikkinchi bo'lsa uchinchi [darajali], uchinchi bo'lsa to'rtinchi [darajali] amir martabasini berishlar. Shu tartibda o'n birinchi [darajali] amirgacha davom ettirsinlar. Agar o'n birinchi [darajali] amir bo'lsa, uni o'n ikkinchi [darajali] amir qilib, bayroq, tug' va nog'ora bersinlar. Shu yo'sinda birinchi [darajali] amirga bitta tug', ikkinchisiga - ikkita, uchinchisiga - uchta, to'rtinchisiga - to'rtta tug' va nog'ora berib, ularni tuman-tug' va to'rt tug' olish martabasiga yetkazib, rag'batlantirsinlar.

³¹⁶ Siyohpush — yuziga qora mato tortilgan odam; ba'zi manbalarda Katur (Kofiriston) xalqi islomni qabul qilmaganliklari uchun shunday atalgan.

³¹⁷ Ko'lob - qadimgi Xuttalon; XVI asrdan shu nom bilan ma'lum.

³¹⁸ Aymoq (umoq) - bir necha qarindosh-urug'lar ittifoqi; qabila.

SIPOHNING YAROQ-JABDUQLARI VA ANJOM-JIHOZLARI TUZUGI

Shunday buyruq berdimki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har o'n sakkiz kishi o'zi bilan birga bir chodir olsun, har bir askar ikki ot, bir kamon, bir sadoq-o'qdon, bir qilich, arra, bigiz, bir qop, juvoldiz, bolta, o'nta igna va orqaga osiladigan charm xalta olsun.

Bahodirlardan har besh kishi bir chodir olsun. Har biri bitta oddiy temir sovut, dubulg'a, bir qilich, sadoq, o'q-yoy va beshta ot olsun.

O'nboshilardan har biri o'zi bilan birga bir chodir, sovut, qilich, sadoq, yoy va beshta ot olsun.

Yuzboshilardan har biri bir chodir, o'nta ot, qurol-aslahadan: qilich, sadoq, yoy, gurzi, cho'qmor, koskan³¹⁹, zirih, bagtar³²⁰ olsun.

Mingboshilardan har biri o'zi bilan birga bitta chodir, bir soyabon, qurol-aslahadan javshan, dubulg'a, nayza, qilich, sadoq va o'q-yoydan ko'targanicha olsun.

Birinchi amir bir chodir, bir o'tov, bir juft soyabon, qurol-aslahadan shu miqdorda olsinlarki, qo'l ostidagilarga ham bergudek bo'lsin. Shunga o'xshash ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi amirdan tortib to amir ul-umarogacha har qaysilari, o'z martabalariga yarasha, chodirdan, o'tovdan, otlardan boshlab, to boshqa harbiy anjomlarga saronjom-sarishta qilib qo'ysinlar. Birinchi amir bir yuz o'n ot, ikkinchi amir bir yuz yigirma, uchinchi amir bir yuz o'ttiz, to'rtinchi amir bir yuz qirq ot, amir ul-umaroga yetguncha tartib shunday bo'lsin. U esa o'zi bilan birga uch yuzdan kam ot olmasin.

Piyodalar bo'lsa har biri o'zi bilan birga bir qilich, bir kamon va ko'targanicha o'q-yoydan olsinlar. Biroq jang paytida tuzuklarda ko'rsatilganidan kam bo'lmasin.

³¹⁹ Koskan - bosh kiyimi ostidan o'raladigan sim ro'mol. U jangchini o'q, qilich va gurzi zarbidan saqlagan.

³²⁰ Bagtar - temir simdan to'qilib, usti baxmal yoki boshqa mato o'ralgan harbiy kamzul.

URUSHDA VA TINCHLIKDA SOQCHILIK QILISH, MAJLIS-YIG'INLARDA HOZIR BO'LISH TUZUGI

Amr qildimki, sipohiyalar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar va o'nboshilar devonxonaga, bazm-majlislarga kulohsiz, etiksiz, kavushsiz, bo'rk yoqalik chakmonsiz, xanjarsiz, qilichsiz hozir bo'lmasinlar. O'n ikki ming qilich osgan askar urushu tinchlik vaqtida butun yaroq-aslahalari bilan ko'shkda, devonxonaning o'ng va so'l tarafidan, orqasidan va oldidan qurshab tursinlar. Shu tartibda har kecha ulardan ming kishi soqchilik qilish uchun hozir bo'lishsin. Har yuz qilichlik ustiga bir yuzboshi qo'yilsin va unga shartlashilgan maxfiy so'zni³²¹ aytsinlar.

Yana amr qildimki, urush paytida o'n ikki amirdan har biri, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar o'n ikki ming qurollangan otliq sipohi bilan bir kecha-kunduz davomida har qaysilari o'z xonlarini qo'riqlash uchun hozir bo'lsinlar. Bu o'n ikki ming otliq lashkarni to'rt favjga bo'lib, bir favjini barong'orga, boshqasini javong'orga, bittasini o'rduning oldiga, boshqasini esa o'rduning orqa tarafiga tayinlasinlar. Ushbu qismlar navbatma-navbat o'rdudan yarim farsang uzoqlashib soqchilik qilsinlar. Ushbu to'rt sipohiy favj o'zlari uchun hirovul belgilasinlar, hirovuldan esa qorovullar tayinlansin. Ular bo'lsa ehtiyotkorlik va hushyorlikni qo'ldan bermay, o'rduga xabar yetkazib tursinlar.

Yana hukm qildim, atrofimda joylashgan lashkar va o'rduga, har biriga battadan kutvol tayinlasinlar va o'rduni qo'riqlash, soqchilik qilish ishlari shular ustiga yuklansin. Bozor ahli³²²dan soliq olish ham shular zimmasida bo'lsin. Agar o'rdi ahli³²²dan biron kimsaning narsasi o'g'irlansa, ular javobgarlikka tortilsinlar.

[Qo'shi orasidan] to'rt favj chopqunchilar tayyorlashni buyurdim. Bular to'rt farsang masofada lashkar yonida yurib, ularni qo'riqlab borsin. Bordiyu lashkardan biron o'ldirilganini

³²¹ O'ran (parol') deyilmoqchi.

³²² Bozor ahli - harbiy yurishlar vaqtida o'rdi atrofida savdo-sotiq bilan mashg'ul bo'lgan kishilar.

yoki yaralanganini ko'rsalar, uning o'z zimmalariga olishlari lozim. Agar biron kimning narsasi o'g'irlansa, ular javobgardir.

Yana buyurdimki, lashkarining uchdan bir qismi chegaralarni qo'riqlash ishiga belgilansin; ikki qismi esa doim saltanat xizmatiga hozir tursin.

VAZIRLARNING XIZMAT QILISH TUZUGI

Amr qildimki, to'rt vazir har kuni devonxonada hozir bo'lsinlar. Birinchi - mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatning muhim va kundalik ishlarini, raiyat ahvolini, viloyatlardan yig'ilgan hosil, soliq-o'lponlar, ularni taqsimlash, kirim-chiqimlarni, [mamlakat] obodonligini, aholining farovonligi ishlarini va mulkni tarzda tartibga keltirayotganligini menga bildirib tursin.

Ikkinchi - sipoh vaziridirki, u sipohiylarning oylik vaboshqa haqlarini menga malum qilsin; sipoh tarqoq holatga tushib qolmasligi uchun ularning ahvolidan xabardor bo'lsin, vaziyatni anglatib tursin.

Uchinchisi - egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollarni, kelib-ketayotgan [savdogarlar va sayyohlarning] mol-mulkidan olinadigan zakot va bojlarni, mamlakat chorvalarini, ularning o'tlov-yaylovlarini boshqarib, bularning barisidan yig'ilgan daromadni omonat tarzida saqlovchi vazirdir. U g'oyib bo'lganlar va o'lganlarning mol-mulki bo'lsa, merosxo'rlariga topshirsin.

To'rtinchisi - saltanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan sarf qilingan tamom xarajatlar, [hatto] otxona va [saroydagi] boshqa jonzotlarga qilingan xarajatlargacha, baridan ogoh bo'lishi lozim.

Yana amr qildimki, chegara yerlar va menga tobe mamlakatlarga oid [ishlarga masyul] uch vazirdan iborat davlat hay'ati (xolisa) tuzilsin. Ular mazkur joylardagi moliyaviy muomalalarni va keladigan daromadlarni boshqarsinlar.

Bu yetti vazir devonbegiga bo'ysunishi lozim va u bilan ittifoqda muhim moliyaviy ishlarni amalga oshirmoqlari va mening arzimga yetkazishlari zarur.

Yana hukm qildimki, bir kishini arzbegi qilib tayinlasinlar. U sipoh, raiyat vaarz-dod qilib [huzurimgakeluvchilarning] ahvolini, mamlakatning obod-xarobligini, muhim ishlardan qaysi biri bitgan-bitmaganligini mening arzimga yetkazib tursin.

Amr qildimki, sadri a'zam sayyidlar va boshqa arboblarga suyurg'ol tariqasida berilgan yerlar va vaqflarning ahvolini, ularga ajratilgan jamg'armalarning taqsimlanishini menga arz qilib tursin.

Islom qozisi shariat ishlarining borishi va ajrim qozisi dunyoviy ishlar haqida menga bildirib tursinlar. Yana amr qildimki, saltanat ishlari, mamlakatni idora etish, undagi o'zgarishlar, almash-tirishlar, sipohiylar va amirlarning tayinlanishi, turli kengash-tadbirlarni xos majlisda menga arz etsinlar. Bu majlislarda maxfiy va sirli ishlarni pinhon tutishga qodir maxsus kotib hozir bo'lib, rostlik qalami bilan yashirin kengashlarni va gaplarni yozib borsin.

Va yana majlis kotiblarini tayinlashni buyurdimki, devon majlisida navbatma-navbat hozir bo'lib, majlisda ko'rilgan va hal qilingan muhim masalalar va ayrim ishlar tafsilotlarini yozib olib, saqlashlari lozim. Menga arz qilingan gaplar, chiqargan hukmlarim, majlislarda ko'rilgan mamlakat ahamiyatiga molik ishlardan tortib juz'iy ishlargacha, barchasini, qalamga olib, [boshiidan kechirgan] voqyealar daftariga kirgizsinlar.

Saltanatning har bir idorasida bo'ladigan kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin.

ULUSLAR, QO'SHINLAR VA TUMANLARNING AMIRLARINI TAYINLASH TUZUGI

Buyurdimki, yasoq chog'ida har bir ulus va tuman amiri har chodirliqdan bir otliq, har ikki olachuqdan bir otliq, har bir uydan bir otliq askar ajratib, o'zlari bilan birga olib ketsinlar. Ular qaysi mamlakatga kelib tushsalar, oladigan haqlari o'sha yerning sug'oriladigan maydoni va o'tlog'i hisobidan belgilansin. Uluslarning amirlariga yarg'u³²³ va bayroqlar bersinlar. Amirlar, uluslar va tumanlarning hol-qudratiga yarasha, otliq askar hozirlab yurishga olib kelsinlar.

³²³ Yarg'u - yosoq va yusun (q.) asosida chiqarilgan hukm; u yerda biron beruvchi rasmiy hujjat ma'nosida.

Qaramog'imdagi qirq aymoqdan o'n ikkitasiga - barlos, tarxon, arg'in, jaloyir, tulkichi, dulday, mo'g'ul, suldus, tug'oy, qipchoq, orlot, totorga tamg'a berilsinkim, bular mening xos navkarlarim bo'lib hisoblansinlar.

Barlos urug'idan quyidagi to'rt kishini amir ul-umaro qildim: amir Xudoydod, unga Badaxshon mamlakatini in'om etdim; amir Joku, amir Iki Temur va amir Sulaymonshohga ham bittadan chegara mamlakatni berdim. Barlos urug'idan yana yuz kishini mingboshi qildim. Amir Jaloliddin barlosni o'ninchi amir, Amir Abu Sayidni to'qqizinchi amir darajasiga ko'tardim.

Tarxon ulusidan amir Boyazidni yettinchi amir darajasiga tayinladim. Ulardan yigirma kishini yuzboshi qildim.

Arg'in ulusidan Toshxo'jani sakkizinchi amir qildim. Bulardan yigirma kishini mingboshi, yuzboshi va o'nboshi tayinladim.

Jaloyir ulusidan To'q Temur va Sher Bahromni sakkizinchi va to'qqizinchi amir etib tayinladim. Bulardan yigirma kishini yuzboshi va o'nboshilikka belgiladim.

Tulkichi ulusidan O'ljoytu Aperdiga amirlik martabasini berdim.

Dulday ulusidan Tobon bahodir va Son bahodirga amirlik martabasini berdim.

Mo'g'ul ulusidan Temirxo'ja o'g'lonni amirlik martabasiga yetkazdim.

Suldus ulusidan Elchi bahodirga amirlik martabasini berdim.

Tug'oy ulusidan Ali Darvishni amir qildim.

Orlot ulusidan amir Muayyadnikim, singlim uning nikohida edi, amir ul-umaro etib tayinladim. Suloychi bahodirni ham amirlikka ko'tardim.

Totor ulusidan Qo'naqxonga amirlik [martabasini] berdim.

Tamg'aga yetmagan yigirma sakkiz aymoq boshliqlariga ulus amirligini berdim. Ular yurish, jangu jadal paytida tuzukka binoan o'z ulusidan otliq askar to'plab, hozir bo'lsinlar.

NABKARNING BEGIGA VA BEKNING NAVKARIGA MUOMALA QILISHI TUZUGI

To'g'ri navkar bilsinkim, u agar o'z navkari bo'lgan taqdirda undan nimani ko'zlasa, aynan shu narsani uning begi ham o'zidan

ko'zlayda. Shunday bo'lgach, o'zini bek xizmatidan ozod etilgan deb hisoblamasin. Yana shuni ham bilishi kerakki, agar begi unga avvaliga inoyat-marhamatlar qilsa-yu, oxiri inoyatsizligu iltifotsizlik qilsa, u holda ayb va nuqsonni begidan emas, o'zidan axtarsin. To'g'ri navkar o'z begiga ixlos qo'yib, xolis xizmat qilishi kerak. Qaysi navkar begiga ixlos qo'ymay, ko'nglida gina-qudurat saqlasa, ixlossizlik va adovati tufayli baxtsizlikki duchor bo'ladi. Lekin o'z begiga ixlos qo'ygan navkarning boyligu davlati va ne'matlari kundan-kun ortib boradi.

Begiga etiqodi kuchli navkar ulkim, uning og'ir-qattiq etirozli so'zlaridan ranjib, ko'nglida kek saqlamaydi. Begidan tanbih eshitsu, o'zini aybdor deb biladi. Bunday navkar ta'minu tarbiyaga loyiqdir.

Qaysi navkarning himmati yemak-ichmak, yaxshi kiyinmak-kagina bog'lanar ekan, albatta, ish vaqtida sustkashlik qiladi.

Qaysi navkar o'z xizmati, haq-burchini unutilib, ish vaqtida [mehnatdan] yuz o'girar ekan, unday navkardan yuz o'girmoq lozim. Qaysi navkar ish vaqtida bahona izlab, jangu jadal paytida ijizat so'rab, qochishni mo'ljallasa, bugungi ishni ertaga qoldirsa, (Po'lod va Temur o'g'lon boshimga ish tushganda o'zlarini shu qabilda tutib, meni tashlab ketganlari kabi) bunga o'xshash navkarlar nomlarini ham tilga olishga munosib emasdirlar. Bunday odamlarni parvardigori alam [hukmiga] topshirish zarur.

Yana haqiqiy podshohlarga lozimdirki, qaysi navkarni o'zlari ulug'lab [martabasini] ko'targan bo'lsalar, tezda uni xorlab tuban tushirmasinlar. O'zlari ko'targan kishilarni tashlamasinlar. Kimniki bilgan va tanigan bo'lsalar, uni unutmasinlar. Agar ahyon-ahyonda uning izzat-nafsigaga tegib xo'rlagan bo'lsalar, evaziga ilgarigidan ikki barobar ortiq izzatini oshirsinlar va o'sha navkarni o'z ixlosi va e'tiqodiga havola qilsinlar. Agar u ko'nglida gina-advat saqlasa, tez orada o'zi baxtsizlikka uchraydi. Begining ko'nglida yaxshiliga bilan joy olgan har bir navkar kuni kelib yaxshilik ko'rishi aniqdir.

Qaysi bir navkar o'z ixtiyori bilanmi, yoki ixtiyorsizmi begidan ajrab ketsa-yu, keyinroq yana qaytib kelsa, uni hurmatlasinlar, chunki u ajralib ketganidan pushaymonliga uchun ham qaytib kelgan.

Yana amr qildimki, gʻanim tomonidagi navkar bizga qarshi qilich koʻtarar ekan, oʻz yurtining tuz haqini halollagan sanaladi. Agar shunday kishilardan birontasi jang paytida qoʻlga tushsa yoki gʻanim tomonidan umidi uzilib, bizga kelib xizmat qilishni istasa, uni aziz tutsinlar, martabasini oshirib, vafodor odam deb bilsinlar. Chunonchi, Mengli Bugʻo, Haydar Andxudiy va amir Abu Said - bular olti ming otliq askar bilan Balx daryosi³²⁴ boʻyida menga qarshi jang qildilar. Keyinroq, Tugʻluq Temurxondan nuomid boʻlib, mening panohimga kelganlaridan ularga izzat-ikrom koʻrsatib, Hisoni Shodmon, Andijon va Turkiston viloyatlarini ularga inyom qildim.

Va amr qildimki, har bir navkar gʻanim nazdida hurmat-etiborga ega boʻlib qadrlansa-yu, biroq jangu jadal paytida oʻz begiga xiyonat, uning dushmaniga doʻstlik qilsa, tuz haqini, bek hurmatini, navkarlik [burchini] va undan koʻrgan noz-neʼmatlarini unutsa, oʻz begining dushmaniga yon bosib, uni begidan ustun qoʻysa, bunday kimsani xizmatga yoʻlatmasinlar. Hayotning oʻzi bundaylarning qilmishiga yarasha jazosini beradi.

Qaysi bir navkar yurish vaqtida oʻz begidan yuz oʻgirib, undan ajralib, [sizning] oldingizga xizmat istab kelsa, unday navkarga ishonib boʻlmaydi. Agar u maʼlum muddatdan keyin koʻp xizmat qilib vafodorligini koʻrsatsa, u chogʻda uni olib qolsa boʻladi. Agar [bunday navkar] tinchlik vaqtida sizga xizmat qilishni ixtiyor etsa, uni qadrlasinlar. Agar vazirlardan yoki navkarlardan birontasi [urush kunlarida] tadbirkorlik ishlatib, dushman bilan aloqa bogʻlab, unga oshnolik qilsa va shu tariqa oʻz begining ishini bitirsa, unday odamni eng aqlli doʻstlardan va xizmatkorlardan deb hisoblash zarur. Lekin biron navkar yov bilan kelishib, oʻz egasiga munofiqlik qilsa, bunday navkarni dushmanga taqdim etish lozim.

Agar navkarlardan biri qilich chopishib, gʻanimni sindirar ekan, gʻarazgoʻy odamlarning uning haqida aytgan gaplariga quloq solmasinlar. Uning qilgan xizmatlarini yashirmasinlar, aksincha, bir xizmatini oʻnga yoʻysinlar, martabasini oshirsinlar, toki boshqa navkarlar buni koʻrib jonbozlik qilishga ragʻbatlansinlar.

³²⁴ Balx daryosi - Amudaryoning oʻrta oqimi.

Sipohiy qismlardan yoki amirlardan qaysi biri yov bilan kelishib, g'animlar safiga birlashar ekan, ularni yurtidan chiqarib, hyech yerdan o'rin bermasinlar. Bunga misol, Kesh lashkarining sarkardalari mendan yuz o'girib, amir Hoji barlos askariga qo'shildilar. Shundan keyin men ularga ishonmay qo'ydim.

Agar navkarni biron mamlakatga hokim qilgan bo'lsalar-u, u bevafoolidan dushman bilan kelishib, yurtni unga taslim qilsa, uni o'lim jazosiga mahkum etsinlar. Mamlakatni qo'l ostida saqlab qololgan navkarni esa yuqori martabaga ko'tarib, hurmatlasinlar.

Qaysi bir amir urush kunlari, ahvol tang bo'lgan paytda, jang maydonida ixlos qadamini mahkam qo'yib, do'st-oshnolik haqini saqlagan bo'lsa, uni o'z og'a-inisidek ko'rsinlar. Chunonchi, Kesh amirlari va lashkari mendan butunlay yuz o'girganlarida va amir Joku barlosdan boshqa hyech kimsa oldimda qolmagan bir paytda, men amir Jokuni o'z aziz og'amday ko'rib, davlatimning ishonchli odami deb bildim. Uni amir ul-umaro etib tayinlab, Balx va Hisor mamlakatlarini unga in'om qildim.

DO'STU DUSHMANGA MUOMALA QILISH TUZUGI

Turon mamlakatini fath etgan kunim va poytaxt Samarqandda saltanat taxtiga o'tirganimdan so'ng, do'stu dushman bilan [muomalada] bir tekis yo'l tutdim. Menga yomonlik qilgan, hiylamkr ishlatib, jang maydonida menga qarshi qilich yalang'ochlagan Badaxshon amirlari, turku tojik qo'shinlarining ba'zi amirlari qilgan qing'ir ishlaridan qo'rquvda edilar. Chorasiz qolib iltijo bilan mening panohimga kelganlarida ularga shunday yaxshiliklar qildimki, mening inoyatim va xayr-ehsonimni ko'rib, o'zlari sharmanda bo'ldilar. Kimni ranjitgan bo'lsam, ehsonu in'omlar bilan ko'nglidagi xafagarchilikni chiqardim va martabalariga qarab imtiyozlar berdim.

Lekin sulduz va Jete amirlaridan nafratlandim, chunki ular Qobilshoh Chingiziyni³²⁵ amirlik, [keyinroq] xonlik taxtiga

³²⁵ Qobilshoh - asli chingiziy shahzodalardan, darvishtabiat odam. 1370 y. boshida amir Husayn va uning atrofidagilar uni Balxda xon ko'tardilar. Lekin, oradan to'rt oy o'tib, uni o'zlari taxtdan tushirib qatl etdilar.

o'tkazib, unga do'stona ixlos bilan xizmat qilish xususida ahdu paymon qilgandilar. Biroq keyinroq mening saltanat taxtiga o'ltirganimni eshitishgach, menga xushomad qilmoqchi bo'lib, ontlarini buzdilar va uni o'ldirdilar.

Menga hasad qilib, o'ldirishga qasd etgan kishilarga shunchalik sovg'a-in'omlar berib, muruvvatu ehson ko'rsatdimki, yaxshilik-larimni ko'rib, xijolat teriga g'arq bo'ldilar.

Hamisha mening roziligimni olib ish tutgan do'stlarim oldimga panoh izlab kelganlarida, ularni o'zimning baxtu davlatimga sherik bilib, hyech qachon mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ulardan ayamadim.

Yana tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z yovi deb biladi. Agar kerak bo'lsa, do'sti uchun jonini ham ayamaydi. Shundayki, amirlarimdan qay birlari menga jon-dili bilan hamrohlik qilgan bo'lsalar, men ham ulardan hyech narsani ayamadim.

Yana o'z tajribamda ko'rdimki, aqlli dushman johilu nodon do'stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi amir Qazag'an³²⁶ ning nabirasi amir Husayn nodon do'stlardan edi. Uning do'stlik yuzasidan qilgan ishlarini hyech bir dushman qilmaydi.

Amir Xudoydod menga shunday dedi: «Dushmaningni lalu javohirdek saqlagil, qachonki biron toshloq yerga kelib qolsang, uni olib toshga shunday urginki, tolqoni chiqib, undan nishon ham qolmasin». U yana shunday dedi: «Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib, yaxshilik va muruvvat ko'rsatgil». Chunonchi, men To'xtamishxonga qilganim kabi. U panohimga siginib kelganda, unga yaxishlik va muruvvat ko'rsatdim. Agar dushman sendan muruvvat va xayr-ehson ko'rsa-yu, yana qaytadan dushmanlik yo'lini tutsa, uni parvardigorning [xukmiga] topshir.

Chin do'st uldirki, do'stidan hyech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

³²⁶ Amir Qazag'an - Chig'atoy ulusining amir ul-umarosi; 1346 yili Qozonxoni o'ldirib, Chig'atoy ulusida hukmronlikni o'z qo'liga olgan. Lekin oradan o'n ikki yil o'tib, o'zi ham bir guruh fitnachi amirlar tarafidan o'ldirildi.

SALTANAT SAROYIDA O'TIRISH VA O'RIN OLISH TUZUGI

Amr etdimki, o'g'illarim, nabiralarim va qavm-qarindoshlarim o'z daraja va martabalariga yarasha xuddi oy qo'rg'onlagandek, saltanat taxtini o'rab o'ltirsinlar.

Sayyidlar, qozilar, ulamo, fuzalo, shayxlar, ulug'lar va aslzodalar o'ng tomondan o'rin olsinlar.

Amir ul-umaro, beklarbegi, amirlar, no'yonlar, ulus, tumanlar va qo'shnlarning sardorlari va amirlari, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar, o'z martabalariga yarasha, chap qo'l tomonda o'tirsinlar.

Devonbegi va vazirlarning o'rnini taxt qarshisidan ko'rsatdim. Turli mamlakatlar, el-uluslarning yurt-og'alari va beklari esa, vazirlar orqasida qator bo'lib o'tirishlarini buyurdim.

Bahodir degan faxrli nomga ega bo'lgan mard yigitlar, qilich chopib tanilgan o'g'lonlar, saltanat taxtining orqasida, o'ng qo'l tomonda o'tirsinlar. Qorovulbegilar esa saltanat taxtining orqasida, chap qo'l tomonda o'tirishlarini buyurdim.

Hirovul amiri mening ro'paramdan o'rin olsin. Ichki³²⁷, xususiy yasovulim esa katta chodir eshiga oldida, taxtim poyasining to'g'risida tik tursin. Arz-dod qilib kelganlar o'ng va chap tomonda tik tursinlar.

Oddiy sipohiylar, xizmatchi va saroy kishilari, har qaysilari o'z martabalariga yarasha saf tortib, o'z joylarini bilib tik tursinlar.

O'rin olish qoidalarining bajarilishini nazorat qiluvchi to'rt amirga, majlisga hozir bo'lganlarni o'z tartibi bilan taxtimning o'ng va so'l, oldi va orqasiga joylashtirishlarini buyurdim.

Yana hukm qildimki, qachon majlis qoidaga muvofiq tartibga keltirilgach, ming tovoq osh, ming dona non tortib, umum yig'ilganlarga shohona sho'lon³²⁸ bersinlar. Ming tovoq oshni mumtoz va xos kishilar bazmiga olib kelib, shundai besh yuz tovog'ini ulus amirlariga, sarkardalarga, oqsoqollarga, har qaysisining nomiga atab tarqatsinlar.

³²⁷ Ichki — podshoh va xonlarning xos xizmatchilari va beklar.

³²⁸ Sho'lon - ziyfat.

MAMLAKATLARNI ZABT ETISH TUZUGI

Biron mamlakatda jabr-zulm va fisqu fasod kuchayib ketarkan, asl podshohlar adolat o'rnatishib, fisq-fasodni, zulmni yo'qotish niyatida ana shunday mamlakatga hujum boshlashi lozim. Tangri taolo shu niyatning sharofati bilan mamlakatni zolimning qo'lidan tortib olib, odil [podshoh]ga topshiradi.

Chunonchi, men Movarounnahr viloyatida adolat o'rnatish niyatida uni zolim mo'g'ul toifasining qo'lidan tortib oldim.

Qaysi bir mamlakatda shariat zaiflashgan bo'lsa, Olloh ulug' qilgan narsalarni xor tutsalar va Xudoning xos bandalarini ranjitsalar, chinakam jahongir sulton, hazrati Muhammad (sallollohu alayhi vasallam) din va shariatiga rivoj berish uchun o'sha mamlakatga kirsin. Xudoning rasuli unga madadu inoyat ko'rsatgay. Bunga misol, men Hindiston poytaxtini Firuzshoh³²⁹ ning nabirasi Sulton Mahmud³³⁰-dan, Malluxon³³¹ va Sorang³³² dan tortib oldim, dinu shariatga rivoj berdim va o'sha diyorning butxonalarini buzdim.

Qaysi mamlakatning aholisi o'z hokimi yoki voliysidan ozor chekkan va o'sha diyor ahlining ko'ngli o'z voliysidan qolgan bo'lsa, mamlakatlarni zabt etguvchi chinakam podshoh u yerlarni o'z tasarrufiga olsin. Odil podshoh u yerga qadam qo'yishi bilan fathu zafar ham unga yor bo'lib, [u bilan] birga kiradi. Bunga misol, men Xuroson viloyatini Kart sultonlaridan³³³ ajratib oldim³³⁴. Xuroson poytaxti Hirotga qarab yuzlanishim bilan Sulton G'iyosiddin³³⁵ butun

³²⁹ Firuzshoh - Shimoliy Hindistonda hukmronlik qilgan Tug'luqlar sulolasi (1320-1413)dan chiqqan hukmdor (1351-1388).

³³⁰ Sulton Mahmud - Shimoliy Hindistonni idora qilgan Tug'luqiylar sulolasidan. U mamlakatni 1393-1399 yillari boshqargan.

³³¹ Malluxon - Dehli hokimi, Tug'luqiy sulton Mahmudxonning katta amiri; zo'r nufuzga ega va mamlakat jilovini uning qo'lida bo'lgan.

³³² Sorang - Malluxonning inisi. O'sha paytlarda Multon viloyatining hokimi lavozimida turgan.

³³³ Kart sultonlari - Xuroson, Shimoliy Hindistonni 1000-1215 yillari va undan keyin 1245-1381 yillari G'ur bilan Hiroti idora qilgan sulola. So'nggi sulolaga malik Shamsuddin Muhammad (1245-1278) asos solgan.

³³⁴ Amir Temur Hirotidagi Kartlar sulolasini 1381 yili tugatgan.

³³⁵ Sulton G'iyosiddin - so'nggi kart maliki Sulton G'iyosiddin Pir Ali (1373-1381).

mamlakatni, xazina-dafinalari bilan peshkash qilib menga topshirdi.

Qaysi mamlakatda dindan qaytishlik va xudosizlik kuchaysa va u diyorning aholisi, sipohu raiyat turli maslakka kirib ittifoqlari buzilsa, u mamlakatning halokati yaqindir. Chinakam jahongir podshoh unday yurt ustiga bosqin qilishi lozim. Misol uchun men Iroqi ajam va Fors viloyatlarini mal'un dinsizlar vujudidan tozaladim, turli toifadagi hukmdorlarni ag'darib, xudo bandalarini, har yerda o'z saltanati bayrog'ini ko'targanlarni jabr-zulmidan qutqardim.

Qaysi bir viloyat xalqining e'tiqodi hazrati sayyid al-mursalin³³⁶, unga ollohning marhamatlari bo'lsin, xonadoni aqidalaridan farqlanib o'zgargan bo'lsa, podshohlar o'sha viloyatni bosib olishlari va u yer xalqini buzuq etiqodlaridan qaytarishlari lozim. Bunga misol, men Shom viloyatiga kirib, buzuq e'tiqodli kishilarni jazoladim.

Jahongirlik qilishga kirishganimda to'rt narsani xotiramda mahkam saqladim.

Birinchisi — qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsam, to'g'ri tadbir va kengash bilan ish tutdim.

Ikkinchisi — xatoga yo'l qo'ymaslik uchun har bir ishni o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qildim. Shuning uchun menga ollohning madadu inoyati yetib, nima tadbir qo'llagan bo'lsam, to'g'ri chiqdi. Har yer el-ulusining tabiati va xalqining mizojlarini xotirimga keltirib ularning tabiatiga muvofiq yo'l tutib, shunga qarab ularga hokim tayinladim.

Uchinchisi — uch yuz o'n uch asil, zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim. Birlik-ittifoqlari shunday ediki, hammalari go'yo bir tandek edilar. Barchalarining maqsadlari, ra'ylari, so'zlari va ishlari bitta edi. Bir ishni qilaylik deb qilsalar, tugatmagunlaricha undan qo'l uzmas edilar.

To'rtinchisi — bugungi ishni ertaga qoldirmadim. Yumshoqlik qilishga to'g'ri kelsa, muloyimlik qildim; qattiqqo'llik ishlatish vaqti yetsa, qat'iy choralar ko'rdim. Shoshmaslik kerak yerda shoshil-

³³⁶ Sayyid al-mursalin - barcha payg'ambarlarning yetakchisi; Muhammad payg'ambarning faxrli nomlaridan.

madim, shoshilinch ishlarni kechiktirmadim. Qaysi ishni chorayu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmadim.

Kunduzlari tajribali va dono kishilar bilan turli mamlakatlarni zabt etish shatranji ustida bosh qotirdim. Kechalari bo'lsa to'shagimda yonboshlab olib, mamlakat ishlarini qanday yurgizish kerakligi haqida o'yladim va ularni bajarish vositalarini o'zimcha tasavvur qilib ko'rdim. O'zga mamlakatlarni zabt etish yo'llarini o'z ko'nglimda chamalab, qay tarzda hujum qilib, qanday chekinish mumkinligini belgilar edim. Si pohlilarim bilan qanday muomala qilishim to'g'risida fikr yurgizib, qaysi birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xato qilmagan bo'laman deb, har ishning oldi-ketini o'ylar edim.

Si poh boshliqlaridai qaysi biri mengado'stlik qilsa, ungaortig'i bilan xayr-ehson qildim. Yaxshilik qilsam, yomonlik bilan javob bergan kimsalarni xaromzoda deb bildim. Ikki olam egasining (Xudoning) rasuli debdilarkim: «Zinodan tug'ilgan kishi o'ziga yaxshilik qilganga yomonlik qilmaguncha dunyoni tark etmaydi».

Pirim menga yozdikim; «Xudoning va payg'ambarining amal qilgan, rasulallohning zurriyotiga yordam tangrining ne'matlarini yeb, yana unga va Xudo payg'ambarlariga dushmanlik qilgan podshohlarni Olloh mulkidan chiqar. Tangrining mulkida adolatli ish tutgilkim, shunday demishlar: «Mamlakat kufr bilan turishi mumkin, lekin zulm bor yerda turolmaydi».

Qabih xatti-harakat, yomon ishlardan Olloh mulkini tozalagin. Yomon taom badanga qanday ziyon qilsa, yomon xatti-harakat ham olamga shunday ta'sir ko'rsatadi. Zulmning nom-nishonini yo'qot. Zolimning dunyoda uzoq hayot kechirishini yaxshiliqdan deb bila ko'rma. Zolim va fosiqlarning uzoq yashashiga sabab shuki, o'zlaridagi bor yomonliklarini yuzaga chiqarib, tugatmagunlaricha Tangri ularga muhlat beradi, keyin ollohning qahru g'azabiga uchraydilar. Gohida ollohning qudrati bilan zolimlar, fisqu fujur qiluvchilar, birdan bandu zindonga, talon-tarojga, ochlikka, qahatga, vaboga, to'satdan o'lishga giriftor bo'ladilar. Gohida begunoh bo'lgan yaxshi, to'g'ri va taqvodor kishilar ham yomonlarning qilmishlaridan ofatu baloga uchraydilar. Shundaykim, to'qayga o't tushsa, ho'lu quruqqa qaramay barchasini kuydiradi.

Kofirlar, zolimlar, fosiqu fujurlar qancha ko‘p zulm-xiyonat, fisq-fasod qilsalar, noz-nematlari shuncha ko‘payar ekan, deb o‘ylamagin. Qisqasi, ularning nematlari ko‘payishining sababini bilib olish kerak. Buning sababi ushbudir: «Ehtimol, haqiqiy nematlar beruvchining (ollohning) inoyatini ko‘rib, ular [balki] zulmdan, fisq-fasoddan qaytib, imon-insofga kelib, uning ne‘matlariga shukr qilsalar», deb shunday qilingandir. Biroq ollohga shukr aytishni unutarkanlar, Tangrining dargohiga qaytmas ekanlar, xudo va uning rasuli ne‘matlari haqini bilmas ekanlar, oxir al-oqibat parvardigorning qahru g‘azabiga giriftor bo‘ladilar».

Pirimning bu maktubi menga yetib kelgach, Xudo mulkini zolimlar, bid‘atchi munofiqlar, fosiqu fujurlar qo‘lidan tortib olish, ularni yo‘qotish uchun belga himmat kamarini bog‘ladim.

SALTANATNI IDORA QILISH TUZUGI

Qaysi mamlakatni zabt etgan bo‘lsam, o‘sha yerning obro‘-e‘tiborlik kishilarini aziz tutdim; sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixiga ta‘zim bajo keltirdim va hurmatladim. Ularga suyurg‘ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; o‘sha viloyatning ulug‘larini og‘a-inilarimdek, yoshlari va bolalarini bo‘lsa, o‘z farzandlarimdek ko‘rdim. Mazkur mamlakatlarning si pahi uchun dargohimgayo‘l berdim. Raiyatini o‘zimga qaratib oldim. Hammani qo‘rquv va umid orasida saqladim. Har mamlakatning yaxshi kishilariga men ham yaxshilik qildim, nafs yomonlar, buzuqlar va axloqsiz odamlarni mamlakatimdan quvib chiqardim. Pastkash va razil odamlarga o‘zlariga loyiq ishlar topshirdim, hamda hadlaridan oshishlariga yo‘l qo‘ymadim. Ulug‘larini va sharaf-e‘tiborli kishilarni hurmatlab, martabalarini oshirdim. Har mamlakatda adolat eshigini ochdim, zulmu sitam yo‘lini to‘sdim.

[O‘z erki bilan] menga bo‘ysungan viloyat hokimlariga o‘sha yurt hukumatini qaytarab berdim va ularni in‘omu ehson bilan qadrlab, o‘zimga mute qilib oldim. Bo‘ysunmaganlarini esa qilmishiga yarasha jazoladim. Odil, oqil va uddaburon kishilarni ularga hokim etib tayinladim.

Amr etdimki, «o‘g‘ri va qaroqchilarni «Yasa» asosida jazolasinlar;

fasodchi, buzuqi, nafsi yomon kishilarni mamlakatdan haydasinlar. Ezma-bekorchilarni odamlarni viloyat va shaharlarda qoldirmasinlar».

Har bir shahar va qishloqqa kutvol tayinlasinlarki, raiyatga soqchilik qilsin va va kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning mas'uliyati uning zimmasida bo'lsin.

Va yana buyurdimki, yo'l ustiga kuzatuvchilar, zobitlar tayinlasinlarki, yo'llarni qo'riqlab, yo'lovchilar, savdogarlar, musofirlarni kuzatib, mol-mulki va boshqa narsalarini manzildan-manzilga yetkazib qo'ysinlar. Yo'l ustida birortasining narsasi yo'qolsa, o'zi o'ldirilsa yoki boshqa kor-hol yuz bersa, bular uchun javobgarlik ularning zimmasida bo'lsin.

Yana buyurdimki, har yerning g'arazgo'y, tuhmatchi va nafsi buzuq kishilarning tuhmat so'zlari bilan katta va kichik shaharlar aholisidan hyech kimni jazolamasinlar. Faqat birovning guvohi to'rt kishining guvohlik berishi bilan isbotlansa, gunohiga yarasha jazolasinlar. Amr etdimki, hyech bir shahar va qishloqda odamlardan jon solig'i, uy solig'i olmasinlar. Si pohlilardan biron kishi raiyatning xonadoniga zo'rlik bilan kelib tushmasin, raiyatning ot-ulovini tortib olmasin.

Har bir mamlakatning raiyati bilan bo'lgan muomalada ularga nisbatan xolislik bilan ish tutsinlar. Yana buyurdimki, har mamlakatning gadolariga vazifa yuklab ish bersinlar, toki shu yo'l bilan gadolik yo'qotilsin.

MULKU MAMLAKAT, SIPOHU RAIYAT AHVOLIDAN XABARDOR VA OGOH BO'LIB TURISH TUZUGI

Har yerda, viloyat u shaharda va o'rduda kundalik voqyealarni yozuvchilarni tayin qilsinlarki, hokimlar, raiyat, sipoh, o'zining va yot-lashkarning xatti-harakati haqida meni xabardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan mol-mulk, chetdan kirgan va chetga chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podshohlar, ularning gap-so'zlari, ishlari va uzoq o'lkalardan bo'lib, mening dargohimga

yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi soʻzlarni toʻgʻrilik bilan menga yozib tursinlar. Agar bunga xilof ish tutgunday boʻlsalar, [boʻlib oʻtgan] voqyealarni yozmasalar, yozgʻuvchining xabar yozgan barmoqlari kesilsin. Agar xabar yozuvchi biror sipohiyning xizmatini yashirsa, yoxud xabarni boshqa libosga kiyintirib [yolgʻon] yozgan boʻlsa, u holda uning qoʻlini kessinlar. Agar yolgʻon xabarni tuhmat yoki gʻaraz bilan yozgan boʻlsa, uni qatl etsinlar va yana amr etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, hafta-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar.

Amr qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingan ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tez-yurar piyodani [chopar] etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qoʻshni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib, huzurimga kelib, xabar qilsinlar, toki biron voqyea, kor-hol yuz bermasidan burun chora va ilojini qilaylik.

Chunonchi, Toʻxtamishxonning Oʻrusxondan yengilgani haqida menga xabar keltirganlarida, endi panoh izlab huzurimga kelishini bildim. [Shuning uchun] Oʻrusxonga qarshi jang qilishga tayyorlana boshladim va Toʻxtamishxonga yordam berdim.

[Shunga oʻxshash] yana bir misol, Hindistonni zabt etishga azm qilganimda, bu oʻlkaning har bir viloyatida alohida hokim yoki voliy saltanat taxtida oʻtirgani haqida menga xabar keltirdilar. Chunonchi, Moʻlton oʻlkasida Malluxonning inisi Sorang, Dehlida Sulton Mahmudxon [mustaqil] saltanat bayrogʻini yoygandi. Lohur nohiyasida Malluxon lashkar toʻplagandi, Qanuj viloyatida boʻlsa Muboraxon saltanatga daʼvogarlik qilib bosh koʻtargan edi. Qisqasi, Hindistonning har bir viloyatida biron-bir kimsa saltanat toju taxtiga daʼvogarlik qilardi. Bu xabar qulogʻimga yetgach, bu mamlakatni zabt etishim oson tuyuldi. Lekin lashkarim nazarida esa mushkil boʻlib koʻrindi. Chunonchi Hindistonni zabt etgan vaqtimda Rum qaysari mening baʼzi mamlakatlarimga chopqun qilgani, gurjilar boʻlsa oʻz yurtlari chegarasidan tashqari chiqib, mening lashkarlarim qamal qilib turgan baʼzi qalʼalarga yordam berayotgani haqida xabar keltirdilar. Oʻz-oʻzim bilan kengashib, agar Hindistonda koʻproq turib qolsam, Eron mamlakatida tartibsizlik boshlanishi mumkin, dedim. Shuning uchun Hindiston

poytaxtidagi ishlarimni tezda tartibga keltirib, yurish boshladim. Yo'lda bir necha kun Movarounnahrda to'xtadim. U yerdan Rum va Gurjiston tomon yo'l oldim. O'sha mamlakatlarning barisini zabt etdim.

TURLI MAMLAKATLAR AHOLISIGA MUNOSABAT, ULARNING AHVOLIDAN XABARDOR BO'LISH HAMDA DIN PESHVOLARINING MOZORLARINI TUZATISH, VAQF VA NAZR ISHLARINI TARTIBGA KELTIRISH TUZUGI

Amr etdimki, fath etilgan har bir mamlakatdagi sipohiylar [o'z ixtiyori bilan] panohimga kelsalar, ularni navkar qilib, [askarlarim orasidan] joy bersinlar. Ul diyorning raiyatini yomon hodisalardan, qatl ettirishdan, asiru band etilishdan va talanishdan muhofaza qilsinlar. Ularning mol-mulkini, buyumlarini talon-tarojdan saqlasinlar. O'sha mamlakatdan tushgan o'lja mollarni egalariga qaytarib berilishini tekshirsinlar.

Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar. Beklar, oqsoqollar, dehqonlar va ekin maydonlariga ishlov beruvchilar ko'nglini xushnud etib, o'zlariga qaratsinlar. Raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutsinlar. Guvohlari va qilmishlariga yarasha jazolasinlar. Menga bo'ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darvishlari, zohidlarni suyg'ol, vazifa va oylik bilan siylasinlar. Faqiru miskin, biron kasb qilishga ojiz shol-ko'rlarga nafaqa belgilasinlar. Mudarrislar va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar.

Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag' ajratsinlar. U yerlarni palos, taom va chiroq bilan ta'minlasinlar. Birinchi navbatda amir ul-mo'minin, mard kishilar shohi Ali ibn Abu Tolibning, unga ollohning karami va ehsoni bo'lsin, muqaddas qabrlarini yaxshi saqlash uchun Najaf va Hulani

vaqf etib bersinlar. Imom Husaynning, olloh undan rozi bo'lsin, nurga cho'mgan muqaddas mozori, avliyolar ulug'i shayx Abdulqodir Jiloniyning muqaddas qabri, imoni A'zam Abu Xanifa³³⁷ ning, unga ollohnig rahmati bo'lsin, maqbarasini va Bag'dodda nurga cho'mgan boshqa mashoyixlar, din peshvolari va ulug'larning mozorlarini yaxshi saqlash uchun baholi qudrat Karbalo, Bag'dod va ularning atrofidagi qishloqlar va boshqa joylardan vaqf sifatida yer-suv ajratsinlar. Imom Muso Kozim³³⁸, imom Muhammad Naqiy, Salmon Forsiylarning nurli ravzalari uchun esa al-Jazoir ekin maydonlaridan va Madoin³³⁹ daromadidan vaqf belgilasinlar. Imom Ali ibn Musoning tabarruk ravzalari uchun Kutahbast va Tus shahari atrofidagi yerlardan vaqf ajratsinlar va palos, chiroq hamda kundalik yemish-ichmishlar belgilasinlar. Shuningdek, Turon va Erondagi shayxlarning mozorlari va qabrlari uchun har biriga alohida, nomma-nom nazru vaqflar ajratsinlar.

Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yernig gadolarini to'plab, kundalik yemish-ichmishlarini berib, ularga biron ish bersinlar. Hamda barchasi tamg'alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg'adan keyin ham gadolik qilgudek bo'lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar, yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatimdan yo'qoladi.

RAIYATDAN MOL-XIROJ OLISH, MAMLAKATNI TARTIBGA KELITIRISH VA YUKSALTIRISH, UNING OBODONCHILIGI, XAVFSIZLIGINI AMALGA OSHIRUVCHI KISHILAR TUZUGI

Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga

³³⁷ Imom Abu Xanifa (to'la ismi Abu Xanifa an-No'mon ibn Sobit) - Xanafiya mazhabining asoschisi; fikh olimi (699-767).

³³⁸ Imom Muso Kozim - shialarning yettinchi imomi (799 y. vafot etgan.).

³³⁹ Madoin - Bag'doddan 65 chaqirim janubi-sharqda joylashgan qadimiy shahar.

solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish [davlat] xazinasining kambag'allanishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishigasabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi.

Yana buyruq berdimki, har bir mamlakat fath etilsa yoki jang dahshatlarisiz amnu omonlik tilasa, uning hosil va daromadlarini hisobga olsinlar.

Agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xaroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda [xirojni] tuzukka muvofiq yig'sinlar. Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, uzluksiz ravishda koriz³⁴⁰, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin yerlarni hisobga olsinlar va unday yerlardan olingan hosilning [uchdan] ikki hissasini raiyatga, [uchdan] bir hissasini saltanat xazinasini uchun olsinlar.

Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlardan beriladigan soliqni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi hisoblangan g'allaning mazkur davrdagi narxiga muvofiq belgilasinlar. Narx-navoga muvofiq olingan aqchani sipohga yetkizsinlar, Bordiyu raiyat hosilni uchga ayirishga rozi bo'lmasa, u chog'da hisobga olingan ekin yerlarni birinchi, ikkinchi va uchinchi jarib³⁴¹ ekin yer qilib ajratsinlar. Birinchi jaribdan [olingan hosilning] uch xarvori³⁴², ikkinchi jaribdan - ikki xarvor, uchinchi jaribdan bir xarvorini yig'ib olsinlar. Buning yarmini bug'doy, yarmini arpa hisoblab, hosilning yarmini olsinlar. Agar raiyat bu yo'sinda soliq to'lashga rozi bo'lmasa, u holda bir xarvor bug'doyiga besh misqol³⁴³ kumush, bir xarvor arpasiga ikki yarim misqol kumush miqdorida narx qo'ysinlar. Yana qal'a foydasiga

³⁴⁰ Koriz - yer osti suvlarini tortib chiqarish uchun qurilgan inshoot.

³⁴¹ Jarib - sath o'lchovi. Bir jarib 3600 kv. gazga, yani taxminan bir tanobga teng bo'lgan.

³⁴² Xarvor - bir eshak ko'tarishi mumkin bo'lgan yuk; 103-150 kilogr. atrofida bo'lgan.

³⁴³ Misqol - og'irlik o'lchovi; o'sha zamonda bir misqol 4.235 gr.ga bo'lgan.

beriladigan tortiqni ham bunga qo'shib qo'ysinlar. Shulardan boshqa, qo'shimcha tarzda, ulardan hyech qanday oliq-soliq talab qilmasinlar.

Bulardan tashqari kuzgi, bahorgi, qishki va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil raiyatning o'ziga bo'lsin. Lalmikor yerlarni esa jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu yerlardan [soliq olishda] uchdan bir va to'rtidan bir qoidasiga amal qilsinlar.

Har shahar va har yerdan olinadigan jon solig'i, kasb-hunardan hamda o'tloq va suvloqdan olinadigan soliqni to'plashda qadimdan kelgan tartib-qoidaga amal qilsinlar. Bordiyu bunga raiyat rozi bo'lmasa, bori-bo'lganicha ish tutsinlar.

Amr qildimki, hosil pishib yetilmasdan burun raiyatdan molu jihat olinmasin. Hosil yetilishiga qarab, soliqni uchga bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yubormasdan, soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u yerga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq-soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar; kaltak, arqon ishlatib, ishni urish-so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni bog'lab, zanjir bilan kishanlamasinlar.

Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hyech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili [esa oliq-soliq] qonun qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar.

Yana buyurdimki, agar [har yer va elning] amaldorlari va kalontarlari oddiy fuqaroga jabr-zulm qilsa va shu orqali bechoralarga zarar yetkizgan bo'lsa [bunday vaqtlarda] yetkazilgan zararni kalontarlardan undirib, jabr ko'rganlarga bersinlar, toki ular yana o'z hollariga kelsinlar.

Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu, [lekin] obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblardan kerakli narsalar bersinlar, toki o'z yerini obod qilib olsin.

Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar

qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga yangi ko'priklar qursinlar, yo'l ustida har manzilga rabotlar qursinlar. Yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar mollarini g'aflat bosib, o'g'irlatib qo'ymasliklarining vazifasi o'shalarning zimmasida bo'lsin.

Yana amr etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona³⁴⁴ solsinlar, kasallar uchun qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar. Har bir shaharda saroy va qozixona qursinlar. Va raiyat va ziroatni qo'riqlovchi qurchilar³⁴⁵ ham tayinlasinlar.

Yana har o'lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Bulardan biri raiyat uchun bo'lib, undan yig'iladigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to'lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig'ilgan mablag'ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqaradi. Sipohgaberilgan vaberilishi lozim bo'lgan mablag' hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo'qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo'l bilan yig'ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulki, vorissiz mol-mulkni, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin.

Yana amr etdimki, o'lganlarning mollarini o'z vorislariga yetkazsinlar. Agar vorisi yo'q bo'lsa, uni xayrli ishlarga sarf qilsinlar yoki Makkayi muazzamaga yuborsinlar.

³⁴⁴ Langarxona - yo'lovchilar qo'nib o'tadigan yer; miskin va yetim-yesirga taom beriladigan joy; g'aribxona.

³⁴⁵ Qurchi - qurol ko'tarib yuruvchi; podshoh, xan, sulton va amirlarning shaxsiy qo'riqchisi. Bu yerda raiyat va ekinzorlarni qo'riqlovchi harbiy bo'linma.

JANGU JADAL, URUSH MAYDONIGA KIRISH, QO'SHINNI SAFLASH VA G'ANIM LASHKARINI SINDIRISH TUZUGI

Amr etdimki, agar g'anim [lashkari] soni o'n ikki ming otliqdan kam bo'lsa, bu urushda amir ul-umaro [qo'shinimga] sardorlik qilsin. Aymoq va tumanlardan o'n ikki ming otliq unga hamroh bo'lsin. Mingboshilar, yuzboshilar va o'nboshilarni ham o'ziga hamroh qilsin. G'anim lashkariga bir manzil³⁴⁶ yo'l qolguncha yurish qilib, dushman bilan ro'baro' kelgach, menga xabar yuborsin.

Yana amr qildimki, o'shal o'n ikki ming otliq askarni to'qqiz qismga bo'lsinlar, ushbu tartibda; qo'lda bir qism, barong'orda uch qism, javong'orda uch qism, hirovulda - bir qism va qorovulda - bir qism tursin. Barong'orning o'zi hirovul, chopovul va shiqovul³⁴⁷ dan iborat bo'lsin. Shunga o'xshash, javong'or ham, hirovul, chopovul va shiqovuldan iborat bo'lsin.

Va buyurdimki, amir ul-umaro urush maydonini tanlashda [quyidagi] to'rt narsani nazarda tutsin. Birinchisi - u yerning suvga yaqin-uzoqligi. Ikkinchisi - askar saqlaydigan yerni. Uchinchisi - g'anim lashkari turgan yerdan teparoqda bo'lishi va oftobga ro'baro' bo'lmasligini, toki quyosh shulasi sipohiyalar ko'zini qamash-tirmasin. To'rtinchisi - urush maydoni oldi ochiq, keng joy bo'lishi lozim.

Yana amr etdimki, urushdan bir kun oldin lashkarni safga tizsinlar va tuzukka muvofiq uni qismlarga ajratib, dushman tomonga qarab yursinlar. Lashkar otlarining boshi ko'zlangan yo'nalishga qaratilsin va yurar yo'ldan chap yoki o'ng yoqqa burilmasin. Yanabuyurdimki, sipohiyalar ko'zi g'anim lashkariga

³⁴⁶ Bir kunlik yo'l.

³⁴⁷ Shiqovul (shiqovul) - qanotlar oldiga qo'yilgan maxsus harbiy qism; o'rduga kiravershda turadigan qo'riqchilar boshlig'i.

tushishi hamono, baland ovoz bilan «Allohu akbar!» deb takbir aytsinlar va suron solib, dushman cheriki ustiga bostirib borsinlar.

Lashkar nazoratchisi sardorning jang vaqtida xato qilganini ko'rsa, darhol uning o'rniga boshqa sardorni o'tirg'izsin. Amirlarga vasipohiylarga esamen unga ishonch bildirib bergan zafarnishon yorlig'ni ko'rsatsin.

Amr etdimki, sardor lashkar nazoratchisi bilan birga dushman sipohining oz-ko'pligini mulohaza etsinlar, sarkardalarini g'anim lashkar boshilari bilan solishtirsinlar. Shunga qarab, o'z sipohlarining kamu-ko'stlarini to'g'rilab, jangga hozirlasinlar. Yana o'z sipohining qurol-aslahalarini dushmanniki bilan taqqoslasinlar.

[Shuningdek], g'animning urush olib borish yo'llarini shoshmasdan, bir zayldami yoki shiddat bilan jangga kirishini kuzatsinlar. Yana g'animning jang qilish tartibini chamalab ko'rsinlarki, ular bor askari bilan bir yo'la ot qo'yib shiddat bilan turktoz yoki qism-qism bo'lib, ketma-ket hamla etadimi? Yana ko'rsinlarki, g'anim hamla qilgan vaqtda, jang qilib orqaga qaytib, keyin yana hamla qiladimi yoki birinchi hamla bilan chegaralanib, oxirigacha savalashadimi? G'anim agar orqasiga qaytmay jang qilsa, sipoh uning hamla bilan to'satdan yetgan zarbaga sabr-toqat qilib, oxirigacha turib berishi kerak. [Unda] shijoat bir soatlik sabr demakdir.

Amr qildimki, dushman urush ochmagunicha o'zlaricha jangga kirmasinlar. Yana amr etdim: dushman jang maydoniga kirgach, lashkar boshlig'i yosol³⁴⁸ daturgan to'qqiz sipoh qismiga jangga tushib, urush boshlashlari haqida buyruq bersin, chunki sipoh lashkar boshisining vazifasi jang vaqtida qo'rquvdan qo'l-oyog'i bo'shashib, sarosimaga tushmayin, buyruq berishdan iboratdir. U har bir sipoh qismini urush aslahalaridan biri deb bilsin va o'q-yoy, oybolta, qilich, gurzi, pichoq va xanjar kabi har bir qismni o'z o'rnini kelganda ishlatсин. Ishbilarmon lashkar boshi, o'zini

³⁴⁸ Yosol - qo'shin safi. Yosol tuzish - qo'shinni yurish, ko'rik yoki jang oldidan safga tizish.

vato'qqiz si pohiy bo'lagini bir tandek ko'rib, ularni qo'l-oyog'i, boshi, ko'kragi va boshqa a'zolarini ishlatib kurashuvchi bir pahlavondek hisoblasin. Shundagina, si pohiy qismlari ustigaketma-ket urilgan to'qqizta qilich zarbasidan keyin, to'qqizinch zarbada albatta yengilishiga umid qilsa bo'ladi.

Haqiqiy lashkarboshi avval g'anim ustiga hirovul favj bo'linmasini yuboradi, so'ngra yordam uchun ketidan barong'or hirovulini jo'natadi. Barong'or hirovuli ketidan esa javong'or hirovulini jangga tashlaydi. Shu tarzda dushman askari ustiga ketma-ket uch zarba tushgan bo'ladi. Bordiyu shu vaqt hirovullar g'animga qarshi kuchsizlik qilsalar, U holda barong'orning birinchi bo'linmasi ot qo'ysin, ketidan javong'orning ikkinchi qismini jangga tashlasin. Shunda ham zafar qozonilmasa barong'orning ikkinchi bo'linmasini jangga kiritsin, ketidan javong'orning birinchi qismini yuborsin. [Ular jangga kirgach], menga xabar jo'natib, keyingi buyruqlarimni kutsin. Shundan so'ng ollohning madadu inoyatiga tayanib, lashkarboshining o'zi ham jangga kirsin. Meni ham urush maydonida hozir deb bilsinlar. Ollohning yordami bilan g'animga sakkiz zarba yetgandan keyin, to'qqizinch zarbada dushman yengilib, fathu nusrat nasib bo'ladi.

To'g'ri sardor ulkim, u shoshma-shosharlik qilmay, [avval] lashkarini ishga soladi. Bordiyu lashkarboshining o'zi qilich chopishga majbur bo'lsa, iloji boricha o'zini o'limdan saqlasin, chunki lashkarboshining o'limi o'rduga badnomlik keltirib, g'anim lashkarining g'alabasiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, sardor aqlu tadbirkorlik bilan ish yuritib, shoshma-shosharlik qilmasin, chunki shoshqaloqlik shaytonning ishidir. Chorasi bo'lmagan ishga kirishmasin, chunki undan qutulib bo'lmaydi.

niyati va rejalarini, uning qay usulni qo'llab jangga kirmoqchi ekanligini seza bilishi va dushmanni o'sha tadbirni qo'llashiga to'sqinlik qila olishi kerak.

Chin sardor ulkim, qirq ming otliq sipohdan ushbu tartibda o'n to'rttasipohiy qism tuza oladi. Avval o'ziga qarashli saflarni tuzib, uni qul (g'ul) deb nomlasin. So'ngra barong'orning uch qismini tuzib, ulardan birini barong'or hirovuli deb atasin. Yana javong'orning uch sipohiy bo'lagini tuzib, ulardan birigajavong'or hirovuli deb ot qo'ysin. Shu tarzda barong'or qismlarining oldiga yana uch sipohiy bo'linmatuzib, ularni chopovul deb nomlasin. Shu uch qismdan birini esa chopovul hirovuli deb atasin. Shu tartibda yana uch sipohiy bo'linmatuzib, ularni javong'or oldiga qo'yib, uni shiqovul deb nomlasin. Bu uch qismdan birini esa shiqovulning hirovuli etib tayinlasin. Shundan so'ng qo'l qarshisida sinalgan, tajribali o'qchilar, qilichbozlar, nayzadorlar va bahodirlardan iborat katta hirovul tuzsinlar. Chunki hirovulning aynan shu favjlari qattiq suron solib yovni sindiradi.

Haqiqiy sardor ulkim, g'anim lashkarina kuzatib turadi va amirlardan qay biri buyruqsiz yurish boshlab, boshqalardan ilgarilab ketsa, unga tanbeh berishi lozim. Chin sardor dushmanning qay tarzda jangga kirishi va chiqishini nazaridan qochirmasin, toki g'animning o'zi urush boshlamaguncha jangga kirishga oshiqmasin. Yov jangga kirgandan so'ng, sardor ularning jang qilish usulini ko'rib o'rgansin, jang maydoniga qay tartibda kiradilar va chaqadilar, ularga qanday hujum etadilar, hamla qilgach ortlariga qaytadilarmi yoki vaqti bilan qochib, [keyin yana] fursat poylab qaytadan jangga kiradilarmi, [bularni kuzatab tursin]. Yana sardorga lozimdirki, [qattiq zarba yemay turib] yengilgandek qocha boshlagan yov ketidan quvlamasin, chunki ularning ortlarida kuchli yordamchi qo'shinlar turgan bo'ladi. Sardor shuni ham bilsinki, g'anim lashkari bor kuchi bilan bir katta to'pdek bo'lib hujum qiladimi yoki o'ngu so'l qanotini yozib, urush olib boradimi. Sardor avval ularga qarshi katta hirovul qismlarini ro'baro' qilishi va jangga tashlashi lozim. Uning ortidan katta hirovulga madad

tariqasida ketma-ket chopovul hirovuli va shiqovul hirovulini jangga kirgizishi kerak. Ularning orqasidan esa chopovulning ikkinchi qismi va shiqovulning birinchi bo'lagini jangga tashlasin. Agar g'animga yetkazilgan ushbu yetti zarbadan keyin ham g'alabaga erishilmasa, u vaqtda barong'or va javong'orning hirovulini jangta tashlasin, [bu bilan] g'animga to'qqiz zarba urilgan bo'ladi. Agar to'qqiz zarbadan keyin ham fathu zafar muyassar bo'lmasa, barong'orning birinchi qismi va javong'orning ikkinchi bo'linmasini urushga solsin. Agar shu o'n bir zarbadan keyin ham g'alabani daragi bo'lmasa, barong'orning ikkinchi qismi va javong'orning birinchi bo'lagi jangga tashlasin. Shu o'n uch zarbadan keyin yov yengilib, g'alabaga erishiladi, deb umid qilsa bo'ladi. Mabodo bu o'n uch zarbabilan ham fathu zafar hosil bo'lmasa, u holda qo'l sipohiy favjlarini urushga shaylab, o'zi ham ular bilan jangga kirsin va dushman ko'ziga o'zini tog'dek ko'rsatib, asta-sekin, tutashgan holda harakat qilsin. Urush bahodirlariga buyursinkim, qilichlarini yalang'ochlab hujum qilsinlar. O'qchilar esa vizillatib yoylardan qalin o'q yog'dirsinlar. Shunda ham fathu zafarga erishilmasa, sardorning o'zi jang maydoniga tushsin va mening [madad kuchlarim] va buyruqlarimni kutsin.

HIROVUL

Shiqovulning hirovul qismi
Shiqovulning birinchi qismi
Shiqovulning ikkinchi qismi

SHIQOVUL

Javong'orning hirovul qismi
Javong'orning birinchi qismi
Javong'orning ikkinchi qismi

JAVONG'OR

Chopovulning hirovul qismi
Chopovulning birinchi qismi
Chopovulning ikkinchi qismi

CHOPOVUL

Barong'orning hirovul qismi
Barong'orning birinchi qismi
Barong'orning ikkinchi qismi

BARONG'OR

QO'L (G'UL)

QIRQ MING OTLIQDAN ORTIQ SIPOH QISMLARINI SAFGA TIZISH TUZUGI

Shunday tuzuk bitdimki, agar yog'iy lashkari qirq ming otliqdan ortiq bo'lsa, beglarbegilar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar, bahodirlar va boshqa sipohiylar mening zafarli bayrog'im ostida bo'lsin va amru farmonmni kutsin.

Amr etdimki, qaysi bir sipohiy bo'linma amiriga yorlig' yuborsam, yorlig'dagi hukmimga binoan ish tutsinlar va unga xilof ish qilmasinlar. Beglarbegilardan yoki amirlardan birontasi hukmimga xilof ish tutib, undan chetga chiqsa, uni qilichdan o'tkazib, o'rniga «muntazir ul-amorat» hisoblangan o'rinbosarini qo'ysinlar.

Va [yana] amr qildimki, ulusot, qo'shunot, tumanotga tegishli qirq aymoqdan tamg'a olgan o'n ikkitasi qirq qismga taqsim qilinsin. Tamg'a olmagan yigirma sakkiz aymoq amirlari esa [o'z lashkarlari bilan birga] qo'l sipohiy qismining orqasida saf tortsinlar.

O'g'illarim, nabiralarim o'z bo'linmalari bilan qo'l qismining o'ng qanotdan saft tizsinlar. Qarindoshlarim va yaqinlarim esa o'z qismlari bilan qo'l qismining oldirog'ida chap qanotdan joy egallasinlar. Bular shay bo'lib tursinlar va qayerga madad yetkazish lozim bo'lsa, yordam beradilar.

Barong'orgaolti sipohiy bo'linmatayinlansin. Yanabir sipohiy qismni esa barong'or hirovuli sifatida belgilasinlar. Shunga o'xshash, javong'orda oltita qismdan saf tuzsinlar. Yana bir qismni bo'lsa, javong'or hirovuli qilib tayinlasinlar.

Amr etdimki, barong'or favjlarining oldidan oltitasi pohiy qism joylashtirsinlar va ularni chopovul deb nomlasinlar; boshqa bir qismni tuzib, uni chopovulning hirovuli qilib tayinlasinlar. Shuningdek, javong'or qismlarining oldiga qo'yish uchun ham oltitasi pohiy qism tayinlasinlar va ularni shiqovul deb atasinlar. Yana bir qism tuzib, uni shiqovul hirovuli qilib qo'ysinlar. Chopovul hamda shiqovul qismlarining oldiga tajribali amirlar va sinalgan bahodirlar boshchiligida oltita qismdan saf tuzib, katta hirovul qilib belgilasinlar. Bu olti qismdan bo'lak yana bir qism tuzib, uni hirovulning oldiga qo'ysinlar va hirovulning hirovuli deb nomlasinlar. [Lashkarining old qismida] hirovul hirovulining o'ng va so'l qanotiga qorovulbagini, barcha birodarlarimdan iborat sipohiy qismlari bilan birgaqo'ysinlarkim, ular kuzatib tursinlar.

Yana amr qildimki, o'sha qirq qism amirlari, mening yorlig'im yetib bormaguncha, jangga kirmasinlar va navbat yetmaguncha joylaridan jilmasinlar, lekin jangga shay bo'lib tursinlar. Jangga kirish haqidagi buyruq olingach, yovning vaziyatiga qarab, so'ng jangga kirsinlarkim, g'anim qaysi yo'ldan jangga kirsam, uning yo'lini to'ssinlar va dushman to'sgan har yo'lni chorayu tadbir ishlatib ochsinlar.

Amr qildimki, hirovulning hirovuli jangga kirgandan keyin olti qismlik hirovulning amiri o'z bo'linmalarini birin-ketin jangga tushirsinki, g'anim ustiga ketma-ket olti zarba berilgach, ularning saflari buzilib, kuchlari sindiriladi. Shu payt o'ng qo'l chopovul amiri o'zining olti bo'linmasini birin-ketin yordamga yuborib,

orqasidan o'zi ham hujum qilsin. Shuningdek, shiqovul amiri o'zining olti sipohiy qismini oldindaturgan bo'linmalargayordamga yuborsin. Ularning orqasidan o'zi ham [jang maydoniga] yetib borsinkim, ollohning madadu inoyati bilan, g'anim ustiga sakkiz zarba urilgach, ularning kuchlari sinib, orqaga chekinadilar. Dushman bu zarbalarni yegandan keyin ham bo'shashmasa, barong'or va javong'or amirlari o'z hirovullarini jangga kirgizsinlar. Shu tariqa ikkala hirovul qismi o'ng va chap qanotdan urush ochgach, yov albatta bardosh berolmay, kuchi sinadi. Agar shundan keyin ham g'anim yengilmasa, barong'or va javong'or amirlari o'z sipohiy qismlarini uning ustiga yuborsinlar. Agar barong'or va amirlari zafarli askarlari ham yovni yenga olmayotganligini ko'rsalar, o'zlari dushmanni yengish uchun jangga kirsinlar. Shunda ham barong'or va javong'or [g'animni yengishga] ojizlik qilsalar, barong'orda bo'lgan amirzodalar va javong'orda turgan qarindoshlarim, g'anim ustiga shiddat bilan bostirib borsinlar. Bularning ko'zlari yov sardorida va bayrog'ida bo'lsin va shijoatu mardlik bilan g'anim saflarini buzsinar; sardorni qo'lga tushirishga intilsinlar va dushman bayrog'ini yerparchin qilishga harakat qilsinlar. Agar shu zarbalardan keyin ham g'anim chekinmay, o'rnida u holda qo'lning saralangan qismlari va bahodirlari, qo'l qismlari ortida saf tortib turgan uluslarning lashkari, barchasi barobariga shiddat bilan dushman ustiga tashlansinlar. Agar shunda ham fathu zafar qozonmasalar, sultonning o'zi sheryuraklik va baland himmatlik bilan harakat qilsin. Chunonchi, qaysar bilan bo'lgan jangda shunday qildim: amirzoda Mironshoh o'ng qanotning sardori edi. Unga qaysarning chap qanoti ro'baro'si va yonidan jangga kirishni buyurdim. Chap qanotning amirlari: amirzoda Sulton Mahmudxon³⁴⁹ va amir Sulaymonga esa yorlig' yuborib, qaysarning o'ng qanotiga hujum qilishni buyurdim. O'ng qanotimdagi amirzoda Abubakrga esa tepalik ustida turgan Yildirim qaysarning qo'l qismiga turktoz qilishni

³⁴⁹ Sulton Mahmudxon - Chig'atoy ulusining Temur davridagi ikkinchi hukmdori (1388-1402). Birinchi hukmdor Suyurg'atmishxon (1370-1388).

buyurdim. O'zim esa qo'l bo'linmalari va ulus, aymoq lashkarlari bilan qaysar tomongayurdim. Qaysarning sipohiy qismlari birinchi hamladayoq yengildi. Sulton Mahmudxon [qochayotgan] qaysarning ketidan quvib, uni qo'lga tushirdi va mening dargohimga olib keldi³⁵⁰.


To'xtamishxonni ham shu tuzuklarni qo'llab yenggan edim. Uning bayrog'ini esa yertuban qilishni buyurgandim.

Agar yov bostirib kelib, chopovul, shiqovul, barong'or va javong'or qismlarini mahv etib, lashkarning qo'l qismiga yetar ekan, u chog'ida sulton shijoat oyog'ini sabr uzangisiga mahkam tirab, dushmanni daf qilib yo'qotish uchun oldinga tashlansin. Chunonchi, men Shoh Mansur³⁵¹ bilan bo'lgan jangda shunday qildim. U turgan yerga yetib oldim va u bilan yuzma-yuz to'qnashdim, toki uni halokat tuprog'iga qormagunimcha urushdim.



³⁵⁰ Boyazid Yildirimning asir olinishi voqyeasi 1402 yilning 20 iyul kuni sodir bo'lgan.

³⁵¹ Mansur - Janubiy Eron ustidan 1314-1393 yillari hukm yurgizgan Muzaffariya sulolasidan chiqqan podshoh (1387-1393).



MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

AMIR TEMURNING NOMI, QADR-QIMMATI VA XOTIRASINING O‘RNIGA QO‘YILISHI

Toshkentda haykalning o‘rnatilishi.....	8
Temuriylar tarixi davlat muzeyining ochilishi.....	10
Samarqandda haykal o‘rnatilishi.....	15
Shahrisabzda haykalning qad ko‘tarishi.....	18

XIII ASRLARDA MO‘G‘ULLAR TAJAVUZI VA HUKMRONLIGIGA QARSHI KURASHLAR

Xorazmshohlar saltanatining ahvoli.....	
Mo‘g‘ullarning harbiy yurishlari.....	31
Temur Malik boshchiligidagi kurash.....	36
Buxoro, Samarqand va Ko‘hna Urgenchdagi janglar.....	38
Vatan uchun jonini tikkan Jaloliddin.....	48
Mahmud Tarobiy – ozodlik kurashchisi.....	

XIV ASRNING 60-YILLARIDA OZODLIK KURASHLARINING AVJIGA MINISHI

Amir Temur xalq xaloskori.....	60
YO ozodlik yo o‘lim.....	65

AMIR TEMUR TOMONIDAN MO'G'ULLAR HUKMRONLIGINING QO'PORILISHI

Vatan mustaqilligining tiklanishi.....	72
Harbiy yurishlarning mohiyati va yo'nalishi.....	82
Davlat mafkurasi.....	94
Oliy fazilatlar sohibi va xalqparvar hukmdor.....	102
Oltin O'rdaga zarba berilishi.....	111
Qur'oni karim asl nusxasining keltirilishi.....	122
Amir Temurning so'nggi yillari va vafoti.....	128
Sohibqiron sevgan nevara.....	142
Amir Temur saltanati ispan elchisi nigohida.....	146
Amir Temurning «oqlash» harakati yohud olimning ilmiy jasorati.....	165

TEMURIYLAR DAVLATINING AG'DARILISHI VA FOJIASI

Shayboniylar bosqini.....	176
Xonliklar davridagi inqiroz va qoloqlik.....	187
Paranji va giyohvandlik fojiasi.....	194
Diniy fanatizm va uning talofati.....	196
Illova.....	205

«Tarixiy adabiyotlarni nashrga tayyorlash va chop etish bo'yicha expert guruhi»ning 25.01.2008 y. № 1451/1-2-97 xulosasiga binoan tarix fanlari doktori H. Ziyoyevning asarlarini lotin imlosida qayta nashr etishni tavsiya qiladi.

Hamid Ziyoyev

**BUYUK AMIR TEMUR SALTANATI
VA UNING TAQDIRI**

Toshkent «Ma'naviyat» 2008

Muharrir: *O. Bozorova*

Musavvir: *M. Aglyamov*

Tex. muharrir: *T. Zolotilova*

Musahhih: *Sh. Muxiddinova*

Kompyuterda tayyorlovchi: *G. Otaskiyvich*

Terishga 08.10.2007 yilda berildi. Bosishga 05.06.2008 da ruxsat etildi. Bichimi 84x108, Tayms garniturası. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 7.14. Nashriyot t. 8.1, 3000 nusxa. Buyurtma № 225. Narxi shartnoma asosida.

**«Ma'naviyat» nashriyoti, Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy.
Shartnoma 13-08**

**O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, Shayhontovur ko'chasi, 86-uy, 2008**

ISBN 978-9943-04-061-8

9789943040618

